2024-yil, dekabr 20-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

8 DEKABR

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun



Halim SAIDOV,
filologiya fanlari doktori, professor

“SAYOHATNOMA”DA FAKTLARDAN FOYDALANISH MASALALARI

Annotatsiya: maqolada mashhur publitsist Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sayohat xotiralari” yo‘l ocherki obyekt sifatida tanlangan. Unda faktlardan foydalanishning o‘ziga xosliklari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *yo‘l ocherki, janr, fakt, tahlil, “Oyina”, jurnal, jadid, mahorat.*

Аннотация: в статье выбран как объект иследования очерк известного узбекского публициста Махмудхужа Бехбудий “Саехат хотиралари” («Заметки путешественника»). В нем исследуется особенности использования фактов.

Ключевые слова:*путевой очерк, жанр, факт, анализ, “Ойина”, журнал, Джадид, мастерство.*

Annotation: the article had choosen as object researches the famous journalist Mahmudoja Behbudiy’s travelstori named “Sayohat xotiralari” (The story of traveler”).In article researches particularly harnessed fakts on journalistik composition.

Key words: *road sketch, genre, facts, analysis, Oyina magazine, jadid, skill.*

Ulug‘ ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodida sayohat mavzusi alohida o‘rin tutadi.Ular orasida haj safarining katta miqdordagi axborotni o‘z ichiga olgani, qolaversa, publitsistning dunyoni anglashi, faktlardan foydalanishi, tahlili, qiyosi, munosabati kabi jihatlari bilan ahamiyatlidir. Negaki, 1899-yilda amalga oshgan birinchi safar uning dunyoqarashini butkul o‘zgartirib yuboradi. Alloma bu sayohati haqida maxsus maqola yozmagan bo‘lsa-da, 1914- yildagi safar taassurotlarini yozishida asos bo‘lgan.Holbuki, u paytda Behbudiy jurnalistik faoliyatga kirishmagan davr edi.Lekin diniy nuqtayi nazardan qaraganda, “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) darsliklarini yaratishda birinchi haj ziyoratining o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Behbudiy safarnomasini o‘qigan soddaroq inson uning “dunyo kezib, ba’zan rohatlanib, ba’zan azoblanib kelgan”ini anglasa, chuqur tahlil sohibi bo‘lgan ziyoli inson batamom o‘zgacha xulosalar chiqaradi. Masalan, taniqli jadidshunos olim, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurovning “Behbudiy shaxsiyati — xalqimizning vijdoni, ori” maqolasida “...uning 1914-yilda yozgan va bobma-bob “Oyina” jurnalida bosilib chiqqan “Sayohat xotiralari” asari juda katta va o‘lmas qimmatga egadir... Biz Mahmudxo‘ja Behbudiy shaxsiyatining ayrim nozik qirralari haqida so‘ylamoqchi bo‘lib turamiz. Ularni uning asarlari va ayniqsa “Sayohat xotiralari”dan xuddi har yerga sochib ketilgan oltin zarralari kabi axtarib topamiz. Ko‘p zamonlar ularga unchalar e’tibor bermay o‘tib ham ketamiz. Chunki oltin zarralari hayot tuprog‘i bilan aralashib yotadi. Ilg‘ab olgangina, oladi”. (https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-gafurov-behbudiy-haqida.html)

I.G‘afurov ta’kidlagan oltin zarralarni qanday ilg‘ab olamiz? Ular nimalarda aks etgan? Publitsistning dunyoqarashini, voqea-hodisalarga munosabatini qaysi mezon bilan aniqlaymiz, buning uchun uning yashagan zamonini qanday mezon asosida o‘lchaymiz? Bu kabi savollar naqadar murakkab bo‘lmasin ularga “Sayohatnoma”dagi faktlar, qiyoslar, tasvirlar, fikrlar va boshqa detallar talqinida javob berishga harakat qilamiz.

Buning uchun dastlab “Sayohat xotiralari” asari janriga aniqlik kiritish zarur. Negaki, olimlar tadqiqotlarida ular farqlanadi. Masalan, filologiya fanlari doktori, professor B.Qosimovda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sayohat xotiralari” janri haqida shunday fikr bor:

“Sayohat xotiralari har jihatdan g‘oyat muhim bo‘lib, ...ham ma’rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyatda muhim. U adabiyotimizdagi an’anaviy tarixiy-memuar janrining XX asr boshidagi o‘ziga xos namunasidir”.

Marhum ustozning bu ko‘chirmasidan “adabiyotimizdagi an’anaviy tarixiy-memuar janr” degan joyini olib tahlil qilishga harakat qilib ko‘ramiz. Albatta, Begali Qosimov adabiyotshunos bo‘lganliklari uchun “Sayohat xotiralari”ga shu nuqtayi nazardan qaraganlari bor gap. Aslida manbalarga murojaat qilsak ham shunday xulosaga kelamiz. Masalan, “TARIXIY JANR, tarixiy mavzudagi asarlar — adabiyot va san’atdagi asosiy janr yoki mavzulardan biri; tarixiy o‘tmish mavzusida yozilgan asarlar turkumi” deyiladi https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tarixiy-janr-uz/ saytida. E’tibor qilinsa, bunda adabiyot va san’atdagi janr haqida fikr yuritilayotgani ma’lum bo‘ladi.

Biroq jurnalistika adabiyotdan ajralib chiqdi. Ikkinchidan, undagi janrlar ham o‘ziga xos qoidalarga amal qila boshladi. Uchinchidan, Behbudiy sayohatnomasida voqea-hodisalar jarayonda kechmoqda.

Jurnalistikamiz tarixining bilimdoni filologiya fanlari nomzodi, professor B.Do‘stqorayevda bu asar janri haqida shu fikrga monand to‘xtam bor: “Behbudiy hazratlari “Sayohat xotiralari” sarlavhali yo‘l ocherkida musulmon davlatlaridagi beqiyos san’at durdonalari darajasiga yetgan imoratlarni ko‘rganida o‘zini chulg‘agan hayrat va iftixor tuyg‘ularini oshkora bildiradi, bunday noyob obidalarni dindoshlari – musulmonlar yaratganidan faxrlanadi” (Do‘stqorayev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi: darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 380 b.). Demak, “Sayohat xotiralari” jurnalistikadagi yo‘l ocherki janri sifatida talqin qilinmoqda.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Akbar Nurmatov esa o‘z tadqiqotida “Sayohat xotiralari”ga sof jurnalistik asar sifatida qaraydi: “Safarnoma (yo‘l ocherk)lar – publisistik janrlarning eng “qadimiy” ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Nomining o‘ziyoq uning xususiyatini

ko‘rsatib turibdi. U muallif tomonidan bosib o‘tilgan yo‘l, safar haqidagi tasvirlardan tashkil topadi” (https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/article-383-3771.pdf).

Shunday bo‘lsa-da, internet (https://ru.wikipedia.org/wiki/Мемуары”) manbasidagi “Tarixiy adabiyot, xotiralar (fr. mémoires) — muallif ishtirok etgan yoki unga tanish bo‘lgan odamlar, guvohlardan ma’lum bo‘lgan voqea-hodisalarni hikoya qiluvchi yozishmalardir”, degan fikrni ham inobatga olib, har bir tadqiqotchining asar haqida o‘z talqini bo‘lishi mumkin deymiz. Biroq biz uni B.Do‘stqorayev va A.Nurmatov kabi publitsistik janr sifatida quyida tahlil qilamiz.

Asarning nomlanishida “xotira” degan so‘z uchrasa-da, uning yo‘l ocherki ekaniga birinchi dalil shundaki, muallif uni sayohatdan qaytgach xotirlagan emas, balki yo‘lda yozgan. Bu haqda ocherkda alohida ta’kid bor: “To‘rt kecha, to‘rt kunduzni Yofada o‘tkarmoq ko‘p garon edi. Maa fiyhi hamshahriylarni navozishlari soyasinda xafa bo‘lmaduk va bekorlikda sayohatnoma maktublaridan bir nechasini yozib, “Oyina”g‘a yuborduk” (“Oyina” jurnali, 1914-yil 5-son).

Iqtibosdan Behbudiy sayohat fursatidagi bo‘sh vaqtdan foydalanib, yo‘l kechinmalarini yozib, Samarqandga, “Oyina” jurnali tahririyatiga jo‘natganligi ma’lum bo‘lyapti. Shuningdek, dunyo jurnalistlari qo‘llagan publitsistik janr nomlanishiga ham sha’ma bor. Xususan, Behbudiy yozib jo‘natganlarini sayohatnoma deb atamoqda. Bugun inglizzabon nashrlarda “travel journalism” (“sayohat jurnalistikasi”) keng qo‘llanilmoqda. Albatta, bu atamaning izohida ayni paytdagi rivojlangan texnologiyalarning o‘rni nazarda tutilgan bo‘lsa-da, mohiyatan jurnalistning sayohati tafsilotlari hisoblanadi.

Mavzuni ochib berishda Behbudiy faktlardan juda mahorat bilan foydalanadi. Faktga borliq, mavjud holat elementi nuqtayi nazaridan qarasak ocherk ular asosida yozilganiga guvoh bo‘lamiz.

Masalan, Ashxabod shahrida bo‘lib turganda turkman-rus jangida ruslarning g‘alabasiga bag‘ishlangan muzeyga boradi.Uni kuzatarkan turkman shijoatini alqaydi. Lekin ayni fursatda muzeydan tashqarida ko‘rgan mavjud holatni shunday xulosalaydi: “Yo‘l ustindagi turkmanlarni boshidagi uzunligi uch yarim qarishdan ziyoda telpagidan boshqa ko‘rgu yeri yo‘q, faqat hanuz belida aksariyat ila xanjari bordur. Ammo alar xanjar o‘rniga qalam tutush zamoni kelganini bilmaydurlar. Ko‘z oldidagi madaniyat asari bo‘lgan shahar va otasharobadan ibrat olmaydurlar” (“Oyina” jurnali, 1914-yil 34-son).

Quyidagi fakt esa arab yerlarida islomning majburiy emasligiga isbot tariqasida keltirilgan. Lekin barcha millatlar dinidan qat’iy nazar mamlakat tili sifatida arabiyda suhbatlashishi, milliy odatlarga xilof kiyinmasligi, eng asosiysi, boshqa din vakillarining himoyalangani ta’kidlangan:

“Shom va Quddusdagi qadima shahari arab nasoro va yahudiylarning xotunlari ham satr ila yurub, ammo qishloqlarg‘a xoh musulmon va yo boshqa bo‘lsun satr yo‘qdur. Suriya va Shomning musulmon, nasoro va yahud xalqi tamoman arabi so‘zlab, xat va hatto, ibodatiyu injil va ismlari ham arabiydur. Arab madaniyati, arab saltanati mundagi har nav’ xalqni o‘zig‘a jazb etib, ammo 1300 sanadan beri aslo bularni aqida va vijdoni milliylarig‘a tasarruf etmaydurki, bul Qur’oni Karimni boshqalarning dinu vijdonini ozod qo‘yganidan va umaroi islomiyaning g‘ayridinlarni himoya etganlaridandur”. (“Oyina” jurnali, 1914-yil 47-son).

Narx-navo, iqtisodiy atamalar ham yo‘l ocherkida ko‘p uchraydi. U o‘quvchiga qaysi davlatda yashash arzon yoki qimmatligini ko‘rsatib beradi va hushyor jurnalxon ularni o‘z yurtidagi holat bilan qiyoslaydi. Shom shahrida bo‘lganida yozib olgan moliyaviy raqamlarga e’tibor qaratamiz:

“Shomning markazidan har tarafig‘a 2 xat elektrik tramvay ila ketar va har yerdagidek bu tramvay beljiklarnikidur (belgiyalik – tah.). Bayrut ila Shom arosinda 12 soatlik temur yo‘li nemis shirkatig‘a bo‘lub, 2-darajasi 4 so‘m 60 tiyin, 3-si 3 so‘m 20 tiyindur. Shomdan yana bir temur yo‘l Halab tarafinda ishlamoqda va ushbu yo‘l Bag‘dodg‘acha ishlanmoqda va nemislar qo‘lindadur. Shomdan yana bir temur yo‘li Hayfog‘acha uzayib, Hijozi mag‘firat Taroz temur yo‘lig‘a qo‘shulub, bu yo‘l turklarni o‘z qo‘lig‘adur”.

“Qishloq arablari boshig‘a ipaklik va yo paxtalik katta ro‘ymollar solib, ustidan qaro jundan va yo ustinda guloba to‘nlik chiltor bog‘laydurlar.

Ushbu qars va chiltor bir so‘mdan 50 so‘mg‘acha bordur. Ustidan kiyadurgon jun abo muslihlari-da 3 so‘mdan 100 so‘mg‘acha bordur.

Shomni ipaklik atlas va olacha va ip matolari eng a’lo bo‘lub, bir libosligi 2 so‘mdan 30 so‘mg‘acha bordur. Munda qattig‘ yig‘ochlarg‘a sadaf va najaf toshi va aqiq ishlamalik uy asboblari, ya’ni mebel, kursi, sandal, oyna, miz — ustul, dastcho‘p — polka, divan, lavh, nihoyat san’atlik romka — chorcho‘balar va sepoyalar ko‘b ishlanib, Ovrupo va Amriqog‘a ketar ekan”.

“Ko‘chalarig‘a va har yerg‘a limo‘nat va har nav’ laziz muzlik sharbat va do‘ndurmalar ko‘p bo‘lub, katta bir qadahi 2 tiyindur”.

“Shahar ichinda bir murabba’ arshin yer 10 so‘mdan 100 so‘mg‘acha va yaqin bog‘chalarning 7 murabba’ gazi 10 tillo ekan”. (“Oyina” jurnali, 1914-yil 47-son).

Yo‘l ocherkida tarixiy faktlarning ham o‘z o‘rni bor. Behbudiy bunday faktlardan, ayniqsa, yuqorida nomi tilga olingan mashhur Masjid al-Aqsoni yoritish davomida unumli foydalangan. Tafsirchilarning ta’kidicha, Qur’oni Karimda mazkur masjid va u bilan bog‘liq jarayonlar yetmish marta keltiriladi.Bu qadamjo islom olamida juda qadrli ekanligi hadislarda (Buxoriy rivoyati) ham saqlanib qolgan.

Albatta, muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiy Qur’ondagi oyatlar, hadislardan xabardor bo‘lgan. Shu bois ocherkda Allohning kalomidan oyat keltirib, shunday yozadi: “Subhonallazi isro...” oyati sharifasi haqqinda nozil bo‘lgan Masjid al-Aqso muborakg‘a kirib, har shaydan avval ikki rakaat namoz o‘qub, munday muqaddas va

mutabarruk maqomlarga bandani yetkurgani uchun Allohi zuljalolg‘a tashakkur va arzi niyoz va ubudiyat etdim”. (“Oyina” jurnali, 1914-yil 51-son).

Masjid al-Aqso islom olami vakillari uchun Makka va Madinadagi Masjid al-Haromdan keyingi ulug‘ joy hisoblanadi. Shuningdek Payg‘ambarimiz Mahammad sollallohu alayhi vasallamning meroj kechalari bilan bog‘laydi. Isro kechasida bu joyda jamiki payg‘ambarlar Mahammad sollallohu alayhi vasallamning orqalarida turib namozga iqtido qilganliklari aytiladi.Darhaqiqat, manbalarda Odam alayhissalom qurganligi ta’kidlangan bu muqaddas masjidga qator payg‘ambarlar, xalifalar, imomlar kabi tarixiy shaxslarning tegishlilik jihatlari mavjud. Behbudiy ham bu faktlardan unumli foydalanadi.

“Sayohat xotiralari”dagi qiyoslar va tasvirlar alohida ilmiy maqolalar mavzusi. Shuningdek bu publitsistik asar siyosiy, iqtisodiy, tarixiy, ma’naviy-ma’rifiy, diniy, turizm va boshqa rakurslarda ham tadqiqotlarni kutib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, ulug‘ alloma Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sayohatnoma”si o‘zbek badiiy publitsistikasining betakror asari sifatida tarixda qolishi, shubhasiz.

Abdulhay SOBIROV,
filologiya fanlari doktori, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti professori,
sobirov-1957@ mail.ru;



Jahongir SIDDIQOV,
Andijon davlat Tillar instituti doktoranti
jakhongir@1707mail.ru

NOMLARNI TO‘G‘RI YOZISH – DAVR TALABI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek onomastikasining bugungi muammolari, jumladan, hozirda o‘zbek tilida yaratilayotgan korxona, muassasa, tashkilot nomlari, ularni to‘g‘ri qo‘yish, nutqda to‘g‘ri ishlatish va imlo qoidalariga mos ravishda yozish bo‘yicha fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Shuningdek, ingliz, rus, arab, usmonli turk tillariga oid so‘zlar ishtirokida yasalgan nomlardagi chalkash o‘rinlar ko‘rsatilgan. Bosh harflarning ishlatilishi, so‘z birikmalari tuzishdagi xatoliklar, chiziqchaning qo‘llanilishi bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarga ham baho berilgan.

Kalit so‘zlar: *leksikologiya, onomastika, onomastik nomlar, korxona nomi, tashkilot nomi, muassasa nomi, ingliz tili, rus tili, xorijiy so‘zlar, imlo qoidalari, to‘g‘ri yozish, imloviy xatolik, imlo qoidalari.*

Аннотация: в статье рассматриваются современные проблемы узбекской ономастики, в том числе названия предприятий, учреждений, организаций, создаваемых в настоящее время на узбекском языке, их правильное написание, правильное употребление в речи, написание в соответствии с правилами орфографии – высказываюстя мнения.

Также показаны ошибки в именах, составленных с участием слов, относящихся к английскому, русскому, арабскому, османско-турескому языкам. Также были показаны недостатки в употреблении заглавных букв, ошибки в построении словосочетаний, использовании дефисов.

Ключевые слова: *лексикология, ономастика, ономастические названия, название компании, название организации, название учреждения, английский язык, русский язык, иностранные слова, правила правописания, правильное написание, орфографические ошибки, правила правописания.*

Annotation: the article discusses modern problems of Uzbek onomastics, including the names of enterprises, institutions, organizations currently being created in the Uzbek language, their correct spelling, correct use in speech, writing in accordance with spelling rules – expressing opinions. Also shown are errors in names composed of words related to English, Russian, Arabic, and Turkish languages. They also showed shortcomings in the use of capital letters, errors in the construction of phrases, and the use of hyphens.

Key words: *lexicology, onomastics, onomastic names, company name, organization name, institution name, English language, Russian language, foreign words, spelling rules, correct spelling, spelling errors, spelling rules.*

Kirish. Bilamizki, geografik obyektlarni nomlash bilan tilshunoslikning onomastika bo‘limi shug‘ullanadi. Onomastika yunoncha *onomastike – nomlash, nom qo‘yish san’ati* so‘zidan olingan bo‘lib, ikki xil ma’noda qo‘llanadi: a) tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganadigan bo‘limi; b)

muayyan tilda mavjud bo‘lgan barcha atoqli otlar majmui [1:129-130].

Garchi atoqli otlar kundalik hayotimizda katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularning maxsus lug‘atlarga kiritilmagani, atoqli otlar ustida jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilmagani, atoqli otlarning milliy-mental jihatlariga shubha bilan qaralgani, iloji boricha sho‘rolar zamonida atoqli otlarni siyosiylashtirishga harakat qilingani va boshqa obyektiv, subyektiv sabablarga ko‘ra o‘zbek tili onomastikasi uzoq vaqtlar mobaynida tilshunoslikning boshqa sohalariga qaraganda oqsab keldi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ism-nom bilan bog‘liq ajoyib bir naql keladi: “*Al-asmou tanzilu min as-samo*” – arabcha: “*ismlar osmondan tushadi*” degan [2: 548].

Demak, har bitta nom ko‘kdan, Yaratgan Egamda insonlarga inar ekan. Shunga ko‘ra, tilimizda qo‘llanayotgan har bitta onomastik birlikka nihoyatda ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishimiz, uni qo‘llashda, yozishda sira xatoliklarga yo‘l qo‘ymasligimiz talab etiladi. Afsuski, bugun har qadamda joy nomlarini, xususan, korxona, tashkilot, muassasa nomlarini yozishda xatoliklar, har qadamda nuqsonlar, har qadamda ularga nisbatan bepisandlik holatlari ko‘zga tashlanadi...

Asosiy qism. Onomastik nomlarni tartibga solish yo‘llaridan eng muhimi, joy nomlarini o‘zbek tilining imlo qoidalariga ko‘ra to‘g‘ri yozish va hammadan shuni talab qilish sanaladi. Bu “Davlat tili haqida”gi Qonunda ham qayd etilgan, ammo joy nomlarini yozish ishlarida beparvolik, bepisandlik kayfiyati hamyurtlarimizga hamon halaqit bermoqda. Keyingi yillarda, yurtimizga chet el investitsiyasining jadal kirib kelishi natijasida o‘zbekcha nomlar o‘rnida chet tillarga oid nomlarni qo‘llash, davlat tili talablariga mutlaqo javob bermaydigan aralash ko‘rinishdagi onomastik birliklarni hosil qilish amaliyoti mamlakatmizning barcha hududlarida kuchayib ketdi. Korxona, tashkilot, muassasa nomlarining yasalish tamoyillarini, struktur jihatlarini, ishlatilish o‘rinlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish foydadan xoli emas.

Kuzatishlarimiz bu borada quyidagi xatoliklar va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganini ko‘rsatib turibdi:

1. Bosh harflarning noo‘rin ishlatilishi. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari“ning 69-moddasida “Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san’at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi“, – deb yozib qo‘yilgan. “*To‘raqo‘rg‘on Shirinlik Argo”, “Tergachi Baraka Bozori”, “Zibeg Kredit Invest”* mas’uliyati cheklangan jamiyati kabi nomlar tarkibidagi har bitta so‘zni bosh harf bilan ifodalash amaldagi imlo qoidalarga muvofiq emas.

2. “H” va «*x*» undoshlarini noto‘g‘ri yozish. Buni quyidagi korxona nomlarida ham uchratish ummkin.

“Zuxro nur”, “Adxambek tekstile”, “Mashxad fayz sanoat”, “Master Maxmudovs”, “Muxtasham stom servis”, “Mirshoxid”, “Zuxro shirin bolajon”, “Maxliyo MXM” kabi nomlarda bo‘g‘iz undoshi “*h*” o‘rnida chuqur til orqa undoshi “*x*” yozilgan; “*Dilhon tex*”da esa aksincha bo‘lgan. Bunday xatoliklar aholining yozma savodxonligini oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ergonimlar aksariyat hollarda vizual ifodalanadi va ular yozilgan yozuv insonlar xotirasida uzoq saqlanib qolishi mumkin.

3. Portlovchi, chuqur til orqa, jarangli «q» **o‘rnida sayoz til orqa, portlovchi, jarangsiz** «k» **undoshini ishlatish:** “*Mingbulakneft*”, “*Mustafo savdo kurilish*” va h.k.

Bu kabi holatlarni rus tili ta’sirida yoki shu yozuvni yozishda mutasaddi bo‘lgan shaxslarning e’tiborsizligi tufayli yuzaga kelgan deb hisoblasak bo‘ladi.

4. Sonlarni noto‘g‘ri qo‘llash: *“555 apteka”,“Bunyodkor 3”, “Okean-2020”, “Akramxon 622“* va h.k.

5. Noo‘rin qisqartmalardan foydalanish: *“A.S.V. Sustem”, “Doktor A”, “Do‘stlik A”, “Ulug‘-B”, “Bukva A” , “Marmar-F”; “UzChasis”* kabi.

6. Noo‘rin so‘z birikmalari yasash: *“Antik asl charm”, “Lazzat Marjona”, “Afro‘z Kamol Nabi”, “DavoNur”, “Ibrat temir beton”* va h.k.

7. Noo‘rin so‘z birikmalari yasash: *“QA &Bahtiyar. Q“, “Halal Travel“, “Shorva hause”, “Somsa hause”, “Shoxsomsa”, “Mazza food”, “Ankabud sanoat savdo”, “Ixvola tekstil impeks”, “Jalalitdin sanoat savdo”, “Brandstroy”* va h.k.

8. Chiziqchani noto‘g‘ri qo‘yish: *“Diyor-il servise“, “Master-Maxmudovs“, “Santex-dizayn“, “Sof-dil farm“, “Shox-bekat bozori“* MCHJ kabi.

9. Ruscha so‘zlarni noto‘g‘ri yozish.

Tan olish kerak, rus tili uzoq vaqtlar mobaynida o‘zbek tili uchun donor til vazifasini o‘tadi. Yevropa tillaridan kirib kelayotgan so‘z va tushunchalarning o‘zbek tiliga kirib kelishida “ko‘prik” bo‘ldi. Bu rus tilining ona tilimizga ko‘rsatgan ijobiy ta’siri sanaladi. Lekin, bugun dunyoning lisoniy manzarasi tamoman o‘zgargan. Milliy tillarning aksariyati to‘g‘ridan to‘g‘ri yetakchi va o‘z mavqeyidagi tillar bilan muntazam aloqaga kirishmoqda.

Ma’lumki, rus va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi til aloqalari bir yarim asrlik tarixga ega. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalardagi aloqalar rus tili va u orqali yevropa tillaridan ko‘plab so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashishiga sababchi bo‘ldi. Joy nomlarini atashda ham rus tili ustuvorlik ahamiyati kasb etdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, korxona, tashkilot, muassasa nomlari ichida rus tili ishtirokida yasalgan birliklar anchagina miqdorni tashkil etadi. *“Yantar”, “Malinka”, “Lakomka”, “Raduga”, “Zvezda avia dolina”, “Mir matrosov”, “Santexnika optom”* kabi nomlar shular jumlasidan [3: 92].

10. Ingliz tiliga oid leksemalar ishtirokida yasalgan nomlarni xato yozish.

Bugungi taraqqiyot davlat yoki millatni tanlamay qo‘ydi. Qaysi mamlakat yoki millat o‘z ilm-fani, texnikasini

rivojlantirayotgan bo‘lsa, o‘sha davlat dunyo miqyosida liderlikni qo‘lga kiritmoqda. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bu borada inglizzabon davlatlar oldingi o‘rinda turibdi. Dunyo bo‘ylab tarqalayotgan axborotlarning 80 foizi ingliz tili chekiga tushmoqda [4:15]. Tilimizga kirib kelayotgan ilm-fan, texnika sohasiga oid so‘zlarning aksar qismi inglizcha leksik birliklardan iborat. Ustiga-ustak ularni yana noto‘g‘ri yozamiz.

Inglizcha nomlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

a) inglizcha bir asosli nomlar: *“Medlen”, “Elpa”, “Roshen”, “Womma”, “Fendi”* va h.k. Balki, bu nomlar ingliz tilida o‘ziga xos ma’nolarni anglatar, brend sanalar, ammo ularni ko‘zga ko‘rinarli do‘konlar, ofislar, magazinlar peshtoqiga inglizcha qoidalar bilan yozib qo‘yish ona tilimiz taqdiriga qanchalik ta’sir qiladi, bilmadik [5:8].

b) inglizcha ikki asosli nom: *“Grand shedevr”, “Kid Kamila”, “Golden ring”, “RollerMoller”, “Mega Tekstil” , “Twix market”, “Mustang shoes”, “Boss Milk”, “Shedevr Plaza”, Traewell International”, “The Best salon”* – bular juda katta miqdorda, oxiriga yetib bo‘lmaydi. Ushbu birliklarning yasalish holatlari ham o‘zbek tili qonun-qoidalariga zid. Bular ustida ham o‘ylab ko‘rish kerak.

d) inglizcha komponentli uch va to‘rt asosli nom*: ”Seper Gold Sweets”, “Merrymed Farm”, “Auto Plast Part“* va h.k. Ajablanarlisi, bu kabi nomlar ichida o‘zbekcha leksik birliklarning aralash ishlatilgani o‘zbek tilini boyitish uchun emas, siyqalashtirish, qashshoqlashtirishga xizmat qilib qo‘yishi mumkin. Keyingi tasniflar fikrimizni yanada mustahkamlaydi.

e) inglizcha+o‘zbekcha asosli nom: *“Panda sanoat“, “Grand Ta’lim“ va h.k.*

f) o‘zbekcha+inglizcha asosli nom: *“Afsona villaje“, “Aisha Home“, “Pap Footwears”, “Muborak Pure Silk“, “Uchqo‘rg’on Biznes Poligraf“, “Pantera Sanoat Servis“,“Obod Grand Food“,“Textile Epa Rasmiy Shoorum“*va h.k.

g) ruscha+inglizcha asosli nom: “*Zolotoy tour*” va h.k.

To‘plagan ma’lumotlarimiz shuni tasdiqlaydiki, o‘zbek tilida *inglizcha “best*” (eng yaxshi, juda yaxshi)*, “building*” (bino, imorat)*, “home*” (uy, uy-joy, hovli; vatan, yurt; oila, oilaviy hayot; boshpana, manzil, makon; xonaki, uyga oid)*, “kids*” (bolalar)*, “oil*” (moy, yog‘; neft; o‘simlik yog‘i)*, “city*” (katta shahar), *“star*” (yulduz)*, “center*” (markaz, markaziy)*, “rich*” (boy, badavlat)*, “textile*” (to‘qimachilikka oid)*, “shoes*” (oyoq kiyimlari)*, “fish*” (baliq) leksemalarini o‘rinli-o‘rinsiz qo‘llash holatlari ko‘zga tashlanadi [6:75]. Bunga misol tariqasida ***gold → golden*** so‘zlarini olishimiz mumkin.

“Golden Education” (o‘quv markazi,*“Golden Silk*” (kiyim do‘koni),*“Golden Aga*” (MChJ),*“Super Gold Sweets*” (restoran),*“Gold Afsona*” (turizm maskani), *“Golden Ring Familiy Enterprises*” (maxsus kiyim tikish korxonasii),*“Golden Ice*” (muzqaymoq do‘koni),*“Asia Gold*” (zargarlik do‘koni),*“Gold Center*” (savdo markazi) kabi nomlar mavjud va ularning barchasida ta’kid *golden* so‘ziga berilgan.

Sh.Bo‘tayev, A.Irisqulovlarning *“*Inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha lug‘ati”da ***gold → golden*** so‘zlariga quyidagicha izoh beriladi: **gold** n. 1) oltin, tilla; 2) tillarang; 3) oltin, oltin tanga yoki narsa; 4) boylik, xazina; qimmatbaho narsalar **golden** a. tilladan yasalgan [7: 352].

Ko‘rinadiki, do‘kon, magazin, ishlab chiqarish korxonasi va hokazolarning mutasaddilari **gold** *(oltin, tilla)* so‘zining asl ma’nosidan yuzaki foydalanishgan. Oltin so‘zining *“jozibadorligi”, “qimmatbaho, noyob metall”, “insonlar e’tiborini o‘ziga tortishi”*kabi semalaridan foydalangan holda o‘z firmalariga, do‘konlariga yuqoridagi kabi nom berishgan. Nomlardagi eng katta xatoliklardan biri inglizcha so‘zlarni so‘z birikmasi tarkibida noto‘g‘ri qo‘llashda ko‘rinadi. Masalan, ***house*** so‘zining ingliz tilida o‘nga yaqin ma’nolari bor: 1) uy, rayon; 2) uy, joy; 3) oila, ro‘zg‘or; 4) parlament; 5) savdo firmasi; 6) birja; 7) tomoshabin; 8) seans; 9) mehmonxona. [7: 370].

“Euro house” (qurilish magazini), *“Lag’mon house*” (kafe), *“Best lavash house*” (tamaddixona), *“Aqua house*” (mashinalarni yuvish joyi), *“Brand house*” (kiyim do‘koni), *“Loft house*” (fotostudiya) va shu kabi nomlar o‘zbek tili so‘z birikmasi yasalishi qonun-qoidalariga tamomila zid.

11. *al-, at-, as-, ar-* shakllari Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Iso at-Termiziy, Ali as-Samarqandiy, Faxriddin ar-Roziy kabi nisbalar oldidan artikl sifatida qo‘llanadi va arab tilida mazkur ko‘rinish qonuniy hol sanaladi [8:8].

Ergonimlar tarkibida *al-* artiklidan o‘rinsiz foydalanish g‘aliz holatlarga sababchi bo‘lishi mumkin. Masalan, “*Al-Mashriq*”, “*Al-Hilol*”, “Al-Jahon” kabi. Bu nomlar arab tiliga yoki ko‘hna til shakllariga ko‘r-ko‘rona ergashishdan boshqa narsa emas.

13. Nomlarda usmonli turk tiliga oid so‘zlarni qo‘llash. Keyingi yillarda O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy aloqalar keskin oshganligiga guvoh bo‘lib turibmiz. Mamlakatimizda turk mutaxassislari bilan hamkorlikda ko‘plab qo‘shma korxonalar tashkil etildi va bu ergonimlarda o‘z aksini ko‘rsatdi. Usmonli turk tili ishtirokida hosil qilingan ergonimlarni quyidagicha tavsiflash mumkin: “*Adakbardakçay by Ali*“, “*Zeytun*”, “*Istambul kebep*”, “*Uz Kebab*” va h.k. Bunday sanoqni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmonlariga muvofiq tasdiqlangan “2020-2030 yillarda o‘zbek

tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi”da geografik obyektlarni nomlash va ularning imlosi yuzasidan ilmiy asoslangan, tarixiy tajribalar va bugungi ilm-fan, texnika yutuqlariga tayanilgan kerakli fikr-mulohazalar bayon qilingan [9]. Ushbu hujjatlarga asosan nomlarni to‘g‘ri qo‘yish, to‘g‘ri ishlatish va imlo qoidalariga mos ravishda yozish tilni baquvvat qiladi, uning qonun-qoidalarini mustahkamlaydi, yozuv an’analarining boqiyligini ta’minlaydi. Aksincha hollarda biz erishgan barcha narsamizni boy berib qo‘yishimiz tayin. Bizni bunday taqdirdan Yaratganning o‘zi saqlasin!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2007. 688 б.

2. Алишер Навоий. Мукаммаал асарлар тўплами. – 20 жилдлик. – 8-жилд. – Фарҳод ва Ширин. – Т.: Фан, 1991. – 595 б.

3. Қўзиев У. Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар таҳлили. Монография. – Наманган, 2016. – 168 б.

4. Саидқодирова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) … дисс. автореф. – Т.: 2018. – 57 б.

5. Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Нейминг: тилда ном яратиш технологияси // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2020. 6-сон (35). – 7-16 б.

6. Исакова Н. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили (“Халқ сўзи” газетаси материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 164 б.

7 Bo‘tayev Sh. Irisqulov A. Inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha lug‘at. – T.: Fan, 2009. 480-b.

8. Раҳмонов Т. Ҳозирги ўзбек тилидаги арабча ўзлашма сўзлар семантик тузилишидаги ўзгаришлар: Филол. фан. номз. … дисс. – Наманган: 1994. – 120 б.

9. lex.uz.



Barno BURANOVA,
O‘zJOKU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, PhD
buranovabarno17180915@gmail.ru;



Munira NAZAROVA,
O‘zJOKU PhD tayanch doktoranti
munira_nazarova1601@mail.ru

SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI: GRAMMARLY.COM HAMDA TAHRIRCHI.UZ MATN TAHRIRLOVCHI DASTURLARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz hamda o‘zbek tilidagi matnlarning xatolarini tekshirish va tuzatish, tahrir qilish uchun keng qo‘llaniladigan Grammarly.com va tahrirchi.uz dasturlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning matn tahriridagi samaradorligi, afzalligi va kamchiliklari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Grammarly, tahrirchi.uz, tahrir, muharrir, sun’iy intellekt.*

Annotation: this article analyzes the effectiveness, advantages, and disadvantages of Grammarly.com and tahrirchi.uz programs, which are widely used for checking and correcting errors in English and Uzbek texts and for editing. The comparative analysis evaluates their efficiency in text editing.

Keywords: *Grammarly, tahrirchi.uz, editing, editor, artificial intelligence*

Аннотация: в данной статье проанализированы эффективность, преимущества и недостатки программ Grammarly.com и tahrirchi.uz, которые широко используются для проверки и исправления ошибок в текстах на английском и узбекском языках, а также для их редактирования. Сравнительный анализ оценивает их эффективность в редактировании текстов.

Ключевые слова: *Grammarly, tahrirchi.uz, редактирование, редактор, искусственный интеллект*

1. Kirish. *Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.* Bugun texnika va texnologiya asrida sun'iy intellekt va dasturiy ta'minot asnosida rivojlanib borayotgan turli dasturlar raqobatining guvohi bo'lmoqdamiz. Xususan, matn bilan ishlovchi dasturlarga [1] bag'ishlangan ko'plab tadqiqot ishlari [2] olib borilib, inson vazifalarini yengillashtirishga xizmat qiluvchi yangi imkoniyatlar [3] ishlab chiqilmoqda.

Sun'iy intellekt evolyutsiyasi ilk bor paydo bo'lgan XX asrning o'rtalaridan [4] to bugunga qadar ilmiy tadqiqotlar mavzusining yetakchi obyektlaridan biri bo'lib kelmoqda. Bu davr mobaynida sun'iy intellekt bir necha bosqichlardan o'tib, ushbu texnologiyaning imkoniyatlari va kelajagiga nisbatan turli darajadagi ijobiy va salbiy tavsiflar bilan tahlil qilindi [8]. Dastlab qoidalar asosidagi ekspert tizimlariga e'tibor qaratildi. Bunda mashinani o'rganish algoritmlari, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing / NLP) va murakkab neyron tarmoqlari tadqiq qilindi [9]. Yirik ma'lumotlar bazasi va hisoblash quvvatining paydo bo'lishi sun'iy intellekt rivojlanishini yanada tezlashtirdi, turli sohalarda mavjud muammolarni hal qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi [10]. Xususan, sun'iy intellektning rivojlanishi matn ustida ishlashning yangi imkoniyatlarini taqdim qildi.

Grammarly Grammarly.com muharriri sun'iy intellekt bazasida ishlovchi Grammarly GO ChatGPT tomonidan quvvatlanadi va foydalanuvchilarga matn tahririning barcha bosqichlarida sifatni yaxshilash bo'yicha keng qamrovli takliflar beradi. Grammarlyning yuqori sifat, maxfiylik va xavfsizlik standartlari uni boshqa tahrirlovchi vositalaridan ajratib turadi [14]. Xatolarni maksimal darajada aniqlash imkoniyati tufayli Grammarly matn tahriri borasidagi ishlar sifatini yaxshilashga intilayotgan shaxslar va ma'muriyatlar uchun keng tarqalgan tanlovga aylandi.

Tahrirchi "Tahrirchi" o'zbek tilidagi matnlarni tahrir qiluvchi onlayn veb-dastur bo'lib, sun'iy intellekt bazasida ishlovchi elektron muharrir sanaladi. Tahrirchi.uz muharriri dasturiy ta'minotga kiritilgan matnning imlosini tekshirish va tahrir qilish bilan shug'ullanadi. Dastur tahrirlash modelini yaxshilash uchun xatoliklar haqidagi ma'lumotlarni yig'adi. Ya'ni, imloviy xatoliklar foydalanuvchilar tomonidan qaysi variantga almashilgani, xatoliklar chastotasi va turlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ib, kiritilgan matndagi xatoliklar statistikasidan kelib chiqib, imlo tekshiruvining sifati oshiriladi [15].

2. Adabiyotlar sharhi: *Sun'iy intellekt mavzusining o'rganilganlik darajasi.* Sun'iy intellektning jadal sur'atlarda rivojlanishi asnosida oxirgi o'n yillikda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va uni yozish sifatini yaxshilash uchun olib borilayotgan izlanishlar soni yanada ortib bormoqda [16], [17], [18], [19]. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi matnlarni tahrirlovchi dasturlar, xususan, eng yirik va keng ko'lamda qo'llanib kelinayotgan Grammarly va Microsoft Word Editor [20], [21] kabi grammatika, uslub va gaplarning semantik qurilishini tekshirishning avtomatlashtirilgan vositalarini ishlab chiqish va baholashga qaratilgan. Tadqiqotchilar ushbu vositalarning matnlardagi xato va kamchilikalarni aniqlash samaradorligini o'zaro solishtirish orqali ularning aniqligi, foydalanuvchi tajribasi va yozish kontekstlariga ta'sir qiluvchi turli omillarni ham o'rganib chiqishdi.

3. Tadqiqotning vazifasi. Ilmiy maqolaning asosiy vazifasi matnlarni tahrirlovchi dasturlarning tahliliga bag'ishlangan xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish; olingan xulosalarni tahlil va tavsif qilish; o'zbek dasturchilari va tilshunoslari, muharrirlari hamkorligida yaratilgan va ishga tushirilgan tahrirchi.uz muharririni sun'iy intellekt tizimida ishlovchi Grammarly.com xalqaro tahrirlovchi dastur bilan qiyosiy tahlil qilish orqali muammo va xatoliklarni aniqlash; tahrirchi.uz va Grammarly.com, tahrirlovchi dasturlarini kuchli va zaif tomonlarini ko'rib chiqish;

4. Natija va mulohazalar.

Ushbu tadqiqotning maqsadi matn generatori – sun'iy intellekt negizida ishlovchi ikkita tahrirlovchi dasturlar: Grammarly.com va tahrirchi.uz orqali ilmiy matnlar tahririni tahlil qilish va olingan natijalar asosida dasturlarning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib berishdan iboratdir. Buning uchun yigirmadan ortiq turli mualliflarning ilmiy maqolalari tanlab olindi. Tanlangan maqolalar avval o'zbek tilida tahrirchi.uz saytining premium versiyasida tahrirlandi. Shundan so'ng, matnlar ingliz tiliga o'girilib, Grammarly.com saytida tahrirlandi. Olingan natijalar tahlil qilindi.

Tanlab olingan 20 ta ilmiy maqola Grammarly.com dasturida tahrir qilinib, olingan natijalar tahlil qilinganda aniqlangan xatoliklar nisbati 48/32 hamda 13/7 foizni ko'rsatdi. Ya'ni ushbu dasturda xatoliklar to'rt guruhga bo'lib aniqlandi. Bular: to'g'rilik, aniqlik, jozibadorlik va uslub. To'g'rilik bo'limida grammatik, orfografik va punktuatsion xatoliklar aniqlanib, u 48% ni ko'rsatdi. Aniqlik bo'limida esa 32% nisbat bilan matnning qisqaligi va tushunarlil-

igi ko‘rsatildi. Dastur uzun jumlalarni qisqartirish bo‘yicha o‘z takliflarini ham berdi. Uzun jumlalarni qisqartirishning taklif etilgan variantini tanlash, albatta, foydalanuvchining xohishiga bog‘liq. Keyingi bosqichda dastur tavtologiyalarni qisqartirib, matnning jozibadorligi ustida o‘z takliflarini taqdim etdi. Bu nisbatga ko‘ra tahrirlangan matnlarda 7 foizgacha xato va kamchiliklar ko‘rsatib berildi. So‘nggi bosqich bu uslubni tahrirlashga ko‘mak berdi. Biz ushbu maqolalarni tahrirlashda Grammarly.com dasturining premium versiyasidan foydalanganim bois, bunda ilmiy uslubda tahrirlash xizmati ham mavjud bo‘lib, matn tahriridan avval akademik tahrir bo‘limi tanlanadi, iqtiboslar shakli, masalan APA, MLA yoki boshqasi tanlab olinadi va dastur tanlangan uslubda matnni tahrirlaydi. Olingan natijalarga ko‘ra dastur 13% gacha uslubiy xatoliklarni aniqladi va matn sifatini yaxshilashga yordam berdi.

Tadqiqotning ikkinchi obyekti tahrirchi.uz saytida ham xuddi shu tartibda, o‘zbek tilidagi ilmiy maqolalar tahrir qilindi. Natija esa quyidagicha bo‘ldi:

Sun’iy intellekt negizida ishlovchi tahrirchi.uz dasturini ancha takomillashtirish zarur. Ushbu o‘zbek tilidagi tahrirlovchi dasturning Grammarly.com saytiga nisbatan zaif kamchiliklari quyidagicha:

– asosan, imlo xatolarini topadi, tinish belgilaridagi xatoliklarning hammasini aniq ko‘rsatmaydi. Grammarly bu borada ancha ilg‘or;

– matn jozibadorligi borasida tahrirchi.uz sayti faqat so‘z qo‘llash borasidagina takliflarni bera oladi. Grammarlyda esa matn jozibadorligi uchun tavtologiyalarni qisqartirish, matnlarda sinonim so‘zlarni almashtirish borasida ham bir qator takliflar beradi;

– aniqlik borasida mutlaq ustunlik Grammarly.com saytidadir. Tahrirchi.uz bu borada yangilik qilishi kerak;

– uslub masalasida ham Grammarly ancha katta ustunlikka ega. Boisi har ikkala dasturning premium varianti solishtirilganida Grammarly akademik, ya’ni ilmiy uslubga alohida ustunlik bergan. Ya’ni iqtiboslar shakliga ko‘ra ham matn tahririda o‘zgarishlar taklif qilishi mumkin.

Xulosa. Ikki xil tilda tahrirlovchi ushbu dasturlarda faqat moslashtirilgan shakliga ko‘ra matnlar tahrir qilinib, tahrirlash uslubiga ko‘ra dasturlar tahlil qilindi va olingan natijalar o‘zaro solishtirildi. Bu orqali dunyoda keng auditoriya tomonidan qo‘llaniladigan Grammarly tahrirlovchi dasturining o‘zbekcha muqobilini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, o‘zbek tilidagi matnlarni tahrirlovchi dasturlar ustida qilinadigan ishlar talaygina. Eng avvalo, grammatik, orfografik, punktuatsion va stilistik xatoliklarni aniqlash uchun tahrirchi.uz saytiga kiritilgan o‘zbek tilida tahrirlangan manbalar sonini oshirish kerak.

Ikkinchidan, tahrirchi.uz saytining tahrir bo‘limini Grammarly kabi guruhlashtirish kerak. Shunda aniqlangan xatoliklarni ajratib olish foydalanuvchiga ham, tadqiqotchiga ham qulay bo‘ladi.

Uchinchidan, tahrirchi.uz saytida uslub ustida yangiliklar qilish lozim. Ishni eng avvalo, so‘z qo‘llash borasida qat’iylashtirilgan ilmiy va rasmiy uslubdan boshlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

To‘rtinchidan, tahrirchi.uz atamalarni deyarli o‘qimaydi. Shu bois dastur bazasiga atamalar lug‘atini va bugungi kunda kontekstimizda faol qo‘llanilayotgan o‘zlashgan so‘zlarni kiritish kerak.

Yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklar bartaraf qilinsa, asosiy faoliyati matn bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar, OAV, mediakorporatsiyalar, talabalar, o‘qituvchi va professorlar faoliyatida sun’iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bo‘yicha yaxshi bir vositaga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanuddin Al-Habib and et al., “Proceedings of the 1st International Conference on Neural Networks and Machine Learning 2022 (ICONNSMAL 2022),” in Text Processing Using Support Vector Machine for Scientific Research Paper Content Classification, 2023.
2. Ellerton, W., “The Human and Machine, 2022-23 OpenAI, ChatGPT, Quillbot, Grammarly, Google, Google Docs & humans,” Visible Language, vol. 57, no. 1, pp. PP. 38-52, Aprel 2023.
3. Edward J. Ciaccio, “Use of artificial intelligence in scientific paper writing,” Informatics in Medicine Unlocked, vol. 41, no. 101253, 2023.
4. Turing, A., American Association for Artificial Intelligence, 1995.
5. Ding, L. and Zou, D., “Automated writing evaluation systems: A systematic review of Grammarly, Pigai, and Criterion with a perspective on future directions in the age of generative artificial intelligence,” Educ Inf Technol, 03 January 2024.
6. AlAfnan, M. A. and et al., “Chatgpt as an educational tool: Opportunities, challenges, and recommendations for communication, business writing, and composition courses,” Journal of Artificial Intelligence and Technology, vol. 3, no. 2, pp. pp. 60-68, 2023.
7. Almusharraf, N., & Alotaibi, H., “An error-analysis study from an EFL writing context: Human and Automated Essay Scoring Approaches,” Technology, Knowledge and Learning, vol. 28, p. pp. 1015–1031, 05 Aprel 2022.
8. Kun Dai and Quanguo Liu, “Leveraging artificial intelligence (AI) in English as a foreign language (EFL)

classes: Challenges and opportunities in the spotlight," Computers in Human Behavior, vol. 159, no. 108354, October 2024.
9. McCorduck, P., and Cfe, C. , Machines Who Think: A Personal Inquiry into the History and Prospects of Artificial Intelligence, vol. 2nd ed., New York: A K Peters/CRC Press, 2004, p. P. 576.
10. Hinton G.E. and et al., "A Fast Learning Algorithm for Deep Belief Nets," Neural Comput, vol. 18, no. 7, p. pp. 1527–1554, 2006.
11. VMQ 717-son, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida," 29-noyabr 2017. [Online]. Available: https://lex.uz/docs/-5746496.
12 PQ-5234-son, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida," 26-avgust, 2021. [Online]. Available: https://lex.uz/docs/-5603319.
13. Prezident matbuot xizmati, "Sun'iy intellekt va startap loyihalarni rivojlantirish bo'yicha taqdimot o'tkazildi," 13-avgust, 2024. [Online]. Available: https://president.uz/uz/lists/view/7464.
14. Ghufron, M.A., & Rosyida, F., "The Role of Grammarly in Assessing English as a Foreign Language (EFL) Writing," Lingua Cultura, pp. 395-403, 2018.
15. "tahrirchi.uz," [Online].
16. Dredze, M., "Natural language processing for enhancing writing quality: A review," Journal of Artificial Intelligence Research, vol. 67, no. 1, pp. pp. 95-110, 2020.
17. Gingerich, J., "The role of natural language processing in writing quality enhancement," Computers and Composition, no. 44, pp. pp. 66-81, 2017.
18. Solovyev V. and et al., "Computational linguistics and discourse complexology: Paradigms and research methods," Russian Journal of Linguistics, vol. 26, no. 2, p. pp. 275–316, 2022.
19. Cheng L. and et al., "Research on Automatic Error Correction Method in English Writing Based on Deep Neural Network," Comput Intell Neurosci, vol. 10, no. 2709255, March 2022.
20. Nguyen, T., & Tran, H. , "Grammar-checking tools in writing instruction: A comparison of Grammarly and Microsoft Word Editor," ELT Journal, vol. 75, no. 2, pp. pp. 231-232, 2021.

Усербай БАЙКАБИЛОВ,
Шыршық мемлекеттік педагогика университеті
Өзбек тіл білімі кафедрасы доцент м.а.
userbajbajkabilov856@gmail.com



КІТАП МӘДЕНИЕТІНІҢ ҚАЛЫПТАСУЫНЫҢ ТАРИХИ-ФИЛОСОФИЯЛЫҚ НЕГІЗДЕРІ

Аннотация: бұл мақалада кітап мәдениетінің қалыптасуының тарихи-философиялық астарлары мәселесі қозғалады. Атап айтқанда, кітаптың негізгі құндылықтық бағдарлары, оның экзистенциалдық мағынасы, эстетикалық негіздері туралы баяндалады. Сонымен қатар, тарихтағы кітап құрылымы мен түркі-қазақ мәдениетіндегі ескерткіштер туралы сараптамалар жасалады. Кітап бүгінгі қоғамының рухани дамуына игі ықпал ететіндігі туралы тұжырымдар жасалады.
Кілтті сөздер: *кітап, мәдениет, құндылық, тарих, ескерткіштер, мазмұн, мәтін, кітап оқу т.б.*
Аннотация: В данной статье затрагивается проблема историко-философских основ становления книжной культуры. В частности, рассказывается об основных ценностных ориентациях книги, ее экзистенциальном значении, эстетических основах. Кроме того, будет проведена экспертиза структуры книги в истории и памятников тюркско-казахской культуры. Делается вывод о том, что книга благотворно влияет на духовное развитие современного общества.
Ключевые слова: *книга, культура, ценность, история, памятники, содержание, текст, чтение и т. д.*
Annotation: this article touches upon the problem of the historical and philosophical foundations of the formation of book culture. In particular, it tells about the main value orientations of the book, its existential meaning, and aesthetic foundations. In addition, an examination of the structure of the book in the history and monuments of the Turkic-Kazakh culture will be carried out. It is concluded that the book has a beneficial effect on the spiritual development of modern society.
Keywords: *book, culture, value, history, monuments, content, text, reading, etc.*

Адам баласы жаратылғаннан бері бүгінгі күнге дейін бес қоғамдық-экономикалық формацияны бастан өткізді. Соның ең бастапқы кезеңі алғашқы қауымдық құрылыс деп аталады. Ол дәуірдегі адамдар шындығында, тек қана өмір сүрудің әдістерін ғана бірте-бірте игере бастады, кәсіптері тек эволюцияға бейімделу және тәндік-қоректік қажеттіліктерді қанағаттандыру еді. Одан соң, қоғамдық сана біртіндеп руханилықты аңсады. Ол әрине, идея мен рухтық ұмтылыстар еді. Бастапқыда руханилықтың бастаулары мифологиялық көзқарастар түрінде қалыптасқандығы белгілі. Бірақ мифтердің ауызша мәдениеті ұрпақтар сабақтастығы мен олардың тарихи жадысы арқылы сақталғанмен, тілдесу мен жазудың қажеттігі өздігінен пайда болды. Себебі, идеялардың ұмыт болуы мен ақпараттарды бұрмалау жиі кездесіп отырды. Міне сондықтан да, жазу мәдениеті құрылды. Ол жазу көне заманғы ағаш пен тасқа жазудан бастап, кітап түріне қарай ауысты. Себебі, кітап – бірнеше ақпараттарды сыйдыра алатын қабілетке ие болды. Біздің эрамыздың екінші ғасырында көне Қытайда қағаз басу ісі қолға алынғаннан кейін оны кітап деп атай отырып, осы мәдениетті өркендетуді олар жолға қойған еді. Осыдан бастап, адамзат баласының мәдениеті кітап оқу мәдениетімен тығыз байланысты болып шықты. Ғарифолла Есім айтқандай: «Адам - мәдениеттің басты тұлғасы әрі оның өлшемі. Мәдениет дегеніміз – адамға берілген еркіндіктің өлшемі. Адам, қоғам, ұлт және т.б. туралы ілімдердің бәрі де, яғни, мәдени ізденістердің барлығы да мәдениеттің феномендері болып табылады» [1, 2 б.].

Олай болса, мәдениеттің рухани және материалдық салалары бар екендігін негізге алсақ, рухани мәдениеттің материалданған негізі осы кітапқа тығыз байланысты деп айта аламыз. Кез-келген кітап сол заманның мәдени ахуалын құрайтын жемісті мәдени идеялардың ықпалымен қалыптасады. Кітап жазушының (мейлі, ол жазушы, мейлі ол ғалым болсын) мәдениетке қызығушылық танытуы міндетті болмаса да, оның кітабындағы, мәдени композициясындағы эмоциональды-мазмұндық мән мен кітаптағы мәтіндік талдау мәдениеттілікті құрайды. Кітап арқылы берілген хабарды кеңістікке шығаруға, қашықтыққа жеткізуге, уақыт бедерінде жадында қалдыруға адам әлемі араласады. М.Н. Куфаев: «Адамдық әлем жалпы мағынасында – Кеңістік пен Уақыт әлемі, ал, оның түйіні – мәдениет. Мәдениет адамзат тарихын адамдық ететін, оның жалғастығы мен мұрагерлік құпиясын ашатын күш екендігі даусыз» [2, 47 б.],-деп тұжырымдаған болатын. Кеңістік пен уақыт әлемі аясында мәдениет адамзат бар болып отырғанда өмір сүре береді. Адамзат мәдениетінің сабақтасуының негізгі тірегі ол кітаптық жазу. Бұл тұста кітап тек жинақталған мәтіндердің жиынтығы ғана емес, бүкіл жазба мәдениеттің концентрацияланған жадылық баспалық бейнесі. Белгілі философтардың пікірінше, адамзат мәдениет тарихындағы дүниежүзілік дәуірлердің өзгеруінің мәні болып табылатын өзгерісті сәтті бастан кешуде. Жазба мәдениет, кітап дәуірі аяқталып, бұқаралық мәдениет компьютер дәуірі басталады [4, 47-48 б.]. Қазіргі кезеңде, кітаптанушылардың ой түйіндеуінше, кітаптың философиясын, мәдениеттануын әзірлеу қажеттілігі туындады. Автордың, кітаптың және оқырманның өзара қарым-қатынасы, жаңа жағдайлардағы кітаптың рөлін анықтау және электронды ақпарат тасымалдағыштардың рөлі кең философиялық-мәдениеттанулық ойлауды талап етеді. Біз кітап мәдениетінің философиялық астарларын былайша жіктеп көрсете аламыз. Біріншіден, кітап өздігінен аксиологиялық құндылық. Өйткені, кітап және оны оқу тек физиологиялық психологиялық процесс емес, ол адамның жан-дүниесін, білімін жетілдіретін перфекционизм. Перфекционизм адамның тұлғалық жетілуін қалайтын бағдар болса, бұндай жетілу тек тәндік қана емес, рухани өрлеуді қатар алып жүруді негізге алады. Сондықтан да, кітап оқу арқылы рухани жетілу бойынша кітаптар материалдық негіз болып табылады. Сондықтан да кітаптың құндылығы өздігінен айқындалады.

Екіншіден, гедонистік-экзальтациялық тұрғы. Кітап оқу тек бос уақытты өткізудің форматы немесе еріккеннің ермегі емес, ол адамзат баласындағы танымы мен дүниеге көзқарасты қалыптастырудың бастапқы ашық жолдары. Кітап, жалпы алғанда, бос уақытты пайдалана отырып, адамның өзіне руха-

ни ләззат алуға ықпалдасады. Әрине, әрбір тұлғаның қоғамдық өмір саласына деген қызығушылы әриқилы. Сондықтан, тұлғалар өздеріне қызықты материалдарды таңдайды. Үшіншіден, экзистенциалдық, яғни адам өмірі мен құндылығын және тағдырын айқындауға да септігін тигізетін. Мәселен, кітап оқу барысында, оның мазмұнына байланысты адам өзінің ішкі дүниесіне үңіледі. Ол феноменологиялық ұстанымға да сай келеді. Кітап мазмұны арқылы адам өзінің өмірін қайтадан құра алады. Себебі, мәтіндер мазмұны сол жазушы адамның өзінің көзқарасы болса да, басқаларға игілікті ықпал етуі мүмкін. Төртіншіден, герменевтикалық ұстаным. Бұл кезде кітап мазмұны негізінен алғанда толық түсіндіруді қажет етеді және ол оқырманның түсінуімен байланысты. Герменевтикалық қағидаларды басшылыққа алсақ, оның мазмұны адамның өзін көруі мен өзін қайтадан тануы. Кітап осы тұрғыдан алғанда, тек философиялық емес, психологиялық-философиялық астарларды иеленеді. Кітап мазмұнын түсіндіру мен түсіну ол айрықша бөлек мәселе. Мазмұн тек рационалды идеялардан құралмайды, эмоционалдық та мағына жамайды. «Кітап философиясы - кітаптың принциптерін анықтайтын философиялық пән, бір жағынан оның болмысы мен дамуын, екінші жағынан оны тануды анықтайтын», - деп жазды М.Н.Куфаев [2]. Кітаптың онтологиялық негіздемесі болмаса да, ол өзінің эстетикалық қырларын таныта алады. Осыған орай, келесі, бесінші мән, ол – кітаптың эстетикалық жағы. Мәселе оның сыртқы формасында немесе көлемінде емес, адамның кітаппен байланысында болып отыр. Мысалы, кейбір оқырман кітапты өздігінше «сүйе алады». Қазақтың тілінің сөздік қорында «Сүйіп оқитын кітап» деген ұғым да бар. Р.С. Әбдиева айтқандай, кітап мәдениеті – ұлтымыздың рухани-мәдени саласындағы, ұлттық эстетикалық көзқарасындағы, ұлттық танымындағы өзіндік орны бар құбылыс [4, 48 б.].

Кітап тарихы – мәдениет тарихы. Тәуелсіздік жылдарындағы кітап оқу ісінің алға қойған мақсаттары дәстүрлі мәдениетіміздегі ақтаңдақтар ақиқатын ақтаумен бірге, болашаққа бүтіндей бір халықтың рухани қазыналары мен мәдени мұраларын, салт-дәстүрін ұлттық рухани қазақы түсінік-танымммен танысу еді. Ел экономикасы ілгерлей бастаған қазіргі кезеңде ұлт тағылымын тереңдете түсу, әлемдік өркениеттер қатарына қосылу, ертеңгі болашақтың нық негізін салу мәселелері алда тұрған мақсаттардың бірі. Сондықтан, бүгінгі жастар кітап оқу ісін мәдениетіміздің жүйеленген көрінісі ретінде қабылдауы, руханилығымыздың өркендеген жемісті нәтижесі деп білуі керек. «Адам мен адам арасындағы қарым-қатынас – дүниедегі ең күрделі мәселенің бірі. Оның сырын ұғуға барша адамзаттың қашаннан-ақ мүдделі болып келгені белгілі. Бірақ адам жөнінде қанша айтылып, қанша жазылса да, оның сыры әлі де түгел ашылып болған жоқ. Адамдар арасындағы қуаныш пен қайғыны, сүю мен оның іс-әрекетін, қиял арманын құрметтеу жайларын сөз ететін құралдардың бірі кітап болып табылады. Сонау көне заманның тағдырларынан хабар берген кітап, мәдениеттанулық арнада жүйелеушілік қызмет атқарады.

Мәдениеттің басқа түрлерімен салыстырғанда кітаптың өмір көрінісін қамту мүмкіндігі де мол. Мысалы, сәулет, музыка, мүсін өнерлері өмірдің бір ғана құбылысын, жеке бейнесін көрсетсе, кітап өмірді түгел алып суреттейді, тіпті, бір кітапта бүкіл елдің тарихы қамтылады. Сондықтан оны өзін тудырған қоғамның айнасына теңесек артық болмайды, өйткені өткен қоғамның тіршілігі мен ой санасының өрісін кітаптан оқимыз. Өткен дәуірлерде өмір сүріп, игілікті істер жасап кеткен бабалардың кейінгіге қалдырған өсиеті мен аманатын да кітаптан табамыз. Кітаптану ғылымы кітап өндіру, тарату және оны пайдалану жолдарының жалпы теориялық және методология жақтарын қарастырады. Кітап тарихы кітап және кітап ісінің өсу, өркендеу жолдарын зерттейді. Белгілі орыс кітаптанушысы А.А.Сидоров: «Кітап – мәдениет деген жалпы ұғымның ажырамас бөлігі...» [6, 203 б.], – деп, кітап тарихын кітап өндірісінен кеңірек аяда тексеру қажеттігін дұрыс атап көрсеткен болатын. Кітаптың тарихи кезеңдегі хал-ахуалы сол кезеңдерде өмір сүруші елдер экономикасы мен мәдениетін айнасы. Қай мәдениет болмасын өз жүйесін кітаптан табары сөзсіз. Кітапсыз мәдениет ошақтарын жүйелі күйде болашаққа жеткізу

өте қиын іс. Кітаптың қоғамдық қатынас құралы, әлеуметтік қызметі әрқилы сипатта көрінеді. Кітап – адамзат білімінің алтын сандығы. Бәрін мида, есте сақтау қиын. Ой-сезім жалт еткен найзағайдай. Тарихи оқиғалар, оған қатысқан адамдар жазуға түспесе, аңызға айналып кеткендігін қазақ ауыз әдебиетінің көп туындылары дәлелдейді. Ал, Орхон-Енисей тас кітабы бізге сонау көне замандағы түркі бабаларымыздың кешкен өмірінен бағалы мағұлматтар береді.

Кітап – прогресс кілті. Кітапты жазу процесі шығарма туғызады. Сөйтіп, адам ойын, парасатын алға жетектейді. Сонымен, кітап оқу ісін мәдениеттің жүйеленген көрінісі ретінде қызмет жасауы түрлі бағытта жүзеге асады: біріншіден, өткен кезеңдердің тарихынан сыр шертеді; екіншіден, түрлі мәдениеттегі құндылық атаулыны жүйеге келтіріп, ұрпақтан-ұрпаққа жеткізеді; үшіншіден, ғылымның әр саласын зерттеп түсіндіруде, тұжырым жасауда үлкен рөл атқарады. Сондай-ақ, адамды рухани қалыптастыруда, эстетикалық-этикалық танымын кеңейтуде, гуманистікморальдық принциптерге бой алдыруда атқаратын қызметі зор. Ақыл-ойдың алтын қазынасы болып табылатын кітап оқу ісінің қазіргі күндегі сипатын түйіндеп айтар болсақ: біріншіден, қай ғасырда, қай кезеңде болмасын кітап оқу, халықтық әлеуметтік-экономикалық жағдайымен тығыз байланысты болды. Екіншіден, қазақ кітап оқу арқылы алғашқы қалыптасуы түркі халықтарына ортақ мәдени мұралармен танысты. Үшіншіден, тәуелсіздік жылдарында шыққан кітаптардың негізгі сипаты – тарих, әдебиет, өнер, мәдениет, салт-дәстүр турасындағы бұрмаланған тұжырымдарды дереу жоғалтып, ұлттық болмысты қайта жаңғырту болды. Ұлттық сананы жаңаша пайымдау, қазіргі заманғы әлемдік өркениет үлгісіндегі ұғымдар мен түсініктерді өз топырғымызға жақындату, ұлттық дәстүрлі дүниетанымымызды сақтай отырып, бүкіл адамзаттық құндылықтарды игерудің тиімді жолдарын іздестіру сияқты мәселелерді бүгінгі кітаптардан кездестіруге болады.

Қорытындылай келе, қандай мемлекет болмасын, ол өз халқының күш-қуатына, дәстүрлі дүниетанымына, бай рухани қазынасына арқа сүйейді. Ал, әрбір адамзаттың өз елінің адал да абзал азаматы болуы үшін оған білім, рухани байлық пен терең ойлылық керек. Кітап – ұлттың және адамзаттың ми орталығының (мозговой центр) тірегі, қоғамның қозғаушы күші. Кітап арқылы халық әлемді таниды, ал, әлем кітап арқылы бір ұлтты, халықты таниды. Болашақ тағдыры – бүгінгі жастардың қолында. Оған қазір көп нәрсе қажет. Санасын саралауға, ойын даналауға ең қажеттісі де, керегі де кітап десек артық айтқандық болмас.

ҚОЛДАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ

1.Байкабилов У., Ботирова Ш. Мәнерлеп оқу және тіл мәдениеті. Т., 2022.
2.Есім Ғ. Философиялық пайымдаулар // Қазақ әдебиеті. Алматы, 1997.
3.Әбдиева Р.С. Кітап мәдениеті. Монография. – Алматы: Қазақ университеті, 2012. - 148 б.
4.Каирбекова А.Г. Онтология книги в контексте культуры // Мир философии.-М.: Наука, 2001. - 313 с.
5.Каримуллин А.Г. Из истории печатного слова. М.: Наука, 2009.-147 с.
6.Куфаев М.Н. Проблемы философии книги. Книга в процессе общения/ М.Н.Куфаев. – М.:Наука, 2004. - 188 с.
7.Сидоров А.А. Искусство книги. М.: Исуксство, 2013.-265 с.

Mardon RAHMATOV,
Alfraganus universiteti Sharq filologiyasi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc)
e-mail: mardonrahmat@gmail.com

LIRIK MATNNING FONIK TUZILISHI

Annotatsiya: she'riy matnning tashkil qilinishida, uning tuzilishida til birliklari muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada fonik birliklar sifatida nutq tovushlaridan tashqari, qofiya va radifning uslubiy vazifa bajarishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *fonika, fonik birlik, fonik uyg'unlik, unli tovushlar, undosh tovushlar, uslub, qofiya, radif, vazn, ritm, sintaksis.*

Аннотация: языковые единицы играют важную роль в организации и структуре поэтического текста. Помимо звуков речи как фонических единиц, в статье рассматривается стилистическая функция рифмы и радифа.

Ключевые слова: фоника, фонические единства, фоническая гармония, гласные, согласные, стиль, рифма, ритм, мера, *ритм, синтаксис.*

Annotation: language units play an important role in the organization and structure of a poetic text. In addition to speech sounds as phonetic units, the article examines the stylistic function of rhyme and radif.

Key words: *phonetics, phonetic unity, sound harmony, vowels, consonants, style, rhyme, rhythm, measure, rhythm, syntax.*

Fonika – bu tilning tovush tuzilishi va tilning tovush tomonlarini o'rganadigan tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, uning o'rganish obyekti poetik matnlardir. Fonika badiiy va lirik asarlarni tashkil qiluvchi til belgilari – nutq tovushlari va ularning takroriga asoslangan. Matnni tashkil qiluvchi bu elementlar nisbiy qisqa fonik bo'lak, fonik elementlar deb ham yuritiladi.

Tilshunoslikda fonik bo'laklar o'zaro mutanosib va o'zaro qiyoslanish asosiga ega (bu – metr: she'rda kuchli va kuchsiz o'rinlarning davomiy ketma-ketlikda kelishi) nutqiy bo'lak sanaladi. Fonika adabiyotlarda poetik fonetika yoki evfoniya deb ham yuritiladi. Fonika uslubshunoslikning bir bo'limi bo'lib, unda nutq tovushlari, fonetik vositalarning estetik (poetik) vazifasi o'rganiladi.

G'azallarning ritmik-intonatsion, ritmik-sintaktik tuzilishi hamda umumiy qofiya asosiga birlashtirilganligi ularning simmetrikligini, ohangdorligini, musiqiyligini ta'minlash bilan birga fonik uyg'unlikni ham yuzaga chiqaradi. Shundan bo'lsa kerak, har qanday o'quvchi she'r mutolaasida fonik uyg'unlikni kutadi, his qiladi, ayniqsa, har bir misrada / baytda takroriy tovushlar bilan tugaydigan ohangdosh so'zlarni kutadi. Qofiya ham ohangdoshlikni ta'minlovchi she'riy unsur sanalib, uning tashkil etuvchilari – qofiyadosh so'zlarning tovush tomoni, ularning tarkibi turlicha. Ular tarkibiga qarab adabiyotshunoslikda bir necha turga ajratiladi [5]:

Odamki, bashar nasli silkiga erur payv**and**,
Suvratda sanga volid, ma'noda sanga farz**and** (G'S, 114).

Matladan keyingi baytlarda ohangdosh tovushlar uyg'unligi ikkinchi misraning oxirida – ohangdoshligiga ko'ra tanlangan qofiyadosh so'zlardir.

Ma'lumki, radif intonatsion tizimda o'z o'rniga ega bo'lgan she'riy unsur sanaladi. Shuning uchun klassik poetikaga doir risolalarda ham radifga maxsus to'xtalishgan va bayt misralari oxirida takrorlanuvchi bir yoki bir necha so'zdan iborat bo'lgan, ohangdoshlikni ta'minlab beruvchi asosiy she'riy unsur (fonik birlik) ekanligi haqida ma'lumot beriladi [8: 89].

Bizningcha, g'azal janrida keng qo'llanishda bo'lgan radiflarni ham fonik uyg'unlikni ta'minlovchi vositalar sirasiga kiritish va uning intonatsion-uslubiy xususiyatlarini o'rganish o'rinli. Zero, radiflar ham fonik qiymatga ega birlik sifatida qofiyadosh so'zlardan keyin kelib, butun g'azal strukturasiga xos intonatsion uyg'unlikni ta'minlaydi:

Barmog'i hayrat bilakim la'li xand**on ichradur**,
Ul alif yanglig'dururkim, filmasal j**on ichradur** (G'S, 165).

Shuningdek, maqta baytlarda kengaygan radiflar va qofiyadosh so'zlar yaxlit holda she'riy misralar oxirida kelib, ularni ohangdoshlik, uyg'unlik va mazmuniy yaxlitlik asosida birlashtirgan.

Ey hamd o'lub mahol fasoh**at bilan sanga**,
Andoqki, qurb taqbo-vu to**at bilan sanga** (G'S, 4).

Bundan tashqari, baytda ichki qofiyaning mavjudligi (zulqofiyatayn yoki qo'sh qofiya), alliteratsiya, unli va undosh tovushlar ketma-ketligi she'riy fonika uchun ahamiyatlidir. Ular kuchli fonikani yuzaga chiqarish orqali baytning musiqiyligini, jozibadorligini va estetik qiymatini oshiradi:

Har qayon boq**sam** ko'zumga ul quyoshdin **nur erur**,
Har sari qil**sam** nazar, ul oy manga **manzur erur** (G'S, 186).

Ko'rinadiki, bayt misralarida ichki va tashqi qofiyalar,

radif mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘zbek she’riyatida muhim evfonik vazifa bajaradi.

Fonika nutqning tovushlar yordamida tashkil etilishini ham o‘rganadi. Shoir fonetik darajada bo‘lgan til vositalaridan: unli va undosh tovushlardan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanadi. Shoir quyidagi baytda *o* unlisidan badiiy nutq materiali – fonika uchun foydalangan.

Ko‘zung ne bal**o** qar**o** bo‘luptur,
Kim, j**o**ng‘a qar**o** bal**o** bo‘luptur (G‘S, 161).

Yoki boshqa matla baytda ham shoir *o* unlisidan badiiy nutq materiali sifatida foydalangan:

Il**o**h**o**, p**o**dsh**o**h**o**, kirdig**o**r**o**,
Sanga **o**chug‘ nih**o**n-u **o**shk**o**r**o** (G‘S, 5).

Nutq tovushlarining fonik qiymati bayt (yoki misra) da qo‘llangan unli yoki undosh tovushlarning miqdoriga ko‘ra emas, balki ularning estetik (poetik) vazifasidan kelib chiqib belgilashni shart qilib qo‘yadi. Ya’ni bayt (yoki misra), umuman, g‘azalning fonik tizimi – qo‘llangan fonik vositalar to‘g‘ri tashkil qilingan bo‘lishi va o‘quvchiga matnni tushunishga xalaqit qilmasligi, balki yordam berishi kerak. Agar g‘azallar matniga e’tibor qilinsa, ko‘p hollarda fonik birliklarni ajratib olishga yoki birlashtirishga xizmat qiladigan o‘z so‘zlari mavjud bo‘ladi. Bunday so‘zlar asosida qofiyadosh so‘zlar yotadi. Quyidagi bayt struktura elementlari va maxsus tanlangan (qofiyadosh) so‘zlar tarkibidagi unli va undosh tovushlarning uyg‘un kelishi fonik ta’minot uchun xizmat qilgan:

Tu**n** **o**qsh**o**m bo‘ldi-yu kelmas me**n**ing shamʼi shabist**o**n**i**m,
Bu a**n**duh o‘tidi**n** har da**m** kuyar parv**o**n**o**dek j**o**n**i**m (G‘S, 403).

Mazkur bayt struktura elementlari tarkibidagi *o, n* va *m* tovushlari boshqa tovushlarga qaraganda ahamiyatli. Ular misra struktura elementlarining tarkibiy qismi sifatida takrori fonikani, fonik uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Ya’ni matnda ularning birligi evfoniyani tashkil qiladi. Mumtoz qofiya tadqiqotchilari fikriga ko‘ra, qofiyadosh so‘zlar tarkibida o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlovchi unli va undosh tovushlar 6-7 tagacha bo‘lishi mumkin [8]. Z. Akbarovaning qayd etishicha, Alisher Navoiy g‘azallarida qofiyani tashkil etuvchi tovushlar soni 1tadan 9 tagachani tashkil qiladi [2].

Fonika badiiy nutqning tarkibiy elementi sifatida baytda shoir shuurining to‘liq va yorqin ifodalanishiga yordam beradi hamda she’riy nutqning boshqa ekspressiv vositalari mazmunini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shoir baytni shakllantirar ekan, birinchi navbatda, uning estetik jihatdan qimmatli, badiiy mukammal bo‘lishiga e’tibor qaratadi. U bor mahoratini, poetik imkoniyatlarini ishga solib, nazarda tutilgan nutq tovushlari mavjud bo‘lgan so‘zlar (qofiyadosh so‘zlar) dan birini tanlaydi va uni fonik markazga aylantiradi. Quyidagi baytda shoirning e’tiborida bo‘lgan murojaat shakli va radif bo‘lib, ayni vaqtda muallif ular orasida ohangdoshligiga ko‘ra uyg‘unlikni ta’minlashni ham maqsad qilgan. Shoir birinchi misrada *rafiq* so‘zidagi *r* tovushini fonik markazga olib chiqqan va uni muvaffaqiyatli qo‘llagan:

Dah**r** elidin naf’ aga**r** yo‘qtur, zara**r** ham bo‘lmasa,
Marham a**r** yo‘qtur, ko‘ngulga nishta**r** ham bo‘lmasa (G‘S, 27).

Yoki:

Qat**r**a xayla**r** ich**r**a ul o**r**azni ko‘rdum, ey **r**afiq,
O‘lmagim e**r**mas ajabkim, sug‘a tushmish axta**r**im (G‘S, 402).

Quyidagi baytda esa *s* va *z* tovushlari o‘zaro fonik birlik bo‘lib, fonik-estetik vazifa uchun xizmat qilgan:

Goh **s**arv u**z**ra, gahe gul u**z**ra bulbul nag‘ma**s**o**z**,
Vahki, menmen gung-u lol, ul **s**arvi gulrux**s**or**s**i**z** (G‘S, 204).

She’riy asarlar, xususan, g‘azal ma’nosining tashkil qilinishida uning tovush tomoni – tovush tuzilishi muhim o‘rin tutadi. Tovushlarning fizik xususiyatlari o‘rganiladigan fonetikadan farqli o‘laroq, fonika matnlardagi unli va undosh tovushlarning estetik va badiiy maqasadda qo‘llanishini nazarda tutadi.

Demak, fonika (yoki poetik fonetika) she’riy asarlarda nutq tovushlaridan estetik maqsadda foydalanishdir. Bu she’riy asarninng mohiyatini belgilaydi. Fonik vositalarning asosi qofiya sanaladi. Radif va boshqa fonik vositalar ikkilamchi xarakterga ega, ammo ularning mavjudligi she’riy asarning estetik kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 88.
2.Акбарова З. Алишер Навоий ғазалларида қофия. Филол.фан.номз.диссер. – Тошкент, 1997. - Б.128.
3.Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. –Тошкент, 2002. – Б.422.
4.Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.168.
5.Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 153.
6.Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.376.
7.Ҳайитметов К. Ҳозирги ўзбек тилида инверсия: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 1967. – Б.181.
8.Ҳамроева О. Темурийлар давридаги поэтикага доир рисолаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили. – Тошкент: Bookmany print, 2022. - Б. 254.

Nasiba YARASHOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti professori, f.f.d. (DSc)
E-mail: yarashovanasiba44@gmail.com

BOLALARGA XOS MATNLARDA METAFORA LINGVOMADANIY FENOMEN SIFATIDA

Annotatsiya: til yaralibdiki, millatning madaniy ko‘zgusi sifatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu avvalo, o‘sha xalqning o‘zligi va mentalitetini ifodalab qolmasdan, uning urf-odati, an’analari, turmush tarzi, tarbiyaviy jihatlari, inson omilining ustuvor ekanligi, uning qadr-qimmati bilan yuzaga chiqadi. Tilning madaniy jihatlari ijodiy tafakkurning yorqin ifodasi metaforalarda yorqin aks etadi.

Kalit so‘zlar: *bolalar nasriy matni, metafora, madaniyat, lingvomadaniy fenomen.*

Аннотация: язык так рождается, что становится очевидным как культурное зеркало нации. Он выявляет прежде всего самобытность и менталитет этого народа, его обычаи, традиции, образ жизни, воспитательные аспекты, приоритетность человеческого фактора, его ценность. Культурные аспекты языка яркое выражение творческого мышления ярко отражается в метафорах.

Ключевые слова: *детский прозаический текст, метафора, культура, лингвокультурный феномен.*

Annotation: language is born in such a way that it becomes obvious as a cultural mirror of the nation. He reveals, first of all, the identity and mentality of this people, their customs, traditions, lifestyle, educational aspects, the priority of the human factor, its value. Cultural aspects of language The vivid expression of creative thinking is vividly reflected in metaphors.

Keywords: *children's prose text, metaphor, culture, linguistic and cultural phenomenon.*

Bugun til insonga olamni tanitadi, degan tushuncha o‘rnida, til inson dunyoni qanday idrok etishini ko‘rsatadi, deyish to‘g‘riroq deb qaralmoqda. Til – madaniyat ko‘zgusi, real hayotni, insoniyatni, uning hayotini o‘rab turgan jami mavjudlikni aks ettiribgina qolmasdan, til orqali millat o‘zligini anglaydi, bu anglash mentaliteti, milliy xarakteri, turmush tarzi, an’analari, urf-odati, axloqiy normalari, qadr-qimmati bilan uzviylikda kechadi. Bir vaqtning o‘zida til oynasi orqali insonning hayot tarzi, fe’l-atvori, boshqalar bilan munosabati, muomala madaniyati, xulqi aks etadi. Ushbu omillar ko‘p o‘rinlarda milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangan metaforik tarzda voqelanadi, milliy-madaniy birlik til oynasida har bir insonning fikrlash tarzi, xayoloti, xatti-harakatlari bilan birlashib ketgan bo‘ladi.

XX asr so‘ngida J.Lakoff hamda M.Jonson metaforalarni inson tafakkuri hosilasi sifatida o‘rganib, insonning nutqiy faoliyati, fikrlashi qanchalik metaforaga boy tarzda ifodalanar ekan, tilning o‘zi ham mohiyatiga ko‘ra metaforik ekanligi ta’kidlanadi [1]. Metafora nafaqat obrazlilik vositasi, balki bir so‘zda ikki ma’noning uyg‘unlashuvi, mental xususiyatlari ifodachisi [2], tabiat va madaniyatni bir butunlikda birlashtiruvchi oraliq halqa, ular o‘rtasida misoli ko‘prik.

Metaforalar nutqning bezagi, ammo uning asosiy vazifasi ijodkor emotsiyasini, o‘y-fikrini aniq, to‘g‘ri va obrazli tasvirlashdir, aniqrog‘i, keng bayon etilishi lozim bo‘lgan tasvirni obrazli yaratishdir.

Shunday ekan, lingvistik metafora tilda atash ma’nosi uchun xizmat qilsa, badiiy metafora ta’sirchanlikni namoyon etadi. Bugungi davr jahon va o‘zbek tilshunoslari tomonidan ham tilni milliy-madaniy jihatdan tahlil qilish jarayonida badiiy matnlarning emotsional-ekspressivligini oshiruvchi vositalardan biri metaforani milliy-madaniy tadqiq qilish muammosi e’tirof etib kelinmoqda. “…nutqda ma’lum stilistik maqsad uchun xizmat qiladi. So‘zlarni metaforik ma’noda qo‘llashning asosiy vazifasi nutqning obrazliligini, tasviriyligini oshirish bo‘lsa, shu obrazlilik va tasviriylik matnda yuzaga keluvchi emotsional-ekspressivlik konnotativ ma’nodir” [3].

Ona tilimizning imkoniyatlaridan foydalanish, betakror badiiy tasvirlar yaratish, birinchi navbatda, ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ijodkor ana shu tanlangan so‘zning leksik va hosila ma’nolarini to‘g‘ri anglay olishi hamda farqlay bilishi ham lozim bo‘ladi. Leksik ma’no taraqqiy etib borar ekan, odatda, bir predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatga ko‘chirish yo‘li bilan ham rivojlanadi. Bunday ko‘chirishning tabiatini, mavqeyini har bir tilning o‘zida mavjud semantik qonuniyatlar belgilaydi. Aristotel ta’biri bilan aytganda, “Metafora bu g‘ayri oddiy nomni bir turdan boshqa xilga, yoki xildan turga, yoki xildan xilga, yoki o‘xshashdan o‘xshashga ko‘chirishdir” [4].

Zero, metafora konnotativ ma’noni yuzaga keltiruvchi jarayondir. Shuningdek, metafora badiiy asarlarda turli xil poetik funksiyalarni bajaradi. Ayniqsa, uning badiiy obraz yaratishdagi roli diqqatga molik. To‘g‘rirog‘i, ma’no ko‘chishining bu turi o‘ziga xos semantik tabiati bo‘lishidan qat’iy nazar, u matn doirasida bir xil vazifaga ega. Ya’ni uning badiiy adabiyot uchun obrazli tasviriy vosita ekanligidir. Shu bois metafora o‘zida asosiy madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, chunki metafora madaniy-milliy dunyoqarashga asoslangan.

“Frazeologik birliklar va metafora mazmunining rejasi

hamda ularga biriktirilgan madaniy konnotatsiyalar tufayli madaniy belgilarning eksponentlariga aylandilar” [5].

A.N.Afanasevning fikricha, metafora o‘xshash tasavvurlarni uyg‘otadigan predmetlarni o‘zaro yaqinlashishi natijasida paydo bo‘lgan. Metafora mutlaqo ozod, boy manbadan olingan, zarurat, ehtiyoj yoki tilning qashshoqligidan paydo bo‘lmagan [6].

Shu bilan birgalikda metaforalar ham tilning asosiy lingvomadaniy birliklaridan biri hisoblanadi. Intertekstuallik muayyan badiiy matn tarkibida o‘zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi orqali ham muallifning o‘quvchiga estetik zavq berishi maqsad qilinadi, metafora biror badiiy matn ichiga olib kirilganda intertekstuallik aks ettiradi. Metafora badiiy asar g‘oya va maqsadini, personajlar ichki dunyosini ochishda, asar tilining shirali va ta’sirchan bo‘lishida, emotsionalligi va musiqiyligini oshirishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Turli xalqlar tillarida bo‘lgani kabi o‘zbek tilida ham ana shunday obrazli ifodalarning roli katta. Jumladan, nasriy matnda metaforalarni qo‘llash orqali voqea-hodisaning intensivligini oshirishga, qahramonlar xarakter-xususiyatiga implitsit ishora qilishda ta’sirchan omil sifatida foydalanib, asarlari tasviriyligini, badiiy-estetik quvvati oshirilgan: – Buvijonim, o‘qiyverib miyang suyulib ketdi, burning oqadigan bo‘lib qoldi, deyapti. (“Sariq devning o‘limi”, 4-b.).

Ijodkor o‘z qarashlarida reallashgan xususiy yashirin ma’nolarni mavhum tarzda ifodalashda, shuningdek, ta’sirchan, obrazli ifodalar yaratishda foydalangan: – Hamdamboy nimqorong‘ida haddan tashqari badbashara bo‘lib ko‘rinarkan. Bashang libos kiyib odam qiyofasida yurgan ekan u. O‘g‘irning sopidek ingichka bosh, cho‘ziq yuz, kattakon burun, chaqchaygan olako‘zlar — bamisoli hujumga chog‘langan bo‘g‘ma ilonning o‘zginasi deysiz.(“Qasoskorning oltin boshi”, 82-b.).

Ayniqsa, metaforalarning konnotativ ma’nolaridan qahramonlarning xarakter-xususiyati, siyrat va suratini tasvirlashda, asar kompozitsiyasida voqealar rivojida yechiluvchi mavhum tushunchalarga ishora qiluvchi tugun hosil qilishda va badiiy-g‘oyaviylikka erishishda foydalanilgan: – Ikrom yog‘ochoyoq darsdan qaytayotganda bo‘r bilan birovlarning eshigiga yomon so‘zlarni yozib ketadi. (“Sariq devni minib”, 222-b.). // – Men oyijonimning qalbidagi tubsiz armonni ifodalamoqchi bo‘luvdim. (“Mungli ko‘zlar”, 212-b.).

Badiiy tasvir vositalari orasida metaforalar eng ko‘p ijodiylikni talab etishi bilan farqlanadi. Metafora yaratish ijodkordan keng dunyoqarash, olam va odam haqida chuqur fikr yurita olish, ruhiyat va tabiatni yaxshi bilishni talab etadi. Metafora obrazning nafaqat tashqi qiyofasi, balki uning ruhiy olamida kechayotgan holatlarni tinglovchi kutmagan favqulodda badiiy hukm asosida tasvirlash yoki ifodalashga zamin bo‘ladi.

Metaforada asar qahramonlarining muhim xususiyatlari inobatga olinadi. Chunki ko‘p hollarda referentlarning muhim bo‘lmagan belgilari hatto mana shu tilda so‘zlashuvchi shaxslarning xotirasida mavjud bo‘lavermasligi va uni qo‘shimcha xotiradan qidirish zaruriyatining tug‘ilishi kommunikatsiya jarayonining bir tekis va ravon ketishiga putur yetkazishi mumkin.

Metaforik ko‘chimlarning yaratilishida shakliy o‘xshashlik katta ahamiyat kasb etadi. Bu hol yaratilgan narsaning tabiatidagi prototipi nomining kengayishiga va inson qo‘li bilan yaratilgan obyektning o‘sha nom bilan nomlanishiga olib keladi: – Arzimagan bir narsa uchun yuzim shuvut bo‘lib qoldi, endi bu yerda qolishim mumkin emas edi. Bolalarning oshxonasiga kirib, qozonning boshiga o‘tirib oldim-da, lazzatli taomlardan to‘yib-to‘yib yedim. (“Sariq devni minib”, 38-b.). Dadam, kerak bo‘lsa ishlatarsizlar, bo‘lmasa biror qora kunimizda asqotib qolar deb, uch-to‘rt marta pul tashlab kelgan ekan. (“Mungli ko‘zlar”, 137-b.).

Metaforalardagi baho munosabatini tadqiq qilish inson omilini hisobga olishni taqozo qiladi. Chunki baholash subyekti (baholovchi kishi) doim muayyan ijtimoiy guruhga mansub shaxs va uning obyektni baholashi narsa va hodisalarga nisbatan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlarida o‘z ifodasini topadi. Binobarin, inson o‘zini va atrof muhitni o‘z ongi va idroki doirasida baholab, munosabat bildiradi va metaforalar zamiridagi bunday baholovchi konnotatsiya pragmatik aspektda ham talqin qilinadi. Baholash ayniqsa, lingvokulturologik metaforalar semantikasida yoqqol namoyon bo‘ladi. Lingvokulturologik metaforalar semantikasida nafaqat baholashning obrazli ifodalanishi, balki hissiy-emotiv munosabatlar, ya’ni nafrat, g‘azab, mensimaslik, e’tibor qilmaslik, iltifotsizlik, loqaydlik, dangasalik yoki aksincha hurmat-izzat, e’tibor, hayrat, mehribonlik, achinish, qoyil qolish, shuningdek, stilistik bo‘yoqdorlik ko‘zga tashlanib turadi. Baholash va emotivlik komponentlarining integratsiyalashuvi esa lingvokulturologik metaforalarni ekspressiv vositaga aylantiradi.

Lingvokulturologik metaforalar metallar nomi bilan hosil qilinganda ham umuminsoniy xarakterdagi ijobiy baho munosabatini aks ettiradi. Masalan, odatda “oltin” haqida gapirilganida, avvalo, uning denotativ ma’nosi, ya’ni Mendeleyev davriy sistemasining II guruhiga mansub kimyoviy element; sariq-qizg‘ish tusli qimmatbaho nodir metal; zar: tilla ekanligi ko‘zga tashlansa, “qimmatbaho”, “tengi yo‘q” singari konnotativ komponentlari ham mavjud. Nasriy matnda “oltin” so‘zi orqali metafora hosil qilinganda, uning “yaxshi idrok etadigan, yaxshi ishlaydigan bosh, o‘tkir aql; shunday bosh, shunday aql sohibi” konnotativ ijobiy baho munosabatini ifodalaydi: …boshqa bir tomon qanday bo‘lmasin qalbi mehr-u muhabbatga limmo-lim to‘lgan bu dehqon yigitining oltin boshini omon saqlab qolishga, uni qochirishga intilar edi. (“Qasoskorning oltin boshi”, 236-b.).

Ushbu o‘rinda nominativ birlik ifodalayotgan konnotativ ma’no u ifodalayotgan atributiv sifat belgisi bilan yagona ma’no ifodalamasligi ko‘zga tashlanadi.

Konnotativ ma’noni yuzaga chiqarishda odatda, inson va uni o‘rab turgan atrof-muhitdagi voqea-hodisalar, narsalarning nomlari asos vazifasini bajarib kelmoqda.

Nasriy asarlarning poetik ta’sirchanligi shundaki, ularda milliy-madaniy metaforalar vositasida ko‘tarilgan mavzu faqat insongagina emas, balki millatning milliy mentalitetini aks ettirishi bilan har bir kitobxon qalbini hayajonga soladi, uni o‘ylashga, yozuvchi ichki kechinmalarini o‘zinikidek bilib, shu nuqtayi nazardan fikr yuritishga majbur qiladi.

Xulosa. Tilning lisoniy-madaniy fenomeni sanaluvchi metaforik mazmun ifodalovchi birliklar so‘zlovchining ham, tinglovchining ham lisoniy imkoniyatini, tafakkur darajasini belgilaydi. Metafora inson psixikasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xotirasida so‘zlarning ma’nolari bilan birga ularning obyektiv olamda o‘z sezgi a’zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi yashirin ma’lumotlarni tiklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. М.:Прогресс, 1990. –С.129.
2. Чудинов А.П. Динамика концептуальной метафоры в политической речи // V Житниковские чтения: Межкультурная коммуникация в когнитивном аспекте / Отв. ред. О.В. Демидов. Челябинск, 2001. С. 45.
3. Махсумова С. Метафоралар орқали коннотатив-прагматик маънонинг ҳосил бўлиши (Э.Воҳидов шеърлари мисолида). ЎТА, 2009, 5-сон, -Б. 94.
4. Арестотел. Поэтика. Л.,1927. -С. 39.
5. Красных В.В. Этнопсихолингвистика лингвокультурология. М., 2002. -С. 88.
6. Афанасев А.Н. Происхождения мифа. М., 1996. -С. 35.

Ravshanxo‘ja RASULOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori



HARAKATNING HOLATI FE’LLARINING MA’NO TUZILISHI

Annotatsiya: maqolada fe’l semantikasi - harakatning holati fe’llarining ma’no tarkibi haqida ma’lumot beriladi. Ushbu fe’llarning ma’no jihati tahlil qilinishi natijasida ularning mantiqiy bo‘laklari aniqlanadi. Shunga ko‘ra harakatning holati fe’llari o‘zining izohiga ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *harakat, holat, harakatning holati, ma’no, mantiqiy bo‘laklar.*

Аннотация: в статье представлена информация о семантике глагола – значении глаголов состояния действия. В результате анализа значения этих глаголов определяются их логические части. Соответственно, глаголы состояния действия имеют свое толкование.

Ключевые слова: *действие, состояние, состояние действия, смысл, логические компоненты.*

Annotation: the article provides information about the semantics of the verb - the meaning of verbs of the state of action. As a result of analyzing the meaning of these verbs, their logical parts are determined. Accordingly, verbs of the state of action have their own interpretation.

Key words: *action, state, state of action, meaning, logical clauses.*

Harakatning holati fe’llarida harakat va holat predmetning doimiy belgisi, muhim tarkibiy qismi bo‘lib kuzatiladi. Holat harakat asosida yuzaga keladi. Holat harakat bilan birgalikda muayyan predmetni xarakterlaydi. Ushbu semantik guruh fe’llarida holat harakat natijasi bo‘lgan holat va ijro holati fe’llaridan farqli harakatning belgisi, uning mavjudligi, «yashash» usuli, ammo tugallanmagan, davomiy belgisi bo‘lib ko‘rinadi. Chunki holatning yo‘qolishi, tugashi harakatning yo‘qolishi, tugashi bilan sodir bo‘ladi. Binobarin, holat harakat bilan birgalikdagina moddiy hodisa, harakatning holati bo‘ladi. Shunga ko‘ra harakat holatning manbai, asosidir.

O‘zbek tilida harakatning holati fe’llari anchagina bo‘lib, ular tub va yasama fe’llardan tashkil topadi. Harakatning holati fe’llari ma’nosidagi farqlovchi semalar quyidagi mantiqiy ifodalarga ega bo‘ladi:

a) «qulay»: osonlashmoq, yengillashmoq. «Qulay» farqlovchi semali holat fe’llarida asosan shaxs harakatining

holati ifodalanadi. Ushbu harakatning holati fe'llari ijobiylik bo'yog'iga ham ega bo'ladi. Qayd etilgan fe'llar yasama (sifatlash) fe'llar bo'lib, gapda quyidagi ma'nolarda qatnashadi: osonlashmoq – "oson", "holatga", "o'tmoq": "... boyvachcha sigirining sutini ikkita bidonga yarim-yarim solib bergani uchun Munisxonga ko'tarish ancha osonlashgan edi" (S. Yunusov). "Saidiy mag'lubiyatga uchrasa, Abbosxonning ishi qancha osonlashar edi" (A.Qahhor). Osonlashmoq, asosan, adabiy tilga xos.

Yengillashmoq- yengil holatga o'tmoq: "Umarqul ot-arava qilib oldi va bu bilan O'tapning mehnatini ancha yengillashtirdi" (H. G'ulom). "Yuragi qandaydir dalda sezib, nafasi yengillashdi" (A. Muxtor).

b) "miqdoriy" mantiqiy ifodasiga ega. Bu farqlovchi harakatning holati fe'llari qanday miqdor anglatishiga ko'ra "miqdoriy ortmoq" va "miqdoriy kamaymoq" ma'noli holat fe'llariga ajratiladi.

1) "Miqdoriy ortmoq" semali holat fe'llari: kuchaymoq, zo'raymoq, tezlashmoq, yengillashmoq. Ushbu holat fe'llarida predmet harakatining tezlashib, yuqori darajaga yetishi natijasida yuzaga kelgan holat belgisi anglashiladi. Holat harakat tezligining qanday nuqtaga yetganligini o'zida ifoda etadi. Bunday hollarda predmet harakatni ham, holatni ham o'zida aks ettiradi. Demak, predmet harakati bevosita holatni yuzaga keltiradi. Holat esa predmetga, uning harakatiga xos davomiy bo'lgan (uning davomiyligi harakatga bog'liq) belgi sifatida kuzatiladi.

"Miqdoriy ortmoq" mantiqiy ifodali holat fe'llari asosan yasama, ba'zan tub fe'llardan tuziladi. Yasama fe'l ot, sifat va ravishga -ay, -lash yasovchilarining birikishidan hosil bo'ladi: kuchaymoq – "kuchli", "holatga", "o'tmoq": "Boya dastavval kirib kelganimda yo'lakda hukm surgan ovozlar, vahimali gaplar endi tag'in ham kuchaygan" (O.Yoqubov). "Buning ustiga qachonlardir eshitgan afsona-yu, rivoyatlarni eslash vahimani kuchaytiradi" (Fan va turmush).

Kuchaymoq zo'raymoq so'zi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Ular qo'shimcha ma'nosiga (belgisiga) ko'ra o'zaro farqlanadi. Zo'raymoq «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da kuchaymoq so'ziga sinonim sifatida keltirilib, ularga aynan bir xil izoh beriladi: "darajasi, shiddati, kuchi oshmoq, ko'paymoq" [1: 120]. "O'zbek tilining izohli lug'ati»da esa zo'raymoq so'zining ikki ma'nosi qayd etiladi:

1. "Kuchliroq bo'lib bormoq, kuchaymoq".
2."Og'irlashmoq, yomonlashmoq [2: 312].

Kuchaymoq ma'nosi esa shu lug'atda yuqorilashmoq, tus olmoq, avj olmoq , zo'raymoq" [2: 409].

Kuchaymoq va zo'raymoq ma'nolariga berilgan izohlardan ma'lumki, ikkala til birligi predmet harakatining miqdori ortib, kuchaygan, avj olgan, kuchli darajaga o'tgan paytini ifodalaydi [3: 409]. Ammo "O'zbek tilining izohli lug'ati"da kuchaymoq ma'nosiga berilgan izohdan kuchaymoq zo'raymoq [1] bilan birlashtiruvchi ma'nosining bir xilligi, umumiyligi ifodalanishidan tashqari kuchaymoq ma'nosida ta'sirchanlik zo'raymoq ma'nosidagi ta'sirchanlikka nisbatan ortiqligi anglashiladi. Aslida esa ta'sir qilish kuchi kuchaymoq ma'nosida emas, aksincha, zo'raymoq ma'nosidan ortiq. Chunki zo'raymoq so'zida belgi darajasi kuchli [5: 127]. Qiyoslang:

Zo'raymoq - ortiq darajada kuchaygan holatga o'tmoq: "Qabriston yonidan o'tayotib, uning qo'rquvi zo'raydi" (Fan va turmush). "Yomg'ir zo'raydi" (N.Normatov). "Shamol zo'rayib daraxtlarni silkitgan sari biz sevinamiz" (Oybek).

Tezlashmoq - jadal holatga o'tmoq: Gullarning ko'saklarga aylanishi tezlashyapti (Radiodan). "Shabada ham tezlashib, bolalarning sochlari va galstuklari bilan tinmay o'ynashmoqda" (H.Nazir).

Yengillashmoq - yengil holatga o'tmoq: "Tulporlarning oyog'i yengillashdi" (H. Nazir).

2) "Miqdoriy kamaymoq" semali holat fe'llari: kamaymoq, ozaymoq, susaymoq, sustlashmoq, sekinlashmoq, pasaymoq, siyraklashmoq, og'irlashmoq, bo'shashmoq. Bunday mantiqiy ifodali holat fellari predmet harakatining sekinlashib, kamayishi natijasida yuz bergan harakatning ta'sir nuqtasini belgilovchi omil sifatida kuzatiladi. Bunday holat fe'llari asosan yasama fe'llardan tuziladi. Ular sifat va ravishlardan bo'lib, -ay, -lash, -lan, -a yasovchilari ta'sirida fe'llik xususiyatini oladi.

"Miqdoriy kamaymoq" farqlovchi sema quyidagi fe'l ma'nolarida qayd etiladi:

Kamaymoq – "kam", "holatga", "o'tmoq": "Qon oqishi hiyla kamaydi" (U. Nazarov). "Havoning sal bo'lsa-da salqinlashishi chang-to'zonni kamaytira bordi" (M.Ismoiliy).

Ozaymoq - oz holatga o'tmoq: "Kechga yaqin Gulnorning issig'i ozaydi" (Oybek).

Ozaymoq ko'proq adabiy tilga, kamaymoq esa jonli nutqqa xos bo'lib, ko'p qo'llanadi.

Susaymoq - sust holatga o'tmoq: "Bu tovush bemorning harakatini susaytirdi" (N.Normatov). "Shu og'ir musibatdan keyin ham ungurdagi ish susaymadi" (M.Ismoiliy).

Sustlashmoq susaymoq so'zi bilan shakl yaqinligi va umumiyligiga ega. Ayni vaqtda ular alohida til birligi bo'lib, har birining o'ziga xos tovush tizimi va ma'no tarkibi mavjud. Har biri nutqda muayyan so'zlar bilan semantik-grammatik munosabatga kirishadi. Sustlashmoq, susaymoq so'zida o'zak morfema sust "kuchsiz zaif, bo'sh, sekin" kabi ma'nolarni anglatuvchi sifatdir [4]. -lash qo'shimchasi sifatdan fe'l yasagan. Ko'rinadiki, sustlashmoq yasama fe'ldir. Sustlashmoq va susaymoq so'zlari bir tomondan nisbatan shakliy farqqa ega bo'lsa, ikkinchi tomondan bu fe'llar

asosiy ma’nosiga ko‘ra o‘xshash. Ammo bu semantik o‘xshashlik asosida nozik ma’no farqi mavjud. Bu fe’llar, ta’sirchanlik darajasiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Ushbu fe’l ma’nolari bir-biridan predmet harakatining muayyan holatga o‘tishining miqdoriy belgi darajasiga ko‘ra farq qiladi. Sustlashmoq ma’nosida harakat holatining miqdoriy belgi darajasi susaymoq ma’nosidagi miqdoriy belgi darajasiga nisbatan kuchliroq. Ya’ni sustlashmoq ma’nosida harakatning holat belgisi ta’sir kuchiga ko‘ra nisbatan ortiqligi bilan ajralib turadi. Qiyoslang:

Sustlashmoq – “ancha sust”, “holatga”, “o‘tmoq”: “Yomg‘ir sustlashib, mayda zarrachalarga aylandi” (U. Nazarov). “Uzoqdan Manzuraga ko‘zi tushib, negadir sustlashdi” (X. To‘xtaboyev). Susaymoq, sustlashmoq so‘zlari og‘zaki nutqda kam qo‘llanadi.

Sekinlashmoq - sekin holatga o‘tmoq: “Letargik uyquga ketganlarning yurak urishi, nafas olishi shunchalik sekinlashadiki, quloq, bilan eshitish amri mahol bo‘lib qoladi” (Toshkent haqiqati). “Ko‘chaning burilishida yana bir oz uning (Otabekning) odimlari sekinlashsa ham, lekin oldinlashini qo‘ymay boraveradi” (A.Qodiriy). Sekinlashmoq ma’nosidagi belgi darajasi susaymoq ma’nosidagi belgi darajasiga nisbatan biroz ortiq. Sekinlashmoq nutqda ko‘p qo‘llanadi.

Pasaymoq - past holatga o‘tmoq: “Kechagi izg‘irin pasaygan” (O.Yoqubov). “To‘tiqiz yuragidagi dukur endi bir oz pasaydi” (M. Ismoiliy). “Uning tovushi sal o‘zgardi, pasaydi” (A. Muxtor).

Siyraklashmoq – siyrak holatga o‘tmoq: “Ko‘chadagi qatnov siyraklashib, qorong‘i tusha boshladi” (H.G‘ulom).

Og‘irlashmoq - og‘ir holatga o‘tmoq: “Tun qorayib, yo‘l yurish og‘irlashdi” (H.G‘ulom). “Ungur ichkarilagan sari ish o‘ylanmagan darajada og‘irlashadi” (M.Ismoiliy).

Bo‘shashmoq - bo‘sh holatga o‘tmoq: “... tog‘ qazuvchilar shiddati zarracha ham bo‘shashmadi” (M. Ismoiliy). “Issiq bir muncha bo‘shashgandek tuyulsa ham, dimlik zaptida edi” (M.Ismoiliy).

Nutqda harakatning holatini ifodalovchi fe’l vazifasida ba’zan harakat, jarayon ma’nosini bildiruvchi cho‘zmoq (cho‘zilmoq) so‘zi ham qo‘llanadi. Harakat fe’lining holat ma’nosida kelishi muayyan nutq bilan bog‘liqdir. Bunday hollarda harakat fe’lining holat vazifasida bo‘lishi, shu fe’l bilan bog‘lanib kelgan alohida so‘zga bog‘liqdir. Chunki bu nutq birligi harakat ma’nosiga ega bo‘lib, u cho‘zmoq so‘zi ma’nosida holat belgisini, harakatning holatini yuzaga keltiradi. Qiyoslang: cho‘zmoq- davomiy holatga o‘tmoq: “Shuning uchun ham tergovni ataylab cho‘zdi” (H. G‘ulom). “Gap ancha cho‘zildi” (O.Muxtorov).

Xullas, harakatning holati fe’llari asosan yasama fe’llardan tuzilib, mazmunan predmetning harakat va holat tarkibiy qismlarini, harakatning doimiy holat belgisini ifodalashi bilan muayyan leksik-semantik guruhni tashkil qiladi.

Malaka holati fe’llarining ma’no tuzilishi. Malaka holati fe’llari inson ruhiyatida (ba’zan jonivorlarda) biror harakat - hodisaga, predmetga nisbatan paydo bo‘lgan turlicha munosabatni shakllanib, mustahkamlanib doimiy, davomiy xususiyatga aylangan ko‘nikma, o‘zlashtirilgan odatni anglatadi. Bunday ko‘nikma, odatlar asosan insonga xos muhim belgi sifatida inson tabiati (xulq-atvori)ning bir ko‘rinishi bo‘lib kuzatiladi. Inson hayoti va faoliyatida turli-tuman juda ko‘p jarayonlarda qatnashadi, har xil narsa - predmetlar bilan munosabatda bo‘ladi. Shu jarayonda shaxsda mavjud voqelik bilan bog‘liq holda predmetlarning ta’siri natijasida yuzaga kelgan ko‘nikma, odatlar holat belgisini tashkil qilib, malaka holati fe’llarining mazmun tomonini egallaydi. Binobarin, malaka holati fe’llari “malaka”, “ko‘nikma” kabi asosiy, markaziy semalarga egaligi bilan ajralib turadi.

Shunisi muhimki, malaka egasi bo‘lgan inson ko‘nikmasining, odatining manbai muayyan predmetlar bo‘lib, bularni ifodalovchi til birliklari tub va ot + -lash shaklidagi yasama fe’llardan tarkib topadi. Bular: ko‘nikmoq, o‘rganmoq, odatlanmoq.

Qayd etilgan fe’l ma’nolarining farqlovchi semalari quyidagi mantiqiy ifodaga ega:

Ko‘nikmoq - majburan muvofiqlashgan holatda bo‘lmoq: “Umri go‘daklik chog‘idan og‘ir mehnatga, achchiq-quruq gaplarga ko‘nikib, chiniqib o‘sgan” (H.Nazir). “Bu hol avvallari xaloyiqning g‘azabini, nafratini keltirgan bo‘lsa ham bora-bora odamlarning bir qismi ko‘nikdi” (A. Qahhor). “Oqqushcha avvaliga uyga, odamlarga ko‘nikdi” (Shuhrat). Ko‘nikmoq tasviriy so‘zi, asosan, badiiy nutqqa xos bo‘lib, “majburiy” belgisiga ega.

O‘rganmoq - beixtiyor moslashish holatida bo‘lmoq: “Go‘daklik chog‘imda senga o‘rgandim” (H.Olimjon). “Buzoqligidan o‘zi tarbiya qilgan, unga o‘rgangan edi” (S.Yunusov). O‘rganmoq, asosan, so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, keng qo‘llanadi, “beixtiyor” belgisiga ega.

Odatlanmoq - ixtiyoriy o‘rganish holatida bo‘lmoq: “Shu boisdan ko‘chmanchi qirg‘izlar idish-tovoqni o‘z turmush tarziga mos turli materiallardan yasashga odatlanishgan” (Fan va turmush). “U podachining uchinchi kenja qizi bo‘lib, dono, hushyor mehnatga odatlangan” (Sohibqiron). “Ravshan qay vaqtda yotmasin, erta saharda o‘rnidan turishga odatlangan edi” (U. Nazarov). Odatlanmoq so‘zi asosan adabiy til - yozma nutqda keng qo‘llanadi, «ixtiyoriy» semasiga ko‘ra boshqa malaka holati fe’llaridan farq qiladi.

Xullas, malaka holati fe’llari inson ruhiy olami bilan bog‘liq davomiy holatlarni ifodalashiga ko‘ra nisbatan mustaqil sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент. 1980. 120-бет.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I. – Москва. 1981.
3. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент. 1974.
4. Узбекско-русский словарь. - Москва. 1959, 388-бет.
5. Русско-узбекский словарь. – Москва. 1954, 793-бет.



Sitora TURABOYEVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Fan va texnologiyalar universiteti dotsenti
e-mail: turaboyevasitora64@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA “DO‘ST” VA “BEGONA” KONSEPTUAL BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek tilidagi axloqiy qadriyatlarni bildiruvchi konseptning leksik-semantik tadqiqi, xususan, til hodisalari tahlili orqali sharq tamaddunining tavsifi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, lingvokulturologik birliklarni tarjima qilishda adekvatlik va ekvivalentlik tamoyillaridan kelib chiqib yondashish bo‘yicha ilmiy asoslarga ega bo‘lgan tavsiya va takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, axloqiy qadriyatlar, konsept, qiyosiy-assotsiativ, lingvoma’naviyatshunoslik, verbal va noverbal vositalar, semantik, sintaktik.*

Аннотация: в статье рассматривается лексико-семантическое исследование понятия нравственные ценности в узбекском языке, в частности описание восточной цивилизации посредством анализа языковых явлений. Также даются научные рекомендации и предложения на основе принципов адекватности и эквивалентности при переводе лингвокультурных единиц.

Ключевые слова: *лингвокультурология, нравственные ценности, концепт, сравнительно-ассоциативный, лингводуховность, вербальные и невербальные средства, смысловые, синтаксические.*

Annotation: the article discusses the lexical-semantic study of the concept of moral values in the Uzbek language, in particular, the description of the eastern civilization through the analysis of language phenomena. Also, scientific recommendations and proposals are given on the basis of the principles of adequacy and equivalence in the translation of linguistic and cultural units.

Key words: *linguoculturology, moral values, concept, comparative-associative, linguo-spirituality, verbal and non-verbal means, semantic, syntactic.*

So‘z semantikasiga oid samarali tadqiqot usullaridan biri muayyan bir so‘zga xos bo‘lgan leksik-semantik xususiyatlarni aniqlash uchun ajratib olingan til birliklarining lug‘aviy ma’nolarini turli aspektlarda tahlil qilish va konseptga bog‘lanadigan til birliklarining xuddi shunday xususiyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat. Shuning uchun ham “do‘st” konsepti va uning diskursiv qarama-qarshisi bo‘lgan “begona” konseptlarini hamda ushbu konseptosferadagi verballashgan til birliklari o‘rtasidagi farqli xususiyatlarni tahlil qilish ushbu tadqiqot ishining muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Muayyan konseptning «xotirasi»ga murojaat qilmasdan turib, milliy konseptosferada uning qanday o‘rin tutganini aniqlash mumkin emas [1: 64-72]. Etimologik tahlil yordamida konseptning tildagi evolyutsion rivoji, yo‘qolib ketgan yoki yangi paydo bo‘lgan semantik belgilari harakatining dinamikasini aniqlashdek muhim jarayon amalga oshadi [2: 155-159]. Demak, konsept etimologiyasi uning semantik rivoji, shuningdek, tabiatiga xos bo‘lgan o‘zgarishlarni dalillash imkonini beruvchi omildir. Konseptning muayyan tildagi etimologik tahlili uning nominativ maydonini aniqlashdagi ilk qadam bo‘ladi.

Konseptning keng ko‘lamli va ko‘p sathli ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, S.X.Lyapin, Y.S.Stepanov va V.I.Karasik ta’kidiga ko‘ra, tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda, ma’lum bir konseptning ustuvor yarusi belgilab olinad, ya’ni qaysidir tadqiqotning diqqat markazida masalaning psixologik yoki psixolingvistik aspektlari tursa, yana boshqa bittasida – etimologiya, etnografiyaga oid muammolar, uchinchisida esa masalaning madaniy, lingvokulturologik jihatlari ustivorlik kasb etishi mumkin [3].

V.A.Maslova konseptning ko‘p qirrali tushuncha ekanligini hisobga olib, uning tavsifini keltirishda bir qator o‘ziga xos, ajralmas xususiyatlarini e’tiborga

olish muhimligini ta’kidlaydi. Ya’ni konsept:

1) inson tajribasi minimal birliklarining ideal tasavvurida so‘z orqali ifodalanib, maydon tuzilmasiga ega bo‘lgan ifodasi;

2) bilimlarni saqlash, ularga ishlov berish va uzatishning asosiy birligi;

3) o‘z dinamik chegarasi va aniq funksiyalariga ega;

4) ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lib, uning negizida hosil qilinadigan assotsiativ maydonda o‘z pragmatik jihatlarini namoyon qiladi;


5) konsept – madaniyatning muhim bo‘g‘inidir [4: 37].

O‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan “do‘st” va uning antikonsepti “begona” haqida so‘z yuritilar ekan, aytish joizki, eski turkiy adabiy tili bosqichigacha bo‘lgan davrda boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish deyarli xos bo‘lmaganligi tufayli mazkur leksik birliklar uchramaydi [5].

“Do‘st” so‘ziga “O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’riflar beriladi [6: 45]:

№	Ta’rif	Misollar
1	*”Totuvlik munosabati bilan bog‘langan”* ma’nosini beradi, ma’nodoshlari: **jo‘ra, oshna, o‘rtoq**	*Mana shu vaqtgacha jo‘ralarning soni hamon o‘sha – to‘qqizdan ortmaydi.* (A.Qahhor, “Sarob”) [6: 81].
2	*Tarafdor, homiy*	*Musulmonqulga tarafdorlaringiz bo‘lsa, tinchlikcha qo‘shindan chiqib ketsin!* (A.Qodiriy, “O‘tgan kunlar”).
3	*Diniy tasavvufda Xudo*	*Allohim (Xudoyim) sen meni eng yaqin do‘stimsan, doim meni eshitasan, Allohim - o‘zing sabr ber, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsat.* (Bolaning Ollohga *murojaati* htttps://t.me Mahzun qalblardan).

O‘zbek tilining ma’nodoshlik lug‘atida **“do‘st”** konseptining quyidagi ma’nodoshlari berilgan:



Shu o‘rinda bu ma’nodosh so‘zlarning badiiy asarlarda qo‘llanilish o‘rinlarini ko‘rib chiqsak:

“Do‘st-yorlar yig‘ilib, chog‘ir ichib, musiqa va raqslar bilan tong orttiradilar”. (Oybek, “Navoiy”)

“Yaxshilar doim nasihat aylar o‘z ***ahbobiga:*** ichmagil, hushyor bo‘l, tushma balo girdobiga”. (Voqif)

“Habibim band etar ko‘nglimni,
Tabibim pand etar doim”. (E.Vohidov)

“-Ha, ishing qalay, Omon ***og‘ayni?***
-Ye, so‘rama, ***o‘rtoq***, -dedi, - bo‘kib qoldim.

-le, nimaga bo‘kasan?

-Sen ketganingdan keyin xo‘jayinning bir-ikki qur ***oshnalari*** mehmon bo‘lib kelishdi”. (G‘.G‘ulom, “Shum bola”)

“Do‘st” va uning kontekstual antikonsepti “begona”ning hozirgi zamon o‘zbek tili leksikografik izohlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da quyidagi ta’rif keltiriladi: DO‘ST - shafqatli o‘rtoq, yor, oshno, mahbub(a).

1. Qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo‘lgan, inoqlik, ahillik bilan bog‘langan ikki yoki undan ortiq kishining har biri; o‘rtoq. zid. dushman. *Qadrdon do‘st. Chin do‘st. Qiyomatli do‘st. Vafodor do‘st. O‘z do‘stim deb so‘z aytma, do‘stingning ham do‘sti bor.*

2. Yaqin, tanish, oshno. *Mana bu do‘stim bilan men daryodan o‘tolmay qoldik. Shu yaqindagi qishloqqa non so‘rab bordik.* (I. Rahim, “Chin muhabbat”)

Do‘stingdan top. Do‘sti, yaqin kishisi biror yomonlik qilganda aytiladigan ibora.

Do‘sti sodiq. Vafodor, sadoqatli do‘st. “Dunyoda do‘sti sodiqni topish qiyin ekan”. (A.Qodiriy, “Mehrobdan chayon”)

Jon (yoki **jonajon) do‘st**, jonini ham ayamaydigan, samimiy, beg‘araz do‘st. “Poylab-poylab, xo‘b tomosha qilsang-chi, To‘y-tomosha qulluq bo‘lsin, jon do‘stim”. («Yusuf va Ahmad»). “Avval aytganimdek, akademik Habib Muhamedovich Abdullayev bilan [Abdulla Qahhor] jon do‘st edilar”. (K.Qahhorova, “Chorak asr hamnafas”).

Ish (yoki **mehnat) do‘sti** birga ishlab, mehnat jarayonida orttirilgan do‘st. “Ish do‘sting — jon do‘sting. Ko‘rib qo‘y, deb so‘zni boshlayman, mehnat do‘stim — asal yorimga”. (G‘ayratiy)

Mol do‘sti oldi-berdi munosabatlarida orttirilgan do‘st, biror narsadan ilinji bo‘lgani uchungina oshno bo‘lgan, yuzaki do‘st. *“Jon do‘sting jondan kechsa ham, mol do‘sting molidan kechmaydi”.* (Maqol).

Piriga ham do‘st bo‘lmaydi. Hech kimsaga do‘st bo‘lmaydigan yomon odam haqida. *“Erining yuz-xotirini qilmaydigan xotin piriga ham do‘st bo‘lmaydi”.* (A.Qahhor, “Qo‘shchinor chiroqlari”).

3. Murojaat qilish shakli. *“Xo‘sh, taqsir, nega xomushsiz? -E, aziz do‘stim, sal qiynalibroq qoldim”.*(N.Safarov, “Hayot maktabi”).

4. Diniy tasavvufda: Alloho, ey Xudo. *Har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: "Hey do‘st, shaydullo, banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo".* (A.Qahhor, “Bemor”).

Do‘st tortmoq 1) "Do‘st!" deb xudoga yolvormoq. *“O‘z odatining aksicha do‘st tortdi-da, yuqoriga qaradi”* (S.Anorboyev, “Oqsoy”); 2) *ko‘chma* qichqirmoq, sayramoq. *"Rohat"ni eshitib, Tantiboyvachcha "ezib yubordingiz, jonidan!" deb qichqirdi va bangilar kabi bir "do‘st!" tortdi.* (Oybek, “Tanlangan asarlar”).

DO‘ST *(o‘ - cho‘ziq)* und. s. Tasanno, ofarin ma’nolarini bildiradi. *Do‘st, kam bo‘lmang! Bog‘larni qoplaydi zavq-u shavq, qarsak, Keksalar og‘zida: "Do‘st!", "Barakallo!"* (Uyg‘un, “Tong qo‘shig‘i”).

“Begona” konsepti tub so‘z hisoblanib, do‘st konsepti ifodalagan tushunchalar bilan oppozitiv munosabatni ifodalaydi. Begona konsepti ham birinchi semantik ma’nosida tanish, tanish-bilish leksemalari bilan semantik oppozitsiya munosabatini namoyon qiladi. Quyida “Begona” konseptiga berilgan ta’rifni ko‘ramiz. **BEGONA** — qarindosh yoki tanish bo‘lmagan; yot.

№	Ta’rif	Misollar
1	Qarindoshlik yoki boshqa jihatdan bir toifadagi, guruhdagi kishilardan chetda turuvchi, ularga munosabati bo‘lmagan.	*Menga begona bo‘lsangiz, o‘g‘lingizga begona emassiz-ku. (*A.Qahhor, “Qo‘shchinor chiroqlari”)
2	Tegishli bo‘lmagan, chetdan kelgan; chet.	*Tunlari har hovli eshigida o‘sha yerda yashovchilardan navbatchilar tayinlanadi — begona kirmasin. (*Shuhrat, “Shinelli yillar”)
3	O‘zgalarga tegishli, notanish; o‘zga.	*Begona shahar. Mana endi, begona ko‘z, begona quloqning yo‘g‘ida uchovi xoxolashib, og‘iz-burun o‘pishib kelayotir. (*M.Ismoiliy, “Farg‘ona tong otguncha”)
4	*Ko‘chma ma’noda* xabari bo‘lmagan, ko‘rmagan, bilmagan; yot.	*Hayotning dag‘al muomalasidan begona, faqat uning chuchuk so‘zlarinigina tinglab kelgan Otabekka bu xo‘rlik turmushdan birinchi zarba edi.*

Begona o‘t - odamlar yoqmaydigan, ammo madaniy ekinlar orasida tasodifiy urug‘dan ko‘karib chiqqan yovvoyi o‘t. “Yerdan yaxshi unum olish uchun yerning begona o‘tlardan tozalanishi, kuzda chuqur chopilishi, go‘ng solinishi kabi masalalarga ko‘p ahamiyat berib qoladi”. (A.Qodiriy, “Obid ketmon”)

Begona - beklarga, beklar nasliga xos bo‘lgan, dabdabali, hashamatli; beklarcha.

O‘zbek tilining etimologik lug‘atida bu til birligiga quyidagicha ta’rif beriladi. “Bu sifat fors tilida bigane shaklida, tojik tilida esa begona shaklida, o‘zbek tilida ham begona shaklida keltirilgan. Ko‘rinadiki, bu sifat o‘zbek tiliga tojik tili shaklida olingan; qarindoshligi, tanishligi yo‘q, yot ma’nosini anglatadi. Bu sifat bilan o‘zbek tilida begonalash, begonasira” fe’llari hosil qilingan, yetti yot begona sifati qabul qilingan [7].

Ko‘rib turganimizdek, “begona” leksemasi ham shakldoshlik xususiyatiga ega sanaladi va ikkinchi ma’nodagi semantik yadroda beklarga aloqadorlik ma’nosi ifodalanadi. Yuqorida berilgan “begona” konseptining birinchi semantik ma’nosi orasida mazmuniy bog‘liqlik kuzatilsa-da, har biri o‘zaro ichki semalarga ega sanaladi. “Begona” konseptining birinchi izohidagi “qarindoshlik yoki boshqa jihatdan bir toifadagi, guruhdagi kishilardan chetda turuvchi, ularga munosabati bo‘lmagan”, degan izoh genetik yoki boshqa jihatlariga ko‘ra o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lgan insonlar orasiga bevosita aloqador bo‘lmagan shaxsni ifodalasa, ikkinchi izohda “tegishli bo‘lmagan, chetdan kelgan” degan ma’noda begonalik darajasi bir pog‘ona yuqoriga ko‘tariladi. “O‘zgalarga tegishli, notanish; o‘zga” ma’nosi esa yuqoridagi har ikkala ta’rifdan yuqoriga ko‘tariladi va ma’nolar orasida ham ichki oppozitsiya munosabatini aks etishini ifodalaydi.

Lingvokulturologik jihatdan faol konseptlarning ko‘pchiligi o‘zlarining konseptual invariantlariga ega bo‘ladi. Mazkur ma’nodosh invariantlar sinonimlar orqali ifodalanadi, tayanch so‘z bilan ma’no munosabatlariga muvofiq ravishda qaysidir birlari yadro, boshqalari esa periferik zonalardan joy oladi. A.N.Prixodko sinonimlarning qo‘llanilishi konseptning lisonda subyektiv baho bilan aks ettirish vositasi deb hisoblaydi [8: 78]. So‘z turkumlari kesimida qaralganda, “do‘st” va “begona” konseptlari hosil qiladigan konseptual maydon birliklari bir qator birliklar bilan bitta konseptosferaga mansub hisoblanadi. Aytish lozimki, biz quyida keltiradigan leksik birliklar ma’lum semantik xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadi.

Mazkur verbalizatorlar orasida nafaqat o‘z qatlam, balki o‘zlashtirma so‘zlarga oid namunalar safi ham keng bo‘lib, bu mazkur konsept ingliz lingvomadaniyati uchun davrlar osha naqadar aktualligi ortib borayotganligidan dalolat beradi. Zero, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, konseptual maydon kengligi, tegishli konseptning o‘sha etnos uchun ahamiyati darajasini ham belgilay oladi. Turli madaniy maydonda yashovchi insonlarning ongidagi lisoniy manzara turlicha ekanligi shubhasiz. Ularning muloqoti doirasida bu o‘zgachaliklar o‘z aksini topmay iloji yo‘q. Insoniyat uchun eng ahamiyatli fenomen bo‘lgan «do‘stlik» turli madaniyatlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Bu turlichalik ularning ona tilida o‘z aksini topadi. Shu bilan birga bir tilni ona tili sifatida tan oluvchi ikki jins vakillari ham bu borada o‘ziga xos manzara yaratadilar. «Konseptlar mohiyatan umumbashariy, mintaqaviy, milliy, etnik turlarga yoki xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, «urush», «tinchlik», «olam», «tabiat», «havo» konseptlari umumbashariy ahamiyat va xususiyati bilan xarakterlanadi. «Non», «suv» konseptlari mintaqaviy-jo‘g‘rofiy xususiyatlarga egaligi bilan o‘ziga xos. «Do‘stlik», «begonalik», «xiyonat», «vafo» konseptlari esa milliy xarakteri bilan boshqa konseptlardan ajralib turadi» [9: 97].

Do‘st va begona konseptlarining semantik ma’no maydonida nazarda tutilgan mazmun har doim ham leksemalar orqali voqelanmasligi mumkin. Ayrim nutqiy vaziyatlarda butun matn parchasida nazarda tutilgan pragmatik hamda semantik ma’no do‘st va begona konseptida nazarda tutilgan mazmunning kognitiv anglanishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании //Филологические науки. – 2001. – Т. 1. – №. 1. – С. 64-72.
2. Валюкевич Т.В. Семантико¬этимологический анализ лингвокультурного концепта ВНЕШНОСТЬ / Т.В.Валюкевич // Весник Харковского национального университета им. В.Н.Каразина. – Харьков: ХНУ им. В.Н. Каразина, 1964. № 973: Серия: Романо-германська филология. Методика преподавания иностранных языков. Вып.68. – 2011 (¬1460 а). – С. 155¬159.
3. Красавский Н.А. Концепт “Zorn” в пословично-поговорочном фонде немецкого языка. // Теоретическая и прикладная лингвистика. Выпуск 2. Язык и социальная среда. – Воронеж. Изд-во ВГТУ, 2000. – С.78 89//eidos.rsl.ru
4. Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта: Наука, 2006. – С.37.
5. Турсунов У., Ўринбаев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.117.
6. Hamroyeva Y. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent, 2010.
8. Приходько А. Н.Концепты и концептосистемы. – Днепропетровск: Белая Е. А, 2013. – С.78.
9. Рустамова Д.А. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспекти: Филол. фан. б. фалс. док... дисс. – Фарғона, 2018. – Б.97.



Dildor ESHMURATOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
o‘qituvchisi, f.f.f.d., (PhD), dotsent v.b.

DINIY BIRLIKLARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: tilning ma’naviy va estetik jihatlari ko‘pincha diniy birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Diniy birliklar nafaqat diniy matnlarda, balki badiiy adabiyot, publitsistika, va kundalik muloqotda ham muhim stilistik vazifalarni bajaradi. Ular o‘zining semantik chuqurligi, kontekstual o‘zgaruvchanligi, va stilistik vosita sifatidagi ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi. Maqolada diniy birliklarning madaniy va lingvistik kontekstga bog‘liq ravishda turli xil stilistik vazifalarni bajarishi ko‘rsatilib, ularning ramziy, majoziy va emotsional ma’nolari ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *diniy birliklar, stilistik xususiyatlar, metafora, semantik chuqurlik, emotsional ta’sirchanlik, ramziy ma’no, majoziy uslub, zamonaviy nutq, tilshunoslik.*

Аннотация: духовные и эстетические аспекты языка часто выражаются через религиозные единицы. Религиозные единицы выполняют важные стилистические функции не только в религиозных текстах, но и в художественной литературе, публицистике, повседневном общении. Анализируются семантические, эмоциональные и художественные особенности религиозных единиц, изучается их использование в художественной литературе, публичной речи, современных публичных текстах.

Ключевые слова: *религиозные единицы, стилистические особенности, метафора, смысловая глубина, эмоциональное воздействие, символика, образный стиль, современная речь, лингвистика.*

Annotation: the spiritual and aesthetic aspects of the language are often expressed through religious units. Religious units perform important stylistic functions not only in religious texts, but also in fiction, journalism, and everyday communication. They are distinguished by their semantic depth, contextual variability, and versatility as a stylistic tool. The article shows that religious units fulfill different stylistic tasks depending on the cultural and linguistic context, and their symbolic, figurative and emotional meanings are revealed.

Key words: *religious units, stylistic features, metaphor, semantic depth, emotional impact, symbolism, figurative style, modern speech, linguistics.*

Kirish. Barchamizga ma’lumki, stilistika – tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u til birliklarining turli nutq uslublarida qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganadi. Stilistika tilning estetik imkoniyatlarini, hissiy, emotsional va badiiy mazmunni ifodalashdagi rolini tahlil qiladi. Bu soha, tilning barcha qatlamlarini, ya’ni fonetikadan leksikaga, morfologiyadan sintaksisgacha bo‘lgan barcha jihatlarini turli uslubiy ko‘rinishlarda o‘rganishga yordam beradi.

Stilistikaning asosiy yo‘nalishlari esa quyidagilardir.

1. Nazariy stilistika: til birliklarining stilistik imkoniyatlarini umumiy asoslarda o‘rganadi. Bu yo‘nalish tilning ichki qonuniyatlari va turli uslubiy vositalar haqida ilmiy tasavvurlarni shakllantiradi.
2. Amaliy stilistika: turli nutq uslublarida til vositalarining aniq qo‘llanilishi va ularning samaradorligini o‘rganadi. Masalan, ilmiy, badiiy, ommaviy, publitsistik va kundalik uslublar.
3. Fonostilistika: fonetik vositalarning nutq va matnlardagi estetik xususiyatlarini o‘rganadi. Masalan, alliteratsiya yoki assonansning badiiy asarlarning ohangiga ta’siri.
4. Leksik stilistika: so‘z boyligining turli xil uslubiy vazifalarni bajarishi va matndagi hissiy-estetik rolini o‘rganadi.
5. Grammatika stilistikasi: morfologik va sintaktik birliklarning stilistik funksiyalarini o‘rganadi. Masalan, inversiya, parallelizm kabi vositalarning qo‘llanilishi.

Stilistika tilning estetik va funksional imkoniyatlarini o‘rganish orqali tilshunoslik va adabiyotshunoslikda muhim o‘rin tutadi. U nafaqat tilni tahlil qilish vositasi, balki nutqni boyitish, madaniy va emotsional muloqotni shakllantirishning muhim vositasidir. Stilistik xususiyatlarni o‘rganish, tildan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu o‘rinda stilistikaning asosiy xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tsak.

1. Uslublarning xilma-xilligi: stilistika turli nutq uslublarini o‘rganadi.
2. Hissiy va emotsional ta’sir: stilistika nutq vositalarining tinglovchi yoki o‘quvchiga emotsional ta’sirini tahlil qiladi. Masalan, metafora yoki epitetlardan foydalanish nutqni boyitadi va hissiy ta’sirni oshiradi.
3. Matn va kontekst bilan bog‘liqlik: Har qanday stilistik vosita ma’lum kontekstda samarali ishlaydi. Masalan, bir uslubiy vosita ilmiy matnda samarali bo‘lsa, boshqa uslubiy vosita badiiy matnda samarador bo‘lishi mumkin.
4. Estetik xususiyatlar: stilistika so‘zlarning o‘zaro uyg‘unligini, tovushlarning ritmik ohangini va matnning go‘zalligini o‘rganadi.

Adabiyotlar tahlili. Din bu madaniyatning elementlaridan biri hisoblanib, mazkur element til va dinning ildizlari hisoblangan insoniyatning tafakkuri mahsuli ekanligini tushunishimiz kerak. Madaniyatning

barcha tamoyillari din va tilga asoslangan bo‘lib, unda insonning o‘rni ahamiyatlidir. Chunki nutqda aks etgan religionim birliklari til nuqtayi nazardan turli diniy-falsafiy tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Til va din chorrahasida vujudga kelgan va dinning tilda mustahkam singib ketgan ko‘rinishlarini o‘rganuvchi soha bu ilohiyotshunoslik va u til va dinning o‘zaro ta’siri muammosini hal qilishga yordam beradi [1: 20-b].

Tadqiqotchi M.U.O‘rinbekova o‘zining ilmiy maqolasida frazeologik birliklarning sintaktik belgilariga quyidagicha ta’rif beradi. “Frazeologik birliklar o‘zlarining semantik, funksional, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga ko‘ra so‘z birikmalari, sodda va qo‘shma gaplardan ajralib alohida bir turni tashkil etadi, ya’ni frazeologik birliklarda so‘z, so‘z birikmalari va gapning struktur belgilari neytrallashib, yaxlitlik kasb etadi” [2: 71-b].

Badiiy adabiyotda birliklar moddiy tilning qobiliyatini boyitishda, balki insoniyatning ma’naviy va ruhiy kechinmalarini ifodalashda ham katta rol o‘ynaydi. Tilshunoslikning tilni diniy nuqtayi nazardan o‘rganuvchi bo‘limi teolingvistika bo‘lib, bu atama haqida turli ilmiy tushunchalar va fikrlar o‘tgan asrimizning o‘rtalarida mashhur olim A.K.Gadomskiy tomonidan berib o‘tilgan [1: 18-b].

Dinning evolutsiyasi teolingvistikaning shakllanishi, rivojlanishi va bugungi kuni bilan bog‘liq. Teolingvistika tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida A.K.Gadomskiyning asarlarida ko‘plab tilga olingan va yetarlicha ilmiy manbalar bilan uning tilni diniy tomonlarini o‘rganishni maqsad qilganligi asoslangan. A.K.Gadomskiy, E.Kucharskaya, Drays va boshqa olimlar diniy sohaning turli elementlarini o‘rganishgan.

So‘zlar, frazeologik birliklar, religionomik birliklarning o‘rganilishida ushbu iboralarning sintaktik belgilarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Muayyan diniy tushunchalarning o‘ziga xosligi, grammatik, leksik-semantik va sintaktik bergilarini S.Bulavin, M.L.Granovskaya, N.M.Shanskiy, R.I.Goryushina, T.F.Sapronov, Y.T.Listrova-Pravda, A.L.Golovanevskiy kabi olimlar chuqur tahlilga tortgan.

Shuning uchun bugungi kunda rivojlanib borayotgan ingliz tilshunosligida turli tipdagi so‘z yasash qoliplari, semantikfunksional planda olingan frazeologizmlar orasidagi aloqalar o‘raganilishi muhim. Bu esa ingliz tilshunosligi oldida yangi maqsadlarni ochadi.

Asosiy qism. Diniy matnlar va ularda qo‘llaniladigan diniy birliklar dunyoqarash, e’tiqod va madaniy merosning uzviy qismi sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu birliklar insoniyatning asrlar davomida shakllangan diniy-falsafiy tafakkurini, ruhiy kechinmalarini hamda estetik qarashlarini ifoda etadi. Diniy birliklar nafaqat diniy matnlarda, balki kundalik hayot, badiiy adabiyot, ommaviy axborot vositalarida ham qo‘llanilib, turli stilistik vazifalarni bajaradi. Ushbu maqolada diniy birliklarning stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi va ularning lingvistik hamda madaniy semantikasiga e’tibor qaratiladi.

Diniy birliklarning umumiy xususiyatlari. Diniy birliklar, avvalo, ma’naviy mazmun va semantik chuqurlik bilan ajralib turadi. Ular asosan:

1. Semantik o‘ziga xoslik: har bir diniy birlikning o‘ziga xos mazmuni bor. Masalan, “rahmat”, “ibodat”, “taqvo” kabi so‘zlar islomda muhim axloqiy va falsafiy tushunchalarni ifodalaydi.
2. Shartlilik va diniy tizim: diniy birliklar ko‘pincha muayyan diniy tizimga xos bo‘lib, kontekstual holda o‘z ma’nosini anglatadi.
3. Simvolik ahamiyat: diniy birliklar, odatda, muayyan belgilar yoki hodisalarning ramzi sifatida ishlatiladi. Masalan, xristianlikda “xoch”, islomda esa “oy va yulduz”.

Diniy birliklar – tilning o‘ziga qatlamlaridan bo‘lib, xos an’anaviy diniy ta’riflar, iboralar va atamalardan tashkil topgan. Ular milliy ma’naviy mazmunni ifoda etadi, balki tilda o‘ziga xos stilistik mashqlarni bajaradi. Shu bilan birga diniy birliklar stilistik jihatdan quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Emotsional ta’sirchanlikni oshirish. Diniy birliklar ko‘pincha ma’naviy va ruhiy holatlarni ifodalashda ishlatiladi. Masalan:

- “Allohning inoyati bilan” kabi iboralar ruhiy tasalli beradi.
- Xristian matnlarida ishlatiladigan “ilohiy qudrat” yoki “osmon shohi” kabi ifodalar oliy ruhiy his-tuyg‘uni uyg‘otadi.

2. Estetik go‘zallikni ta’minlash. Diniy birliklar she’riy va nasriy matnlarga badiiy go‘zallik bag‘ishlaydi. Masalan, Qur’oni Karim oyatlari va Injil matnlaridagi diniy birliklar o‘zlarining ohangdoshligi bilan ajralib turadi.

- Injilda: “Ruhiy mevalar sevgidan iboratdir” – diniy birliklar orqali ma’naviy go‘zallik tasvirlanadi.

3. Kontekstual ma’no chuqurligi yaratish. Diniy birliklar badiiy adabiyotda ko‘pincha metafora, allegoriya va boshqa stilistik usullar bilan qo‘llanilib, matnga chuqur semantik qatlam qo‘shadi.

Diniy bir tilning ajralmas qismi sifatida, balki badiiy adabiyotlarda, materiallarda, axborot vositalarida va siyosiy nutqlarda ham muhim uslublarni boshqarishda. Ular semantik chuqurlik, estetik go‘zallik va axloqiy ma’no bilan matnlarni boyitadi [3: 236-b]. Badiiy adabiyotda diniy birliklar asosan quyidagi usullar bilan ishlatiladi:

1. Simvolik ma’noda ishlatish. Adiblar diniy birliklarni insoniy qiyinchiliklar va ma’naviy izlanishlarni tasvirlash uchun ishlatadilar va o‘rganadilar. Masalan: Abdulla Qodiriy asarlarida “taqdir” tushunchasi inson irodasi va taqvo muvozanatini ko‘rsatadi [4: 108-b].
2. Ramziy obraz yaratish. Diniy birliklar badiiy obrazlarni boyitishda muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, “yetti osmon” iborasi insonning oliy maqsadga intilishini ifodalaydi.
3. Psixologik tasvirni kuchaytirish. O‘quvchi ruhiy

holatini tasvirlashda diniy birliklar katta ahamiyatga ega. Masalan, Dostoyevskiyning “Jinlar” romanida “qudratli Xudo” tushunchasi insonning ruhiy inqirozini aks ettiradi.

Darhaqiqat, diniy birliklar, insoniyat tarixida ma’naviy, axloqiy va falsafiy tizimlarni ifodalovchi asosiy narsadan biri hisoblanadi. Ular milliy diniy matnlarda, balki badiiy adabiyotda, nutqida va kundalik muloqotda ham faol qo‘shiq. Diniy birliklarning til va stilistika nuqtayi nazaridan tahlili, hisobot tilshunoslikda tutgan o‘rni va madaniyatga ta’siri haqida yangi qarashlarni taklif qiladi. Ushbu tezisda diniy birliklarning stilistik xususiyatlari, material, texnika, semantik va madaniy jihatdan yoritiladi.

So‘zlar, frazeologik birliklar, religionomik birliklarning o‘rganilishida ushbu iboralarning sintaktik belgilarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Muayyan diniy tushunchalarning o‘ziga xosligi, grammatik, leksik-semantik va sintaktik bergilarini Ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali kuzatish mumkin. Ommaviy axborot vositalarida diniy birliklar ko‘pincha ijtimoiy-axloqiy mavzularda ishlatiladi. Masalan:

- “Ommaviy ibodat va tinchlik” mavzusida ishlatilgan birliklar axloqiy birlashuvni targ‘ib qiladi.
- Reklama va shiorlarda diniy birliklar stilistik vosita sifatida ma’naviy tuyg‘ularni uyg‘otish uchun ishlatiladi.

Xulosa. Diniy birliklar tilning o‘ziga xos qismidir. Ular nafaqat diniy matnlarda, balki badiiy adabiyot, ommaviy axborot vositalari va kundalik nutqda ham stilistik vazifalarni bajaradi. Ushbu birliklar semantik chuqurlik va estetik ta’sirchanlik bilan matnlarni boyitib, ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Shu sababli diniy birliklarning stilistik tahlili lingvistika va madaniyatshunoslik sohalari uchun dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.U.Eshmuratova. O‘zbek va ingliz tillarida teonim komponentli frazeologik birliklarning lingvoqiyosiy tadqiqi. – Termiz, 2023. 20-bet.
2. M.U.O‘rinbekova. Ingliz tilida frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari. Journal of new century Innovations. Volume 15, ISSUE - 1, October 2022, 74-76-b.
3. G.Constable. Metaphors for religious life in the middle ages. – London, P.236-235.
4. R.F.Payozov. Abdulla Qodiriyning asarlaridagi diniy birliklarning lingvistik tadqiqoti. Journal of new century Innovations. Volume 15, ISSUE - 1, 2022, 108-b.
5. natlib.uz
6. ziyonet.uz



Qodirjon MO‘YDINOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
moydinovqodirjon1973@gmail.com

SUD NUTQI LEKSIKASI BIRLIKLARINING SINONIMIK VA GRADUONIMIK MUNOSABATLARI

Annotatsiya: sud nutqi leksikasi o‘ziga xos semantik maydon bo‘lib, u muayyan leksik-semantik guruhlardan tashkil topadi. Aniqrog‘i, sud nutqi leksikasi tarkibidagi leksik-semantik guruh birliklari o‘zaro: 1) sinonimik; 2)giponimik; 3) semantik graduonimik; 4) antonimik; 5) partonimik; 6)funksionimik munosabatlarda kuzatiladi. Mazkur maqolada sud nutqi leksikasi birliklarining sinonimik hamda graduonimik munosabatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *semantik maydon, sinonimiya, antonimiya, giponimiya, partonimiya, graduonomiya, funksionimiya.*

Annotation: the lexicon of judicial speech is a specific semantic field, which consists of certain lexical-semantic groups. More precisely, the lexical-semantic group units in the lexicon of judicial speech are observed in the following relationships: 1) synonymous; 2) hyponymic; 3) semantic graduonymic; 4) antonymic; 5) partonymic; 6) functional. This article discusses the synonymous and graduonymic relationships of the lexical units of judicial speech.

Keywords: *semantic field, synonymy, antonymy, hyponymy, partonymy, graduonymy.*

Аннотация: лексикон судебной речи представляет собой специфическое семантическое поле, которое состоит из определенных лексико-семантических групп. Точнее, лексико-семантические групповые единицы в лексиконе судебной речи наблюдаются в следующих отношениях: 1) синонимических; 2) гипонимических; 3) семантических градуонимических; 4) антонимических; 5) партонимических; 6) функциональных. В данной статье рассматриваются синонимические и градуонимические отношения лексических единиц судебной речи.

Ключевые слова: *семантическое поле, синонимия, антонимия, гипонимия, партонимия, градуонимия.*

O‘zbek tilshunosligida sinonimik (ma’nodoshlik) qatorlar o‘rganilgan leksik paradigmalardan biridir. Shaklan har xil, mazmunan bir xil so‘zlar qatorining muayyan o‘xshashlik asosida o‘zaro bog‘lanishi, bu birliklar orasidagi farqlar, ularning tabiati va yuzaga chiqish sabablari maxsus ilmiy tadqiqotlar, o‘nlab qo‘llanma va darsliklar uchun o‘rganish obyekti bo‘lgan.

Sud nutqi leksikasining tarkibi umumiste’mol so‘zlar va yuridik terminlardan iborat ekan, uning birinchi qismi uchun sinonimiya – ijobiy, ikkinchisi uchun esa salbiy holat sifatida qaraladi. Lekin shunga qaramay, ko‘plab sinonimik munosabatdagi birliklarni kuzatish mumkin. Sh.Ko‘chimov ham *ilgari, avval, muqaddam* sinonimik qatoriga til qonuniyatlari nuqtayi nazaridan yondashib, munosabat bildirib o‘tgan [2:73]. Sud jarayonida sinonim terminlarni qo‘llashda iste’molda ko‘p qo‘llanadigan, barcha uchun birdek tushunarli bo‘lganlarini tanlab ishlatish muhim. Xususan, guvoh, shohid sinonimik qatorida guvoh so‘zi ko‘p qo‘llanadi, shohid so‘zida esa badiiy uslubga xos bo‘yoq kuchli bo‘lganligi sababli ham sud nutqida deyarli ishlatilmaydi. Xuddi shu kabi holatlarni *sodiq, sadoqatli, vafodor* sinonimik qatoridagi *vafodor* so‘zida, *kamtar, xushmuomala* sinonimik qatoridagi *xushmuomala* so‘zida, *ko‘rmoq, qaramoq, tikilmoq* sinonimik qatoridagi *tikilmoq* so‘zida, *hamla qilmoq, tashlanmoq* sinonimik qatoridagi *hamla qilmoq* birikmasida, *yiqilmoq, qulamoq* sinonimik qatoridagi *qulamoq* so‘zida, *tushunmoq, anglamoq, idrok qilmoq, bilmoq, fahmlamoq* sinonimik qatoridagi *idrok qilmoq, fahmlamoq* so‘zlarida, *eslamoq, xotirlamoq, yodga olmoq* sinonimik qatoridagi *yodga olmoq* so‘zida, *yovuz, qahri qattiq* sinonimik qatoridagi *qahri qattiq* so‘zida, *avval, ilgari, muqaddam* sinonimik qatoridagi *ilgari* so‘zida, *zarar, ziyon, futur, talafot* sinonimik qatoridagi *futur, talafot* so‘zlarida ham uchratish mumkin. Sud nutqi leksikasida qo‘llanuvchi sinonimlarni sud turiga qarab quyidagicha guruhlarga ajratdik:

a) jinoyat sudi leksikasidagi sinonimlar: *adolatli, odil; ayovsiz, berahm, beshafqat; azob, aziyat, jabr; ayb, gunoh, jinoyat; aybsiz, begunoh, gunohsiz; aytishmoq, janjallashmoq, urishmoq, g‘ijjillashmoq; ataylab, atayin, qasddan; afsuslanmoq, attang qilmoq; beixtiyor, ixtiyorsiz, bexosdan, bilmasdan; do‘q, po‘pisa, tahdid, dag‘dag‘a; janjal, to‘polon, g‘alva, mojaro, g‘avg‘o, mashmasha; jahl, achchiq, g‘azab, qahr, zarda; jirkanch, qabih, manfur, razil; zid, xilof; kechirim, uzr, afv; nuqson, ayb, qusur, kamchilik; sabab, vaj, bahona; sababli, sababdan, tufayli, natijasida, oqibatida; urmoq, do‘pposlamoq, kaltaklamoq; xilvat, ovloq, pana; shikoyat, arz; shubhalanmoq, gumonsiramoq, shubha qilmoq; yalinmoq, yolvormoq; yashirin, maxfiy, pinhon; o‘lik, murda, jasad; o‘ch, qasos, qasd, alam; qaltis, nozik; qiynamoq, azoblamoq, jabrlamoq; uydirma, bo‘hton, tuhmat; aybini bo‘yniga olmoq, jinoyatiga iqror bo‘lmoq; hamla qilmoq, tashlanmoq; urmoq, do‘pposlamoq; so‘kmoq, haqorat qilmoq; tekshirmoq, aniqlamoq; xavfli, qaltis; soxta, qalbaki* va b. Masalan: *D.Azizovaning ayblanuvchini undan pul talab qilganida onasining bilakuzugini sotib, pulini unga bermoqchi bo‘lganligi haqidagi uydirma, bo‘hton so‘zlari tasdiqlanmadi* [6:102]. b) iqtisodiy sud leksikasidagi sinonimlar: *qalbaki, soxta, yasama; ehtiyoj, talab, zarurat; kerakli, zaruriy; taftish, reviziya; zarar, ziyon, talafot; dallol, makler; yordam, ko‘mak, madad; foydali, daromadli* va b.: *Hujjatlar asosida taftish o‘tkazgan B.Erkaboyevga bu haqda savol berganimizda u: “Men hujjatlar asosida taftish o‘tkazdim. Agar tekshirishlar noto‘g‘ri bo‘lsa, mening taftishim ham noto‘g‘ri bo‘ladi”, – deb ko‘rsatuv berdi.* [6:146].

Sud nutqida bir sinonimik qatordagi so‘zlardan faqat bittasigina ishlatiladigan sinonimlar ham uchraydi. Masalan: *dallol, makler* sinonimik qatordagi *dallol* so‘zi, *tekin, bepul* sinonimik qatordagi *tekin* kabi so‘zlar ko‘proq so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lib, sud nutqida deyarli qo‘llanmaydi.

v) harbiy sud leksikasidagi sinonimlar: *qasamyod, qasam; xiyonat, sotqinlik; daxldorlik, aloqadorlik; dezertirlik, qochoqlik; xoin, sotqin; tashqi, xorijiy, ajnabiy; ayblov, aybnoma, ayblov xulosasi, ayblov dalolatnomasi; guvoh, shohid; daraksiz, bedarak, dom-daraksiz, nom-nishonsiz; sudlanuvchi, jinoyatchi, huquqbuzar* va b.

g) barcha sudlar leksikasiga xos umumsinonimlar: *fakt, dalil; sud munozarasi, sud muhokamasi; protest, e’tiroz, norozilik; tayinlamoq, tasdiqlamoq; sabab, vaj; tomon, taraf; aybdor, jinoyatchi, javobgar; aldamoq, laqillatmoq, avramoq; vijdonsiz, nomussiz, benomus, noinsof, insofsiz, muttaham; aytmoq, demoq, so‘zlamoq; sodiq, sadoqatli, vafodor; xislat, fazilat; to‘la, batamom; eshitish, tinglash; ko‘rmoq, qaramoq, tikilmoq; qidirmoq, izlamoq; xabar, ma’lumot, axborot; topshiriq, vazifa; isbot, asos, xilof, qarama-qarshi, zid; oqilona, puxta; fidokor, jonboz va b.* Masalan: *Quyi sudning hal qiluv qarorida yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni aniqlab, yuqori instansiya sudi hay’ati javobgarni oqladi* (U.Mingboev. Sud – fuqarolar himoyachisi). *Himoyamdagi D.Oripov o‘z aybini tan oladi va odil suddan yengillashtiruvchi jazo berilishini iltimos qiladi*.

Ko‘rinadiki, jinoyat sudi leksikasidagi sinonimlar boshqa ishtirokchilarga qaraganda advokat va guvohlarning nutqlarida ko‘p uchraydi.

“Moddiy borliqdagi voqea va hodisalar so‘z orqali bizning hayotimizga ko‘chadi. So‘z kundalik turmushimizning o‘ziga xos ko‘zgusidir. U muayyan xalqning hayotiga kirish, bilim olish uchun

bebaho kalitdir”, – deb yozadi rus tilshunoslari Y.M.Vereshchagin va V.G.Kostamarovlar[5:31]. Haqiqatan ham, obyektiv borliqdagi voqea-hodisalar tilda o‘z ifodasini so‘zlar orqali topar ekan, ular o‘rtasidagi turli semantik munosabatlar doimo olimlar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. An’anaviy tilshunoslikda so‘zlararo munosabatlarni tekshirishda faqatgina sinonim, omonim, antonim, paronimlarga e’tibor berilgan edi. Sistem leksikologiyada giper-giponimik, xolo-meronimik (butun-bo‘lak), graduonimik (darajalanish), funksional va boshqa munosabatlar keng o‘rganilmoqda. Bular ichida graduonimik (darajalanish) hodisasining tilshunoslikda keng o‘rganilganini kuzatish mumkin.

Dunyo tilshunosligida J.Lokk, E.Sepir, D.Bolinjer, Yu.D.Apresyan, Y.S.Stepanov, L.N.Tolstoy, I.V.Chervenkova, T.N.Grigorenko kabi olimlar tomonidan graduonimiya haqida qimmatli fikrlar bildirilgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida bu masala E.Begmatov, H.Ne’matov, R.Rasulov, O.Bozorov, S.G‘iyosov, R.Safarova, M.Narziyeva, Sh.Orifjonova, M.Fayzullayevlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

O‘zbek tilshunosligida graduonimiyaga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar ham mavjud[4].

G.G‘ulomova yuridik terminologiyada graduonimik, ierarxonimik kabi mazmuniy munosabat turlari uchramasligini ta’kidlaydi [7:24]. Sud nutqi leksikasi bo‘yicha olib borgan kuzatishlarimiz buning aksini tasdiqlaydi. Aniqrog‘i, sud nutqi leksikasiga oid birliklar o‘rtasida faol bo‘lgan semantik graduonimiyani uchratish mumkin. Semantik graduonimiya sud nutqi leksikasining umumiste’mol so‘zlar va yuridik terminlar qatlamiga xos birliklarda kuzatiladi. Xususan, sud nutqi leksikasida graduonimik munosabatda bo‘lgan quyidagi birliklarni misol qilib keltirish mumkin:

gumon qilinuvchi →*sudlanuvchi* →*ayblanuvchi* → *aybdor* → *mahkum* → *mahbus* →*retsidevist;*

retsidevist → xavfli retsidevist→o‘ta xavfli retsidevist (O‘zR JK 44-52 moddalar);

jarima →muayyan huquqdan mahrum qilish → axloq tuzatish ishlari→ xizmat bo‘yicha cheklash →qamoq → intizomiy qismga jo‘natish → ozodlikdan mahrum qilish → umrbod ozodlikdan mahrum qilish (O‘zR JK 434-modda);

chertmoq → turtmoq →urmoq → do‘pposlamoq;

shikastlamoq → jarohat yetkazmoq→ chalajon qilmoq → o‘ldirmoq;

dastlabki tergov→tergov→surishtiruv bosqichlari → hibsga olish→ sud→jazolash (yoki oqlash)→apel lyatsiya→kassatsiya;

yengil jinoyat →ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat→ ijtimoiy xavfi katta bo‘lgan jinoyat→ og‘ir jinoyat→ o‘ta og‘ir jinoyat;

o‘g‘ri →o‘g‘riboshi → qonundagi o‘g‘ri;

mayda bezorilik →bezorilik→jinoyatchilik;

jarima to‘lash→ mol-mulkni musodara qilish → ozodlikdan mahrum etish→ umrbod qamoq jazosiga hukm qilish;

gumon qilinuvchilarni saqlash xonasi → hibsga olish → hibsda saqlash → tergov izolyatori → qamoqxona → bir kishilik kamera → qattiq tartibli koloniya va boshqalar.

Demak, sud nutqi leksikasiga oid birliklar ichida graduonimik munosabatlarning: 1) ichki darajalanish; 2) leksik-semantik guruhlar yoki mazmuniy to‘dalar o‘rtasidagi darajalanish; 3) moddiy borliqdagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi birliklar o‘rtasidagi darajalanish [5:146] kabi turlari kuzatiladi. Graduonimik munosabatdagi ushbu birliklar jinoiy yoki huquqbuzarlik harakati qanday boshlanib, qay tarzda rivojlanib va oxir-oqibatda nima bilan tugashini ko‘rsatib bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish: filol. fan. dok-ri...dis. – Toshkent, 1997.
2.Ko‘chimov Sh.N. Yuridik til nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2013.
3.Mo‘ydinov Q.A. O‘zbek tili sud nutqi leksikasi: filol.fanlari bo‘yicha falsafa dok. dis... – Toshkent, 2019.
4.Orifjonova Sh. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya: filol.fan.nomz...dis.avtoref. – Toshkent, 1996.
5.Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish: filol. fan.d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent, 2005.
6. O‘zbekiston advokatlarining himoya nutqlari. – Toshkent: Adolat, 2006.
7.G‘ulomova G. O‘zbek yuridik terminologiyasining istiqlol davri taraqqiyoti: filol. fan.nomz...dis.. – Toshkent, 2005.

Dilnoza ABDURASULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
1-kurs doktoranti
Abdurasulovad185@gmail.com



FEMINISTIK TILSHUNOSLIK VA UNING SHAKLLANISH TARIXI

Annotatsiya: ushbu maqolada feministik lingvistika tilshunoslik fanining alohida bo‘limi sifatida shakllanishining tarixiy ildizlari, umumnazariy masalalari va sohaga oid tadqiqotlar tarixi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *gender lingvistika, feministik tilshunoslik, ayollar nutqi, erkaklar nutqi, nutqiy ta’sirchanlik.*

Annotation: this article covers the historical roots of the formation of feminist linguistics as a separate branch of linguistics, general theoretical issues, and the history of research in this field.

Keywords: *gender linguistics, feminist linguistics, women’s speech, men’s speech, speech expressiveness.*

Аннотация: в этой статье В этой статье освещены исторические корни становления феминистской лингвистики как отдельного раздела лингвистической науки, общетеоретические вопросы и история исследований в этой области.

Ключевые слова: *гендерная лингвистика, феминистская лингвистика, женская речь, мужская речь, выразительность речи.*

Til – jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlar va o‘zgarishlar ta’siriga uchraydigan dinamik rivojlanayotgan tizimdir. So‘nggi yillarda inson jinsining nutqiga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘paydi. Mazkur holat mamlakatimizda bu muammoga qiziqish ortib borayotganidan dalolat beradi. Ushbu mavzu gender tuzilishi va semantikasi, muammosi, pragmatika va nutq stilistikasining yirik lingvistik masalalari yechimiga qaratilganligi, shuningdek, tildagi ehtiyojlarga bog‘liqligi bilan qiziqarlidir.

Ko‘pgina lingvistik tadqiqotlarga asoslanib, ijtimoiy nutqni o‘rganishda insonning jinsini hisobga olish kerakligi isbotlangan. Jins – bu insonning biologik xususiyati. Va bu xususiyat erkaklar va ayollar o‘rtasidagi psixologik farqlarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Ammo insoniyat tarixi davomida erkaklar va ayollarning ijtimoiy rollari shunchalik farq qiladiki, bu farqlar hali ham muhim rol o‘ynaydi.

Gender lingvistikaning eng yorqin yo‘nalishlaridan biri feministik tilshunosligidir. Gender tadqiqotlarining rivojlanishiga, birinchi navbatda, ijtimoiy-siyosiy omillar – ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi va feministik harakatning rivojlanishi sabab bo‘ldi. Ayollarning ishlab chiqarish sohasida va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, erkaklarga xos kasblarni egallashi va erkaklar lavozimlarini egallash imkoniyati, jamiyatda erkaklar va ayollar rollarining an’anaviy taqsimlanishida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi.

Tilshunoslikdagi dastlabki genderologik tadqiqotlar ingliz va nemis olimlari tomonidan amalga oshirilgan. XX asrning 60-yillari oxiri va 70-yil boshlarida gender tadqiqotlariga bo‘lgan munosabat butkul yangicha tus oldi. Aynan shu davrda til va jins munosabatlarini tadqiq etish metodlarining farqlanishiga ko‘ra bir nechta tilshunoslik yo‘nalishlari shakllandi.

1. Sotsiolingvistik tilshunoslik.
2. Feministik tilshunoslik.
3. Ikki jinsni o‘rganuvchi sof gender tadqiqotlari.
4. Maskulinlik tadqiqotlari (Mens studies: 90-yillarda vujudga kelgan yangi tadqiqotlardan biri).
5. Jinsni psixolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish.
6. Krossmadaniy va lingvomadaniy tadqiqotlar.

Tilni feministik tadqiq qilish 1960-yillarda AQSh va Germaniyada ayollar harakati tufayli paydo bo‘ldi. Feministik tilshunoslik ayollarning hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishiga intilgan “Yangi ayollar harakati” tufayli paydo bo‘lgan ijtimoiy-lisoniy yo‘nalishdir.

Germaniyadagi feministik tilshunoslikning yorqin namoyandalari orasida Z. Tremel-Plyots, I.Gyunterodt, M.Xellinger, L.F.Pushlarni sanab o‘tish mumkin. Tilshunos feministlar tilda ayollarga nisbatan erkaklarga xos shakllarning ustunligini, ba’zi hollarda esa birinchisiga ekvivalent sifatida ikkinchisining umuman mavjud emasligini aniqladilar.

Feministik lingvistikaning asoschisi R. Lakoff bo‘lib, u o‘zining “Language and Women’s place” (“Til va ayolning o‘rni”,1975) asarida tilning androsentrikligi va til vositasida aks ettiriladigan olam manzarasida ayolning tobe holatini asoslaydi. Lakoff ayollarning kommunikativ xulq-atvorini ishonchsiz, erkaklarga qaraganda kamroq tajovuzkor, insonparvarroq va suhbatdoshga yo‘naltirilgan deb ta’riflaydi.

Bu haqida shunday yozadi: Ayolning bunday nutqiy xatti-harakati layoqatsizlikdan dalolat beradi va uning imidjiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Erkaklarning nutqiy xulq-atvori ko‘proq tajovuzkorligi, suhbat davomida hukmronlik qilishga intilishi, murosaga kamroq moyilligi

bilan ajralib turadi.

D.Tannen Lakoff nazariyasini rivojlantirib, “ikki madaniyat nazariyasi”ni ilgari surdi. Olimning ta’kidlashicha, turli jinsdagi guruhlar muloqotida erkaklarni ham, ayollarni ham ta’qib qiluvchi kommunikativ muvaffaqiyatsizliklar ularning turli madaniyatga mansub ekanligini ko‘rsatadi. Dastlab ular ikkita qarama-qarshi dunyoda – o‘g‘il bolalar va qiz bolalar dunyosida tarbiyalanadi. Turli jinsli guruhlarda muloqot erkaklar uchun xos bo‘lgan uslubda sodir bo‘ladi va ayollarning muloqot uslubi ko‘pincha me’yor hisoblangan erkaklar nutqi standartlariga nisbatan baholanadi.

Gender lingvistikasi doirasidagi so‘nggi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tilshunoslarning genderning nutq hosil qilish jarayoniga ta’siri haqidagi fikrlari bir xil emas. Ba’zi tilshunoslar gender nutqda yaqqol namoyon bo‘ladi deb hisoblasalar, boshqalari gender tafovutlari tartibsiz namoyon bo‘ladi va kommunikatsiyaning asosiy omili hisoblanmaydi, deb ta’kidlaydilar.

Bundan tashqari, so‘nggi o‘n yilliklarda yosh avlod vakillari nutqida gender tafovut aniqlash tendensiyasi yetakchilik qila boshladi. Gender lingvistik variativlikning asosiy omillaridan biri, shuningdek, inson ijtimoiy maqomining eng muhim tarkibiy qismi sanaladi. Ijtimoiy maqom insonning ma’lumot darajasi, yoshi, jinsi, kasbiy mansubligi kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, ijtimoiy maqom nafaqat inson nutqida aks etadi, balki nutq hosil bo‘lish jarayoniga ham ta’sir etadi.

Feministik tilshunoslik tilni isloh qilish va davlat tili siyosatiga ta’sir ko‘rsatishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Natijada, til me’yori o‘zgartirildi: leksikaga huquqiy va biznes matnlarida ayolning mohiyatiga ko‘proq mos keladigan yangi so‘zlar kiritildi, endi odam uning jinsiga ko‘ra belgilanadi, ilgari esa faqat erkak shakli ishlatilgan.

Umuman olganda, feministik tilshunoslik tilshunoslikning gender jihati uchun katta ahamiyatga ega. Til me’yorlari va til tizimiga ta’sir ko‘rsatishga urinishlar fanlararo keng munozaralarni keltirib chiqardi, bu esa gendershunoslikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Feministik tilshunoslik tufayli fanga bir qator yangi lingvistik tushunchalar kiritildi, an’anaviy “lingvistik xatti-harakat” va “ma’no” atamalarining talqini kengaytirildi.

A.K.Pavlovaning ayollar nutqi tadqiqiga oid nomlangan nomzodlik dissertatsiyasi zamonaviy, kasbiy muvaffaqiyatga va jamoatchilik e’tirofiga erishgan ayollar nutqining prosodik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqot markazida kasbiy sohada muvaffaqiyatga erishgan zamonaviy britaniyalik yuqori martabali ayollar nutqining prosodik xususiyati yoritilgan.

A.Afanasyeva, D.Ibatulina hammuallifligida nashr qilingan “Rus va yapon tillarida ayollar nutqining o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan ilmiy maqolada yapon va rus ayollari nutqining ayrim xususiyatlariga to‘xtalib o‘tilgan va tahlil qilingan. Bu mavzu zamonaviy rus va yapon tillarida paydo bo‘layotgan yangi tendensiyalarni o‘rganish nuqtayi nazaridan katta qiziqish uyg‘otadi.

Ayollar nutq xatti-harakatlarining xususiyatlari, ularning ijtimoiy, kasbiy va boshqa holati umumiy kommunikativ vaziyat bilan belgilanadi.

O‘zbek ayollari nutqini uning nutq o‘zgaruvchanligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish, shuningdek, gender omilining inson nutqiga ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganish genderologik tadqiqotlarga konkret xulosa berish bilan tavsiflanadi.

Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni hal qilishni talab etadi:

1) ayollar nutqiga xos xususiyatlarni leksik va pragmatik birliklar asosida izchil (monolog va dialog) tavsiflash;

2) ayollarning maqomiga qarab ayol nutqining xulq-atvoridagi o‘zgaruvchanlik xususiyatlarini aniqlash;

3) nutqiy xulq-atvorga gender omili xususan, ayollar nutqining ta’sirini o‘rganishdan iborat. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, ayollar nutqining ilmiy jihatdan tadqiq etilishi zamonaviy o‘zbek tilshunosligida amaliy yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Горбунова, М. Ю. Феминизм и проблемы гендерной лингвистики [Текст] / М. Ю. Горбунова // Вестник Адыгейского государственного университета, Филология и искусствоведение.,2008, № 3.

3. Горошко, Е. И. Гендерная проблематика в языкознании [Текст] / Е. И. Горошко // Введение в гендерные исследования. И. Жеребкиной. – СПб.: А., 2001.

4. Есперсен О. Речь мужчин и женщин: гендерный аспект // Молодой ученый. 1988.

5. Key, M. R. Male / Female Language [Text]. – N. Y.: Metuchen., 1975.

6.Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999.

7. Lakoff, R. Language and Women’s place [Text].– N.Y.: Harper and Row., 1975.

8. Марлис Х. Контрастивная феминистская лингвистика // Феминизм и тендерные исследования. Хрестоматия. Под общ. ред. В.И.Успенской. Тверь,1999. стр.

9. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Ф., 2021.

10. Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: ф.ф.номз. ...дисс. – Т., 2009.

Odiljon AVAZNAZAROV,
Qarshi davlat universiteti
doktoranti (DSc), PhD, dotsent
odiljon.avaznazarov@gmail.com



ALISHER NAVOIY DOSTONLARIDA YO‘L OBRAZI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy dostonlaridagi yo‘l obrazining badiiy talqini tadqiq qilindi. Muallif epik poeziyasida keng qo‘llangan ushbu obraz poetikasida Qur’oni karim, hadisi sharif, tasavvuf manbalari hamda salaflar ijodiy tajribalarining ta’siri borligi ochib berildi. Shuningdek, Navoiy bu ijodiy tajribalarni rivojlantirgani, yo‘l obraziga istiora usuli bilan o‘nlab yangidan yangi ma’nolarni yuklagani asoslandi.

Kalit so‘zlar: *doston, poetika, Qur’on, hadis, tasavvuf, obraz, istiora, badiiy talqin.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются художественные интерпретации образа пути в эпосах Алишера Навои. Исследование показывает, что поэтика этого широко используемого образа в его эпической поэзии была вдохновлена Кораном, хадисами, суфийскими источниками и творческим опытом его предшественников. Кроме того, продемонстрировано, что Навои развил эти творческие традиции и обогатил образ пути десятками новых значений с помощью метафоры.

Ключевые слова: *эпос, поэтика, Коран, хадис, суфизм, образ, метафора, художественная интерпретация.*

Annotation: this article examines the artistic interpretations of the image of the road in Alisher Navoi's epics. The study reveals that the poetics of this widely utilized image in his epic poetry were influenced by the Quran, Hadith, Sufi sources, and the creative experiences of his predecessors. Furthermore, it is demonstrated that Navoi developed these creative traditions and enriched the image of the road with dozens of new meanings through the use of metaphor.

Key words: *Epic, Poetics, Quran, Hadith, Sufism, Image, Metaphor, Artistic interpretation.*

Kirish. Yo‘l – adabiyot tarixida eng qadimgi va qiymatli timsollardan biri. Badiiy adabiyotda yo‘lchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, tush, safar, sinov, manzil va boshqa ko‘plab timsollardan iborat obrazlar galereyasida yetakchilik maqomidagi bu timsol poetikasini chuqur tadqiq etish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridandir.

Alisher Navoiy dostonlaridagi yo‘l obrazining badiiy talqinlari tadqiqi muallif epik poeziyasida keng qo‘llangan ushbu obraz poetikasida Qur’oni karim, hadisi sharif, tasavvuf manbalari hamda salaflar ijodiy tajribalarining ta’siri borligini ochishga, shuningdek, muallif bu ijodiy tajribalarni qanchalik rivojlantira olgani, yo‘l obraziga qanday yangi ma’nolarni yuklaganini aniqlashga imkon beradi.

Ushbu maqolada tarixiy-qiyosiy, diniy-tasavvufiy, hermenevtik, fenomenologik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Asosiy qism. Homerning “Illiada” va “Odisseya” asarlari orqali ham bilish mumkinki, yo‘l antik davr adabiyotidayoq yetakchi obrazlardan bo‘lgan. O‘zbek adabiyoti mumtoz namunalarining aksarida ham bu timsol ishtiroki ko‘zga tashlanadi. “Qur’on”gacha bo‘lgan ilohiy kitoblar hamda Qur’onda ham yo‘l bilan bog‘liq holatlar talay. Aytish joizki, Qur’on poetikasi hamda hadislar Navoiy asarlari poetikasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu ijodkorning kichik lirik asarlaridan tortib epik poeziyasigacha kuzatiladi. Jumladan, g‘azallar strukturasidan joy olgan begona baytda, albatta, nasihat, hikmat mazmunidagi badiiy fikr ifoda qilingan. Adabiyotshunoslikda g‘azalning bu bayti bozgasht (qaytish), gardish [5: 48], begona bayt, qistirma bayt [4: 62], lirik chekinish [9: 110], mav’iza bayt [3: 7] kabi maxsus atamalar bilan yuritiladi.

Fikrimizcha, ushbu baytda ko‘pincha g‘azalning umumiy mavzusidan chetga chiqib, biror bir falsafiy fikrning keltirilishi “she’rda hikmat bo‘lishi kerak” mazmunidagi hadis bilan bog‘liq. “Xazoyinu-l-maoniy” debochasida Navoiyning ayni shu prinsipga qat’iy rioya qilganiga ishora bor: “Va durudi noma’dud ul anbiyo halqasining xotamig‘akim, inna-sh-she’ra lahikmatun va inna-l-bayona lasihrun nuktasi bila shuaro poyasin hukamo martabasig‘a chekti-yu bayon rutbasin sehr manzilasig‘a tortti”. Demak, g‘azal kompozitsiyasidan begona baytning joy olishi va unda biror falsafiy mushohadaning berilishi tasodifan qonuniyatga aylangan emas. Biz shu sababga ko‘ra aynan Navoiy g‘azallaridagi ushbu baytni hikmat bayt deb nomlashni ma’qul ko‘ramiz.

Qur’onning Navoiy epik poeziyasiga ta’siri, ayniqsa, yo‘l obrazi misolida yaqqol seziladi. Jumladan, ulug‘ mutafakkir dostonlaridagi yo‘llarni, avvalo, ikki guruhga ajratish mumkin:

1. To‘g‘ri yo‘l. Dostonlarda qo‘llangan “Haq yo‘li”, “Xudo yo‘li”, “Tengri yo‘li”, “jannat yo‘li”, “din yo‘li”, “mazhab yo‘li”, “hidoyat yo‘li”, “karam yo‘li”, “tuz yo‘l”, “salomat yo‘li”, “itoat yo‘li”, “talab yo‘li”, “ishq-u muhabbat yo‘li”, “faqr yo‘li”, “fano yo‘li”, “adam yo‘li”, “irodat yo‘li”, “bexudlig‘ yo‘li”, “benavolig‘ yo‘li”, “junun

yo‘li”, “lutf-u vafo yo‘li”, “vafo yo‘li”, “adolat yo‘li”, “musofir yo‘li”, “maktab yo‘li”, “hijron yo‘li”, “jonon yo‘li”, “shah yo‘li”, “satr yo‘li”, “so‘z yo‘li”, “maxlas yo‘li”, “nafas yo‘li”, “dam yo‘li”, “ma’dalat yo‘li”, “ko‘z yo‘li”, “qon yo‘li”, “aqba yo‘li” kabi istioralarni ana shu guruhga taalluqli deyish mumkin.

2. Egri yo‘l. “Najosat yo‘li”, “kufr yo‘li”, “zalolat yo‘li” kabi istioralar esa egri yo‘l timsoliga aloqador.

Badiiy obrazning kanonlaridan biri metaforiklik bo‘lib, bu jihatdan yo‘l o‘ta keng imkoniyatlarga ega. Navoiy dostonlarida to‘g‘ri va egri yo‘l tushunchalari atrofida qirqdan ortiq istioralar assotsiativlik hosil qilayotgani buning isbotidir.

Dostonlarda “to‘g‘ri yo‘l” va uning antipotidan san’atkorona foydalanilishi bejiz emas. Chunki “to‘g‘ri yo‘l” tushunchasi Qur’oni Karimda bevosita yoki bilvosita, ya’ni ishorat yo‘li bilan eng ko‘p zikr qilingan kalimalardan hisoblanadi. Jumladan, Kalomullohning olti o‘rnida – “Baqara” (108-oyat), “Moida” (12, 60, 77-oyatlar), “Qasos” (22-oyat), “Mumtahana” (1-oyat) suralarida سَوَاءَ السَّبِيلِ (sawa: as-sabili) shaklida; bir o‘rnida – “Ahqof” (30-oyat) surasida طَرِيقٍ مُسْتَقِيمٍ (toriqim-mustaqim); ikki o‘rnida – “Fotiha” (6-oyat) hamda “Mumtahana” (1-oyat) suralarida الصِّرَاطَ الْمُسْتَقِيمَ (as-sirota-l-mustaqima) shaklida, bir o‘rnida – “A’rof” surasida (16-oyat) صِرَاطَكَ الْمُسْتَقِيمَ (sirotoka-l-mustaqim) shaklida; besh o‘rnida – “Niso” (68, 175-oyatlar), “An’om” (126-oyat), “Fath” (2, 20-oyatlar) suralarida صِرَاطًا مُسْتَقِيمًا (siroto-m-mustaqima) shaklida; 18 o‘rnida – “Baqara” (142, 213-oyatlar), “Oli Imron” (101-oyat), “Moida” (16-oyat), “An’om” (39, 87, 161-oyatlar), “Yunus” (25-oyat), “Hud” (56-oyat), “Nahl” (76, 121-oyatlar), “Haj” (54-oyat), “Mo‘minun” (73-oyat), “Nur” (46-oyat), “Yosin” (4-oyat), “Shuuro” (52-oyat), “Zuxruf” (43-oyat), “Mulk” (22-oyat) suralarida صِرَاطٍ مُسْتَقِيمٍ (siroti-m-mustaqim) shaklida; 5 o‘rnida – “Oli Imron” (51-oyat), “Maryam” (36-oyat), “Yosin” (61-oyat), “Zuxruf” (61, 64-oyatlar) suralarida صِرَاطٌ مُسْتَقِيمٌ (sirotu-m-mustaqim); 1 o‘rnida – “An’om” (153-oyat) surasida صِرَاطِي مُسْتَقِيمًا (siroti mustaqiman) shaklida keladi hamda istiora usuli bilan “payg‘ambar va siddiqlarning yo‘li”, “Allohning yo‘li”, “Allohgagina ibodat qilish”, “Allohning dini”, “haq din”, “Ibrohim dini”, “Islom”, “iymon keltirmoq” ma’nolariga ishora qiladi. Shuningdek, to‘g‘ri yo‘l noto‘g‘ri, egri yo‘l – zalolatga zid qo‘yiladi. To‘g‘ri yo‘lni topish zulmatdan nurga chiqishga tashbeh qilinadi.

Ulug‘ mutafakkirning ilk dostoni “Hayratu-l-abror”ning “Basmala” ta’rifiga bag‘ishlangan dastlabki bobidayoq yo‘l jiddiy badiiy funksiya bajaradi. Quyida mana shu jihatni batafsil ko‘rib o‘tamiz.

Muallif “Bismillohir-rahmonir-rahim” jumlasini ipga, undagi har bir harfni esa noyob va bebaho durga tashbeh etadi:

Bismillohir-rahmonir-rahim,
Rishtag‘a chekti necha durri yatim [1: 6].

Basmala bir necha durlar tizilgan yagona bir rishtadir. Bunda Navoiy rishta so‘zini birlik shaklda qo‘llash orqali tavhidga ham ishora qiladi.

Yirik durlarning tabiatdan parvarish topishi va ularning inson qo‘liga kelib tushishi uzoq muddatli hamda murakkab jarayon. Navoiy Basmala tarkibidagi har bir harfni durri yatimga tashbeh qilish orqali ularni Tangri parvarish qilgani hamda insoniyat uchun juda qimmatli ekaniga ishora qiladi. Qolaversa, bunday bebaho durlarning bir ipga tizilishi-da noyob hodisa.

Navoiyning ushbu tashbehida zarracha mubolag‘a yo‘q. Bu haqda kengroq mushohada qilish uchun ulug‘ mutasavvif Muhyiddin Ibn Arabiyning mana bu fikrlariga diqqat qaratmoq o‘rinli: “Qur’on sirlarini biladigan oriflarning fikricha, har bir suraning boshidagi Basmala o‘sha suraning barcha sirlarini berkitib turadi. Shu ma’noda, Basmala suraning, ya’ni uyning eshigi hukmidadir. Zero, ma’nolar Basmala bilan ochiladi. Chunki Fotihaning birinchi oyati Basmaladir. Fotihaning ma’nosi esa “ochuvchi”dir. Biroq bu uy hamma uchun ochilmas” [6: 29].

Najmiddin Umar Nasafiy “At-Taysir”da keltiradi: “Hazrat Payg‘ambar alayhissalom: “Qur’onning kaliti basmaladir”, – deya buyurganlar. Rivoyatlarga ko‘ra, qalam Lavhu-l-mahfuzda yozgan ilk jumla Bismillohir-rahmonir-rahim bo‘lib, Alloh taolo Hazrati Odamga endirgan ilk so‘z ham shudir” [7: 104].

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk vakillari ilohiy jumlalar badiiy talqiniga kirishganda, shubhasiz, Ibn Arabiy, Umar Nasafiy kabi mufassirlarning chuqur ilmiy tahlillariga tayanishgan. Xususan, Nizomiy Ganjaviy “Panj ganj”ining ilk bayti Ibn Arabiy va Umar Nasafiy fikrlarining she’riy talqini ekani buning yaqqol dalilidir:

Bismillohir-rahmonir-rahim,
Hast kalidi dari ganji Hakim [8: 1].

Ya'ni "Bismillohir-rahmonir-rahim – Hakim hikmatlar xazinasining eshigini ochuvchi kalitdir".

Ko'rib o'tganimizdek, basmala Navoiygacha eshikka, kalitga o'xshatilgan bo'lsa, Navoiy salaflarining bu boradagi tajribalarini yanada rivojlantirdi, chuqur ma'no-mazmunga, ilmiy va badiiy talqin tarixiga ega ushbu kalimani yangi bir shaklda vasf qildi.

Biz uchun eng muhim nuqta uchinchi baytdan boshlanadi. Chunki shu baytdan dur misol harflar tizilgan rishta ta'rifi boshlanadi va u keyingi bir necha baytda o'nga yaqin narsaga tashbeh qilinadi. Dastlab muallif "Bu ip go'yo marvarid o'tkazilgan jahon ipidir, yo'q-yo'q, jahon ipi emas, jon ipidir", – deydi:

Rishtasi xud iqdi jahon rishtasi,
Dema jahon rishtasi, jon rishtasi [1: 6].

Rishta ta'rifida bir tashbehdan yangisiga ruju' badiiy usuli bilan o'tiladi. Jumladan, to'rtinchi baytda bu rishta boqiylik xazinasiga erishtiruvchi tasbihga, beshinchi baytda davlat va din o'ljasini tutqazuvchi tuzoqqa, oltinchi baytda Jannat bog'idagi kiyiklarni qo'lga kiritish uchun qo'llanadigan arqonga, yettinchi baytda jon suvi, balki tiriklik suvi oqadigan ariqqa, to'qqizinchi baytda ilohiy xazinani qo'riqlovchi ajdahoga, o'ninchi baytda eng yuqori Arshda o'rnatilgan qandilga tashbeh qilinadi. Rishta ta'rifida tashbehlarning qatorlashib kelishi, tadrijiy ravishda kuchaytirib borilishi nafaqat talqinni jozibador qiladi, balki eng so'nggi o'xshatishning naqadar salmoqli ekaniga kitobxonni tayyorlab boradi.

O'xshatishlarning eng yuqori nuqtasida "Xamsa"ga yo'l obrazi kirib keladi. O'n ikkinchi baytda basmala vahdat xazinasiga olib boradigan yo'lga, yo'l bo'lganda ham eng yaqin yo'lga o'xshatiladi:

Yo'qki erur maxzani vahdatqa yo'l,
Yo'l-u ne yo'l, asru yaqin yo'ldur ul.

Ya'ni, "u vahdat xazinasi sari bir yo'l, yo'l bo'lganda ham shunday yo'lki, eng yaqin yo'ldir!" Muallif navbatdagi baytlarda ikki toifa – ahli qabul va ahli ra'd uchun bu yo'lning bor xatarlari va sinovlarini batafsil yoritadi. Bobdan anglashiladiki, shoir tavsif etayotgan, barcha birdek bosib o'tishga majbur bo'lgan bu sinov Yo'li – "Bismillah" kalimasi, mohiyatan najot va saodat dini – Islomdir.

Xulosa. Abdurauf Fitrat "Shoir-yozg'uchi san'atkorlikda ko'tarila borg'an sayin o'ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydir", – deydi [2: 17]. Navoiyning epik poeziyasi misolida yo'l obrazini tadqiq qilish orqali ko'rish mumkinki, ulug' mutafakkirning ijodiy uslubi, estetik ideallari Qur'oni karim, hadisi sharif kabi Sharq ma'rifatining mo'tabar meroslari, qolaversa, Ibn Arabiy, Umar Nasafiy, Nizomiy Ganjaviy kabi mutafakkirlar asarlari asosida shakllangan. Qolaversa, Navoiy bu ijodiy tajribalarni rivojlantirgan, yo'l obrazining yangidan yangi ma'nolarini kashf qilgan. Shuningdek, yo'l obrazi asosida mohiyati ochilgan "Basmala" bobi Navoiy dostonlarining kalitidir!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012. 812-bet.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: Ж.4. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар / Масъул муҳаррир: Б.Қосимов. – Тошкент: Маънавият, 2006. –Б. 336.
3. Давлатов О. Маънолар хазинаси. 4-китоб. – Тошкент: Tamaddun, 2021. – Б.312.
4. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.168.
5. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: Tamaddun, 2012. – Б. 315.
6. Muhyiddin İbn Arabî. Tefsir-i Kebir / Te'vilât. Cilt: 1. – İstanbul: Kitsan Yayınları, 2008. – 780 s.
7. Necmeddin Ömer en-Nesefî. et-Teysîr fi't-Tefsîr. Cilt: 1. – İstanbul: Bilnet Matbaacılık ve Yayıncılık A.Ş., 2019. – 1246 s.
8. Nizomiy Ganjaviy. Maxzan ul-asror. Ilmiy-tanqidiy matn. – Boku: 1960.
9. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: O'zbekiston НМИУ, 2015. – Б. 328.

Feruza BURXANOVA,
TDPU dotsenti, PhD

ZAMONAVIY O‘ZBEK QISSALARIDA RUHIY KECHINMA VA IFODA MAHORATI

Annotatsiya: mazkur maqolada iste’dodli yozuvchi Xolyor Safarovning hikoya va qissalari tahlilga tortilib, yozuvchi asarlarining jonli-hayotiyligi, obrazlarninig individual qiyofa kasb etishi, insonning murakkab ruhiyati va kechinmalari tasviri, sujet qurilishining o‘ziga xosligi, kutilmagan yechim va sir saqlash usuli, chuqur dramatizm va ramziylik, ma’rifiylik, hikmat va milliy ruh, milliy koloritning ustuvorligi, ijodkor badiiy mahorati, uslubiy o‘ziga xosligi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *ijod, badiiylik, muloqot, qissa, hikoya, obraz, xarakter, uslub.*

Аннотация: в данной статье анализируются повести и повести талантливого писателя Холёра Сафарова, анализируются яркость произведения писателя, индивидуальность его героев, изображение сложной психики и переживаний человека, своеобразие построения Исследуются сюжет, неожиданное решение и способ сохранения тайны, глубокий драматизм и символизм, просвещенность, мудрость и национальный дух, приоритет национального колорита, художественное мастерство создателя, стилистическое своеобразие.

Ключевые слова: *творчество, художественность, общение, рассказ, сюжет, образ, персонаж, стиль.*

Annotation: in this article, the stories and short stories of the talented writer Kholyor Safarov are analyzed, the vividness of the writer's works, the individuality of his characters, the depiction of the complex psyche and experiences of a person, the uniqueness of the construction of the subject, the unexpected solution and the method of keeping secrets. , deep drama and symbolism, enlightenment, wisdom and national spirit, priority of national color, artistic skill of the creator, stylistic originality are researched.

Key words: *creativity, artistry, communication, story, story, image, character, style.*

Kirish. Adabiyotshunoslikda “ijod darddan yaraladi” degan aksioma mavjud. Darhaqiqat, iste’dodning bir qirrasi ijodkor qalbidagi og‘riq va dardlar bilan chambarchas bog‘liq. Mana shu dard va iztirob, ijodkor qalb tubiga cho‘kib, ong osti qatlamida bo‘lgan og‘riqlar yaratgan asarlariga sizib chiqadi hamda asar dramatizmi, ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Bunday ekspressiv tasvirlar kitobxon qalbiga ham, tuyg‘u va kechinmasiga ham ko‘chib, katarsis jarayonini vujudga keltiradi.

Shunday dardchil qalb sohibi bo‘lgan iste’dodli ijodkorlardan biri Xoliyor Safarovdir. Ijodkor iste’dodiga O‘tkir Hoshimov,Tohir Malik, Sobir O‘nar kabi yozuvchilar oq yo‘l tilab yuqori baho berishgan bo‘lsa, Hotam Umurov, Bahodir Karimov, Qurdosh Qahramonov, Kamol Hakimov kabi adabiyotshunos olimlar ham adib asarlarini chuqur ilmiy tahliliga bag‘ishlangan maqolalarida Xoliyor Safarovning insonni kashf etishdagi poetik mahorati va uslubiy o‘ziga xosliklarini ochib berishgan [Bu haqda qarang: 1: 3; 2: 3-4; 3: 146-150; 4: 252-254; 5; 6: 4-7].

Asosiy qism. Adabiy jamoatchilikka “Oy botmagan kechalar”, “Nomus va hayot”, “Qanotsiz qushlar”, “Ota”, “Sir”, “Uyga qaytish”, “Yulduz sanayotgan bola”, “Uyg‘onish”, “Oqibat”, “Onamning yolg‘onlari” kabi bir qator qissa va hikoyalari bilan ma’lum bo‘lgan bu ijodkor asarlari milliy ruhni, oddiy insonlarning hayot tarzini, qalb dialektikasini va ko‘ngil og‘riqlarini chuqur dramatizm bilan samimiy va dardchil ruhda, realistik yo‘nalishda, ravon uslubda, jaydari “Chiroqchi shevasi”da tasvirlab berishi, sujet yaratishda sir saqlash va peripetiya san’atidan unumli foydalanishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shu jihatdan zukko o‘quvchiga adib ijodidagi chuqur dramatizm tasvirlari O‘tkir Hoshimovni, baxshiyona ruh Tog‘ay Murodni, sir saqlash va peripetiya san’ati Abdulla Qodiriyni, ramz va metoforik ifodalar Nazar Eshonqul ijodiga eshlikni, ijodiy ta’sirni ko‘rsatsa-da, inson va uning ruhiy olami tasviridagi betakrorlik, individual qiyofa kasb etuvchi yashovchan obrazlari, dardchil tuyg‘ulari, milliy kolorit, xalqona va samimiy ruhi bilan originallik kasb etadi. Bu kabi jihatlar yozuvchi uslubiy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Umuman, adib asarlarini ilk o‘qiyotgan o‘quvchi xuddi anchadan buyon sog‘inib kutgan qadrli narsasiga erishgandek, qo‘ldan qo‘ymay o‘qiydi. Ijodkor asarlarining jozibasi va badiiy quvvati kitobxonda tushkun ruhni emas, katarsis jarayonini ta’minlaydi va hayotsevarlik, kurashuvchanlikka undaydi. Shu jihatdan adibning “Sumalaklar pishmagan yil”, “Zulmatdagi nur”, “Oriyat”, “Ayritomlik oshnalar”, “Nomus va hayot” kabi qissa va hikoyalari xarakterlidir.

Ijodkor uslubiga xos yana bir jihat asarlarini nomlashidagi qarama-qarshi ma’noli, mantiqan zid ramziy ifodalar. Masalan, “Qanotsiz qushlar”, “Oy botmagan kechalar”, “Sumalaklar pishmagan yil”, “Onamning yolg‘onlari”, “Zulmatdagi nur”, “Hizrni yo‘qotgan odam” kabilar. Bu hikoyalar nomdagi shakliy ziddiyat dastlab kitobxon e’tiborini tortsa, asar g‘oyaviy mazmunidagi ziddiyatli hayot haqiqati, chiqarilajak falsafiy xulosa kishini mushohada yuritishga, o‘zini o‘zligini taftish etishga chorlaydi.

Adibning “Sumalaklar pishmagan yil” hikoyasidagi

dard, iztirob shu darajada ta'sirli va hayotiy tasvirlaganki, bu asarni ko'z yoshlarsiz o'qish mushkul. Xasta ona siymosining o'lim oldi ruhiy va jismoniy holati, uning farzandlari, oilasi va yaqinlariga munosabatlari, oiladagi mungli ruh roviy bola nigohi vositasida dardchil qalb nidolari bilan retrospektiv va ekspressiv tarzda tasvirlanadi. Bolakayning onasiga Ollohdan shifo istab sumalak qo'zg'ashi, keyingi yilgi sumalakda boshqa jo'ralari kabi onasi bilan qatnashishni niyat qilishi, xasta yotgan onasining ko'nglini ko'tarishga urinib aytgan "katta orzulari", muallim otaning taqdir sinovi oldidagi chorasizliklari tasviri asar dramatizmini kuchayishiga, mazmunni teranlashishiga sabab bo'lgan. Ma'lumki, inson, xususan bola uchun Ona har narsadan aziz va mo'tabar zot, hayotining ma'nosi hisoblanadi. Eng qiymatli, mehribon insonidan ayrilgan bola ruhiyatidagi qalqish va iztiroblar asarda ishonarli, hayotiy va dardchil ruhda tasvirlanadi. "– Ona, onajon?! Nega bunday qildingiz? Nega, nega?.. Axir hali tuzalib ketaman, hali uyimizda sumalaklar qilamiz degandingiz-ku? Nega bunday bo'ldi?.. O'sha kuni ta'ziya qanday bo'ldi, onamni qabrga qanday qo'ydik, qancha yig'ladim, nimalar dedim, onamning o'limiga chidolmay otamni, tog'amlarni qancha urib tashladim, bilmayman. Ammo onamning o'limi haqligiga hamon ishongim kelmas, o'zimni tutolmasdim. Qayga boqmay onamning yuzlari, qayda yurmay onamning izlari, kim menga gapirmasin, dalda bermasin, onamning so'zlari ko'z oldimga kelaverardi" [7:14]. Hayotining ma'nosi sanalgan insoni, hatto borlig'idan ayrilgan bola ruhiyatidagi bo'shliq, karaxtlik, bu musibatni tan olishni istamaslik, bunga ishonmaslik, onasi siymosini har kim va har narsadan qumsab istashi kabi lavhalar obrazning jonliligi va individualligini ta'minlashga xizmat qilgan. Yozuvchi bilan ijodiy uchrashuvda mana shu dard qaysidir ma'noda ijodiga turtki berganini aytib o'tgandi. Demak, yozuvchi biografiyasidagi shu holat – onasining dardga chalinishi va undan yoshligida judo bo'lish iztirobi asarlaridagi mung va dardni, dramatizm va ekspressivlikni ta'minlashga ham asos bo'lgani ayonlashadi. Demak, bu hikoya biografik xarakterdagi asar sanaladi.

Hikoyada adib millatimizga xos milliy taom sanalgan sumalakni qo'shni Feruza xola epizodik obrazi vositasida ko'rsatib berishga urinadi. Ya'ni qo'shnining onasi sog'ayib ketishi uchun niyat qilib pishirayotgan sumalak haqidagi epizod vositasida xalqimizga xos kasalmand qo'shni holidan xabar olish, mehr-oqibat singari umuminsoniy tuyg'ularni asar mohiyatiga singdira olgan. Asarda milliy ruhni ifoda etuvchi vositalar, epizod va detallar, qadriyat va marosimlar, insoniy munosabatlar, ota-ona va bolalarning oiladagi burchlari, qo'ni-qo'shni munosabatlari ham janr imkonyatidan kelib chiqib bir-ikki shtrixlarda bo'lsa-da poetik umumlashma qonunyati asosida yoritilgan. Birgina asar sarlavhasidagi mazmunda ham orzu-niyati ushalmagan dilgir insonning armonlari ifodalangan. Aslida, har bahor sumalak pishirish milliy urf-odatimiz, an'anamiz sanaladi. Hikoyada roviy bola, adib uchun bahor va sumalak orzu-niyati ijobati sari chorlovchi vosita, yupanchi hisoblanadi. Hikoya sujetida onasi boshlab bergan sumalak pishsa-da, orzulari chilparchin bo'lgan, qalbida judolik og'rig'i bo'lgan, ma'nan va ruhan tushkun inson psixologiyasidagi holatlarga hamohang tarzda nom berilgandir, ehtimol. Umuman, Xoliyor Safarov ijodida Ona siymosini yoritish yetakchi o'rinni egallaydi.

Adibning "Zulmatdagi nur" hikoyasida ham onalarning metin irodasi, jo'mardligi, farzandlari kelajagi uchun har narsaga hozirligi peripetiya san'ati asosida tasvirlanadi. Kamola aya obrazi vositasida o'zbek onalariga xos ko'pgina fazilatlar mujassam etilgan. Farzandlari uchun o'z baxtsizligini yengib, bevafo va maishatparast turmush o'rtog'i xotirasini ulug'lab, uni bir umr bolalariga ibrat qilib ko'rsatib, ularni baxt-iqbolga erishishini ta'minlaydi. O'zbek ayoliga xos oila va farzandparvarlik, chidam va matonat, farzandlarni ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalash bu obraz vositasida me'yoriga yetkazilib tasvirlangan. Azimjon obrazi vositasida esa yetim bola ruhiyati, kechinmalaridagi dilgirlik, o'ksiklik holatlari ta'sirli yoritilgan. Ta'kidlash lozimki, yozuvchi asarlarida onalar va yetim bolalar obrazi butun murakkabliklari bilan maromiga yetkazilib yaratiladi. Mana shunday og'ir psixologik holatdan oqila onaning daldasi va tarbiyasi ila irodasini mustahkamlab, kamolotga erishib, muvaffaqiyat qozongani zaminida sharqona falsafa va e'tiqod ham muhim omil sanaladi. Zero, dinimizda ham, G'arbdan farqli o'laroq Sharq falsafasida ham tushkunlikka tushmaslik, jo'vonmardlik, hayotsevarlik ulug'lanadi. Kamola aya tanazzulga yuz tutgan baxtidan, zulmatdan, farzandlari iqboli uchun nur topa olgan metin iroda, jasorat sohibasi. Asarning axloqiy-ma'rifiy ahamiyati ham ona obrazining donishmandligi bilan bog'liq.

Ijodkorning "Ayritomlik oshnalar" hikoyasida ham do'stlik, jo'vonmardlik, chin insoniylik kabi g'oyalar ulug'lanadi. Hikoya sujetining tuguni Abdug'afforning befarzanligi va buning natijasida chekilayotgan ma'naviy-ruhiy iztiroblar, ichki kolliziyasi tashkil etadi. Farzandsizligini o'ziga berilgan jazo, deb bilgan asar qahramoni o'z xatolari, boshqalarga qilgan nohaqliklari uchun vijdon azobida qoladi. Samimiy, soddadil va hazilkash do'sti Ozod esa serfarzand, do'stining har qanday qilmishlarini kechira oladigan bag'rikeng inson. Hikoyada Ozod va uning ayoli Malika obrazlarinig individual xususiyatlari, insoniy fazilatlari samimiy muloqoti, qipchoq (Chiroqchi) shevasiga xos jaydari suhbatlari vositasida ochilib boradi. "- Dadasi, o'zi Abdug'appor sezib qomadima?– Jo'q. Bechara oshnam terisiga sig'may juripti. Lekin, enasi, senga rahmat. Yaxshi ish qildik. Becharalarning yuragi toshib, bag'ri to'lib qoldi-da.

– Salomatti aytmaysizma? Operatsiyadan keyin o'ziga kep, vrachlardan "Bolam tirikma?" deb so'rabdi. Do'xtirlar chaqaloqni bergach, chaqaloqni quchoqlab,

do‘xturlarga “Rahmat, rahmat!” deymish-u, faqat jilaymish. Chaqaloqning qo‘llaridan, ko‘zchalaridan o‘paymish. To‘yib-to‘yib hidlaymish. “Bolam, o‘n ikki jil kuttirding-a” deymish. –Malika shunday deya o‘zi ham hiqillab yig‘lab yubordi” [7: 46]. Ta’kidlash lozimki, mazkur hikoya dastlab 2018-yil «Sharq yulduzi» jurnalining 10-sonidan e’lon qilingan. Hikoyani jurnal variantida sheva so‘zlarga ko‘p ham urg‘u qaratilmaganini kuzatdik. Asarni kitob variantida yozuvchini asar takomili yo‘lida qayta ishlaganiga guvoh bo‘ldik. Bu esa yozuvchini o‘z ustida tinmay ijodiy izlanayotganidan dalolat beradi. Yozuvchi o‘z uslubiga sodiq qolib peripetya va sir saqlash usulidan bu hikoya sujetida ham unumli foydalangan. Tug‘ruqxonadagi og‘ir vaziyat, voqealar rivojining tarang tortilishi, do‘stning jo‘vonmardligi asar yechimidagi o‘z farzandini o‘n ikki yil tirnoqqa zor bo‘lgan Abdug‘affor va uning ayoliga sezdirmay berib, ularni shodligidan quvongani haqidagi suhbatdan ayon bo‘ladi. Sodda, samimiy qishloq o‘qituvchisi va uning ayolining bu oliyjanobligi asar ma’rifiy qiymatini oshiradi.

“Nomus va hayot” qissasi ramziy-falsafiy xarakterdagi asar bo‘lib, unda oriyat va g‘urur, nafs va nomus, hayot va o‘lim, orzu va armon kabi g‘oyalar hikmatomuz ruhda badiiylashtirilgan. Birgina noo‘rin qarori bilan elninig nazaridan qolib, eldan ajralib qolgan Murod qassob va uning oilasining boshiga tushgan ko‘rgulik va fojialar xalqimiz orasidagi “qilmish qidirmish” degan naqlni eslatadi. Boylik va obro‘-e’tiborga uchgan Murod qassob cho‘pon yigit Eshpo‘latga unashtirilgan to‘ng‘ich qizi O‘g‘iloyning fotihasini buzib, G‘ulomboyga kelinlikka berib katta xatoga yo‘l qo‘yadi. Qissada mungli nay navosi va suratlar badiiy detallari asar mohiyatiga mos mazmunni, yozuvchi konsepsiyasini ifodalashga xizmat qilgan. Mazkur detallar jahon va o‘zbek adabiyotini keng qo‘llanib kelayotgani sir emas. Jumladan, Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida rassom chol chizgan suratlar o‘tgan umr yo‘lining absurdligini ifodalasa, Xoliyor Safarovning “Nomus va hayot” qissasidagi suratlar esa kattalarni noto‘g‘ri qarorlariga e’tiroz bildirolmagan qizchaning isyoni, keladigan fojialarning ishorati, “hayotning yetti haqiqati”ning ramziy ifodasi sanaladi. Asar qahramoni Eshpo‘lat chalayotgan nay va uning mungli navosi – yigitning toptalgan g‘urur va ori, muhabbatidan ayrilgan qalb o‘g‘riqlarining mungli ifodasigina bo‘lib qolmay, vijdon azobi, o‘z-o‘zini taftish etishga chorlov vosita hamdir. Qizig‘i shundaki, mungli ovoz N.Eshonqulning ijodida ham keng qo‘llanuvchi ramziy vositalardan sanaladi. Jumladan, yozuvchining “Bahouddinning iti” hikoyasida mungli it nolasi ma’naviy tanazzullarni ifodalovchi dard, o‘zlikni, mohiyatni anglatuvchi vosita vazifasini o‘tagan. Ko‘rinib turibdiki, yozuvchi mazkur qissani yozishda N.Eshonqul asarlari va uslubidan ijodiy ta’sirlangan. Biroq qissaning g‘oyaviy konsepsiyasi original. Bugungi globallashuv jarayonida insoniy munosabatlar, xususan, qo‘ni-qo‘shnilik, mehr-oqibat, eldan ajralmaslik, hamjihatlik, g‘urur, or-nomus kabi chin insoniy fazilatlar noyoblashib borayotgan tig‘iz bir davrda, nafs, xudbinlik iskanjasida qolayotgan, ma’nan zaiflashayotgan, insoniyatga yozuvchi bu qissasi orqali ma’naviy ko‘zgu tutadi, va o‘zlikni, hayot mohiyatini anglatishga urinadi. Umuman, yozuvchi asarlarining yechimi ma’rifiy-didaktik xarakterga ega. Har bir asarida hayotsevarlik, chin insoniylik, qilmishiga yarasha ajr yoki jazo olgan insonlar qismati badiiy ifodalanadi. Shuningdek, asarda milliy qadriyatlar, an’ana va urf-odatlar, folklor namunalari, milliy ruh oddiy, sodda, zahmatkash qishloq ahlini hayot tarzi, o‘y kechinmalari, munosabatlari tasviri orqali ifodalanadi. Yozuvchi qishloq kishilarining soddadilligini ham, chapaniligini ham, oriyatini ham, mardligini ham xullas, butun murakkabligi bilan jonli tasvirlashga urinadi. Shu bois yaratgan obrazlari tirik insonday kitobxonni qadrdoniga aylanadi. Zero, insonni butun murakkabliklari bilan jonli va hayotiy tasvirlash yozuvchini badiiy mahoratidan dalolat beradi. Asarda yozuvchi ayrim kamchiliklarga ham yo‘l qo‘ygan o‘rinlar bor. Masalan, qissada kuyovning to‘y kechasi kelinni g‘ajib o‘ldirib qo‘yishi biroz mubolag‘ali va ishonarsiz chiqqan epizod sanaladi. Akmalning to‘ydan bir muddat avval quturgan it tishlaganiga qaramay to to‘ygacha belgilari bilinmay yurgan yigitning aynan to‘y kechasi to‘satdan kasali qo‘zib kelinchakni g‘ajib o‘ldirishi vahshati kitobxonni u qadar ishontirmaydi. Yozuvchi bu holatni quyidagicha tasvirlaydi: “Chimildiq uchun uy to‘riga osilgan vilyur mato yerda g‘ijimlanib yotar, taxmondagi ko‘rpa-yostiqlar qon, to‘shak qon va … kelinchak ham qonga belangan jon bergan … Go‘yo bu kecha ular uchun visol oqshomi emas, qon kechasi bo‘lgandek edi” [8: 113].

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi asarlarining jonli-hayotiyligi, obrazlarninig individual qiyofa kasb etishi, insonning murakkab ruhiyati va kechinmalari tasviri, sujet qurilishining o‘ziga xosligi, kutilmagan yechim va sir saqlash usuli, chuqur dramatizm va ramziylik, ma’rifiylik, hikmat va milliy ruh, milliy koloritning ustuvorligi ijodkor badiiy mahoratini, uslubiy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov X. Onamning yolg’onlari //O‘.Hoshimov, T.Malik//– Toshkent: Ochun, 2024. 3-bet.
2. O‘nar S. Umid va ishonch tantanasi // Safarov X. Nomus va hayot: qissa va hikoyalar-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019, 3-4-betlar.
3. Umurov H. Iste’dod va uzluksiz mehnat “mevalar”i // Safarov X. Nomus va hayot: qissa va hikoyalar-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. 146-150-betlar.
4. Karimov B. Xoliyor Safarovning qadrdonlari //Сафаров X. Onamning yolg’onlari. – Тошкент: Ochun, 2024.

252-254-betlar.
5. Qahramonov Q. 2023 йил қиссачилиги// Шарқ юлдузи 2024. 3-сон.
6. Hakimov K. Olomonzor ozorlari // Safarov X. Onamning yolg'onlari. – Toshkent: Ochun, 2024. 4-7-betlar.
7. Safarov X. Nomus va hayot: qissa va hikoyalar. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. -152 b.
8. Safarov.H. Qanotsiz qushlar –Toshkent: O'zbekiston, 2014. -344 b.
9. Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. –Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962. – Б.201.
10. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Олий Ўқув юртларининг филология (Ўзбек тили ва адабиёти) факультетлари талабалари (бакалаврият босқичи) учун дарслик. Масъул муҳаррир: С. Мамажонов. 2-нашр, қайта ишланган ва тўлдирилган. — Тошкент: Ўзбекистон, 2001. — Б.560.

Zamira DJURABAYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
zamiradjurabayeva-1958@gmail.com



NORMUROD NORQOBILNING "ENA BO'RI" QISSASI LINGVOPOETIKASI

Annotatsiya: maqolada zamonaviy o'zbek nasrining iqtidorli vakillaridan biri N.Norqobilovning "Ena bo'ri" qissasida qo'llangan til birliklari tadqiqqa tortildi. Asarda qo'llangan toponimlar, antroponimlar, gidronimlar, oronimlar, dialektal so'zlar orqali yozuvchining poetik mahorati ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: *til, tilshunoslik, lingvopoetika, matn, matn tahlili, badiiy asar, badiiy asar tili, badiiy timsollar, toponim, antroponim, gidronim, oronim, sheva, dialekt.*

Аннотация: в статье исследованы языковых единиц, использованных в рассказе один из одаренных писателей современной узбекской прозы Н.Норкобулова «Эна бури». Показано поэтической мастерства писателя с помошью антропонимов, гидронимов, оронимов и диалектных слов, успешно использованных в том рассказе.

Ключевые слова: *язык, лингвистика, лингвопоэтика, текст, анализ текста, художественное произведение, язык художественного произведения, художественная символика, топоним, антропоним, гидроним, ороним, диалект, говор.*

Annotation: the article examines the linguistic units used in the story "Ena Buri" by one of the gifted writers of modern Uzbek prose N. Norkobulov. The poetic skill of the writer is shown with the help of anthroponyms, hydronyms, oronyms and dialect words successfully used in that story.

Key words: *language, linguistics, linguopoetics, text, text analysis, work of art, language of a work of art, artistic symbolism, toponym, anthroponym, hydronym, oronym, dialect.*

Kirish. Til muttasil ravishda taraqqiy etib turuvchi ko'p sathli, murakkab mexanizm sanaladi. Mazkur mexanizmning eng muhim belgilaridan biri uning muntazam ravishda zamonga mutanosib tarzda ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan yangiliklarni o'zida to'liq aks ettirib borishiga borib taqaladi. Shu ma'noda XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyo miqyosida sodir bo'lgan tub o'zgarishlarning milliy tillarda zuhr berganiga ajablanmasa bo'ladi. Buning natijasida tilshunoslik tom ma'noda bir necha o'nlab yangi yo'nalishlarga bo'linib ketdi. Ana shunday istiqbolli sohalardan birini lingvopoetika tashkil etadi.

Rus olimlarining fikricha, zamonaviy lingvopoetika quyidagi yo'nalishlarda ish olib bormoqda:

1. Lingvosentrik yo'nalish.
2. Tekstologik yo'nalish.
3. Antroposentrik yo'nalish.
4. Kognitiv yo'nalish [1:16-25].

Badiiy asar mazmunini tushunish, muallifning maqsad va vazifalarini anglash, uning badiiy mahoratini ochib berishda yaratilgan badiiy asarlarning lingvistik jihatlariga ahamiyat qaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada o'zbek tilshunosligi ham orqada emas. Keyingi yillarda badiiy asar tili va yaratilgan asarlarning lingvopoetikasini tadqiq etish bo'yicha bir qancha e'tiborga molik ishlar bajarildi.

Sohaning ko'zga ko'ringan mutaxassislaridan

biri A.A.Lipgartning aytishicha: “*Lingvopoetika – lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo‘lib, badiiy matnda qo‘llangan uslubiy bo‘yoqdor til birliklari, ularning vazifalari, badiiy asar mazmunini yetkazish va estetik samaradorlikni ta’minlashdagi o‘rni masalalari bilan shug‘ullanuvchi filologiyaning bir bo‘limi sanaladi. So‘z san’atining mohiyati faqat lingvopoetika yordamidagina yuzaga chiqarilishi mumkin*” [2:10].

Mazkur talabni chuqur anglab yetgan zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakillari ichida iste’dodli yozuvchi Normurod Norqobilning nasriy asarlari yuksak darajadagi poetizm bilan sug‘orilgani, badiiy til vositalaridan unumli foydalanilgani bilan e’tirofga loyiq. Fikrimizni birgina uning “Ena bo‘ri” qissasi misolida isbot qilishimiz mumkin [3].

Asosiy qism. O‘zbek adabiyotida qissalar ko‘p yaratilgan, ammo aksariyat badiiy asarlarning mualliflari hayotni chuqur bilmaganliklari, o‘z asarlarida jonli so‘zlashuv tiliga xos lug‘aviy birliklardan unumli foydalana olmaganliklari uchun shuhrat topmaganlar. Ulardan farqli ravishda N.Norqobilov o‘zi yashagan Qashqadaryo vohasi xalqining turmush tarzini juda yaxshi biladi va hamyurtlari nutqida mavjud bo‘lgan til birliklaridan foydalanishni o‘z asarlarida ibrat darajasida bajargan. Ular o‘z navbatida N.Norqobilov qissalarining yuksak darajadagi poetizmini ta’minlagan. Uning diqqatga sazovor asarlaridan biri “Ena bo‘ri” qissasidir.

Ijodkor o‘z qissasida Yuqori Qashqadaryo hududlarida, xususan, chorvadorlar, cho‘pon-cho‘liqlar nutqida keng iste’molda bo‘lgan *qursoq, zing‘illash, kulbet, cho‘g‘lantirmoq, zipillamoq, tevaraklab, qantariqli, puchmoq, qo‘noq, doritmoq* kabi leksik birliklarni o‘rinli qo‘llagan. Bu holat mazkur qissaning hayotiy va ta’sirchan chiqishiga sababchi bo‘lgan.

Atoqli yozuvchi Oybek “O‘zbek poeziyasida til” nomli maqolasida: “*Poeziyada so‘z faqatgina tushunarli bo‘lib qolmasin, balki uning ohangi, ifoda kuchi, bo‘yog‘i va boshqa tomonlariga qarash kerak... Qofiya uchun ma’noni qurbon qilish yaramaydi. Har bir so‘z uzukka qo‘yilgan qimmatbaho tosh kabi porlashi lozim*”, – deb yozgan edi [4:109-112].

Aytilgan fikr nafaqat poeziya, balki har qanday badiiy asar uchun eng kerakli bo‘lgan unsur sanaladi. N.Norqobilov buni juda yaxshi tushungan. Uning qissasi nasrda yozilgan bo‘lsa-da, xuddi she’r singari yengil ohangda, yurak bilan o‘qiladi. Parchaga e’tibor bering:

– *Ha-a,* ***qursog‘****ingni lorsillatib, tag‘in qo‘ni-qo‘shnilarning sho‘rini quritib kelyapsanmi, a,* ***Boybichaxon****?! Ha-a,* ***Boybicha*** *bo‘maygina o‘lgur sen! Ko‘zlaring javdiramay ketsin seni!* ***Surbo‘ri*** *tirik bo‘lganida, o‘laqolsa bularni* ***doritmasdi****... Ha, aslo* ***doritmasdi.***

Keltirilgan matnda ***qursoq*** *– qorin,* ***Boybicha*** *– urg‘ochi bo‘ri,* ***Surbo‘ri*** *– arloni bo‘ri,* ***doritmoq*** *– yaqinlashtirmoq* ma’nolarida qo‘llangan. Yozuvchining poetik mahorati ham shunda: u hududga xos bo‘lgan til birliklaridan unumli foydalanib, badiiy ta’sirchanlikni kuchaytira olgan.

Ma’lumki, tilshunoslikda joy nomlari toponimlar, kishi nomlari antroponimlar, hayvon nomlari zoonimlar, tog‘, qir, tepalik nomlari oronimlar, suv nomlari gidronimlar deb ataladi va ularning har birida xalqning turmush tarzi, tafakkuri bilan bog‘liq eng nozik jihatlar yashiringan bo‘ladi. Bu kabi nomlar tilshunoslikning onomastika bo‘limida o‘rganiladi.

“Onomastika tildagi nomlarni tashkil qiluvchi har qanday atoqli otni lingvistik va sotsiolingvistik aspektda tadqiq qiladi. Onomastikon – biror tildagi atoqli otlarning umumiy majmuini ifoda etadigan lug‘atdir va u muayyan davrdagi etnik guruhning tiliga tegishli bo‘lgan atoqli otlar repertuaridir” [5:128].

To‘g‘ri tanlangan onomastik birliklar har qanday badiiy asarning muvaffaqiyatli chiqishi uchun o‘ziga xos omil bo‘lib xizmat qiladi. Muayyan joyga xos bo‘lgan atoqli otlar tizimini yaxshi bilish va undan o‘z asarlarida samarali foydalanish yozuvchining poetik mahoratiga bog‘liq ekan. Buni “Ena bo‘ri” qissasida ham kuzatish mumkin. Yozuvchi Qashqadaryo hududiga xos bo‘lgan kishi nomlari: ***Saragul, Chori cho‘pon, Oynagul momo, Jovli cho‘pon, Sojida kapmir, To‘rg‘in, Bo‘ri cho‘pon*** kabi antroponimlarni, ***Jiyron, Qo‘ng‘iroq*** singari zoonimlarni, ***Kemtikqoya, Kattajar, Ilondara, Burgutboshi, Toshlidara, Toshmaydon, Burmali vodiysi*** va hokazo joy nomlarini, ***Suvliqsoy*** gidronimini qissada o‘rinli ishlatgan.

“*Bola Rayimqul bobosidan juda-juda xafa bo‘lib ketdi. Boisi, mana, ikkinchi yildirki, yozgi ta’tilni kutmayoq bobosi uni o‘zining chavkar otiga mingashtirib, tog‘lar orasidagi yashil yaylovga –* ***Suvliqsoy*** *vodiysiga tashlab ketadi, tovlarga mehring iysin, deb*”.

Yuqorida keltirilgan ***Suvliqsoy*** va boshqa joy nomlari biz bilgan va kundalik hayotimizda har kuni ishlatadigan joy nomlaridan farq qiladi, ularda ona tabiat sirli go‘shalarining nafasi ufurib turibdi. N.Norqobilov buni yaxshi biladi va qissada tabiiy manzarani berish uchun aynan cho‘ponlar borib qo‘nadigan tabiat go‘shalari nomlaridan ustalik bilan foydalangan va bu orqali qissani chuqur poetik ruh bilan sug‘ora olgan.

Ijodkorning yana bir poetik mahorati uning ma’nodosh so‘zlar (sinonimlar)dan unumli foydalanganida ko‘rinadi. Bu haqda prof. M.Yo‘ldoshev shunday deb yozadi: “*Ma’nodosh so‘zlar tilning lug‘aviy jihatdan boylik darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so‘zlarning ko‘p*

bo‘lishi tilning estetik vazifasini yanada to‘liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o‘rganilgan. O‘zbek tili ma’nodosh so‘zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma’nodosh so‘zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so‘zni topib o‘z asarlarida qo‘llashga harakat qiladilar, shu tarzda qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko‘rsatib berishga intiladilar” [6: 51].

N.Norqobilov birgina bo‘ri timsolini ifodalash uchun qissada bir nechta leksik birliklardan foydalangan. Misollarga e’tibor qarataylik:

– Boyagi it qani, ena?

– Qanaqa it? – Saragul uning barvaqt turganidan ajabsinganday yelkasi osha bir qarab qo‘yarkan, so‘ng o‘choqqa yuzlanib, “O‘g‘il bola bo‘lib turib, ***bo‘ri****ni itdan ajrata bilmadingmi, nodon” degan ohangda dedi: – Qanaqa it...* ***jondor****-ku u! Boybicha... quloqqa qandaydir g‘alatiroq eshitiladi-da ... – Bu nomni yangang topgan, – Chori cho‘pon uladi. – Menga qolsa, uni “****Kulbet****” deb atardim. Uzun kechalari* ***bo‘ri****lar xususida gurung ketganida, ayrim yoshi ulug‘ kishilar “****jondor****” o‘rnida nechundir andak hurmat, andak ehtirom bilan “****aka****” so‘zini qo‘llashlariga ko‘p bora guvoh bo‘lgan emasmi, endi gap qandaydir* ***arlon bo‘ri*** *tomon nishoblanganini bola zumdan fahmlaydi*.

Parchada keltirilgan bo‘ri o‘rnida ***jondor, “Kulbet”, “aka”, arlon bo‘ri*** atamalarining qo‘llanilishi asarga boshqacha xalqona ruh olib kirgan.

Badiiy til – har qanday asarning ichki tuzilishini, g‘oyasini va o‘ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatib turuvchi voqelik sanaladi [1:16]. Voqelik bu – reallik demakdir. Badiiy asardagi realliklar aksariyat hollarda dialektal so‘zlardan qay tarzda foydalanishga borib taqaladi. N.Norqobilov shevaga xos so‘zlarning fonetik, morfologik, leksik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish orqali qahramonlarning ruhiy holatini berishga harakat qilgan. Bunda ikki xil holat ko‘zga tashlanadi:

1. Fonetik dialetizmlardan foydalanish: a) *“Ha-a, Boybicha! Bola-chaqam deb tinim bilmay chovub yuribsanmi?! Ana otasi kechadan, yaylovga qadam qo‘ygandan beri avvalgidek shunchaki “ulim”lamay, og‘zini to‘ldirib “jigit”layapti-ku!”*; b) *– Opa, achuvimni qo‘zg‘otmang! – bola ovozin bir parda ko‘tardi. Qo‘zicham, nima qilarding*?

Birinchi gapda “*chopib*” leksik birligi tarkibidagi “*p*” undoshi va “*i*” unlisi o‘rnida “*v*” undoshi hamda “*u*” unlilari qo‘llanmoqda. Bu orqali qipchoq shevasiga xos bo‘lgan fonetik belgi yuzaga chiqarilmoqda. Buni “*o‘g‘lim*” o‘rnida “*Ulim*”, “*yigit*” o‘rnida “*jigit*” so‘zlarining qo‘llanishida ham ko‘rish mumkin. Ko‘rinadiki, qahramon “*j*”lovchi sheva vakili va uning nutqida singarmonizm, tovush tushib qolishi, tovush o‘zgarishi jarayonlari sodir bo‘lmoqda. Yozuvchi buni yaxshi bilgan va qissada yuzaga chiqarishga muvaffaq bo‘lgan.

2. Leksik dialektizmlarni qo‘llash. Buni quyidagi gaplar tarkibida kelgan “*keyin*” o‘rnida “*so‘g‘in*”, “*ayron*” o‘rnida “*chalop*” leksik birliklarining qo‘llanishida ko‘rsa bo‘ladi.

“Bundan qiz hushyor tortdi.

a) *“Enam teringni shiliydi so‘g‘in“, – deya boshi bilan o‘choq tomonga imo qildi*; b) *“Boisi hozir o‘zini kasalga solar bo‘lsa, onasi, nima balo, biron yomon narsa yeb qo‘ydingmi, deya qatiq ichiradi, chalop ichiradi*”.

Xulosa. Umuman olganda, N.Norqobilov ushbu qissasi orqali oddiy cho‘pon oilasining kundalik tashvishlarini, inson bilan tabiat o‘rtasidagi uzviy uyg‘unlikni, insonning tabiat va undagi jonivorlarsiz yashay olmasligini go‘zal satrlar orqali ifodalashga harakat qilgan. E’tibor berib qaralsa, asardagi voqealar o‘ta tor doirada, sanoqli shaxslar o‘rtasida sodir bo‘ladi, ammo ijodkor shu kichkina voqea asosida o‘zbek tilining eng muhim masalalaridan birini – til boyliklarimizni asrab qolish masalasini ko‘tarib chiqqan va turli til vositalari yordamida nasriy poetizmning betakror namunalarini yaratib bergan. Asar tili jonli so‘zlashuv tiliga juda yaqin. Yozuvchi mamlakatimizning olis puchmoqlarida sodda hayot kechirayotgan hamyurtlarimiz tilida o‘zbek tilining betakror namunalari saqlanib kelinayotganiga ishora qiladi va mazkur til birliklariga yashiringan yuksak poetizmni mazkur qissasida ochib bera olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабенко Л.Г., Васильев И.Е., Казарин Ю.В. Лингвистический анализ художественного текста: Учеб. для студентов вузов, обучающихся по спец. филология. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2000. 532 с.

2. Липгарт А.А. Основы лингвопоетики. Изд. 2-е, стереотипное. – М.: КомКнига, 2006. 166 с.

3. ziyo.uz.

4. Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек. Ўзбек поэзиясида тил / Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1979. Б. 109-112.

5. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической тсрминологии. –М.: Наука, 1988. 200 с.

6. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2007. 151-бет.



Nilufar UMAROVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

XX ASRNING 70-80-YILLARI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MILLIY ETIKA MUAMMOSI

Annotatsiya: ushbu maqolada XX asrning 70-80-yillar o‘zbek she’riyatida badiiy tafakkur va milliy etika masalasi hamda milliylik, milliyatga xos bo‘lgan jihatlar U.Azim va Y.Eshbek she’riyati misolida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *lirik tafakkur, milliy etika, milliy qadriyatlar, o‘zlikni anglash, urf-odat, an’ana, milliy g‘urur, metaforizatsiyalashuv.*

Аннотация: в данной статье на примере поэзии У.Азима и Й.Эшбека анализируются вопросы художественного мышления и национальной этики в узбекской поэзии 70-80-х годов XX века, а также аспекты, характерные для народности и народности.

Ключевые слова: *лирическое мышление, националная этика, националные сенности, идентичност, традитсия, националная гордост, метафоризация.*

Annotation: in this article, the issue of artistic thinking and national ethics in Uzbek poetry of the 70s and 80s, as well as aspects specific to nationality and nationality are analyzed on the example of the poetry of U.Azim and Y.Eshbek.

Key words: *lyrical thinking, national ethics, national values, identity, custom, tradition, national pride, metaphorization.*

She’riyatda milliy g‘urur, milliy axloq, o‘tmishga ehtirom va buyuk ajdodlarning ma’naviy merosini o‘rganish masalalari muhim o‘rin tutdi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlar she’riyatidan boshlangan bu jarayon O.Matjon, R.Parfi, Sh.Rahmonlar she’riyati misolida kulminatsion nuqtaga ko‘tarildi. Ijtimoiy-siyosiy tazyiq va kompartiyaning adabiyot oldiga qo‘ygan talablarini chetlab o‘tish ehtiyoji bois bu davr o‘zbek lirikasida keskin metaforizatsiyalashuv holati yuz berdi.

Usmon Azim va Yo‘ldosh Eshbeklar ijodida inson hayotida uchraydigan ziddiyatlarga milliy axloq qadriyatlari asosida yechim izlash, an’anaviy va zamonaviy hayotning uyg‘unligini ko‘rsatish muhim o‘rinni egalladi.

Shoir Usmon Azim XX asrning 70-yillar avlodining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan. Uning she’riyatida Sh.Rahmon, I.Otamurod, M.Abdulhakim, X.Davronlar she’riyatiga xos sokin pafos go‘yo minbarga chiqadi. Baralla ovozda, deklorativ usulda, V.Mayakovskiycha shijoat bilan ijtimoiylik kasb etadi. Adabiyotshunos Karomat Mullaxo‘jayeva bu haqda shunday yozadi: “Usmon Azimning bu taxlit she’r o‘qishini ko‘pchilik Mayakovskiyga mengzar, yozganlarida ham unga yaqinlik bor, degan fikrlar aytilardi o‘sha davr she’r ixlosmandlari orasida. Bu – haqiqat. Usmon Azim Gruziyada ta’sis etilgan Mayakovskiy nomidagi mukofotga ham sazovor bo‘lgan. Chindan, haq gapni aytishga, ijtimoiy muammolarni o‘rtaga tashlashga, dardlarni she’r qilib sochishga Mayakovskiy kabi jasoratli she’r yo‘lini tanlagan edi” [1: 12].

Olimaning fikriga qo‘shilish mumkin. Chunki har bir davrning sokin, ichkin, yurak shoirlari bilan birga, minbar shoirlari ham bo‘ladi. Bu tip shoirlarning-da o‘z zamonasi uchun bajaradigan jiddiy vazifasi, adabiy-ijtimoiy jarayondagi o‘rni alohida. V.Mayakovskiy o‘z zamonida rus xalqi va proletariatni uyg‘otish vazifasini bo‘yniga olgan. Hatto she’riyati va iste’dodini qurbon qilish evaziga bo‘lsa ham, bu vazifani vijdonan bajargan. Shon-shuhrat va zamonasozlikka berilmagan. XX asr 70-yillarining oxiri va 80-yillar o‘rtalig‘i o‘zbek ijtimoiy muhiti uchun kichik ma’naviy inqilob davri bo‘ldi, desak yanglishmaymiz. Jadidlardan keyin ro‘y bergan bu uyg‘onish oson kechmagan. Kichik doirada, jiddiy qurbonlarsiz yuz berib o‘tganiga qaramasdan, muayyan natijalarga erishgan. A.Oripovdan boshlab, R.Parfi, Sh.Rahmon-u Nazar Shukur, Yo‘ldosh Eshbek, Abduvali Qutbiddin tipidagi shoirlar millat ruhiyatini “sokin qo‘ng‘iroq” (A.Oripovning Mirtemir domlaga qo‘llagan ta’biri – N.U.) bilan uyg‘otgan bo‘lsalar, U.Azim tipidagi shoirlar bu qo‘ng‘iroq jarangini eshitishga qodir bo‘lmagan, o‘ta g‘ofil millatdoshlari qulog‘iga o‘z she’riyatlarini sur na’rasi yanglig‘ yo‘naltirganlar.

Shoir shaxsning ramzan yo‘qolishi haqidagi bir she’rida nima deydi:

Mening ko‘kragimda yonib oqibat,
Kul bo‘lar, sovrilar mayda savdolar.
Unda quyosh kabi lovillab faqat
Ona O‘zbekiston surati qolar... [1: 92]

Shoir uchun o‘zining yo‘qligi ham, loqayd zamondoshi, beparvo oilasining munosabati ham muhim emas. Ona O‘zbekiston surati yuragini tark etmasa, shuning o‘zi ijtimoiy baxt, ya’ni shoirning baxtidir.

U.Azimning “Samarqand bo‘ylab tungi sayr” she’rida yo‘qolib borayotgan milliy qadriyatlar, milliy ma’rifat va ma’naviyatda kechayotgan o‘zgarishlar haqida gap ketgan:

Ko‘chalaringni kezaman,
Saroylaringda
Bazmlar tingan.
Gumbazlaring qaysi momomning
to‘liqqan ko‘kragi –
Kimlarni sog‘inar bu ko‘kraklar sutlarga to‘lib?
Osmon, qo‘ling bo‘lsa changallab ko‘r-chi,
Nimalar deb shovullar
Panjalaring orasidan oqadigan sut!
Men esa tamshanib nido qilaman...[1: 98]

Shu o‘rinda, aytish lozimki, gumbazlarni momolarning sutga to‘la ko‘kragiga o‘xshatilishi nisbatan mantiqqa zidroq, bu ko‘kraklarni osmon changallashi osmon panjalari orasidan tizillab sut otilishi na real, na badiiy mantiqqa yarashmasa-da (Chunki osmon panjaga emas, gumbazga o‘xshaydi. Momolar ko‘kragida sut bo‘lishi ham voqelikda uchramaydi. Gumbazlar esa ayol ko‘ksi kabi oppoq emas, ko‘m-ko‘k bo‘ladi, ya’ni osmonga o‘xshaydi - N.U.), shoir talqinida ijtimoiy dolzarblik kasb etadi. Ammo she’r davomida U.Azim yaxshi o‘xshatishlar topishga muvaffaq bo‘ladi. Masalan, Samarqandning osmono‘par minoralarini “uzun arvohlar”ga o‘xshatadi. Samarqandni “to‘rt ming yillik bog‘”ga, o‘zini esa shu bog‘ “yaprog‘”iga mengzaydi. Ajdodlar tarixi, demakki, milliy ma’naviyat, ma’rifat va an’analar (milliy etika) unutilib, millat davr botqog‘iga botayotgani, o‘z ulug‘larini tanimas darajada manqurtlashayotganini quyidagi satrlarda aks ettiradi:

Balki anov moviy gumbaz tagida yotgan,
Amir Temur armonining shamolidir bu?
Ammo ovozlar chiqar zamin qa’ridan:
– Men, –deydi (Spitamen, senmisan?).
– Men, –deydi (Ulug‘bek, senmi?),
–Biz, –deydi bir lashkar –
kelajakka ergashib kelar
sarbadorlar! [1: 99-100]

Shoir talqinida shunday buyuklarni tuqqan millat bugunga kelib ularning tovushini eshitmaydi, eshitsa ham taniy olmaydigan darajada o‘z ajdodlari ruhiyatidan uzoqlashgan. Shuning uchun shoir Spitamen, Ulug‘bek nomlarini qavs ichida beradi.

XX asr 70-yillari avlodining yana bir millatparvar vakili, uning teran ildizlari, dardi haqida munosib kuylagan shoir Yo‘ldosh Eshbekdir. Shoir ijodini taqriban uch semantik bosqichga ajratish mumkin: a) o‘z qishlog‘i ma’naviyati, maktab va milliy oliygoh asosida shakllangan ilk bosqichga doir she’rlar semantikasi; b) XX asr 80-yillari o‘rtasidagi ijtimoiy uyg‘onish davrida paydo bo‘lgan, Vatan, millat tushunchalari old planga chiqqan she’rlar semantikasi; d) islom ma’naviyati va milliy etikani uyg‘unlashtirgan so‘nggi davr she’rlari semantikasi.

Filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimov Y.Eshbek she’riyatidagi o‘ziga xosliklar haqida shunday yozadi: “Hayratli va g‘ayratli shoir Yo‘ldosh Eshbek she’rlarida qandaydir kenglik, bepoyonlik, so‘zlarni vazn, misra va hatto qofiyalar ichiga kishanlab joylamasdan qo‘llash san’ati kuzatiladi. Yo‘ldosh Eshbekning hayotga, borliqqa, insonga, adabiyotga va san’atga nisbatan o‘z ko‘zqarashi hamda mezonlari bor. U she’riyatni, so‘zni, adabiyotni ijodkor qalbidagi iymon nurini go‘zallashtirishi, pokiza e’tiqodga mos va amaldan quvonadigan shoirlar toifasiga kiradi. Shu bois Yo‘ldosh Eshbek mumtoz shoirlarning yo‘lidan zamonaviy kayfiyat bilan yuradi. Mumtoz sharq shoirlarining e’tiqodiy a’mollariga havas etadi” [ta’kid bizniki, N.U., 2: 24-25]. Filologiya fanlari nomzodi Abdumurod Tilavovning: “Ha, shoir tabiat manzaralari, voqea-hodisalarga o‘ziga xos nigoh, tafakkur, tadabbur bilan qaraydi va barcha uchun asqotadigan zarur xulosalarni taqdim qiladi. Ular esa sizning ham qarashlaringizda o‘zgarish paydo qilganidan beixtiyor shoir kabi o‘ylay boshlaysiz, unga hamroh, YO‘LDOSH bo‘lasiz” [3: 6], degan so‘zlari B.Karimov fikrlarining uzviy davomidek tasavvur beradi.

Kim bardosh sohibi, nur nufuz keldi,
Sabrsiz sitamga yuzma-yuz keldi.
Kim avval g‘am birla so‘zlashdi do‘stdek,
Oqibat shodliklar izma-iz keldi.
Men yolg‘iz faryodlar qildim bu bahor,
Sarg‘ayib bitmagan ko‘m-ko‘k kuz keldi.
G‘anim kim, deya men chorlagan edim,
Mansab deb yurtini sotgan do‘st keldi.
El – baxtim dedig-u, taxtni o‘yladik,
Shul sabab iqbolmi juda sust keldi.
Go‘yo ibtidodan to hanuz yotgan
Asrlar qa’ridan bir mahbus keldi... [4; 6]

Shoirning ushbu she’ri, haqiqatan ham, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Abdulqodir Bedil, Alisher Navoiy hikmatlariga kelbat beradi. Ohangi, ritmiga ko‘ra yangilik bilan an’ana maromini sintezlaganga o‘xshaydi. She’rda uzoq va yaqin tarixga oid muayyan voqealar, umumbashariy dalillar mazmuni metaforalashgan. Masalan, “bardosh” va “nur” so‘zlari muqoyasasi orqali ma’rifatli o‘quvchi Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom hayotlaridagi eng og‘ir bosqich – hazrati Xadicha onamizning (r.a.) vafotlari bilan bog‘liq holatni xotirlaydi. “G‘am va shodlik” juftligi esa Qur’oni karimdagi “Inshiroh” surasidagi taskin beruvchi ko‘rsatmaga borib taqaladi. Chunki bu surada har qanday g‘amdan keyin shodlik, og‘irlikdan keyin yengillik kelishi haqida ilohiy bashorat berilgan. Shoir nazdida kimki munofiqlik bilan shahar olsa, hukmronlik rutbasini qo‘lga kiritsa, elini ham, o‘zini ham baxtsiz, “iqbolsiz” qiladi. Bunday nursizlik baxtsizlikning omili esa, shoirning qat’iy xulosasiga ko‘ra, “asrlar qa’ridan

kelgan mahbus”, ya’ni shaytoni lainning hiylalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азим У. Танланган асарлар. Биринчи жилд. Шеърлар, қўшиқлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2016.
2. Карим Б. Истиқлол адабиёти: назм ва наср. Монография. – Тошкент: Фирдавс-Шоҳ нашриёти, 2021.
3. Тилавов А. Шеър бағрида эзгулик бордир... Йўлдош Эшбек ижодига чизгилар. – Тошкент: Янги аср авлоди нашриёти, 2019.
4. Эшбек Й. Сени сўроқлайман. Шеърлар. – Тошкент: Машҳур-пресс нашриёти, 2020.

Гульчехра ДАВЛЯТОВА,
кандидат педагогических наук,
профессор кафедры русской филологии
Ферганского государственного университета,
Тимур АЮПОВ,
старший преподаватель кафедры
теории русского языка и литературы
Кокандского Государственного
Педагогического Института

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРИЕМЫ РАННЕГО В.О. ПЕЛЕВИНА

Аннотация: в данной статье рассматривается художественная реальность раннего Пелевина, через историко-культурно временной срез, где мастерски обыгрываются аллюзии, реминисценции, вкрапленные Пелевиным, для конструирования новой реальности, элементы двоемирия, интертекст, и впервые применен термин художественные порталы Пелевина, при описании художественных приемов раннего Пелевина.

Ключевые слова: *В. О. Пелевин, дзэн-буддизм, Н. В. Гоголь, новаторство, пустота, традиции, Ф. М. Достоевский, двоемирие, интертекст.*

Annotation: this article examines the artistic reality of early Pelevin through a historical and cultural time slice, where allusions and reminiscences, interspersed by Pelevin, are masterfully played up to construct a new reality, elements of duality, intertext, and for the first time the term artistic portals of Pelevin is used to describe the artistic techniques of early Pelevin.

Key words: *V. O. Pelevin, Zen Buddhism, N. V. Gogol, innovation, emptiness, traditions, F. M. Dostoevsky, duality, intertext.*

Annotatsiya: ushbu maqola Pelevin tomonidan kesib o‘tilgan ishoralar, xotiralar yangi voqelikni qurish uchun mohirlik bilan ijro etilgan, ikkilamchi dunyo elementlari, intertekst va birinchi marta tarixiy va madaniy vaqt oralig‘i orqali ilk Pelevinning badiiy haqiqatini ko‘rib chiqadi. Pelevinning badiiy portallari atamasi ilk Pelevinning badiiy texnikasini tavsiflashda ishlatilgan.

Kalit so‘zlar: *V. O. Pelevin, Dzen buddizmi, N. V. Gogol, yangilik, bo'shliq, an’analar, F. M. Dostoyevskiy, ikki dunyo, intertekst.*

В XX веке происходит усложнение искусства, возникает особая его форма, которая начинает мыслить себя как вторую реальность, «конкурирует с действительностью» (Л. Арагон). [1].

В литературоведении существует термин «художественный мир произведения». Мир литературного произведения – это воссозданная в нем посредством речи и при участии вымысла предметность, это художественно освоенная и преображенная реальность. Как уже было отмечено в начале статьи, это взятые в совокупности все единичные явления и факты, которые обозначены с помощью слов. Мир художественного произведения многопланов. Наиболее крупные единицы словесно-художественного мира – персонажи, составляющие систему и события, из которых слагаются сюжеты. Мир включает в себя также то, что принято называть компонентами изобразительности (художественной предметности): акты поведения персонажей, черты их наружности (портреты), явления психики, а также факты окружающего людей бытия (вещи, запечатлеваемые в рамках интерьеров, картины природы – пейзажи).

Прежде всего, необходимо отметить, что раннее творчество В.О. Пелевина изучается современными литературоведами достаточно обширно и интенсивно, однако область исследования в основном охваты-

вает ранний период (до 2000-х годов). В научных работах выделяют ряд важнейших аспектов данного временного промежутка. Так, авторское мировоззрение, в частности, влияние буддизма на художественную и нехудожественную прозу раннего периода, включение автором в повествование мифологем, культурных и литературных реминисценций и осмысление философских концептов рассматривают Ян Мэйпин в работе «Восточные мотивы в произведениях Виктора Пелевина», частично Е.Н. Вагнер – в диссертации «Национальные культурные мифы в литературе русского постмодернизма», а также Го Вей – в диссертации «Классическая китайская литература и философия в творчестве В. О. Пелевина».

Целью мировой литературы становится не копирование жизни, а моделирование мира по своему образу и подобию, создание принципиально новой модели литературы. Основной принцип такой литературы – разрушение жизнеподобия, размывание, разрушение видовых и жанровых границ, синкретизм методов, обрыв причинно-следственных связей, нарушение логики – «ничто не причина, никакой закон не царит» (Ф. Ницше). [2]. Художественный мир в литературе – это вымышленная реальность, созданная писателем, в которой разворачивается сюжет произведения.

Художественный мир обладает теми же параметрами и категориями, что и мир реальный – пространством, временем, психологической и нравственной средой. Но при этом художественный мир произведения представляет собой не обособленную систему, а результат взаимоотношений внутреннего мира автора и реальности. (М. Бахтин). [3].

Творчество Пелевина демонстрирует новый для русского человека, весьма сложный, поиск Пути, исправления, другую концепция понимания правильного личного устройства жизни и устройства мира в целом.

В литературоведении существует термин «художественная реальность произведения». Реальность литературного произведения – это воссозданная в нем посредством речи и при участии вымысла предметность, это художественно освоенная и преображенная реальность. Более того, можно обнаружить у Н. Гоголя типичный «пелевинский» прием» – метаморфозу: в повести «Невский проспект» главный герой неожиданно для себя оказывается в борделе. Возможно, кризис в поиске русским человеком Пути был ярко показан самой историей второго тома «Мертвых душ». Далле рассмотрим художественный приём метамарфозы или элементы обыгрывания.

Для бегства нужно твердо знать не то, куда бежишь, а откуда. Поэтому необходимо постоянно иметь перед глазами свою тюрьму.

Мне, кстати, давно уже приходило в голову, что русским душам суждено пересекать Стикс, когда тот замерзает, и монету получает не паромщик, а некто в сером, дающий напрокат пару коньков (разумеется, та же духовная сущность).

– Не забивайте себе голову тем, что не имеет отношения к настоящему, – сказал Чапаев. – В будущее, о котором вы говорите, надо еще суметь попасть.

Пелевин меняет знак на противоположный, и Чапаев в его романе становится утонченным эстетом: «Что же до меня, то я очень люблю Моцарта. Когда-то я посещал консерваторию и готовился к карьере музыканта» [8. с. 90].

В романе Фурманова Чапаев представляется сразу: «Рано утром, часов в пять-шесть, кто-то твердо постучал Федору в дверь. Отворил – стоит незнакомый человек.

– Здравствуйте! Я – Чапаев!» [8. с. 188].

В романе Пелевина знакомство Чапаева с Петром обыгрывается:

«– Кто вы такой? – спросил я.

– Моя фамилия Чапаев, – ответил незнакомец.

– Она мне ничего не говорит, – сказал я.

– Вот именно поэтому я ей и пользуюсь, – сказал он. – А зовут меня

Василий Иванович. Полагаю, что это вам тоже ничего не скажет» [8].

В романе Д. Фурманова Чапаев равен своему имени, равен тому, что о нем говорят. У Пелевина Чапаев не равен ни тому, ни другому. Чапаев Фурманова представлен как актанта без развития, с изначально заданными параметрами, это «архетипический образ, не предполагающий критического к себе отношения». В этом смысле можно сказать, что Чапаев в романе Фурманова является второстепенным персонажем, служебным, его задача заключается в подтверждении, легитимизации повествования, его узаконивания. Роман Фурманова – текст, несомненно, идеологический, и фигура Чапаева является актантой, узаконивающей, легитимирующей эту идеологию. Выполнив свою функцию медиатора, Чапаев закономерно гибнет. Функция изжила себя. Один из ключевых вопросов Пелевина – вопрос о том, что же такое реальность, какие жизненные явления могут быть наделены статусом действительности.

Об этом Пелевин размышляет уже в первом своем романе «Омон Ра». Главный герой романа приходит к выводу, что реальность целиком и полностью моделируется мыслью. Действительность – это не что иное, как наше представление о ней. Герой Пелевина в этом убедился, еще будучи ребёнком, и это открытие его потрясло.

В детстве он играл в летчика и понял, что его

игра – это и есть настоящий полет. Потому что «полет сводится к набору ощущений, главные из которых я давно научился подделывать, сидя на чердаке… глядя на заменяющую небо военкоматовскую стену и тихо гудя ртом» [9, с. 19].

Реальность такова, какою мы ее мыслим. Этот вывод подтверждается и другими эпизодами романа: когда пелевинский герой едет в «луноходе», окруженный тьмой, он порой впадает в забытье и видит себя мальчиком, едущим на велосипеде по подмосковному шоссе в погожий июльский денек. Закрыв глаза, Омон «оказывался – насколько человек вообще может где-нибудь оказаться – на призрачном подмосковном шоссе, и несуществующие асфальт, листва и солнце перед моими закрытыми глазами делались так реальны для меня, словно я действительно мчался под уклон на своей любимой второй скорости» [Там же, с. 133]. Омон полагает, что действительно переносится в иное время и пространство благодаря сознанию. Только мысль, а не что иное, создает реальность. Сама по себе, как таковая, реальность не существует. Во время путешествия в «луноходе» Омону приходит в голову и мысль о том, что в детстве ему только казалось, что он едет на велосипеде по шоссе, в то время как он «на самом деле катил по черной и мертвой поверхности Луны» [Там же].

В художественной системе романа это предположение героя оказывается верным, поскольку реальность – это сфера мыслимого. В художественной системе Пелевина «мир реальный – одно из проявлений иллюзии, а иллюзия, в свою очередь, есть не что иное, как вариант реального существования» [1, с. 188]. Произведения Пелевина учат читателя постигать предмет одновременно с разных сторон, тогда как обыденному знанию (линейному интеллекту) свойственно одностороннее восприятие и понимание. Цель – постижение трансцендентальной и феноменальной сторон реальности, формирование определенного типа личности.

Использованная литература:

1. Корнев С. Столкновение пустот: может ли постмодернизм быть русским и классическим? : (Об одной авантюре Виктора Пелевина) / С. Корнев // Новое лит. Обозрение – 1997 – № 28. – С. 244 – 259.

2. Нечепуренко, Д. В. О философских предпосылках и цели творчества В. О. Пелевина / Д. В. Нечепуренко // Вестник Челябинского государственного университета. Вып. 53. Филология. Искусствоведение. – 2011. – № 11 (226). – С. 95–98.

3. Гоголь Н. В. Повести / Н.В. Гоголь – М.: Сов. Россия, 1986. – 368 с.

4. Cowley J. Gogol a Go-Go [Электронный ресурс] / J. Cowley // The New York Times. – Режим доступа: http://www.nytimes.com/2000/01/23/magazine/gogol-a-go-go.html?ref=victor_pelevin&pagewanted=1

5. Парамонов Б. Пелевин – муравьиный лев [Электронный ресурс] / Б. Парамонов // Сайт творчества Виктора Пелевина. – Режим доступа: http://pelevin.nov.ru/stati/o-svob/1.html

6. Пелевин В.О. Священная книга оборотня / В.О. Пелевин – М.: Эксмо, 2007. – 384 с.

7. Пелевин, В.О. Синий фонарь / В.О. Пелевин – М.: Текст, 1991. – 317 с.

8. Пелевин В.О. Чапаев и Пустота. – М.: Вагриус, 2003 с 415.

9. Виктор Пелевин Омон Ра Роман. Издательство: АСТ, 2021 г.

10. Мэйпин Я. Восточные мотивы в произведениях Виктора Пелевина: дисс. ... к. филол. н.: 10.01.01. СПб., 2019. 162 с. Вагнер Е.Н. Национальные культурные мифы в литературе русского постмодернизма: дисс. ... к. филол. н.: 10.01.01. Барнаул, 2007. 231 с.

11. Вей Г. Классическая китайская литература и философия в творчестве В.О. Пелевина: дисс. … к. филол. н.: 10.01.01. СПб., 2021. 358 с.

12. Сейдашова А.Б. Структура художественного пространства и времени в произведениях В. Пелевина 90-х годов XX века: дисс. … к. филол. н.: 10.01.01. М., 2019. 167 с.

13. Мельникова А. Ю. Художественный мир В. Пелевина: пространственно-временной аспект: дисс. ... к. филол. н.: 10.01.01. Иваново, 2012. 222 с.

Dildora KAXAROVA,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti
dildora.kaharova @mail.ru



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradigan hamda ularning faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirilishi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar, bo'lajak o'qituvchilar, integratsiya, kasbiy kompetentligini rivojlantirish*

Аннотация: в статье рассматривались вопросы подготовки будущих учителей к инклюзивному образованию, отвечающего требованиям государственных образовательных стандартов, а также развития их деятельности на основе компетентностного подхода и подготовки конкурентоспособных кадров.

Ключевые слова: *инклюзивное образование, дети, нуждающиеся в особом внимании, будущие педагоги, интеграция, развитие профессиональной компетентности.*

Annotation: the article considered the issues of preparing future teachers for inclusive education that meets the requirements of state educational standards, as well as the development of their activities based on a competence-based approach and the training of competitive personnel.

Keywords: *inclusive education, children in need of special attention, future teachers, integration, development of professional competence.*

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangilash, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, kasbiy dunyoqarashi bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvlar, muammoli o'qitish hamda tadqiqotchilik faoliyatiga o'rgatish, zamonaviy ta'limni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilgan yangicha islohotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019- yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli farmonida Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga chiqarish, ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlarning barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan . Shu nuqtai nazardan bugungi kunda inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev bugungi kunda yoshlarning ta'lim olishlari, xususan, matematika fanining dolzarbligi haqida quyidagi fikrlarni ta'kidlagan: "Kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta'lim dasturlarini yaratib, o'quvchilarni qayta tayyorlash lozim. Metodika shunday bo'lishi kerakki, u bolalarga matematikaga muhabbat uyg'otsin. Buning uchun o'quvchilar bu fan hayotda, har bir sohada o'ziga kerakligini anglashi zarur. Yoshlar imtihondan o'tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo'lish uchun o'qishi lozim" [1].

Asosiy qism. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda "kompetentlik" tushunchasi individda yuqori darajada rivojlangan ma'lum bir sifatlar yig'indisini yoki o'z aksini mehnat samaradorligida, aniqligida, tezkorligida namoyon etadigan faoliyatni amalga oshirishni bildiradi. (R.W.Brislin, G.Koptelsava, D.Makkey,Yu.Rot, T.G.Stefanenko, G.U.Soldatova, K.Torn, L.A.Petrovskaya, A.A.Derkach, A.K.Markova). Shuningdek, kompetent xususiyatlar egasi individ yoki guruh bo'lishi mumkin, kompetentlikning o'zi esa, faoliyat jarayonida va natijalar ko'rsatkichida baholanishi kerak. Ijtimoiy psixologiya nazariyasida esa "kompetentlik" atamasi bilim va mahorat yig'indisi" sifatida qo'llaniladi [2].

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari bo'lajak o'qituvchilarni bilim, ko'nikma qobiliyatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishni ta`minlaydigan ma'lumotlar bilan boyitish zarur. Bu uchun bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish ta'lim sifatini oshirishga olib keladi. Albatta bu esa mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi – bo'lajak pedagoglarni tayyorlash sifatiga bo'g'liqdir. Bo'lajak o'qituvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida inklyuziv ta'limga tayyorlashda metodologik strategiyalari ta'lim berish muammolarini hal

qilishning yagona hamda turli-tuman ko‘rsatkichlarini uyg‘unlashtirishning nazariy asoslarini tizimlashtirishga qaratilgan.

Inklyuziv ta’lim tizimining murakkabligi tufayli yangi mazmun bilan to‘ldirilmoqda. Bugungi kunda tor doiradagi kasb egasi emas, balki malakali, pedagogik madaniyati yuqori, zamon bilan hamnafas, doimiy o‘z ustida ishlab izlanishda, ijodiy salohiyatga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda yangi shakllangan kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur holat yuzasidan kompetensiyaviy yondashuvni vaziyatli o‘rganish zarurati kelib chiqadi. Shu sababli biz olib borayotgan tadqiqot mavzusi, uning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti asosida kompetentlik, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv va bo‘lajak o‘qituvchini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish” kabi tushunchalar mazmunini tahlil qilamiz. Buning uchun avval “kompetentlik” terminini keng izohlab berish lozim.

Pedagogikaga oid lug‘atda “kompetentlik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi, ya’ni bu “ Ma’lum bir faoliyat sohasida tayyor bo‘lishlik, to‘g‘ri va natijaviy qarorlarga erishish uchun bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lish” darajasi [3].

Kompetentlik – shaxsning zaruriy bilim va hislatlari bo‘lib, bu jihat bilimlar, ilmiy yoki amaliy faoliyatning tegishli sohasidagi muammolarga professional yondashuvni hamda ularni samarali hal qilish imkonini beradi. D.A.Ivanov “Kompetentlik tushunchasi ostida shaxsning muhim topshiriqlarni, shuningdek,ushbu jamiyat uchun muammolarni hal etishda, uning samarali harakatlarini baholash natijasida unga berilgan tavsifni anglatadi. Bilim, ko‘nikma, qobiliyat, motivlar, qadriyat va e’tiqodlarga kompetentlikning bo‘lishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlari sifatida qaraydi, biroq ular o‘z-o‘zidan insonni kompetentli qilib qo‘ymaydi”- deb, izohlaydi [4].

A.N.Novikovning fikricha “Kompetentlik” texnologik tayyorgarlikdan tashqari, bir talay boshqa professional va professional bo‘lmagan xarakter kasb etuvchi, bugungi kunda barcha mutaxassisga nihoyatda zarur bo‘lgan bir qobiliyatdir. Bu o‘z navbatida, shaxsning shunday sifat xususiyatlari bo‘lib, mustaqilllik, qaror qabul qilish, har qanday ishga ijodiy yondashish va uni oxirigacha yetkazish, muntazam o‘rganish salohiyatidir. Bu-tafakkurning moslashuvchanligi, mavhum, tizimli va eksperimental tafakkurning mavjudligi, nutqni chiroyli olib borish san’ati, hamkorlikka moyillik va boshqalardir. Mutaxassisga maxsus professional texnologik tayyorgarlik yuzasidan professional bo‘lmagan yana boshqa ulkan talablar qo‘yiladi [5].

N.B.Kuxarev pedagogik kompetentlik va pedagogik mahorat tushunchasiga shunday ta’riflaydi: “Psixologik-pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o‘qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to‘plami” [6].

“Kompetentlik” atamasi izohlovchi xarakter kasb etadi: u nafaqat ma’lum bir hayotiy hodisalarni hal etishda kerak bo‘ladigan qobiliyatlar yig‘indisi, balki muayyan faoliyatlar va harakatlar uslubidan xabardorlikni bildiradi [7]. Bu singari yondashuvda “kompetentlik” muloqotning tarkibiy qismi sifatida o‘rganiladi, muloqotning o‘zi esa, subyekt-obyekt yoki subyekt-subyekt munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Subyekt-subyekt munosabatlarida esa, kompetentli munosabatlar tariqasida tan olinadi [8].

Chet el adabiyotida kompetentlik tushunchasiga boshqacha yondashiladi. Ularda “Kompetentlik” atamasi allaqachon o‘z isbotini topgan bo‘lib, ayniqsa olib borilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarda “Kompetentlik” tushunchasi keng qamrovli yoritilgan. “Kompetentlik” tushunchasi shaxsning qobiliyatlariga qaratilgan masalalarni, ijtimoiy kompetentlik va uning boshqa kompetentlarini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi (Berns, Baker, Berthold, Cummins va Swain, Krashen, Kramsh, Savinnon). Misol uchun ingliz tadqiqotchilari kompetentlik tarkibini uch bosqichga ajratishadi (1-rasm).



1-rasm. Kompetentlik bosqichlari

Olib borilgan izlanishlar natijasida ko‘pgina adabiyotlar tahlil etilganda “Kompetentlik” va “Kompetensiya” so‘zlari bir xil ma’noda qo‘llaniladi. Ammo mujassam holda ba’zan esa turli ma’nolarni bildiradi. “Kompetentlik” va “Kompetensiya” tushunchalarining keng tarqalishi mehnat taqsimotining ro‘y berishi davriga to‘g‘ri keldi. Ya’ni boshqaruv tashkilotlarining majburiyatlari va mansabdor shaxslarning vakolat doirasi bilan bog‘liq muammolar natijasida bu yangi terminga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, qat’iy faoliyat turini amalga oshirishda bilim, tajriba va malakaning yuqori darajada bo‘lishi davr talabi edi.

20-asrga kelib “Kompetensiya” tushunchasi huquq sohasida keng qo‘llanila boshlandi. Chunki u davlat boshqaruvidagi ma’lum tashkilot yoki mansabdor shaxs o‘zining vakolatidan kelib chiqib, qonun va konstitutsiya, ijroviy aktlarni amalga oshirishda vazifalar yig‘indisi tushunchasini bildirgan. Shuning uchun yuridik sohalarda ushbu ibora keng qo‘llaniladi. Shuningdek, boshqaruv sohasida mehnat taqsimoti boshqaruv organi yoki mansabdor shaxsning munosib faoliyati va vakolat doirasi borasida obyektiv masalani o‘rtaga tashladi. Muammoning asosi, bir tomondan, mansabdor shaxsning amaliy masalalarni yechishdagi mas’uliyatini belgilovchi vakolati, ikkinchi tomondan, ushbu vakolat doirasini ishlab chiqishdagi mahorati va tajribasi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni tashkil etdi. Bu ikki tomonni tartibga solish ehtiyoji “Kompetentlik” atamasining paydo bo‘lishiga olib keldi.

“Kompetentlik” va “Kompetensiya ” atamalarining etimologik yaqinligi ularning interpretatsiya masalasini keltirib chiqaradi, ba’zi hollarda ushbu atamalar ahamiyati chegaralanadi. “Kompetentlik” va “Kompetensiya” atamalari birinchidan, huquq, vakolat; ikkinchidan, ushbu vakolat egasining xarakteristikasini ifodalovchi mustaqil tushunchalar sifatida ko‘rib chiqiladi. Boshqa hollarda kompetentlik kompetensiya ishlab chiqish sifatida yoki unga mutanosib tushuncha sifatida qo‘llaniladi [9].

Ushbu xulosalar “Kompetensiya” tushunchasi u yoki bu faoliyat turining tarkibiy tuzilmasi bo‘lib xizmat qilishini bildiradi. Kompetensiya tushunchasi esa bu tarkibning amalga oshishi uchun zarur bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchining xususiyatlari yig‘indisidir. Bundan kelib chiqqan xulosaga ko‘ra, kompetentlik, kompetensiya tushunchalarini ajratish uchun individ faoliyatining sifatini aniqlovchi obyektiv va subyektiv omillarni hisobga olish lozim.

Demak, yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib mulohaza qiladigan bo‘lsak, kompetensiya –bu bo‘lajak o‘qituvchilarning ichki xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar yig‘indisidir. Kompetensiya modeli olimlarni tavsiflashda professional yondashuv asosida ishlab chiqilishi mumkinligini aytadi. Shuningdek, mutaxassisning kompetensiyalari yig‘indisini va ularning shakllanishi darajasini aniqlashda quyidagicha yondashadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning jamiyatga foydali bo‘lishi uchun o‘zini va atrof-muhitini o‘rganishga tayyor bo‘lishi zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilar inklyuziv ta’limga tayyorligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishda ularning pedagogik xususiyatlari, imkoniyatlari hamda inklyuziv ta’limning asosiy funksiyalari shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish, xatti-harakatlarini ijtimoiy rivojlanishiga yo‘naltirish, har bir o‘quvchiga individual yondashib shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini hisobga olgan holda uning iqtidori va shaxsiy salohiyatini ochib berish vazifasi maqsad qilinadi. Demak, komponentlilik fenomenini ko‘pkomponentli bo‘lib, uning barcha komponentlari o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlik xususiyatiga egadir.

Kompetensiyaning shakllanishi faoliyatning ijobiy ichki va tashqi sharoitlarini hosil qilishdan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilarni kompetensiyaviylik, yondashuvlilikni rivojlantirishda va professional qilib sifatli ta’lim va amaliyot berishni o‘zida namoyon qiladi. Bu jarayon esa yuqori mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik va yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanadi. Kompetensiya faqatgina bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ahamiyat kasb etgan sohada shakllanishi mumkin. Aynan shuning uchun ham kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8- oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.
2. Лебедева Н.М. Межкультурный диалог в школе: Программа тренинга. Изд-во Российского университета дружбы народов, 2004. С.74.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12 tomlik, – T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002. –T. 4. –B.704.
4. Иванов Д.А., Митрофонов К.Т, Саколова О.V. Компетентности подход в образный, проблема, понятие, инструментарий.Учебно-методическое пособие. –Омск, 2003. –С.208.
5. Навиков А.М. Методика образования. – М.: Egves, 2002. - С.23.
6. Кухарев Н.В. На пути к профессиональному совершенству: КН.для учителя/ Н.В.Кухарева. – М.: Просвещение, 1990. –С.136.
7. Равен Дж. Компонентность в современном обществе: взаимосвязь, развитие и реализация. – М:

когнитивный Центр, 2002. -С. 39-40-50.
8. Юридическая психология. – М., 2000. -С.205-206.
9. Петровская Л.А. Компетентность в общении. Социально-психологический тренинг. –М.: Изд-во МГУ, 1999. С.53.



Nilufar SULEYMANOVA,
"ALFRAGANUS UNIVERSITY" nodavlat oliy ta'lim tashkiloti fakultetlararo chet tillar kafedrasi dotsenti (PhD

TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VA VIDEOKONTENTLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'limda multimedia va videokontentlardan foydalanishning ahamiyati, ularning talabalarning bilim olish jarayonidagi roli va samaradorligi muhokama qilinadi. Multimedia vositalari, jumladan, video materiallar va interaktiv darslar, talabalarning e'tiborini jalb qilish, murakkab mavzularni tushuntirish, shuningdek, mustaqil o'rganish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada videokontentlarning o'qitish samaradorligini oshirishdagi foydalari, talabalarning motivatsiyasini kuchaytirish va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qilishdagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *ta'lim, multimedia, videokontent, interaktiv o'rganish, samaradorlik, motivatsiya, texnologik ko'nikmalar, talabalarning e'tibori.*

Аннотация: в данной статье рассматривается важность использования мультимедиа и видеоконтента в образовании, их роль и эффективность в процессе обучения учащихся. Мультимедийные инструменты, включая видеоматериалы и интерактивные уроки, важны для вовлечения учащихся, объяснения сложных тем и развития навыков самостоятельного обучения и самооценки. В статье говорится о пользе видеоконтента в повышении эффективности обучения, повышении мотивации учащихся и повышении интереса к процессу обучения.

Ключевые слова: *образование, мультимедиа, видеоконтент, интерактивное обучение, эффективность, мотивация, технологические навыки, внимание учащихся.*

Annotation: this article discusses the importance of using multimedia and video content in education, their role and effectiveness in the learning process of students. Multimedia tools, including video materials and interactive lessons, are important in engaging students, explaining complex topics, and developing independent learning and self-assessment skills. The article talks about the benefits of video content in increasing the effectiveness of teaching, increasing the motivation of students and making the learning process more interesting.

Keywords: *education, multimedia, video content, interactive learning, efficiency, motivation, technological skills, student attention.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi doimo yangiliklar va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda davom etmoqda. Global miqyosda o'qitish va o'rganish usullari sezilarli ravishda o'zgarib bormoqda. Xususan, multimedia va videokontentlar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Bu texnologiyalar o'qituvchilarga talabalar bilan samarali muloqot o'rnatishda, ularning e'tiborini jalb qilishda va materialni aniq va tushunarli tarzda taqdim etishda katta yordam beradi. Multimediali vositalar va videokontentlardan foydalanish, ayniqsa, murakkab mavzularni osonroq tushuntirishga yordam beradi va talabalarning ma'lumotlarni samarali o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Multimedia texnologiyalarining asosiy maqsadi – tovush, video, animatsiya va boshqa vizual effektlar bilan ta'minlangan dasturiy mahsulotlarni yaratishdan iboratdir. Bunda multimedia dasturiy mahsulotlari o'z ichiga interfaol interfeys va boshqarish mexanizmlarini qamrab oladi. Undan tashqari multimedia texnologiyasidan foydalanuvchi o'zi dizayn bilan shug'ullana olishiga imkon beradi, shuningdek, statik (harakatsiz) va dinamik (harakatlanuvchi) tasvirlarni yaratishi hamda o'z ijodiy ishining natijalarini aloqa kanallari orqali tashqi muhitga tarqatishi mumkin.

Multimediadan foydalanish axborotni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishga imkon beradi, bu pedagog tomonidan ta'lim oluvchiga kompyuter vositasida o'quv axborotlarini yetkazib berishda juda ham muhimdir. Yaratilayotgan ko'pchilik elektron ta'lim resurslari axborotlarning turli-tuman tiplari bilan ishlashga yo'naltirilgan. Ular fotosuratlar, tovushli fragmentlar va albatta, animatsiya va video bo'lishi mumkin.

Multimedia – gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi [1]:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompakt disklar, televizor, videomagnitofon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

- muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va videoxotira katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

- "Inson-kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Multimediani mashhur qilgan komponentlardan asosiysi – animatsiyadir. Animatsiyaning turli mualliflar tomonidan berilgan bir nechta ta'riflari mavjud:

1. Animatsiya dinamik va ovozli jarayonlarni ifodalashga imkoniyat beradigan grafik axborotlarni tashkil etish usuli.

2. Animatsiya – bu obyektlar, kameralar, yorug'lik manbalarining o'zaro joyini almashtirish yoki ularning parametrlarini vaqt bo'yicha o'zgarishiga ega vazifasini topshirish.

Sun'iy harakat orqali tasvir effekti quyidagilar bilan xarakterlanadi [2]:

• obyektlar harakatining ayrim fazalari qayd etishda kadrlar ketma-ketligini tez almashtirish;

• yoki fazolar o'rniga ularning holatlarini qayd etishda kadrlar ketma-ketligini tez almashtirish;

• yoki syujetlarni tez almashtirish.

Multimedia tizimlarni ko'rish uchun foydalanilayotgan kompyuterning hisoblash quvvatini oshirishigina yetarli emas, buning uchun qo'shimcha apparatli qo'llab-quvvatlash analogli audio va videosignallarni raqamli ekvivalentga qo'shish va uning teskarisi uchun zarur bo'lgan analogli-raqamli va raqamli-analogli o'zgartirgich videoprotsessorlar, dekoderlar maxsus integral chizmalar va boshqalar ham zarur. Odatda, yuqorida ko'rsatilgan qo'shimcha apparatli vositalar kompyuterlarning video va audio imkoniyatlarini kengaytiruvchi turli platalar ko'rinishida shakllanadi [3]:

- Ko'chmas video tasvirlar bilan ishlash uchun TARGA platasi;

- harakatlanuvchi videotasvirlarni yozish va aks ettirish uchun Video Blaster, Video Spigot, Intel Smart, Video Recorder platalari;

- Microsoft firmasining Sound Blaster, Sound Galaxy Sound for Windows audioplatalari.

Multimedia vositalari, masalan, matn, rasm, audio va videolarni o'z ichiga olgan materiallar, talabalarga ma'lumotni bir nechta sezgilar orqali yetkazib berish imkoniyatini yaratadi. Videokontentlar esa bu jarayonni yanada interaktiv va samarali qiladi. Ko'plab tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, multimedia va video materiallar nafaqat talabalarning e'tiborini tortadi, balki ularning ma'lumotni eslab qolish va tushunishda sezilarli farq yaratadi [4].

Videokontentlar ma'lumotni tushuntirishda eng kuchli vositalardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning 65% ma'lumotni vizual materiallar orqali o'zlashtiradi, bu esa o'qituvchilarga murakkab mavzularni aniq va oson tushuntirishda yordam beradi. Ko'p holatlarda videolar texnik va ilmiy jarayonlarni yoki tarixiy hodisalarni aniqroq va jonli tarzda namoyish etadi. Masalan, biologiya fanida hujayra tuzilishini tushuntirishda yoki fizika fanida kuchlarning ta'sirini ko'rsatishda video materiallar yordamida talabalarni jozibador va faol o'qishga jalb qilish mumkin.

Videokontentlar va multimedia vositalarining yana bir katta afzalligi shundaki, ular talabalarni faollashtiradi. Masalan, onlayn videodarsliklar va interaktiv videolar yordamida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlash uchun turli xil savol-javoblar va testlarda ishtirok etishlari mumkin. Interaktiv video mashg'ulotlar, talabalarga nafaqat ma'lumotni ko'rish, balki uni amalda qo'llash imkonini beradi [5].

Ko'plab onlayn ta'lim platformalarida (masalan, Coursera yoki Khan Academy) interaktiv darslar o'qituvchilarga talabalarga alohida yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu platformalarda ko'plab videolar va tasvirli darslar mavjud bo'lib, ular talabalarning yod olish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Videokontentlar murakkab mavzularni tushuntirishda ajoyib vosita hisoblanadi. Agar talabalarga murakkab ilmiy jarayon yoki tarixiy voqeani faqat matnli tarzda taqdim etishsa, ular ko'p hollarda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin. Lekin, videolar yordamida aynan shu mavzularni animatsiyalar, grafiklar va vizual tasvirlar bilan tushuntirish talabalarga ancha oson tushunishga yordam beradi.

Chet tillari o'qitish jarayonida multimedia va videokontentlardan foydalanish juda muhim rol o'ynaydi. Multimedia vositalari, jumladan videomateriallar, audio fayllar va interaktiv mashqlar, talabalarga yangi tilni o'rganishning turli jihatlarini osonlashtiradi. Chet tili o'qitishda videokontentlar, ayniqsa, talaffuz, tinglab tushunish va tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Videokontentlar chet tili o‘qituvchisiga talabalarga haqiqiy, jonli va turli madaniyatlarga oid materiallarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Masalan, chet el filmlari yoki videolarini ko‘rish orqali talabalar yangi tilning talaffuzi, leksikasi va sintaksisini kontekstda o‘rganadilar. Bu talabalarning tilni tushunish qobiliyatini oshiradi va ularni real hayotdagi muloqotga tayyorlaydi.

Videokontentlar talabalarga o‘z bilimlarini baholash imkonini yaratadi. Onlayn videolar orqali talabalar o‘z bilimlarini testlardan o‘tkazishlari yoki interaktiv mashqlarni bajargan holda o‘zlarining o‘quv darajasini aniqlashlari mumkin. Shuningdek, videomateriallar talabalarga mavzu bo‘yicha o‘z-o‘zini mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyatini beradi.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning mustaqil o‘rganish darajasi videomateriallar orqali yuqori bo‘ladi. Talabalar videolarni bir necha marta ko‘rib, kerakli momentlarda to‘xtatib, o‘zlari uchun qiyin bo‘lgan qismlarini qayta ko‘rib chiqishlari mumkin. Bu talabalarning o‘zini o‘zi baholash va o‘rganish jarayoniga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi [6].

Xulosa va munozara. Multimedia va videokontentlar ta’lim tizimida ta’sirchan va samarali vositalardan biriga aylanmoqda. Ular talabalarning ma’lumotlarni tezroq va samarali o‘zlashtirishini ta’minlaydi, shu bilan birga talabalarning qiziqishini oshirib, ta’lim jarayonini yanada interaktiv qiladi. Ta’limda multimedia va videokontentlarni joriy etish, nafaqat talabalar uchun, balki o‘qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Shunday qilib, multimedia va videokontentlar orqali o‘qitish ta’limni yangi bosqichga olib chiqib, talabalarning zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashdagi ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘raqulov S. Ta’limda videokontentlarni qo‘llashning afzalliklari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashri, 2022. 135- bet.
2. Karimova N. Talabalarning o‘rganish faoliyatini videokontent orqali boshqarish. – Buxoro: Buxoro davlat pedagogika instituti, 2023. 140 -bet.
3. Xodjayev A. Multimedia texnologiyalarining ta’lim tizimidagi roli. – Toshkent: Ta’lim va ilm-fan nashriyoti, 2020. 200 -bet.



Gulnoz TURAYEVA,
Termiz davlat universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

PEDAGOGIKA YO‘NALISHI TALABALARINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH SAMARADORLIGINI TAHLIL ETISH

Annotatsiya: ushbu maqola pedagogika yo‘nalishi talabalari ta’limida multimedia texnologiyalarining samaradorligini tahlil qiladi. Unda texnologiyalar orqali o‘quv jarayonini interaktiv va samarali tashkil etishning usullari, ta’lim sifatiga ta’siri hamda talabalarning o‘quv motivatsiyasi va qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli haqida va o‘quvchi-talabalarni zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash komponentlari to‘g‘risida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *tarbiya, jarayon, fikrlash, tizim, ko‘nikma, malaka, amaliyot.*

Annotation: this article analyzes the effectiveness of multimedia technologies in the education of pedagogic students. In it, there is an opinion about the methods of interactive and effective organization of the educational process through technologies, the impact on the quality of education and the role in the development of students' educational motivation and abilities, and about the components of preparing students as highly qualified, competitive personnel that meet the requirements of the time. - considered.

Key words: *education, process, thinking, system, skill, competence, practice.*

Аннотация: в данной статье анализируется эффективность мультимедийных технологий в обучении студентов-педагогов. В нем содержится мнение о методах интерактивной и эффективной организации учебного процесса с помощью технологий, влиянии на качество образования и роли в развитии учебной мотивации и способностей учащихся, а также о компонентах подготовки учащихся. как высококвалифицированные, конкурентоспособные кадры, отвечающие требованиям времени – считают.

Ключевые слова: *образование, процесс, мышление, система, умение, компетентность, практика.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim yangi texnologiyalar ta'sirida shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi sharoitida multimedia texnologiyalari o'qitishning muhim vositasiga aylanmoqda. Ushbu maqola pedagogika yo'nalishi talabalarini o'qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish hamda ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi multimedia texnologiyalarining bo'lajak o'qituvchilarning motivatsiyasi, materialni o'zlashtirishi va kasbiy faoliyatga tayyorgarligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Multimedia texnologiyalari - bu interaktiv kontent yaratish uchun matn, grafika, ovoz, video va animatsiyani birlashtiruvchi vositalar va usullar majmuidir. Ular ta'limni yanada ko'rgazmali va qiziqarli qilish imkonini beradi [2]. Ta'lim muhitida multimedia texnologiyalaridan turli shakllarda, jumladan, elektron darsliklar, taqdimotlar, videomateriallar va onlayn kurslarda foydalanish mumkin.

O'qitishda multimedia texnologiyalarining afzalliklari.

1. Talabalar motivatsiyasini oshirish

Multimedia elementlari mashg'ulotlarni yanada qiziqarli va dinamik qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vizual va audiovizual materiallardan foydalanilganda talabalar o'quv jarayonida faolroq ishtirok etadilar. Bu talabalarning o'quv jarayoniga jalb etilishini oshirishga va o'zlashtirishini yaxshilashga yordam beradi [1].

2. Axborot uzatish formatlarining xilma-xilligi

Multimedia texnologiyalari o'qituvchilarga ma'lumot berish uchun turli formatlardan foydalanish imkonini beradi. Bularga matnli ma'ruzalar, videomateriallar, interaktiv topshiriqlar va guruh loyihalari kiradi. Formatlarning xilma-xilligi talabalarni o'qitishning turli usullarini hisobga olishga yordam beradi, bu esa jarayonni yanada individuallashtiradi.

3. Axborotni qabul qilish va eslab qolishni yaxshilash

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vizual elementlar axborotni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Multimedia texnologiyalari turli xil idrok kanallarini faollashtiradi, bu esa materialni chuqurroq tushunishga ko'maklashadi. Masalan, sxema va grafiklardan foydalanish murakkab tushunchalarni anglashni osonlashtirishi mumkin [3].

4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Multimedia texnologiyalari munozara va keys-stadi kabi interaktiv elementlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu esa talabalarda tahliliy va tanqidiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi [7]. Ular nafaqat ma'lumotlarni o'zlashtirishni, balki ularni tahlil qilishni, xulosalar chiqarishni va olingan ma'lumotlar asosida qaror qabul qilishni o'rganadilar.

5. Zamonaviy talablarga mos kasbga tayyorlash

Bo'lajak o'qituvchilar o'z amaliyotida texnologiyalardan foydalanishga tayyor bo'lishlari kerak. Ta'lim bosqichida multimedia vositalari bilan tanishish ularga raqobatbardosh mutaxassis bo'lishga yordam beradi. Shuningdek, bu ularga o'z o'quvchilarini zamonaviy chaqiriqlarga yaxshiroq tayyorlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

OTMlarida bo'lajak o'qituvchining ilmiy-texnikaviy va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirish – har qanday tur, bosqich yoki darajadagi ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri. Zotan, bugungi kun bo'lajak o'qituvchilari texnika va texnologiya, pedagogika asoslari borasidagi bilimlardan xabardor bo'lsa-yu, biroq ulardan foydalanish bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga ega bo'lmasa, u ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi. O'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni amaliyotda qo'llash yo'llari va vositalarini bilishgina ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, texnika, mehnat qurollari va axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish imkonini beradi [8].

Keng ko'lamli va mustahkam bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik kabi muammolarni mustaqil hal etishda aniq maqsadga intilish va shaxsiy faoliyatga nisbatan talabchanlik talabalar ijodkorlik qobiliyatlari shakllanishining zamini.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish misollari.

1. Virtual sinflar va vebinarlar

Virtual sinflar interfaollik elementlari bilan masofaviy ta'limni tashkil etish imkonini beradi. Bu ayniqsa, an'anaviy ta'lim shakllari imkonsiz bo'lgan pandemiya sharoitida dolzarbdir. Vebinarlar o'qituvchilar va boshqa talabalar bilan real vaqt rejimida muloqot qilish imkoniyatini yaratadi.

2. Elektron darsliklar va platformalar

Elektron darsliklar videodarslar, testlar va interaktiv topshiriqlar kabi turli xil resurslarga kirish imkonini beradi. Onlayn ta'lim platformalari turli multimedia elementlaridan foydalangan holda kurslarni tashkil etishga yordam beradi.

3. Animatsiyali taqdimotlar

Animatsiyali taqdimotlar murakkab tushuncha va g'oyalarni tasvirlashga ko'maklashadi. Ular ma'lumotni tushunish uchun yanada qulayroq qiladi va darslarda ham, mustaqil o'rganish uchun ham qo'llanilishi mumkin.

4. Ta'limiy o'yinlar

Ta'limiy o'yinlar talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb etishga yordam beradi. Ular nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi [9].

Tahlil va natijalar. 1. Motivatsiyani oshirish: 85% talaba multimedia texnologiyalaridan foydalanish mashg'ulotlarni yanada qiziqarli va jozibali qilganini ta'kidladi.

2. Materialni o‘zlashtirishni yaxshilash: so‘rovda qatnashgan talabalarning 78 foizi vizual va audiovizual materiallar ma’lumotni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam berganini aytdi.

3. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik: 90% o‘qituvchi talabalarning multimedia texnologiyalari bilan tanishuvi ularning kelajakdagi amaliyotda bu vositalardan foydalanishga tayyorligiga yordam berishi haqidagi fikrga qo‘shildi.

4. Joriy etishdagi muammolar: 60% talaba va 50% o‘qituvchi multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun asosiy to‘siq sifatida texnik jihozlarning yetishmasligini ko‘rsatdi.

Aniq afzalliklarga qaramay, ta’limda multimedia texnologiyalarini qo‘llash bir qator muammolarga duch kelmoqda:

1. Texnik jihozlash zaruriyati

Barcha ta’lim muassasalari ham zamonaviy uskunalar va dasturiy ta’minotdan foydalana olmaydi. Bu ta’limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini cheklab qo‘yishi mumkin.

2. O‘qituvchilarning malakasi

O‘qituvchilarni multimedia resurslari bilan ishlashga tayyorlash zarur. Ko‘pchilik o‘qituvchilar ta’limda texnologiyalardan samarali foydalanish uchun yetarli ko‘nikmalarga ega emas, bu esa qo‘shimcha vaqt va mablag‘ sarflashni talab qiladi.

3. Ma’lumotning ortiqchaligi

Multimedia materiallarining ko‘pligi talabalarning axborot bilan haddan tashqari to‘yinib ketishiga olib kelishi mumkin. Bu ta’lim samaradorligini pasaytirishi va talabalarda stress holatini keltirib chiqarishi mumkin.

4. Standartlashtirishning yo‘qligi

Multimedia resurslarining xilma-xilligi ta’limda yagona standartning yo‘qligiga olib kelishi mumkin. Bu esa ta’lim kontenti sifatini baholashda qiyinchiliklar tug‘diradi.

Multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar.

1. Texnologiyalar integratsiyasi strategiyasini ishlab chiqish

Ta’lim muassasalari multimedia texnologiyalarini o‘quv jarayoniga singdirish strategiyasini ishlab chiqishlari lozim. Bunga mos vosita va usullarni tanlash, shuningdek, o‘qituvchilarni o‘qitish kiradi.

2. O‘qituvchilarni tayyorlash

Multimedia texnologiyalari bilan ishlash bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarini tashkil etish kerak. Bu ularga yangi vositalardan ta’lim berishda ishonch bilan foydalanishga yordam beradi.

3. Sifatli kontent yaratish

Yaratilayotgan multimedia materiallarining sifatiga e’tibor qaratish muhim. Bunga zamonaviy talablarga javob beradigan interaktiv topshiriqlar, video ma’ruzalar va boshqa resurslarni ishlab chiqish kiradi.

4. Samaradorlikni baholash

Ta’limda multimedia texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini muntazam ravishda baholab borish lozim. Bu yondashuvlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Xulosa. Pedagogika ixtisosliklari talabalarini o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish tahlili, o‘quv jarayoniga to‘g‘ri joriy etilganda, ularning yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat ushbu texnologiyalarni o‘zlashtirishi, balki interaktiv va qiziqarli ta’lim muhitini yaratish uchun ularni o‘z amaliyotlarida qo‘llashni o‘rganishlari kerak. Biroq ta’limda eng yuqori natijalarga erishish uchun mavjud muammolarni hisobga olish va ularni bartaraf etish ustida ishlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turaeva, G. E. (2022, February). Some aspects of educating students to become highly qualified and competitive personnel. In Conference Zone (pp. 163-165).
2. Turaeva, G. E. (2021). Improving the efficiency of the educational process using computer technology. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 407-410.
3. Turaeva, G. E. (2021). The effectiveness of the use of computer technology in the educational process. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(8), 90-93.
4. Тураева, Г. Э., & Бадалов, Д. А. (2019). Инноватsiонный подход к обучению геометрическим фигурам ученикам начальных классов. Научные горизонты, (5-1), 320-323.
5. Исмоилов, Б. Т., Бадалов, Д. А., & Тураева, Г. Э. (2019). Постановка и решение задачи: найти площадь четырехугольника по четырём сторонам. Научные горизонты, (5-2), 43-47.
6. Turayeva, G. E. KOMPYUTERLI DIDAKTIK O „YINLARNING TA‟ LIM-TARBIYAVIY JARAYONDAGI AHAMIYATI. НАУКА и ОБЩЕСТВО, 94.
7. Turayeva, G. E. (2023). YOSH AVLODNI SOG ‘LOM MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI. Innovative Development in Educational Activities, 2(19), 130-136.

Surayyo INOMJONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi



FENTEZI ASARLARNI ZAMONAVIY ADABIY TA’LIM METODLARI YORDAMIDA O‘RGANISH
(“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada “Uch og‘a-ini botirlar” ertagini zamonaviy adabiy ta’lim metodlari yordamida o‘rganish usullari ko‘rsatilgan. Ertak orqali o‘quvchilarda odob-axloq, mehribonlik, bir-biriga yordam ko‘rsatish, yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi farqlarni tushunish kabi sifatlarni rivojlantirish g‘oyasi ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *fentezi, tahlil, yondashuv, analitik o‘qish, ertak, tasavvur, ijodiy fikrlash, sahnalashtirish, topshiriq, multimedia, animatsiya.*

Annotation: this article shows the methods of studying the fairy tale “Three Brothers and Sisters” using modern literary education methods. Through the fairy tale, the idea of developing qualities such as manners, kindness, helping each other, and understanding the difference between good and evil in students is put forward.

Key words: *fantasy, analysis, approach, analytical reading, fairy tale, imagination, creative thinking, staging, assignment, multimedia, animation.*

Аннотация: в данной статье показана методика изучения сказки «Три брата и сестры» с использованием современных методов литературного образования. Через сказку выдвигается идея развития у учащихся таких качеств, как манеры, доброта, помощь друг другу, понимание разницы между добром и злом.

Ключевые слова: *фантазия, анализ, подход, аналитическое чтение, сказка, воображение, творческое мышление, постановка, задание, мультимедиа, анимация.*

Zamonaviy bolalar adabiyotida ertaklar, asrlar davomida bolalarni axloqiy va hissiy jihatdan tarbiyalashning asosiy manbalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Ertaklar syujetlarining sarguzashtga boyligi bilan birga, unda yaxshilik doim yomonlik ustidan g‘alaba qozonadi. O‘quvchilar hayvonlarning gapirmasligini bilsalar-da, ertaklarni hayotiy hikoyadek qabul qiladilar. Ertak qahramonlariga nisbatan o‘z qarashlarini ifoda etadilar. Ertakdagi majoziy obrazlarni hayotiy haqiqatlar orqali solishtirib baho beradilar. “Ertakni o‘qib tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tasavvur etishga yo‘naltiriladi”. [4.108]

Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish. Ertaklar bolalarga yaxshilik va yomonlik tushunchalarini sodda va tushunarli tarzda yetkazadi. Qahramonlarning xatti-harakatlari orqali bolalar axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi, odob-axloq me’yorlarini anglab, kelajakdagi xulq-atvorini shakllantiradi.

Tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Ertaklar bolalarda tasavvur kuchini rivojlantiradi. Qahramonlar va voqealar dunyosiga kirib borish orqali bolalar o‘zlariga xos obrazlar va voqealarni tasavvur qilishadi. Ertaklarda yuz beradigan sehrli voqealar bolalarni qiziqtiradi va ularga yangi kashfiyotlar uchun ilhom beradi.

Insoniy his-tuyg‘ularni o‘rgatish. Ertak qahramonlarining his-tuyg‘ularini boshdan kechirish orqali bolalar hayotdagi turli vaziyatlarda qanday munosabat bildirishni o‘rganadilar. Bu ular uchun empatiya va boshqa odamlarning hislarini tushunish qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, qiyin holatlarda o‘zlarini qanday tutishni ham ertak qahramonlari orqali bilib oladilar.

Axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlik. Zamonaviy bolalar adabiyotida ertaklar yangi texnologiyalar orqali bolalarga yetkazilmoqda. Masalan, audio kitoblar, raqamli animatsiyalar va virtual haqiqat orqali ertaklarning ma’nosi yanada boyib, bolalar o‘rtasida ommalashmoqda. Bu esa ularni zamonaviy texnologiyalar orqali tarbiyalash imkonini beradi va ertaklarni yangi usullarda qiziqarli qiladi. 5-sinf adabiyot darsligida o‘zbek xalq ertaklaridan “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi berilgan. Ushbu ertak fentezi yo‘nalishida bo‘lib, unda ajdar, gapiruvchi to‘ti, sehrli daraxt obrazlari uchraydi. “Uch og‘a-ini botirlar” – o‘zbek xalq ertaklaridan biri bo‘lib, u shon-shuhrat, jasorat, mardlik va sadoqat mavzularini qamrab olgan.

Ertakda uch aka-uka – katta aka, o‘rtancha aka va kichik aka – turli sinovlardan o‘tishadi. Ularning har biri o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib, katta aka ko‘proq dono va yetakchi sifatida namoyon bo‘lsa, kichik aka oqil va eng jasur sifatida tasvirlanadi. Ertak davomida ular birgalikda turli xavf-xatarlardan o‘tib, shon-shuhratga erishadilar. Bu jarayonda aka-ukalar o‘zaro yordam berish, birdamlikni saqlash va bir-biriga sodiq qolishni o‘rganishadi.

Ertakni o‘qitishda quyidagi yondashuvlarni qo‘llash mumkin:

Tasavvurga asoslangan o‘qish: Bolalar

ertakdagi qahramonlarni tasavvur qilishlari uchun qahramonlarning suratlarini chizishlari yoki tasvirlab berishlari mumkin. Bu ertakning bolalar ongi va hissiyotlariga ta'sirini kuchaytiradi.

Analitik o'qish: Uch aka-ukaning xarakterlarini tahlil qilib, ularning qarorlari va xatti-harakatlarini muhokama qilish bolalar uchun axloqiy saboq bo'lishi mumkin.

Qahramonlarni rolda ijro etish: Bu usul bolalarni ertak qahramonlariga yaqinlashtiradi va ularning motivatsiyasini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Fentezi asarlar bolalar va yoshlar orasida tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishning kuchli vositalaridan biridir. Bunday asarlar bolalarning hayotga yangicha nigoh bilan qarashlariga, o'z tasavvurlarida hech qanday cheklovlarsiz yangi olamlar yaratishga yordam beradi.

1. Tasavvurga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Fentezi asarlar bolalarni mavjud olamdan tashqariga olib chiqib, ular tasavvurida turli xil sirli va sehrli voqea-hodisalarni jonlantiradi. Sehrli olamlar, g'ayrioddiy qahramonlar va yangi texnologiyalar orqali bolalar o'z dunyolarini kengaytirishadi. 2. Ijodiy fikrlashga turtki beradi. Fentezi asarlarda odatda mavjud bo'lmagan g'oyalar, texnologiyalar va maxluqlar tasvirlanadi, bu esa bolalarda yangilikka qiziqish uyg'otadi va o'zlariga xos fikrlash usullarini shakllantiradi. Qiziqarli fantastik syujetlar orqali bolalar muammolarni hal qilish va yangilik kashf etish imkoniyatlarini qidira boshlaydilar.

3. Fentezi orqali muammolarni hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish. Ko'plab fentezi asarlarda qahramonlar qiyin vaziyatlarga tushib qoladilar va noan'anaviy yo'llar bilan muammolarni hal qilishga harakat qilishadi. Bu jarayon bolalarga ijodiy yondashuv va moslashuvchan fikrlash ko'nikmalarini beradi, chunki ular ertak yoki hikoya davomida turli yechimlar qidirishga o'rganadilar.

4. Innovatsion va ilmiy bilimlarga qiziqishni uyg'otadi. Ilmiy fantastika bolalarda ilm-fan va texnologiyaga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Ular kosmos, robototexnika, sun'iy intellekt va kelajak texnologiyalariga oid fikrlarni o'rganib, ushbu sohalarda kashfiyotlar qilishni orzu qilishadi.

5. O'zgacha dunyoqarash va hissiy tajriba yaratadi. Fentezi orqali bolalar o'zlariga notanish bo'lgan vaziyatlarga tushib qolgan qahramonlar hayotini kuzatib, o'zlarining ichki dunyosini rivojlantiradilar.

Shunday qilib, fentezi orqali tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat bolalarga o'z qobiliyatlarini ochish imkonini beradi, balki ularning yangi g'oyalarni ishlab chiqish va kelajakda ijodiy faoliyatda faol bo'lishlariga ham zamin yaratadi. "Sehrli-fantastik ertaklar ming yillar davomida insoniyatning turli yovuz kuchlariga qarshi olib borgan kurashlari davomidagi xulosalari, ulardan kelib chiqadigan ehtiyojlarning o'ziga xos yechimi sifatida maydonga kelgan". [2.33] Ertaklar bilan tanishtirishda ertak qahramonlarini vizuallashtirish bolada tasavvur qilishni kengaytiradi. "Uch o'g'a-ini botirlar"ertagi qahramonlarini tasavvur qilish va ularni vizuallashtirish uchun qahramonlarning xarakterlari, rollari va ular qanday sifatlarga ega ekanligini aniqlab olish muhim. Quyidagi qahramonlarga e'tibor qaratamiz:

Uch o'g'il (Botirlar): Bu uch og'a mard va jasur. Ularning har biri o'ziga xos ko'rinishda. Masalan, ularning biri katta, kuchli va qo'qmas, ikkinchisi epchil va zukko, uchinchisi esa aqlli va o'ylovchan, qiyin vaziyatlarda aql bilan ish ko'ruvchi sifatlarga ega.

Dushmanlar: har bir botir o'ziga xos sinovlarga duch keladi. To'ng'ich botir yarim tunda sher bilan olishsa, o'rtancha botir ajdar bilan olishib uni yengadi, kenja botir esa, shaharni talonchi o'g'rilardan qutqaradi. Dushmanlarni qo'rqinchli qiyofalarda tasvirlash mumkin.

Yordamchi obrazlar: har bir ertakda yordamchi qahramonlar bo'ladi. Bular – qahramonlarga yordam beradigan do'stlar yoki sehrli kuchlar bo'lishi mumkin. O'quvchilar o'z tasavvurlaridan kelib chiqib, ularning qiyofasini yaratadilar.

Rollar ijro etish ham o'quvchilarga qahramonlar xarakterini o'zlashtirish imkonini beradi. Bunda ertakdagi har bir voqea asosida rollarni taqsimlasa bo'ladi. Ertak ota va o'g'illarning suhbatidan boshlanadi. Ota farzandlari oldidagi burchlarini sanab, ularga o'zidan keyin baxtsiz bo'lib qolmasliklari uchun o'qitgani, yaxshi ism qo'ygani, to'y qilgani va voyaga yetkazganini ta'kidlaydi. Mana shu qismigacha sahna ko'rinishi tayyorlash mumkin. O'quvchilar ota va farzandlar o'rniga o'zlarini qo'yib ko'radilar va qahramonlar his-tuyg'ularini chuqurroq anglaydilar. Farzand sifatidagi o'zlarining burchlarini anglab yetadilar.

Dars davomida o'quvchilar bilan konstruktorlik va loyihalash metodlaridan foydalanish ham darsning yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilarga "Ertakni davom ettir", "Oilaviy ertak tuzish" qahramonlar suratini chizish kabi ijodiy topshiriqlar berish orqali ertakka o'zgartirish kiritish, ertak yakunini boshqacha tugallash imkonini berish ham ularning fantaziyalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu bolalarni ertakning rivojiga boshqacha yondashishga undaydi va ijodiy fikrlashlarini kuchaytiradi. "Mustaqil izlanishlarni tashkil etishda vazifalar qanchalik aniq bo'lsa, o'quvchilar faoliyati shunchalik yengil kechadi". [3.67] Bolalarni kichik guruhlarga ajratib, ertakning turli qismlarini o'zlari davom ettirishlariga imkon yaratish topshirig'i ham yaxshi natija beradi. "Ertak darsida: "Kenja botir podshohga qarab bir hikoya aytdi..." jumlasidan keyingi hikoyani o'quvchilar ertakdagi voqealar rivojiga moslashtirib yangidan yaratishlari mumkin".[5.217] Har bir guruh yangi sarguzashtni tasavvur qiladi va shuni to'ldirib boradi.

Shuningdek, dars davomida tahlil va munozara

metodlaridan foydalanish orqali ham kutilgan natijaga erishish mumkin. Bunda o‘quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qiladilar.

Uch aka-ukalar va ularning sarguzashtlari orqali obrazlar va ramzlarni tushuntirish ham yaxshi natijaga olib keladi. Masalan, aka-ukalarning birlashishi — oilaviy birlik, dushmanlar bilan kurash — mardlik ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Dars davomida multimediaviy taqdimotlar va animatsiyalardan foydalanish o‘quvchilarga ertakni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Ertaklar o‘qish bolaning eng qiziqarli faoliyat turlaridan biridir. Ertak qahramonlarining xarakteri, ularning uddaburonligi, yaxshi insonlarning hamisha g‘olib bo‘lishi kabi ijobiy hislatlari o‘quvchida har tomonlama axloqiy sifatlarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. “Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog‘lanishi, insonlarga axloqiy va ma’naviy yo‘ldosh bo‘lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma’naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o‘ziga dushman bo‘lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g‘olib chiqadi”. [1.10] Adabiyot darslarida ertaklar mavzusi o‘tilayotganda o‘qituvchining darsga jiddiy tayyorgarligi mavzuning qiziqarli bo‘lishi va o‘quvchini yana shunday ertaklarni o‘qishga xohish-istagining kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Jumaboyev M.Bolalar adabiyoti va folklor. –Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 10-bet.
2.Jo‘rayeva G. Bolalar adabiyoti. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –Toshkent: 2019. 33-bet.
3.Kambarova S. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Mahalla va oila, 2022. 67-bet.
4.Safo Matchon. Adabiy ta’lim va mutolaa madaniyati. –Toshkent: Bayoz, 2023. 108-bet.
5.Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. 217-bet.

Muhabbat MAXMUDOVA
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi
mahmudovamuhabbat78@gmail.com



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATN YARATISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining ahamiyati tahlil qilingan. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, nutq boyligini oshirish va yozma nutq malakalarini mustahkamlashda matn yaratish jarayonining o‘rni katta ekanligi, ushbu jarayonning o‘quvchilarni tilga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga, lug‘at boyligini kengaytirishga, matnlarni to‘g‘ri tushunishga va o‘z fikrlarini aniq ifoda etishga yordam berishi turli mashqlar yordamida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *ijodiy fikrlash, nutq, matn, lug‘at, fikr, gap, ona tili, qobiliyat.*

Аннотация: в данной статье проанализировано значение процесса формирования навыков создания текста у учащихся начальных классов. Тот факт, что процесс создания текста играет большую роль в развитии навыков творческого мышления учащихся, увеличении их речевого богатства и закреплении навыков письменной речи, тот факт, что этот процесс помогает учащимся развивать интерес к языку, расширять словарный запас, правильно понимать тексты и четко выражать свои мысли, привлекается к анализу с помощью различных упражнений.

Ключевые слова: *творческое мышление, речь, текст, словарный запас, мысль, предложение, родной язык, способность.*

Annotation: this article analyzes the importance of the process of forming text creation skills of primary school students. The role of the text creation process in developing students' creative thinking skills, increasing their vocabulary and strengthening their written speech skills is important, this process can increase students' interest in language, expand their vocabulary, and help them understand texts correctly. and the fact that it helps to express one's thoughts clearly has been analyzed with the help of various exercises.

Key words: *creative thinking, speech, text, vocabulary, thought, sentence, native language, ability.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, ta'lim-tarbiya tizimi mazmunini takomillashtirish, uni davr talablari bilan uyg'unlashtirish yo'lidagi islohotlar jadal sur'atlarda davom etmoqda. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida: "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi", - deb qayd etilgan. Ayniqsa, ilm dargohlarida ona tili mashg'ulotlari samaradorligini oshirish yoshlarning ma'naviy yetukligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning so'z boyligini o'stirish eng dolzarb vazifalardan biridir. Dars mashg'ulotlarini imkon qadar jonli muloqot tarzida o'tkazib, har bir o'quvchiga o'z fikrini erkin ifodalashga imkoniyat yaratishga harakat qilishimiz zarur, o'quvchilarning nutq boyligini o'stirish va matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishga o'qituvchi va o'quvchining faol amaliy ishtirokisiz erishib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinflarda har bir darsda faoliyatning to'rtala turi: eshitilgan nutqni tushunish, gapirish, o'qish va yozish bo'yicha biryo'la ish olib boriladi. Bu narsa nafaqat dasturda, balki darsliklarda ham o'z aksini topgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish jarayoni — o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, nutqini boyitish va yozuv malakalarini o'stirishga qaratilgan muhim bosqichlardan biridir. Ushbu jarayon nafaqat ularning tilga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, balki boshlang'ich sinfda o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, matnlarni to'g'ri tushunish va o'z fikrlarini ifoda etishga yordam berishi bilan ham o'ta muhim hisoblanadi. Bu jarayon til o'rgatishning asosiy qismi bo'lib, o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtiradi hamda matn yaratish orqali ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati kengayadi. O'quvchilar o'zlari uchun qiziqarli mavzularda yozib, ijodkorliklarini namoyon eta oladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirish va matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy misollarni ko'rib chiqamiz:

So'z boyligini oshirish uchun "So'z zanjiri" o'yini. Misol uchun, dars davomida o'qituvchi mavzuga oid yangi so'zlarni tushuntirib, ularni o'quvchilarning nutqiga kiritish uchun "So'z zanjiri" o'yinini o'tkazishi mumkin. Bu o'yinda o'quvchilar biror so'z bilan gap boshlaydi, keyingi o'quvchi esa o'sha gapni davom ettirib, yangi so'z qo'shadi. Masalan:

O'qituvchi: "Baliq ko'lda suzadi".

1-o'quvchi: "Baliq ko'lda tez suzadi".

2-o'quvchi: "Kichkina baliq ko'lda tez suzadi".

Ushbu o'yin orqali o'quvchilar yangi so'zlarni o'zlashtiradi va gap tuzishda faol qatnashadi.

Matn mazmunini tushunish uchun "Suratga qarab hikoya qilish".

O'qituvchi doskada bir nechta suratni ko'rsatadi va o'quvchilardan ularga qarab kichik hikoya tuzishni so'raydi. Misol uchun, suratda oilasi bilan dam olayotgan bola tasvirlangan bo'lsa, o'quvchilar shunday gaplar tuzishi mumkin:

"Bu bola oilasi bilan parkda sayr qilmoqda".

"U yerda ko'p daraxtlar bor, qushlar uchib yuribdi".

Bunday mashq orqali o'quvchilar tasviriy fikrlashga o'rganadi, ularning e'tibori, eshitish, ko'rish xotirasi matn yaratish va o'z fikrlarini ifoda qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, quyidagi mashqlar bu jarayonni ancha osonlashtiradi.

"Ko'zgu" mashqi yordamida ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

"Ko'zgu" mashqi uchun o'qituvchi biror sodda hikoya o'qib beradi va o'quvchilar o'sha hikoyani o'z so'zlari bilan qaytadan hikoya qilishga harakat qiladi. Masalan, o'qituvchi quyidagi matnni o'qiydi. "Mushukcha tongda o'rnidan turdi va bog'ga yugurib chiqdi. Bog'da chiroyli gullar bor edi". So'ng, o'quvchilar bu hikoyani o'z so'zlari bilan hikoya qiladi. "Mushuk ertalab uyg'onib, bog'ga chiqdi va u yerda go'zal gullarni ko'rdi". Bu mashq bolalarni matnni tushunish va o'z tili bilan qayta yaratishga undaydi.

"Mavzuga mos hikoya yozish" mashqi. O'quvchilar uchun qiziqarli mavzuda kichik hikoya yozish topshirig'i beriladi. Masalan, "Mening eng yaxshi do'stim" mavzusida yozib berishlarini so'rash mumkin. Bu yerda har bir o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalaydi va ijodkorlik imkoniyatlarini namoyon etadi:

"Mening do'stimning ismi Alisher. U juda yaxshi bola va menga doimo yordam beradi. Biz birga o'ynaymiz va o'rganamiz". Ushbu mashq orqali o'quvchilar mavzuga mos matn yaratishni va o'z his-tuyg'ularini yozuvda ifoda etishni o'rganadi. Bu amaliy misollar yordamida o'quvchilarning lug'at boyligi ortadi, ular matnni yaxshiroq tushunib, o'z fikrlarini ravon ifoda eta oladi.

Yosh bolalar ko'pincha o'z fikrlarini izchil tarzda ifoda etishda qiynaladilar. Bunday holatlarda yuqorida ko'rsatilgan mashqlar hikoyalar yozishga, suratlardan foydalanib, voqealarni tasvirlashga yordam beradi. Shuningdek, mavzuni muhokama qilish va savollar yordamida bolalarda tushunchalarni aniq ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirish samarali usullardan biridir. Savollar orqali bolaning fikrlash doirasini kengaytirish va so'z boyligini oshirish mumkin.

Savollar yordamida mavzuni muhokama qilish. Bolalarga o'rganilgan mavzu bo'yicha savollar berish orqali ularda tushunchalarni aniq ifoda etish ko'nikmasini rivojlantirish mumkin. Masalan, o'quvchilar "Hayvonot bog'iga sayohat" mavzusida gaplashayotgan bo'lsa,

quyidagi savollarni berish mumkin:

“Hayvonot bog‘iga qachon borgan eding?”

“Sen qaysi hayvonlarni ko‘rgan eding?”

“Senga eng yoqqan hayvon qaysi edi va nima uchun?”

Har bir savol bolalarni fikrlashga undaydi va mavzuga oid aniq javoblar orqali nutqini boyitadi.

Vaziyatni hikoya qilib berish.O‘qituvchi biror voqea yoki vaziyat haqida boshlang‘ich jumlalarni beradi va o‘quvchilardan bu vaziyatni davom ettirishni so‘raydi. Masalan: “Bugun maktabga kelganimda juda katta qushlar parvoz qilayotgan edi”. O‘quvchilar bu jumlani davom ettirib, o‘z hikoyasini yaratadilar. Bu mashq bolalarni o‘z tasavvurlariga asoslanib voqea yaratishga va izchil fikrlashga o‘rgatadi. Bu amaliy misollar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn yaratishdagi qiyinchiliklarni yengish uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin. O‘quvchilar o‘z fikrlarini ketma-ket va ravon ifoda qilishga o‘rganib, nutqiy rivojlanishlari uchun asos yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish kelgusidagi ta’lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ushbu jarayonning samaradorligini oshirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matn yaratishdagi qiyinchiliklarini yengishda foydalanish mumkin bo‘lgan bunday amaliy mashq va usullar to‘g‘ri nutq tuzish, aniq metodik yondashuvlarni qo‘llash, individual va ijodiy rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratish o‘ta muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Barkamol avlod–O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997.
2.Qosimova Q va boshq. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – T., 2018.
3.Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T., 2015.
4. Aliyev A. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
5. Boboyeva Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

Muxabbat MIRAZIMOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta’lim” metodikasi kafedra o’qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INDUKTIV METODNING O’RNI

Annotatsiya: maktabgacha yoshdagi bolalar kompetentligini shakllantirishda induktiv metodlarning o‘rni, maktabgacha yoshdagi bolalarda induktiv metodning afzalliklari hamda induktiv metodni ta’lim jarayoniga tatbiq etish haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *induktiv metod, kompetentlik, bola tarbiyasi, faol o‘rganish yondashuvi, sog’lom bola, komil inson, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, tajriba orqali o‘rganish, sog‘lom tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kuzatuvlar va mustaqil faoliyat, jamoaviy muloqot va munosabatlar.*

Аннотация: представлены роль индуктивных методов в формировании компетентности дошкольников, преимущества индуктивного метода у дошкольников, а также применение индуктивного метода в образовательном процессе.

Ключевые слова: *индуктивный метод, компетентность, образование ребенка, активный подход к обучению, здоровый ребенок, совершенная личность, развитие творческого мышления, обучение через опыт, развитие здорового критического мышления, Наблюдения и самостоятельная деятельность, командное общение и взаимоотношения.*

Annotation: the role of inductive methods in the formation of competence of preschool children, the advantages of the inductive method in preschool children, and the application of the inductive method to the educational process are presented.

Key words: *inductive method, competence, child education, active learning approach, healthy child, perfect person, development of creative thinking, learning through experience, development of healthy critical thinking, Observations and independent activities, team communication and relationships.*

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning 3 - moddasida “Ta’lim-ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishda, shuningdek, ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon”[1]


dir deb belgilab qo‘yilgan.

Ta’lim dasturini amalga oshirish pedagog uchun oson ish emas. Bolalar qanchalik katta bo’lsa, bolalar tomonidan o‘rganiladigan material shunchalik xilma-xil va kengroq bo‘ladi va bu yerda mazmun bilan bir qatorda ma’lumotni taqdim etish usullariga ham alohida o‘rin beriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun induktiv usuldan foydalanish samarali usullardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining asosiy bosqichi bo‘lib, bu davrda ular hayotga doir ko‘plab boshlang‘ich tushunchalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Bolalarning kompetentliklarini shakllantirish, ya’ni ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda metodlarning roli juda katta.

Kompetentlikni shakllantirishda induktiv metodning o‘rni.

Kompetentlik — bu nafaqat bilimlar, balki malakalar va qobiliyatlarni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun induktiv metod quyidagi kompetentliklarni shakllantirishga yordam beradi:



Induktiv metod aynan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun samarali yondashuvni ta’minlashi mumkin.

Induktiv metod – bu maxsus o‘rganish va tajriba asosida umumlashma qilish usulidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda induktiv yondashuv orqali ta’lim berish, ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, o‘zaro munosabatlarni yaxshilash va ijodiy faoliyatga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega.

Induktiv metod, asosan, aniq misollar va tajribalar orqali umumiy xulosalar chiqarishga qaratilgan o‘rganish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu metodning ahamiyati shundaki, ular o‘zlarining bevosita tajribalari va kuzatuvlariga asoslanib yangi tushunchalarni o‘zlashtiradilar.

Induktiv metod yordamida bolalar obyektlar, hodisalar va jarayonlarni mustaqil ravishda o‘rganib, ular haqida umumiy qonuniyatlar yoki prinsiplarni aniqlay boshlaydilar.

Bu metodning asosiy prinsipi – bolalarga o‘rganilayotgan materialni "topish" imkoniyatini yaratish, ya’ni o‘quvchilarga keng ko‘lamda yangi bilimlarni faqat ma’lumotni to‘plash orqali o‘rganishga imkon berish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda induktiv metodning afzalliklari quydagilardn iborat:

1. **Faol o‘rganish yondashuvi:** induktiv metod bolalarni faol o‘rganishga undaydi. Bolalar o‘quv jarayonida passiv qabul qiluvchilardan faollarga aylanadi, chunki ular o‘zlari mustaqil ravishda javoblarni izlashadi. Bu bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.
2. **Ijodiy fikrlashni rivojlantirish:** induktiv metodda bolalar mavjud muammolarni yechish uchun turli

xil yo‘llarni izlashadi. Bu, o‘z navbatida, ularning ijodiy fikrlashini va muammoni hal etishdagi qobiliyatlarini oshiradi.

3. Tajriba orqali o‘rganish: bolalar real dunyo bilan bog‘lanib, uni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish orqali o‘rganadilar. Masalan, ularga turli ranglar, shakllar yoki o‘lchamlarni ko‘rsatish orqali ular o‘sha obyektlar haqidagi umumiy tasavvurlarni shakllantiradilar. Bu jarayon ular uchun ancha samarali va qiziqarli bo‘ladi.

4.Sog‘lom tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: induktiv metod bolalarda faqat ma’lumotni qabul qilishni emas, balki o‘rganilgan ma’lumotlar asosida mustaqil fikrlar yaratishni ham rivojlantiradi. Bu esa kelajakda tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Induktiv metodni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta‘limida induktiv metodni qo‘llashda bir qator usullarni tavsiya etish mumkin:

1. Eksperimentlar va tajribalar o‘tkazish: bolalar uchun tajribalar o‘tkazish orqali ular o‘zlari yangi bilimlarni kashf qilishlari mumkin. Misol uchun, suvning holatlari (suyuq, qattiq, gaz) haqida tushuncha berish uchun bolalar bilan tajriba o‘tkazish mumkin.

2. Kuzatuvlar va mustaqil faoliyat: bolalarni atrof-muhitni kuzatishga undash, turli tabiiy jarayonlarni kuzatish orqali umumiy qonuniyatlarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, o‘simliklarning o‘sishi yoki hayvonlarning harakati haqida kuzatuvlar o‘tkazish.

3. Raqamlar va ranglar bilan ishlash: ranglarni, shakllarni yoki raqamlarni o‘rganishda bolalar uchun turli xil materiallar bilan ishlash juda samarali bo‘ladi. Bolalar ranglarni va shakllarni aniq kuzatib, ularga oid xulosalar chiqaradilar.

4. Jamoaviy muloqot va munosabatlar: bolalar o‘zaro muhokama qilish, savollar berish, turli nuqtai nazarlarni tinglash orqali o‘z fikrlarini mustahkamlashadi. Induktiv metodda bu turdagi muloqotlar bolalarning bilim olish jarayonini boyitadi.

Induktiv metodning cheklovlari.

Biroq, induktiv metodning ba’zi cheklovlari ham mavjud. Bolalar har doim o‘zlari ko‘rgan yoki eshitgan faktlarga asoslanib fikr yuritishga moyil bo‘lishadi, lekin ba’zan ular o‘rganilayotgan materialni to‘g‘ri umumlashtira olmaydilar. Shuningdek, bu metodda ma’lum bir qo‘llanmalar yoki ma’lumotlarni tushuntirishda pedagogning roli katta. Shuning uchun, bu metodni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun, pedagog bolalar bilan samarali muloqot qilish, ular bilan birga o‘rganish jarayonini tashkil etish kerak.

Xulosa. Induktiv metod maktabgacha yoshdagi bolalarning kompetentliklarini shakllantirishda, ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu metod bolalarga bilimlarni faqat nazariy tarzda o‘rgatishdan ko‘ra, amaliy tajribalar va kuzatuvlar orqali o‘rganishni taklif etadi. Natijada, bolalar o‘z fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar, mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar va ijodiy fikrlashda muvaffaqiyat qozonadilar. Induktiv metodning samarali qo‘llanilishi bolalar ta’limida yangi ufqlarni ochishga yordam beradi hamda ta’lim jarayonida bolalarning kognitiv va ijtimoiy kompetentliklarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.
3. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. - T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. 115-bet.



Jo‘raali SOLIJONOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

HARRI POTTER ROMANLARIDAGI FRAZEMALARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Annotatsiya:mazkur maqola J.K. Rouling qalamiga mansub “Harri Potter” romanlar turkumida sehrgarlar olamidagi iborali birikmalarning lingvistik va madaniy ahamiyatini o‘rganadi. Ushbu iborali birikmalar nafaqat til jihatidan boy, balki romanlar turkumida ifodalangan noyob sehrli madaniyatni ham aks ettiradi. Ularni Magllarga oid iborali birikmalar bilan taqqoslab, ushbu tadqiqot sehrli dunyoni yaratishda foydalanilgan iborali birikmalarning ijtimoiy, madaniy hamda hissiy ta’sirchanligini yoritib beradi. Ushbu iborali birikmalarning asosiy namunalari etimologik kelib chiqishi va madaniy aloqadorlik jihatidan tahlil qilinib, sehrli muloqot uchun o‘ziga xos lingvistik qolipni yaratishdagi ahamiyati va tarjima muammolarini ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazema, Garri Potter, fantastik adabiyot, fentezi janri, tarjima, iborali birikmalar.*

Annotation: this article is written by J.K. Rowling’s Harry Potter series of novels explores the linguistic and cultural significance of idioms in the wizarding world. These idioms are not only linguistically rich, but also reflect the unique magical culture represented in the series of novels. By comparing them to Muggle idioms, this study sheds light on the social, cultural, and emotional impact of idioms used to create the magical world. The main examples of these phraseological combinations were analyzed in terms of etymological origin and cultural relevance, their importance in creating a specific linguistic pattern for magical communication and translation problems were considered.

Key words: *phraseology, phrasl verbs, Harry Potter, fantasy literature, fantasy genre, translation, phraseological units.*

Аннотация: эта статья написана в серии романов Дж. К. Роулинг о Гарри Поттере, в которой исследуется лингвистическое и культурное значение идиом в волшебном мире. Эти идиомы не только лингвистически богаты, но и отражают уникальную магическую культуру, представленную в серии романов. Сравнивая их с маггловскими идиомами, это исследование проливает свет на социальное, культурное и эмоциональное воздействие идиом, используемых для создания волшебного мира. Основные примеры этих фразеологических сочетаний были проанализированы с точки зрения этимологического происхождения и культурной релевантности, рассмотрены их важность в создании определенной языковой модели для магической коммуникации и проблемы перевода.

Ключевые слова: *фразеология, фразовые глаголы, Гарри Поттер, фэнтезийная литература, жанр фэнтези, перевод, фразеологические единицы.*

Iborali birikmalar tilning muhim qismi bo‘lib, ular madaniy, tarixiy hamda ijtimoiy muloqot kontekstlariga oid tushunchalarni ochib beradi. “Harri Potter” romanlar turkumida iborali birikmalar ikki maqsadda ishlatiladi: ular sehrgarlar dunyosining o‘ziga xosligini ifodalaydi, shuningdek Magllarning so‘zlari bilan bog‘liqlikni saqlab turadi. Ushbu maqolada sehrgarlar jamiyatining o‘ziga xosligini shakllantirishda, afsunni ifodalovchi iborali birikmalarning rolini, ularning Magllarga oid iboralar bilan o‘xshash jihatlari va bu kabi iboralarning madaniy ta’sirlarini o‘rganib chiqadi.

Tadqiqot “Harri Potter” romanlar turkumidagi iborali birikmalarni sifat jihatidan lingvistik analizini o‘rganib chiqadi. Sehrgarlar dunyosida personajlar tomonidan qo‘llanilgan iborali birikmalarni yig‘ib, ularning til tuzilmasi, madaniy ahamiyati va Magl iboralari bilan solishtirish tahlil qilinadi. Bu birikmalar “Harri Potter” kitoblari va muxlislar manbalaridan olingan bo‘lib, keng qo‘llanilgan iborali birikmalar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi. Tahlil mazkur iboralar ishlatiladigan semantik qiymat va madaniy kontekstga qaratilgan bo‘lib, ularning hikoya ichidagi vazifasini chuqur tushunishga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab afsungarlikka doir iborali birikmalar Magllarning ekvivalentlaridan paydo bo‘lgan, ammo ular sehrgarlar muhitiga moslashtirilgan. Masalan, “Bladjerga chap berdi” iborasi Magllarga oid iborada “o‘qdan qochdi” jumlasiga to‘g‘ri keladi, ammo bu yerda o‘q o‘rniga Kviddichning xavfli elementi bo‘lgan “Bludger” qo‘llangan. Qo‘shimcha tarzda, “Merlinning soqoli” iborasi Magllarning “Xudoning yaralari” kabi iboralarini almashtiradi, va bu iboralar sehrgarlar dunyosining tarixi va Merlin kabi muhim shaxslar bilan bog‘langan.

Yana bir izlanish natijasi shundan iboratki, ushbu iboraviy birikmalarni yaratishda o‘ziga xos ijodiy yondashuv mavjud, masalan, “Xonadagi Erumpent” iborasi Magllarning “Xonadagi fil” iborasini aks

ettiradi, ammo bu yerda mazmun sehrli maxluq haqida, u esa yashirin muammoni bildiradi. Ushbu iboraviy birikmalarda Magllar iboralaridan sehrli mavjudotlarga o‘tish jarayoni sehrgarlar va jodugarlarning kundalik hayotida sehrli elementlarning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Harri Potter” romanlar turkumidagi iboralar shunchaki tilga sehrli rang berishdan ko‘ra chuqurroq maqsadga xizmat qiladi. Ular kontekstning madaniy jihatlarini yoritishda, personajlarning voqealar sari rivojlanib borishiga hissa qo‘shadi va sehrli olam imijini yaratishda yordam beradi va sehrli olam realliklardan ajratib turadi. Ushbu iborali birikmalar orqali yozuvchi kitobxonlarni fantastik dunyo bilan tanishtirish uchun ingliz tilida gapiruvchi xalqlar orasida allaqachon ommalashib ulgurgan frazemalarning ba’zi so‘zlarini o‘zgartirgan, xolos, shu bilan birga asar tarkibida personajlar tilidan sharhlar ham bergan.

Jumladan, “Garri Potter va chalazot shahzoda” romanining 4-bobida o’qituvchi – Severus Sneyp ustidan Harri uni toki “Afsungarlar oraliq nazorati”dan o‘tmagunicha Damlamalar tayyorlash darsiga kiritilmasligidan shikoyat qiladi. Shunda Dambldor ingliz tilida quyidagicha javob qaytaradi:

– Don’t count your owls before they are delivered. – Ukkilaringni ular yetib bormagunicha sanama. Bu so‘zma-so‘z tarjima bo‘lib, ingliz tilida “Don’t count your chickens before they hatch” frazemasining yozuvchi tomonidan o‘zgartirilgan versiyasidir. Bu o‘zbek tilidagi “Jo’jani kuzda sanaymiz” iborali birikmasiga to‘g‘ri keladi. Joan Rouling tomonidan fentezi olamiga moslashtirilishiga sabab shuki, ehtimol, oddiy odamlar uchun muhim bo‘lgan jo’jalar afsungarlar olamida eng muhim qush – ukki, boyqushga to‘g‘ri keladi. Boyqushlarning vazifasi esa xat-xabarlarni egasiga eltib berishdan iborat. Shuning uchun ingliz tilidagi “before they are hatched” – “tuxumdan ochib chiqmagunicha” birikmasi “before they are delivered” birikmasi bilan almashtirilgan, ya’ni “ular yetib bormagunicha” yoki “ular eltib bo‘lmagunicha”. Ingliz tilidan rus tiliga Sergey Borisovich Ilin va Maya Laxuti tomonidan o‘girilgan versiyada bu “Не спеши, совят по осени считают,” — очень серьёзно проговорил Дамблдор. — Havotirlanma, ukkilarni kuzda sanashadi” shaklida tarjima qilingan. Mazkur tarjima 2005-yilda ROSMEN nashriyoti tomonidan chop etilgan. Aynan rus tilidagi mazkur jumla o‘zbek tiliga tarjimon Shokir Dolimov tomonidan esa — Magllarda jo‘jani kuzda sanash qabul qilingan, biz sehrgarlarda esa boyqushlar xat yetkazganidan keyin sanaladi, — hikmat qildi Dambldor, qandaydir sirli qat’iy ohangda. – shaklida konkretizatsiya yoki konkretlashtirish tarjima usulidan foydalanib tarjima qilingan. Bu yerda Magllar – oddiy odamlarga ko‘rsatkich bersa-da, kitobxonga mazkur ibora batafsil tushuntirib o’tilgan. “Ukkilarni kuzda sanaymiz” – shaklida bitta gap bilan shaklni saqlab qolgan holda o‘zbek tiliga qisman adaptatsiya tarjima usulidan foydalanib tarjima qilish ham mumkin, balki, bu versiya kontekstga yanada mosroq kelgan bo‘lar edi. Quyida ana shunday iborali birikmalarning bir qanchasi jadval ko‘rinishda yig‘ildi:

1.1-jadval.

Romanlar seriyasidagi frazemalar ro‘yxati

No	Asliyat	Izoh	Asarda qo‘llanilgan holati	Tarjimasi – adaptatsiya usuli
				qo‘llanganidan so‘ng
1.	Don’t count your owls before they are delivered.	“Don’t count your chickens before they hatch” frazemasining yozuvchi tomonidan o‘zgartirilgan versiyasi	Romanining 4-bobida o’qituvchi – Severus Sneyp ustidan Harri uni toki *“Afsungarlar oraliq nazorati”*dan o‘tmagunicha Damlamalar tayyorlash darsiga kiritilmasligidan shikoyat qiladi. Dambldor shunday javob qiladi.	“Ukkilarni kuzda sanaymiz”.
2.	Breed like gnomes	Ingliz tilidan “Breed like rabbits” – “Quyon kabi tez ko‘payadi” deb so‘zma-so‘z tarjima qilinadi.	Romanda Uzileylar oilasining katta vakili Muriel[1] – buvi tomonidan qo‘llanilgan.	Yomon qovunning urug’i ko‘p bo‘ladi.

3.	Dementor attack[2]	Qattiq siqilish va qo‘rqish .	Yakuniy afsungarlar nazorat imtihonida past ball olganlar shokolad iste’mol qilib, o‘ziga kelishlaridan oldin qo‘llanadi.	1. Arvohni ko‘rgandek oqarib ketdi. 2. Arvohni ko‘rish
4.	Dodged a bludger[3]	– *Cat among the pigeons* – Mushukni kabutarlar orasiga qo‘yib yuborib barchani havotirga solish	Asarda Arabella Fig tomonidan ta’rif sifatida xavfli holatda harakat qilish va barchani havotirga solish ma‘nosida qo‘llangan	O‘t bilan bilan o‘ynashdi.
5.	Dragon caught your tongue?	– *Cat caught your tongue?* Odatda shu shaklda qo’llanadi.[5] So‘zma-so‘z tarjimasi – Ajdar/mushuk tilingni tishlab olganmi?	Ron, Hermayni va boshqa personaj suhbatida savolga javob bera olmay qolganida shunday gap qo‘llanadi.	Mum tishlaganmisan?
6.	I could eat a Hippogriff [6], I could eat an Abraxan.	– *I could eat a horse,* – Otni ham yeb qo‘yishim mumkin.	Ron Uizleyning akasi tomonidan u juda och qolgan vaqtida qo‘llaniladu	Tuyani ham ayamay yutaman.

Yuqorida romandagi iboralar jadval shaklida keltirilgan. Jadvalda asliyatdagi iboralarning ma’nolari, asardagi qo‘llanish joylari va ularning o‘zbekcha tarjimalari ko‘rsatib berilgan. Bu orqali asar ichidagi frazemalar nafaqat fantastik dunyoning o‘ziga xosligini aks ettiradi, balki madaniy bog‘liqlikni ham kuchaytiradi. “Harri Potter” romanlari turkumidagi iboralar faqat sehrli dunyoning rang-barangligini oshirish uchun emas, balki chuqurroq ma’nolarni ifodalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular voqealar rivojini ochib berishga, personajlarning xarakterini boyitishga va fantastik dunyoning real hayotdan ajralib turishini ta’minlashga yordam beradi.

“Harri Potter” seriyasidagi sehrgarlik iboralari Magllar dunyosi va sehrli olam o‘rtasida lingvistik ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ular sehrgarlik jamoasining madaniy, ijtimoiy va tarixiy jihatlariga oid tushuncha berib, ularning o‘ziga xosligini hamda magllar dunyosi bilan bog‘liqligini aks ettiradi. Magllarning iboralarini ijodiy moslashtirish orqali bu iboralar o‘quvchilarga sehrli jamiyat haqida chuqurroq tushuncha berib, romanlar turkumining muvaffaqiyatida asosiy rol o‘ynagan olam yaratishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamoljonovich, S. J. R. (2024). Amaliy tarjima elementlarining zamonaviy klassifikatsiyasi.
2. Ilhamovna, M. S. (2019). Frazeologiya va frazeologizmlar muammosi.Студенческий вестник, 20(70 часть 7), 71.
3. Maksudova, D. K. (2024). Tarjimalarda frazeologik birliklarning tarjima qilinish taraqqiyoti. Ustozlar uchun, 55(1), 54-59.
4. Nabi, F., & Xudayqulov, A. (2024). Grammatical rules of principles of engilish to dari translation. Interpretation and researches, (8 (30)).
5. Madalov, N. E. (2019). Types of transformations in the process of translation. In Наука и инновации-современные концепции (pp. 111-115).
6. Teshaboyeva, Z. (2016). Translations of phraseological units and proverbs of " Boburnoma " Into english. Paradigmata poznani, (3), 74-78.
7. Shirinova, R., Kuldashova, M., Rakhimova, G., Shamuratova, G., & Eshmamatov, I. (2020). Representation of the national picture of the world in literary translation. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1446.
8. Солижонов, Ж. (2024). Crafting the lexicon of magic: analyzing JK Rowling’s neologisms in translation. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(4/S), 34-38.

Malohat SHOMURODOVA,
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg’on filiali
O‘zbekiston, Samarqand
m.shomurodova@mail.ru



MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING IFODALI O‘QISHGA O‘RGATISH MASHG‘ULOTLARIGA KREATIV YONDASHUVI

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida ifodali o‘qishga o‘rgatish mashg’ulotlarida pedagog-tarbiyachi pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv, tarbiyachining ijodkorlik sifatlariga qo‘yiladigan talablar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagog, shaxs, kreativ yondashuv, pedagogik yutuqlar, faoliyat, tarbiyachi, kreativlik.*

Annotation: in this article expressive reading in preschool educational institutions creative approach to the pedagogic activities of the pedagogue-educator, requirements for the creativity qualities of the educator are highlighted in the training sessions.

Key words: *personality, creative approach, pedagogical achievements, creative qualities, activity, teacher.*

Аннотация: в данной статье освещается креативный подход к педагогической деятельности педагога-воспитателя на занятиях по обучению выразительному чтению в ДОУ, требования к творческим качествам воспитателя.

Ключевые слова: *педагог, личность, творческий подход, педагогические достижения, деятельность, воспитатель, креативность.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil iyul oyidagi “Ozbekiston-2030” strategiyasi to‘g’risidagi Prezident farmonida maktabgacha ta’limga asosiy urg’u berilgan[1]. 2023-yil 1-sentabrdan boshlab nodavlat va davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholining “Ijtimoiy himoya yagona restiri” axborot tizimiga kiritilgan oilalar manfaatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan qarorlari, tarbiyachi-pedagoglarga berilayotgan imkoniyatlar barchasi davlatimizda inson omili birlamchi ekanidan dalolatdir.

Asosiy qism. Bugungi kunda ta’lim tizimimiz rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi uchun zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika , texnologiya asosida mutaxassislar tayyorlashning takomillashgan tizimiga bosqichma-bosqich o‘tilmoqda. Ta’lim sohasida olib borilayotgan bugungi islohotlar, ta’lim tizimini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta’limni hayot bilan bog’lashni, o‘qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab etadi. Ta’lim - tarbiya sohasida yangi tushunchalar iste’molga kirib keldi: ilg‘or texnologiya, innovatsiya, innovator, ta’limda axborot kommunikatsion texnologiyalar va boshqalar.

Bu tushunchalar ro‘yxatidagi “kreativlik” , “kreativ pedagog’’ tushunchalari haqida, har ikkala tushunchaning ta’lim sohasidagi o‘rni, mohiyati haqida fikr yuritishni ushbu maqolada maqsad qilganmiz. Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va (creativity-inglizcha) ijodiylikni o‘rganishdan iborat. Bu tushunchalarning mazmun va ma’nosini tahlil etishda hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borilgan.

A.Y.Agafonov,Y.Lotmon, M.M.Batishev, I.Meyerson, A.Y.Ponomarev, M.Rorbax, S.L.Rubinsteyn, V.Frankl, R.Yakobson kabi bir qator psixolog olimlarning xulosalaridan kelib chiqib “Kreativlik nima?” degan savolga yuzlanamiz. Kreativlik madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo‘ladigan shaxsiy sifati (fazilati)dir, u o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borish bilan bog’liq[2].

Ta’limga kreativlik bilan yondashuv ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan ta’limning shakli, usuli va vositalarining mahsulidir. Pedagogning kreativligi uning tafakkurida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi va shu bilan birga kreativlik uning yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirligini tasvirlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, pedagogning kreativligi iqtidorning muhim omili sifatida faoliyatda aks etadi.

Kreativlik o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, u muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladigan sifatdir. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini, kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Oliy ta’lim

tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativligi, o‘quv va tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda noan’anaviy yondashuvlarni, yangi g’oyalarni yaratish, diqqatni jalb eta oladigan o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, aniq fikrlay olishga yordam beradi[3]. Kreativlik bilim, ko‘nikma, malaka, iroda, diqqat, kuzatuvchanlik, fikr yuritish, xayolparastlik kabi shaxsiy sifatlarni tarbiyalanganligidir.

Kreativlik sifatiga ega pedagog quyidagilarga e’tibor qaratadi:

– kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashadi;

– yangi, ilg’or g’oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatadi;

– bolalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g’oyalarni yarata oladi;

– ilg’or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganadi;

– hamkasblari bilan pedagogik yutuq va yangiliklar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga erisha oladi.

Oliy ta’limda kreativ ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi va shakllantiriladi hamda u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Bundan tashqari, kreativlik bilan ta’limga yondashish jarayonida ta’limning interfaol usullaridan mavzuga muvofig’ini tanlay olish iqtidorini takomillashib, shakllanib borishi ham samaradorlilikni oshishida yaxshi natija beradi.

Ta’lim tizimini isloh qilish sharoitida ta’lim va tarbiya uchun yangi imkoniyatlar ochadigan, bolaning tashabbusi, ijodiy faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Tarbiyachi-pedagog mashg’ulot jarayonida kreativlikka yondashar ekan, avvalo oddiydan murakkabga o‘tish nazariyasiga amal qilishi lozim bo‘ladi. Har bir mavzuga shu nazariyaga asosan ta’limning yangi metodlaridan ham unumli foydalana bilish kreativlikni talab qilinadigan jarayon hisoblanadi. O‘qituvchi masalan “yomg’ir tomchilari” usulidan nega foydalayotganini asoslab berishi kerak bo‘ladi.

“Buyuk bobolarimizning ma’naviy merosi” mavzusini o‘rgatish jarayonida Alisher Navoiy asarlarining bosh g’oyasi jaholat va ilmsizlikdan poklanish, komillik sari eng to‘g’ri yo‘l ekanligini tarbiyalanuvchilarga yetkazib berishdir. Samarali usuli sifatida “Yomg’ir tomchilari” usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda kreativlikning bir necha xususiyatlari – badiiy va oddiy nutqdan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bundan tashqari “Muammoli vaziyat yaratish texnologiyasi” usulidan foydalansa bo‘ladi. Bu usuldan foydalanishda kreativ qarashlardan bir nechasiga amal qilish lozim bo‘ladi:

- ijodkorlikka (chunki bu ijodiy faoliyat);
- kashfiyotga;
- qobiliyatga;
- muayyan topshiriq vazifalarni bajarish usuliga;
- ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishga;
- madaniyat bilan uzviy bog’liq bo‘lgan kategoriya[4].

Ushbu qarashlar jamlanib, mashg’ulotni olib borish, mashg‘ulot maqsadiga erishishda, samaradorlik va sifatni ta’minlashga manba bo‘ladi.

Shuningdek, loyiha usuli ham yaxshi samara beradi. Loyiha usuli bolalarning ma’lum muammolarga qiziqishini rag'batlantirishdan iborat bo‘lib, ularni hal qilish uchun bilimga ega bo‘lish kerak va loyiha faoliyati orqali ushbu bilimlarning amalda qo‘llanilishini ko‘rsatish kerak. Bu bizga ushbu usulni maktabgacha ta’limdagi yangilik sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi, o‘qituvchi va maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasidagi faoliyat hamkorlik xususiyatiga ega bo‘ladi, bu yerda o‘quv jarayonining boshqa subyektlari, masalan, ota-onalar ishtirok etishlari mumkin.

O‘qituvchilar va ota-onalarning to‘liq o‘zaro munosabatlarini tashkil etish maktabgacha ta’lim muassasalari jamoalari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Binobarin, loyiha usuli maktabgacha ta’lim muassasasining ta’lim tizimini bolalar va ularning ota-onalarining faol ishtiroki uchun ochiq qiladi va uning asosiy maqsadi bolalarning bilim ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifalari, bolalarning tadqiqot faoliyati, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda qurish qobiliyati bilan belgilanadigan erkin ijodiy shaxsni rivojlantirishdir.

Tadqiqot faoliyatining vazifalari har bir yoshga xosdir. Shunday qilib, bolalar bilan ishlashda, eng kichik maktabgacha yosh, o‘qituvchilar maslahat, turli savollardan foydalanishlari mumkin. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarga ko‘proq mustaqillik berilishi kerak. Mavzuni tanlash o‘qituvchining loyiha ustida ishlashdagi birinchi qadamidir. Ikkinchi qadam tanlangan muammoni muayyan vaqt davomida tematik rejalashtirish bo‘lib, bu yerda bolalar faoliyatining barcha turlari hisobga olinadi: o‘yin, kognitiv-amaliy, badiiy-nutq, mehnat, aloqa va boshqalar. loyiha mavzusi bilan bog'liq darslar, o‘yinlar, yurishlar, kuzatishlar va boshqa tadbirlar mazmunini ishlab chiqish bosqichida o‘qituvchilar guruhlarda, umuman maktabgacha ta’lim muassasasida alohida e'tibor berishadi. Atrof-muhit evristik, qidiruv faoliyati uchun fon bo‘lishi, maktabgacha yoshdagi bolada qiziqishni rivojlantirishi kerak[5]. Loyihada ishlash uchun asosiy shartlar tayyorlanganda (rejalashtirish, atrof-muhit), o‘qituvchi va bolalarning birgalikdagi ishi

boshlanadi.

Hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim faoliyatini tashkil etishning asosiy xususiyati bu o'quv faoliyatidan (darslardan) uzoqlashish, maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy turi sifatida turli o'yinlardan amalda foydalanish; jarayonga bolalar bilan ishlashning samarali shakllarini AKT, loyiha faoliyati, o'yin, muammoli va o'quv vaziyatlari ta'lim sohalarini birlashtirish doirasida kiritishdir[6].

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasasida o'quv faoliyatining maxsus tashkil etilgan shakli sifatida mashg'ulotlar bolalar uchun qiziqarli bo'lishi kerak, o'qituvchi tomonidan maxsus tashkil etilgan bolalarning o'ziga xos faoliyati, ishbilarmonlik o'zaro ta'siri va muloqotini, bolalar tomonidan atrofdagi dunyo haqida ma'lum ma'lumotlarni to'plashni, ma'lum bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni anglatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi – pedagog mashg'ulotlarga kreativlik bilan yondashishi, eng avvalo bolaning mantiqiy fikrlashga, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilishga, bilish kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiladi.

Shu jumladan, interaktiv uslublar bolaga tajriba o'tkazish, olingan bilimlarni sintez qilish, ijodkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi, bu esa unga maktabga muvaffaqiyatli moslashishga imkon beradi. Interaktiv uslublaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning texnologik, axborot va ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalari sohasidagi ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida samarali hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda interaktiv ta'lim usullari maktabgacha ta'lim tizimida munosib o'rin egallashi kerak bo'lgan maqbul, innovatsion va istiqbolli usuldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PF-158-сон 11.09.2023. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida// https://lex.uz/docs/-6600413
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. –T.: Tafakkur chashmalari, 2013. 49-b.
3. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. – T.: Fan, 2004.34-b.
4. Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. –T.: TDPU nashriyoti, 2013. 37-b.
5. Корнилова К.В., Москвитина Е.П. Использование метода проектов в деятельности воспитателя дошкольной образовательной организации // Материалы VII Международной студенческой научной конференции «Студенческий научный форум». –М., 2023. –С.79.
6. Shomurodova M. R. Maktabgacha ta'limda Anvar Obidjon ijodini o'rganish //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 672-674.

Oysha RAJABOVA,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi

XORIJIY TILLARNI NOAN'ANAVIY USULLARDA O'RGATISH

Annotatsiya: mazkur maqolada xorijiy tillarni o'rganishda noan'anaviy metodlardan foydalanish til o'rganishning muhim vositalaridan ekanligi, bu usullar xorijiy tillarni o'rgatishda yangi imkoniyatlar yaratishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *innovatsion yondashuvlar, noan'anaviy o'qitish, ilovalar, ta'lim platformalari, virtual muloqot, o'yinlar, rolli o'yinlar, immersiya qilish.*

Annotation : this article will talk about the fact that the use of unconventional methods in the study of foreign languages is an important means of language learning, these methods provide new opportunities for teaching foreign languages.

Keywords: *innovative approaches, non-traditional teaching, applications, educational platforms, virtual communication, games, role-playing games, immersion.*

Аннотация : в данной статье говорится о том, что использование нетрадиционных методов в изучении иностранных языков является одним из важнейших средств изучения языка, эти методы открывают новые возможности в обучении иностранным языкам.

Ключевые слова: *инновационные подходы, нетрадиционное обучение, приложения, образовательные платформы, виртуальное общение, игры, ролевые игры, погружение.*

Xorijiy tillarni o‘rganishda noan’anaviy metodlar har doim insonlarning global jamiyatga integratsiya bo‘lishi, madaniy almashinuvi va ilmiy hamkorlikda ishtirok etishlari uchun muhim vosita bo‘lib kelgan. O‘qish, yozish, tinglash va gapirish kabi an’anaviy metodlar yordamida til o‘rganish katta samaradorlik berishi mumkin, lekin zamonaviy texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlar xorijiy tillarni o‘rgatishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xorijiy tillarni o‘rganishning noan’anaviy usullari o‘quvchilarni ko‘proq rag‘batlantirish, ularning tilni o‘zlashtirish jarayonini qiziqarli va interfaol qilishga yordam beradi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘rgatishning noan’anaviy metodlari, ularning afzalliklari va qanday qo‘llanilishi haqida batafsil fikr yuritamiz.

Odatda, noan’anaviy o‘qitish usullari individual ehtiyojlarga moslashuvchan bo‘lib, o‘quvchilarning turli xil o‘rganish uslublariga moslashishga imkon beradi. Masalan, ba’zi o‘quvchilar ko‘proq vizual materiallarga tayanadilar, boshqalar esa audio yoki kinestetik tajribalar orqali samarali o‘rganadilar. Shuning uchun noan’anaviy usullarni qo‘llashda har bir o‘quvchining o‘ziga xos uslubini hisobga olish juda muhimdir.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganishda texnologiyalardan foydalanish yanada keng tarqalgan. Smartfonlar, kompyuterlar va internetning imkoniyatlari nafaqat o‘quvchilarni yanada ko‘proq rag‘batlantiradi, balki til o‘rganishning yangi usullarini ham yaratadi. Masalan:

Masalan, mobil ilovalar: Duolingo, Babbel, Memrise kabi ilovalar o‘quvchilarga har doim va har joyda til o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu ilovalar o‘quvchilarga interaktiv o‘yinlar yordamida yangi so‘zlar o‘rganish, grammatikani tushunish va hatto amaliy mashqlarni bajarish imkoniyatini taqdim etadi.

Online kurslar va platformalar: Coursera, Udemy, edX kabi onlayn ta’lim platformalari til o‘rganish uchun juda yaxshi imkoniyatlarni yaratadi. Bu platformalar nafaqat video darslar, balki forumlar, o‘qituvchi bilan muloqot va interfaol mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Virtual muloqot: internetda xorijiy tilni o‘rganish uchun virtual muloqot o‘quvchilar uchun muhim usuldir. O‘quvchilarni tilni faqat o‘qish va yozish orqali emas, balki real hayotdagi holatlarda muloqot qilishga undash kerak. Skype, Zoom yoki Discord orqali tilni ona tili sifatida gapiradigan kishilar bilan muloqot qilish til o‘rgatish jarayonini juda samarali qiladi.

Xorijiy tillarni o‘rganishning noan’anaviy usullaridan biri bu o‘yinlar orqali tilni o‘rgatishdir. O‘yinlar o‘quvchilarga tilni o‘rganish jarayonida xatoliklarni xotirjamlik bilan qabul qilishga, yangiliklarni qiziqish bilan o‘zlashtirishga yordam beradi, turli darajadagi qiyinchiliklar bilan, o‘quvchilarni musobaqa qilishga, yaxshi natijalarga erishishga undaydi.

Rolli o‘yin uchun mavzu tanlashda kasbiy jihatdan o‘quvchi duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar olinadi. Rol orqali o‘quvchi o‘zining kelajakdagi faoliyatini ko‘z oldiga keltiradi. Ushbu uslub mashg‘ulot davomida o‘zgaruvchan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi mashg‘ulot davomida savol berib, holatni o‘zgartirishi mumkin. Natija qisqa vaqtda samarali o‘zlashtirishga erishish talab etiladi. Rolli o‘yinlarda o‘quvchilar quyidagi bilim, uquv va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi mumkin:

- kasb bilan bog‘liq masalalar ustida amaliy muloqot qilish, tajribasini orttirish;
- jamoadagi bir xodim fikrini boshqa kishiga ta’sir etishini anglash;
- vaziyatlar bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish va o‘z fikrini bayon eta bilish;
- vaziyatni tahlil qila olish;
- vaziyatdan chiqish rejasini va strategiyasini ishlab chiqishni bilish. Rolli o‘yin mashg‘ulot rejasini quyidagicha tuzish mumkin.

1. Mashg‘ulot mavzusiga bog‘liq ishlab chiqarish vaziyatini tanlash. Mavzu albatta, real hayotga bog‘liq bo‘lishi kerak.
2. Rolli o‘yin mavzusining aniq maqsadini belgilash, uni o‘quvchilarga tushuntirish.
3. Rolli o‘yindagi vaziyatni izohlash, o‘quvchilarga vaziyatni aniq , to‘g‘ri tushuntirish.
4. Rolli o‘yin ishtirokchilarini tanlash va o‘quvchilarga o‘z xohishlari bilan ishtirok etish imkoniyatini berish mumkin.
5. Har bir ishtirokchining vazifasini, maqsadini tushuntirish. Rol o‘ynayotgan o‘quvchida o‘z roliga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish.

O‘quvchilar o‘zlarini o‘yin davomida rivojlantirgan sari, tilni o‘rganishdagi ishtiyoqi ham oshadi. Quizlar va viktorinalar: o‘quvchilarga ma’lumotni qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi va bilimlarni mustahkamlashda samarali bo‘ladi.

Xorijiy tilni o‘rganishning noan’anaviy metodlaridan yana biri lug‘at, ya’ni so‘z boyligingiz bo‘lishi lozim. So‘zlar g‘ishtlarga o‘xshaydi, ular bizga muloqot qilish imkonini beradi. Shuning uchun biz darhol xorijiy so‘zlarni o‘rganishni boshlashingizni

maslahat beramiz, zero lug‘at boyligingiz bo‘lmasa o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish mumkin emas. Madaniy almashuv va immersiya qilish usuli esa tilni faqatgina grammatika va lug‘atni o‘rganish emas, balki unga doir madaniyatni ham o‘rganish zarur. Bunday immersiya usulida, o‘quvchilar xorijiy tilni o‘z tabiiy muhitida, tilni so‘zlashuvchilari bilan birga o‘rganadilar.

Ba’zi o‘quvchilar uchun xorijga sayohat qilish yoki biror mamlakatda vaqtinchalik yashash tilni tez o‘zlashtirishning samarali usuli bo‘lishi mumkin. Bunda o‘quvchi atrof-muhitdagi odamlar bilan kun davomida muloqot qilib, tilni amaliyotda o‘rganadi. Xorijiy tilni o‘rganish jarayonini qiziqarli qilish uchun madaniy tadbirlarda ishtirok etish ham samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, teatr tomoshalari, film namoyishlari, milliy taomlar tayyorlash va musiqiy dasturlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini amalda sinab ko‘rishlari mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar til o‘rganishda eng qulay va zamonaviy manbaalardan biri hisoblanadi. YouTube, Instagram, TikTok kabi platformalar til o‘rgatuvchi kanallar, podcastlar va video resurslarni taqdim etadi. O‘quvchilar bu platformalar orqali tilni onlayn tarzda o‘rganish, yangi lug‘at va iboralarni kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Xorijiy tillarni o‘rgatadigan ko‘plab YouTube kanallari mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarga turli darajalar uchun videolar, interfaol mashqlar va maslahatlar taqdim etadi.

Podkastlar xorijiy tillarni o‘rganishning ajoyib usulidir, chunki ular tinglash va so‘zlashuvni rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘zlariga mos podkastlarni topib, ular orqali tinglash va gapirish ko‘nikmalarini takomillashtirishi mumkin.

Xorijiy tillarni o‘rganishda noan’anaviy usullar til o‘rgatish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Texnologiyalar, gamifikatsiya, madaniy immersiya va ijtimoiy tarmoqlar yordamida til o‘rganish o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki motivatsiya va ijodiy yondashuvni ham taqdim etadi. Ushbu metodlar nafaqat tilni o‘zlashtirishni tezlashtiradi, balki o‘quvchilarning tilni amaliyotda ishlatishdagi ishtiyoqini oshiradi. Noan’anaviy metodlarni qo‘llash, shuningdek, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, ularga eng samarali o‘quv tajribasini yaratishga imkon beradi.

Axborotlashgan dunyoda misli sz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi jarayoni kuchaymoqda. Bu ijobiy holat albatta, ammo shu bilan birga, u yosh avlodning ma’lum qismida an’anaviy qadriyatdan, axloq-odobdan uzoqlashish holatlarini vujudga keltiradi. Globallashuv jarayonida yuzaga keladigan ma’naviy-axloqiy tanazzuldan yosh avlodni asrashimiz va ularni doimo nazorat qilmog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Godwin-Jones, R. (2018). Emerging Technologies: Language Learning & Technology. Language Learning & Technology, 22(2), 1-17.
2. Miller, G. (2016). Language Learning with Technology: Ideas for Integrating Technology in the Classroom. Pearson Education.
3. O.D.Raximov, O.M.Turg‘unov (2012).Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Toshkent., Fan va texnologiyalar nashriyoti.
4. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press.
5. Hedge, T. (2000). Teaching and Learning in the Language Classroom. Oxford University Press.



Дилфуза УМАРОВА,
преподаватель Каттакурганского филиала Самаркандского государственного университета,



С. Ш. НОРКУЛОВА,
студентка Каттакурганского филиала Самаркандского государственного университета

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ В ШКОЛАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: статья посвящена проблеме использования интерактивных методов обучения на уроках русского языка и литературы. В исследовании обосновывается дидактический потенциал данной педагогической технологии, обозначена целевая система и преимущества ее применения на уроках русского языка и литературы в современной школе. В работе среди спектра интерактивных технологий путем теоретического анализа и отбора указаны наиболее эффективные методы, которые могут применяться в рамках проведения современных уроков русского языка и литературы.

Ключевые слова: *интерактивные методы обучения, интерактивное обучение, уроки русского языка и литературы, личностно-ориентированный подход, игровые технологии, мозговой штурм, личностное развитие обучающихся.*

Annotation: the article is devoted to the problem of using interactive teaching methods at the lessons of Russian language and literature. The study substantiates the didactic potential of this pedagogical technology, identifies the target system and the advantages of its use in the lessons of the Russian language and literature in modern school. In the work among the range of interactive technologies through theoretical analysis and selection the most effective methods that can be used in the framework of modern lessons of the Russian language and literature are indicated.

Key words: *interactive teaching methods, interactive learning, Russian language and literature lessons, the level of cognitive activity, gaming technology, Brainstorm, humanistic approach, personal development of students.*

Annotatsiya: maqola rus tili va adabiyoti darslarida interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish muammosiga bag‘ishlangan. Tadqiqot ushbu pedagogik texnologiyaning didaktik imkoniyatlarini asoslaydi, maqsadli tizimni va zamonaviy maktabda rus tili va adabiyoti darslarida foydalanishning afzalliklarini aniqlaydi. Ishda interfaol texnologiyalar spektri orasida zamonaviy rus tili va adabiyoti darslari doirasida nazariy tahlil va tanlash orqali foydalanish mumkin bo‘lgan eng samarali usullar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *interfaol o‘qitish usullari, interfaol o‘qitish, rus tili va adabiyoti darslari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, o‘yin texnologiyalari, aqliy hujum, talabalarning shaxsiy rivojlanishi.*

Введение. Интерактивные методы обучения являются одной из современных тенденций в образовательном процессе, которые активно применяются на уроках русской литературы. Они представляют собой специально разработанные методики, направленные на вовлечение учащихся в активную деятельность, стимулирующую их мыслительные и творческие способности.

Одной из особенностей интерактивных методов обучения является активное взаимодействие между учителем и учениками, а также между самими учениками [1]. Вместо традиционной модели преподавания, где учитель высту-

пает в роли источника знаний, интерактивные методы позволяют учащимся самостоятельно исследовать и усваивать материал, обмениваться мнениями и идеями.

Основная часть.

Для эффективного обучения русской литературе у учеников в узбекских школах можно использовать различные интерактивные методы. Некоторые из них включают в себя:

1. Использование мультимедийных презентаций и видео уроков с анализом произведений русской литературы. Это поможет детям визуализировать и лучше понять содержание и характеры произведений.
2. Организация обсуждений и дискуссий о произведениях русских классиков. Ученики могут высказывать свое мнение, делясь впечатлениями о прочитанных книгах.
3. Ролевые игры и театрализованные представления. Ученики могут играть роли героев произведений и таким образом лучше погрузиться в атмосферу произведения.
4. Использование игровых технологий для изучения литературы, таких как квесты или онлайн-игры, которые позволяют применить знания и навыки, полученные на уроках.
5. Организация литературных фестивалей и конкурсов, на которых школьники могут показать свои творческие способности и проявить интерес к изучению русской литературы.

Одним из наиболее популярных интерактивных методов обучения является метод проектов[2]. Он предполагает организацию групповой работы, где каждая группа занимается исследованием определенной темы и созданием проекта, связанного с этой темой.

Например, ученики могут создать книжную выставку, посвященную определенному периоду или направлению в русской литературе. Такой подход позволяет учащимся самостоятельно исследовать материал, развивать критическое мышление и творческие навыки.

Еще одним интерактивным методом обучения является метод ролевых игр. Он предполагает разделение учащихся на группы, каждая из которых играет определенную роль внутри литературного произведения [3].

Например, ученики могут разыгрывать сцены из романа или пьесы, воплощая образы героев. Такой подход позволяет учащимся глубже понять литературное произведение, вжиться в роль героя, развивать актерские навыки и эмоциональную интеллектуальность.

Также стоит отметить метод кейс-стади, который основан на анализе реальных ситуаций или проблем, возникающих в литературных произведениях. Учащиеся разбирают сложные ситуации, вырабатывают стратегии решения проблем и анализируют последствия принятых решений [4]. Такой подход позволяет учащимся развивать критическое мышление, логическое мышление и умение анализировать информацию.

Наиболее эффективной формой активации творческой активности учеников на уроках литературы является метод «Мозговой штурм». Основное условие применения этого метода –- это безусловная новизна текста.

Пример: рассказ Куприна «Гранатовый браслет», учитель не дочитывает произведение до конца, а дает творческое задание найти финал ученикам, которые должны предложить, как можно больше интересных идей. Этот метод в современной школе воспринимается как способ коллективного продуцирования новых идей [5]. Метод «Мозговой штурм» даеёт возможность развивать логическое мышление, аргументировано выражать свою точку зрения, активизируя речевые навыки. Алгоритм использования метода «Мозговой штурм»:

1 шаг –- сСформулировать проблему, связанную с темой урока. Мы с учениками сформулировали проблему: «Почему произведение называется «Гранатовый браслет»? – Ученица Севинч Н. ответила на этот вопрос так: «Этот предмет стал центром всего произведения». Амирхон Н. подумал и ответил: «Гранат– - это символ страсти, любви, потому и название о сильной и чистой любви».

2 шаг –- Разделить разделить учащихся на несколько групп, учитывая их интересы: Я разделила учеников класса на 4 рабочие группы.

3 шаг –- сСнять напряженность создать благоприятную атмосферу: Мы прослушали музыкальный отрывок, который стал саундтреком к фильму по данному произведению. Ребята сами подбирали фрагменты из фильма и музыкальные отрывки.

4 шаг –- «Мозговая атака»: штурм, поставленной проблемы: я предложила ученикам придумать конец рассказа. Ребята предложили два варианта: героиня понимает, какая высокая и чистая любовь «задела её своим крылом», но ничего не хотела изменять в своей жизни; другие - герой и героиня объединяются в семью.

5 шаг –- Ффиксировать идеи на бумаге. Ученики пишут свои идеи на бумагах.

6 шаг– о- Отобрать и оценить наилучшие идеи. Мы с учениками отобрали самые лучшие идеи.

7 шаг –- оОрганизовать экспертную группу из 3 учеников, которые выбирают наилучшие идеи. Из каждой группы мы выбрали по одному ученику, который должен выбрать самые лучшие идеи.

8 шаг - – сСообщить результаты. Ученики сообщают результаты.

9 шаг –- Ппубличная защита. Каждая группа аргументирует свои ответы.

10 шаг - – пПринятие решения. Мы зачислили баллы каждой группы и подвели итоги. Этот метод мы продуктивно используем на уроках литературы при изучении лирических произведений русских поэтов [6].

Использование интерактивных методов обучения на уроках анализа литературных произведений позволяет более глубоко и осознанно вникнуть в суть произведения, выявить его главные идеи и темы, а также оценить художественные приемы, использованные автором [7]. Это способствует развитию аналитического мышления и критического мышления у учащихся, а также помогает им научиться аргументированно выражать свои мысли и взгляды.

Заключение.

Преимущества использования интерактивных методов обучения на уроках русской литературы включают повышение мотивации учащихся, развитие их коммуникативных навыков, улучшение понимания и запоминания материала [8], а также развитие творческого мышления и критического анализа. Однако, следует учитывать и ограничения использования интерактивных методов, такие как необходимость наличия соответствующего оборудования и программного обеспечения, а также необходимость подготовки учителя к использованию этих методов.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Абдурасулов I. Инновационные методы обучения русскому языку на уроках русского языка в школах с узбекским языком обучения // Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 577–-580.

2. Абдуллаева М. Х. Башарова Г. Г. Актуальность использования интерактивной доски в обучении иностранному языку студентов технических вузов // Экономика и социум. – 2022. – №. 5-2 (92). – С. 325–-331.

3. Бабаева А. // Актуальное в филологии. – 2021. – Т. 7. – №. 7.

4. Вахобова М. А. Особенности организации обучения студентов-филологов посредством использования активных методов обучения // ББК Ш141. 12 О 833. – 2021.

5. Джураева У. А. Интерактивный метод в обучения на уроках русского языка // Мировая наука. 2020. №4 (37).

6. Одилова Н. Г. Использование интерактивных методов в школьном обучении // Вестник интегративной психологии. – 2021. – Т. 21. – С. 51–-54.

7. Зырянов, Г. П. Опыт и ближайшие перспективы дистанционного повышения квалификации педагогов / Г. П. Зырянов // Вопросы интернет образования. 2002. – - № 10. – - С. 74-8– 2.

8. Исламов Р. С. Глава 3. Использование икт для цифровизации высшей школы в сфере преподавания иностранного языка (на примере неязыковых направлений для моно-и полиэтнических групп) // Модели педагогической интеракции в процессе обучения иностранному языку в полиэтнической среде вуза. – 2020. – С. 115– -147.

Latofat TASHMUXAMEDOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti f.f.n., professor v.b.
latofat979@mail.ru

TANLANGAN ASARLAR TO‘PLAMINING TAHRIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada jurnalistika, filologiyaga oid sohada dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan tahrir, ilmiy tahrir, bu jarayonda muallif va muharrir kategoriyasi, matnga bo‘lgan munosabati, mavzuni ochib berishdagi o‘ziga xos usullari, tanlangan asarlar to‘plamining tahririda til va uslubning o‘ziga xos qo‘llanishi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *tahrir, adabiy tahrir, publitsistika, maqola, publitsistik ruh, til, uslub, ilmiy uslub.*

Аннотация: в данной статье рассматривается публицистика, редактирование, которое является одной из актуальных тем в области филологии, научное редактирование, категория автора и редактора в этом процессе, отношение к тексту, конкретные методы раскрытия темы, конкретное применение языка и стиля при редактировании избранного сборника работ.

Ключевые слова: *редактирование, литературное редактирование, публицистика, статья, публицистический дух, язык, стиль, научный стиль.*

Annotation: this article talks about editing, scientific editing, which is one of the relevant topics in the field of journalism, philology, the category of author and editor in the process, his attitude to the text, his own methods in revealing the topic, the specific application of language and style in the editing of the selected collection of works.

Keywords: *edit, literary edit, publicistic, article, publicistic spirit, language, style, scientific style.*

Kirish. “Tanlangan asarlar” tahlili va tahririga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, avvalo, til va uslub masalalariga ko‘z yugurtirishni boshlaymiz. Har qanday asarning ham o‘z tili va uslubi bo‘ladi. Biz uning til va uslubidan qanday tur asar, yo‘nalishi va hokazolarini bilib olishimiz mumkin bo‘ladi. Har qanday ijodkorning ijod namunalarni kuzatganimizda, u yaratgan asar tilining boyligi, nozikligi va go‘zalligi, badiiy so‘zning aniqligi, o‘tkirligi va mazmundorligini ta’minlashda umumxalq tilining o‘rni beqiyos ekanligini his etamiz. Adabiy til me’yorlaridan qay darajada foydalanish ijodkorning o‘ziga havola. Adabiy til me’yorlari ijodkor ixtiyoriga leksik, grammatik va stilistik vositalarni berish bilan birga, ulardan tanlab olish imkoniyatini, turli xil bo‘yoqdor so‘zlardan o‘rni bilan foydalanish mumkinligini ham aniqlab beradi. Tahrir (arab. ozod qilish, tuzatish, muharrirlik qilish, yozish, asar yozish) – yozma ishni, asarni tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish demakdir .

Yana shunisi ma’lumki, ijodkor yaratgan asar o‘z-o‘zidan badiiy uslub mevasi sanaladi. Badiiy uslub esa, muallif asarning estetik ta’sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan va ijodiy foydalanishini, turli ifodaviy vositalarni qo‘llashi yoki o‘zi yangilarini yaratishi mumkin ekanligini aniqlab beradi. Shu boisdan ham bu uslubda ijodkorlar mavjud so‘zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o‘ziga xos so‘z va iboralardan ham keng o‘rinlarda foydalanadilar. Badiiy nutqdagi til esa, obraz va xarakter, manzara yaratishga va yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Mana shu jihatlarni o‘z vaqtida to‘g‘ri baholay olish tahrir va tahlil qilish jarayonida ijobiy natijalarga olib keladi.

Asosiy qism. Badiiy adabiyotning tanlangan asarlar turlarining tahriri jarayonida quyidagi omillarga alohida e’tibor qaratish lozim:

– muallif maqsadi, ya’ni ijodkor asar yozishdan nima maqsadni ko‘zlagan, shuningdek, bu yorug‘ olamdan ko‘z yumgan adib asarlarini tartibga keltirib saylanma deb nomlab nashrga tayyorlagan shogirdlarning oldiga qo‘ygan maqsadi nimalardan iborat;

– asarning g‘oyasi, yaratilgan tanlangan asarlarning asosiy g‘oyasi nima? U asar kitobxonni ortidan ergashtirmoqdami yoki kitobxon bu asardan qanday xulosa chiqarmoqda;

– tanlangan asarda hayotiy va badiiy haqiqat mantig‘i bormi, manbalar qanchalik asosli va haqqoniy yoki faqat to‘qima syujetlardan iborat bo‘lib qolganmi;

– bulardan tashqari, saylanmada muallifning o‘z uslubi saqlanib qolganmi yoki qaysidir bir adibning uslubiga yaqinlashish bormi, ijodkor o‘z ijod laboratoriyasini yarata olganmi, o‘z ijod maktabini bu asarlarida berganmi;

– tanlangan asarda muallif lisoniy-uslubiy san’atlardan qay darajada foydalana olgan, o‘z me’yoridami, yoki biroz oshirib yuborganmi, shuningdek, badiiy uslubdan tashqari yana qaysi uslub elementlari sezilib turibdi;

– ijodkor va kitobxon munosabati, muallif o‘z auditoriyasi bilan munosabatga kirisha olganmi, ularning e’tiborini qay darajada qozona olgan;

– keltirilayotgan asoslar qanchalik xalqchil, eng muhimi ijodkor asar yaratishda oddiy tildan foydalanganmi yoki murakkablik sari yo‘l tutganmi va boshqa jihatlarga tahrir qilish jarayonida javob topish mumkin bo‘ladi.

Mualliflarning o‘z ijod yo‘li uslubi badiiy asarni tahrir qilishda muharrir oldiga qator muammolarni qo‘yadi.

Ayrim mualliflar «g‘ayri odatiy ifodalash»ni o‘zlarining asosiy va yagona maqsadi qilib qo‘yadi.

Bunda o‘ziga xoslik o‘zichalikka, o‘z usuli o‘z sho‘riga aylanadi. Shunga ko‘ra ijodiy o‘ziga xoslikka munosabatda muharrirdan ehtiyot bo‘lishlikni talab etadi. Endi «muallifning o‘ziga xos ijod yo‘sini» tushunchasini tasviriy-ta’sirchan vositalar, yozuvdagi uslubiy yo‘singa tatbiq etib bo‘lmaydi.

Bu tushuncha adibning borliqni idrok etishligini, mavjud hodisalarni ko‘rish, eshitish, o‘zlashtira bilishdagi takrorlanmas shaxsiy uquvni o‘z ichiga oladi. Tahrir paytida muallifdagi ayni mana shu ijodiy o‘ziga xoslik, yo‘sin, uslubni o‘zgartirmaslik kerak.

His-hayajonga to‘lalik (emotsionallik), matnning taassurotlarga boyligi ham asarni baholash mezonlari hisoblanadi.

Obraz yaratish mantiqiy mulohaza qonuni bo‘yicha bir faktni boshqasiga qiyoslash emas. Narsa haqidagi bevosita tasavvur hayotiy tajriba bilan boyitiladi. Shuning uchun badiiy matnni faqat mantiqiy aniqlik, bevosita jamlangan informatsiya (xabar)lar miqdori nuqtayi nazaridan baholash bir tomonlama va ko‘pincha, noto‘g‘ri bo‘ladi.

Quyida Oybekning «Navoiy» romanidan olingan parchalarga e’tibor beraylik .

1. Arslonqul otdan sakradi. Qo‘ltig‘idan qog‘ozni chiqarib, Sultonmurodga tutqazdi: «Qal’a begiga». Sultonmurodning yelkasi orqali Zayniddin ham qog‘ozga ko‘z olaytirdi.

So‘ng uchchovlon oldin-ketin qal’a boshlig‘iga chopishdi.

2. Hamma boshlar rasm ustiga yopirildi.

3. – Oh, shiringina joy, – dedi Binoiy uyga va shaftolizorga sevgi bilan qarab, – tashakkur!

4. Bu – rassom Behzod edi. Iste’dodi uchun umum tomonidan favqulodda baland taqdirlangan, umumiy sevgiga sazovor bo‘lgan dongdor san’atkor endi soqol-mo‘ylabli, yetilgan er edi.

Misollarga mantiq nuqtayi nazaridan e’tibor beriladigan bo‘lsa, muharrir uchun ancha ish bor.

Birinchi misolda adib olaytirmoq fe’lini qo‘llagan, uning «ko‘z qarashi» ma’no ifodasi bor. Ammo ko‘z qarashi turli xil – turli niyatda bo‘ladi. Yuqoridagi o‘rinda bitik bir begunohning taqdiri qil ustida turganda, uning taqdirini hal etish – ijobiy xaloskor bo‘lish vositasi edi. Olaytirmoq esa shum niyatli, g‘arazli belgiga ega bo‘lgani uchun mantiqan qo‘llangan bo‘lib chiqadi. Shu nuqtayi nazardan muharrir uni boshqa mantiqan munosibi bilan almashtirishi mumkin bo‘lsa-da, adib uslubini o‘zgartirmagan. Nega? Buni adib sifatida fikr yuritibgina anglash mumkin. Chunki, bu individual so‘z qo‘llash. Muharrir uni hammabop qilish uchun tashlamoq, yugurtirmoq, ko‘z qirini tashladi)... ni qo‘ymoqchi bo‘ldi va boshqa ko‘pgina so‘z va so‘z birikmalari vositasiga matnga o‘zgartirish kiritishi mumkin edi. Lekin bularning birontasi ham muallifning emas, balki barchanikidan bo‘lar edi, individuallik yo‘qolardi. Oybek emas hamma qatori bo‘lib qolar edi.

Ikkinchi misoldagi yopirildi, uchinchi va to‘rtinchidagi sevgi so‘zi ham shunday – individual, qo‘llash natijasi – Oybekona! Bunda muharrir mantiq talabiga emas, ijodkor uslubiga bo‘ysunadi.

Agar muharrir olaytirmoqni qaramoq, yopirildini egildi, birinchi sevgini tahsinga, e’tirofga, hurmatga ikkinchi sevgini zavq, hayrat... kabi so‘zlar bilan almashtirganda, asarning tili, Oybekning uslubi o‘ziga xoslik, o‘quvchi qalbiga o‘zgaga ta’sirdan mahrum bo‘lardi.

«Agar asar o‘quvchi qalbini hayajonlantira olmas ekan, unda, gap nima haqida bo‘lmasin, o‘ta muhim, o‘ta foydali narsalar gapirilmasin, qanday mavzuga qo‘l urilmasin, qanday muammolar ko‘tarilmasin, bu – haqiqiy san’at emas. San’atning bu qonuni bilan ham xuddi butun olam tortilish qonuni bilan hisoblashmaslikning iloji bo‘lmaganidan, hisoblashmay bo‘lmaydi» .

Lekin, shunday ham bo‘lishi mumkin, muallif tasvirlayotganlarining o‘quvchi his-tuyg‘ularini junbushga keltirishi uchun zo‘r beradi, ya’ni obrazli unsurlarni ko‘paytiradi. Bular o‘quvchida yozuvchining o‘zi uchun ham kerak bo‘lmagan» his-hayajon va tasavvurlarni paydo qilishi mumkin. Muallifga buning xato ekanligini ko‘rsatish muharrirning vazifasi hisoblanadi. Butun asar miqyosida obrazlarni yaxlit tasavvur etilishi badiiy asarni baholashda yana bir muhim mezondir. Inson ongida – yozuvchining ham, o‘quvchining ham – obraz ayrim unsurlar yig‘indisi emas, balki yaxlit badiiy manzara tarzida namoyon bo‘ladi. Albatta, muharrir buni e’tiborda tutishi lozim.

Xulosa. Yuqorida aytib o‘tilgan baholash mezonlari muharrir uchun asarning janriy xususiyatlariga bog‘liq holda, shuningdek, u mazkur asarda qanday «obrazlar birligi»ni ko‘rib chiqayotganiga ko‘ra asqatsa, matnni tahlil etishda u ancha kichik, xususiy mezonlarga ham amal qiladi. Masalan, biror syujet, portret yoki unsurni. Bunda uning baholashi tahrir ilmida belgilangan qonuniyatlardan foydalanishga asoslanadi. Lekin asar qismlarini bunday tahliliga ham ijodiy yondashishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oybek. Navoiy romani. 2004. Sharq-nashriyot matbaa kompaniyasi, 2004. 490-bet.
2. Oybek. Navoiyshunos. https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/oybek-navoiy-roman-ojbek-navoijshunos.html
3. Tohirov Z.T. Nashr jarayoni asosiy bosqichlari. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2016.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. – M.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. 182-188-betlar.

Sharipboy BOBOJANOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, dotsent

LEKSEMA MA’NOLARI VA TALQINING “O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI”DA AKS ETISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada xalqaro miqyosdagi globallashuv jarayonida bugungi kunda dunyo tillari fenomeniga ham ta’sir etib, bu borada yurtimizdagi soha mutaxassislari oldiga ham jamiyat – til – madaniyat uzviyligidagi qator istiqbolli vazifalarni belgilab berganligi, leksema ma’nolari va ularning talqiniga xos bo‘lgan munosabatlar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: *leksema, so‘z, talqin, ma’no, leksikografiya, tilshunoslik, o‘zbek tilshunosligi, me’yor, lug‘at, so‘z boyligi.*

Аннотация: в данной статье процесс глобализации на международном уровне затронул сегодня феномен мировых языков и в связи с этим поставил перед специалистами нашей страны ряд перспективных задач по интеграции общества – языка – культуры, а также отношения, присущие значениям лексем и их интерпретации.

Ключевые слова: *лексема, слово, толкование, значение, лексикография, языкознание, узбекское языкознание, норма, словарь, лексика.*

Annotation: in this article, the process of globalization at the international level has affected the phenomenon of world languages today, and in this regard, it has set a number of promising tasks for the specialists of our country in the integration of society - language - culture, and the relations inherent in the meanings of lexemes and their interpretation. z is reflected.

Key words: *lexeme, word, interpretation, meaning, lexicography, linguistics, Uzbek linguistics, norm, dictionary, vocabulary.*

So‘zning semantik strukturasi o‘ta murakkab va serqirra mohiyat bo‘lganligi tufayli uning leksikografik talqini ham har doim nazariy va amaliy tilshunoslikning dolzarb muammolari qatorida bo‘lib kelgan. Bugungi kunda o‘zbek leksikografiyasi so‘zlarning ma’noviy talqini masalasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Boy leksikografik an’analarning davomi sifatida o‘tgan asrning “50-80-yillari mobaynida o‘zbek tilshunosligida erishilgan va o‘zbek leksikografiyasini tilshunoslikning tez rivojlanib borayotgan mustaqil sohasiga aylantirgan ulkan muvaffaqiyatlari tufayli yuzaga kelgan” (112,5). “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” o‘zbek xalqi tarixi va ma’naviyati taraqqiyotida ulkan hodisa bo‘ldi. “Lug‘atning asosiy vazifasi, o‘zbek adabiy tilining so‘z boyligini to‘plash va tavsiflash bilan birga, uning me’yorlarini belgilab berish va mustahkamlashdan ham iboratki, unda adabiy tilning imlo, talaffuz, so‘z yasash va ishlatish me’yorlari tavsiya etildi” (112, 5). Biroq tilshunoslik fanining rivoji, o‘rganish manbaiga yondashuv omillari va metodologiyasining taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy fanlarga qo‘yiladigan yangicha talablarning yuzaga kelishi ijtimoiy ong shakllaridan bo‘lgan tilning ilmiy talqinida ham yangicha qarashlar shakllanishiga olib keladi. Demak, o‘zbek tilining izohli lug‘ati o‘z oldiga qo‘yilgan o‘zbek adabiy tilining so‘z boyligini to‘plash va tavsiflash hamda uning me’yorlarini belgilashdan iborat tarixiy vazifalarini sharaf bilan yuqori darajada uddaladi.

Avvalo, keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida til hodisalari tadqiqiga dialektik tamoyillar asosida sistema sifatida yondashuv, so‘zlardagi lisoniy va nutqiy qatlamlarni farqlash har bir nutqiy hodisada mujassamlashgan zotiy (ontologik) va tajalli jihatlarni ajratish borasida erishilgan nazariy yutuqlar so‘z semantik strukturasi leksikografik tavsifini yanada takomillashtirishni zarur qilib qo‘yadi. Aytilganidek, so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi talqinida lison va nutqni izchil farqlash talabi har bir so‘zga xos barqaror lisoniy va o‘tkinchi nutqiy jihatlarni ajratishni taqozo qiladi. Nutqiy hodisalar cheksizlik va rang-baranglik tabiatiga ega bo‘lganligi bois leksikografik talqinlarning obyekti bo‘la olmaydi. Lug‘atlar so‘zlarga xos barqaror jihatlarnigina qamrab olish imkoniga ega. Demak, semasiologiya sohasida amalga oshirilgan izchil sistemaviy tadqiqodlar lug‘at tartib berishda muhim tayanch omil bo‘lib, leksikografni beadad nutqiy ma’nolarni lug‘atlarga kiritish hamda izohlash mushkulotlaridan xalos etadi. Bunda har bir voqelangan nutqiy lug‘aviy ma’noda qorishgan o‘zga hodisalar tajallilarini e’tibordan soqit qilish, ushbu birlik (so‘z) ning asl zotiga daxldor bo‘lgan unsurni ajratish va tavsiflash leksikografik talqinda muhim ahamiyatga ega. Quyida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi (o‘tmoq) fe’lining izohiga diqqat qilish bilan o‘z fikrlarimizni dalillashga harakat qilamiz. Ma’lumki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (o‘tmoq) fe’lining 31 ta leksikografik ma’nosi ajratilgan. Ma’nolarning ko‘pchiligida bu so‘z o‘z asl zotiga (lisoniy sathdagi mohiyatiga) aloqador bo‘lmagan, balki o‘zi birikayotgan so‘zlarga bog‘liq

turli-tuman ma’nolarni voqelantiradi.

Qiyoslang: O‘tmoq

1. Biror narsaning ichidan, ustidan yoki yonidan yurib, uchib, suzib narigi tomoniga yetmoq, ko‘chmoq. 2. Ko‘prikdan o‘tmoq. Tunneldan o‘tmoq. Chegaradan o‘tmoq... 3.Teshik, eshik kabi biror joyning bir tomonidan kirib narigi tomonidan chiqmoq. 4. Ip igna teshigidan o‘tmadi. Uyda xizmatchi ovqat qo‘ygan ekan, san’atkorning tomog‘idan hech narsa o‘tmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos (A. Qahhor). 5. Biror tomonga yo‘nalmoq; yurib, suzib yoki uchib biror tomonga jo‘namoq; biror tomonga qarab yurmoq. Bu daryodan har kuni uch marta paroxod o‘tadi. 6. Tezroq yurib yoki yurgizib, boshqalardan oldin ketmoq; quvib yetib o‘tmoq. Goh Afandi eshakdan, goh eshak Afandidan o‘tib uyga yetdilar. (“Latifalar”.) (113,521).

Ko‘rinadiki, lug‘at ma’nolari tavsiflari, o‘tish harakatining xarakteriga ko‘ra emas, balki harakat ustida amalga oshayotgan predmetlarning xususiyatlariga ko‘ra amalga oshirilgan va shu asosda (o‘tmoq) fe’li nutqiy ma’nosidagi sintagmatik yondosh hodisalarning tajallilari o‘z izlarini qoldirganligi e’tiborga olinmagan. Zero, Tunneldan o‘tmoq (1-ma’no) Igna teshigidan o‘tmoq (4-ma’no) misollaridagi (o‘tmoq) fe’lining nutqiy ma’nolari o‘z zotiy tabiati asosida emas, balki bu harakatning nimada amalga oshayotganligi (tunnel orqali o‘tish, teshik orqali o‘tish), nimaning bu harakatni amalga oshirayotganligi (kishi, texnika yoki ip) va o‘tish teshigining katta-kichikligi (tunnel nisbatan uzun masofali ekanligi, igna teshigining kichikligi) asosida farqlanadi. Har ikkala holatda ham harakat mohiyatida farq kuzatilmaydi.

Demak, o‘tmoq fe’lining 1-, 4-, 6- leksikografik ma’nolaridagi farq o‘zga hodisalar (bu yerda birikuvchi so‘zlar denotatlaridagi farqlar) tajallilari asosida bo‘lib, bunday yondashuv asosida ushbu ma’nolarning sonini yanada davom ettirish mumkin:

I.1. Yurib o‘tish.
2. Suzib o‘tish.
3. Uchib o‘tish.
II.1.Ichi uzoq bo‘lgan narsadan o‘tish(tunnel kabi).
2.Ichi qisqa bo‘lgan narsadan o‘tish (igna teshigi).
III.1. Yorib o‘tish.
2. Suzib o‘tish.
3. Teshib o‘tish.
4. O‘yib o‘tish va hokazo.

Xullas, birinchi guruh ma’nolar o‘tishning qaysi harakat asosida ekanligi (suzish, uchish, yurish), ikkinchi guruh ma’nolar o‘tish harakati amalga oshayotgan predmet, uchinchi tip ma’nolar esa harakat amalga oshayotgan predmetda o‘tish yo‘lining yo‘qligi bois uni hosil qilish uchun amalga oshayotgan “o‘tmoq”ning tarzi asosida farqlanadi.

Birinchi guruh ma’nolar o‘tishning qaysi harakat asosida ekanligi (suzish, uchish, yurish), ikkinchi guruh ma’nolar o‘tish harakati amalga oshayotgan predmet, uchinchi tip ma’nolar esa harakat amalga oshayotgan predmetda o‘tish yo‘lining yo‘qligi bois uni hosil qilish uchun amalga oshayotgan “o‘tmoq”ning tarzi asosida farqlanadi.

Aytilganidek, bularning barchasi (o‘tmoq) fe’lining ma’nosida tajallilanayotgan o‘zga hodisalar bo‘lib, ular asosida ushbu ma’nolar tiplarini behad “ko‘paytirish” mumkin. Hodisaga zot va tajalli hamda umumiylik va xususiylik dialektikasi asosida yondashuv bunday rang-barangliklardagi “bir ranglilik”ni, cheksizliklardagi cheklanganlikni ajratish imkonini beradi. Har qanday xususiylik (bizning talqinda nutqiy ma’no) o‘zida, o‘z umumiyligi zarrasi bilan birgalikda, turli-tuman o‘zga hodisalar zarrachalari qorishuvidan iborat ekanligini inobatga olib, bu ma’noning zotiga aloqador o‘ziga xos zarrani ajratib olish, yuqoridagidek, leksikografik talqinlardagi turli xilliklarni bir xillashtirish imkonini beradi. Demak, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ajratib izohlangan mazkur 4 ta (1-, 4-, 5-, 6-) ma’no aslida bitta leksikografik ma’noga birlashtirilmog‘i darkor.

Ko‘rinadiki, leksikografik talqinlarda leksemalarning cheksiz nutqiy ma’nolariga tayanish, ularni qamrab olishga intilish zamonaviy lug‘atchilikda o‘zini oqlamaydi. Shuningdek, leksikograflarga tilshunoslik so‘zlardagi lisoniy va nutqiy ma’nolarni farqlamagan bosqichida bunday talabni qo‘yish ham ilmiy adolat nuqtayi nazariga mos emas edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil.
2. O‘zbek Milliy Ensiklopediyasi. 10-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005-yil.

Muhayyo ERGASHOVA,
QDPI dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi



LOKALIZATSIYA MUNOSABATINING IFODALANISHI

Annotatsiya: maqolada lokal maydon markazi so‘zning semantik strukturasida joy tushunchasining keng ko‘lamli barcha qatlamlarida aks etishi, lokallik belgisi tilning turli sathlarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi, turli sathlarda lokallik haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *lokallik belgisi, lokal maydon markazi, funksional-semantik maydon, morfemik sath.*

Аннотация: в статье рассматривается тот факт, что центр локальности отражается в семантической структуре слова во всех широких слоях концепта мест, локальный признак выражается поразному на разных уровнях языка.

Ключевые слова: *локальный знак, локальный центр, поля функционально-семантический, морфемный уровень.*

Annotation: the article discusses the fact that the senter of the local areais reflected in the semantic structure of the word in all broad leyers of the concept of place, the local sign.

Key words: *local sign, local Area Center, functional-semantic, area, morphemic level, local character.*

Lokalizatsiya munosabatini ifodalovchi vositalar tizimi ayrim mualliflar tomonidan leksik-semantik kategoriya hisoblanadi. Bu kategoriyaga mansub birliklar ham xuddi boshqa leksik-grammatik kategoriyalar singari shakl va mazmun birligidan iborat bo‘ladi. Umumiy makon semasi bu birliklarning mazmuniy mundarijasining yadrosini tashkil qiladi va bu sema shakliy tomondan vosita kelishiklari va ko‘makchilarni olgan ismlar va ravishlar orqali ifodalanadi. Ismlar nafaqat otlarni, balki olmosh va sifatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Lokalizatsiya munosabati muayyan harakat-holat, belgi-xususiyatning o‘rin tushunchasi bilan munosabatini ifodalaydi. Ya’ni obyektiv borliqda mavjud bo‘lgan narsa va hodisalar, harakat-holat, belgi-xususiyatlar bilan uning o‘rnashgan joyi o‘rtasidagi munosabatning ongimizda aks etgan umumlashgan obrazini muayyan lingvistik vositalar orqali ifodalanishi makon munosabati sanaladi. Lokalizatsiya munosabati ham mantiqiy, ham grammatik kategoriyadir. Ongda aks etgan narsa-hodisa, harakat-holat, belgi- xususiyat bilan uning o‘rni o‘rtasidagi xususiyat mantiqiy munosabat sanalsa, bu munosabatni ifodalovchi lingvistik birliklar o‘rtasidagi munosabat lingvistik munosabat hisoblanadi. Demak, lingvistik makon munosabati - denotativ mantiqiy munosabat bo‘ladi. Boshqacha aytganda, lingvistik makon munosabatining propozitsiyasi tuzilishi mantiqiy makon munosabati sanaladi.

Lokalizatsiya munosabati, umuman olganda, ma’lum predmet, harakat (voqea-hodisa, belgi-xususiyat)ning ma’lum makonga mo‘ljal (orientr) orqali joylashishini ifodalaydi. M.Ergashovaning qayd qilishicha, bu munosabatda lokum tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Predmetning lokum bilan munosabatini ifodalash lokalizatsiya hisoblanadi. Masalan, Shaharning janub tomonidan daryo oqadi. Bu gapda uch a’zo mavjud bo‘lib, birinchi a’zo oqmoq harakati, ikkinchi a’zo oqish harakati subyekti daryo, uchinchi a’zo – shaharning janub tomoni – lokum sanaladi. Lokum deganda, ma’lum bir predmet, (harakat, belgi) ning joylashgan o‘rnini aniqlash uchun vosita bo‘lgan makon yoki predmet tushuniladi. Ya’ni yuqoridagi misolda daryo predmeti bilan shaharning janub tomoni lokumi o‘rtasidagi munosabat lokalizatsiya munosabati hisoblanadi. Lokum, ya’ni “lokallik” semali leksema faqat sifat nuqtayi nazaridangina emas, balki miqdoriy jihatdan ham aniqlanadi. Masalan:

Yo‘lim jar uzra so‘qmoqdir,
Toshlari misoli pichoqdir (M.Ulug‘) .

Bundan ko‘rinadiki, bu tushuncha lokallik belgili leksema sifatidagi ismlar orqali nomlangan makon (o‘rmon, shahar, dala, kilometr, gektar kabi) bilan ifodalanishdir. Ismlarning shakli esa makonga munosabatning xarakterini, “lokallik” semali leksemaning ichi, tashqarisi, yoni singari ma’no munosabatlarini ifodalaydi. Masalan, o‘rmon ichidan yurmoq – o‘rmon bo‘ylab yurmoq – o‘rmonga qarab yurmoq. Yuqoridagi gapda “lokallik” semali leksema bo‘lib kelgan o‘rmon bilan yurmoq harakati o‘rtasidagi munosabat lokalizatsiya munosabati sanalib, bu munosabatda “lokallik” semali leksema bo‘lib kelayotgan leksemaning sememasigina emas, balki uning shakli, qanday grammatik shakl bilan ifodalanishi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Xususan, yuqoridagi gapda o‘rmon “lokallik” semali leksemasi ifodalagan umumiy o‘rin ma’nosi bu ismning barcha shakllarida saqlanib qolsa ham, lekin lokalizatsiya munosabatida harakatning “lokallik” semali leksemaga nisbati (ichi, tashqarisi, usti, osti kabi) uning turli shaklida turlicha bo‘ladi. Bu esa lokalizatsiya munosabatida “lokallik” semali leksema shaklining katta ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi. Lokalizatsiya munosabatida harakat, holat, belgi bildiruvchi leksemalarning makon (lokal) valentligi katta ahamiyatga ega. Ana shu valentlikning voqelanishi lokalizatsiya munosabatini vujudga keltiradi.

O‘zbek tilshunosligida lokalizatsiya munosabatini fe’llarning lokal valentligi asosida o‘rganishga harakat qilingan. Xususan, S.Muhammedovaning “O‘zbek tilida yo‘nalma harakat fe’llarining predikativligi va valentligi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida yo‘nalma harakat fe’llarning lokal valentligi va uning voqelanishi haqida fikr yuritiladi [1: 15-18]. Unda bayon qilinishicha, o‘zbek tilidagi yo‘nalma harakat fe’llarining lokal valentligi ham zaruriy valentlik hisoblanadi. Lokal aktanti agensning yo‘nalma harakati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. U yo‘nalma harakatning bajarilish o‘rnini bildiradi.

YHF (yo‘nalma harakat fe’llari)ning realizatori o‘rin kelishigiga ega bo‘lganda, bevosita, to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘nalma harakatning bajarilish o‘rnini anglatadi.[1: 15-18]

Shu bilan birgalikda YHFning aktanti chiqish va jo‘nalish kelishik qo‘shimchalarini olib kelishi mumkinligi bu qo‘shimchalarning asosan ko‘makchilarga qo‘shilib o‘rin ma’nosini ifodalashi, ularning to‘g‘ridan to‘g‘ri otga qo‘shilib YHF o‘rin valentligi aktanti bo‘lishi esa kam kuzatilishi bayon qilinadi [1: 15-18]. Lekin o‘zbek tili faktlari shuni ko‘rsatadiki, lokal (o‘rin) kelishiklari (-da, -ga, -dan) fe’llarning lokal aktantiga qo‘shilib harakatning bajarilish o‘rni, chiqish o‘rni va yo‘nalish o‘rnini ifodalashi mumkin. Bu kelishik shakllari o‘rin semasiga ega bo‘lgan leksemalarga ham, shunday grammatik semaga ega bo‘lgan ko‘makchilarga ham qo‘shila beradi. Masalan, ketmoq leksemasi ifodalagan (bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga teskari yo‘nalmoq”, kelmoq leksemasi esa “bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yo‘nalmoq” semaga ega bo‘lganligi tufayli lokal kelishikli otlar va lokal semali ko‘makchilar hamda ko‘makchi+lokal kelishiklar bilan kelgan otlar bu fe’llarning lokal aktanti bo‘lib kelishi mumkin. Masalan, poytaxtdan kelmoq, poytaxt tomondan kelmoq, poytaxtga ketmoq, poytaxtga qarab ketmoq, poytaxt tomonga ketmoq.

Shuni ta’kidlash joizki, lokalizatsiya munosabati faqat “lokallik” semali leksema va YHF o‘rtasidagi munosabat bilan chegaralanmaydi. “Lokallik” semali leksema+YHF munosabati lokalizatsiya munosabati (LM)ning bir qismini tashkil qiladi. YHFdan tashqari nutq fe’llari (NF), yumush fe’llari (YF), tafakkur fe’llari (TF), faoliyat fe’llari (FF), masalan, ishlamoq, bajarmoq kabi; holat fe’llari (HF), masalan, og‘rimoq, uxlab qolmoq, davolanmoq, dam olmoq va boshqa fe’lning semantik guruhlari va “lokallik” semali leksema munosabati ham lokalizatsiya munosabatini hosil qiladi. I.Qo‘chqortoyev, R.Rasulov, O‘.Sharipovalarning tadqiqotlarida ham fe’llarning lokal valentligi haqida ayrim fikrlar bildiriladi.[2; 5]

Ko‘rinadiki, lokalizatsiya munosabati kelmoq, ketmoq, bormoq, yurmoq, jilmoq; kirmoq, chiqmoq, oqmoq; uchmoq, boshlamoq, yetaklamoq singari yo‘nalma harakat bildiruvchi fe’llardan tashqari, o‘tirmoq, yotmoq, cho‘kmoq, cho‘kkalamoq, ko‘tarilmoq, qo‘nmoq singari holat bildiruvchi fe’llarda markaziy o‘rinni egallaydi va makon valentligi bu fe’llarning majburiy valentligi sanaladi. Shu bilan birga o‘ylamoq, anglamoq, bilmoq, o‘rganmoq singari tafakkur fe’llarini, dam olmoq, orom olmoq (sihatgohda, bog‘da), davolanmoq (kasalxonada) singari holat fe’llarining, (dalada, zavodda) ishlamoq, ter to‘kmoq singari faoliyat fe’llarining, (majlisda, to‘yda) aytmoq, gapirmoq, demoq singari nutq fe’llarining makon valentliklari ham mavjudki, bu valentlik yuqoridagi fe’llarning fakultativ valentliklari sanaladi.

Shunday qilib, lokalizatsiya munosabati fe’llarning obligator (majburiy) va fakultativ (qo‘shimcha) valentliklari orqali yuzaga chiqadi. Bu valentlikni yuzaga chiqaruvchi argumentlar turli xil sintaktik vazifada keladi. O‘rin holi vazifasida kelishi asosiy, yetakchi vazifa bo‘lsa, qolgan vazifalar qo‘shimcha, ikkinchi darajali vazifa hisoblanadi.

Lokalizatsiya munosabati “lokallik” semali leksema+lokal semali fe’l birikuvi orqaligina emas, balki “lokallik” semali leksema bilan ot birikuvi orqali ham ifodalanishi mumkin. Shuning uchun ham lokalizatsiya munosabatini ifodalovchi birikmalarni fe’lli va otli birikmalarga bo‘lish mumkin.

Lokalizatsiya munosabatini ifodalovchi otli birikmalarda “lokallik” semali leksema predmetning o‘rin belgisini bildiradi va qayerdagi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Masalan,

Dunyodagi eng nozik gulim,
Kitoblarda e’zozli gulim (M.Ulug‘).

Xullas, bunday birikmalarda “lokallik” semali leksema vazifasida keluvchi leksemaning shakli emas, balki semantik tuzilishidagi makon semasi lokalizatsiya munosabatini yuzaga chiqarishda xizmat qiladi. Shuning uchun ham lokalizatsiya munosabatini bildiruvchi bunday birikmalarda “lokallik” semali leksema vazifasida makon semali leksemalar keladi. Agar “lokallik” sema vazifasida kelgan leksemaning sememasida makon semasi mavjud bo‘lmasa, lokalizatsiya munosabati ham bo‘lmaydi. Bunday hollarda atributiv munosabat yetakchilik qiladi. Masalan, daftardagi yozuvlar, ustundagi gul, ukamdagi kitob va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammedova S.X. O‘zbek tilida yo‘nalma harakat fe’llarining predikativligi va valentligi. Nomz.diss.avt., – Toshkent: 1999 15-18-betlar.
2. Sharipova O‘. O‘zbek tilidagi yumush fe’llarining ma’no valentliklari. Filol.fan.nomz.diss. avtoref. – Toshkent: 1996. 16-bet.
3. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. – Toshkent: Fan, 1975. 235-b.
4. Qurbonova B. Lokallik va uning o‘zbek tilida ifodalanishi. Filol. fanl. nomz...dis. avtoref. –Toshkent. 2007.
5. Qo‘chqortoyev I. So‘z ma’nosi va uning valentligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1977. 34-bet.

Dildor OTAJONOVA,
Dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbekiston, Toshkent
dildorotajonova1986@gmail.com



IXTISOSLASHGAN OVOZLI XABAR LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Annotatsiya: ushbu maqola akustik nutqiy tovushlar orqali ifodalangan og‘zaki nutqiy aktlar turlari, shuningdek, ularning lingvistik tahlilini amalga oshirish usullarini tatbiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan barcha faoliyat tiplari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *lingvistik tahlil, og‘zaki nutq faoliyati, og‘zaki nutq turlari, ixtisoslashgan ovozli xabar, nutqiy aktlar.*

Аннотация: данная статья посвящена видам устных речевых актов, выраженных через акустические речевые звуки, а также методам проведения их лингвистической экспертизы. В статье рассматриваются все типы деятельности, характерные для устной речи, и проводится их анализ.

Ключевые слова: *лингвистический анализ, устная речевая деятельность, виды устной речи, специализированное голосовое сообщение, речевые акты.*

Annotation: this article is dedicated to the types of oral speech acts expressed through acoustic speech sounds, as well as methods for conducting their linguistic expertise. The article examines and analyzes all types of activities characteristic of oral speech.

Key words: *linguistic analysis, oral speech activity, types of oral speech, specialized voice message, speech acts.*

Kirish. Ovozli xabarlar zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Ular insonlar o‘rtasidagi muloqotni osonlashtiradi va kompyuter texnologiyalari yordamida avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali keng tarqalgan. Ixtisoslashgan ovozli xabarlar esa ma’lum bir soha yoki kontekstga oid bo‘lib, ularning lingvistik ekspertizasi tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohalarida muhim ahamiyatga ega. Tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ovozli xabarlar insonlar o‘rtasidagi tabiiy muloqotni ta’minlaydi, shuning uchun ko‘plab hollarda ovoz orqali muloqot qilish usuli tanlanadi. Bu o‘z navbatida, hissiy holat, intonatsiya va boshqa noverbal signallarni ifodalash imkonini beradi. Ovozli xabarlar orqali taqdim etilgan ma’lumotlar ko‘proq samimiy va tushunarli bo‘ladi. Shuningdek, ovozli xabarlar interaktiv muloqotni ta’minlaydi, foydalanuvchilar esa ovozli yordamchilar yoki avtomatik ovozli javob tizimlari orqali tez va samarali ravishda ma’lumot olishlari mumkin.

Nutqiy tovushdan iborat xabarlarni qabul qilish, tushunish va eslab qolish jarayoni nisbatan oson kechadi. Ovozli xabarlar tibbiyot, ta’lim, moliya, xizmat ko‘rsatish kabi keng qamrovli sohalarda qo‘llaniladi, bu esa foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi va xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi [4]. Ovozli xabarlarning ahamiyati ko‘p jihatdan ularning inson muloqotidagi tabiiyligi, interaktivligi, ma’lumotlarni qabul qilish va tushunishdagi osonligi, keng qamrovli foydalanish imkoniyatlari, texnologik rivojlanish va ijtimoiy madaniy ahamiyat bilan bog‘liq. Ushbu jihatlar ovozli xabarlarni zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida muhim vosita sifatida ko‘rsatadi [3]. Lingvistik ekspertiza oldida turgan ko‘p sonli vazifalar orasida ularning ko‘pchiligi bevosita tilshunoslik va texnik muammolarni hal qilish bilan bog‘liq emas. Biroq bu barcha harakatlarning yakuniy maqsadi muammoni ko‘rib chiqishning lingvistik prognozi hisoblanadi. Og‘zaki nutqni tekshirish uchun o‘rganish obyekti ta’rifiga qaytsak, mutaxassisga yuklangan vazifalarga qarab, u har xil bo‘ladi. Shunday qilib, shaxslarni og‘zaki nutqqa ko‘ra aniqlashda qiyosiy tahlil qilish uchun tanlangan nutq qismlari tadqiqot obyekti bo‘ladi. Shovqinli matnlarni qayta tiklash muammosida har bir qayta tuzilgan so‘z obyekt hisoblanadi. Yozib olish shartlarini diagnostika qilish vazifasida obyekt, qayd etish shartlarini ko‘rsatuvchi har bir izdir. Ovoz yozish vositalari va materiallarini aniqlash masalalarida obyekt, o‘rganilayotgan fonogrammadagi har bir iz (impuls) hisoblanadi.

Asosiy qism. Ovozli nutqni tekshirish muammolari bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchilar ovoz va videoyozuvlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan usullarning quyidagi tasniflarini beradilar:

1. Tasniflash, unga ko‘ra usullar instrumental va lingvistik turlarga bo‘linadi.
2. Usullarni subyektiv va obyektivga bo‘lish tasnifi.
3. Tadqiqot usullariga ko‘ra auditorlik (mutaxassisning eshitish xotirasi, shaxsiy tajribasi va maxsus bilimlari asosida tovushlarni to‘g‘ri idrok etish va farqlash qobiliyati), lingvistik (fonetik, sintaktik, semantik, psixolingvistik), elektroakustikka bo‘lingan tasnifi, turli texnik vositalar yordamida tovush signalining fizik parametrlari, kibernetik (o‘rganilayotgan xususiyatlarni aniqlash, ularni taqqoslash va qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirishga imkon beradi).

Og‘zaki matnlarning janr tabiati bilan bog‘liq yana bir jihati ularning monolog va dialogik matnlarga

bo‘linishidir. Birinchisi, radio, televideniye, internetda, mitinglarda va hokazolarda turli xil nutqlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ikkinchi turiga kontakt va masofaviy suhbatlar, turli xarakterdagi og‘zaki matn (telefon suhbatlari, Skypedan foydalangan holda suhbatlar, rasmiy ishbilarmonlik muzokaralari, kundalik suhbatlar, intervyular va boshqalar) kiradi [5, 45]. Aynan dialogik tovush matni so‘nggi paytlarda tobora ko‘proq sud-lingvistik ekspertiza obyektiga aylandi. Mazkur toifadagi hollarda, asosan, ekspertiza uchun suhbatlarning audio va videoyozuvlari (tezkor-qidiruv tadbirlari (kuzatuv, telefon orqali eshitish va h.k.) natijasida olingan, fuqarolar tomonidan ovoz yozish apparatlari, telefonlar va boshqalar) qayd etilgan fonogrammalar / videofonogrammalar taqdim etiladi. Shuningdek, nutqiy aktning tabiiy, vaziyatdan kelib chiqqan holda yuzaga kelishini inobatga olish zarur sanaladi. Nutqiy akt ishtirokchilari o‘rtasida umumiy hisoblangan dastlabki ma’lumotlarning, kundalik tajribaning mavjudligini e’tirof etuvchi apperseptiv bazaning umumiyligi mavjud bo‘lishi zarur.

L.P.Yakubinskiyning izohiga ko‘ra, “Appersepsiya asosini doimiy va barqaror hamda hozirgi vaqtda yuzaga keladigan o‘tkinchi elementlar”ni tashkil etadi. Bu farq prinsipial jihatdan muhim sanalib, appersepsiya bazasining umumiyligi muloqot ishtirokchilarining ko‘p yillik tanishuvi yoki ma’lum bir nutqiy aktdagi qisqa muddatli tajriba bilan izohlanishi mumkin. Dialogda, asosan eshitish va vizual muloqot vositalari uning tizimi sifatida qurilgan. So‘zlashuv nutqidagi kommunikativ vositaning tuzilishini ma’lum qoidalarga muvofiq og‘zaki va noverbal komponentlarning kombinatsiyasi sifatida tavsiflash kerak. Axborotni uzatish uchun haqiqiy lingvistik vositalar bilan bir qatorda inson ovozi tomonidan amalga oshiriladigan boshqa vositalar ham mavjud: intonatsiya (ohang harakati, ohangning o‘zgarishi), nutq tezligi, ovoz tembri, registr va boshqalar. Bundan tashqari, imo-ishoralar va yuz mimikasi, ifodalar [1, 27].

Ovozli xabarlarni yig‘ishda ixtisoslashgan ovozli xabarlar to‘plami turli sohalardan (masalan, tibbiyot, moliya, ta’lim) olinadi. Og‘zaki xabarlar grammatik, leksik va stilistik jihatdan tahlilga tortilib, tilning ifoda qoidasi hamda strukturasi o‘rganiladi. Shuningdek, audioxabar kontekstda ifodalangan ma’nosi aniqlanib, xabarlarning qanday maqsadda berilganini va ularning qabul qilinishi qanday bo‘lishini dalillashga yordam beradi. Og‘zaki matnlarni lingvistik ekspertizadan o‘tkazishda gaplarning intonatsion dizayniga alohida e’tibor berish kerak. Intonatsiyaning kommunikativ maqsadi shundan iboratki, uning yordamida so‘zlovchi nutq oqimidagi semantik qismlarni (butun so‘z yoki uning bo‘laklari - sintagmalar) tartibga soladi va aniqlaydi, shu bilan birga tinglovchiga o‘z nutqining ma’lum bir umumiy maqsadini xabarlab (hikoya, iroda ifodasi, savol), uning ifodalanayotgan narsaga subyektiv munosabatini “bayon qiladi”. Intonatsiyaning barcha tarkibiy qismlaridan semantik farqlarni ifodalash va idrok etish uchun ohangdagi o‘zgarishlar muhimdir.

Og‘zaki nutqni lingvistik tekshirishning nazariy asoslari turli ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va texnik fanlardan olingan ilmiy ma’lumotlar bilan shakllanadi. Og‘zaki matnlarni tahlil qilish fanning turli sohalari bilimlarini jalb qilishni talab qiladigan murakkab vazifadir. Shunday qilib, ovoz yozuvidan odamni aniqlash kabi murakkab vazifa uchun mutaxassislar fiziologiya, tibbiyot, fizika, mantiq, psixologiya, huquq, tilshunoslik, elektronika, tizimli tahlil nazariyasi va boshqalar ma’lumotlaridan foydalanishlari kerak. Boshqacha aytganda, mutaxassislar deyarli barcha mavjud fanlar adabiyotiga murojaat qilishadi. Ularning har birining og‘zaki nutqni lingvistik tekshirish nazariyasini shakllantirishga qo‘shgan hissasi o‘rganilayotgan obyekt xususiyatlarining tuzilishi va barqarorligini belgilovchi qonuniyatlarni tushuntirishdan iborat [2, 10]. Nutq signalidan shaxsiy identifikatsiya qilish masalasini to‘liq avtomatik hal qilishning mumkin emasligi haqidagi taxminimiz, agar siz noto‘g‘ri tan olishni istasangiz, har qanday mavjud avtomatik dinamikni aniqlash tizimini “aldash” mumkinligi bilan tasdiqlanadi. Sanab o‘tilgan omillar so‘zlashuv nutqining o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarini belgilab, so‘zlashuv nutqi og‘zaki ifoda vositalarini tejash prinsipi bilan tavsiflanadi. Appersepsiya bazasining situatsion shartliligi va umumiyligi qanchalik katta bo‘lsa, axborotning to‘liqligini ta’minlash uchun og‘zaki ifoda vositalari shunchalik kam bo‘ladi. So‘zlashuv nutqida muloqotda ifodalangan vaziyatda bevosita mavjud bo‘lgan xabarning ko‘plab elementlari ifodalanmasligi mumkin, jumladan, har xil turdagi ellipslar. Og‘zaki matnni tahlil qilishda mutaxassis, minimal og‘zaki belgilarda keng ma’lumot mavjud bo‘lganda, tarkibni zichlashtirishning o‘ziga xos usullariga duch keladi. Ishtirokchilar matn mazmunini aks ettirishda tegishli barcha shaxslar, hodisalar, belgilar, faktlarni nomlamaydi, balki ularni bir ma’noda tushunadi. Og‘zaki nutqda suhbatdoshga ma’lum bo‘lgan hamma narsa appersepsiya asosining umumiyligi tufayli yoki vaziyatning o‘zi tushib qoladi. Axborotni yetkazishda real lingvistik vositalar bilan bir qatorda noverbal prozodik vositalar ham harakat qiladi: intonatsiya (ohang harakati, ohangning o‘zgarishi), nutq tezligi, ovoz tembri, registr va boshqalar. Masalan, so‘zning informatsion yuklanishi gapning o‘ziga xos kommunikativ vazifalariga qarab o‘zgarishi mumkin. Bu suhbat so‘z birikmasining dinamik tuzilishida namoyon bo‘ladi: eng muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan so‘zlar urg‘u oladi. Kamroq ma’lumotga ega bo‘lgan so‘zlar zaif yoki stressiz bo‘ladi. Shuningdek, ko‘p hollarda nutq sur’ati semantik munosabatlar bilan tartibga solinadi. So‘zlovchi nuqtayi nazaridan eng muhim bo‘laklar ahamiyatsizlariga qaraganda sekinroq talaffuz qilinadi. Bundan tashqari, so‘zlashuv nutqida xabarning eng muhim qismlarining aktualizatori sifatida takrorlar keng qo‘llaniladi. Muloqot ishtirokchisi so‘z, so‘zlar guruhi yoki butun iboraning alohida kommunikativ ahamiyatini

ta’kidlash uchun har doim ularni takrorlash imkoniyatiga ega. Bunday takrorlash – bayonotdagi eng muhim urg‘u odatda, nutq tezligining sekinlashishi bilan birga kechadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida keltirish mumkinki, ovozli nutqni tekshirishda, shuningdek, nutqiy tovushdan iborat xabarlarni qabul qilish va tushunish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Ovozli xabarlar tibbiyot, ta’lim, moliya va xizmat ko‘rsatish kabi keng qamrovli sohalarda qo‘llaniladi, bu esa foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi va xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi. Lingvistik ekspertiza jarayonida ovozli xabarlarning monologik va dialogik turlari o‘rtasidagi farqni hisobga olish zarur. Dialogik tovush matnlari sud-lingvistik ekspertiza obyekti sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular suhbatlarning audio va videoyozuvlari orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, og‘zaki nutqni tekshirishda intonatsiya, kontekst va appersepsiya kabi omillarni hisobga olish zarur. Ovozli nutqni lingvistik tekshirish nazariyasi turli ijtimoiy, gumanitar va tabiiy fanlardan olingan bilimlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu kompleks vazifalar mutaxassislarning keng bilim doirasini talab qiladi va ovozli xabarlarning lingvistik jihatlarini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Natijada, ovozli xabarlar va ularning lingvistik ekspertizasi zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi va ularni yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Земская Е.А. Русская разговорная речь. Лингвистический анализ и проблемы обучения: Учебное пособие / Е. А. Земская. – 4-е изд. перераб. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2011. -С. 5–27.
2. Каганов А. Ш. Криминалистическая экспертиза звукозаписей. – М.: Изд-во «Юрлитинформ», 2005. – С.10
3. Кожара О.В. Прагматический анализ многозначности при проведении лингвистического исследования в рамках судебной экспертизы по делам, связанным с противодействием экстремизму // Теория и практика судебной экспертизы. 2022. Т. 17. № 4. -С. 88–93.
4. Кузнецов В.О. Судебная лингвистическая экспертиза. Монография. – М.: ФБУ РФЦСЭ при Минюсте России, 2021. – С.352.
5. Судебная лингвистическая экспертиза. Теория, методики, практика: методическое пособие / Под ред. В.О. Кузнецова, А.М. Плотниковой. – М.: ФБУ РФЦСЭ при Минюсте России, 2023. –С. 232.

Sayyora SAMIYEVA,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

GRAMMATIKANING METODIK VA PSIXOLINGVISTIK TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada xorij va o‘zbek tadqiqotchilar tomonidan grammatikaga metodik va psixolingvistik jihatdan berilgan talqinlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *grammatika, mutaxassis, grammatik mexanizm, grammatik harakat, grammatik hodisa, bilim, ko‘nikma, malaka.*

Аннотация:в статье представлены взгляды зарубежных и узбекских учёных на термин «грамматика», а также обсуждается его методическая и психолингвистическая интерпретация.

Ключевые слова: *грамматика, специалист, грамматический механизм, грамматическое действие, грамматическое явление, знание, умение, квалификация.*

Annotation: the article presents the views of foreign and Uzbek scientists, methodologists and psycholinguists on the term “grammar”, as well as discusses its methodological and psycholinguistic interpretation.

Key words: *grammar, specialist, grammatical mechanism, grammatical action, grammatical phenomenon, knowledge, skill, qualification.*

Kirish qismi. XX asrning o‘rtalari hamda oxirlarida “chet til o‘qitish metodikasi” terminologiyasida ham yangiliklar paydo bo‘ldi. Ulardan eng ahamiyatlilari “kommunikant” (1940-yillarda) va “kognizant” (1980-yillarda) nomlarini olgan yangi istilohlardir. Kommunikant deganda, nutq faoliyati turlarida fikr bayon etuvchi yoki o‘zga shaxs fikrini idrok etib tushunuvchi muloqotchi tushuniladi. Biz quyida tahlil qiladigan asosiy nutq faoliyati turlari (4 ta) va mutaxassislarga o‘rgatiladigan (6 ta) nutq faoliyatining qo‘shimcha turlarini egallagan shaxs muloqotdosh nomi bilan yuritiladi.

Chet til o‘rganish chog‘ida, boshqa tillarni o‘rganish davomida ham muloqot yurituvchi o‘zi uchun yangi va foydali axborotni oladi yoki uzatadi. Chet tilni nomutaxassislik sifatida o‘rganuvchi ushbu til vositasida tili o‘rganilayotgan

mamlakat madaniyatidan voqif bo‘lishga intiladi. Chet tilni mutaxassislik maqomida o‘rganuvchi esa, aytilgan maqsadlarga qo‘shimcha holda o‘rganilayotgan til haqida ham ma’lumotlar olish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bo‘lajak chet til mutaxassisi ham madaniy ham nazariy bilimlar sohibi sifatida namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism. Har qanday til, ma’lumki, uch sathdan iborat: fonetika, leksika, grammatika. Gap mana shu uchala til materialidan ta’lim jarayonida foydalanishni optimallashtirish haqida boradi. Til ayni bir vaqtda kategoriya va tuzilma bo‘lib, bir vaqtning o‘zida individual va ijtimoiy xarakter kasb etadi. Tilning ko‘p jihatlari obyekt sifatida, birinchidan, biz uning asosiy muloqot vositasi, bilish vositasi, inson tomonidan dunyoning tilga oid tasvirini yaratishdagi asosiy quroli inson tomonidan yaratilgan barcha bilimlarni o‘zida saqlovchi bir hazina va boshqa vazifani bajarishini; ikkinchidan, til tashkiliy struktura va funksional tizim; uchinchidan individning o‘ziga xos tili va butun jamiyatga xizmat qiluvchi umumiy muloqot vositasi sifatidagi vazifasi va to‘rtinchidan, turfa lingvistik ma’lumotlar orasida til xalq madaniyatining in’ikosi ekanligi e’tiborga molik. Psixolingvistikada nutqning kumulyativ funksiyasi ushbu ilmiy tezisga hamohang keladi.

Xorijiy til grammatikasini o‘rgatishning har bir yangi bosqichining samaradorligi avvalgi bosqichda erishilgan natijaga bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, Ot nimaligini bilmagan talabaga Fe’l grammatik kategoriyasini tushuntirish amrimaholdir. Amaliy grammatikaning o‘zlashtirilishi nutqiy mavzuning mazmuniga bog‘liq.

“Grammatika” atamasi fanda asosan uchta ma’noda ishlatiladi:

birinchi ma’nosi - “grammatika” har qanday xalq, umuman inson tilining 3 tarkibiy qismlaridan biridir: tovush tizimi (fonetik qurilish) – grammatik qurilish – lug‘at tarkibi; ikkinchi ma’nosi – biror tilda muloqot yuritish uchun so‘z birikmasi va gap turlarini yaratish qoidalari to‘plami (preskriptiv grammatika); uchinchi ma’nosi - “grammatika” o‘quv fani sifatida [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006; 396]. Bu narsa faqat tilga ixtisoslashgan OTMlarda mutaxassislar tayyorlashning tarkibiy qismiga kiradi.

Grammatikani xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida ikki asosiy strategiyaga asosan amalga oshiriladi: horijiy tillarni turli maqsadlarda o‘rganuvchilarga o‘qitish; horijiy tillarni filolog - lingvist, chet tili o‘qituvchilari tayyorlovchi mutaxassislik OTMlarida. Birinchi yo‘nalishda minimal bazaviy grammatik tushunchalar va tegishli kasb yoki yo‘nalishlarga xos lug‘at boyligi bo‘yicha tegishli kompetensiyalarni shakllantirish rejalashtiriladi. Ikkinchi yo‘nalishda filolog-lingvist, til o‘qituvchisini tayyorlash haqida gap ketsa, grammatika to‘la hajmda, izchil va tizimli o‘qitiladi. Birinchi yo‘nalishda, masalan, terminologik apparat kategorial tushunchalar juda kambag‘al bo‘ladi. Bu yerda “-ing qo‘shimchali shakl”, “-ed qo‘shimchali shakl” kabilardan foydalanish bilan cheklansa bo‘ladi. Ammo filolog-lingvistga bu umuman yetarli emas, chunki “-ing qo‘shimchali shakl” grammatik ma’noli uchta so‘z bo‘lishi mumkin. Masalan: Sifatdosh I, sifat hamda Gerundiy. (running, interesting, the painting). Xuddi shunday “-ed” qo‘shimchali so‘z esa to‘rt xil grammatik ma’noni ifodalashi mumkin. Masalan: fe’lning o‘tgan zamon shakli (Tom worked); sifat (painted wall); o‘tgan zamon sifatdoshi (the house was paunted last year); va ot (The wounded was brought in). Bularni lingvistik terminlarda berilishi amaliy grammatikada berilishi shart emas. Biroq nutqda ularni qo‘llay olish zarur (nazariy grammatika kursida bularga etarlicha ta’rif beriladi).

Ikkinchi guruh (mutaxassislar) o‘rganuvchilar esa, ularni o‘zi ishlata olishi, ularning nomini bilishi, bir - biridan farqini aniq tushuntirib bera olishi kerak. Har qanday tilni o‘rganish uning lisoniy hodisalarini nutq jarayoni da qo‘llash bilan yakunlanadi. Grammatika tinglab-tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv uchun asos yaratadi.

Buyuk Britaniyalik filolog D. Kristal [Crystal, 2008; 218] rahbarligida yaratilgan lingvistik va fonetik lug‘atda yozilishicha, grammatika – bu so‘zlar va ularning komponentlarini jumla yasash uchun birlashishini o‘rganadigan fan.

Fikrimizni “grammatika” terminiga lingvometodik sharh bilan davom ettiramiz.

Mashhur rus lingvodidakti I.V. Raxmanovnipg fikricha [Raxmanov, 1991], aktiv va passiv grammatika muammosi metodikada uzoq davr bahslarga sabab bo‘lgan. Olim aktiv va passiv material atamalarini reproduktiv va retseptiv tarzda nutqni egallashga bog‘lab qo‘llagan. Aktiv grammatika deganda, reproduktiv (va shuningdek retseptiv) nutqda qo‘llanadigan grammatik hodisalar nazarda tutiladi.

Chet til grammatikasini o‘rgatish sohasini halqaro miqyosda chuqur tadqiq etgan metodist professor V.S. Setlin [Jalolov, 2012; 170] “Nutq faoliyatida grammatik elementlarni qo‘llash” ma’nosini “grammatik mexanizm” deb atagan. U grammatik mexanizmni egallash jarayonini uch qismga bo‘ladi: 1) grammatik harakat (amal)ni egallash; 2) tayyor materialni o‘rganish; 3) grammatik umumlashmani o‘zlashtirish.

Amerikalik metodist D. Larsen-Frimenning fikriga ko‘ra [Larsen-Freeman, 2009; 263], “grammaring” nomli metodik terminni "beshinchi malaka" (tinglash, gapirish, o‘qish va yozuv bilan bir qatorda), grammatik hodisalarni aniq mazmunni ifodalay olish malakasi deb ta’riflagan. Fikrimizcha, “grammaring” terminini malakalar tarkibiga kiritish to‘g‘ri emas. Uni yetakchi lisoniy ko‘nikma sifatida ta’riflash mumkin. Ma’lumki, har

qanday malaka chet tilda nutq bilan bog‘liq tushuncha hisoblanadi, grammatika esa nutqni tayyorlashda ahamiyatga ega bo‘lgan lisoniy ko‘nikmadir.

Chunonchi, grammatik hodisaning uch jihati – formasi (shakli), semantikasi (ma’nosi), funksiyasi (qo‘llanilishi) haqidagi muallifning fikrlari O‘zbekiston chet til o‘qitish ilmiy maktabi vakillari tomonidan o‘tgan asrning 80-yillarining boshlarida keng muhokamaga qo‘yilgan [Sattarov, 1982].

A.P.Sinelnikov chet til o‘rgatish psixologiyasiga bag‘ishlangan zamonaviy manbalarda chet tilda tafakkurni shakllantirish masalasini yana ko‘targan [Sinelnikov, 2009]. Psixologlarning bunday, ta’bir joiz bo‘lsa, qisman yanglish g‘oyalari bugun paydo bo‘lgan emas, o‘tgan asrning 60-yillar o‘rtalarida professor B.V.Belyayev [Belyayev, 1965] ham shunga yaqin fikrda bo‘lgan.

Ma’suliyat bilan aytishimiz mumkinki, inson bolasining tafakkuri ona tilida shakllanadi, chet tilda mavjud, lekin ona tiliga yot bo‘lgan tushunchalargina maxsus shakllantirilishi mumkin.

Psixolog L.S.Vigotskiy ta’kidlaganidek, har qanday so‘z voqelikdagi predmet yoki xodisani umumlashmaga aylantiradi. Ayni shu fikr grammatik hodisalarga ham tegishli [Vigotskiy, 2000; 463-464].

Yana bir psixolog S.L.Rubinshteyn [Rubinshteyn, 2002; 20-21] faoliyat nazariyasi bo‘yicha o‘z fikrini bayon etib quyidagilarni alohida ta’kidlagan: dastlabki malaka, ko‘nikma va ikkilamchi ko‘nikma. Ushbu ilmiy g‘oya umuman faoliyat yuritish masalalariga taalluqli, chet tilda nutqiy faoliyat muammosi esa quyidagicha hal qilingan: bilim, ko‘nikma, malaka.

Xulosa qismi. Nutqiy faoliyat yuritish muammosini mukammal o‘rgangan akademik I.A.Zimnyaya [Zimnyaya, 2001; 71-72] psixolingvistlarning ilmiy qarashlarini chuqur tahlil qilib nutqdagi grammatik hodisalarning qo‘llanishiga nazariy umumlashma yaratgan:

1. Fikrni ifoda etishga tayyorgarlik. 2. Nutqiy ifodaning tarkibiy qismlariga e’tibor qaratish. 3. Nutqning og‘zaki yoki yozma bayon etish bosqichi. So‘zning ovozli yoki grafik dizayni amalga oshiriladi.

Shunday qilib, grammatika tushunchasini nazariy talqin etishga baholi qudrat harakat qildik. Mazkur jarayonda biz metodist va psixologlarning fikrlariga tayandik. Chunki tilning grammatik birliklari yoki nutqning grammatik jihati asosan zikr etilgan ikkala fanda: metodikada va psixologiyada muhokama qilib kelinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беляев Б.В. Очерки по психологии обучения иностранным языкам. Пособие для преподавателей и студентов. – Москва: Просвещение, 1965. – 227 с.
2. Crystal David. A Dictionary of Linguistics and Phonetics, 6th edition, Blackwell Publishing Ltd, 2008. – 555 p.
3. Larsen-Freeman Diane, Article: Teaching grammar. In M. Cele-Murcia, B.M. Brinton, & M. A. Snow, Teaching English as a second or foreign language (4th ed). Boston. MA
4. Рахманов И.В. Некоторые теоретические вопросы методики обучения иностранным языкам в средней школе//Общая методика обучения иностранным языкам: Хрестоматия. − Изд. 3–е перераб.и доп. − М., 1991.−187 с
5. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. - Издательство: Питер, 2002. - 720 с.
6. Саттаров Т.К. Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе: Автореф.канд.дисс. – Москва: НИИСиМО АПН, 1982.–С.7.
7. Синельников А.П. Психология обучения иностранным языкам. © ООО «Издательская группа “Основа” Электронные книги», 2009. - 128 с.
8. Выготский Л.С. Психологтия. – М.: Изд–во ЭКСМО–Пресс, 2000. – 1008 с. (Серия «Мир психологии») Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – T.: “O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
9. Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: НПО «МОДЭК», 2001. — 432 с.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 582 b.



Saodat MUMINOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

MILLIY SHE'RIYATDA HAYOT MAZMUNINI BADIIY IDROK ETISH

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy she'riyatda hayot mazmuni qanday talqin etilganligi xususida fikr yuritlgan.
Kalit so'zlar: *she'r, mazmun, idrok, obraz, so'z, timsol.*
Аннотация: в данной статье рассматривается, как трактуется смысл жизни в национальной поэзии
Ключевые слова: *стихотворение, содержание, восприятие, образ, слово, символ.*
Annotation: this article discusses how the meaning of life is interpreted in national poetry.
Key words: *poem, content, perception, image, word, symbol.*

She'riyat xalqning ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Unda hayot mazmunini chuqur anglash, inson taqdiri, uning his-tuyg'ulari va orzu-umidlari badiiy ravishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, she'riyat orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar ham o'ziga xos tarzda targ'ib etiladi. Hayot haqiqatlari va inson qalbining murakkab his-tuyg'ularini ifodalashda o'zbek shoirlari yuksak badiiy mahoratni namoyon etib kelganlar.

Hayot haqidagi mulohazalar, uning ma'no-mazmunini izlash ijod ahlini qadimdan o'ylantiradi. Masalan, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ijodkorlar o'z asarlarida inson hayotini ma'rifat va axloq masalalari bilan bog'lab, uning mukammallikka intilishi haqida yozgan. Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida hayot ma'nosi, insonning ichki dunyosi va jamiyatdagi o'rni chuqur falsafiy tushunchalar orqali tasvirlangan.

Har bir ijodkor hayotni o'zining shaxsiy qarashlari, ruhiy holati va ijtimoiy muhit orqali anglaydi. Masalan, faylasuf ijodkor Asqad Muxtor o'z she'rlarida ekzistensial savollarga javob izlaydi: hayotning, borliqning asosi nima? Hayotni insonning borlig'i sifatida talqin qilib, uning nafosat va mazmun bilan to'lishiga urg'u beradi. Xususan, tabiat mavzusining badiiy talqin ma'nolari orqali poetik obrazlar zimmasiga yuklanayotgan mazmun teranligini ko'zdan kechirish xarakterlidir.

O'zini dengizga bag'ishlab, daryo,
Jilg'alar o'ladi.
Uzoq - uzoq yangrab zamonlar aro
Qo'shiqlar so'ladi.
Yorug' yonib,
Shon - shuhratga qonib,
Yulduz o'chadi –
Yo'qlik dunyosiga ko'chadi.
Goh havas qilaman...
Lekin aslida:
Men u ham bo'lmasam,
Bu ham bo'lmasam.
Tabiatday bo'lsam: so'lsam-da faslida
Sira o'lmasam. [1:89]

"Mangulik" deb nomlangan she'rining lirik qahramoni hayot mazmuni, o'tkinchilik va boqiylik haqida o'ylarkan, tabiat singari go'zalliklar yaratish boqiylikdir, degan xulosaga keladi. Sokin kechalarda osmonga termulib lov etib yulduz uchganini ko'rsak: "Ana kimdir vafot etdi" deymiz, odatda. Lirik qahramon xalq tilidagi mazkur iborani go'zallik va boqiylik ma'nosida tushunadi, anglatishga intiladi. Hech narsa yo'qdan bor bo'lmaydi yoki bordan yo'q bo'lmaydi. Bir shakldan boshqa bir shaklga o'tadi. "Yulduz uchadi – yo'qlik dunyosiga ko'chadi". Ana shu holatni inson umriga nisbatan oladigan bo'lsak, tiriklik – makon va zamon nuqtayi nazaridan ko'radigan, kuzatadigan bo'lsak, ming, million yillar qarshisida oniy bir lahza. Ko'z yumib ochilguncha ketgan fursatlar qadar qisqa. Lekin shunday esa-da, ana shu lahzalarda ham inson o'z umrini boqiylikka aylantira olishi mumkin. Buning uchun esa hayotini ezgu ishlarga sarflashi, yaxshilik qilishi, behuda gap-so'zlardan tiyilishi, vaqtni bekorga sarflamasligi lozim. Umrni go'zalliklar yaratishga safarbar eta olsa, ko'chatlar ekib, bog'-rog'lar yaratsa, odamlar ko'nglini olsa, bas. Zero, go'zallik inson umriga esh, hayotining davomiyligini ta'minlaydi, tirikligini mazmunli o'tishini ta'minlaydi. Shoir vaqtni shunchaki tabiat hodisasi sifatida emas, balki insonning ma'naviy mezoni sifatida ko'rsatadi. Vaqt insonning hayotida amalga oshirgan ishlari orqali o'lchanadigan abstrakt tushuncha sifatida talqin qilinadi.

Ma'lumki, olim mantiqiy tushunchalarga tayangan holda fikrlaydi, shoir esa poetik obrazlar vositasida hayot va voqelik haqida xulosaga keladi. She'rning mundarijasida shoirning shaxsiy-hayotiy tajribasi va kuzatishlari, hayot, umr, tiriklik, erk, zulm, adolat haqidagi fikrlari aks etadi. "Shaxsiy-hayotiy tajriba avlodlar tajribasi, fikrlari, kechinmalari, qiziqish va idealining in'ikosiga aylansagina umuminsoniy mazmunga ega bo'ladi", – deb yozgan edi professor N.Rahimjonov [2: 32]. Shu ma'noda Asqad Muxtor

she’rlarida ifodalangan mazmun umuminsoniylik xususiyatini aks ettirganligini ko‘rish mumkin.

Asqad Muxtor she’riyatida inson hayotining mazmuni, umr falsafasi alohida bir sahifani tashkil qiladi. Xususan, inson umrining tiniqligi va ravshanligi, yashashning asl mohiyati – bevosita hayot ranglariga mazmun ato eta olish bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Insonning hayot yo‘li, umri, mehnati, go‘zallik, insoniylik haqidagi teran mushohadalari mohiyat e’tibori bilan shoirning hayot va baxt haqidagi, inson tirikligi va taqdiri xususidagi o‘y-mushohadalarining falsafiy asosiga aylanadi. Quyosh, tuproq, nur, daraxt, olov, shamol, giyoh singari obrazlar Asqad Muxtor fikrlarining ramzli, hikmatli mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Ona zamin hikmati, ona yurt tuprog‘idan ungan ne’mat shoirning go‘zallik, boqiylik xususidagi ishonch tuyg‘ularini qat’iylashtiradi. Quyosh hayotning manguligini ta’minlayotgan ekan, yer hayotning go’zalligini belgilovchi asosdir. Zero, inson halol va pokiza hayoti, yaratuvchanlik mehnati bilan asriy zulmatlarda bir munavvar nuqta hisoblanadi.

Sen kashfiyot yolqini, otash,
Asriy zulmatlarda bir yorug‘ nuqta.
Barcha mavjudotlar qalbingga tutash,
Bir oddiy giyohning oldida to‘xta.
Ariq shildirashi, barglar shiviri,
Senga jon ozug‘i, ruhingga dardkash.
Gullar bilan so‘rash, hidlab har birin,
Kapalaklar bilan suhbatlash.
Javob bermasalar gapingga, mayli
Sovuq yulduzlarga tikilganda goh,
Bilginki, qalb qo‘ri jonlilar tufayli,
Jonlilar jonliga doim xayrixoh [1: 37]

Asqad Muxtor ijodi uchun xos xarakterli xususiyatlardan biri shundaki, shoir oddiy turmush realliklari, maishiy hayot ko‘rinishlari bilan olamning boqiy manzaralari o‘rtasida mushtaraklik ko‘radi. Uning olamni ko‘rishi, tushunishi va aks ettirishida ana shu uyg‘unlik mazmundor poetik obrazlar orqali yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu shoirning ijodiy individualligini tayin etishda yetakchi omillardan biri, deyish mumkin. Yuqoridagi satrlar shoirning “Inson” she’ridan. Fursat, lahzalar zumda o‘tib ketadi. Shu jarayonda inson umri ham suvday oqib boraveradi. Mazkur holatni hech kim sezmaydi, olam larzaga tushmaydi, hayot o‘z maromida o‘taveradi. Lirik qahramonning ham qalbi sokin va hayajonsiz. Go‘yo hech narsa ro‘y bermayotgandek, hamma narsa o‘z maromida davom etayotgandek. Ana shu jihatlar shoir she’rlaridagi intellektuallikni namoyon qiladi.

Shoirning “Shunday o‘tgan umr-armonsiz” nomli she’rining lirik qahramoni daryo to‘lqinlariga “U zilol, hayotbaxsh navolaring qani, Jo‘shqin yoshligingni qayga tashlading?” singari savollar beradi. Shu savollarga shoirning o’zi “Bilaman, barini kumush tolalarga, Yurtning bog‘lariga bergansan. Guzar oqshomlari, Dehqon qalblariga Yorug‘lik, fayz bo‘lib kirgansan. Naqsh olma yuzida yonib, Qandga to‘ldirgansan. Nafis, taram-taram tomirlarini, Uzoq yo‘llaringda Saxiylik bilan Barini bergansan, barini. Mana endi So‘nggi qadamingda Jildirab oqasan darmonsiz. Shunday o‘tsam ekan men ham Yo‘llarimni! Shunday o‘tgan umr – Armonsiz”, - [4: 23] deya javob berar ekan, daryoning umriga havasini oshkor qiladi.

Bahor og‘ushida yashnagan ko‘m-ko‘k adirlar, soy-u qirlarning uzluksiz zumrad to‘lqini, behad yaylovning sokin va ulug‘vor manzarasi, charaqlagan dala quyoshi, bog‘lar va maysazorlar o‘zining manzaralari, hissiyotlari bilan birgalikda mehnatsevar, kamtarin, ahil qishloq kishilari hayotining go‘zalligini tayin etadi. Mazkur go‘zallik muallaq va abstrakt emas. U inson bilan, odamlarning hayoti va mehnati bilan boqiylik kasb etadi.

Inson shaxsidagi yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar axloqiy go‘zallik, intellektual to‘kislik singari umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini belgilaydi. Professor A.Rasulov ta’kidlaganidek: “Asqad Muxtor intellektual san’atkor sifatida o‘zbek adabiyotidagi yangilikka intilish, modern adabiyotni mukammallashtirishga ham munosib hissa qo‘shdi. Asqad Muxtor shaxsini uning ijodidan, intellektual asarlaridan ayri holda tasavvur etish mumkin emas. Uning yurish-turishi, gap-so‘zlari, ijtimoiy faoliyati intellektual mohiyatini namoyon qilib turardi” [3: 178].

Umuman, she’riyatda, shu jumladan, Asqad Muxtorning ijodiy izlanishlari misolida kuzatilayotgandek, lirikada ham shoirlar nafaqat o‘zini o‘ylatgan, balki xalqini, davrini qiziqtirgan boqiy muammolar - hayot va o‘lim, umr kamoli va zavoli, shaxsiy va ijtimoiy baxt, haqiqat va riyo, go‘zallik va xunuklik singari masalalarga poetik javob izlaydi. Uning she’rlari bugungi kunda ham ulkan missiyani bajarib, inson hayotini mazmunli kechirishga undashdek vazifani bajarib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мухтор А. Сизга айтар сўзим. Шеърлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978.
2. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979.
3. Асқад Мухтор замондошлари хотирасида. – Тошкент: Маънавият, 2003.
4. Мухтор А. 99 миниатюра. Шеърлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1962.

Normurod AVAZOV,
Alfraganus universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori,
normurod.avazov.63@mail.ru

MILLIY UYG‘ONISH DAVRINING MILLIY KITOBI

Annatotsiya: maqolada taraqqiyparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan yaratilgan hujjatlarni yuritish va xat namunalariga oid darslik o‘rganilgan. Behbudiy ushbu darsligida qo‘llagan uslubiy namunalari muallif tomonidan tadqiq etiladi. Uning ayni paytdagi ta’lim sohasidagi ilg‘or tajribasi bugungi kun uchun ham maktab namunasi bo‘lishi ko‘satilgan.


Kalit so‘zlar: *ta’lim, milliy, maorif, usul, Turkiston, taraqqiyot, islohot, bilim, hujjat.*

Аннотация: в статье рассматривается учебник по документообороту и образцы писем, созданные разработчиком Махмудходжи Бехбуди. Автором изучаются методологические примеры, использованные Бехубуди в данной работе. В то же время показано, что ее передовой опыт в сфере образования является образцом для сегодняшней школы.

Ключевые слова: *образование, национальное, воспитание, метод, Туркестан, развитие, реформа, знание, документ.*

Annotation: the article discusses a textbook on document management and sample letters created by the developer Mahmudhodji Behbudi. The author studies the methodological examples used by Bekhubudi in this work. At the same time, its excellence in education is shown to be a model for today's schools.

Key words: *education, national, upbringing, method, Turkestan, development, reform, knowledge, document.*


مجموعهٔ کتابت ونثر

دن برنجی جزو

کتابة الاطفال

مجرد ناشر سمرقند دالقضا مفتی لاریدن

ابو سعود محمود خواجه ابن محمود خواجه خطیب

سمرقندغه تحریر و طبع قیلیندی

۱۳۲۶ هجریه ۱۹۰۸ میلادیه

Дѣловой письмовникъ
на персидскомъ и тюркскомъ языкахъ
выпускъ 1-й.
Сочинитель издатель
МУФТИ
Махмудъ-бинни Хаджа Бехбудъ.
въ Самаркандѣ.
Цѣна 15 коп. قیمت ۱۵ تین
نشر یمزنی ۱۵ تیجی سی

Tarixda mavjud qoidalarga asoslangan manbalarni hisobga olmasdan, ularning tarixiy tajribasidagi ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur ilmiy tahlil qilmasdan, hozirgi til va adabiyot sohasidagi islohotlarning mohiyati va ahamiyatini to‘liq tushunish, baholash mumkin emas. Shuning uchun ham mamlakatimiz tarixiy qimmatga ega bo‘lgan asarlarini o‘rganish va ularni kelajak avlodlarga yetkazish borasida ko‘pgina xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, XX asr boshlarida til va adabiyot tarixida yaratilgan asarlar bugungi kunda ham o‘zining qadrini hamda qimmatini yo‘qotgan emas.

Shunday asarlardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan yozilgan “Kitobat ul atfol” (Bolalar uchun ish yuritish) kitobi. 1908-yili Samarqandda nashr qilingan [1]. Inqilobgacha ikki marta chop etildi. Ikkinchisi 1914-yilda qayta chiqarilgan. U o‘zbek va fors tillarida yozilgan [2].

“Kitobat ut atfol” kitobi Behbudiy tomonidan XX asr boshlarida usuli jadida maktablariga ish yuritish qoidalarini o‘rgatish maqsadida yaratilgan yangi usuldagi uslubiy qo‘llanma hisoblanadi. U XX asr boshida Turkiston o‘lkasida hujjat yuritish sohasida islohotlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan tuzilgan. Qo‘llanmada hujjat yuritish qoidalari o‘z aksini topgan bo‘lib, ya’ni ota va onaning bolalarga munosabatlari; ota-ona oldidagi burchi; bolalarning huquqlari; xat yozmoqning qoidalari va shartlari; mahalliy hokimiyatga ariza yozish; ma’lumotnoma; tasdiqnoma; mamlakat fuqaroligi uchun va xorijiy pasport berish; shahodatnoma; tilxat kabi hujjat namunalarining yozilish tartibi va qoidalari o‘z aksini topgan.

Shuni aytish lozimki, taraqqiyparvar M.Behbudiy ushbu qo‘llanmani usuli jadida maktabining oxirgi bosqichi uchun mo‘ljallab yozgan edi. Chunki, Behbudiyning ta’kidlashicha, usuli jadida maktabini tamomlagan o‘quvchi barcha zamonaviy fanlarni egallash bilan bir qatorda Turkiston o‘lkasida tijorat ishlari bilan shug‘ullanishi, mirzo sifatida ishlarini amalga oshirishi, o‘lkaning bo‘lisnoyxonalarida, idoralarida ishlashi mumkin bo‘lardi. Bu qo‘llanma asosan o‘quvchiga mavjud idora va organlarda ish yuritish qoidalaridan saboq berishga mo‘ljallangan edi. Ayni paytda muallif

kitobni nashr etishdan maqsadini ham aytib o‘tadi. Ya’ni: “Biz ham shul qoidag‘a binoan majmuai kitobat va insho” unvonida avlodi vatan uchun rasmiy va xususiy hamda Turkistonning shar’iy va milliy mahkamalarina ma’mul (amaldagi) barcha vasoyiq(vosiqalar), hujjatu va biljumla musulmon volosno‘yi upraviteli (nohiya mudiri) huzurinda bo‘ladigan doznoniya, protokul, qabohatnoma va rasmiy har nav maktublarni muxtaviy(o‘z ichiga olgan) bir necha juzdan murakkab bir asar tahrir va nashr etmoq amalinda eduk.”[3].

Behbudiy qo‘llanmaning ushbu kirish so‘zida yozgan maqsaddan, qolaversa, asarning tuzilishidan ham ma’lum bo‘ladiki, muallif ayni paytda idoralari uchun ish yurituvchilar, boshqaruvchilar, mahalliy hudud rahbarlari, rahbariyat tarkibida olib boriladigan surishtiruvlar, davlat idoralari uchun majlis bayonnomalari, idoralar o‘rtasida yoziladigan xatlarning mazmuni, barcha fuqarolik holatlari bilan bog‘liq rasmiy yozishmalar kabi yuridik hujjatlarning namunalarini zamonaviy avlod mutaxassislarini tayyorlash niyatida amalga oshirgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Kitobat ul-atfol” qo‘llanmasida quyidagi yo‘nalishlarni o‘rganib, o‘qib, amaliy jihatdan ko‘ramiz:

1. Ish yuritish sohasidagi barcha yo‘nalishlarda “xat yozmoqning shartlari”;
2. Xat yozish usullarining odobi va madaniyati;
3. Ish yuritish hujjatlarida tinish belgilarning qo‘llanilishi qoidalari;
4. Shaxsiy xat yozish qoidalari;
5. Idoralarga xat yozish tartiblari;
6. Ota-onaga xat yozmoq tartiblari;
7. Farzandga xat yozmoq tartiblari;
8. Do‘stiga xat jo‘natmoqning uslubi;
9. Qarindoshga xat yozmoqning tartiblari;
10. Fuqaroni tasdiqlovchi pasport berish tartiblari;
11. Tasdiqnoma yozish qoidalari;
12. Shahodatnoma yozish qoidalari;
13. Ishonchnoma yozish tartiblari;
14. Ariza yozish qoidalari berilgan[4].

Qo‘llanmadagi ish yuritishning “Xat yozmoq shartlarida”[5] uning o‘n sakkizta qoidasi keltiriladi. Eng avvalo ish yurituvchi ma’lum bir masalada xat yozishi zarur bo‘lganida, ushbu istaydigan masalasini anglagan, o‘zi yaxshi tushungan bo‘lishi zarur. Xat yozuvchi xatning mazmunida ya’ni tekstida o‘zi bilmaydigan, tushunmaydigan so‘zlarni kiritmasligi aytiladi.

Qo‘llanmaning keyingi yo‘nalishida xususiy xatlarga va rasmiy xatlarga alohida-alohida amaliy misollar keltirilgan. Berilgan xatlar yuqorida ko‘rsatilgan o‘n sakkizta talab qoidalari asosida yozilgan bo‘lib, huquqiy axloq va odob namunalarining tipik ko‘rinishlariga misollar bo‘ladi. Jumladan, “Ulug‘ tangrim oti ila mehribon otajonim xizmatlarig‘a”, “Sababi vujudu saodatim padari buzrukvor huzurlarig‘a”, “Sevikli onam huzuri shariflarina”, “Janobi ustozi kiromim huzuri anvarlarina”, “Do‘stim va ma'naviy og‘am”, “Nuri chashmim suyukli o‘g‘lim”, “Nuri chashmu quvvati dilam, farzandi azizam”, “Hosili hayotim sevikli o‘g‘lim”, “Boisi izzatim qiblagohim, valene'matim otam xizmati shariflarig‘a”, “Siddiqi muhtaram joniy birodaram” kabi sarlavhalarning o‘zidan ham ko‘rinib turibdiki, qo‘llanilgan har bir atama naqadar axloq va odob normalarining yuqori ko‘rinishi hisoblanadi. Fuqarolarning o‘z erki va huquqlarini anglashida ham mana shu munosabatlarning ta’sir kuchini ko‘ramiz. Shu tarbiya natijasida farzandlar, o‘quvchilar, talabalar shakllanadi. E’tibor bering: “Sababi vujudu saodatim padari buzrukvor huzurlarig‘a”. Bu otaga farzand tomonidan yuborilayotgan xususiy xatning muqaddimasi. Har bir so‘z farzandning otaga bo‘lgan mehr-muhabbatini ifodalaydi. Ya’ni mening dunyoga kelishim, mening erk va borlig‘im shakllanishi, hayotga yo‘l olishim, saodatga borishim, erkin va hur bo‘lishim, huquqlarga ega bo‘lishim sababchisi ota oliy martabali inson sifatida o‘quvchiga singdiriladi. Farzand otaga murojaat qilar ekan, otani o‘z huquqining himoyachisi, o‘z erkinlik va huquqlari poymol bo‘lishining oldini oluvchi tayanch inson sifatida qaraydi.

Qo‘llanmada ish yuritish hujjatchiligiga doir bir qator manbalar berilgan. Ular o‘zbek tilshunosligi va manbashunoslik tarixida ilk hujjatchilik namunalari hisoblanadi. Ular tasdiqnoma, shahodatnoma, uyezd hokimiga yozilgan rasmiy xat namunasi, ikki kishi o‘rtasida yoziladigan tilxat, ma’lumotnoma va boshqa turli rasmiy namunaviy hujjatlardir.

Muallif ish yuritishda so‘zning qudrati, so‘zning muhimligiga alohida e’tibor qaratib, har bir so‘zni o‘z qoidasi, o‘z imlosi bo‘yicha yozish talab etilishi ko‘rsatiladi.

Xullaski, Behbudiyning “Kitobat ul-atfol” kitobi davlat tilida ish yuritishning, o‘zbek tili va adabiyotining manbasi sifatida tarixiy qimmatga ega. U bir asrdan oshganligiga qaramasdan hali ham o‘z kuchini yo‘qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рисолайи Китобат ул-атфол. Табъи соний, мураттиб ва ноширн Самарқандда Махмудхўжа Беҳбудий. Самарқанд, 1908 милодий/
2. Беҳбудий М. Китобат ул-атфол/ Шарқ юлдузи, 2020. №5. Б. 107-111.
3. Авазов Н. Беҳбудийнинг туҳфаси/ Шарқ юлдузи, 2020. №5. Б. 105.
4. Беҳбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият”,. - Б. 2017.
5. Беҳбудий М. Китобат ул-атфол/ Шарқ юлдузи, 2020. №5. Б. 107-111.

Aziza SHODIKULOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Tillar kafedrasi dotsenti, PhD

METONIMIYA HOSILALARINING KOGNITIV-DISKURSIV TAHLILI

Annotatsiya: maqolada “diskursiv metonimiya”, uning leksik metonomiyadan farqli belgilari, jumladan, matnda voqelanib, undan tashqarida mavjud emasligi, alohida so‘z bilan bir qatorda so‘z birikmasi va gap ko‘rinishida faollashuvi kabilar tahlil etilgan. Diskursiv metonimiya vositasi bo‘lgan nutqiy tuzilmalar tarkibidagi birliklarning noodatiy birikuvi emotsional–ekspersiv ifodaga yo‘l ochib berib, ularning mazmunini kontekstdan tashqarida anglash qiyinlashadi.

Kalit so‘zlar: *metonimiya, ma’no ko‘chim, lingvistik tahlil, shakl va tushuncha, diskursiv.*

Аннотация: в статье анализируется «дискурсивная метонимия», ее отличия от лексической метонимии, такие как то, что она встречается в тексте и не существует вне него, а также ее активация в виде словосочетания и предложения. Необычное сочетание единиц в структуре речевых структур, являющееся средством дискурсивной метономии, уступает место эмоционально–экспрессивному выражению, затрудняя понимание их содержания вне контекста.

Ключевые слова: *метонимия, переносимость значения, лингвистический анализ, форма и понятие, дискурсивный.*

Annotation: the article analyzes "discursive metonymy" and its distinctive features from lexical metonymy, including the fact that it occurs in the text and does not exist outside it, and its activation in the form of a word combination and sentence, along with a separate word. The unusual combination of units within speech structures, a tool of discursive metonymy, makes it difficult to understand their content from outside the context, paving the way for emotional–expressive expression.

Key words: *metonymy, meaning migration, linguistic analysis, form and concept, discursive.*

Metonimiya so‘z ma’nosi o‘zgarishini ta’minlovchi vositalardan biri hisoblanadi. Leksik birliklarni ma’no rivoji esa turli ko‘rinishlarga ega. Ma’noning ifoda doirasi kengayishi yoki torayishi, mavhum holatga kelishi yoki aniq ko‘rinish olishi mumkin. Bunda mavjud ma’nodagi o‘zgarishlar, hosila ma’nolarning paydo bo‘lishi alohida ahamiyatga ega [1].

“Metonimiya (yunon. Metonomia - qayta nomlash, boshqa narsa orqali atash) - ma’no ko‘chimning kam tarqalgan turlaridan biri, ko‘chimning narsa-hodisalar orasidagi aloqadorlikka asoslanuvchi turi” [3: 172].

Keltirilgan ta’riflarning barchasida assotsiativ o‘xshashlik xususiyati umumiy ko‘rsatkich sifatida ko‘rsatilib, metonimik ma’no ko‘chimining asosiy tayanch nuqtasi ekanligi alohida ta’kidlanmoqda. Xuddi shu xususiyat boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ham qariyb bir xilda takrorlanib kelinmoqda.

Bizningcha, “assotsiativ o‘xshashlik” tushunchasini keng ma’noda anglash lozim bo‘ladi. Chunki bu yerda “o‘xshashlik” ma’lum munosabatlarda bo‘lgan narsa-hodisalarning o‘zaro aloqasi mazmunida qabul qilingan. Ma’no ko‘chimi real mavjud bo‘lgan predmetlar munosabati o‘zaro o‘xshashlikka, yaqinlikka asoslanganidagina yuzaga keladi.

V.N.Teliya aytganidek, “metonimik usulda hosil bo‘lgan nom o‘z shakllanish xarakteriga nisbatan xabar berilayotgan axborotni alohida ajratib ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘ladi” [Teliya, 1977: 212].

Mashhur leksikolog N. N. Amosova o‘z paytida metonimik ko‘chimlarning o‘ziga xosligini, ularning paydo bo‘lishi “oddiy nomlash harakati bilan chegaralanib qolmasdan, balki narsa-hodisalarga tavsif berish ehtiyoji” bilan bog‘liq ekanligini qayd etib o‘tgan edi [4: 212].


An’anaga binoan, metonimiya muhitda ma’no taraqqiyotining ko‘rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Metonimiyaning konseptual hodisa sifatida talqin qilinishi uning faqat ikkita tushuncha munosabati hosil bo‘lishini e’tirof etib, boshqa turdagi munosabatlarning inkor etilishiga olib kelmasligi kerak. Zero, metonimik munosabatlar lisoniy shakllar va nolisoniy referentlar hamda lisoniy shaklning unga muqobil tushuncha bilan uchrashuvida ham namoyon bo‘ladi. Metonimiya bizning olam va til haqidagi bilimimizda bir xilda mavjud bo‘ladi. Demak, metonimiya til va olamning ideal kognitiv modeli aloqadorligida faollashadi. Bu aloqadorlik lisoniy, nolisoniy va konseptual ko‘rinishlarga ega [5].

Ammo lingvistik tahlilda biz real voqelikdagi narsalar, hodisalar, harakatlar bilan ish ko‘rmasdan, balki ularning tafakkur olamimizda aks topgan nusxalarini tavsiflaymiz. So‘zlar, gaplar va to‘liq matnlarni voqelikdagi mavjudlikka nisbatan emas, balki bizning tasavvurimizga muvofiq ravishda tasvirlaymiz. Mazkur tadqiqotimizda biz asosiy e’tiborni metonimik jarayonlarning matn doirasida kechishi bilan bog‘liq jihatlarini yoritishga harakat qildik va bunda lisoniy shakllarning tushunchalar dunyosi bilan bog‘lovchi tomonlarini aniqlash hamda ularni izohlash birlamchi vazifaga aylanadi.

Al-Sharafi taklif qilgan metonimiyaning matn nazariyasiga tayangan holda manbasi shakl yoki tushuncha bo‘lishi mumkin bo‘lgan modelni tanlashni ma’qul ko‘rdik. Ushbu modelda metonimik tafakkurni harakatga keltiruvchi vosita yoki lisoniy shaklning o‘zi yoki u tomonidan voqealantirilgan tushunchadir. U holda mo‘ljaldagi birlik ham formal yoki konseptual ko‘rinishni oladi. Taklif qilinayotgan model tilning semantik tabiatiga mos tushadi, zero til tizimi shakl va tushuncha uyg‘unligini taqoza etadi.

Shunday qilib, gazeta xabarlari matnida metonimiya bajaradigan vazifalar tahlilini amalga oshirish uchun funksional diskursiv va kognitiv yondashuvlarni umumlashtirgan holda tatbiq etish lozim, deb hisoblaymiz. Zotan, muloqot va tafakkur yuritish jarayonlarining metonimik xususiyatlarini belgilash va izohlash uchun matnning metonimik tuzilishini bilishimiz zarur. Tadqiqotning bu yo‘sindagi nazariy dasturini quyidagicha tasvirlash mumkin. (Chizma 1):

Chizma 1. Taklif qilinayotgan nazariy dastur



Metonomik voqelanish
Shakllar

Ushbu modelning muhimligi uning tarkibida ijtimoiy voqelik, tushunchalar va shakllarning o‘zaro bog‘liqlikda, aloqada ekanligida namoyon bo‘ladi. Tushunchalar mental hodisalar bo‘lib, olamdagi narsa-hodisalar haqidagi tasavvurni aks ettiradi. Har qanday tushuncha insonlarning ijtimoiy voqelik borasidagi tajribasiga asoslanadi. Til tizimi ham shu yo‘sinda inson ongida to‘plangan tushunchalardan tashkil topadi va ulardan foydalanish kognitiv tamoyillarga asoslanadi.

Lisoniy shakllar, aslini olganda shu tamoyillarning faollashuvi natijasidir. Lisoniy shaklning bajaradigan vazifasi ongdagi tushunchani voqelantirishdir. Y.S.Kubryakova ishontirishicha, konseptualashuv jarayoni tildagi tushunchalar bilan birgalikda sof fikrni ham paydo qiladi. Tafakkur va lison bir-birini takrorlamaydi, chunki ongda mavjud bo‘lgan hamma tushunchalarni shaklan voqelantirishga tilning qudrati yetmay qolishi mumkin [6: 287].

Lisoniy belgi shakl va tushunchaning o‘zaro bog‘lanishidir. Tushunchalar o‘z navbatida, tafakkur faoliyati va tajriba zamirida shakllanadi. Ijtimoiy borliqdagi biror bir hodisani turli shaxslar turlicha tushunishi ham kuzatilgan hol. Demak, til inson lisoniy tafakkur faoliyatining yaxlit ko‘rinishidan kechishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Миртожиев М. Переносные значения: их манифестация, в узбекском языке. Автореф дисс… док. филол наук. -Ташкент, 1989.
2. Суванова Р. Ўзбек тилида метономия. –Тошкент: Халқ мероси, 2003.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик терминлари луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 408.
4. Амасова Н.Н. К вопросу о лексическом значении слова// Вестник ЛГУ. Серия история языке и литре. Вып. 1.1967. №2.
5. Al-Sharafi A. Textual Metonymy: A Semiotic Approach. -N.Y.: Palgrave Macmillian, 2004.
6. Сафаров Ш. Тил назарияси ва лингвометодология. -Тошкент: Баёз, 2015.
7. Zikiryaevna, S. A. (2022). DISCURSIVE ANALYSIS OF DERIVED METONYMIE. Journal of Positive School Psychology, 1588-1592.
8. Shodikulova, A. Z. (2021). Methodology For Using Computer Training Programs In English Lessons. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(13), 3358-3367.
9. Baxtiyarovna, B. D., Xolmurodovna, M. S., Nabiyevna, H. K., Maxammadovna, K. N., & Abdumannopovna, R. X. (2019). Modern methods in learning English. International scientific review, (1 (41)), 32-35.



Arofatoy MUYDINOVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
dotsenti v.b.
amuydinova73@gmail.com

BOSITXON HARIQIY MUVASHSHAHLARI

Annotatsiya: maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiy jarayonda faol qatnashgan shoir va olim Bositxon Hariqiy ijodida keng o‘rin berilgan muvashshah-g‘azallar va ularda qo‘llanilgan she’riy san’atlar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *adabiy muhit, shoir, devon, muvashshah-g‘azal, bayt, she’riy san’at, aqd, iqtibos.*

Аннотация: в статье рассказывается о мувашшах-газелях и поэтических искусствах, широко представленных в творчестве поэта и ученого Баситхана Харики, активно участвовавшего в литературном процессе второй половины XIX - начала XX веков.

Ключевые слова: *литературна, поэт, девон, мувашшах-газель, бейт, поэтическое искусство, цитата.*

Annotation: the article describes the muwashshahs and poetic arts widely represented in the work of the poet and scientist Basithan Hariki, who actively participated in the literary process of the second half of the XIX - the beginning of the XX centuries.

Key words: *literary, poet, devon, muwashshah-ghazal, bait, poetic art, quotation.*

Ma’lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi Toshkent adabiy muhitining shakllanish davri bo‘ldi. Bu davrda Miskin, Xislat, Sidqiy Xondayliqiy, Kamiy, Almaiy, Hariqiy, Tavallo, Avloniy singari ko‘plab ijodkorlar yetishib chiqdi.

Toshkent adabiy muhiti vakillaridan olim va shoir Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy Hariqiy XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiy jarayonda qatnashgan va o‘sha davrdagi yetuk shoirlar Kamiy, Xislat, Miskin, Sidqiy kabi shoirlar bilan mustahkam aloqada bo‘lgan[1:6]. Hariqiy ijodida muvashshah-g‘azallar salmoqli o‘rin egallaydi. Shoir devonida Akbarxon, Mullo Abdulfattohxon, Mullo No‘monjon, Mullo Mahkamxon, Hojixon, Nuriddinxon, Mirqosimxon, Mullo Ahmadjon, Mirhidoyat qori, Inoyat qori, Nizomiddin qori kabi shaxslar nomlariga bitilgan jami 34 ta muvashshah-g‘azali mavjud. E’tiborlisi, shoir yaratgan muvashshahlarning aksariyati diniy-tasavvufiy mavzuda. Madqosimxon nomi bilan ziynatlangan “Izhor etay” muvashshah-g‘azali matni quyidagicha:

Masoliki silki muhabbatlikni man izhor etay,
Sajda aylab gul yuzingg‘a uzru istig‘for etay.
Yodi vasling-la ibodatda agar sahv aylasam,
Tavba-yu taqsir etib ham sajdani takror etay.
Dil bilan aylab tavajjuh ka’bai ruxsoringga,
Til bilan takbiru ta’zimingni ham iqror etay.

Qonmu sobit bo‘lub zikru xayolingg‘a mudom,
Jumlai vasfi jamoling kechalar iksor etay.
Oh urub hasrat bilan hajringda toqat qolmadi,
Arzi holim xizmatingg‘a noiloj axbor etay.
Sirri maxfiy dilda qat-qat erdi bargi g‘unchadek,
Fosh qilmak har birini aybdur nochor etay.
Mehnati hajring ila ko‘ksim choku jismim xarob,
Arzi holim ishtiyoqi suhbatu diydor etay.
Xokbo‘si dargahing bo‘lsa muyassar xastag‘a,
Xoki poyingg‘a o‘shal dam jonimi iysor etay.
Iltifot aylab mayi vasling qulingni shod qil
Toki shavqing-la tomomi ag‘yorni inkor etay.
Necha muddatdur Hariqiy vasling aylar orzu.
Demading san bir yo‘li mehmon gulruxsor etay.

Shoir ijodida bir shaxs nomiga bir necha muvashshah bitilgani kuzatiladi. Jumladan, Mullo Abdulfattohxon nomiga 6 ta, Mirhidoyat qori – Mullo Hidoyat qori nomiga 12 ta, Mullo No‘monjon – No‘monxon – Hoji No‘monxon nomiga 4 ta, Inoyat qori nomiga 2 ta, Mullo Mahkamxon nomiga 2 ta, Mullo Ahmadjon nomiga 3 ta muvashshah-g‘azal yozilgan.

Bositxon Hariqiy muvashshahlari, asosan, erkaklar nomiga bitilgan. Shuningdek, boshqa shoirlarda kam uchraydigan holat – shaxslar nomi va nisbalari to‘liq berilgani bois she’rdagi baytlar miqdori 17 tagacha yetgan muvashshahlar mavjud. Shoirning Mullo Abdulfattohjon nomiga bitilgan “Nishi xolingdin” muvashshah-g‘azali ham an’anaviy g‘azallardan hisoblanib, baytlari soni eng ko‘p muvashshah-g‘azallardan sanaladi (17 bayt).

XIX asrning oxiri – XX asr boshlari o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida muvashshah yozmagan shoirni topish mushkul. Muvashshahlarga faqatgina shakl hodisasi emas, balki badiiyat mezonlari asosida yondashilganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, Furqat, Muqimiy, Muhyi, Haziniy, Zavqiy, Qoriy kabi shoirlar muvashshah-g‘azallarning badiiy yetuk namunalarini yaratganini ta’kidlash kerak. Akademik A.Qayumovning: “Biz tahlil uchun Furqatning yuksak she’riy qobiliyati, boy va o‘tkir tafakkurga xos g‘azallarini olamiz[5:46]”, – deya e’tirof etib, tahlilga tortgan g‘azallari orasida muvashshahlarning ham borligi fikrimiz dalilidir.

Mumtoz nazmiy an’analarni munosib davom ettirishga intilgan ijodkorlar yaratgan muvashshahlarning mavzu ko‘lamini, asosan, ishqiy (majoziy), diniy-tasavvufiy hamda ijtimoiy mavzular tashkil etadi.

Azaliy va abadiy mavzulardan bo‘lgan ishq mavzusini har bir ijodkor yangicha va o‘ziga xos poetik talqinda aks ettirishga intildi. Zero, adabiyotshunos Rahim Vohidov aytganidek: “Ishqni kuylamagan shoirni va ishq dardi aralashmagan she’rni topish mutlaqo mumkin emas”[4:142]. Jumladan, g‘azal aksariyat ishq haqida yoziladi. Ishq esa ikki mazmunni: majoziy (insoniy) va ilohiy (haqiqiy) ishqni anglatadi. Har ikkisining ifoda vositalari, obraz, timsollarida o‘xshashlik bor. Qolaversa, tasavvuf ta’limoti bo‘yicha, borliq, inson yoki go‘zal yor ham Haq jamolining jilvasi. Demak, unga muhabbat Ollohga bo‘lgan ishq darajasiga yetishi kerak. Shoirlar o‘z salohiyatlarini ko‘proq mana shu doirada namoyish etganlar. Adabiyotshunos Y.Is’hoqov Alisher Navoiy asarlarida ishq masalasini tahlil qilar ekan, majoziy ishq haqiqiy ishqqa qarama-qarshi qo‘yilmasligini ta’kidlab, shunday yozadi: “...majoziy ishq ishqi haqiqiyning bir ko‘rinishi yoki haqiqiy ishq yo‘lidagi o‘ziga xos bosqich sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma’naviy komil inson uchun majozning o‘zi ayni haqiqatdir”[3:25].

Muvashshahlarning ham salmoqli qismini ishqiy lirika tashkil etadi, deyarli barcha janrdagi muvashshahlarda ayni janr imkoniyatiga qarab ishq tarannum etilgan. Aksariyat shoirlar ijodida har ikki ishq talqin qilinib, ishqning xosiyati, oshiqning ruhiy holati, ishq sababli qalb va ruhning kamolga erishuvi xususida so‘z boradi. Muhabbat lirikasidagi yetakchi timsollar ham ishq, oshiq, ma’shuqa, raqibdir. Bu timsollar orqali insoniy ishq kechinmalari obrazli tasvirlanadi.

Ijodkorning iymon-e’tiqodi, dunyoqarashi, hayot haqidagi xulosalari uning asarlarida aks etishi ma’lum. Xususan, Bositxon Hariqiyning diniy-tasavvufiy mavzuda yozgan muvashshahlarida uning mustahkam e’tiqodli shaxs bo‘lgani o‘z aksini topgan. Bu, ayniqsa, oyat va hadislarga murojaat qilingan she’rlarida yaqqol ko‘rinadi. Shoirning hazaji musammani solim vaznida yozilgan Mullo Abdulfattohjon nomi bilan ziynatlangan “Munavvar qildi” muvashshah-g‘azalida quyidagi bayt mavjud:

Ibodatxonadur ishq ahlig‘a qoshingni mehrobi,
Erur virdi zaboni iltijoi “na’budu iyyok”.

Oldingi misra sof lirik mazmun bersa, keyingisiga nasrni nazmga aylantirish san’ati hisoblangan aqd san’ati vositasida irfoniy ma’no yuklanmoqda, ya’ni Qur’oni Karimning “Fotiha” surasidagi 4-oyatiga ishora qilinadi: “Biz sengagina ibodat qilurmiz” (Qur’on, 1/4) [1:112]

Mumtoz she’riyatimiz badiiyatini ta’minlagan she’riy san’atlardan biri *iqtibos* san’atidir. “Ilm o‘zlashtirmoq”, “o‘zaro foydalanmoq” ma’nolarini anglatuvchi bu san’at asosida ijodkorlar ishqiy va ma’rifiy mazmundagi badiiy mukammal asarlar yaratganlar. Keng ma’noda iqtibos “bir so‘z yoki yozuvni bo‘lgani kabi yo qisqartirib olmoq. Biridan ilman istifoda etmoq... So‘z orasida Qur’oni Karimdan yoxud Hadisi sharifdan yo boshqa maqbul asarlardan bir jumlaning to‘liq yoki qisman oz tasarruf ila yoxud tasarrufsiz olinishi”ni anglatadi[3:128]. Demak, iqtibos san’ati Qur’oni Karim yoki Hadis ilmi bilan bog‘liq bo‘lib, ijodkor o‘z fikrini asoslashda ana shu ikki manbaga tayanadi. Atoulloh Husayniy bu haqda quyidagi ta’rifni beradi: “Iqtibos mashhur qavlg‘a ko‘ra, Qur’on yo Hadisdin bir nimani aning Qur’on yoki Hadisdin oling‘anig‘a ishora bo‘lmag‘an tarzda kalomg‘a kiritmaktin iborattur”[2:242]. Qur’oni Karim oyatidan yoki hadisi sharifdan bir tayanch so‘z, ibora yoki jumla aynan keltiriladi. Shoir Hariqiyning Mullo Abdulfattohjon nomiga yozgan “Manga ro‘zi azalda” sarlavhali muvashshah-g‘azalida quyidagi bayt mavjud:

Labim ro‘zi “alastu”da javobidin xato aylab,

“Bala”ni o‘rniga dedi “balo” bo‘ldum bugun majnun.

Baytning birinchi misrasida Qur’oni Karimdagi “Dedi: “Oyo, Man sizlarning Rabbilaringiz emasmanmi?” Dedilar: “Oriy, Rabbimizdursan, bizlar shohid bo‘ldik”, oyatiga ishora qilingan (Qur’on,7/172).

Mullo Mahkamxon nomiga muvashshah qilingan “Iqtisob” g‘azalidagi quyidagi baytda ham shoir Qur’oni Karim oyatini iqtibos keltiradi:

Ma’niyi oyati “xalaqal mavta val-hayot”,

La’ling tabassumiyu ko‘zing g‘amzig‘a kitob, –

ya’ni “Ul xudoki, paydo qildi o‘limni va tiriklikni sizlarni sinash uchun” (Qur’on,67/2). Shoirning ayni mavzudagi Mullo Abdulfattohjon ismi bilan ziynatlangan “Ruxsori ra’nodin” muvashshah-g‘azalining bir necha baytlarida ham iqtibos san’atidan foydalanilgan:

Tamoshai jamoli xalq uchundur ne’mati behad,

Valekin ne’mati behad manga “nahnu qasamno” din, –ya’ni “Oyo, ular Parvardigoringizning rahmatini taqsim qilmoqchilarmi?” (Qur’on, 43/32)

Yoki

To‘karman ashki hasrat vosil o‘lg‘ondin beri doim,

Bo‘lub virdi zabonimdur shab “inna zolamna”din,[1:84] –baytidagi ikkinchi misrada Qur’oni Karimdagi quyidagi oyat iqtibos keltirilgan: “Ul ikkilari dedilar: “Ey bizning Rabbimiz, o‘z jonimizga zulm qildik” (Qur’on, 7/23).

Yoki quyidagi baytning ikkinchi misrasida ham iqtibos qo‘llangan:

Ishora bo‘ldi husnig‘a kalomi “ahsan ul-husno”,

Budur fahvoyi Qur’on oyati “inno xalaqno”, –

ya’ni “Albatta, Biz insonni aralashgan bir maniy qatrasidan yaratdikki, uni sinarmiz” (Qur’on, 26/2).

Xullas, bunday asarlar mutolaasi bugungi va kelajak avlodlarning ma’naviyatini baquvvat, e’tiqodini mustahkam qilishga, ular qalbida ezgu tuyg‘ularni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy (Hariqiy). Devoni Hariqiy (Nashrga tayyorlovchi M.Hasaniy). – T.: Fan va texnologiya, 2009.
2. Husayniy A. Badoyi’us-sanoyi’. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
3. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T.: Fan, 1983.
4. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1996.
5. Qayumov A. She’riyat jilolari. – T.: O‘qituvchi, 1997.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010.
7. Qur’oni Karim (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur).– T.: Cho‘lpon, 1992.

Gulsanam XOLIKULOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
gulsanamyorqulovna@mail.ru

SEYDI ALI RAISNING “MIR’OTUL MAMOLIK” ASARIDA MUHAMMAD HUMOYUN DAVRI ADABIY MUHITI TASVIRI

Annotatsiya: maqolada turk admirali Seydi Ali Raisning “Mir’otul mamolik” asaridagi ma’lumotlar asosida boburiy hukmdor Muhammad Humoyun davri adabiy muhiti, uning turkiy tilga bo‘lgan munosabati, adabiyot homiysi sifatidagi faoliyati, ota yurti Movarounnahr bilan adabiy aloqalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Seydi Ali Rais, “Mir’otul mamolik”, Muhammad Humoyun, shoir va olim, adabiyot homiysi, turkiy til, adabiy aloqa.*

Аннотация: в статье на основе информации произведения турецкого адмирала Сейди Али Раиса «Миръатул Мамолик» рассмотрена литературная атмосфера времени правителя Мухаммада Хумаюна, его отношение к турецкому языку, его деятельность как покровителя литературы, а также освещены его литературные связи с родиной Моваруннахром.

Ключевые слова: *Сейди Али Раис, «Миратул Мамолик», Мухаммад Хумаюн, поэт и учёный, покровитель литературы, турецкий язык, литературное общение.*

Annotation: the article, based on the information from the work of the Turkish admiral Seydi Ali Rais "Miratul Mamoliq", examines the literary atmosphere of the time of the ruler Muhammad Humayun, his attitude to the Turkish language, his activities as a patron of literature, and also highlights his literary ties with his homeland Movarunnahr.

Key words: *Seydi Ali Rais, "Miratul Mamoliq", Muhammad Humayun, poet and scholar, patron of literature, Turkish language, literary communication.*

Boburiy hukmdorlardan Nosiriddin Muhammad Humoyun (1508-1556) Hindistonda boburiylar adabiy muhitining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan madaniyat homiysi, shoir va olim, boburiylar miniatyura maktabining asoschisidir. Hindistonda XVI asr ikkinchi choragidagi adabiy muhit rivoji bevosita Humoyun Mirzoning hukmronligi va ilm-fan, san’at, adabiyotga homiyligining natijasi edi. Humoyun Mirzo ham otasi Zahiriddin Muhammad Bobur boshlab bergan an’analarga alohida e’tibor qaratib, ilm-fan va madaniyat ahlini qo‘llab-quvvatladi. Natijada Hindistonga kelib ijod qilishga harakat qilayotgan adib va san’atkorlar safi borgan sari kengayib bordi. Bu haqida bir qancha tarixiy, adabiy manbalarda, jumladan, turk admirali Seydi Ali Raisning “Mir’otul mamolik” (“Mamlakatlar ko‘zgusi”) nomli xotira kitobida o‘ziga xos tarzda e’tirof etilgan. [9]

Seydi Ali Rais “Mir’otul mamolik” asarida boburiylar davri adabiy muhiti, bu adabiy davraning yirik vakillari haqida batafsil to‘xtalib o‘tmagan bo‘lsa-da, Humoyun podshoh saroyida qisqa muddatgina yashagan davrida ko‘rgan-kechirganlarini yozib qoldirgan. U Humoyun Mirzo saroyida bo‘lib o‘tgan adabiy davralarda, oliy majlislarda ishtirok etgan. O‘z ko‘rganlari asosida hukmdorning ilm-fan, san’at, adabiyotga qo‘shgan ulkan hissasi va xizmatlarini o‘rinli e’tirof etgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Dehlida Humoyun podshoh saroyida Hindistonning eng yaxshi shoirlari forsiy, hindiy, urdu hamda turkiy tillarida muntazam mushoiralar o‘tkazilgan. Humoyunning o‘zi turkiy va forsiy tilda ijod etgan nozik lirik shoir, san’at va she’riyat ixlosmandi sifatida turkiy tilga va shu tildagi adabiyotga bee’tibor bo‘lmagan, aksincha, o‘z ajdodlari tilini qo‘llab-quvvatlagan, o‘z saroyida shu tilda ijod etishga sharoit yaratgan. Bu haqda “Mir’otul mamolik” asarining “Hindistonda yuz bergan sarguzashtlar bayoni” sarlavhali qismida alohida to‘xtalib o‘tilgan [9; 75-91]. Seydi Ali Raisning o‘zi ham “Kotibiy” taxallusida ohorli she’rlar yozib, Humoyun podshoh e’tiboriga tushgan. Hatto Seydi Ali Raisga hukmdor (Humoyun – X.G.) tomonidan ayrim she’rlarga javob qaytarishdek mas’uliyatli vazifalar ham topshirilgan. Jumladan, Sulton Mahmudning maktubidagi Yoriy taxallusli shoirning quyidagi baytiga javob yozishni taklif etgan. Seydi Ali Rais tomonidan yozilgan javob g‘azal Humoyun podshohning tahsiniga sazovor bo‘lgan:

Yoriy maktubi:
Za’faronlik panjasi kun panjasini qildi past,
Bu masal mashhurdirki, “dast bar baloyi dast”.
Seydi Ali Rais (Kotibiy) javobi:
Dasti xun oluding etdi panjai marjonni past,
Bu masaldir el arokim, “dast bar baloyi dast”.
Ul labi maygun agar majlisda bir dam bo‘lmasa,
Soqi qon yig‘lab, surohi jomi may bo‘lsin shikast.
Masti ashqa ahli taqvo ta’ni qo‘ysun, aytingiz,
Doimo hushyor arosida bo‘lur ma’zur mast.
Zohirin ko‘rma kishining, botiniga qil nazar,
Zohido, ma’niga boq, odam emas suratparast.
Boisi kayfiyatingni qayda zavq etgay sening,
Ichmagan Vahdat sharobin Kotibiy ro‘zi alast.

Muallif bu haqda shunday yozadi: “Bu g‘azalim podshohga ko‘p ma’qul bo‘ldi. U kaminani “Ikkinchi Mir Alisher” deb maqtadi. Faqir: “Hali Mir Alisher (Navoiy) ga yetish qiyin; hattoki, uning payravi bo‘lib, rezgilarini terib, olish quvvatiga ega bo‘la olsam, shunga ham roziman”, – degan edim, yana podshoh “Xudo haqi, bir yil shunday harakat etsang, chig‘atoy urug‘i orasida Mir Alisherni unuttirasan”, – deb menga ancha lutf, navozish qildi” [9; 81-82].

Mazkur suhbat haqida Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarida ham ma’lumotlar bor. Asar tarjimasining so‘zboshisida tarixshunos olima, akademik S.Azimjonova alohida to‘xtalib, shunday yozadi: “Bobur vafotidan so‘ng davlat tili garchi fors tili hisoblansa ham, Humoyun saroyida o‘zbek tilida gaplashganlar va “chig‘atoy” tili deb yuritilgan eski o‘zbek tilida she’r yozgan shoirlar ham bo‘lgan. Humoyun saroyida bir necha yil yashagan mashhur turk sayyohi Seydi Ali Rais Humoyunga bag‘ishlab o‘zbek tilida ajoyib she’rlar yozgan va uni Humoyun podshoh “Alisheri soniy” deb atagani haqida Gulbadanbegim asarida ma’lumotlar bor” [3; 25].

Keyinchalik akademik S.Azimjonova ushbu fikrlarini “Seydi Ali Rais va uning “Mir’otul mamolik” asari haqida” nomli so‘zboshisida yana bir bor ta’kidlab, shunday yozadi: “Seydi Ali Rais Humoyun va uning saroyidagi kishilarning fan va madaniyat arboblariga bo‘lgan katta hurmatlari masalasiga to‘xtab, Humoyun podshohning adabiyotga munosabati haqida ayrim fikrlarni bayon qiladi. Uning bu ma’lumoticha, Dehlida, Humoyun saroyida buyuk Alisher Navoiy tili, o‘sha zamon termini bilan aytganda, chig‘atoy turkiysi, ya’ni o‘zbek tilida she’r yozish, mushoira etishga ko‘p o‘rin berilgan. Humoyun saroyida uning har xil lavozimdagi yaqinlari o‘zbek tilida she’r yozganlar va saroydagi bo‘ladigan mushoiralarda o‘z she’rlari bilan ishtirok etganlar” [9; 32-33].

“Mir’otul mamolik” asarida yozilishicha, muallif Seydi Ali Rais ham ana shu mushoiralarning doimiy ishtirokchisiga aylangan. U o‘zining Hindiston fathiga bag‘ishlab turkiy va forsiy tilda aralash yozilgan bir tarix she’rini hamda turkiy tildagi ikki g‘azalini ilk uchrashuvdayoq Humoyun podshohga tuhfa qilganligini va bu g‘azallar podshohni zavqlantirganini yozadi. Humoyun podshohni zavqlantirgan birinchi turkiy g‘azal quyidagi:

Agarki holima rahm etmagay habiyb mening,
Iloji qayda topar dardima tabiyb mening
Visoli yori menga qilmas erdi Haq ro‘zi,
Azaldin, e dil, agar bo‘lmasa nasiyb mening.
Sharobi la’ling ichib mast o‘lindi, ey soqiy,

Magarki kirmagay ilgimga hech raqiyb mening.
Ravomidir demagaysan mening uchun hargiz,
Nechukdurur g‘ami hajrimdin ul g‘ariyb mening.
Yuzini Kotibiy ko‘rgach, hazor ishva bilan,
Qul etdi ko‘nglimi ul sho‘xi dilfiriyb mening.
Ikkinchi turkiy g‘azal:
Vasl umidi yo‘q mening mushtoqi ro‘yi yor men,
Orzu qilmam behishti oshiqi diydor men.
Ey tabibim, eshiging dorushshifosidan menga,
Sharbati la’lingni ber, darding bilan bemormen.
Aql-u, fikr-u, sabr-u hushim qildik, yag‘mo ishqi yor,
Vodiyi hijronda qoldim ne qilay nochormen.
Majlisi xossa raqiybi ro‘siyahni charlama,
Soqiyo, shakli qabiyhidin oning bezormen.
Kotibiy Xisrav bo‘libdir nazm aro shayrin kalom,
Vasfi la’li yor birla men shakar guftormen. [9; 77-78]

Muallifning yozishicha, podshoh mazkur g‘azallardan ancha zavqlangan, lekin unga o‘z yurti Rumga ketishga ruxsat bermagan. Qachonki, zij va taqvim vositasi bilan quyosh tutilishi (kusuf), oy tutilishi (xusuf) vaqtini bilishni, usturlobdan foydalanishni, umuman, astronomiyani o‘rgatsa, ruxsat berilishini bildirgan. Shu sabab bir muddat Humoyun saroyida bo‘lgan Seydi Ali Rais adabiy muhit ishtirokchisiga aylangan.

“Mir’otul mamolik” asarida hukmdor atrofidagi xos kishilarning ijodkorlik qobiliyatini ko‘rsatuvchi bir necha voqealar, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq tasvirlar ham uchraydi. Jumladan, Humoyun podshohning safdoshi, uning o‘qlarini qo‘riqlovchi vazifasini bajargan Xushxolbek hamda saroyda oftobachi lavozimida bo‘lgan, podshohning ishonchli kishilaridan biri Mirzo Abdurahmon, podshohning eng yaqin kishisi, sirdoshi va muhrdori Shohinbek kabilar ana shu mushoiralarda faol qatnashgan turkiygo‘y shoirlardan bo‘lgan. Hatto Seydi Ali Raisning o‘zi ham ular bilan mushoiraga kirishib, turkiy tilda ularga bag‘ishlab yoki ularning taklifiga ko‘ra she’rlar yozgan, ularga maqtovli misralar tuhfa etgan va podshohning oliy majlislarida o‘qigan. Bu haqda asarda shunday yoziladi: “Podshohning yaqin mirzolaridan Xushholbek ismli bir yigit bilan tanishdim. U podshohning o‘q-yoyini qo‘riqlar, saroydagi mushoiralarga qatnashib turar edi. Bir kun suhbat vaqtida bir munosabat bilan u menga ikki g‘azal yozishimni taklif etdi; qofiya va radifni ham tayin qildi. Ertasi kun g‘azallarni yozib keltirib, podshohning oliy majlisida o‘qidim…

Shu g‘azallarim Hind viloyatida shuhrat topdi; hamma yod olib o‘qiy boshladi. Men mirzolardan podshohning oftobachisi Abdurahmon bilan tanishdim. U ham podshohning yaqin do‘stlaridan bo‘lib, uning (podshoh Humoyunning – X.G.) ishonchiga sazovor bo‘lganlardan biri edi. Ko‘pincha, u podshohning xos suhbatlarida o‘tirar, adabiy bahslarga qatnashardi. U bilan ham bir necha marta mushoira etdim va bir munosabat bilan ikki g‘azal yozib, unga taqdim qildim. Shunday qilib, ular bilan kecha-kunduz tinmay bahslashardim” [9; 82-83].

Yuqoridagi ma’lumotlardan bilish mumkinki, Humoyun podshoh davrida turkiy tilning mavqei ancha yuqori va turkiy tilli ijodkorlar salmoqli bo‘lgan. Hatto xalqaro miqyosda va saroy vakillari o‘rtasida yozishma va maktublar ham aksariyat hollarda turkiy tilda bo‘lgan. Jumladan, Sulton Mahmud Bakari va uning vaziri Mulla Yoriylarning Seydi Ali Raisga turkiyda yozgan maktublari fikrimiz dalilidir [Qarang: 9; 79-81]. Adabiyotshunos G.Y.Aliyev, N.Nizomiddinovlarning tadqiqotlarida ham o‘sha vaqtlardagi yozishmalar, xususan, Humoyun va Bayramxon o‘rtasidagi yozishmalar va ulardagi she’rlarning ayrimlari turkiyda bitilgani e’tirof etilgan [2; 12, 8; 4]. Ma’lum bo‘ladiki, podshoh Humoyun o‘z davrida turkiy tilga alohida e’tiborda bo‘lgan, saroy adabiy muhitida bu tilda ijod etishni qo‘llab-quvvatlagan.

Shuningdek, Humoyun Mirzoning o‘zi ham forsiy til qatori turkiy tilda ham ijod etgan. Bu haqda bir necha manbalar ma’lumot beradi. Jumladan, Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” asarida shunday yozadi: “Va bu turkiy matla’ ham podshohning oliy maqolotidandir. Matla’:

Menki bulbuldek gulidin kuymisham ohang ila,
O‘t solibtur jonima ruxsorai gulrang ila”. [12; 57]

Muhammad Ali Sodiqbek Sodiqiy Afshar Kitobdorning “Majma’u-l-xavos” (“Xoslar majmuasi”) asarida esa Humoyun haqida muxtasar ma’lumot berilib, uning turkiy tilda yozilgan quyidagi ikki bayti o‘z davrida nihoyatda keng tarqalgan va mashhur bo‘lganligi ta’kidlangan: “Humoyun podshoh – nihoyatdin mutajovuz, karim ul-tab’ va saxovatpesha va xushsaliqa podshoh erdi. Kitobxona ziynati va ravnaqig‘a ko‘p moyil erdi. Abulg‘oziy Sulton Husayn mirzodin so‘ngra Chig‘atoy podshoxdarida Humoyun podshoxdek xushtab’ podshoh oz voqe’ bo‘lupdur... Tab’i she’rda ukush muloyim voqe’ bo‘lupdur. Bu ikki turkiy baytining ko‘p shuhrati bor va mushhur bo‘lupdurkim, bayt:

G‘ariblig‘ g‘amidin mehnatu malolim bor,
Bu g‘amdin o‘lmakka yetdim g‘arib holim bor.

Visoli davlatidin ayrilibmen mahzun,
Tirikmenu bu tiriklikdin infiolim bor”.[6; 18-19]

Yana bir manba muallifi Som Mirzoning yozishicha, “Humoyun turkiyda ham juda nozik did bilan ash’or yozgan” [2; 24-25].

Xulosa qilib aytganda, boburiylar davri adabiy muhitining rivoji Zahiriddin Muhammad Boburdan so‘ng uning o‘g‘li Nosiriddin Muhammad Humoyunning sa’y-harakatlariga bevosita bog‘liq bo‘ldi. Saroyda ijodiy kechalarning tez-tez tashkil etilishi, hukmdorning o‘z atrofiga ilm-fan, ijod ahlini to‘plashi va ularga alohida e’tibor qaratishi uning otameros an’analarga sodiqligi belgisi bo‘lishi bilan birga, ijodkor, olim, ma’rifatparvar

shaxsligiga ham chambarchas bog‘liqdir. Bu masalalarni yoritishda, albatta, adabiy-tarixiy manbalarning o‘rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимжонова С. Сейди Али Раис ва унинг “Миръотул мамолик” асари ҳақида.// Сейди Али Раис. Миръотул мамолик.(Мамлакатлар кўзгуси). – Т.: Ўзфанакаднашр, 1963. Б.160.
2. Алиев Г.Ю. Байрамхон туркменский поэт. – Ашгабад: “Туркменистан”, 1969. 95 стр.
3. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ўғли-Ҳумоюн подшоҳнинг аҳволи.// Форс тилидан С.Азимжонова тарж. – Т.: “Маънавият”, 1998. – Б.104.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. –Т.: “Sharq”, 2014. Б.744.
5. Иномхожиев Р. XVI аср Ҳиндистон адабий ҳаётида туркий-форсий икки тиллилик. –Т.: “Фан”, 1993. Б.208.
6. Муҳаммад Али Содиқбек Содиқий Афшар (Китобдор). Мажмаъу-л-хавос. (Хослар мажмуаси)/ Нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Болтабоев, Ж.Жўраев, О.Алимов. – Т.: “Mumtoz so‘z”, 2019. – Б.349.
7. Низомиддинов И. Маданий ҳамкорлигимиз саҳифаларидан. – Т.: «Фан», 1987. Б.54.
8. Низомиддинов Н. XVI-XVIII асрларда Ҳиндистон туркийзабон шоирлари адабий мероси. Фил. фан. номз. дисс. –Тошкент, 1993. Б.122.
9. Сейди Али Раис. Миръотул мамолик (Мамлакатлар кўзгуси). Таржимон ва изоҳлар муаллифи Ш.Зуннунова. – Т.: Ўзфанакаднашр, 1963. Б.160.
10. Қаюмов А.Асарлар. 10-жилд. (Ҳинд адабий сарманзиллари). –Т.: “Mumtoz so‘z”, 2010. – Б.304.
11. Ғаниева С. Отамерос байтлар. Хуршид даврон кутубхонаси. Электрон кутубхона. Adib: O‘zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati 09.04.2015.
12. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. Тазкира. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. Б.344.

Nigina HOJIYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi,
filologiya fanlari doktori (PhD)
sh.g.hojiyeva@buxdpi.uz

BOBURNOMA ASARINING YANA BIR JILOSI : MEVA NOMLARI TIMSOLIDA

Annotatsiya: maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari asos qilib olingan. Ushbu maqolada “Boburnoma” asarida keltirilgan **uzum va anor va o‘ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yong‘oq** meva nomlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Kobul bog‘lari, o‘simlik dunyosi hamda mevalarining xususiyati haqida qiziqarli ma’lumotlar bisyor. “Bog‘i Istolib”, “Bog‘i Navro‘ziy”, “Bo‘stonsaroy”, “Chorbog‘”, “Bog‘i Behishtiy”, “Bog‘i Nur”, “Bog‘i Xilvat” kabi ajoyib, betakror bog‘lari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *Muhammad ibn Husayn, uzum va anor va o‘ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yong‘oq, Z.M.Bobur “Boburnoma” asari, “Bog‘i Istolib”, “Bog‘i Navro‘ziy”, “Bo‘stonsaroy”, “Chorbog‘”, “Bog‘i Behishtiy”, “Bog‘i Nur”, “Bog‘i Xilvat”*

Аннотация: статья основана на произведении Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнома». В данной статье рассматриваются названия винограда, граната, абрикоса, яблок, груш, граната, персика, сливы, сливы, миндаля и грецких орехов в книге «Бобурнома». Также здесь много интересной информации о садах Кабула, флоре и природе его плодов. «Сад Истолиб», «Сад Наврози», «Бостонсарай», «Чорбог», «Сад Бехиштий», «Сад Нур», «Сад Хилват». Дана информация об уникальных садах.

Ключевые слова: *Мухаммад ибн Хусейн виноград и гранаты и сливы и яблоки и персики и гранаты и персики и чернослив и сандал и миндаль и грецкие орехи, произведения З.М. Бабура «Бабурнома», «Сад Истолиба», «Сад»и Наврози», “Бостонсарай”, “Чорбог”, “Боги Бехишти”, “Боги Нур”, “Боги Хилват”*

Annotation: the article is based on the work “Baburnoma” by Zahiriddin Muhammad Babur. This article discusses the names of grapes, pomegranates, apricots, apples, pears, pomegranates, peaches, plums, plums, almonds, and walnuts in the book “Boburnoma”. Also, there is a lot of interesting information about the gardens of Kabul, flora and the nature of its fruits. “Istolib Garden”, “Navrozi Garden”, “Bostonsaray”, “Chorbog”, “Behishtiy Garden”, “Nur Garden”, “Khilvat Garden”, information about unique gardens is given.

Key words: *Muhammad Husayn ibn grapes and pomegranates and plums and apples and peaches and pomegranates and peaches and prunes and sandalwood and almonds and walnuts, Z.M. Babur's work "Baburnoma", "The Garden of Istolib", "The Garden" i Navro'zi", "Bostonsaray", "Chorbog", "Bogi Behishti", "Bogi Nur", "Bogi Khilvat".*

O‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin siymolaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburning ijodi dunyo bo‘ylab keng tarqalgan. Ulug‘ shoh va shoir ajdodimizning mashhur "Boburnoma" (yoki "Voqeoti Boburiy", "Vaqoe'"...) asari Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘zida aks ettirgan.

Adabiyot, nafis san'at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Zahiriddin Muhammad Bobur, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. "Boburnoma"ni varaqlar ekanmiz, asarda hayotning barcha jabhalari qamrab olinganligiga guvoh bo‘lamiz. Boburdan qolgan ijodiy merosining eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan va o‘sha davr o‘zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo‘lgan "Boburnoma" asaridir. Bu asar mazmunining rang-barangligi, juda katta va qimmatli ma'lumotlarni o‘z ichiga olganligi, xil va uslubining go‘zalligi bilan XVIII hamda XIX asrlarda sharqshunos olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilgani bejiz emas.

Asarda Bobur, avvalo, yetuk muarrix sifatida namoyon bo‘ladi. U har bir mamlakat, o‘lka, xalq tarixi haqida, shaharlar, kentlar, qal'alar to‘g‘risida batafsil ma'lumotlar beradi. Asarda geograf va tabiatshunos alloma sifatida har bir o‘lkaning dunyo xaritasida joylashgan o‘rni, jug‘rofik kengligi, tabiati, o‘simlik va hayvonot olami, tuprog‘i, iqlimi, dehqonchilik madaniyati borasida mukammal ma'lumotlar keltiradi. "Boburnoma" da qayd etilgan anor, o‘rik, bodom, olma, qovun, uzum, qaroli, noshvoti, don, binafsha, lola, chechak, tobulg‘u, yabruh us-sanam, ayiqo‘ti singari meva va gul nomlari orqali Boburning tabobat-u nabotot olamiga, ham jamiyat a'zolariga cheksiz e'tibor va ehtiromini bilib olamiz.

Yana bir Marg‘ilondur, Andijonning g‘arbidadur, Andijondin yeti yig‘och yo‘ldur. Yaxshi qasaba voqe bo‘lubtur, pur ne'mat ;anori va o‘rugi asru ko‘p – xo‘p bo‘lur. Bir jins anor bo‘lur, "dona kalon" derlar , chuchukligida zardolu mayxushlig‘idin andak choshni bor. Samnon anorlarig‘a tajreh qilsa bo‘lur. Yana bir jins o‘ruk bo‘lurkim, donasini olib, ichig‘a mag‘z solib quruturlar, "subhoniy" derlar, bisyor lazizdur [1.10].

Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur. Samarqandni Iskandar bino qilg‘ondur. Mo‘g‘ul va turk ulusi Semirkand (Semizqand) derlar. Temurbek poytaxt qilib erdi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilg‘on emasdur. ***Uzumi, qovuni, olmasi, va anori*** *balki jami mevasi xo‘p bo‘lur.Vale ikki meva Samarqanddin mashhurdir:* ***Sebi Samarqand va sohibiyi Samarqand****. [1.80].*

Ulug‘ viloyatkim, Samarqand qariyasi Buxorodur. Samarqandning g‘arbiy tarafida yigirma besh yig‘och yo'ldur. Buxoroning ham necha tumonoti bor. Tavr shahre voqe bo‘lubtur. Mevasi ko‘p bo‘lur va xo'p bo'lur, ***qovuni*** *bisyor yaxshi bo'lur. Yana "****oluyi buxoriy"*** *mashhurdir. Buxoro* ***olusidek*** *hech yerda bo‘lmas, terisini so‘yub qurutub tabarrukluk bila viloyatdin viloyatqa eltarlar. Taylin uchun bisyor yaxshi tadovidur. [1.84].*

Darhaqiqat, Bobur shoh hazratlari va uning avlodlaridan qolgan tarixiy va madaniy meros hanuzgacha jahon xalqlarini hayratga solib kelmoqda. Bobur hazratlarining qadamlari yetgan joyda, albatta, bitta iz qolgaydir. Shulardan biri Afg‘oniston poytaxti Kobul shahrida bunyod etilgan ajoyib, xushmanzara tarovati betakror bog‘ – "Bog‘i Bobur" dir. *Rabiul avval oyining avixorida tengri taolo fazl va karami bila Kobul va G‘azni mulk va viloyatini bejang – u jidol muyassar va musaxxar qildi. Kobul viloyati to‘rtinchi iqlimdindur. Kobul va kentlarida sardseriy mevalardin* ***uzum va anor va o‘ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yong‘oq*** *qo‘ptur. Men* ***olu- bolu niholini*** *keturub ekturubmen, yaxshi olu–bolular bo‘ldi va hanuz taraqqiyda edi. Garmseriy mevalar misli* ***norunj va turunj va amluk va nayshakar*** *Lag‘monottin keltururlar. Kobulning* ***rivochi*** *xo‘p bo‘lur,* ***bihi bila olusi*** *ham yaxshidur. Bodringgi dag‘i yaxshi bo‘lur. Bir nav uzum bo‘lur,* ***obi angur*** *derlar, xeyli yaxshi uzumdir. Mast chog‘irlari bo‘lur. Xoja Xovard Said Domani ko‘hiyning chog‘iri tundluq birla mashhurdir. Agarchi holo taqlid birla andin ta'rif qiladurlarki: "Lazzati may mast donad hushyoronro chi haz"* [1.216-217].

Bobur Kobulga qadamranjida qilar ekan, bu yerning ob-havosi, iqlimi, bepoyon yaylovlari, shifobaxsh suvlari ul zotni hayratda qoldirgani "Boburnoma" asarida takror-takror qayd qilingan. Mazkur bog‘dagi yetti iqlimdan keltirilgan anvoyi gullar, mevali va manzarali daraxtlar hanuzgacha poytaxt shaharning ko‘rki bo‘lib hisoblanadi. *On bir*

– o‘n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo‘g‘uliy, hindiy, afg‘oniy, pashoyi, parojiy, garbiy, barakiy, lamg‘oniy. Muncha muxtalif aqvom va mug‘oyir alfoz ma’lum emaskim, hech viloyatda bo‘lg‘ay[1. 220].

Hozirgi kunda “Bog‘i Bobur” sayilgoh bo‘lib, davlat, jamoatchilik tomonidan o‘tkaziladigan ommaviy anjumanlar markaziga aylangan. Boburshoh hayotlik davrida “Bog‘i Istolib”, “Bog‘i Navro‘ziy, “Bo‘stonsaroy”, “Chorbog‘”, “Bog‘i Behishtiy”, “Bog‘i Nur”, “Bog‘i Xilvat” kabi ajoyib, betakror bog‘larni bunyod etgan. Shunisi ajablanarliki, Kobulning iqlim sharoitidan kelib chiqib, bu bog‘larda anvoyi gullar, mevali va manzarali daraxtlar qisman takrorlangan bo‘lsa-da, ammo ayrim jihatlari bilan keskin farq qilgan. Ya’ni, bog‘larning biri aksariyat mevali daraxtlardan tashkil topsa, boshqasi anvoyi gullar bilan bezatilgan.

Kobul sharqi Lag‘monotdur. Bu viloyat besh tuman va ikki bo‘luktur. Lag‘mon tumanlaridin ulug‘rog‘i Ningnahor, ba’zi tarixlarda Nagarhor bitibdurlar. Ningnahor to‘qqiz rudtur. Sholisi va bug‘doyi yaxshi bo‘lur va ***norunji*** *va* ***turunji*** *va* ***anori*** *bisyor bo‘lur , yaxshi bo‘lur. Odinapur qo‘rg‘onining oldida janubiy tarafida bir chahorbog‘ soldim, Bog‘i Vafog‘a mavsum, rudqa mushrif, rud qo‘rg‘on bila bog‘ning orasidadur,* ***norunji*** *va* ***turunji*** *va* ***anori*** *bisyor bo’lur. Badahshon va Buxorog‘a ul navshakarlardin yuborilib erdi. Bu bog‘ning norunjlar sarg‘arg‘on mahalda bisyor yaxshi ko‘rinur, xeyli yaxshi bog‘ voqe bo‘lubtur[1.220-221-222].*

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida shuningdek, bu bog‘larga Movarounnahrdan Quvaning tuyatish anori, Baxmalning qirmizi olmasi, Konibodomning obinovvot o‘rigi, Oltiariqning husayni uzumi, Samarqandning anjiri keltirib o‘tqazilgan. Bunday bog‘larning jumlasiga “Bog‘i Shahraro” (keyinchalik bu bog‘ning nomi boburiyzoda Nuriddin Jahongirshoh (1605-1625 y.) tomonidan “Bog‘u ilmu Ganja” – Ganj ilmi bog‘i deb o‘zgartirilgan), “Bog‘i Jilovxona”, “O‘rtabog‘”, “Bog‘i Sur’at”, “Bog‘i Mohtob” larni misol keltirishimiz mumkin.

Afg‘onistonning atoqli olimi Ustod Ali Ahmadi Ko‘hzod “Baloisori Kobul va uning tarixiy oqimlari” nomli tarixiy asarida Bobur va Kobul shahri to‘g‘risida quyidagi jumlani keltiradi: “Kobulda Boburning ezgu niyatlari amalga oshdi va Kobulga mehr-muhabbati tushdi, shu nuqtai nazardan bu maskanni obod, ko‘rkam bo‘lishiga hech qanday mehnat va mablag‘larni ayamadi. Shuning uchun poytaxtni va o‘z qo‘li bilan yaratgan bog‘ni hech qaysi bir farzandiga meros sifatida qoldirmadi, shahar va bog‘ abadiy uning tasarrufida ekanligini takror-takror ta’kidlab ketdi”.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” — Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri — XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘zida aks ettirgan bo‘lsa ham, shu bilan birga juda ko‘p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o‘zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug‘rofiy mavqeyi, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tog‘lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari haqida juda qimmatli ma’lumotlarni o‘zida qamram olgan shoh asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma. Yangi asr avlodi. – Toshkent, 2018. 698-bet.
2.Эрскин У. Бобур Ҳидистонда. –Т.: “Чўлпон”1995.
3. Ҳамидов Ҳ, Ҳусаний М. Машриқзамин ҳикмат бўстони. – Т.: “Шарқ” 1997.
4.Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари. – Т., 2007. 276 б.
5.Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. 161 б.
6.Юлдашева Д., Хожиева Н. Некоторие соображения о фруктовой лексике// Преподавание языка и летиратуре (NSSN 2010-5584).–Ташкент, 2020, № 3.С. 61-63.
7.Ходжиева Н. Х. ЛЕКСИКА ФРУКТА В ЛИРИКЕ АЛИШЕРА НАВАИ //Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. С. 148-150. 4.
8.Hojiyeva N. SOME COMMENTS ON THE POMEGRANATE LEXEMA //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6. 5.

Kamolaxon ORIPOVA,
QDPI, Xorijiy filologiya fakulteti o‘qituvchisi (PhD)

BADIIY MATNDA O‘XSHATISHLARNING TURLARI VA VAZIFALARI

Annotatsiya: badiiy matnni tahlil etish jarayonida barcha stilistik troplar muhim vazifa bajaradi, shuningdek, o‘xshatishlar ham. Stilistik vositalar estetik funksiyani amalga oshirishda faol ravishda ishtirok etadi va badiiy matnning ekspressivligini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: *notiqlik, o‘xshatish, kompozitsion, lingvistik, stilistika, kategoriya.*

Annotation: in the process of analyzing a literary text, stylistic tropes play an important role, as do similes. Stylistic means actively participate in the implementation of the aesthetic function and ensure the expressiveness of the literary text.

Key words: *rhetoric, simile, composition, linguistic, stylistics, category.*

Аннотация: некоторые стилистические приемы, а также сравнения играют важную роль при анализе художественного текста. Стилистические средства активно участвуют в реализации эстетической функции и обеспечивают выразительность художественного текста.

Ключевые слова: *красноречие, сравнение, композиция, лингвистика, стилистика, категория.*

O‘xshatish lingvistik stilistikaning kategoriyasi sifatida, ya’ni qo‘shimcha estetik ma’lumotlarni olib yurishga qodir bo‘lgan til vositalaridan biri sifatida qaraladi. Qadimgi faylasuflar va notiqlarning she’riyat va notiqlik tiliga oid tadqiqotlari (Sitseron), antik nazariyotchilarning risolalari (Aristotel, Platon), shuningdek, arab olimlarining (Askariy) asarlari o‘rganilayotgan ustuvor yo‘nalishlariga, tilning stilistik vositasi sifatida o‘xshatishni o‘rganish sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Antik davrda olimlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarning ko‘pchiligi zamonaviy fanda keng muhokama qilinadigan fikrlar bilan umumiy xususiyatga ega. Shunday qilib, o‘xshatish usuliga oid turli davrlar va ilmiy an’analar tadqiqotchilarining fikr-mulohazalarini hisobga olish uni o‘rganishdagi bosqichlar va tushunchalarning rivojlanishini ko‘rsatish imkonini beradi.

Nutqda ekspressivlikka erishishning ko‘plab usullari mavjud. Ushbu usullardan biri o‘xshatishdir. O‘xshatish dunyoni turli tillar vositasida badiiy idrok etish xususiyatlarini aks ettiradi. So‘nggi o‘n yillikdagi mahalliy tadqiqotlarda ilmiy badiiy matnda o‘xshatish funksiyalarini tahlil qilishga doimiy qiziqish mavjud.

O‘xshatish uslub sifatida jurnalistika va badiiy adabiyotda keng tarqalgan. Tilshunos olim Potoskaya “O‘xshatish kompozitsion texnikadir yoki tasvirni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi” deya ta’riflaydi. O‘xshatish xilma-xil lingvistik talqin va lingvistik tasvir sifatida qo‘llaniladi. Qiyosiy semantikaga ega konstruksiyalar an’anaviy ravishda mahalliy va xorijiy olimlarning e’tiborini tortdi. Yu.D.ning asarlari, Apresyan, N.D. Arutyunova, N.A. Basilaya, R.A. Budagova, T.V. Bulygina, V.V. Vinogradova, V.P. Grigoriyeva, Yu.I. Levina, A.D. Grigoreva, I.I. Kovtunova va boshqalar asarlarida, Bulygina, V.V. Vinogradova, V.P. Grigoreva, A.D. Grigoreva, I.I. Kovtunova, N.A. Koz’yevnikova va boshqalar o‘xshatishga doir fikr mulohazalar keltirishgan. Qiyosiy konstruksiyalarning xususiyatlari va xatti-harakati muayyan til materialida, aniq badiiy matnlarda o‘rganiladi. Shunday qilib, tilshunoslikda qiyosiy ma’noning umumiy nazariyasi bo‘yicha ham, qiyosiy tropiklarning til va badiiy nutqdagi faoliyati bo‘yicha ham juda ko‘p farazlar to‘plangan.

Yu.Stepanovning fikricha, o‘xshatishlar, birinchi navbatda, individual va turg‘un bo‘lishi mumkin. Individual o‘xshatishlarga kelsak, ular obyektni turli nuqtai nazardan tavsiflashni maqsad qiladi, lekin ko‘pincha uning o‘ziga xos ko‘rinishini takrorlaydi.

O‘xshatishlarni tuzilishi nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish mumkin. Yu.Stepanovning fikricha, individual o‘xshatishlar ko‘pincha ikki qismdan – taqqoslanayotgan obyektni ko‘rsatish (mavzu) va taqqoslanayotgan obyektning tavsifidan iborat. Yuqoridagi misolda individual o‘xshatish ko‘proq metaforik shaklda talqin qilingan. Turg‘un o‘xshatishlar til normasiga tegishli bo‘lib, “odatda uch qismdan iborat: mavzular va o‘xshatishlar, ular o‘rtasida umumiy xususiyatga ega bo‘lgan alohida ko‘rsatma joylashtirilgan – bu o‘xshatishning asosidir”. Sifat, fe’l yoki ot bilan ifodalangan har bir asos bitta o‘xshatish uchun belgilanadi, buning natijasida butun ibora turg‘unga aylanadi.

Nutqda ekspressivlikka erishishning ko‘plab usullari mavjud. Ushbu usullardan biri o‘xshatishdir. O‘xshatish dunyoni turli tillar vositasida badiiy idrok etish xususiyatlarini aks ettiradi. So‘nggi o‘n yillikdagi mahalliy tadqiqotlarda ilmiy badiiy matnda o‘xshatish funksiyalarini tahlil qilishga doimiy qiziqish mavjud.

O‘xshatish uslub sifatida jurnalistika va badiiy adabiyotda keng tarqalgan. Tilshunos olim Potoskaya “O‘xshatish kompozitsion texnikadir yoki tasvirni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi” deya ta’riflaydi.

A.O. Dolgova o‘xshatishning quyidagi tematik (ideografik) guruhlarini aniqlagan.

1. Shaxsning xarakter xususiyatlari va aqliy qobiliyatlari: He was as clever as burglars are – U o‘g‘rilardek aqlli edi.

2. Odamning hissiy holati: Out of her disconnexion, a restlessness was taking possession of her likemadness – U ichida qandaydir kelishmovchilik paydo bo‘layotganini noaniq his qildi.

3. Shaxsning tashqi ko‘rinishi: The people were a shaggard, shapeless, and dreary as the countryside, and as unfriendly – O‘z yurtiga mos keladigan odamlar: ozg‘in, ma’yus, xunuk edi.

4. Insonning hayotiy faoliyati: The girls are as free as the lads – Qizlar yigitlardek erkindir – Hozirgi qizlar esa yigitlarni qamchilaydilar, ular hech narsadan tortinmaydilar, xohlagan narsalarini qaytarishadi.

5. Biror kishining boshqa shaxs yoki obyektga munosabati: The two males were as hostile as fire and water – Bu odamlar bir-biriga mos kelmaydigan, olov va suv kabi edi.

6. Obyektlar va hodisalarning sifati: The drizzle of rain was like a veil over the world, mysterious, hushed, not cold – yomg‘ir atrofdagi hamma narsani muslin bilan qoplagan – sirli, sokin va umuman sovuq emas edi.

O‘xshatishlar ko‘pincha tabiatdan, hayvonlardan yoki kundalik hayotdan olingan madaniy elementlar va umumiy tajribalarni aks ettirishi mumkin. Ular tilni yanada tabiiy va qiziqarli qiladi. Biroq, o‘xshatishlar turli madaniyatlarda farq qilishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilida so‘zlashuvchi “as blind as a bat” (ko‘rshapalak kabi ko‘r) deb aytishi mumkin, boshqa til esa shunga o‘xshash effekt uchun boshqa hayvon yoki tushunchadan foydalanishi mumkin.

Ba’zi o‘xshatishlar, ayniqsa ko‘p ishlatiladigan o‘xshatishlar klishega aylanishi mumkin. Ularni tushunish oson bo‘lsa-da, ulardan ortiqcha foydalanish yozuv yoki nutqni eskirgan yoki g‘ayrioddiy ko‘rinishga olib kelishi mumkin. Keng tarqalgan, ammo haddan tashqari ishlatiladigan o‘xshatishlarga misollar quyidagilar:

- “As easy as pie”
- “As cool as a cucumber”
- “As busy as a bee”

O‘xshatishlar badiiy matnda yozuvchining badiiy dunyoqarashi yaxlitligini, qahramonlarning tashqi qiyofasini yanada aniqroq tavsiflashga, ularning ichki dunyosini ochib berishga, tabiatni, uning u yoki bu hodisalarini tasvirlashga va romanning asosiy g‘oyasini o‘quvchiga yetkazishga xizmat qiladi.

O‘xshatish uchun, voqelikning predmetlari va hodisalari o‘ziga xoslikda emas, balki farqlanishda namoyon bo‘ladi. Bu farq tilning rasmiy vositalari bilan quvvatlanadi. Biroq, metaforada ham, o‘xshatishda ham shunga o‘xshash xususiyat bir hodisalar qatoriga xos bo‘lgan bir xususiyat, ikkinchisi uchun tasodifiy xususiyatdir.

O‘xshatish universal hodisa, u barcha tillarga xosdir. Bundan tashqari, o‘xshatish otning instrumental holati shaklida amalga oshirilishi mumkin:

Every time she thinks of you, it is to picture you with a face like a water melon! (U har safar sizni o‘ylaganida, sizni tarvuz kabi yuz bilan tasavvur qiladi!)

A dead enemy is as good as a cold friend – German proverb

O‘lgan dushman sovuq do‘stdek yaxshi. enemy ≠ friend(dushman ≠ do‘st)

Ma’lumki, o‘xshatishlar ba’zan ikki narsaning zid ma’nosini berish orqali ham ifodalanadi. Masalan, yuqoridagi misolda o‘lgan dushman sovuq do‘stga qiyoslangan.

Shunisi e’tiborga loyiqki, ingliz tilidagi matnda misollarimizga ko‘ra, qiyosiy konstruksiyaning lingvistik ko‘rsatkichi sifatida like so‘zi ko‘p uchraydi.

O‘xshatishning keng tarqalgan turlari:

Jismoniy taqqoslash: jismoniy xususiyatlar yoki harakatlarni tavsiflash.

Misol: “Her hair flowed like golden silk”. (Uning sochlari oltin ipakdek oqardi)

Hissiy taqqoslash: his-tuyg‘ularni yoki ruhiy holatni ifodalash.

Misol: “He was as angry as a bull”. (U buqa kabi g‘azablangan edi.)

Hajmi/masshtabni taqqoslash: nisbiy o‘lcham yoki masshtabni ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Misol: “The mountain loomed like a giant”. (Tog‘ xuddi devdek ko‘rindi.)

Xulq-atvorni taqqoslash: biror kishining o‘zini tutishi yoki munosabatini solishtirish.

Misol: “He worked like a dog all day”. (U kun bo‘yi it kabi ishladi.)

Bizningcha, leksik majoziy vositalarga solishtirish ma’lum darajada shartli bo‘ladi, chunki u faqat lug‘aviy darajada amalga oshirilmaydi: o‘xshatish so‘z bilan ham, so‘z birikmasi bilan ham, qiyosiy so‘z birikmasi bilan ham, ergash gap bilan ham ifodalanishi mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘xshatishlar ta’riflarni kuchaytirish, fikrlarni aniqlashtirish va his-tuyg‘ularni uyg‘otish orqali ingliz nutqida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular tilni boyitib, uni yanada jozibali, o‘zaro bog‘liq va jonli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Степанов Ю. Французская стилистика. – М.: Высшая школа, 1965. – 161 с.
2. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М.:МГУ, 1991. – 508 с.
3. Хованская З.И. Стилистика французского языка. – М.: Высшая школа, 1984. – 290 с.
4. Потоцкая Н.П. Стилистика современного французского языка. – М.: Просвещение, 1974. – 351 с.
5. Ильясова Л.И. Устойчивые сравнения с колоративным компонентом в английском и русском языках. Дис. … на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Казань., 2009. – 115 с.



Sarvinoz AHMADOVA,
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich talabasi
E-mail:sarvinozahmadova9gmail.com
Ilmiy rahbar: Toirova Guli Ibragimovna
BuxDU o‘zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasi professori, f.f.d. (DSc)

MULTIMODAL LINGVISTIKA: INTERNETDAGI KONTENT VA UNING STRUKTURASI

Annotatsiya: globallashuv asrimizda butun dunyo bo‘ylab barcha sohalar masalan, iqtisodiyot, ta’lim, fan, madaniyat, siyosiy jarayonlar birlashib, integratsiyalashuv sodir bo‘lyapti. Globallashuv tizimli xususiyatga ega bo‘lganligi sababli jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi. Buning birdan-bir yaqqol ifodasini biz tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida, ya’ni yangi lingvistik paradigmalarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, bugungi kunda tobora rivojlanib borayotgan multimodal lingvistika sohasi fikrimizning yorqin isbotidir. Ushbu maqolada multimodal lingvistika va uning bugungi kundagi ahamiyati, ichki guruhlanishlari, dunyo tillarida o‘rganilishiga munosabat bildirildi.

Kalit so‘zlar: *semiotika, multimodallik, media, gipermatn, verbal va noverbal elementlar, kinestetika, animatsiya.*

Annotation: in our age of globalization, all areas around the world, such as economy, education, science, culture, and political processes, are uniting and integrating. Due to its systemic nature, globalization has covered all areas of society. We can see the only clear expression of this in the modern directions of linguistics, that is, in the new linguistic paradigms. For example, the field of multimodal linguistics, which is increasingly developing today, is a vivid proof of our point. In this article, multimodal linguistics and its significance today, its internal groupings, and the study of world languages were discussed.

Keys words: *semiotics, multimodality, media, hypertext, verbal and nonverbal elements, kinesthetic, animation.*

Аннотация: в наш век глобализации все области мира, такие как экономика, образование, наука, культура и политические процессы, объединяются и интегрируются. В силу своего системного характера глобализация охватила все сферы жизни общества. Единственное яркое выражение этого мы можем видеть в современных направлениях языкознания, то есть в новых лингвистических парадигмах. Ярким подтверждением нашей точки зрения является, например, область мультимодальной лингвистики, которая сегодня все более развивается. В данной статье обсуждались мультимодальная лингвистика и ее значение сегодня, ее внутренние группировки, изучение мировых языков.

Ключевые слова: *семиотика, мультимодальность, медиа, гипертекст, вербальные и невербальные элементы, кинестетика, анимация.*

Kirish. XX asrning 80-yillariga o‘zbek tilshunosligining amaliy, faktografik bosqichi yakunlangan va to‘plangan daliliy manbalarni dialektik metodologiya asosida o‘rganishga zamin tayyorlab berdi. Shundan so‘ng H.Ne’matov, N. Mahmudov, R.Sayfullayeva kabi olimlar tilshunosligimizning dolzarb muammolari bo‘yicha respublika matbuotida o‘z ma’ruzalari bilan masalalarni mohiyatan ochib berishga harakat qilishdi. Ular o‘zbek tilining ichki yaxlitligidan kelib chiqqan holda adabiy til me’yorlarini belgilash, ta’limning turli bosqichlari uchun zarur bo‘lgan darsliklar, lug‘atlar yaratish ishlarini bajarganlaridan so‘ng, lison va nutq chigalliklariga har tomonlama yondashib, o‘zbek substansial tilshunosligini shakllantirishdi. Olimlar qisqa vaqt ichida jiddiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi. XX asr oxirlari XXI asr boshlarida o‘zbek sistem-struktur, ya’ni substansial yo‘nalish ham globallashuv jarayonlarini boshdan kechirdi. O‘zbek substansial tilshunosligi aniqlagan lisoniy umumiyliklarning nutqiy voqelanishini tekshirishga jiddiy kirishmoqda. Lisonning amalda voqelanishi, undan amaliy foydalanish usullari bilan shug‘ullanuvchi zamonaviy yo‘nalishlar ish boshladi. Inson barhayot ekan, jamiyat undagi barcha kommunikatsiya jarayonlari til-tafakkur-lison-nutq bosqichlarini amalga oshirishi natijasida axborot uzatish va uni qabul qilish bosqichlarini amalga oshirib boradi.Shu o‘rinda tilshunoslik o‘zining yangi yo‘nalishlarini kashf etdi. Masalan, pragma lingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, kompyuter lingvistikasi va shunga o‘xshash bir qancha yo‘nalishlar. Bu yo‘nalishlarning barchasida til grammatik, morfologik, sintaktik, qolaversa, semiotik jihatdan ham talqin qilinadi. Semiotika yoki semiologiya bu (yunoncha-semiotike belgilash, tasvirlash, ifodalash) belgilar sistemasi haqidagi fan bo‘lib, axborotni saqlovchi, uzatuvchi turli xil belgi va belgilar tizimlarining yaratilishi, vazifalari, belgilar sistemasiga kiruvchi hodisalar, ularning tabiati, mohiyati, turlari, ko‘rinishlarini o‘rganadi.

Asosiy qism. Semiotika tilshunoslikda, xususan, kompyuter lingvistikasida ham muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.Negaki, til ham belgi sanaladi,

ma’lum ma’noda ramzlar tizimidir. Semiotikada tabiiy tillar ham, sun’iy tillar ham, yo‘l belgilari, audio va videosignallar ham tadqiq etiladi. Aynan shu xususiyatlar, ya’ni audio, vizual, rasmlar, ovoz, musiqa, turli xil imo-ishoralar bilan ish ko‘radigan multimodal lingvistika bugungi kunda til o‘rganish yoki internet kontentini yaratish uchun muhim bo‘lgan lingvistik yo‘nalishlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Multimedia yoki multimodal nima o‘zi? Multimedia (“ko‘p qavatli muhit” degan ma’noni bildiradi) zamonaviy kompyuterlarning, deyarli, barchasida mavjud bo‘lgan imkoniyatlar majmuyini, kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko‘rinishlari – matn, jadval, grafika, ovoz, animatsiya (multiplikatsiya), videotasvir, musiqa yordamida ma‘lumotni yig‘ish, saqlash va qayta uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia “inson-kompyuter” interaktiv (dialogik) muloqotining yangi, takomillashgan pog‘onasi bo‘lib, bunda foydalanuvchi juda keng va batafsil axborot oladi.

Multimodal lingvistika bu - tilni o‘rganishda faqatgina verbal elementlar, ya’ni yozma yoki og‘zaki nutq bilan cheklanib qolmasdan, turli multimodal vositalarni hisobga oluvchi yo‘nalish. Bu yo‘nalish keng qamrovli bo‘lib, o‘z ichiga vizual, audiovizual, kinestetik va boshqa kommunikatsiya usullari tilga turli vositalar orqali hosil bo‘ladigan ma’lumotlarning o‘zaro ta’sirini va ularning ma’no hosil qilish jarayonidagi rolini o‘rganadi. Multimodal lingvistikaning asosiy elementlari bu verbal kommunikatsiya, vizual kommunikatsiya,



audio elementlar, kinestetik vositalar va boshqalar.

Verbal kommunikatsiya - yozma yoki og‘zaki nutq orqali ma’lumot uzatish. Bu kommunikatsiya jamiyatda eng ko‘p qo‘llanadigan usullardan biri bo‘lib, hozirgi kunda o‘qiydigan kitob, jurnal, gazetalarimiz bunga misol bo‘la oladi. Insonlarning o‘zaro muloqotga kirishishlari, bir-birlari bilan mavzularda suhbat qurishlari nutqiy kommunikatsiya turini hosil qiladi. Vizual kommunikatsiya - rasmlar, fotolar, video yoki grafiklar, infografikalar yordamida ma’lumotlarni uzatish.Biz kundalik turmushda bu turga juda ko‘p duch kelamiz. Masalan, darsliklarda, o‘quv qo‘llanmalarda soha yoki fanning o‘zaro ichki bo‘linishlarini tasvirlashda foydalaniladi. Audio elementlar - ovoz, musiqa, va boshqa audiovizual vositalarning ma’no yaratishdagi roli. Bu ko‘pincha til o‘rgatuvchi platformalarda ko‘p uchraydi. Bunday platformalar ovoz, musiqaga tayanadi. Kinestetik vositalar - badan tili, ya’ni jestlar, imo-ishoralar, qo‘l, bosh, qosh, ko‘z harakatlari umuman olganda o‘zaro jismoniy aloqa orqali sodir bo‘ladigan harakatlar majmuyi.Aynan kinestetik vositalar jamlangan maxsus kitoblar yoki ishoralar imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishda foydalaniladi. Faqat imkoniyati cheklanganlar uchun emas, yana bir qancha holatlarda, masalan, kimgadir xalaqit bermaslikka ikki kishi o‘rtasidagi jarayonlarda kinestetik vositalardan foydalaniladi. Shu jihatlar bilan ish olib boradigan multimodal lingvistika o‘z oldiga bir qancha savollarni qo‘yib o‘rganadi: turli vositalar orqali ma’lumotlar qanday qilib birgalikda va o‘zaro ta’sir ko‘rsatib uzatiladi, vizual va matnli elementlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar qanday ma’no yaratadi?

Multimodal lingvistikaning tobora ravnaq topishi til ixlosmandlari uchun bir qancha qulayliklar yaratdi. Darslik, elektron lug‘at, dars jarayonida eng kerakli vositalardan biri bo‘lgan slaydlar, videolarning yaratilishi multimodal lingvistika bilan qorishiq holda yaratilishi uzatilayotgan axborotning qabul qilinish ko‘rsatkichini yanada oshiradi va shu bilan birgalikda o‘quvchilarning xotirasida saqlanishiga yordam beradi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, inson ko‘rgan narsasining yetmish foizini xotirasida muhrlar ekan. Xususan, mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to‘rtdan bir qismini, ko‘rgan materialining uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko‘rib, ham eshitsa, axborotning ellik foizini esda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanilganda esa bu ko‘rsatkich yetmish besh foizni tashkil etadi. Shu bois ta‘lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega.Multimediali texnologiya dastur va texnik moddiy ta’minot asosida kompyuterda bir vaqtning o‘zida matnli tasviriy axborotlarni tovushli - ovozli, rangli, harakatga keltirilgan holda ifodalash imkoniyati demakdir. Hozirgi kunda tilshunoslik fanlarini o‘rganishda birgina darslik, o‘quv qo‘llanma va ma‘ruza matnlari bilan cheklanmasdan, shu fan sohalariga oid multimediali, animatsiyali, ovozli, rasmli o‘quv ko‘rsatuvlari va elektron darsliklar yaratish tilshunoslik sohalarini batafsil va to‘liq o‘rganish uchun aniq imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bu esa talaba yoshlarning tilshunoslik fanlariga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ilmiy ish olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Aynan multimodallikdan foydalanadigan har bir soha XX asrning eng katta

yutuqlaridan hisoblangan avtomizatsiya bilan bevosita



bog‘liq. Avtomizatsiya tushunchasi bu keng qamrovli termin bo‘lib, barcha avtomatlashtirilgan tizimlarni o‘z ichiga oladi. Dunyo hamjamiyati bugungi kunda barcha sohalarda avtomizatsiyadan keng foydalanib, fan taraqqiyotlarini yanada yuksaltirib boryapti. Chunki bu usul yangilik qilish yoki fanga optimallik nuqtayi nazaridan yondashishga ancha qo‘l keladi.Butun dunyo bo‘ylab til o‘rganishga mo‘ljallangan darsliklar, kitoblar multimedialarga asoslangan holda nashr etilyapti. Masalan, ingliz tili doirasida bu usul samarali va optimal deb topilib, TOEFL va IELTS kurslarning manbalarini yaratishda foydalanilgan.Yuqoridagi dasturlarning bosh maqsadi ingliz tilini mukammal o‘rganishni ta‘minlashdan iboratdir. IELTS tizimi Buyuk Britaniya ingliz tiliga asoslangan bo‘lib, aynan ingliz tili grammatikasiga tayangan holda o‘qitishni nazarda tutadi. Bundan tashqari barcha elektron lug‘atlar, elektron ensiklopediya, o‘rgatuvchi audiodasturlar, lingafon kurslar multimodallik prinsipiga asoslanadi.

Elektron ensiklopediya – kuchli qidiruv tizimiga ega bo‘lgan ma’lum yo‘nalishdagi illyustratsiyali maqolalar, elektron xaritalar, fotosuratlar, giperhavola (gipermurojaat)lar, audio va videoizohlar, xronologik ro‘yxat, foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati va hokazolardan iborat bo‘lgan katta hajmdagi elektron dastur.

Elektron lug‘at – odatdagi lug‘atlar asosida tuzilgan, multimedia vositalari bilan boyitilgan dastur. Elektron lug‘at turli yo‘nalishda tuzilishi mumkin, undan talabaning so‘z boyligini oshirish, tarjima qilishda foydalaniladi.

O‘rgatuvchi audiodasturlar, elektron lingafon kurslari umuman ikkinchi tilni o‘rganuvchilar uchun samarali ta‘lim texnologiyalaridir. To‘g‘ri talaffuzni o‘rgatuvchi kompyuter dasturlarida animatsiya yordamida tovushning artikulyatsiya o‘rni, usuli ko‘rsatiladi, etalon nutq eshittiriladi, talabaning o‘z talaffuzi yozib kiritiladi, so‘ngra u adabiy til me’yori bilan taqqoslanadi. Bundan tashqari, audiodasturlar qatoriga “Karaoke” tizimini kiritish mumkin.Undan hordiq chiqarishda yoki biron tadbirni o‘tkazishda foydalanish qulaydir.

Multimodal lingvistika sohasining amaliy jihatdan tahlilga tortadigan bo‘lsak, bunda biz oddiy gaplardan iborat matn bilan o‘sha kontekst ifodalagan ma’noning ta’sir etish darajasini ko‘rishimiz mumkin. Kontekst: o‘lkamizda 4ta fasl o‘zining xosligi bilan bir-biridan farqlanadi. Ularning har biri ma’lum bir xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bahorda daraxtlar gullaydi, hammayoqni yashillik o‘z qobig‘iga o‘raydi. Yoz fasli esa bolajonlarning eng sevimli fasllaridan biri, chunki jamiyki shodliklar, ariq, zovurlarda cho‘milish kabilar yozning bizlarga atagan in’omidir. Kuzda esa bobodehqonlar, fermerlar bir yillik mehnatlari samarasini oladilar.Qish fasli o‘zining mashhur Yangi yil bayrami, ayozli qorlari, qorbo‘ronlar, chang‘i uchishlar, derazalarga tushirilgan ayozbobo qirovlari bilan o‘zgacha tuyg‘ularni kashf etadi.

Xulosa. Ko‘rib turganingizdek, butun boshli matnni multimodal jihatdan unga vizual kommunikatsiya turi hisoblangan, rasm orqali yondashsak, tushunish ham ilg‘ash ham ancha oson. Yana bir jihati shundaki, rasmlarni ko‘rishimiz orqali bizda tasavvur ham o‘z o‘zidan rivojlanadi. Multimodal lingvistikaning bu bir eng sodda ko‘rinishi bo‘lsa-da, ancha informatsiya ulashib turibdi.Xulosa qilib aytganda, multimodal lingvistikadan nafaqat til o‘rganish dasturlarini tuzishda, balki bog‘cha boradigan bolachalar uchun ham rasmli yoki ovozli integratsion platformalar yaratish kerak.Bu orqali biz yanada yuksalish, taraqqiyot cho‘qqilariga erishishimiz tabiiy, deb o‘ylayman. Multimodal lingvistika sohasi bugungi kunda juda dolzarb, chunki zamonaviy kommunikatsiyada tekst va vizual elementlar juda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi: Darslik. – Toshkent, 2021. 45-b.
2. Xolmanova. Z. T.Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2020. 33-b.
3. Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – T., 2007. 66-67-b.
4. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. N.M.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013. 37-b.

Raxima KURBONOVA,
Samarqand tibbiyot universiteti,
Xalqaro ta'lim fakultet dekan o'rinbosari



GIPOTAKTIK QURILMALAR DERIVATSIYASI VA ULARNING MONOPROPOZITIV STRUKTURALARI

Annotatsiya: xuddi shu tarzda, lingvistik birliklar sifatida paydo bo'lgan, ammo nominativ-denotativ xususiyatlardan tashqari kommunikativ-muhim xususiyatlarga ega bo'lgan birliklar predikativ birliklar sifatida qayd etilganidek, ularning propozitsion tuzilishi haqida aniq fikrlar bildirilgan. Ushbu asosga ko'ra, jumla nutq lotin konstruksiyalarining eng minimali sifatida qayd etildi va uning tarkibiy, semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash bilan bog'liq muhim qarashlar ilgari surildi.

Nutqda shakllanadigan sintaktik qurilmalar har biri o'zining derivatsion, predikativ, propozitiv xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanib turadi. Bunday belgi-xususiyatlar gipotaktik qurilmalarda ham mavjuddir.

Kalit so'zlar: *jumla, taklif, taxmin, so'z, til, nutq, til va nutq birliklari, gipotaktik mavzu-rema, tarkibiy, derivatsiyasi,struktura semantik va pragmatik omillar.*

Аннотация: точно так же, поскольку единицы, возникшие как лингвистические, но обладающие коммуникативно-значимыми характеристиками в дополнение к номинативно-денотативным, отмечаются как предикативные единицы, были высказаны четкие мнения об их пропозициональной структуре. Исходя из этого, предложение было отмечено как наиболее минимальная из латинских речевых конструкций, и были выдвинуты важные соображения, связанные с выявлением его структурных, семантических и прагматических свойств.

Синтаксические средства, образующиеся в речи, отличаются друг от друга своими деривационными, предикативными, пропозициональными свойствами. Такие характерные черты также присутствуют в гипотактических средствах.

Ключевые слова: *предложение, пропозиция, допущение, слово, язык, Речь, языковые и речевые единицы, гипотактическая субъект-рема, структурные,деривационные, структурно-семантические и прагматические факторы.*

Annotation: in the same way, as units that originated as linguistic units, but had communicative-essential characteristics in addition to nominative-denotative ones, are noted as predicative units, clear opinions have been expressed about their propositional structure. According to this basis, the sentence was noted as the most minimal of the Latin constructions of speech, and important views related to the identification of its structural, semantic and pragmatic properties were put forward.

Syntactic devices formed in speech are distinguished from each other by their derivational, predicative, propositional properties. Such character-features are also present in hypotactic devices.

Keywords: *sentence, proposition, assumption, word, Language, Speech, Language and speech units, hypotactic subject-rema, structural,derivational, structural semantic and pragmatic factors.*

Maqola mavzusining dolzarbligi. Jahon tilshunosligida gipotaktik qurilmalar derivatsiyasi va ularning monopropozitiv strukturalarining lingvistik qonuniyatlari asosiy tamoyillardan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillarda tilshunoslik sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, sintaktik sathga oid birliklarning tildagi va nutq jarayonidagi mazmuniy munosabati shular jumlasidandir. Shunday bo'lsa-da, gapning murakkab tabiati va ko'p aspektli ekanligi bugungi kungacha tilshunoslikda o'zining to'la tavsifini topa olgani yo'q. "Davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni muntazam va har tomonlama o'rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish"1 o'zbek adabiy tili me'yorlarini tilimizning o'ziga xos xususiyati asosida belgilash lozimligi zaruratini taqozo etadi. Bu borada, tilshunoslikda gipotaktik qurilmalar derivatsiyasi va ularning monopropozitiv strukturalarining yuzasidan o'zbek tilshunosligida gapning predikativlik asosi va propozitiv strukturasini, ularning derivatsion xususiyatlarini, parataktik va gipotaktik qurilmalar strukturalarning derivatsiyasini o'rganish zamonaviy tilshunoslik ilmida dolzarblik kasb etmoqda.

Maqolaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi doirasida parataktik va gipotaktik qurilmalarning propozitiv strukturasi hamda predikativlik belgilarining implitsit va

eksplitsit jihatlarda uchrashi asoslangan;

Maqolaning maqsadi: gipotaktik qurilmalar derivatsiyasi va ularning monopropozitiv strukturalarining formal-sintaktik hamda funksional-semantik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Maqolaning vazifalari:gipotaktik qurilmalar derivatsiyasi va ularning monopropozitiv strukturalarining nazariy asoslari bo‘yicha jahon tilshunosligidagi mavjud qarashlarni dalillash;

gipotaktik qurilmalar derivatsiyasi va ularning monopropozitiv strukturalarining o‘ziga xosligi va ahamiyatini ochib berish;

gipotaktik qurilmalar derivatsiyasi va ularning monopropozitiv strukturalarining shakllanishini ochib berishtamoyillardan biri bo‘lib qolmoqda. Uning til va nutqqa tegishli dixotomik munosabatini ochib berish bugungi kunda lingvistik zarurat sifatida yuzaga kelmoqda.

Xususan, N.Turniyozov, X.Xayrullayev, Z.Qurbonovlarning gipotaktik qurilmalarning derivatsiyasi va sintaktikasi borasidagi ishlari o‘ziga xos qarashlarni ilgari surgan. Bunday fikr bildirishimizning o‘ziga xos asoslari bor. N.Turniyozov o‘zining “Hozirgi o‘zbek tilida gipotaktik qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida, X.Xayrullayev ergashgan qo‘shma gaplarning predikativlik belgisi xususida (gipotaktik munosabat – R.K.) fikr bildiradi. Predikativlikning mazkur ko‘rinishini u qo‘shma gaplarning barchasida kuzatilishini qayd etadi. Predikativlikning mazkur qurilmalardagi tavsifi xususida fikr bildirganida ularni ustpredikativlik tushunchasi bilan tavsiflaydi. Ushbu muallifga havola bergani holda, Z.Qurbonov ham ushbu chiqarilgan ilmiy xulosani ma’qullaydi.

Yana shuni ham alohida qayd etish joizki, Z.Qurbonovning “Gipotaktik qurilma shakllanishining kognitiv-pragmatik xususiyatlari” mavzusidagi tadqiqotida mazkur tipdagi qurilmalarning shakli bilan bog‘liq masalalarni ham yoritishga harakat qilingan. Albatta, Z.Qurbonov tadqiqotining bosh maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, gipotaktik qurilmalarning predikativligi, propozitsiyasi xususida alohida to‘xtalmagan. Mazkur tadqiqotda gipotaktik qurilmalarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini tadqiq etishga asosiy masala sifatida qaralgan.

Gipotaktik qurilmalarning sintaktikasi va semantikasi parataktik qurilmalardan farqlangani bois ham gipotaktik qurilmaning predikativlik belgisi parataktik qurilmalarning predikativlik belgilaridan tubdan farqlanadi. Buning asosiy boisi murakkab sintaktik qurilmaning mazkur turida komponentlarning o‘zaro bog‘lanishi tobelik munosabatini taqozo etishidadir.

Bundan tashqari, gipotaktik qurilmalar bir tub strukturaga asoslanadi. Mazkur tub struktura yetakchi operandning sintaktik tarkibida bo‘ladi. Boshqacha aytganda, tobe operandning tub strukturasi mazkur murakkab sintaktik qurilmaning umumiy sintaktik va semantik shaklining vujudga kelishi uchun asos bo‘lolmaydi. Gipotaktik qurilmalarda predikativlik hodisasining ifodalanishi ham ana shu qonuniyatga tayanadi.

Ergashgan qo‘shma gaplar sintaktik tabiati xususida bildirilgan L.R.Raupovaning quyidagi mulohazalari e’tiborni tortadi: “O‘zbek tilida kesim ikki asosiy funksional shakllarga ega bo‘lib, ularni shartli ravishda mustaqil kesim shakllari (qisq. MKSH) va nomustaqil kesim shakllari (qisq. NKSH) deb atash mumkin... MKSHlar semantik-funksional qobiliyatlarining voqelanishi uchun bir sodda gapdan iborat kontekst yetarlidir. NKSHlar esa [WPm] tarkibidagi kesimlik kategoriyasi ma’no va ko‘rsatgichlari – tasdiq (inkor) mayl, zamon (shaxs) son, ya’ni [Pm] ga ega bo‘lganlari holda, o‘z me’yoriy semantik-funksional imkoniyatlarini bitta gapdan iborat kontekstda voqelantira olmaydi. NKSHlarning qobiliyatlarini voqelantirish uchun zaruriy erkin qurshov [WPm] qurilishiga ega bo‘lgan kamida ikkita gapdan iborat bo‘lgan qo‘shma gaplar talab qilinadi”.

L.Raupovaning fikrlariga qo‘shilgan holda ta’kidlash lozimki, gipotaktik qurilma tarkibiy qismlari kesimlari to‘liq shakllanishi yoki shakllanmasligidan qat’i nazar, tobe operandning predikativlik belgisi mustaqil bo‘la olmaydi. Bunda bosh mezon gipotaktik qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi hokim operandning tub strukturasiga asoslanishi lozim. Bizningcha, gipotaktik qurilmalarni bog‘langan qo‘shma gaplardan farqlovchi asosiy belgi ham ularning bitta tub strukturaga tayanishidir. Ustpredikativ belgi esa qo‘shma gapning har qanday turi uchun umumiydir.

Sintaktik qurilmalar hajmi va shaklidan qat’i nazar til sistemasi unsurlarining nutqda qo‘llanishi samarasidir. Bunda paradigmatik, sintagmatik va iyerarxik munosabatlar to‘la namoyon bo‘ladi. Ularning forma-struktur, semantik struktur yondashuv asosidagi tadqiqining davom ettirilishi fan taraqqiyotini buguni va ertangi kuni uchun muhim sanaladi. Bunday qurilmalarning ichki strukturasida freymlarga asoslanuvchi belgilar boshqa qurilmalardagi singari ustuvordir. Shu bois ham

gipotaktik qurilmalar derivatsiyasida propozitsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Qurilma tarkibidagi har bir operand alohida propozitsiyaga ega bo‘lishi barobarida gipotaktik qurilma tarkibida umumiy makropropozitsiya tarkibidan o‘rin oladi. Shu bois ham, bunday sintaktik qurilmalarda situatsiya ham ana shu xarakterda bo‘ladi. Boshqacha aytganda, operand maqomidagi qurilmalarning zamiridagi situatsiya va makro xarakterli gipotaktik qurilmada zohir bo‘luvchi umumiy situatsiya. Mazkur situatsiya til birligining aktuallashuvi, uning funksional qiymat olishida muhim sanaladi.

Ko‘rinadiki, gipotaksis asosida murakkab sintaktik qurilma tushunchasi yotadi. Bunda uning ifodasidagi situatsiya denotativ xarakterli bo‘lsa, u orqali kommunikativ planda turuvchi mazmun signifikativ xususiyatlarni taqozo etadi. Gipotaktik qurilma komponentlarining propozitiv xarakteri har biri uchun alohida ekani, bunda qurilma uchun umumiy propozitsiyaning shaklanishida ularning kompozitsiyasi asosiy belgilardandir. Bu esa, o‘z navbatida, transformatsiyaning sintaktik derivatsiya uchun muhim ekanligining belgisidir.

Shunday qilib, gipotaktik qurilmalar bir tub strukturaga asoslanadi. Bu hokim komponent hisoblangan operandda o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, gipotaktik qurilmalar komponentlarining biri hokim, ikkinchisi tobe bo‘lishidan qat’i nazar, predikativlik belgisi mavjuddir. Shu bois, ularni polipredikativ sintaktik qurilma sifatida tavsiflaymiz. Gipotaktik qurilmalarda tobe operandning predikativlik belgisi hokim operandning predikativlik markazi uchun xizmat qiladi. Bu uning ustpredikativ belgili ekanligini asoslashga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda tobe operandning sintaktik shakllanishi ham, uning predikativ asosi ham o‘zi uchun emas, hokim operand uchun xizmat qiladi. Bunda mazkur operand o‘zi tobelanayotgan operand voqelikka munosabat bildirishining aniq namoyon bo‘lishiga yordam beradi.

Gipotaksis asosida murakkab sintaktik qurilma tushunchasi yotadi. Bunda uning ifodasidagi situatsiya denotativ xarakterli bo‘lsa, u orqali kommunikativ planda turuvchi mazmun signifikativ xususiyatlarni taqozo etadi. Gipotaktik qurilma komponentlarining propozitiv xarakteri har biri uchun alohida ekani, bunda qurilma uchun umumiy propozitsiyaning shakllanishida ularning kompozitsiyasi asosiy belgilardandir. Bu esa, o‘z navbatida, transformatsiyaning sintaktik derivatsiya uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017-йил 20-апрелдаги ПҚ-2909-сонли Қарори.

3.Турниёзов Н.Қ. Қўшма гап синтаксиси. –Самарқанд, 1994.

4.Хайруллаев Х. Нутқ бирликларининг поғоналимуносабати. – Самарқанд, 2008. –80 б.

5.Раупова Л.Р. Ўзбек тилида номустақил кесим масаласи ва [WPm WPm] қурилишли гаплар: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент,1999.

6.Сайфуллаев А.Р. Семантика и грамматика членов предложения в современном узбекском языке: Автореф. докт. дис. –Ташкент, 2001. –46 с.

7.Қурбонов З.О. Гипотактик қурилмалар шаклланишининг когнитив- прагматик хусусиятлари (Ҳозирги ўзбек тили мисолида): Филол. фан.бўйича фалсафа д-ри дисс. (PhD) автореферати. –Самарқанд, 2019. –47 б.



Жандос БАЙЗАКОВ,
Шыршық мемлекеттік педагогика университеті
Өзбек тіл білімі кафедрасы аға оқытушысы (PhD).
zandosbajzakov906@gmail.com

АБАЙ ПОЭЗИЯСЫНДАҒЫ ФИЛОСОФИЯЛЫҚ САРЫН

Аннотация: бұл ғылыми мақалада Абай Құнанбайұлының поэзиясындағы философиялық сарындар терең талданады. Мақалада Абай шығармашылығындағы адамгершілік, әділеттілік, білім мен ғылым, табиғат пен адам арасындағы үйлесімділік мәселелері қарастырылып, оның философиясының адам болмысы мен қоғамдағы орны ашылады. Абайдың философиялық көзқарастарының қазіргі кезеңде, моральдық құндылықтар мен рухани дамудың негізінде маңызды рөлі көрсетіледі. Сонымен қатар, Абайдың шығармашылығының қазіргі қоғам үшін өзектілігі мен адамгершілік тұрғысынан сабақ алатын тұстары талқыланады.

Кілтті сөздер: *поэзия, философиялық сарындар, адамгершілік, әділеттілік, білім, табиғат пен адам, моральдық құндылықтар.*

Annotation: this academic article provides an in-depth analysis of the philosophical themes in the poetry of Abai Kunanbayev. The article explores key issues such as morality, justice, knowledge, and the harmony between nature and humanity within Abai's works, examining the relevance of his philosophical views on human existence and society. It highlights how Abai's philosophy plays a crucial role in shaping moral values and spiritual development in the modern world. Additionally, the article discusses the continuing relevance of Abai's ideas for contemporary society, offering valuable insights into humanistic and ethical perspectives.

Keywords: *poetry, philosophical themes, morality, justice, knowledge, nature and humanity, moral values.*

Аннотация: в данной научной статье представлен углубленный анализ философских тем в поэзии Абая Кунанбаева. В статье исследуются такие ключевые вопросы, как мораль, справедливость, знание и гармония между природой и человечеством в творчестве Абая, исследуется актуальность его философских взглядов на человеческое существование и общество. В нем подчеркивается, что философия Абая играет решающую роль в формировании нравственных ценностей и духовного развития в современном мире. Кроме того, в статье обсуждается сохраняющаяся актуальность идей Абая для современного общества, предлагая ценную информацию о гуманистических и этических перспективах.

Ключевые слова: *Поэзия, философские темы, мораль, справедливость, знание, природа и человечество, моральные ценности.*

Абай Құнанбайұлы қазақ әдебиетінің алып тұлғасы болып қана қоймай, оның философиялық дүниетанымы да терең әрі жан-жақты. Оның шығармалары тек эстетикалық құндылықтармен ғана емес, адамзаттың рухани және моральдық ізденістерін қамтитын философиялық ойларымен ерекше. Абай поэзиясында қазақ халқының әлеуметтік өмірі мен адамгершілік мәселелері кеңінен талқыланып, оны бірден-бір маңызды құндылықтарға мән беріледі. Осы тұрғыдан алғанда, Абай шығармашылығының философиялық сипаттамасын зерттеу бүгінгі күннің өзінде өзектілігін жоғалтпайды. Абайдың философиясы, әсіресе адам мен қоғам, өмірдің мәні, адамгершілік, әділет, шындық сияқты тақырыптарды қамтиды.

Абай шығармашылығындағы философиялық сарынның басты бағыттары:

• Абайдың дүниетанымы.

• Абайдың адамгершілік, әділет, мораль, болмыс пен қоғам мәселелерін тереңдетіп қарастыруы.

• Абайдың рухани ізденістері мен "Толық адам" концепциясы.

Абай Құнанбайұлының дүниетанымы мен философиялық көзқарастары оның шығармаларында кеңінен көрініс тапқан. Ол қазақ халқының рухани әрі мәдени дамуын өз өлеңдері арқылы насихаттап, адамның ішкі әлемін, қоғамдағы әділетсіздік, адамның өзін-өзі тануы туралы ойларын терең ойластырған. Абайдың философиясын қарастырғанда оның шығыстық және батыстық дүниетанымға деген көзқарастарының араласуымен бірге, оның "Толық адам" түсінігіне баса назар аудару қажет.

Абай Құнанбайұлының шығармашылығына шығыстық және батыстық философиялардан келген ықпалдардың бірігіп өрбуі оның дүниетанымын ерекше әрі терең етіп қалыптастырды. Абай өз шығармаларында Шығыс философиясының негізгі мәндерін, әсіресе ислам діні мен Сопылық ілімді терең меңгергенін байқатады. Абайдың шығармаларында жиі кездесетін "жүрек" пен "ақыл" ұғымдары, "парасат" пен "қанағат" сияқты адамгершілік қасиеттер шығыс ойшылдарының философиясында жиі қолданылатын терминдермен үндеседі. Алайда Абайдың поэзиясына Батыс философиясының да әсері бар екендігі белгілі. Оның поэзиясында жеке тұлғаның бостандығы, ақыл мен ғылымның маңызына ерек-

ше мән беріледі. Сонымен қатар, Абай өзінің шығармаларында адамзаттың моральдық және рухани кемелдену жолдарын сипаттай отырып, Аристотель мен Канттың идеяларына жақын философиялық тұжырымдарды ұсынады.

Абайдың философиясындағы ең маңызды тұжырымдардың бірі – “Толық адам” идеясы. Бұл ұғым Абай шығармашылығында адамның жан-дүниесінің жетілуі мен мінез-құлқының үйлесімділігін сипаттайды. Абай бойынша, толық адам – бұл өз ішкі әлемін танып, оған сай өмір сүретін, қоғамға пайдасын тигізетін адам. Абай адамды рухани жетілу мен кемелдену жолындағы ізденістерге шақырады. “Толық адам” концепциясы оның моральдық қағидаларын жүзеге асыруға бағытталған, яғни адам тек өз өмірінің мәнін ғана емес, сонымен бірге қоғамның өмірінің мәнін де түсініп, оны дамытуға атсалысуы керек. Бұл идея Абайдың шығармашылығында адамның өздігінен жетілуі, оның ой-санасының, ақыл-парасатының кемелденуі мен қоғамдағы адамдармен байланысын нығайту мәселелерімен тығыз байланысты. Абайдың “Толық адам” концепциясын зерттеушілер оның гуманистік бағытын, оның адами болмысқа деген терең көзқарасын атап өтеді. Бұл идея оның поэзиясында көптеген өлеңдерде ашылып көрсетілген, әсіресе “Қанша жұртқа болса да, халқыңның көпшілігінен ада болма” деген тұжырымдарда кездеседі.

Абай Құнанбайұлының шығармашылығында адамның рухани және моральдық дамуының маңызы ерекше. Оның өлеңдерінде адамға, оның мінез-құлқына, парасаты мен рухани байлығына қатысты терең философиялық ойлар кездеседі. Абай адамды өзінің адамгершілігі, адалдығы, еңбеккорлығы мен әділдігі арқылы бағалаған. Оның философиясы бойынша адамзаттың басты мақсаты – өзінің рухани болмысын жетілдіріп, қоғамға пайдалы болу. Абайдың адамгершілікке деген көзқарастары қазіргі қоғам үшін де өзекті, өйткені қоғамда моральдық құндылықтарды сақтап қалу және әрбір адамды өзіне тән адами қасиеттерге тәрбиелеу маңызды.

Абайдың қоғамдық әділеттілікке деген көзқарасы оның философиясының маңызды бөлігін құрайды. Ол қоғамдағы әділетсіздік, теңсіздік пен кедейлік мәселелеріне жиі тоқталып, әділетті қоғам орнатудың қажеттігін айтады. Абай халықтың жағдайын жақсарту үшін, әлеуметтік теңсіздікті жою үшін білім алу мен еңбек ету арқылы адамгершілікті дамыту қажеттілігін ұсынды. Ол қоғамдағы кемшіліктерді сынап, адамдардың өз міндеттерін адал орындап, қоғамның әл-ауқатын арттыруға атсалысуын талап етті. Абайдың әділеттілік туралы ойлары қазіргі кезеңде де өзекті болып табылады, өйткені көптеген елдерде әлеуметтік теңсіздіктер мен әділетсіздіктер әлі күнге дейін бар.

Абай өзінің философиялық көзқарастарында дәстүр мен жаңашылдықтың үйлесіміне ерекше мән берді. Ол қазақ халқының дәстүрлі рухани құндылықтарын сақтай отырып, жаңа заманның талаптарына сәйкес келетін жаңашылдықтарды енгізуге шақырды. Абай қазақ халқының рухани болмысын өзгертіп, оның қоғамдық дамуына ықпал ету үшін ғылыми білім мен ақыл-ойды қолдады. Ол халықтың мәдениеті мен тілін бағалаумен қатар, әлемдік білім мен ғылымды меңгеруді ұсынды. Бұл жаңашылдық қазақ қоғамының дамуына ықпал етті, және бүгінгі таңда да маңызды болып табылады.

Абай үшін білім мен ғылым – адамзаттың рухани дамуының негізі. Оның шығармашылығында білім алу мен ғылымға ұмтылу адамның рухани жетілуінің басты шарты ретінде көрсетіледі. Абай қазақ қоғамының дамуы үшін жаңа білім мен ғылымды меңгеруді ұсынды, әрі бұл көзқарастары бүгінгі таңда да өзекті болып қала береді. Ол ғылымның адам өміріндегі рөлі туралы айта отырып, адамның тек ішкі рухани әлемін ғана емес, қоғамдық өмірде де ақылмен шешім қабылдауға қабілетті болуын қалаған. Абайдың ғылым мен білімге деген көзқарастары қазіргі қоғамдағы білімге, технологияға деген қажеттілікті түсінуге көмектеседі. Абайдың философиясында адам мен табиғаттың өзара тығыз байланысы өте маңызды орын алады. Ол табиғатты адамзаттың рухани әлемінің айнасы ретінде көрген. Абай табиғаттың сұлулығын, оның әртүрлілігін бағалап, адам мен табиғаттың үйлесімділігін сақтауды уағыздады. Оның шығармашылығында адам мен табиғаттың өзара қарым-қатынасы жөнінде терең ойлар айтылады. Абайдың философиясында табиғат – бұл адамның өзін-өзі тануы мен табиғатпен үйлесімді өмір сүру жолдарын табудағы негізгі құрал болып табылады. Қазіргі экологиялық мәселелерді шешуде Абайдың табиғат пен адам арасындағы байланысты терең түсіну өте маңызды.

Абай қазақ халқының ұлттық құндылықтарын сақтауды және дамытуға ұмтылуды басты мақсат етіп қойған. Ол қазақ халқының рухани байлығын, оның мәдениетін бағалаумен қатар, қоғамның дамуы үшін жаңа көзқарастар мен білімдерді қабылдауды ұсынды. Абай өз шығармаларында ұлттық мәдениеттің негізін сақтай отырып, оны заман талабына сай жаңартуды, халықтың рухани байлығын жаңғыртуды көздеді. Осылайша, Абайдың философиясындағы ұлттық құндылықтар қазіргі уақытта да өзектілігін жоғалтпайды. Абайдың философиясындағы гуманизм: Абайдың шығармашылығы мен философиясында гуманизм идеясы терең тамыр жайған. Ол адамның тұлғасын, оның рухани дүниесін жоғары бағалаған. Абай үшін адамзаттың басты мақсаты – өзін-өзі жетілдіру, өз өмірінің мәнін түсіну және қоғамға пайдалы болу. Оның философиясында адамның әлеуметтік жауапкершілігі, өз-өзіне деген құрметі мен басқаларға деген жанашырлығы ерекше орын алады. Абай гуманизм идеяларын өз

шығармаларында ашық көрсетті, әрі осы идеялар қазіргі қоғамдағы адам құқықтарын қорғау мен адамдар арасындағы ынтымақтастыққа үлкен үлес қосады.

Абай Құнанбайұлының философиясы қазіргі таңда да өзектілігін жоғалтпайды. Оның шығармаларындағы адамгершілік, білім, әділет, табиғат пен адам арасындағы үйлесімділік мәселелері бүгінгі қоғамда да маңызды орын алады. Абайдың философиясындағы адам болмысының құндылығы, мораль мен рухани байлықтың орны қазіргі кезеңдегі адамзаттық мәселелерге жауап береді. Қазіргі заманда білім мен ғылымның дамуы, әлеуметтік теңсіздіктер мен әділетсіздіктер, табиғатты қорғау сияқты мәселелер Абайдың философиялық мұрасын жаңа тұрғыдан зерттеуді талап етеді. Абайдың философиясын қазіргі заманғы әлеуметтік-мәдени жағдайларға бейімдей отырып, қоғамды рухани байытуға бағытталған шаралар қабылдануы керек.

Абай Құнанбайұлының философиялық мұрасы терең әрі көп қырлы болып табылады. Ол қазақ халқының рухани болмысын, мәдениетін және ұлттық құндылықтарын сақтап, оны заман талабына сай жаңғыртуға ұмтылған ойшыл. Абайдың философиясындағы адамгершілік, білім, ақыл мен адамзаттың даму жолындағы терең пайымдаулары қазіргі қоғамға да өзекті болып қалады. Оның шығармашылығындағы дәстүр мен жаңашылдықтың үйлесімі, ұлттық болмыс пен адамгершілік мәселелері, сондай-ақ қазіргі заманға бейімделген әлеуметтік ойлар оның философиялық мұрасын бағалауға мүмкіндік береді.

Пайдаланылған әдебиеттер:

Байзаков Ж., Ботирова Ш. Әдебиеттану негіздері. Т.: 2022 ж.
Мырзахметов М. Абай және шығыс. Алматы, 1994 ж.
Мырзахметов М. Абай (Ибраһим) Құнанбаев. “Әдебиет әлемі”. Алматы, 2013 жыл.
Мырзахметов М. Абайтану. 10 томдық жинағы. Алматы, 2001 ж
Сейданов Қ. Туысқандар. Ташкент, 2018 жыл.

Нигора КАРИМОВА,
старший преподаватель,
доктор философии по филологическим наукам (Ph.D)
кафедры русской филологии
Ферганского государственного университета,
Хуснидабону БОТИРОВА,
студентка 4 курса, группы 21.78
филологического факультета
Ферганского государственного университета

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СТИЛИЗАЦИЯ В ЯЗЫКЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ

Аннотация: в статье рассматривается лингвистическая стилизация в произведениях русских и узбекских писателей, направленная на создание особого стилистического эффекта через использование языковых средств. Исследуются основные особенности стилизации, ее роль в литературе, а также способы реализации лексических, синтаксических и фразеологических особенностей в текстах авторов двух языковых традиций. Особое внимание уделяется сравнительному анализу лексического состава, особенностей синтаксической структуры и риторических приемов, используемых в произведениях русской и узбекской литературы. Работа направлена на выявление схожих и отличительных черт в лингвистической стилизации этих языков, что способствует более глубокому пониманию взаимовлияния и культурного взаимодействия между русским и узбекским языками.

Ключевые слова: *лингвистическая стилизация, русская литература, узбекская литература, сравнительный анализ, языковые средства, лексика, синтаксис, фразеология, риторика, стилистика.*

Annotatsiya: maqolada rus va o'zbek adiblari asarlarida lingvistik stilizatsiya tahlil qilinadi, bu stilistik effektni yaratish maqsadida til vositalaridan foydalanishga qaratilgan. Stilizatsiyaning asosiy xususiyatlari, uning adabiyotdagi o'rni, shuningdek, ikki tilda yozuvchi asarlarida leksik, sintaksis va frazeologik xususiyatlarning amalga oshirilish usullari o'rganiladi. Maxsus e'tibor leksik tarkib, sintaktik tuzilish va retorik uslublar taqqoslanishiga qaratiladi, ular rus va o'zbek adabiyotlarida qanday ishlatilgani tahlil qilinadi. Ishning maqsadi bu tillarda lingvistik stilizatsiyaning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdir, bu esa rus va o'zbek tillari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va madaniy munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *lingvistik stilizatsiya, rus adabiyoti, o'zbek adabiyoti, taqqoslash tahlili, til vositalari, leksika, sintaksis, frazeologiya, retorika, stilistika.*

Annotation: the article examines linguistic stylization in the works of Russian and Uzbek writers, aimed at creating a specific stylistic effect through the use of language tools. The main features of stylization, its role in literature, as well as the methods of implementing lexical, syntactic, and phraseological features in the texts of authors from two linguistic traditions are explored. Special attention is given to the comparative analysis of lexical composition, syntactic structure features, and rhetorical devices used in the works of Russian and Uzbek literature. The study aims to identify the similarities and distinctive features in the linguistic stylization of these languages, contributing to a deeper understanding of the mutual influence and cultural interaction between the Russian and Uzbek languages.

Keywords and expressions: *linguistic stylization, Russian literature, Uzbek literature, comparative analysis, language tools, lexicon, syntax, phraseology, rhetoric, stylistics.*

ВВЕДЕНИЕ

Лингвистическая стилизация является важным инструментом в творчестве писателей, который позволяет не только передать уникальность художественного мира автора, но и активно влиять на восприятие текста читателем. В контексте произведений русских и узбекских писателей этот процесс приобретает особую значимость, поскольку помогает выявить особенности национальных языков, а также дает возможность исследовать культурное взаимодействие двух языков и литературных традиций.

Русский и узбекский языки имеют долгую историю литературных взаимодействий, что отражается в стиле произведений авторов, пишущих на этих языках. Лингвистическая стилизация может проявляться в различных формах: от заимствования элементов языка другого народа до создания новых языковых конструкций, которые играют важную роль в формировании художественного образа.

Целью данной работы является исследование лингвистической стилизации в произведениях русских и узбекских писателей, анализ ключевых языковых средств, с помощью которых достигается стилистический эффект, а также выявление общих и отличительных черт в использовании этих средств в двух языках.

АНАЛИЗ

Анализ использования стилистических приемов в произведениях русских и узбекских авторов, влияние этнокультурных особенностей на языковую стилизацию, а также выявление взаимовлияния двух литературных традиций и их языковых особенностей представляет собой сложную и многогранную задачу. Рассмотрим основные аспекты этого процесса.

1. Использование стилистических приемов в произведениях русских и узбекских авторов

Стилистические приемы в литературе – это инструменты, с помощью которых авторы формируют художественные образы, создают атмосферу и передают эмоциональные состояния персонажей. В произведениях как русских, так и узбекских писателей стилизация играет важную роль в формировании индивидуального стиля и национальной самобытности.

– Метафора и сравнение: в русской литературе метафоры и сравнения часто используются для глубокой передачи психоэмоциональных состояний персонажей, что характерно для литературных направлений, таких как реализм и символизм. Например, у таких авторов, как Чехов или Достоевский, метафоры раскрывают внутренние переживания героев. В узбекской литературе использование метафор и сравнений также широко распространено, особенно в поэзии. Узбекские поэты, такие как Навои или Джами, часто прибегают к богатым образным средствам, чтобы подчеркнуть духовное состояние персонажа или передать национальную философию [4].

– Гармония звуков и ритм: в узбекской литературе, особенно в классической поэзии, важную роль играет ритм и звукопись. Это связано с традицией стихосложения на основе сложных рифмованных форм. В русской литературе, в частности в произведениях поэтов серебряного века (например, Блока, Цветаевой), звуковая гармония также играет важную роль, но с акцентом на создание мелодической и символической насыщенности.

– Фразеологизм и идиоматизм: в обоих языках используются характерные фразеологизмы, которые отражают национальные особенности восприятия мира. В русской литературе большое внимание уделяется игре с фразеологизмами, созданию новых устойчивых выражений, что придает текстам живость и характерность. В узбекской литературе использование идиом и народных выражений помогает создать аутентичную атмосферу и передать народную мудрость и философию.

2. Влияние этнокультурных особенностей на языковую стилизацию

Этнокультурные особенности играют решающую роль в формировании языковой стилизации

в литературе. Они влияют на выбор лексических средств, грамматических конструкций и риторических приемов.

– Русская стилизация: в русской литературной традиции этнокультурное влияние проявляется в образах и символах, связанных с природой, историей и религиозными традициями России. Например, символизм и реализм часто используют элементы православной культуры или крестьянской жизни, что отражает исторические и социальные реалии. В произведениях, таких как «Преступление и наказание» Достоевского, видно, как язык и стилизация используются для отображения философской борьбы персонажа и его моральных дилемм, часто с опорой на русскую православную традицию.

– Узбекская стилизация: в узбекской литературе этнокультурные особенности значительно связаны с исламской культурой, древними восточными традициями, а также влиянием персидской и арабской культур. Это особенно видно в поэзии и произведениях, где ярко выражены мотивы суфизма, философии любви и поисков истины. Язык произведений узбекских писателей часто насыщен метафоричными выражениями, исламскими терминами и ссылками на классическую восточную поэзию, что подчеркивает гармонию и духовность восточной культуры.

3. Взаимовлияние двух литературных традиций

Взаимовлияние русской и узбекской литературных традиций имеет глубокие исторические корни. В период советской власти, когда культурные связи между республиками были интенсивными, взаимодействие русских и узбекских авторов стало более выраженным. В это время многие узбекские писатели писали на русском языке или использовали элементы русской литературы в своих произведениях, а русские авторы черпали вдохновение из восточных мотивов.

– Влияние русской литературы на узбекскую: многие узбекские писатели, такие как Чулпан и Абдулла Каххар, были глубоко связаны с русской литературной традицией, что проявлялось в их языковой стилизации и тематике произведений. Многие узбекские писатели адаптировали русскую прозу и поэзию, внося в них элементы восточной философии и культуры [5].

– Влияние узбекской литературы на русскую: в свою очередь, влияние узбекской литературы на русских писателей особенно заметно в творчестве таких авторов, как М. Горький и И. Бунин, которые обращались к восточным темам и мотивам в своих произведениях. Они использовали элементы узбекской поэзии, фольклора и философии для создания новых образов и сюжетов, что стало частью стилистической эволюции русской литературы.

ВЫВОДЫ

Лингвистическая стилизация в произведениях русских и узбекских писателей является важным аспектом, который отражает не только личностные особенности авторов, но и культурные и исторические связи между двумя литературными традициями. Влияние этнокультурных особенностей на язык и стилизацию проявляется через разнообразие метафор, фразеологизмов, риторических приемов и тем. Взаимовлияние русской и узбекской литературы, в свою очередь, обогащает обе традиции, создавая уникальные синтетические формы и расширяя горизонты литературного и культурного взаимодействия.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Ахмадуллаев М. И. Лингвистическая стилизация в литературе / М. И. Ахмадуллаев. – Ташкент: Наука, 1999.
2. Баев А. М. Теория и практика лингвистической стилизации / А. М. Баев. – М.: Наука, 2005.
3. Булгаков М. А. Мастер и Маргарита / М. А. Булгаков. – М. : Художественная литература, 1987.
4. Джами М. Шахрастан / М. Джами. – Ташкент: Академия, 1993.
5. Каххар А. Избранные произведения / А. Каххар. – Ташкент: Шарқ, 1983.
6. Навои А. Хамса / А. Навои. – Ташкент: Наука, 2001.
7. Петров А. А. Язык и стиль в русской литературе / А. А. Петров. – М.: РГГУ, 2012.

Лайло ЭЛМУРАДОВА,
доцент Институт Военной Авиации Республики Узбекистан



ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РУССКОГО ГЛАГОЛА В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: в данной статье анализируется грамматическое содержание глагола в русском языке, а также его высокая эстетическая ценность, на которую обращали особое внимание многие писатели, особенности употребления глагола в художественной литературе.

Ключевые слова: *русский язык, грамматика, глагол, художественная ценность, художественная литература, стиль языка, фразеологические слова.*

Annotatsiya: ushbu maqolada rus tilida fe'lning grammatik mazmuni hamda ko'plab yozuvchilar alohida e'tibor bergan yuqori estetik qiymatga ega ekanligi, badiiy adabiyotda fe'lning qo'llanilishining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *rus tili, grammatika, fe'l, badiiy qiymat, badiiy adabiyot, til uslubi, frazeologik so'zlar.*

Annotation: this article analyzes the grammatical content of the verb in Russian and the fact that it has a high aesthetic value, which many writers pay special attention to, the peculiarities of the use of the verb in fiction.

Keywords: *russian language, grammar, verb, artistic value, fiction, language style, phraseological words.*

Введение

В языке одухотворяется весь народ, вся его жизнь, история, обычаи. Многие лингвисты считают, что глагол – самая сложная и самая емкая часть речи; к тому же он обладает широкими возможностями описания жизни в ее развитии, движении. В глаголах наши виды и неразрывно с ними связанное сочетание глаголов с предлогами придают русскому глаголу такую живость и определенность оттенка в отношении к образу действия, какого не в состоянии выразить ни один язык из известных нам. Для того чтобы представить место, которое занимает категория вида в системе русского глагола, необходимо отметить те яркие особенности, которые присущи ему как лексико-грамматическому классу слов.

Основная часть

Тема «Глагол», которой отводится значительное место в учебном плане, – довольно сложная, но занимательная тема, изучаемая в школе. Но, к сожалению, у многих обучающихся она не вызывает должного интереса. А ведь глагол – одна из самых ярких и необходимых частей речи. А.Н. Толстой писал: «Найти верный глагол для фразы – это значит дать движение фразе» [1].

В художественных произведениях всё, о чем рассказывает автор, лишь тогда «оживает», когда события, люди, мотивы их поступков, свойства характеров представлены в динамике, в действии. Это закон художественного отображения жизни, о котором знали еще античные поэты. Аристотель утверждал: «Те выражения представляют вещь наглядно, которые изображают ее в действии».

Глагол играет огромную роль в нашей речи. Ведь не зря же великие люди говорят о глаголе: «По моему глубокому убеждению, вся разительность прозы – в глаголе, ибо глагол – это действенность характера». (Ю.Бондарев). «Глаголы – это слова, оживляющие все, к чему они приложены». (А.М.Пешковский) [2].

«Глагол – необыкновенная часть речи. Необыкновенна она уже тем, что обозначает действие, и поэтому глагол обладает огромным потенциалом для выражения бесчисленных действий, сопровождающих человека и многообразные аспекты его деятельности (трудовой, социальной, экономической, научной, общественной, политической и др.), различные явления природы» [3].

Об экспрессивных возможностях русского глагола говорили многие лингвисты и писатели. Н. Греч отметил, что глагол «придает речи жизнь», «присутствием своим животворит отдельные слова». Современные исследователи утверждают, что в глаголе, образно говоря, течет самая алая, самая артериальная кровь русского языка. Глагол во всем богатстве его семантики, со свойственными ему значениями грамматических форм и возможностями синтаксических связей, при многообразии стилистических приемов образного употребления является неисчерпаемым источником экспрессии[4].

Shu bilan birgalikda urush tasviriga oid asarlarda kishilardagi axloqiy qadriyatlar ham asar “yuragi”dan joy oladi. Yozuvchilar urush haqidagi tajribalar, insoniyat boshdan kechirgan azob-uqubatlar hamda qurbonliklar haqida gapira turib, u orqali axloqiy tanlov hamda vatanparvarlik hissini asar mazmuniga singdirib yuborishadi. Bu ma’naviy-axloqiy mezonlarning obraz tanloviga mos kelish-kelmasligi yozuvchi tomonidan hal qilinadi. Urush qatnashchisi bu davrda hissiyotlari oldida qiyinchilikka yuz tutadi: o‘z vataniga sodiqlik va insoniyatga bo‘lgan mehr hislari hamda bu qadriyatlarning urushda poymol bo‘lishi ziddiyat asosida qalamga olinadi. Bundan tashqari, voqeliklarda vatanparvarlik ruhini ilgari surish ham obrazlarga xos qahramonlik talqini, jangovar ruhi bilan uyg‘unlikda yuzaga keladi. Jumladan, Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” asarida ushbu holat badiiy yo‘sinda talqin qilingan .

Umuman olganda, davr nasrida urush voqeligi tasviri bu haqiqatga yaqin, go‘zal axloqiy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan, insoniyatning boshdan kechirgan azob-uqubatlarini aks ettiruvchi mavzu sanaladi. Bu orqali kitobxonga urush dahshatlarini, inson ruhiyatidagi ta’sirini yetkaza olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djokhongirovna, K. N. (2020). The period of national awakening in uzbek poetry echo of the treasure voice of the nation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 4045-4054.
2. Kholikova, N. D. (2020). The genesis and poetic evolution of character Shirin. Alisher Navoi and the XXI centure.
3. Yo‘ldoshev, Q. (2006). Yoniq so‘z. –Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Холиқова, Н. (2020). Ўзбек мумтоз адабиётида хотин-қизлар образининг бадиий тадрижи (Ширин образи мисолида). Academic research in educational sciences, (3).
5. www.google.com
6. www.wikipedia.org
7. www.chatgp.com

Diyora NURIMOVA,
Profi university Navoiy filiali
O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

USMON AZIM VA MUHAMMAD YUSUF ASARLARI LIRIK DISKURSIDA METAFORA

Annotatsiya: ushbu maqolada diskurs hamda matn tushunchalariga oid nazariy ma’lumotlar beriladi. Lirik diskursda uslubiy vositalar ahamiyati, ko‘chim turlari bayon etiladi. Muhammad Yusuf va Usmon Azim asarlari lirik diskursida qo‘llangan metaforalar, ularni qo‘llashda muallifning pragmatik niyati tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: *matn, diskurs, trop, metafora, pragmatika, uslub.*

Annotation: this article provides theoretical information on discourse and text concepts. Lyrical discourse describes the importance of methodological tools and types of movement. Metaphors used in the lyrical discourse of the works of Muhammad Yusuf and Usman Azim, and the author’s pragmatic intention in their use are studied.

Key words: *text, discourse, trope, metaphor, pragmatics, style.*

Аннотация: в данной статье представлена теоретическая информация о дискурсивных и текстовых концепциях. Лирический дискурс описывает значение методических средств и типов движения. Исследуются метафоры, использованные в лирическом дискурсе произведений Мухаммада Юсуфа и Усмана Азима, и прагматическая интенсия автора в их использовании.

Ключевые слова: *текст, дискурс, троп, метафора, прагматика, стиль.*

Diskurs hamda matn farqli tushunchalar bo‘lsa-da, bir-biridan butkul uzilgan holda kelmaydi, ammo ularni ma’nodosh deb qarash noto‘g‘ri. Matn diskursning ajralmas qismi, shu bilan birga diskurs ham matndagina reallashadi. Diskurs muayyan tuzilishdagi funksional uslublar elementlari vositasida reallashadi. Badiiy matn namunalarida buni yanada oydin ko‘rishimiz mumkin. Badiiy asarning ko‘rinishi bo‘lgan lirik matnga asoslangan diskursda matn kommunikativ faoliyat sifatida yondashishdan boshlanadi. Bunda matn tuzilishi ochiq, ya’ni ham muallifi, ham adresatning nutq faoliyatini ifoda etgan formada obrazli-assotsiativ xarakter ifodalaydi. U maqsadli sotsial faoliyat mahsuli bo‘lib, lingvistik sotsial-interaktiv va madaniy qoidalar asosida yozuvchi hamda o‘quvchi orasida kechadigan o‘zaro aloqa jarayonidir. Bu o‘zaro aloqani hosil qilish uchun yozuvchi turli lingvistik vositalarga murojaat qiladi. Bu vositalarning eng muhimi esa, albatta, muallif uslubi hamda uni ifodalovchi ritorik vositalardir.

Darhaqiqat, har qanday lirik matn badiiyligining me’yori sifatida ritorik vositalar tushunilarkan, “Ritorika nima o‘zi?” degan savolga biroz to‘xtalaylik. Dastlab qadimgi Yunonistonda mil.avv.V asrda paydo bo‘lgan ritorikaga oid qarashlar Platon hamda Aristotel bilan uzviy bog‘liqdir. Ritorika bu ishontirish mahorati, nutqning bezatilish hamda ta’sir etilishdagi ustaligidir. Tinglovchilar e‘tiborini o‘zida saqlash uchun ritorlar doimo insonlar tushunmaydigan so‘zlarni o‘z uslublari ila his qilishga majbur etadi. Buni ifodalashda esa ritorik vositalar, troplar, uslubiy figuralardan foydalanadi.

Uslubiy troplarda muallif so‘zning turli ma’nolariga asoslanadi, ya’ni ko‘chim hosil qiladi. Bu vositalarda muayyan ma’noda bir-biriga o‘xshash ikki fenomen ifodalanadi, bir fenomen hisobiga butkul boshqa bir ma’no hamda ifoda namoyon bo‘ladi. Obrazli fikrlash deb ham yuritiluvchi bu jarayon insonda bolalikdayoq paydo bo‘ladi. Masalan, ninachiga pari, chumoliga mehnatkash inson, yo‘l hamda uzun irmoqlarga esa ilon izi sifatida obrazli fikrlash. Muallif ham ba’zan g‘ayrioddiy so‘zlar kombinatsiyasini yaratadi. So‘zning asl ma’nosidan boshqa metaforik o‘xshatishlarni o‘quvchi dunyoqarashiga singdiradi hamda o‘quvchini ham o‘z tasavvur prizmasida olamni ko‘rishga undaydi. Troplar vositasida muallif olam manzarasini obrazli ifodalaydi. Trop, ya’ni ko‘chimlarga lirik matnlardagi epitet, metafora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, giperbola, litota, ironiya kabi tasvir vositalarini kiritishimiz mumkin.

O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan lirik diskurslarda til sistemasining xususiy ifodasi estetik funksiyalar bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil etiladi. Bu vazifaning to‘kis ifodalanishi muallif o‘z fikr, niyatini o‘quvchiga qanchalar jonli, tafakkur formasiga yetkazishiga imkon beradi. Estetik funksiyalar ham o‘z navbatida emotsionallik, ifodalilik kabi badiiy matn kategoriyalari bilan yuzaga chiqadi.

Lirik diskursda muallif muayyan obrazlar yaratadi hamda bu obrazlar vositasida o‘quvchiga ta’sir o‘tkazadi. Bu obrazlar ham insonlarga xos xususiyatlarni ifodalaydi, bu ifoda tarzini ritorik vositalar yordamida ham formalashtiradi. “Badiiy diskursda ritorik vositalarning ikki muhim jihati bordir: yozuvchi maqsadidagi niyat hamda bundan paydo bo‘lgan obrazlarni moslashtirish”.[1] Obrazlarning moslashtirilishidan maqsad, o‘quvchi bu va yana boshqa obrazda o‘ziga tanish yana bir xususiyatni kashf etadi, hayotga o‘sha obraz vositasida qaray boshlaydi, bu obrazni yozuvchining o‘quvchiga

yetkazgan surati bilan tasavvur qiladi.

Odatda, metafora sifatida asarlarda so‘zni o‘z ma’nosidan boshqa ma’noda qo‘llash san’ati tushuniladi. Bu san’at ma’no ko‘chishining bir turi bo‘lib, u narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Metaforalashgan ma’no odatda matn hamda diskursning badiiyligi, o‘quvchiga ta’sir etishini asosiy me’yor sifatida qabul etadi. Masalan, Muhammad Yusuf she’riga diqqat qarataylik:

Ko‘nglim sezar bu so‘qmoqdan o‘tolmayman,
Qaytib ketay desam qaytib ketolmayman.
Chaqirtoshlar tovonimdan tishlab olgan,
Kiyikchalar qo‘llarimdan ushlab olgan. [2]

Muhammad Yusuf she’riyatning ulug‘ yo‘l ekanligini tasvirlamoq uchun uni so‘qmoqqa qiyoslaydi. Bu so‘qmoqdan o‘tish qiyinligini metaforalar vositasida ifodalaydi.

Tilshunoslik adabiyotlarida metaforaning ikki turi mavjud: lingvistik metafora hamda badiiy metafora. Badiiy metafora poetika, trop, tasodif, uslub hamda muallif mahorati vositasida yuzaga chiqadi. Lingvistik metaforada assotsiativ metaforalar yozuvchining lingvistik tajribasini, dunyoning yagona manzarasini aks ettiradi, bunga ko‘ra umumiy bilimga uyg‘un subyektiv tasavvurdir. Lingvistik metaforalar til lug‘at tarkibining elementidir.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Muhammad Yusuf hamda Usmon Azim asarlarida ham metaforalardan juda ko‘p foydalaniladi. Ushbu uslubiy vositalar muallif lirik maqsadini lirik diskurs doirasida keng tasnif etishga xizmat qiladi. Badiiy matn muallifi hayot haqiqatini majoziy ifodalaydi, o‘z til imkoniyatlarini uslubiy vositalar orqali takrorlanmas usulda, badiiy ong va tafakkur uyg‘unligida o‘quvchiga sodda, ammo betakror qilib yetkazadi.

Aksariyat hollarda muallif tomonidangina badiiy haqiqatni ifodalagan metaforik vositalar vaqt o’tib an’anaviy uslubiy vositalarga aylana boradi, ayrimlari esa faqatgina ma’lum bir lirik yoki nasriy matndagina uslubiy ma’no ifodalaydi. Shuningdek, muallif ma’lum bir metaforani tanlashi uchun ayni qo‘llaniladigan ta’limot yo‘q ekanligini inobatga olsak, shoir yoki yozuvchi metafora yaratish uchun so‘zning mazmun planiga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Burchak-burchakda jim tortishar burun,
Bilmam qanday o‘y-u xayol ichida.
Tuzsiz she’rlarim deb shirindan shirin
Bolalarim yurar oyoq uchida.
Muhammad Yusuf . Saylanma

Shoir bu parchada “tuzsiz she’rlarim” birikmasi orqali metaforik ma’no ifodalaydi. Tuzsiz so‘zi aslida ma’za- ta’m bildiruvchi sifat ekanligi bilan birga ko‘chma ma’noda xususiyat ma’nosini ham ifodalashini inobatga oladi. Zero, xalqimiz nutqida “Gapida tuz yo‘q” degan barqaror birikmani ko‘p uchratganmiz. Shunga ko‘ra Muhammad Yusuf qo‘llagan ushbu metaforani an’anaviy o‘xshatishlar sirasiga kiritishimiz mumkin.

Usmon Azim she’riyatida ham bunday uslubiy vositalar ko‘lami keng, ularning ba’zilari xalqda mavjud an’anaviy badiiy uslub vositalari, ba’zilari esa muallif xayol haqiqati vositasida dunyoga kelgan badiiy olam manzaralaridir.

O‘zimni ming marta qatl ayladim,
Ming marta o‘zimga hadya etdim jon.
Sovuq bir tosh edim, qo‘shiq boshladim…
Ayt, yana nimani aylayin qurbon?[3]

“Muhabbatning tabiati” sarlavhali she’rida shoir lirikada qadimdan mavjud bo‘lgan sevgi, uning sonsiz chigalliklari hamda inson hayotiga keltirgan munavvarliklarini tasvirlar ekan, bu tuyg‘uning olamda har bir insonga bir qismat ekanligini yana bir bor uqtiradi. “Ko‘hna dard” deb ta’riflanuvchi muhabbat shoirning o‘z- o‘zini qatl etishiga, ayni damda yangi jon ato etishiga sababchi bo‘lishini o‘z badiiy tafakkur olami bilan bayon etadi.

Diskursning boshqa turlariga qaraganda lirik diskursda metaforalardan kengroq foydalaniladi. Buning sabablaridan biri sifatida diskursdagi so‘nggi davrlarda ko‘p o‘rganilayotgan jihat, ya’ni sotsio-kognitiv xususiyat deb qarashimiz mumkin. Lirik dirskursda metaforalar metaforalar masalasini tadqiq etarkanmiz, uning yaratilishida ishtirok etadigan leksik, uslubiy figuralarning roliga ham alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Konseptual metaforalarning yaratilishida leksik vosita sifatida ba’zan takrorlar kelishini ham uchratishimiz mumkin. Usmon Azim hamda Muhammad Yusuf asarlari lirik diskursida ham g‘oyaviy farqlilik zamon va makondagi hodisalarni konseptual metaforalar vositasida sotsio-kognitiv prespiktivda yondashish, mualliflarning lirik matnda leksik ifodani lingvistik va sotsial kontekstlar vositasida yetkazishida namoyon bo‘ladi.

Metaforaga sodda lingvistik birlik sifatida ham, balki pragmatik aspektda ham yondashish mumkin. Metaforik ifodalar lirik diskurslarda pragmatik ma’no yaratadi. Pragmatik jihatdan metafora muallifning matnda tasvirga olgan hodisalarga bo‘lgan asl munosabatini, nuqtayi nazarini aks ettiradi. Ba’zan qalamkash ma’lum bir hodisaga metafora vositasida yaxshi va noodatiy qarash bilan yondashadi, natijada hammaga ma’lum hodisaga muallif munosabati asarda hayotdagidan birmuncha farq qilishi ham mumkin.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan shuni umumlashtirish mumkinki, antik davrdan to bugungi kunga qadar bir qator izlanishlar, ko‘plab asarlar obyekti bo‘lgan metafora nafaqat nasriy matnlar, balki lirik matnlar diskursida ham ko‘p qo‘llaniladigan uslubiy vosita sifatida kelmoqda. Lingvistik element, uslubiy figura sifatida yondashiladigan metafora lingvistik mexanizm sifatida turli janrlar lirik diskursida axborotni ifodalovchi ritorik reprezentatsiya vazifasini bajaradi. Badiiy matnning o‘qishliligini, ifodaliligini, obrazliligini,

emotsionalligini orttiradi, o‘quvchiga asarni zavq hamda mamnuniyat bilan o‘qish imkoniyatini yaratadi. Mental mexanizm sifatida esa ikki obyekt hamda fikr orasidagi o‘xshashlikni oydinlashtirishga yordam beradi. Bunga ko‘ra yuqorida lirik diskurslarini tahlil etgan shoirlar – Usmon Azim va Muhammad Yusuf asarlarida ham metafora asosiy uslubiy vositalardan bir sifatida qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Seyidova A.S. Ingliz tili badiiy diskursida ifodalilik figuralari: Filol. Ilm.dok.– Baku, 2014. 264-b.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. –T.: “Sharq” nash. 11-bet.
3. Usmon Azim. Saylanma. –T.: “Sharq” nash. 75-bet.

Shodiya MAXAMADJONOVA,
“New Fergana School” xususiy maktabi o‘qituvchisi,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.
maxamadjonovashodiya@gmail.com

SHEKSPIR ASARLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Shekspirning fojialaridagi murakkab personajlar, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar yordamida, insonning ichki dunyosi, axloqiy dilemmasi va jamiyatdagi o‘rni tasvirlanadi. Shekspirning shaxsiy dunyoqarashi, uning skeptitsizmi, gumanizmi, hamdardlik va empatiya orqali dunyoqarashini ifodalash usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, Shekspirning asarlaridagi personajlar va ularning hissiy holatlari zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan bog'lanadi. Yozuvda Shekspirning dramatik uslubi, uning ishlatgan janr va usullaridagi insho-tashabbuslari ham yoritilgan. Asar orqali Shekspirning inson ruhiyatining murakkabligini tasvirlashdagi yondashuvi va uning o'z asarlarini qanday yangi kontekstda yaratganligi haqida keng ma’lumotlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: *badiiy adabiyot, badiiy til, tragediya, ijtimoiy farqlar, empatiya, komediya, drama, tragikomediya.*

Аннотация: в произведениях Шекспира через сложных персонажей, противоречия и конфликты изображается внутренний мир человека, его моральные дилеммы и место в обществе. Личное мировоззрение Шекспира, его скептицизм, гуманизм, сострадание и эмпатия раскрывают способы выражения его взглядов на мир. Также проводится анализ того, как персонажи Шекспира и их эмоциональные состояния соотносятся с современными психологическими подходами. В тексте освещается драматический стиль Шекспира, его использование жанров и методов, а также инициативы в создании произведений. Через данное произведение представлены широкие сведения о подходах Шекспира к изображению сложности человеческой души и о том, как он создал свои работы в новом контексте.

Ключевые слова: *художественная литература, художественный язык,трагедия, социальные различия, эмпатия, комедия, драматургия, трагикомедия.*

Annotation:in Shakespeare's works, the complex characters, contradictions, and conflicts depict the inner world of a person, their moral dilemmas, and their place in society. Shakespeare's personal worldview, his skepticism, humanism, compassion, and empathy reveal the ways in which he expressed his views on the world. The analysis also examines how Shakespeare's characters and their emotional states relate to modern psychological approaches. The text explores Shakespeare's dramatic style, his use of genres and techniques, as well as his initiatives in creating his works. Through this piece, a broad understanding of Shakespeare's approach to depicting the complexity of the human soul is presented, along with insights into how he created his works in a new context.

Key words: *fiction, artistic language, tragedy, social differences, empathy, comedy, drama, tragicomedy.*

Kirish. Badiiy adabiyotning vazifasi inson qalbining “sirli”, “yashirin” nuqtalarini yoritishdan iborat bo‘lsa, badiiy til badiiy mahoratning uzviy bo‘lagidir. Til orqali yozuvchi asar qahramonlarining murakkab, o‘ziga xos xarakterli xususiyatlari, o‘y-mulohazalari, his-tuyg‘ularini, shu jumladan, sharoit va muhitning inson ruhiyatiga ta’sirini tahlil qiladi. Badiiy asar yaratish borliqni badiiy obrazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni bo‘lib, san’atkor zimmasiga umumxalq tili boylik va imkoniyatlaridan oqilona va unumli foydalanish mas’uliyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikriy rang-barang bo‘yoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini beruvchi bitmas-tuganmas xazinaki, uning javohirlaridan har bir yozuvchi o‘z kuzatuvchanlik qobiliyati, falsafiy mushohadasi va badiiy mahorati doirasi hamda darajasida foydalanadi.[1: 75]

Ijodkorning til sohasidagi san’atkorligi birinchi galda shunda namoyon bo‘ladiki, u keng iste'moldagi so‘z

va iboralarni mohirona qo‘llash bilan bir qatorda, xalqning ilg‘or, peshqadam vakili sifatida umumxalq tili boylik va imkoniyatlari muntazam ravishda kengaytira oladi. O‘z tili materiallari asosida yangi so‘z va iboralar yaratadi, har xil dialoglarda va umuman og‘zaki nutqda mavjud bo‘lib, adabiy-yozma nutq boyligi hisoblanmaydi va ayrim leksik va frazeologik birliklarni umumxalq sharoitlarda qo‘llash yo‘li bilan ularga yangi ma’no va vazifalar yuklaydi.

Asosiy qism. Antiteza badiiy adabiyotda va notiqlikda faol qo‘llanadigan sintaktik-stilistik vosita hisoblanib, unda bir-biriga zid qo‘yiladigan tushunchalar, fikrlar qarama-qarshiligi natijasida nutqning ta’sirchanligi ortadi, bayon qilinayotgan umumiy fikrga nisbatan tinglovchining qiziqishi kuchayadi. Qo‘shma gaplarda esa bu sintaktik-stilistik vositalarda intonatsiya ko‘tarilib, shu gap doirasida kulminatsion nuqtaga yetadi.[3: 98] Antiteza hodisasi orqali qahramon ruhiyatidagi qarama-qarshi tuyg’ular kurashi, qahramonlar orasidagi ziddiyatlar, voqea-hodisalar o‘rtasidagi ziddiyatlar yaqqol tasvirlanadi. Tasvirning emotsional-ekspressivligi yanada ortadi, buni misollar asosida ko‘rib o‘tamiz.

Hamlet:

Kim qashshog'u kambag'alga xushomad qilgay?

Qo‘y boylaru kiborlarning dahlizlarda

Tiz cho’kkancha yashayversin xushomadgo‘ylar

Insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy tafovut va buning xushomadgo‘ylar uchun muhimligi, xushomadgo‘ylik, insonlarni ishtimoiy tabaqaga qarab baholash noma'qul ish ekanligi antiteza orqali yanada yaqqolroq tasvirlangan. [7: 528]

Shekspir tragediyaning ashaddiy muxlisi bo‘lgan va uning eng yaxshi pyesalari uning tragediyalaridir. “ Makbet” asari, masalan, shotlandiyalik zodagon jangchi haqida hikoya qiladi, uning xotini uni qirolga xiyonat qilishga va uni o‘ldirishga ishontiradi. Asar davomida Makbet asta-sekin o‘zini barcha do‘stlari va tarafdorlaridan ajratib, o‘zining (va xotinining) ambitsiyalariga tobora ko‘proq qaram bo‘lib qoladi. Oxir-oqibat, u bir paytlar yonma-yon jang qilgan odamlar tomonidan yo‘q qilinadi.

Shekspir o‘zining fojiali bosqichiga uzoq vaqt keldi, olti yoki yetti yil davomida uning beshta eng katta tragediyasi – “Hamlet” (1599–1601), “Otello” (taxminan 1603–04), “King Lir” ,” Makbet” va “Entoni va Kleopatra” asarlari yaratildi. Bu o‘sha yillarda yozilgan yagona pyesalar emas edi. Ammo fojialarning kontsentratsiyasi bu davrni komediyalar va tarixiy spektakllardan oldingi va keyinroq romantik deb ataladigan davrdan ajratish uchun yetarli bo‘la oldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Garchi fojiali davrni tarjimai holi, ijtimoiy tarixi yoki hozirgi sahna modasi nuqtai nazaridan to‘liq hisoblab bo‘lmasa-da, bularning barchasi sabab sifatida ko‘rsatilgan holatda ham, ba’zi savollarga hech bo‘lmaganda taxminiy javob berishi mumkin: Shekspirning asosiy fojiali mavzusi va usuli nima? Ularning klassik, o‘rta asrlar va Uyg‘onish davri an’analari bilan qanday bog‘liqligi bor? Bu savollarga javob berishga urinayotganda, ushbu shartni yodda tutish kerak, ya’ni, u bu an'analarda qanchalik ongli ravishda ishlaganligini, o‘z pyesalarini dastlabki modellarda ongli ravishda shakllantirganini, yunon va rim mavzularini o‘z maqsadiga moslashtirganini yoki o‘z amrlariga amal qilganligini ko’rishimiz mumkin.

Shekspirning eng qadimgi va eng yengil pyesalarida shaxs tuyg‘usi, uning ichki dunyosi, uning haqiqati, har bir insondan farqi va ba’zida uning og‘ir ahvoli ochib beriladi. Ba’zi bir styuardessa qahramonlar, shubhasiz, dastlabki komediyalarda paydo bo‘ladi. Shekspirning san'ati rivojlanib borar ekan, uning og‘ir ahvol yoki qiyin vaziyat yoki dilemma uchun tashvishi kuchayganga o‘xshaydi. Masalan, uning eng qadimgi tarixidagi pyesalari buyuk sahna ko‘rinishlarining yilnomalaridan boshqa narsa emas - butun rangi va kuchi bilan qirollik ifodalangan. Ulardan keyingi Richard III (1592–94) fojiali qahramon uchun an’anaviy ravishda bir odamga va uni halokatga olib keladigan dahshatli kuchlarga qaratilgan. Shohlikdan, ya’ni Shekspir qirolga, ramziy shaxsga, butun jamiyatlar o‘z qadriyatlari va ma’nolarini qidiradigan markazga murojaat qildi. Shunday qilib, Richard III deyarli butunlay dahshatli qiyofada tasvirlandi, garchi u haqida maftunkorlik, fojiali noaniqlik mavjud bo‘lsa-da.

Shekspirning fojialaridan shuni bilishimiz mumkinki, 1642-yildagi Angliyadagi teatrlarning yopilishiga qadar fojia sifati barqaror bo‘lgan bo‘lsa va yunon va Shekspir fojialari standart sifatida qabul qilinsa, vaqt o‘tgan sari tobora yomonlashgan deyishimiz mumkin. O‘sha davrning yetakchi dramaturglari orasida - Jon Vebster, Tomas Middlton, Frensis Bomont, Jon Fletcher, Kiril Turner va Jon Ford - ajoyib hunarmandlar va ajoyib shoirlar bor edi. Ularning har biri ingliz dramasi tarixida munosib o‘rin egallagan bo‘lsa-da, fojia ularning qo‘lida o‘zgarardi.

Shekspirning pyesalari haqida aniq bir narsa bilish deyarli mumkin emas. U o‘zining shaxsiyati va e'tiqodiga oid har qanday aniq ko‘rsatmani uslubiy ravishda yashirgan. Shunday qilib, Shekspir haqida bizda mavjud bo‘lgan bir nechta faktlardan biri shundaki, u haqiqatan ham o‘z spektakllarida o‘z shaxsiyati va e'tiqodlari haqida aniq ko‘rsatma bermagan. Bu Shekspir haqidagi asosiy kuzatuv bo‘lib, undan biz bu odam va uning yozuvlari haqida ma’lumot olishimiz kerak deganidir.

Dogmatizm davrida Shekspir ham mashhur skeptik Mishel de Montaign kabi skeptik edi. Shunga qaramay, Montaigne o‘z o‘quvchilariga o‘zi haqida hamma narsani aytdi: “Men o‘zim

kitobimning ishiman”, dedi u.[4: 103] Shekspir o‘z o‘quvchilariga o‘zi haqida hech narsa aytmadi: “Siz mening pyesalarimning mavzusisiz”, deydi u. Shekspir o‘zining skeptitsizligini maxsus adabiy usullarda, uslub va janr sifatida ifodalagan. Tartib sifatida, ya’ni muallifning o‘z matnida tasvirlangan materialga munosabati sifatida – Shekspirning skeptitsizmi ironiya sifatida namoyon bo‘ladi. Janr sifatida – ya’ni rasmiy xususiyatlar, konventsiyalar, personajlar va syujet chiziqlari yig‘indisi sifatida – Shekspirning skeptitsizmi tragikomediya sifatida namoyon bo‘ladi.

Shekspir gumanist deb bemalol aytishimiz mumkin. U o‘z koinotining markaziga insonni qo‘ydi – Xudoni emas, tabiatni emas, o‘zini emas, jamiyatni emas, hatto tilni ham emas, balki butun mavjudot va nomuvofiqligi bilan insonni qo‘ydi. Shekspirning fikri va ijodining egizak majburiyatlari shubha va sevgi hisoblangan. Ofeliyaga yozgan Hamlet biz uchun Shekspirdir: [5: 112]

Yulduzlarning olov ekanligiga shubha qilasiz,
Quyosh harakat qilishiga shubha,
Yolg‘onchi bo‘lish haqiqatga shubha,
Lekin sevishimga hech qachon shubha qilmang.

Shubhalar harakatni imkonsiz qiladi; sevgi harakatni muqarrar qiladi.

Shekspir axloqni bajarish uchun dramadan foydalangan. Bu bayonot juda ko‘p malaka va hatto ko‘proq namoyish qilishni talab qiladi. Shekspir G‘arb olamidagi eng mashhur yozuvchiga aylandi, chunki uning kinoyasi zamonaviy liberallarga yoqadi. Ya’ni, Shekspirning ma’lum axloqiy mulohazalar va pozitsiyalar to‘g‘risida jaholatga o‘xshamaslik uslubi bu savollarga javoblarni aniqlash mas’uliyatini uning auditoriyasiga yuklaydi, bu auditoriyalar bundan zavqlanadilar, chunki (zamonaviy liberallar sifatida) biz haqiqat va fazilat masalalari haqida o‘z fikrimizni shakllantirish erkinligini yaxshi ko‘ramiz.

Xulosa. Shunisi e’tiborga loyiqki, Shekspir ijodi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Aftidan, u bizning fikrlarimizni oldindan bilish qobiliyatiga ega edi, ayniqsa inqiroz davrida. Uning psixologik va ijtimoiy tashvishlarga sezgirligi ilmiy inqilobdan oldin vabo va diniy qo‘zg‘olon davrida yozganligi bilan bog‘liq. Ehtimol, ilm-fangacha bo‘lgan davrda ishlash Shekspir uchun afzallik bo‘lgan bo‘lishi mumkin, chunki u o‘zining empatik yondashuvini hech qanday muammosiz rivojlantirishi mumkin edi. Ushbu ilmiy tarafkashliklarga to‘sqinlik qilmagan Shekspir bugungi dunyoda aniqlanishi mumkin bo‘lgan insoniy munosabatlarni tasvirlaydi, bu esa hissiy jihatdan ilhomlantiradi. Inson munosabatlari boshqa onglarning mavjud emasligi bilan cheklangan, boshqa birovning ongi haqidagi har qanday xulosalar inson talqiniga tayanishi kerak. Shekspirning o‘ziga xos sovg‘asi uning empatik yondashuvidir: uning har bir qahramoni o‘z ovozida gapiradi, bir nechta individual nuqtai nazardan iborat hikoyani yaratadi, shu bilan birga o‘z egasiga ega. Shekspir dunyoni nafaqat uning tushunishi, balki boshqa odamning nuqtai nazaridan tasvirlaydi, lekin ularning his-tuyg‘ulari va axloqiy nuqtai nazarlari, tomoshabinlarni qahramonlar va yovuz odamlarga hamdard bo‘lishga undaydi. Shekspirning yondashuvi talqin qilish va mulohaza yuritish, hamdardlikni his qilish uchun joy yaratadi. Bunday aks ettirish uchun joy yaratish klinik amaliyot va tibbiy ta’limning markaziy qismidir.

Shekspirning asarlari, antiteza vositasini ishlatish orqali, nafaqat individual psixologik konfliktlarni, balki jamiyatdagi kengroq qarama-qarshiliklarni ham aks ettiradi. Antiteza orqali u qahramonlarning ichki dunyosini, ijtimoiy tabaqalardagi tafovutlarni va odamlarning axloqiy dilemmasini kuchli ifodalagan. [9] Shekspirning ijodi davomida fojianing psixologik va etik jihatlari, ayniqsa, uning dramatik kuchini oshirishda asosiy omilga aylangan. U o‘z asarlarida nafaqat insoniyatning haqiqiy hayotini, balki uning psixologik, axloqiy va ijtimoiy jihatlarini ham jonli va ta’sirchan tarzda aks ettirishga muvaffaq bo‘lgan. Shekspirning bu kabi murakkab va ko‘p qatlamli yondashuvi, uning asarlarining bugungi kunda ham dolzarbligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asarlar, 1-5 jildlar, –Toshkent, 1981-85, 75-bet.
2. Kaldervud, Jeyms L. Shekspir va o'limni inkor etish. Massachusets: Massachusets universiteti matbuoti, 1987, 123-bet.
3.Kott, Yan, Shekspir bizning zamondoshimiz, London: Methuen & Ko., 1972-yil,-98-bet.
4. Monrose L.A. Uyg‘onish davrini o‘rganish: madaniyat poetikasi va siyosati // Yangi adabiy sharh. - № 42. – 2000, 103-bet
5. Shekspir, Uilyam. Hamlet. Ed. Xarold Jenkins. –Nyu-York: Methuen, 1982, 112-b.
6. Shekspir, Uilyam. Qirol Lir. Ed. Kennet Muir. – London: Routledge, 1972,198-b.
7. Shekspir ensiklopediyasi / Ed. S. Uells. – M .: Raduga, 2002. 528 p.
8. www.kh-davron.uz
9. www.ziyouz.com kutubxonasi
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Stilistika

Zarina SUVONQULOVA ,
Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili
kafedrasi o'qituvchisi
Gmail: zarinasuvonqulova91@gmail.com

SHERMUHAMMAD MUNIS XORAZMIY VA UNING ADABIY MEROSI

Annotatsiya: ushbu maqolada Xorazm madaniyatining atoqli namayandasi Shermuhammad Munisning adabiy faoliyati, ijodining o'rganilishi tadqiq etilgan.
Kalit so'zlar: *xattot, muarrix, tarjimon, qo'lyozma*
Аннотация: в данной статье изучается литературная деятельность и творчество Шермухаммада Муниса, известного представителя хорезмийской культуры.
Ключевые слова: *каллиграф, историк, переводчик, рукопись.*
Annotation: in this article, the literary activity and creativity of Shermuhammad Munis, a famous representative of Khorezm culture, is studied.
Key words: *calligrapher, historian, translator, manuscript*

Kirish. O'zbek adabiyoti ko'p yillik va boy tarixga ega bo'lib, ko'plab ijodkorlarni tarbiyalagan. Bu ma'naviyat durdonalarining ko'pchiligi bugungi kunga qadar yetib kelib, adabiyot ixlosmandlari, o'quvchi va kitobxonlarning ko'nglidan allaqachon joy olib ulgurgan. XVIII asrning oxiri XIX asrning 1-yarmida Xorazm madaniyatining atoqli namoyandasi, talantli shoir, tarixchi, mohir tarjimon, yaxshi xattot, adolat va ma'rifat kuychisi sifatida shuhrat qozongan Shermuhammad Munisni shular qatoriga kiritish mumkin.

Muhokama va natijalar. Shermuhammad Munis o'z zamonasining yetuk shoiri, adibi, tarixchisi, tarjimoni, murabbiysi va ma'rifat kuychisidir. U faqat zamonasidagina emas, balki keyingi davrlarda ham xalq o'rtasida, xususan, madaniyat muxlislari, shoirlar, olimlar, san'atkorlar va tolibi ilmlar o'rtasida ham shuhrat qozongan edi. Munisning faoliyatini va adabiy merosini o'rganishda ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Dastlab sharqshunoslar Munisning "Firdavsul-iqbol" (davomini Ogahiy yozgan) asarini o'rganib unga ko'proq murojaat qildilar. Munisning tarixiy asarini o'rganishda V.V.Bartold, P.P.Ivanov ma'lum xizmat qildilar. Keyingi yillarda esa S.P.Tolstov, Y.G'ulomov, M.Yo'ldoshev va Q.Munirovlar Munis va Ogahiyning "Firdavsul – iqbol" asarini o'rganishda katta muvaffaqqiyatlarga erishdilar.

Adabiyotshunosligimizda Munis hayoti va ijodiga doir ko'pgina ishlar qilindi. Chunonchi, shoirning ijodiy merosiga aloqador bo'lgan qo'lyozma va litografik asarlar Xiva, Urganch, Samarqand, Buxoro hamda Dushanbe kutubxonalarida va ayniqsa, Toshkentda ko'proq to'plandi. Munisning adabiy faoliyatiga doir bir necha maqola va tadqiqotlar bunyodga keldi, dissertatsiyalar yozildi. Munis asarlari xrestomatiya va darsliklarga, antologiya va to'rt tomlik "O'zbek adabiyoti" ga kiritildi. Shoirning o'n ming misragacha she'ri alohida "Devon" qilib nashr etildi. Binobarin, bu faktlarning hammasi XX asrda Munisning ijodiyotini o'rganish ancha keng quloch yoyib uning ijodiy merosini kitobxonlarga yetkazishda katta yutuqlar qo'lga kiritilganligidan dalolat beradi. Munis shoir sifatida "Munisul - ushshoq" devonini, pedagog sifatida "Risolayi savod" manzumasini, muarrix sifatida "Firdavsul – iqbol" asarini yaratdi, tarjimon sifatida Mirxondning "Ravzatus – safo" asarini (birinchi tomning yarmini) tarjima qildi, xattot sifatida XVIII asr o'zbek shoiri Roqim kabilarning devonini ko'chirib, boy meros qoldirdi. Munisning hayot yo'lini o'rganishda shoirning o'zi tomonidan yozilgan asarlari (devon debochasi, ayrim she'rlari ayniqsa qasidalari) tarix kitobidagi xotiralari, zamondoshlarining yozishmalari, kotib sifatida ko'chirgan asarlari muhim ma'lumotlar beradi. Munisning "Munisul – ushshoq" ("Oshiqlar do'sti") devoni 8500 baytga yaqin poetik asardan iborat. Bu devonning turli davrlarda ko'chirilgan, toshbosmalarda bosilgan bir necha nusxalari davlatimiz ba'zi bir qo'lyozmalar fondida mavjud. Munis qo'lyozmalarining asosiy ko'pchilik qismi O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Bulardan tashqari, Munisning anchagina poetik asarlari Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida, turli bayoz va muxammaslar to'plamlarida ham mavjud. Munisning tarjimayi holi va shoirligi haqida ba'zi bir ma'lumotlar Laffasiy tazkirasida ham uchraydi. O'zbek adabiyotshunosligida birinchi bo'lib Rahmat Majidiy hayoti va ijodiga bag'ishlab "Munis Xorazmiy" maqolasini yozdi. Munis she'riyatidan namunalar e'lon qilindi. Keyingi davrlarda Munisning badiiy ijodiga qiziqish yanada oshib bordi. Shoirning hayoti,

she'riyati, tarjimasi va xattotligi N.Jumaxo'jayev, V.Zoxidov, V.Abdullayev, I.Adizova, A.Murodovlarning maqola va kitoblarida tahlil qilingan. Munis badiiy ijodini kitobxonlar o'rtasida keng targ'ib qilishda Munisning P.Shamsiyev tahriri ostida nashr etilgan "Tanlangan asarlar" kitobi g'oyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda shoirning 2293 baytdan iborat she'r va g'azallari, 290 baytdan iborat mustazod, muxammas, musaddas, ruboiy va tuyuqlari, 176 baytdan iborat "Savodi ta'lim", risolasi, jami 2759 bayt yoki 5518 misra poetik asarlari berilgan. Biroq Munis asarlarining bu nashri ayrim kamchiliklardan ham holi emas. Kitobda qasida, tarkiband, qit'a, muammo kabi janrlardan namunalar yo'q. Shu bilan birga, so'zlarning buzib o'qilishi holatlari ko'p. Biroq bu kitob hozirgacha Munis ijodining ixlosmandlari qo'lida birdan-bir yirik to'plam hisoblanadi. Bu kitob kitobxonlarga Munis she'riyatining asosini tashkil etuvchi ajoyib g'azallar, mustazodlar, muxammas, musaddas, ruboiy va tuyuqlari hamda "Savodi ta'lim" ilmiy pedogogik asari bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Munis ham Alisher Navoiydek, odamlarni yaxshi va yomonga bo'ladi. Bu o'rindagi "ahli vafo" yaxshi odamlar, ya'ni saxovatli, odil, dili pok, mehnatkash xalq bo'lib, shoir ularga xayrixohlik bilan qarab ularni hurmat bilan tilga oladi. Munisning "Erur charx bir turfa beraxmu qotil" misrasi bilan boshlanuvchi poetik asari davrni fosh etish jihatidan o'ziga xos shikoyat ohangi, fikrni bayon etish manerasiga ega. Jonlantirish bo'limidan foydalanib yozilgan bu she'riy asarda shoir o'zi yashab turgan qotil zamonda shavqat yo'qligini kinoya aralash achinib gapiradi:

Erur charx bir turfa beraxmu qotil,
Ki osmish qilich mohi navdin hamoil.
Shafaq demakim, mehr qoni to'kilmish,
Ko'mar chog'da yerga qilib nim bismil.

Mehrning o'ldirilishi(quyosh botishi) dan motam tutgan kunduzning yuzi sariq bo'lsa, tunning libosi esa qora:

Bu motamda kunduz yuzin aylabon zard,
Anga tundin etmish qaro kiyiz sarobil.

Tunda yulduzlar emas, jafo shulasi mash'al bo'lib ko'rinadi:

Kavokib dema tun shabistoni ichra,
Jafo shulasidan yoqibdur mashoil.

Mehrning o'ldirishidan bulutlar "ashk" to'ksalar, momoqaldiroq faryod chekadi:

To'kar ne uchun abr ashki farovon,
Chekar ne uchun rad faryodi hoyil.

Shundan keyingi misralarda "berahm charx"ning turli jafo – sitamlari, adolatsizligi, shavqatsizligi mohirona fosh etib boriladi:

Xususan, kishikim, erur ahli donish,
Anga zulmini aylar ortuqsi shomil.
Jafo aylamaklikda taqsir qilmas,
Xirad ichra har kimnikim topti komil.

O'sha zamon haqida yozilgan bu aybnomaning, ayniqsa, xotima qismi diqqatga sazovordir. Unda shoir falakdan shikoyat qilib yuz yil yozsang-da, uning qilmishlarini tugata olmaysan, degan xulosaga keladi:

Bu yangli jafosig'a yo'q haddu g'oyat,
Zamoni aning kinidin bo'lma g'of.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Xorazm adabiy muhitining iste'dodli vakili, bugungi kun o'quvchisiga ma'lum bo'lgan Munisning ijodiy merosini tadqiq etish, bu ijodiy merosni hajm va mazmun jihatidan baholab, targ'ib qilish hayrli vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1980. –344 б.
2. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. II китоб, –Т.: Ўқитувчи, 1964.
3. Адабиёт назарияси.- I том. – Т.: ФАН, 1978. 414-б.
4. Адабиёт назарияси.- II том. – Т.: ФАН, 1979. 443-б.
5. Аҳмедов Т. Мунис. – Т.: ФАН, 1980. – 48 б.
6. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.–Т.:Ўзбекистон. 2002. 560-б.
7. Бобожонов П. Лаффасий. Тазкираи шуаро. – Урганч. Хоразм. 1992. 120-б.
8. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X – XИX асрлар. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.
9. Жумаев Н. Мунис ғазалиёти. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.
10. Жумахўжаев Н. Саводи таълим. - Т.: Ўқитувчи, 1997.
11. Юсупов Ю. Мунис, Танланган асарлар. Т.: Ўз Давлат бадиий адабиёт. - 1957.
12. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т. Фан. 1971. 196-б.

Solijon AZIZOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
stajyor-o‘qituvchi
E-mail: solijonazizov1@gmail.com



ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA BADIIY DISKURS TALQINI: LINGVISTIK, KOGNITIV VA PRAGMATIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya: maqolada zamonaviy tilshunoslikda badiiy diskursni talqin qilishning lingvistik, kognitiv va pragmatik jihatlari detektiv janr misolida yoritilgan. Badiiy diskurs daliliy diskursdan referensiallik va haqiqat-shartlilik xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi, shu jumladan, undagi aqliy bo‘shliqlar, konseptual aralashtirish va mujassamlangan idrok nazariyalari orqali zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishida olib borilayotgan tadqiqotlarning salmog‘ini oshirishga imkoniyat yaratmoqda. Qolaversa, badiiy diskurs zamonaviy lingvistik tahlilda markaziy o‘rinni egalladi, chunki u tilning voqelikni qurish va ifodalashning asosiy jihatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *badiiy diskurs, konseptual aralashtirish nazariyasi, zamonaviy tilshunoslik, aqliy bo‘shliqlar nazariyasi, kognitiv xususiyat, murakkab tuzilma, mujassamlangan idrok/simulyatsiya, daliliy diskurs, detektiv janr.*

Аннотация: в статье рассматриваются лингвистические, когнитивные и прагматические аспекты интерпретации художественного дискурса в современной лингвистике на примере детективного жанра. Художественный дискурс отличается от фактуального дискурса своими референциальными и истинностно-условными свойствами, включая ментальные пространства, концептуальное смешение и теории воплощенного познания, что создает возможности для повышения значимости исследований, проводимых в современной лингвистике. Более того, художественный дискурс занял центральное место в современном лингвистическом анализе, поскольку он раскрывает фундаментальные аспекты того, как язык конструирует и представляет реальность.

Ключевые слова: *художественный дискурс, теория концептуальной интеграции, современная лингвистика, теория ментальных пространств, когнитивная функция, сложная структура, воплощённое познание, фактический дискурс, детективный жанр.*

Annotation: the article examines the linguistic, cognitive, and pragmatic aspects of interpreting fictive discourse in modern linguistics, using the detective genre as an example. Fictive discourse differs from factual discourse in terms of its referential and truth-conditional properties, including its mental spaces, conceptual blending, and embodied simulation theories, which is creating opportunities to increase the significance of research being conducted in modern linguistics. Moreover, fictive discourse has taken a central place in modern linguistic analysis because it reveals fundamental aspects of how language constructs and represents reality.

Key words: *fictive discourse, conceptual blending theory, contemporary linguistics, mental spaces theory, cognitive feature, complex structure, embodied simulation, factual discourse, detective genre.*

Kirish.Inson nutqi uzluksiz va uzviy tarzda rivojlanib boruvchi hamda tilshunoslik fanining asosiy diqqat markazida turuvchi voqelikdir. Tilda aks etuvchi har bir o‘zgarish inson nutqida o‘z aksini topadi va asrlar davomida ayni tadrijiy taraqqiyotni o‘zida aks ettirib kelayotgan matn, ya’ni yozuv har tomonlama muhim ahamiyatga ega bo‘lgan insoniyat idrokining noyob mahsuliga aylandi. Binobarin, ayni murakkab jarayonlarni tadqiq etuvchi tilshunoslik fanining bugungi rivojlanish konsepsiyasi o‘zida unga oid bo‘lgan muhim jihatlarni aks ettiradi. Xususan, zamonaviy tilshunoslik tilni o‘rganishdagi an’anaviy yondashuv hamda metodlarni yangi texnologiyalar va metodlar bilan o‘zaro uyg‘unlashtirishni ilgari suradi. Nemis tilshunosi B.Xaynening fikriga ko‘ra, zamonaviy tilshunoslik nazariy va uslubiy yondashuvlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi, u ham an’anaviy tizimli tahlilni, ham zamonaviy hisoblash va kognitiv usullarni birlashtiradi [1: 3]. Ingliz tilshunosi E.Redfordning qayd etishicha esa zamonaviy tilshunoslik tilni tahlil qilishning turli nazariy asoslari va uslubiy yondashuvlarini taqdim etadi, bunda tildan foydalanishning rasmiy tuzilmalari va ijtimoiy kontekstlariga urg‘u beriladi [2: 12]. Vaholanki, tilga oid tadqiqotlarning asosiy xususiyati ularning tildan insonlar qay tarzda va muhitda foydalanishlarini o‘rgangan holda, tadqiq etilayotgan tilning barcha jihatlarini ochishga zamin yaratishdan iborat. Ayniqsa, ayni jabhada diskurs o‘zining har tomonlama dolzarb amaliy ahamiyatini namoyon qilish uchun zamonaviy tilshunoslikda tahlil jarayoniga tortiladi.

Avvalambor, zamonaviy tilshunoslik fanida “diskurs” til o‘rganish jarayonining asosiy jihati sifatida e’tirof etiladi, chunki u an’anaviy lingvistik tahlilni muloqotning ijtimoiy, kognitiv va madaniy o‘lchovlari bilan bog‘lab, real hayotda til qanday ishlashini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, “diskurs”

tushunchasiga berilgan ta’riflarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak. Amerikalik tilshunos olima D.Shiffrin diskursni “jumla/ibora chegarasidan tashqarida tildan foydalanish; muloqot va o‘zaro ta’sir kontekstidagi til; fikrlash va ijtimoiy amaliyot tizimi sifatidagi til” deb ta’riflaydi [3: 23]. Britaniyalik tilshunos J.Braun va shotland-amerikalik tilshunos J.Yulning fikrlariga ko‘ra esa diskurs “foydalanishdagi til, ya’ni biron ishni amalga oshirish va biron narsani anglatish uchun ishlatiladigan til, real dunyo kontekstida ishlab chiqarilgan va talqin qilingan til”dir [4: 1]. Shuningdek, amerikalik tadqiqotchi J.Ji diskursni “tilni harakat qilish, o‘zaro ta’sir qilish, fikrlash, ishonish va ramzlar, vositalar va narsalardan foydalanish usullari bilan birlashtirish va integratsiya qilish usullari” deya ta’riflaydi [5: 28]. Mazkur ta’riflarga binoan, diskursni ikki asosiy turga, ya’ni **badiiy** (fictive discourse) va **daliliy** (factual discourse) diskursga bo‘lish mumkin. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ilk bor nemis adabiyotshunos olimasi K.Xamburger o‘zining 1973-yilda ingliz tilida nashr etilgan “Adabiyot mantig‘i” (“The Logic of Literature”) (asar nemis tilida ilk bor 1957-yilda “Die Logik der Dichtung” nomi ostida nashr qilingan) nomli asarida diskursning mazkur ikki turi haqida ma’lumot keltirgan: “Diskurs referensiallik va haqiqat-shartlilik xususiyatlariga ko‘ra badiiy va daliliy turlarga bo‘linadi. Badiiy va daliliy diskurs turlari o‘rtasidagi tub farq esa ularning voqelikka va haqiqat shartlariga turlicha munosabatda bo‘lishidadir” [6: 10]. Ayni ta’rifga asosan aytishimiz mumkinki, diskursning har ikki turi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan o‘z ahamiyatini tilda namoyon qiladi. Birinchidan, badiiy diskursning asosiy lingvistik xususiyatlari borasida atoqli fransuz tilshunos olimi S.Fleyshmanning bildirgan fikriga ko‘ra, u o‘ziga xos grammatik qonuniyatlarga egadir [7]. Ikkinchidan, shveytsariyalik adabiyotshunos tanqidchi olima M.-L. Ryan badiiy diskursdagi zamon o‘zgarishi bir nechta hikoya qilish tuzilmalarini boshqarishning asosiy mexanizmi sifatida xizmat qilishini ta’kidlaydi [8]. Jumladan, zamon deyksisi (temporal deixis) – zamon tizimlarining maxsus qo‘llanilishi, ayniqsa, bevositalikni yaratadigan “hikoya hozirgi zamoni” (narrative present); real dunyo vaqtidan mustaqil bo‘lgan badiiy vaqt chegaralarini o‘rnatuvchi vaqt ko‘rsatkichlari; hikoya vaqti va nutq vaqti o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir badiiy diskursda muhim rol o‘ynaydi. Maqolaning quyidagi qismida detektiv janr nuqtayi nazaridan badiiy diskursning zamonaviy tilshunoslikda tutgan o‘rni xususida muhim tahlil natijalarimizni keltiramiz. Vaholanki, referensiallik nuqtayi nazaridan daliliy diskurs haqiqiy voqelikka tegishliligi, badiiy diskursning o‘z haqiqatini yaratishi; haqiqat shartligi nuqtayi nazaridan bo‘lsa, daliliy diskursning tashqi haqiqatga qarshi tekshirilishining mumkinligi, badiiy diskursning esa unda yaratilgan dunyo ichidagi ichki uyg‘unlikka asoslanganligi bilan bevosita farq qiladi.

Asosiy qism. Umuman olganda, badiiy diskurs tilning xayoliy olamlarni qanday yaratishi va rivojlantirishi to‘g‘risidagi muhim tushunchalarni taqdim qiladi, shu bilan birga, dunyoni qurish va referensiallikning murakkab lingvistik mexanizmlarini namoyish etadi. Shunga ko‘ra, M.-L. Ryanning fikricha, badiiy diskurs real vaqtdan farq qiladigan vaqt doirasini o‘rnatish uchun maxsus zamon qoliplaridan foydalanadi. Ayniqsa, unda o‘tgan zamon asosan “badiiy hozirgi zamon” vazifasini bajaradi [9]. Misol uchun, detektiv janrga oid badiiy diskursda (1) **hikoya nuqtayi nazari** – asosan uchinchi shaxs cheklangan hikoya usulidan foydalaniladi, 1-shaxs hikoyasi; barcha faktlarni taqdim etayotgandek ko‘rsatib, shubhani saqlab qolish uchun ma’lumotlarni strategik tarzda ushlab turish; (2) **personajga xos til xususiyatlari** – qahramonning o‘z usullarini ta’kidlovchi referensial iboralarning tez-tez ishlatilishi; personajning o‘ziga xos belgisiga aylanib qolgan takrorlanuvchi iboralar; (3) **dialog tuzilishi** – syujetni rivojlantirish va personajlarni ochib berish uchun dialoglardan keng foydalanish; ijtimoiy sinflarni farqlash uchun rasmiy va oddiy so‘zlashuv uslublarining aralashmasi; bilvosita va bevosita nutqning strategik ishlatilishi; (4) **detektiv janrga xos nutq xususiyatlari** – oddiy suhbat ichiga dalillarning ehtiyotkorlik bilan joylashtirilishi; til orqali chalg‘itish yordamida kiritilgan “yolg‘on izlar”; keyinchalik muhim ahamiyat kasb etuvchi takroriy motivlar va iboralar; strategik ravishda qo‘llaniladigan maxsus va professional atamalar (tibbiy, huquqiy, sud-tibbiyot kabi); (5) **tuzilish qoliplari** – asosiy sezgi tafsilotlaridan foydalangan holda sahna tasvirlarining yaratilishi; harakat va mantiqiy xulosa chiqarish ketma-ketliklarining almashinib kelishi; gap tuzilishi va voqealar sur’ati orqali hikoya tarangligining shakllantirilishi; o‘ziga xos til qoliplaridan foydalangan holda jinoyatni fosh etish ketma-ketliklari; (6) **ijtimoiy sinf belgilari** –turli ijtimoiy sinflar uchun o‘ziga xos nutq uslublari; davr ruhiga mos hurmat so‘zlari va murojaat shakllarining ishlatilishi; muayyan sinfga xos lug‘at va iboralar; (7) **kognitiv** (fikrlash) **jarayonning ifodalanishi** – mantiqiy muhokamaning batafsil tavsifi; fikrlash jarayonini ko‘rsatish uchun savol va qisman javoblardan foydalanish; aqliy jarayonlarni ifodalovchi majoziy til; (8) **davr tilshunosligi** – muayyan vaqt oralig‘idagi xalq tili; o‘sha davr ijtimoiy ishoralari va iboralari; davrga xos odob-axloq qoidalari va tarixiy til xususiyatlari detektiv janrga tegishli badiiy diskursning asosiy lingvistik jihatlarini o‘zida aks ettiradi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaralsa, tadqiqotchi olim P.Vert badiiy diskurs o‘zida aqliy model qurishni namoyish etishi, xayoliy olamlarni kognitiv qayta ishlashni ko‘rsatishi hamda konseptual xaritalash jarayonlarini tasvirlashini ta’kidlaydi [10]. Xususan, bu jarayonda aqliy bo‘shliqlar nazariyasi (“*mental spaces theory*”), konseptual aralashtirish (“*conceptual blending*”) va mujassamlangan idrok/

simulyatsiya (“*embodied simulation*”) kabi kognitiv tilshunoslikning muhim nazariyalari inson badiiy diskursni qay tarzda qayta ishlashi (anglashi) va tushunishini izohlab beradi. Ya’ni:

Aqliy bo‘shliqlar nazariyasi: (fransuz tilshunosi J.Fokonye tomonidan taklif qilingan) turli ssenariylarni, jumladan, xayoliy dunyolarni tushunish uchun vaqtinchalik kognitiv tarmoqlarni yaratishni taklif qiladi. Ushbu bo‘shliqlar bizga bir vaqtning o‘zida qarama-qarshi vaziyatlarni va bir nechta perspektivalarni qayta ishlashga imkon beradi [11]. Misol uchun, detektiv janr doirasidagi badiiy diskursda haqiqiy voqealar bo‘shlig‘i, jinoyatchi tomonidan keltirilgan soxta bo‘shliq, bir necha shubhali alibilar bo‘shlig‘i va jinoyatni tergov qilish bo‘shlig‘i kabi.

Konseptual aralashtirish nazariyasi: (kognitiv olimlar J.Fokonye va M.Tyorner tomonidan ilgari surilgan) badiiy diskursda yangi ma’nolarni yaratish uchun turli xil aqliy bo‘shliqlar elementlarini qanday birlashtirganimizni tushuntiradi. Shu bilan birga, bu jarayon yangi metaforalarni va murakkab hikoya tuzilmalarini tushunishga yo‘l beradi [12]. Binobarin, bunga badiiy diskursda psixologik intuitsiyalar bilan jismoniy dalillar keltirish, hozirgi sirli o‘tmishdagi holatlar va madaniy kutilmalar bilan bog‘liq o‘zgartirilgan troplar misol bo‘la oladi.

Mujassamlangan idrok/simulyatsiya: (amerikalik olim B.Bergen tomonidan taklif qilingan) o‘quvchilarning odatda real dunyoni idrok etish va undagi voqeliklarga jalb qilingan neyron tizimlaridan foydalangan holda xayoliy harakatlar va tajribalarni aqlan mujassamlashtirishni namoyish qiladi [13]. Xususan, badiiy diskurs doirasida jinoyat sodir bo‘lgan joylarning batafsil sezgilar tasvirlari, bosh qahramonning o‘ziga xos xatti-harakatlari va jinoyatlarning jismonan qayta namoyish qilinishi ushbu nazariyaning asosiy mazmun-mohiyatini aks ettiradi.

Pragmatik nuqtayi nazardan esa amerikalik olim J.Sirl badiiy adabiyotda maxsus pragmatik qoidalarni ochib beradi, xayoliy haqiqat sharoitlari qanday ishlashini namoyish qiladi va noyob referensial mexanizmlarini ko‘rsatadi [14]. Diskursiv tahlil doirasida avstriyalik olima M.Flyudernik uning murakkab hikoya tuzilmalarini ko‘rsatishi, diskurs shaklining xilma-xilligini tasvirlashi va hikoya texnikasini namoyish etishini alohida e’tirof etadi [15]. Masalan, (1) **deyksis** (deixis) va **qarashlar** (point of view) – badiiy diskursda hikoya usulining muntazam tarzda 1-shaxsdan 3-shaxsga o‘tkazilishi; hikoya tarangligini yaratish uchun makon va zamon deyksislaridan strategik foydalanish; shaxsga mos deyksisni manipulyatsiya qilish; (2) **nutq aktlari** (speech acts) va **suhbat implikaturalari** (conversational implicature) – so‘roq sahnalarida, ayniqsa, bilvosita nutq aktlariga kuchli tayanish; qahramon tilidan o‘ziga xos performativ nutq shakllaridan foydalanish; Grays maksimalarini ataylab buzish orqali chalg‘itish (miqdor, sifat va usul maksimalari); (3) **pragmatik markerlar** – ijtimoiy maqomni ko‘rsatuvchi til belgilaridan foydalanish; guvohlar ko‘rsatmalaridagi ehtiyotkorlik ifodalari; muloyimlik strategiyalari (ijobiy va salbiy muloyimlikning murakkab aloqalari, ijtimoiy mavqega qarab murojaat shakllarining o‘zgarishi, so‘roq paytida qo‘pol muomaladan strategik foydalanish); (4) **kontekstual freyming** (ramkalash) – ko‘p qatlamli o‘zlashtirma gap; guvohlar ko‘rsatmalaridagi ichki hikoyalar; (5) **madaniy va ijtimoiy pragmatika** – madaniy farqlar (choy ichish marosimi va kofe ichish odatlari); ijtimoiy sinfga xos til kodlari (zodagonlar va xizmatkorlar nutqidagi farqlar); davr xususiyatlariga mos muloyimlik qoidalari (voqelik sodir bo‘layotgan davr nuqtayi nazaridan); (6) **tergovga oid diskurs xususiyatlari** – intervyulardagi savol-javob ketma-ketligi; jinoyatni yakuniy fosh qilish sahnalaridagi ochilish ketma-ketligi; qahramonlarning mantiqiy xulosalash shakllari kabidir.

Xulosa.Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, zamonaviy tilshunoslikda detektiv janr misolida badiiy diskursning eng muhim jihati undagi lingvistik, kognitiv va pragmatik xususiyatlar orqali tildan foydalanishning murakkab tabiatini ochib berish hamda inson idrokining til orqali namoyon bo‘lishiga imkoniyat yaratishdan iborat. Binobarin, diskurs til, inson va nutq uchburchagi ostida hosil bo‘ladi, shu bois adresant va adresat o‘rtasidagi kommunikativ jarayon tahlili har tomonlama ichki va tashqi omillarning hisobga olinishini taqozo qiladi. Badiiy diskurs, o‘z navbatida, daliliy diskursdan farqli ravishda xayoliy dunyo konteksti bilan bog‘liq bo‘lsa-da, tadqiq etilayotgan tilga amalda zarur bo‘lgan barcha nuqtayi nazarlardan e’tibor qaratishga sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Heine B., Narrog H. The Oxford Handbook of Linguistic Analysis. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 1180 p.
2. Radford A. Linguistics: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 433 p.
3. Schiffrin D. Approaches to discourse. Cambridge, MA & Oxford: Blackwell, 1994. – 470 p.
4. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 288 p.
5. Gee J.P. An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method (4th ed.). – London: Routledge, 2014. – 248 p.
6. Hamburger K. The Logic of Literature (translated by Marilyn J. Rose). – Bloomington: Indiana University

Press, 1973. – 369 p.
7. Fleischman S. Tense and Narrativity: From Medieval Performance to Modern Fiction. – Texas: University of Texas Press, 1990. – 443 p.
8. Ryan M.L. Temporal Paradoxes in Narrative // Style. – 2019. – № 53(2). – pp. 152–171.
9. Ryan M.-L. Narrative as Virtual Reality: Immersion and Interactivity in Literature and Electronic Media. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2001. – 399 p.
10. Werth P. Text Worlds: Text Worlds Theory and the Analysis of Text and Discourse. – London: Longman, 1999. – 390 p.
11. Fauconnier G. Mental Spaces: Aspects of Meaning Construction in Natural Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 190 p.
12. Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. – New York: Basic Books, 2002. – 440 p.
13. Bergen B. Louder Than Words: The New Science of How the Mind Makes Meaning. – New York: Basic Books, 2012. – 312 p.
14. Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – 187 p.
15. Fludernik M. Towards a 'Natural' Narratology. – London: Routledge, 1996. – 454 p.



Guzal SHODIYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Xorijiy til amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: gozalshodiyeva0@gmail.com

SIYOSIY DISKURSDA SIYOSIY TILNING MADANIY KONSTRUKTIVLIGI

Annotatsiya: ushbu maqola siyosiy diskursning madaniy konstruktivligi va siyosiy tilning jamiyatdagi o'rni hamda ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlangan. Siyosiy diskurs ijtimoiy va siyosiy hodisalarni shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada siyosiy tilning madaniy qadriyatlarni ifodalash, qayta ishlab chiqish va jamiyatdagi o'zaro muloqotni tashkil etishdagi o'rni yoritilgan. Maqola siyosiy til va diskursni ijtimoiy-madaniy kontekstda chuqurroq o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *siyosiy diskurs, siyosiy til, madaniy konstruktivlik, ijtimoiy konstruktivizm, til va hokimiyat, siyosiy ritorika, madaniyat va siyosat.*

Аннотация: эта статья посвящена анализу культурной структуры политических дискотеков и анализу роли и влияния политического языка в обществе. Политический Dicistan считается ключевым инструментом, который формирует социальные и политические явления. В статье подробно описывается роль представительства, воспроизведение культурных ценностей политического языка и организации взаимного диалога в обществе. Статья имеет большое значение для научных исследований, направленных на изучение политического языка и дисков в социокультурном контексте.

Ключевые слова: *политическая дискуссия, политический язык, культурное развитие, социальное строительство, язык и правительство, политическая повторение, культура и политика.*

Annotation: this article is devoted to the analysis of the cultural constructivism of political discourse and the role and influence of political language in society. Political discourse is considered as the main tool for shaping social and political phenomena. The article highlights the role of political language in expressing, reproducing cultural values, and organizing interaction in society. The article is of urgent importance for scientific research aimed at a deeper study of political language and discourse in a socio-cultural context.

Keywords: *political discourse, political language, cultural constructivism, social constructivism, language and power, political rhetoric, culture and politics.*

Kirish. Siyosiy diskurs – bu siyosiy munosabatlar va jarayonlarni tashkil etuvchi, ularni ifoda etuvchi tilning alohida shaklidir. Siyosiy til esa madaniyat bilan uzviy bog'langan ijtimoiy konstruksiya sifatida qaraladi. Ushbu maqola siyosiy diskursning madaniy konstruktivligi tushunchasini, uning siyosiy til orqali qanday shakllanishini va jamiyatga qanday

ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi. Siyosiy til madaniyatning o‘ziga xos unsurlari, qadriyatlari va ramzlari yordamida siyosiy hodisalarni shakllantiruvchi vosita sifatida tahlil etiladi.

Siyosiy tilning madaniy konstruktivligi. Siyosiy diskurs – bu hokimiyat, siyosiy g‘oyalar va ideologiyalarni ifodalash va ularga ta’sir qilish jarayoni. Siyosiy diskurs ko‘p hollarda siyosiy hokimiyatni legimitlashtirishda, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda va jamiyatga ma’lum narrativlarni singdirishda foydalaniladi [1]. Diskurs til va ijtimoiy voqelik o‘rtasidagi muloqot sifatida tahlil qilinadi.

Siyosiy til nafaqat informatsiya yetkazish, balki jamiyat madaniy qadriyatlarini ifodalash va qayta ishlab chiqish vositasidir. Siyosiy tilning madaniy konstruktivligi deganda, tildagi so‘z va ifodalar yordamida ijtimoiy realliklarni shakllantirish, ularni madaniy va siyosiy jihatdan qabul qilinadigan shaklga keltirish jarayoni tushuniladi. Bu tushuncha asosan konstruktivizm nazariyasiga asoslanib, madaniyatni ijtimoiy haqiqatni yaratishdagi asosiy vosita sifatida ko‘radi.Til orqali siyosiy rahbarlar o‘z mafkuralarini madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib, auditoriyani jalb etishga harakat qiladilar. Bu jarayonni quyidagicha tushuntirish mumkin:

1. Madaniy qadriyatlarning aks ettirilishi: siyosiy til milliy qadriyatlar va tarixiy tajribalar yordamida konstruksiyalanadi. Masalan, “erkinlik”, “adolat”, “barqarorlik” kabi tushunchalar siyosiy diskursda tez-tez qo‘llaniladi [2].
2. Ramzlar va mifologiyalar: siyosiy diskursda milliy ramzlar va mifologiyalar ko‘p ishlatiladi. Bu jarayon madaniyatga xos narrativlar orqali hokimiyatning ijtimoiy legitimatsiyasini kuchaytiradi [6].
3. Konstruktivizm va siyosiy qarorlar: konstruktivizmga ko‘ra, davlatlar va jamiyatlar siyosiy qarorlarini nafaqat real sharoitlarga asoslanib, balki o‘z madaniy paradigmalari va tarixiy xotiralariga ko‘ra ham qabul qiladi. Madaniy konstruktivlik esa milliy manfaatlar tushunchasini madaniy asosda tushunishga yordam beradi. Xalqaro munosabatlarda madaniy tafovutlar siyosiy diskursga qanday ta’sir qilishini o‘rganishga yo‘naltiriladi.
4. Manipulyativ xususiyati: siyosiy til ko‘pincha madaniy stereotiplar yoki rasmiy qarashlarni kuchaytirish vositasida ijtimoiy ongni boshqarishga xizmat qiladi [8].

Ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, ijtimoiy voqelik til orqali yaratiladi va o‘zaro muloqotda mustahkamlanadi. Siyosiy diskurs madaniy konstruktivizm nazariyasini amalda qo‘llashning yorqin namunasidir. Jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasida o‘zaro til vositasidagi muloqot madaniyat va siyosatni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi [7].

Diskursning madaniy asosida siyosiy nutq va munozaralar odatda, madaniyatning asosiy elementlariga tayanadi. Madaniy konstruktivlik bu jarayonda quyidagi rollarni bajaradi:

Simvollar va metaforalarning ishlatilishi: siyosiy yetakchilar nutqlarida o‘z xalqi uchun ma’no keltiruvchi madaniy belgilarni qo‘llab, ommani ilhomlantiradi.

Identitetni shakllantirish: milliy, diniy yoki mahalliy identitet siyosiy diskurs orqali madaniy konstruksiya sifatida shakllanadi.

Madaniy konstruktivlik nazariyasi konfliktologiyada ham muhim o‘rin tutadi. U madaniyatni nizolarni hal qilishda yoki ularni kuchaytirishda asosiy omil sifatida ko‘radi. Bunda 1) dialogni rivojlantirish: turli madaniy qarashlarga ega tomonlarning bir-birini tushunishiga yordam beradi. 2)madaniy o‘ziga xoslikni tan olish: Siyosiy nizolarni hal qilishda madaniy xususiyatlarni inobatga olishni tavsiya qiladi.

Siyosiy diskursda madaniy konstruktivlikning amaliy qo‘llanilishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Siyosiy tilning amaliy ko‘rinishlari quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. Saylovoldi kompaniyalari: siyosiy nutqlarda milliy madaniyat elementlari ko‘p ishlatiladi. Bu orqali siyosiy liderlar auditoriya bilan hissiy aloqa o‘rnatishga harakat qiladi.
2. Davlat bayramlari va marosimlar: siyosiy diskursning madaniy konstruktivligi davlatning rasmiy bayramlaridagi nutqlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda milliy o‘zlik va qadriyatlar tasdiqlanadi.
3. Global siyosat: xalqaro maydonda siyosiy til milliy madaniyatni boshqa mamlakatlarga tanitish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.
5. Tinchlikni targ‘ib qiluvchi nutqlar: siyosiy yetakchilar “urush” o‘rniga “tinchlik o‘rnatish jarayoni” kabi iboralarni qo‘llaydi. Masalan, “harbiy operatsiya” o‘rniga “xavfsizlikni tiklash uchun chora-tadbirlar” deyish tinchlik va konstruktivlik tasavvurini uyg‘otadi.
6. Integratsiya va birlik: “Etnik xilma-xillik” o‘rniga “madaniy boylik” iborasidan foydalanish. Bu kabi so‘zlar jamiyatdagi birlik va hamjihatlikni targ‘ib qiladi.
7. Ijtimoiy islohotlarni oqlash: siyosiy islohotlar haqida gap ketganda, “soliq yukini oshirish” o‘rniga “moliya tizimini barqarorlashtirish uchun chora-tadbirlar” kabi iboralardan foydalaniladi. Bu so‘zlashuv mazmunini yumshatadi va aholining qabul qilish imkoniyatini oshiradi.
8. Muammolarni o‘zgacha talqin qilish: ijtimoiy muammolarni madaniy jihatdan konstruktiv ko‘rsatish, masalan, iqtisodiy inqiroz davrida “inqiroz” o‘rniga “rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar” deyish orqali ijobiylik hissini yaratadi.
9. Jangari atamalarni konstruktiv qilish: terrorizmga qarshi kurash masalasida “urush” so‘zini chetlab o‘tib, “xavfsizlikni mustahkamlash” yoki “inson huquqlarini himoya qilish” iboralari qo‘llaniladi.
10. Atamalarning neytrallashuvi: siyosiy partiyalar yoki qarashlarni tavsiflashda “radikal” o‘rniga “an’anaviy bo‘lmagan qarashlar” kabi yumshoqroq iboralarni ishlatish orqali xolislikni saqlashga intilish mumkin.
11. Ishchi sinflarni qo‘llab-quvvatlash: “Ishsizlikni kamaytirish” maqsadida siyosiy dasturlarda “yangi

imkoniyatlar yaratish” yoki “bandlikni kengaytirish” kabi iboralar qo‘llaniladi.

Bu kabi iboralar siyosiy tilning madaniy konstruktivligini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular tildagi so‘z va iboralarni odamlarning ongiga ijobiy ta’sir qilish uchun strategik tarzda tanlashni ko‘rsatadi. Misol uchun, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi doirasida olib borilayotgan siyosiy diskursda tilning madaniy konstruktivligi o‘z aksini topmoqda. Bunda asosiy e’tibor milliy qadriyatlarni saqlab qolish va global maydonda davlatning o‘ziga xosligini ta’kidlashga qaratilmoqda.

Xulosa. Siyosiy diskurs va siyosiy tilning madaniy konstruktivligi jamiyat va hokimiyat o‘rtasidagi muloqotni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Siyosiy diskurs nafaqat siyosiy g‘oyalarni ifodalash vositasi, balki madaniyatni aks ettiruvchi va qayta tiklovchi qurol sifatida ham e’tiborga loyiqdir. Siyosiy tilni o‘rganish ijtimoiy va madaniy jarayonlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Madaniy konstruktivlik siyosiy diskursni tushunishda yangi nazariy platforma yaratadi. U ijtimoiy haqiqatni obyektiv narsa emas, balki madaniy muloqot orqali yaratiladigan dinamik jarayon sifatida ko‘radi. Shu sababli, siyosiy jarayonlarda madaniy unsurlarni chuqur tahlil qilish zamonaviy siyosiy strategiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fairclough, N. (2001). Language and Power. Longman.
2. Lakoff, G. (2004). Don’t Think of an Elephant! Know Your Values and Frame the Debate. Chelsea Green Publishing.
3. Bourdieu, P. (1991). Language and Symbolic Power. Polity Press.
4. Shodiyeva, G. (2023). IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLARNING LINGVAPRAGMATIK SALOHIYATI. Евразийский журнал академических исследований, 3(12 Part 2), 36-41.
5. Wodak, R., & Meyer, M. (2009). Methods of Critical Discourse Analysis. Sage Publications.
6. Barthes, R. (1972). Mythologies. Hill and Wang.
7. Laclau, E., & Mouffe, C. (1985). Hegemony and Socialist Strategy: Towards a Radical Democratic Politics. Verso.
8. van Dijk, T. A. (1998). Ideology: A Multidisciplinary Approach. Sage Publications.
9. Schaffner, C. (1996). Political Discourse Analysis. Multilingual Matters.
10. Chilton, P. (2004). Analyzing Political Discourse: Theory and Practice. Routledge.
11. Shodiyeva, G. (2024). DISKURS TUSHUNCHASINING ANALITIK TAHLILI. Gospodarka i Innowacje., 44, 133-135.

Gulizebo YUSUPOVA,
ISFT instituti o‘qituvchisi
yusupovagulizebo@gmail.com

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA MUSIQA TERMINLARINING TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada musiqa terminlarining lingvistik tomondan tadqiq etilishi, o‘zbek, ingliz va dunyo tilshunosligida musiqa terminologiyasi tadqiqining o‘ziga xosliklari haqida so‘z yuritilgan. Musiqaning inson ruhiyati, milliy mental xususiyatlariga ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvistik xususiyatlari, musiqa terminlari, yevropa tilshunosligi, til va madaniyat, terminologiya, musiqashunoslik.*

Аннотация: в статье представлен лингвистический анализ музыкальной терминологии, в котором исследуются когнитивные процессы, лежащие в основе понимания и использования музыкальных терминов. Рассматриваются особенности музыкальной терминологии в узбекском, английском языках и в общемировом контексте. Также анализируется влияние музыки на когнитивные функции человека и natsionalное сознание.

Ключевые слова: *лингвистические особенности, музыкальные термины, европейское языкознание, язык и культура, терминология, музыковедение.*

Annotation: this article discusses the linguistic study of musical terms, the specifics of musical terminology research in Uzbek, English, and world linguistics. The impact of music on human psyche and national mental characteristics is also studied.

Key words: *linguistic features, musical terms, European linguistics, language and culture, terminology, musicology.*

Jahon tilshunosligida til o‘z foydalanuvchilari bilan birgalikda tahlil qilinmoqda. Natijada har bir til o‘sha tildan foydalanuvchilarning umumiy xarakteri, mental xususiyatlari, yashash hududi, turmush tarzi, urf-odatlari va

madaniyatidan kelib chiqib shakllanishi va rivojlanishi ilmiy asoslanmoqda. Xalqning madaniy taraqqiyot darajasi, etnomadaniy etika tamoyillari, ijtimoiy munosabatlar, xalqlararo muloqot bularning barchasi tilda o‘z aksini topishini chuqur o‘rganish antropotsentrik paradigma nuqtai nazaridan “Lingvomadaniyatshunoslik” va “Aksiologiya” sohalarining o‘rganish obyektiga aylanmoqda. Taraqqiyot strategiyasida “2030-yilga qadar fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo‘nalishlar bilan boyitish” vazifasi qo‘yilgan. Bu esa dunyo tilshunosligida ham bugungi kunga kelib etnik madaniyatning rivojlanishi, tilning alohida birliklarining etnik va lingvistik xususiyatlarini aniqlash, til va madaniyat o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlikni o‘rganish hamda ularning o‘zaro ta’sir etishi natijasida yuzaga keladigan turli jarayonlarni chuqur tahlil qilish hozirgi zamon lingvistikasining eng dolzarb va muhim masalalaridan biriga aylandi. Bu termin tilini doimiy ravishda boyitib borish bilan bir qatorda, o‘zi bilan yangi madaniy tushunchani olib kirib, til va madaniyatning o‘zaro chambarchas bog‘liqligini yana bir bor isbotlab, yangi lingvomadaniy birlik sifatida shakllanadi.

Chet el musiqiy terminshunosligi juda boy bo‘lib, “Terminlar bu faqat til birligi emas, balki madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaruvchi omildir.Termin bir vaqtning o‘zida turli obyektlar va jarayonlarga nom berish va olamni anglab yetish uchun xizmat qiladi” deb o‘z fikrlarini bildirib ketgan rus olimi L.V.Ivina. Ta’kidlab o‘tish zarurki, musiqa terminlari buning yaqqol misoli bo‘lib, ular turli madaniyatlarning musiqiy merosini o‘rganish va anglashda muhim ahamiyatga ega.

“World-modelling” janr fenomeni badiiy dunyo tasavvurining rivojlanishida ayniqsa muhim rol o‘ynaydi. N.L.Leyderman badiiy asar dunyo tasvirini shakllantirishiga ishonib, “janr dunyo-modeli” va uning madaniy statusi haqidagi konsepsiyaga tarafdorlik qiladi: “Dunyoni badiiy modellashtirish tizimi sifatida janrni his etish madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi” degan fikrni bildirib ketgan. Bu g‘oyalar butunlay ijodiy janrlar, ayniqsa, musiqiy janrlar uchun ham ishlaydi.

Musiqa madaniyati insoniyat tarixining tongidan boshlab o‘rganib kelinadigan qadimiy fan hisoblanadi. Ushbu sohadagi ilk ilmiy izlanishlarni qadimgi yunon faylasuflarining asarlarida uchratishimiz mumkin. Jumladan, musiqa haqidagi yanada qadimiyroq ta’limotlar “Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy olimlari, zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da bayon etilgan. Pifagorning evritmiya, Arastuning mimesis ta’limotlari shular jumlasidan. Ular musiqaning inson ongi, shaxsiga, umuman, jamiyat rivojiga ulkan ta’sirini ta’kidlab o‘tishgan. Masalan, Aflotun “Davlatning qudrati unda qanday musiqa, qaysi lad va qay ritmda yangrayotganligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq”, – degan” .

Shu davrda sharq mamlakatlarida ham musiqa madaniyati keng tarqalgan bo‘lib, bunda Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Marog‘iy, Kavkabiy kabi buyuk mutaffakkirlar ijodida o‘z aksini topgan. Jumladan, Farobiy “Musiqa haqidagi katta kitob” ida musiqa inson ongi va uning ruhiy tabiatiga ta’siri va davlatning rivojiga, tilning tarqalishiga va davlatlar siyosatiga ta’siri haqida ma’lumotlar berib ketgan. Abu Ali Ibn Sinoning asarlarida ham musiqa inson ruhiyatini davolovchi noyob vosita ekanligi aytilgan. Qomusiy olimlarimiz asarlari, nafaqat, sharq, balki jahon musiqa madaniyatining rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan.

I.M.Sechenovning “Reflekso‘ golovnogo mozga” (Bosh miya reflekslari), “G.Gelmgolsning “Uchenie o sluxovыx narusheniyax kak fiziologicheskie osnovы teorii muzыki” (Musiqa nazariyasining fiziologik asosi bo‘lgan eshitish sezgisi haqidagi ta’limot)” , “S.M.Maykaparning “Muzikal’no‘y slux, ego znachenie, priroda, osobennosti i metodika pravil’nogo razvitiya” (Musiqiy eshitish qobiliyati, uning ahamiyati, tabiati, xususiyatlari, to‘g‘ri rivojlantirish va metodikasi), E.Jak-Dal’krozning “Ritm: yego obrazovatelnoe znachenie dlya jizni i dlya iskusstva” (“Ritm: uning hayot va san’at uchun tarbiyaviy ahamiyati”), N.A.Garbuzovning “Zonnaya priroda muzыkalnogo sluxa” (“Musiqiy eshitish qobiliyatining zonaviy tabiati”)” kabi, tadqiqotlarda musiqaning ilmiy-nazariy va ruhiy ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Sibir va Uzoq Sharq tub xalqlarining musiqiy an’analarida tillovchi fonemalar hecelerga birlashtirilib, ko‘pincha musiqada “tembr sinflari” sifatida qaraladi. Shunday qilib, Nivx xalqi za.k.a.nga va koka chnyr (og‘iz chang) hamda tiatia chkharsh (baraban-taxta) musiqasini yaratish uchun ma’nosi bo‘lmagan muayyan hecalar (vokal) to‘plamidan foydalanadilar (Mamcheva, 2012). Mahalliy musiqachilar Jaw Arp musiqasini tasavvur qilishda ular nima haqida o‘ylashlarini aytishadi. Ularni “artikulyatsiya tarozilari” deb atashadi (Nikolskiy va boshq., 2017). Rasping an’analarida ham o‘ziga xos lug‘at ishlatiladi.

Musiqa bu – madaniyatning kaliti. Odatda, biror-bir xalq madaniyatini va tilini uning musiqasi orqali o‘rganiladi. Biz insonlarni qaysi yurt egasi ekanligini musiqa orqali, uning kuylayotgan musiqasi yoki-da uning raqsi orqali ham bilib olishimiz mumkin.

Dunyo tilshunosligida termin va uning xususiyatlariga oid ilk lingvistik izlanishlar O.V.Dovbish, O.V.Baran, T.V.Shetle, B.N.Raximberdiyev, O.A.Pokrovskaya, Yumatova, N.V.Moryaxina, I.V.Skvortsova, E.N.Lotka kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Dunyo tilshunosligida musiqa terminlari turli aspektlarda tadqiq etilgan. Xususan, Ray Allen Douglas, Cohen Nancy Hager, Jeffrey Taylor , Marcia Herndon va Norma McLeod . Barelli, C, Heltermann, M, Hodges, KJ, Boesch, C, Reichard E. Haimoff, M.A.K. Halliday tomonidan turli aspektlarda musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri tilni o‘zlashtirish, qayta ishlash

va uzatishdagi o‘rni, musiqaning nazariy, metodik va psixologik xususiyatlari tahlil etilgan.

Yevropa musiqashunosligida Heinrich Schenker, Donald Tovey , Hans Keller , Rudolph Réti , Nicolas Ruwet , Guido d'Arezzo Franco of Cologne tomonidan amalga oshirilgan ishlar, musiqani uning mazmun-mohiyati va anglanishi uchun hamda keyingi bu sohadagi amalga oshirilgan ishlar uchun poydevor vazifasini o‘tagan.

MDH davlatlarida ham musiqa terminlari lingvistik jihatdan bir necha marotaba tadqiq etilgan. A.Nizomov, A.Abdurashidov, A.Rajabov, F.Aziziy kabi tojik olimlari, A.K.Kubesov, Saida Daukeyeva, A.A.Mustafayeva kabi qozoq olimlari, G.B. Shamilli, V.M.Belkin, Sharbatov kabi rossiyalik olimlar, G‘.Xashaba, Z.Yusuf, M.Hafniy tomonidan o‘rganilgan.

Musiqashunoslik ilmiga doir manbalarning terminologik xususiyatlari o‘zbek olimlari I.R.Rajabov, A.Nazarov, O.Matyoqubov, O.A.Ibrohimov, A.Jumayev kabi olimlarning tadqiqotlarida tilning badiiy xususiyatlariga doir o‘rta asrlarda ishlab chiqilgan tamoyillar va zamonaviy qarashlar uyg‘unlashgan tarzda tahlil qilingan.

O‘zbek milliy musiqa madaniyati qadim zamonlardan beri rivojlanib kelgan bo‘lib, milliy musiqamizning lingvomadaniy tuzilishidan oldin ushbu lingvomadaniy tarixini o‘rganish lozim. Tadqiqotlar natijasida milliy musiqa madaniyati sharq olimlarining asarlarida ham aks etganligiga guvoh bo‘ldik. Biz bilamizki, o‘zbek milliy musiqa madaniyatimiz asrlar davomida rivojlanib kelgan. O‘tmishdagi mashhur shoirlar ham asarlarida musiqa san’atini bir necha bor tilga olishgan. Olimlarimizdan “Abu Nasr al-Farhiy (IX asr) “Katta musiqa kitobi” asarida”, Safmiddin Urmaviy (XII asr) musiqiy risolada, Abdulqodir Marag‘iy (XIV asr) “Jami’ al-ahvon fi ilm al-musiqiy” risolada, Zaynulobiddin Xusayniy (XV asr) “Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy” risolada, Darvesh Ali Chang‘iy (XVII asr) “Musiqiy risola” asarida musiqa madaniyati haqida ma’lumot berganlar.

Ammo, “Gulchehra Ergasheva o‘z monografiyasida musiqiy so‘zlarning asl hujjat va manbalarda qisqa satrlarda, tosh yozuvlaridagina uchrashini ta’kidlaydi. O‘sha davrda musiqani yozib olish usullari bo‘lmagani uchun o‘tmishdagi musiqa asboblarining tovush chiqarish xususiyatlari haqida aniq ma’lumotga ega emasmiz. Sharq mutafakkirlarining musiqaga oid ilmiy risolalarida, shoirlarning badiiy asarlarida musiqa asboblarining nomlari va ular yaratgan muhit haqida so‘z bor bo‘lsa-da, ularning yaratilish jarayoni va badiiy imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlar juda kam. [Gulchehra Ergasheva 2012].”

O‘zbek tilshunosligida lingvistik tomondan Abdurauf Fitrat nafaqat yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, balki musiqa san’ati bilan chuqur shug‘ullangan nodir shaxs ham edi. Uning asarlari o‘sha davrdayoq musiqaning nazariy asoslari va amaliy jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu asarlar hozirgacha jahon musiqa ta’limi va madaniyatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. “Rus etnograf va musiqashunosi V.Uspenskiy Shoshmaqomni ilk bor zamonaviy notaga solish uchun Buxoroga taklif etildi. Abdurauf Fitrat homiyligi va V.Uspenskiyning zahmatli mehnati samarasi sifatida 1924-yilda “Shashmaqom’’(“Shest muzikalniy poem”) (“Olti musiqiy doston’’) nomi ostida Moskvada nashr etildi.” Abdurauf Fitrat o‘zining serqirra ijodi bilan tariximizda chuqur iz qoldirgan buyuk shaxsdir. U o‘zining “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida” maqolalari va “O‘zbek klassik musiqasi, ham uning tarixi” risolasi orqali XX asr o‘zbek musiqashunoslik faniga asos soldi. Bundan tashqari, “Shashmaqom”, ya’ni oltita maqom bo‘lmish oltin merosimiz yo‘nalishida chuqur izlanishlar olib borgan yana bitta musiqa ilmining yetuk namoyandasi Yunus Rajabiy bo‘lib ular oltin merosimizga aylangan olti maqomimiz “Shashmaqom”ni mukammal darajada kelajak avlodga yetkazgan. Yunus Rajabiy “Maqom iborasi arabcha bo‘lib, dastlabki ma’nosi istiqomat o‘rni, turar joy, dam olish joyi ma’nolariga to‘g‘ri keladi” deb ta’kidlab o‘tgan. Darhaqiqat, Yunus Rajabiy o‘zbek maqomlari matnini tanlashda, tuzishda mumtoz she’riyatimizning eng nodir, xalqchil asarlaridan va o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotidan ham nihoyatda zukkolik, ustalik bilan foydalangan. Yunus Rajabiy “Shashmaqom” ni olti tomda jamlab kelajak avlodlarga bitmas- tuganmas madaniyat qoldirgan. Birinchi tomi “buzruk”, ikkinchi tom esa “ros”, uchinchi tomi “havo” to‘rtinchi tomi “dugoh”, beshinchi tomi esa “segoh” va oltinchi tomi esa “iroq” nomlari bilan nomlanganlar. Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, “Shashmaqom” olti maqom, ya’ni oltin merosimiz 2003-yili noyabr oyida “Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi” sifatida YUNESKO tomonidan tan olinganligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa insoniyat yaratilgandan buyon inson ruhiy holatining mag‘zi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham musiqa ilmini turli aspektlarda, ayniqsa, lingvistik tomondan o‘rganish, tahlil etish va targ‘ib etish dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5117-sonli qarori // https://lex.uz/docs/5426736

2. Ivina L.V. Номинативно когнитивное исследование англоязычной терминосистемы венчурного финансирования: дисс… канд. филол. наук. – Москва, 2001, С. 13

3. N.L.Leyderman “World-modelling” [10, 84-b.]

4. Musiqa psixologiyasi (ma'ruzalar kursi): O'quv qo'llanma R.G'.QODIROV. – T.: Musiqa, 2005. 80 -bet
5. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T., 2004.5-10 bet
6. www.ziyouz.com kutubxonasi
7. Ray Allen, Douglas Cohen, Nancy Hager, and Jeffrey Taylor. : Its Language, History and Culture by the Conservatory of Music at Brooklyn College of the City University of New York. 2006, 2007, 2008, 2014. P110.
8. Marcia Herndon & Norma McLeod. Music as culture. Norwood editions Darby, Pennsylvania 1982.
9. "The origins of language and the evolution of music: A comparative perspective" Primate Research Institute, Kyoto University, Inuyama, Aichi 484-8506, Japan Received 7 August 2008
10. Duet-splitting and the evolution of gibbon songs: Received 16 October 2000; revised 29 August 2001; accepted 7 September 2001
11. https://en.wikipedia.org/wiki/Musical_analysis#:~:text=Some%20analysts%2C%20such%20as%20Donald,yield%20insight%20into%20analysis%20methods.
12. https://en.wikipedia.org/wiki/Musical_analysis#:~:text=Some%20analysts%2C%20such%20as%20Donald,yield%20insight%20into%20analysis%20methods.
13.https://holocaustmusic.ort.org/fileadmin/image_archive/people/hans_keller_soundsof7.png
14. https://holocaustmusic.ort.org/politics-and-propaganda/hans-keller/
15. Gulchekhra Ergasheva "Chang cholg'usida ijrochilik san'ati" 2012, 10-20-b
16. https://www.enaos.fr/P1230.aspx?IdPer=593726&IdAN=297809
17. https://olsenverlag.com/learn/what-is-music-analysis
18. https://en.wikipedia.org/wiki/Musical_analysis#:~:text=Some%20analysts%2C%20such%20as%20Donald,yield%20insight%20into%20analysis%20methods.
19. Aripova Gulnoza Tulkunovna "STUDY OF MUSIC TERMS IN COMPILING A DICTIONARY"
20. 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112

Ilhom SHOYMARDONOV,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

SURXON BOLALAR FOLKLORI POETIKASI VA KOMPOZITSIYASI

Annotatsiya: "Surxon bolalar folklori poetikasi va kompozitsiyasi" mavzusi bolalar folklorining poetik va strukturaviy jihatlarini o'rganadi. Bu soha bolalar adabiyoti va folklorining o'ziga xos xususiyatlarini, ularning ifodalovchi vositalari, ritmik va musiqiy elementlarini tahlil qiladi. Shuningdek, bolalar folkloridagi hikoya, maqol, topishmoq va boshqa janrlarning kompozitsiyaviy tuzilishi, mantiqiy bog'liqligi, obrazlar tizimi va til baynalminaxomiyalari o'rganiladi. Bunday tahlil orqali bolalar folklorining madaniy va ma'naviy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *bola, folklor, poetika, kompozitsiya, poetik, vosita.*

Annotation: the topic "Poetics and Composition of Surkhon Children's Folklore" explores the poetic and structural aspects of children's folklore. This field analyzes the specific features of children's literature and folklore, their means of expression, rhythmic and musical elements. Also, the compositional structure, logical connection, system of images, and linguistic intricacies of stories, proverbs, riddles and other genres in children's folklore are studied. Such an analysis reveals the cultural and spiritual significance of children's folklore.

Key words: *child, folklore, poetics, composition, poetic, tool.*

Аннотация: тема «Поэтика и композиция детского фольклора Сурхона» исследует поэтические и структурные аспекты детского фольклора. В этом направлении анализируются особенности детской литературы и фольклора, их выразительные средства, ритмические и музыкальные элементы. Также изучаются композиционный строй, логическая связь, система образов, языковые тонкости рассказов, пословиц, загадок и других жанров детского фольклора. Подобный анализ раскрывает культурное и духовное значение детского фольклора.

Ключевые слова: *ребенок, фольклор, поэтика, композиция, поэтика, инструмент.*

Kirish. Surxon bolalar folklorining kelib chiqishi, mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko'plab folklorshunos, etnograf, tarixchi, pedagog olimlar qiziqib kelishgan bo'lsa-da, o'zbek folklorshunosligida u hali yetarli darajada o'rganilmagan. Voha bolalar folklori namunalarini to'plash, ilmiy tahlil etish ishlari yetarli

emas. Bu borada R.Mustafaqulov, T.Turdiyev, Habibullo G‘afurovlar to‘plagan materiallar muhim ahamiyatga ega.

Surxondaryo hududida istiqomat qiluvchi aholining bolalar folklorini yaxlit tizim sifatida maxsus filologik ilmiy tadqiq qilish hozirgi zamon o‘zbek folklorshunosligida og‘zaki badiiy ijod an’analarining yurtimizda saqlanish va rivojlanish holatini aniqlash uchun muhim sanaladi.

Surxon folklori janrlari rang-barangligi bilan boshqa hududlardan arial jihatdan farqlanib, o‘ziga xos ko‘rinish, kompozitsiya va poetik xususiyatlariga ega. Surxon xalq og‘zaki ijodining rivoyat, asotir, afsona, terma, doston, qo‘shiq, ertaklar, bolalar o‘yinlari va ularning rang-barang janrlari mavjud.

Bolalar folklori yuzaga kelishida kattalar folklori asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, bolalarga mo‘ljallangan ayrim o‘yinlar va qo‘shiqlarda kattalar ham faol ishtirok etishadi. Ayrim qo‘shiqlar ijrosida ham kattalar va bolalar ijrochiligi, duet shakllari mavjud.

Tahlil va natija. Shu bilan birga qatorda kattalar bolalarning tabiatga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirishda faol ishtirok etadilar. Natijada, bolalarning o‘z taqvimi va uni ifoda etuvchi mavsum marosim qo‘shiqlari yuzaga kelgan. Surxon vohasida bahor, yoz, kuz mavsumlari bilan bog‘liq bir qancha bolalar qo‘shiqlarining bir qismi “Boychechak”, “Yo Ramazon”, hayitlik bayram qo‘shiqlari bolalar repertuarida saqlanib qolgan.

Shu o‘rinda mavsum-marosim, mehnat bilan bog‘liq qo‘shiqlar qadimdan kuylanib, ayrim davrlar o‘tishi bilan avlodlar tomonidan sayqal topib, yangilanib borishini eslab o‘tish ham maqsadga muvofiqdir.

Bunday qadimiy qo‘shiqlar XI asrning noyob tarixiy-madaniy yodgorligi Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida keltirilgan. Kitobda saqlanib qolgan bu qo‘shiqlar parchalari ham ilmiy, ham ta’limiy ahamiyat kasb etadi.

Boysun tumanidan yozib olingan “Do‘st bo‘lamiz qo‘shig‘i” ham bolalarning bahor sayillarida o‘ynab aytiladigan qo‘shiqlaridan biridir:

Mast bo‘lamiz lolacha,
Rost bo‘lamiz lolacha.
Erta turib salom berib,
Do‘st bo‘lamiz lolacha.
Qizg‘oldoq lola emas,
Kapasi qal’a emas.
Lola unib chiqmasa
Bu dala dala emas.
Pichog‘i yo‘q qin bo‘lmas,
Yulduzi yo‘q tun bo‘lmas.
Lolachani ko‘rmasak,
Bu kun yaxshi kun emas.

Bu qo‘shiq orqali bolalarda tabiatsevarlik tuyg‘ulari hamda bahor fasli haqida tasavvurlarini shakllantirishda o‘z qiymatiga egaligini ko‘rishimiz mumkin.

Bahor elchisi bo‘lgan lolaga lolacha deya kichraytirish-erkalash qo‘shimchasi qo‘shib erkalab murojaat qilishda bolalarcha quvnoqlikni hosil qilishga intilish ko‘zga tashlanadi. Erta tongda gullar hidining tarqalishi, uning xushbo‘y hididan to‘yib hidlash-mast bo‘lish zavqini hosil qiladi.

Erta bahorda dalalarda lola unishi yaxshilik, go‘zallik, tiriklik ramzi sifatida qo‘llanganligi, bolalarni tabiatdan bahramandlik, gul-u gulzor yaratish, lola ungan bog‘larda kezish, tabiatsevarlik, umidli hayotsevarlik to‘laqonli o‘z ifodasini topgan. Qo‘shiq bolalarbop yetti bo‘g‘inli hijoda (4+3 turoqli) yaratilgan.

Mahmud Koshg‘ariy o‘yin va musobaqalarga nisbatan “bahs” atamasini ishlatgan. (Masalan, merganlik bahsi, hayvonlarni ovlamoq bahsi, ot ustida olishish bahsi va hokazo). Devonda o‘yinlarga oid ko‘plab atamalar ham keltiriladi. Masalan, “oyun” (o‘yin), “oynagu” (o‘yinchoq), “utush” (yutish), “tobiq” (chavgon to‘pi), “cho‘mishdi” (suvga sho‘ng‘ishda bahslashuv), “tuldi” (urdi) kabi o‘yinlar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Surxon vohasida ham “Kim chopag‘on”, “Zum-zum”, “Tez aytish”, “Quvlashmachoq”, “Bekinmachoq” va shunga o‘xshash o‘yinlar bolalarning jismoniy chiniqishiga yordam beradi. Ularni chaqqon, epchil, sezgir bo‘lishiga, aniq mo‘ljal olishga o‘rgatadi. “Kim chopag‘on”da tez chopish musobaqasining mohiyati o‘yin boshi qo‘shig‘ida shunday ifodalanadi.

Karim kamonga ketdi
Sobir somonga ketdi
Tolib, Tesha- ikkovi
Ikki tomonga ketdi
Qaysisi kelsa oldin
Manov sovg‘ani olsin.

Bolalarda mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirishda birgalashib, jamoa bo‘lib o‘ynaydigan bolalar o‘yinlari muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Bolalar o‘yini faqat chaqqonlik, epchillik, hozirjavoblik va tashabbuskorlikni tarbiyalash bilan birga do‘stlik, ahillik hissini shakllantirib boradi.

Bizga ma’lumki, Surxon vohasi qadimdan chorvachilik sohasiga mo‘ljallanganligi bilan boshqa viloyatlardan farq qiladi. Shu tariqa bolalar sigir, qo‘ylarni boqishga chiqqanda vaqtni o‘tkazish maqsadida “Qadama tayoq” (Boysun tumanining Boshrabot mahallasida “Qallama tayoq”) o‘yinini o‘ynashgan. O‘yinda bolalar mol haydash uchun olib yurgan tayoqlari asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Ular o‘yin boshlashdan oldin quyidagi boshlamalarni aytish orqali bolalarni o‘yinga chorlashgan.

Irg‘ay tayoq, uchqat tayoq, zarang tayoq, bodom tayoq
To‘dana tayoq, besh tayoq, kel o‘ynaymiz qadama tayoq
Besh tayoqni bir qilib, irg‘itamiz uzoqqa
Beshalasi tarqalib qaysi borar uzoqqa.

O‘yinda ishtirok etish taklifini bildirgan bolalar tayoqlari o‘yinboshi tomonidan jamlanib orqasiga

uloqtirish orqali o‘yinni boshlashgan.

Og‘ir tayoq, yengil tayoq, qing‘ir tayoq, qiyshiq tayoq,
Yo‘g‘on tayoq to‘qmoq tayoq kel o‘ynaymiz qadama tayoq.
Ortda qolgan tayoqni, qadab nishon qilamiz,
Tayoqlarning qay biri zo‘rligini bilamiz.
***
Avval boshda siltab ot, so‘ngra otgin tizzalab
Keyin esa ortdan ot tegizolsang sen g‘olib.
Zokirboyning tayog‘i tayoqlarning zo‘ri bo‘ldi,
Elning zarang tayog‘i, qaqshatqich zarba soldi .

Shunday qilib, xalq og‘zaki ijodi namunalari jumladan, qo‘shiqlar ham bugungi kun kishilarni bee’tibor qoldirmaydi. Chunki ularda yurtparvarlik, insonparvarlik, hayotsevarlik tuyg‘ulari jo‘shqinlik bilan ifoda etilgandir. Masalan, qish va yozga bag‘ishlangan bolalar qo‘shiqlari tabiatning bu fasllarga xos turlanishlarining qiziqarli tasvirlaridir.

Xulosa. Surxon bolalarining mavsumiy qo‘shiqlari sof mavsumiy, mavsumiy-marosimiy va mavsumiy o‘yin-qo‘shiqlari sifatida namoyon bo‘ladi. Hudud bolalarining yumoristik ruhdagi tegishmachoqlari, chandishlari, satirik ruhdagi masxaralamalari ham mavjud. Bolalar mehnat faoliyatini boshlagunga qadar hayotlari turli xil mashg‘ulotlar bilan to‘lgan bo‘ladi. Bular – bolalar o‘yinlaridir. O‘yinlar – oddiy jismoniy harakatdangina iborat bo‘lmay, ularda ma’lum bir ritm, ohang, badiiy so‘z, sujet va kompozitsiyasiga ega bo‘lgan, bolalarning jiddiy va qiziqarli mashg‘ulotlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dala yozuvi. 2018-yil. Boysun tumani Ko‘chkak mahallasida yashovchi Norov Baxodir bobodan yozib olindi.
2. Dala yozuvi. 2019-yil ushbu o‘yinning she’rlari Boysun tumani Boshrabot mahallasida istiqomat qiluvchi Mamatali Ko‘chkinovdan yozib olingan.
3. Shoymardonov.I.A. Surxon vohasi bolalar folklori (o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi va badiiyati): Filol. fan. PhD. – Buxoro, 2024. 10-b.

Ilxam SAHANIYAZOV,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi assistent o‘qituvchisi

HUJUM TAKTIK HARAKATLARINI AMALGA OSHIRISHDA YOSH FUTBOLCHILAR JISMONIY HOLATLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada 16-17 yoshdagi futbolchilarning musobaqa davomida hujumlarini turli xil holatlari o‘rganilib, keng yoritib berilgan. Bunda hujumlarni markaz va qanotlarda amalga oshirish nisbati, hujumlarni xavfli harakatlarida zarba berish holatlari keltirilgan. Bundan tashqari, hujum harakatlarini amalga oshirishda futbolchilar tomonidan amalga oshiriladigan kombinatsiyalardagi o‘yinchilarni ishtiroki ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *hujumlar soni, hujum taktik harakati, darvozaga berilgan zarbalar, hujumda ishtirok etuvchilar soni.*

Annotation: in the article, various cases of attacking 16-17-year-old players during the competition are studied and widely covered. The proportion of attacks in the center and flanks, cases of strikes in dangerous movements of attacks are given here. In addition, the participation of the players in the combinations performed by the players during the execution of offensive actions is revealed.

Key words: *number of attacks, tactical action of attack, shots on goal, number of participants in attack.*

Аннотация: в статье изучены и широко освещены различные случаи нападения на игроков 16-17 лет во время соревнований. Здесь приведены пропорции атак в центре и на флангах, случаи ударов в опасных движениях атак. Кроме того, выявляется участие игроков в комбинациях, выполняемых игроками при выполнении наступательных действий.

Ключевые слова: *количество атак, тактическое действие нападения, удары по воротам, количество участников атаки.*

Dolzarbligi. Biz barcha hujum uyushtirishda xalqaro maydonlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritishmaganlarini

ko‘pgina mualliflar (1,2) ta’kidlashgan. Futbol murabbiylarining fikrlaricha, mag‘lubiyatlarimizning sababi, bu futbolchilarimizning hujum uyushtirish harakatlarini sust va noaniq bajarishlarida jismoniy tayyorgarlik yuqori emasligida deb ta’kidlashyapti. Murabbiylar o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida tezkor hujum uyushtirish mahoratini uyushtirishga qaratilgan mashqlarni shug‘ullanuvchi bolalarning yoshi, jismoniy va funksional imkoniyatlaridan qat’iy nazar qo‘llaydilar. Shuni hisobga olganda futbolchilarimiz bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun anchagina ishlashlariga to‘g‘ri keladi.

Futbolchilarning himoya zonasidan hujum uyushtirish, jamoani g‘alabaga yetaklaydi. Lekin butun harakatlar jamoa futbolchilardan tezligi, texnik-taktik harakatlarni amalga oshirib hujumni yakunlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh futbolchilarning to‘pni o‘rta va uzoq masofaga, sherigining harakat qilish yo‘liga oshirib berishi muhim rol o‘ynaydi. Bunday hujumning asosiy maqsadi, to‘pni raqib zonasiga himoya zonasidan tezda yetkazib berib, darvoza yonida xavfli harakatlarni uyushtirib, darvozaga gol urishdan iborat. Shuning uchun futbolchilarning hujum qilishga qaratilgan mavzusi ko‘pgina mutaxassis va murabbiylar (3,4) diqqatida hisoblandi. Bundan tashqari, hozirgi kunda bunday hujumlarga qancha soniya vaqt ketishi, qancha odam ishtirok etishi va darvozaga zarba berish va boshqa harakatlari dolzarb mavzulardan biri hisoblaniladi.

Ishning maqsadi. O‘zbekiston chempionatida ishtirok etayotgan oliy toifadagi jamoa futbolchilarining musobaqa sharoitida tez hujum uyushtirishda harakatlarini tahlil qilish.

Ishning vazifalari:

- o‘yin davomidagi hujum, taktik harakatlarining amalga oshirishdagi harakatlarini soni va samaradorligini tahlil qilish;
- hujum harakatlarini amalga oshirishda hujum va himoya taktik harakatlarida futbolchilarning turli shiddatlarida harakatlanishlarini taqqoslash.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Biz tomonimizdan yosh futbolchilarning hujum taktik harakatlarining turli holatlari o‘yin davomida kuzatildi. Bu kuzatishlarda ko‘p futbolchilarni qanot va markazdan uyushtirilgan hujumlardagi xavfli ko‘rinishlarni yuzaga keltirgan vaziyatlarni (darvoza yaqinidagi) futbol akademiyalarning 16-17 yoshdagi jamoa futbolchilari orqali aniqlandi. QQR (Qoraqalpog‘iston Respublikasi), Xorazm va Buxoro futbol akademiyalarining futbolchilar hujum faoliyatlarini ko‘rib chiqdik. Jamoaning har biri 10 o‘yin davomida olingan ma’lumotlarni o‘rtacha ( ) bir o‘yin davomida tahlil qildik. Yuqorida ta’kidlanganidek, pedagogik kuzatishlarda QQR futbol akademiya shug‘ullanuvchilari 86 marotaba hujum uyushtirilganligini, shulardan 49,6 marotabasi qanotdan uyushtirilganligini, samaradorlik ko‘rsatkichi 25,8% tashkil etsa (hujumlar darvozaga zarba bilan yakunlangan holatlar), markazdan uyushtirilgan harakatlardan 34,7 marotabasidan 16,7% samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etdi. Buxoro maktabida shug‘ullanuvchi yoshlar harakatlariga keladigan bo‘lsak, qanotdan 47,5 marotaba hujumdan 25,5% samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etsa, markazdan uyushtirilgan 30 marotaba hujumdan 17,3% samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etsa, Xorazm maktabi tarbiyalanuvchilari qanotidan 48,2 marotaba hujumdan 23,7% samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etsa, markazdan uyushtirilgan 32,6 marotaba hujumdan 18,7% samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etadi. Bulardan xulosa qiladigan bo‘lsak, markazlardan uyushtiriladigan hujum harakatlari qanotdan amalga oshiriladigan harakatlar soni va samaradorligining ko‘rsatkichlari yuqoriligini aniqladik. (1-jadval)

1-jadval

16-17 yoshdagi futbolchilarning o‘yindagi xavfli hujum uyushtirish harakatlari

Jamoa	Hujum uyushtirishdagi maydon qismlari (raqib darvozasi oldida)											
	Qanotdan				Markazdan				Jami			
	Jami	+	-	*SK%*	*Jami*	+	-	*SK%*	*Jami*	+	-	*SK%*
QQR	49,6	12,8	36,8	25,8	34,7	5,8	28,9	16,7	84,3	18,6	65,7	22,1
Buxoro	47,5	12,1	35,4	25,5	30	5,2	24,8	17,3	77,5	17,3	60,2	22,3
Xorazm	48,2	11,4	36,8	23,7	32,6	6,1	26,5	18,7	80,8	17,5	63,3	21,7

Keltirib o‘tilgan natijalardan kelib chiqib, biz o‘quv-mashg‘ulot jarayonida bu kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan vositalardan foydalangan holda olib borish kerak deb bilamiz. Bunda o‘quv-mashg‘ulot jarayonida faqatgina qanot orqali uyushtiriladigan hujumlarga ixtisoslashtirilgan mashqlar to‘plamini emas, balki hozirgi kundan xavfli ko‘rinish olayotgan markazlarda uyushtiriladigan hujum taktik harakatlar muhim bo‘ladigan mashqlarga

ham ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Biz 2-jadvalda keltirilgan hujum uyushtirish harakatlariga oid ma’lumotlarni to‘liq ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, QQR futbol akademiyada shug‘ullanuvchi 16-17 yoshdagi futbolchilar bir o‘yin davomida 84,4 marotaba hujum uyushtirsalar (xavfli hujumlar nazarda), shulardan 25,9 marotabasi xavfli hujumlarni (darvozaga zarba berish bilan yakunlashga harakat qilish) tashkil etadi. Bu hujumlardan darvozalarga 18,6 marotaba zarba yo‘llanishini va 10,8 marotabasi noaniq hamda 7,8 marotabasi aniq darvoza tomon yetib kelishini kuzatsak, samaradorlik ko‘rsatkichi 41,9%, nuqsonlari 58,1% tashkil qiladi. O‘yin davomida Buxoro maktabida shug‘ullanuvchi yosh futbolchilar harakatlarida 77,5 marotaba hujumlardan 55,9 (74%) marotabasi xavfsiz hujumlarni 21,6 (27,9%) marotabasi xavfli hujumlarni tashkil etgan.

2-jadval

16-17 yoshli futbolchilar uchrashuvlardagi hujumlari va darvozaga yo‘llangan zarbalar.

	O‘yin davomidagi hujumlar					Darvozaga yo‘naltirilgan zarbalar					
	Havsiz hujumlar	Foiz (%)	O‘rta xavfli	Foiz (%)	Jami hujumlar	To‘g‘ri zarbalar	Foiz (%)	Noto‘g‘ri zarbalar	Foiz (%)	Xamma zarbalar	Foiz (%)
QQR	58,5	69,3	25,9	30,7	84,4	7,8	41,9	10,8	58,1	18,6	100
Buxoro	55,9	72,1	21,6	27,9	77,5	6,4	40,3	9,5	59,7	15,9	100
Xorazm	60,1	74,4	20,7	25,6	80,8	6,3	36,0	11,2	64,0	17,5	100

3-jadvalda yosh futbolchilarning hujum uyushtirish jarayonida futbolchilarni turli kombinatsiyalarda ishtirok etishlari e’tiborimizni tortdi. Bir o‘yin davomida ikki futbolchi hujum uyushtirish harakatlarida QQR maktabidagi shug‘ullanuvchi yoshlar 31,1 (36,8%), Buxoro maktabidagi yoshlar 29,4 (37,9%) marotaba harakatlarini va Xorazm maktabda esa, 30,2 (37.4%) marotaba harakatlarini tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin. Bu natijalardan, jamoalar hujum uyushtirishda asosan 2 o‘yinchi bo‘lib amalga oshirishlari ko‘zga tashlandi.

O‘yindagi 3 futbolchi ishtirokidagi hujum uyushtirish harakatlarida, QQR maktabida shug‘ullanuvchi futbolchilarning harakatlarini soni 25,2 (29,9%), Buxoro futbolchilar o‘yin davomida 23,4 (30.2%) va Xorazm maktabi 23,5 (29,1%) marotabani tashkil etdi. O‘yin davomida 4 futbolchi ishtirokidagi hujumlarda QQR futbolchilari, ya’ni bir o‘yin davomida 12,3 (14,6%), Buxoro futbolchilarning harakatlari 9,5 (12,3%) va Xorazm maktabi 12,4 (15,3%) marotabani tashkil etdi. 5 futbolchi ishtirokidagi harakatlarni oladigan bo‘lsak, QQR futbolchilar 8,9 (10,5%), Buxoro futbolchilari 8,3 (10,7%) va Xorazm 7,8 (9,7%) marotabani tashkil etganligini aniqladik. 6 futbolchi ishtirokidagi harakatlarga keladigan bo‘lsak, QQR maktab yoshlarining harakatlari 6,9 (8,2%), Buxoro maktab tarbiyalanuvchilari 6,9 (8,9%) va Xorazm 6,5 (8,5%) marotabani tashkil etganligini kuzatdik.

3-jadval

16-17 yoshli futbol jamoalarimizning guruhli hujum harakatlari ko‘rinishi.(X=8)

Kombinatsiyalarda ishtirok etuvchi o‘yinchilar soni		2	3	4	5	6	7	Jami
QQR	Kombinatsiya soni	31,1	25,2	12,3	8,9	6,8	-	84,4
	Foiz %	36,8	29,9	14,6	10,5	8,2	0	100
Buxoro	Kombinatsiya soni	29,4	23,4	9,5	8,3	6,9	-	77,5
	Foiz %	37,9	30,2	12,3	10,7	8,9	0	100
Xorazm	Kombinatsiya soni	30,2	23,5	12,4	7,8	6,5	-	80,8
	Foiz %	37,4	29,1	15,3	9,7	8,5	0	100

O‘yin davomida 7 va 8 futbolchi ishtirokidagi harakatlarni oladigan bo‘lsak, o‘yin davomida kuzatilmaganligini, bu bizning futbolchilarimiz 7 va 8 futbolchi ishtirokidagi hujumlar uyushtirmasliklarini bildiradi. O‘yin davomida 16-17 yoshdagilarni kuzatishlardan shuni ko‘rsak bo‘ladiki, 7-8 futbolchi ishtirokidagi hujumlar yosh futbolchilarda amalga oshirmasliklari, 5-6 futbolchi ishtirokidagi hujumlar kam amalga oshirishlarini kuzatsak, o‘yin davomida 2 futbolchi ishtirokida harakatlar ko‘proq amalga oshirishlari aniqlandi.

English-language textbooks, scientific articles and journals are an important source of up-to-date information in medicine. Medical English requires extreme precision in word formation. Using clear and unambiguous terms eliminates the risk of misinterpretation. Healthcare workers often have to communicate with patients who do not speak the local language. In such situations, English becomes a universal tool. Most modern medical devices, software and instructions for them are created in English. Understanding the language makes them easier to use.

Knowing English opens up new career opportunities, including working abroad or in international companies such as pharmaceutical corporations. English is of great importance for doctors in Uzbekistan, especially in the context of globalization and the development of international medical cooperation. Proficiency in English gives healthcare workers access to modern scientific publications, allows them to participate in international conferences, study abroad and communicate with foreign patients.

English for medical students is not just a subject, but an important tool for a successful career in medicine. In the first years, students study general English with an emphasis on grammar, vocabulary and basic skills (reading, writing, listening, speaking).In senior years, programs are adapted to medical topics. Students learn specialized vocabulary, learn to read and translate scientific articles, analyze medical histories and communicate with patients.

Role-playing games, simulations of medical consultations, analysis of clinical cases and writing scientific essays are also help medical students to learn foreign language. For knowing English better the medical students should read medical articles, textbooks, clinical guidelines; write their notes using medical terms; apply terms in speech - discuss with colleagues or record audio explaining the terms; use anatomical atlases, diagrams and pictures for visual memorization; network with colleagues, participate in clinical discussions and case studies; watch medical lectures and educational videos; solve tests on medical terminology; set aside time every day to review the terms, even 15-30 minutes of daily practice can give excellent results; ask mentors or colleagues to check that they are using the terms correctly; ask questions if something is not clear; regularly work with medical reference books and dictionaries.

With time and practice, medical terminology will become a natural part of students‘ professional speech. Knowledge of English makes medical workers more professional, mobile and in demand in the modern world. The English language has become the basis of modern medicine, bringing together specialists from around the world, promoting the standardization of medical knowledge and maintaining high standards of care. Knowledge of English is not just an additional skill, but a necessary professional skill that opens up a wide range of opportunities for healthcare workers, making their work more efficient and modern.

List of literature:

1. Ahmadjonovna, R. S., Genjibaevna, A. P., Saydullaevna, N. N., Atakulovna, R. N., & Sadulayevna, I. D. (2021). The Teacher’s Role in the Effective Organization of the Lesson Process in Foreign Language. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3072-3078.
2. Kakhramon, S., Dilbar, I., & Kamola, S. (2023). TERMINOLOGY AS A SPECIAL BRANCH OF LANGUAGE. Journal of new century innovations, 22(4), 46-49.
3. Saydullaevna, I. D., & Abbas, H. (2023, November). PRESCRIPTION, STRUCTURE OF PRESCRIPTION, USE OF GENDER SINGULAR AND PLURAL IN PRESCRIPTION. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 222-225).
4. Sadullaevna, I. D., & Teja, A. S. C. (2024). GRAMMAR CATEGORIES AND VOCABULARY FORM OF ADJECTIVES IN LATIN LANGUAGE. Journal of Universal Science Research, 2(1), 419-424.
5. Sadullaevna, I. D., & Tokhirovna, M. M. (2024). COMMUNICATIVE ASPECTS OF MEDICAL COMMUNICATION BETWEEN A DOCTOR AND A PATIENT. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(1), 264-269.

Muzayyan XOLMATOVA,
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGIKASINING RIVOJLANISHIDA XALQ PEDAGOGIKASINING O‘RNI

Annotatsiya: xalq pedagogikasi mohiyati va ta‘lim-tarbiya tizimining mazmunida xalqning turmush tarzi, milliy an‘analari va urf-odatlari ifoda etilganligi haqida ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: *pedagogika, mehnatsevarlik, jangovarlik, axloq-odob, nafosat, do‘stlik, mehrshafqat, insonparvarlik.*

Annotation: information is provided on the essence of folk pedagogy and the way in which the lifestyle, national traditions, and customs of the people are reflected in the content of the education system.

Key words: *pedagogy, fighting spirit, morality, elegance, friendship, kindness, humanity.*

Аннотация: информация о природе народной педагогики и быте, национальных традициях и обычаях народа находит свое выражение в содержании образовательной системы.

Ключевые слова: *педагогика, трудолюбие, нравственность, изысканность, дружба, доброта, гуманизм.*

Kirish. Dunyodagi har qanday xalq muayyan etnos sifatida mavjud bo’lishi uchun o‘ziga xos qiyofaga ega bo‘lishi kerak. Xalqning ijtimoiy, ma’naviy, intellektual qiyofasi esa uning pedagogik vositasitalari orqalidagina shakllanadi. Xalq pedagogikasi muayyan xalqning o‘zi bilan birga dunyoga kelgani uchun ham uning tarixi xalq tarixi bilan teng. Xalq pedagogikasining ikkinchi belgisi uning to‘liq amaliy xususiyatga egaligidir. Xalq ta’lim-tarbiya jarayoni va uning natijalariga pragmatik nazar bilan qaragani uchun xalq pedagogikasi g‘oyalar shaklida emas, balki urf-odat, an’ana, amal, udum, xulq-atvorlar tarzida namoyon bo‘ladi. Pedagogikaning ushbu tarmog’i ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlar yig‘indisi emas, balki amal qilinishi majburiy bo‘lgan va bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadigan amaliy xulqiy ko‘nikmalar majmuidir.

Asosiy qism. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o’z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o‘sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mustaxkamlashadi. Tarbiya qoidalari pedagogik ta’lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil e’tish maqsadida foydalanaladigan boshlang’ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari sharq va markaziy Osiyo faylasuf donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogikada e’rishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil e’tishi, usullari va ularga qo’yiladigan talablar shu qoidalarda o‘z ifodasini topadi.

Xalq pedagogikasi tarbiyada oilaning muhim qirralarini ochib beradi. Oilada ota-onaning o‘rni, ularga nisbatan farzandlar munosabatlari, bolalarni otalarining qudratiga ishonch ruhida tarbiyalash, onaning beqiyos mehnatlarini qadrlashga o‘rgatish, tarbiyada hamma vaqt samara berib kelgan. Shu o‘rinda Xalq pedagogikasi tarixiga nazar tashlab o`tish o‘rinli. Buyuk pedagoglar ko`proq xalqning pedagogik tajribalariga e'tibor qaratgan. Chunki xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi va unga tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Buyuk pedagog Y. A. Komenskiy ham o`zining faoliyatini xalq og‘zaki ijodi, uning urf-odatlari, qadriyatlari to‘g‘risida material to‘plashdan boshlagan. X.X.Niyoziy «Xalq pedagogikasi zamirida pedagogika fani shakllangan, rivojlangan» - deb ta'rif beradi. U yana o‘zbek xalqi tarbiya sohasida o‘ziga xos tizimga ega ekanini aytib o‘tadi. X.X. Niyoziy fikricha xalqni tarixiy tarkib topishida xalq tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Xamzaning hikoyalarida, dramalarida, pesa va povestlarida xalq pedagogikasi o‘z ifodasini topgan. [1.28]

Xalq pedagogikasiga xos xususiyatlar – insonparvarlik, ochiq ko‘ngillilik, saxovatlilik, poklik, to‘g‘ri so‘zlik, haqiqatgo‘ylik, rostgo‘ylik, yaxshi qo‘shnichilik, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik kabi fazilatlardan iborat bo‘lib, bu fazilatlar tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi va umumbashariy xususiyat kasb etadi. Shu ma’noda xalq pedagogikasi ma’lum davrda yashagan xalq, elat, guruh madaniyati, ma’naviyati, ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlarining tarkibiy qismidir. Uning umumbashariylik xususiyati shundan iboratki, u demokratik yo‘nalishda rivojlanadi, xalqning ezguliklari, orzu niyatlari va g‘oyalarini ifodalaydi. O‘zbek xalq pedagogikasidagi ilg‘or g‘oyalar – yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan yetuk, ma’rifatli, bilimli va kasb-hunarlarni egallagan, odob-axloq qoidalarini mujassamlashtirgan, barkamol inson qilib tarbiyalashdir. Xalq pedagogikasi urf-odat, an’ana va qadriyatlar orqali bir avloddan ikkinchi avlodga og‘zaki tarzda o‘tadi, so‘ngra og‘zaki ijod va yozma adabiyot mahsuli – maqol, masal, topishmoq,

ertak, latifa, qo‘shiq, lapar, askiya, dostonlar vositasida ommalashadi. Shu sababli ham, xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot, asrlar davomida yaratib kelingan xalq latifa va qo‘shiqlari, lapar va askiyalari, hikmatlari, maqollar va masallar, ertaklar va dostonlarida o‘zbek pedagogikasining zamini, fundamenti va yagona tarbiya vositasi bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda jamiyatimizda aynan mana shunday ta’lim va tarbiya vositalari dasturilamal bo’lib, xizmat qilib, biz yoshlar tarbiyasida mana shunday usul va vositalar orqali xalq pedagogikasining mazmun – mohiyatini singdira olishimiz lozim.

Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib boyib borishining fuqaro, Vatan taqdirida hal qiluvchi rolining boisi, birinchidan uning hayotiyligi, ta'sirchanligi serqirra, serma'noligida bo‘lsa, ikkinchidan uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, hayot inson muammolarini qamrab olishi tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani uchinchidan, umuminsoniy yo‘nalishga, umumbashariy g‘oya – maqsadlarga qaratilgan bo‘lganligidir.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida biz rag‘batlantirish va qoralash usullarini aks etganini ko‘ramiz. Bular bir necha shaklda ko’zga tashlanadi. Ko’pchilik ertak va dostonlarda rag‘batlantirish metodi: ma’qullash va maqtash, mukofotlash shakllarida; qoralash metodi esa: qarg’ash, uyaltirish,tanbeh berish, talab qilish, jismoniy jazo berish shakllarida uchraydi. Rag‘batlantirish metodi axloqiy tarbiya yuzasidan eng ko‘p qo’llaniladigan metodlardan biri bo‘lib, xalq og’zaki ijodida u turli shaklda o‘z aksini topgan. Xalq og’zaki ijodida asosan qoralash metodining qarg’ish va jismoniy jazo berish kabi ayrim shakillarigina uchraydi. Odatda qarg‘ish bola tarbiyasida eng ko‘p qo‘llaniladigan, shu bilan bir vaqtda eng zararli jazo shakllaridandir. Bunday jazo orqali bolalarda ruhiy azob,tushkinlik va alam ortadi.

O‘tgan davrlarda mutafakkir olimlarning o‘z munosabatlarini uning yoshlarga tarbiyaviy ta’sirini yanada kuchaytirish maqsadida, o‘z tajribalarini nafaqat xalq pedagogikasining qator shakllari, usullarini qayta tiklash uchun, balki shaxsni shakllantirishni boshqaruvchi obyektiv umumiy ijtimoiy qonunlar, xalq turmush tarzini tushunish uchun ham ularning boy merosini o‘rganish lozim.

Xalqimiz tarbiyaning turli metod va shakllarini amalga oshirishda xilma-xil tarbiya vositalaridan foydalangalar. Xalq pedagogikasida bola tarbiyalash an’analarida o’yin bolalarning bo’sh vaqtini o‘tkazishi uchun ermak emas, balki ularni tarbiyalashning asosiy yo’nalishlari qatoriga kirgizilgan. Bunda bolalarni amaliy o‘ylashga tarbiyalash, zukkolikka o‘rgatish, narsa va hodisalarni taqqoslash orqali bir-biridan farqini bilish kabi aqlni takomillashtiruvchi uslublar keng o’rin olgan.

Buyuk ma’rifatparvarlar olimlar, pedagoglar, shoirlarning pedagogik g‘oyalarini o’rganish inson tarbiyasi haqidagi xalq g‘oyalari ularning asarlaridan joy topganligiini tasdiqlaydi. Ibn Sinoning “Tadbiri manozil” kitobining “Bolalar tarbiyasi va ta’limi” bobida oila tarbiyasi amaliyotidan, Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida turli xalqlarning an’analaridan Al-Farobiyning “Katta musiqa kitobi”da xalq musiqasidan ko’p misollar bor, Nosir Husravning “Baxt kitobi” da ham oddiy odamlarning mehnatlari ulug’lanadi.[2.88]

O‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy (1878-1934 yillar) o’zining «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli asarida “Bilim bizning aqlimizni va bizning xotiramizni qilich kabi o‘tkir qiladi. Bilim, fanni egallash taraqqiyot yo‘lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir.... Bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o’xshaydi” - deb yozadi. Shu bilan bir vaqtda A.Avloniy fanni o‘zlashtirishga faqatgina xayoliy amaliyoti uchun yaroqliligi nuqtayi nazaridan yondoshish mumkin emas deb hisoblaydi., lekin ilmni o’rganish kerak va foydalidir, uni bilish o’quvchilarning bilimlarini kengaytiradi, dunyoqarashni shakllantiradi.

Xalq pedagogikasini o‘rganishga S.R.Rajabov, A.Ismoilova, I.Obidova, S.Temurova, M.Ochilov, A.Otayeva, Z.Mirtursunov, A.Minavarov kabi o’zbek olimlarining ishlari bag‘ishlangan. Binobarin, har qanday sivilizatsiya ko‘pdan- ko‘p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta’sirining mahsulidir. [3.78-81] Shunday ekan, har bir inson bu madaniyatni avaylab- asrab, xalq pedagogikasi usullari orqali keng jamoatchilik va yoshlar ongida samarali ta’sir ko’rsatishida o‘z hissasini qo‘shishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday davlatning istiqboli yetuk ma’naviyatli, o‘zida mukammal tarbiyaviy sifatlarni mujassamlashtirgan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga bog‘liqdir. Bu jarayonning samaradorligi bevosita tarbiya metodlari, usullari va vositalarinig o‘rinli hamda samarali foydalanish jarayoniga bog’liq holda amalga oshadi. Xalq pedagogikasidagi tarbiya metodlari nihoyatda xilma-xil va rang-barag bo‘lib, bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu milliy xususiyatlarimiz oila, mahalla, ona yurt muqaddasligi, ota-onaga, Vatanga, kattalarga hurmat, ona tiliga muhabbat, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlarimizdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Bekimbetova. Xalq pedagogikasida yoshlarga aqliy tarbiya berish an’analari. –Nukus 2018.28-bet.
2. S.Yo’ldosheva. Xalq urf-odatlari va an’analari. –Toshkent: Ijod dunyosi nashryoti, 2013. 88-bet.
3. M.J.Mutalipova. Xalq pedagogikasi. –Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2015. 78-81 betlar.

Gulnoza XASANOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM PARADIGMASI TAMOYILLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratlarini integrativ yo'nalishda rivojlantirib borishi, o'qitishning ilg'or usullari va ularga zamonaviy yondashuv asosida ijobiy munosabat bildirishi interfaol ta'lim jarayonlarida o'qituvchilar bilan o'zaro hamkorlikka qurilgan natijadorlikning yaqqola namunasi sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: *ma'naviyatli, salohiyatli, yuksak pedagogik qobiliyatlar, malaka oshirish, pedagogik qobiliyatini rivojlantirish mezonlari, shakl, metod vositalari, ta'lim tizimi, muhim vazifalar, motivatsiyalarni aniqlash.*

Аннотация: развитие педагогических умений и педагогических навыков студентов высших учебных заведений в сфере дошкольного образования в интегративном направлении, положительное реагирование на них на основе передовых методов обучения и современного подхода педагогов в интерактивных образовательных процессах признается наглядный пример эффективности, основанной на взаимном сотрудничестве.

Ключевые слова: *духовность, потенциал, высокое педагогическое мастерство, повышение квалификации, критерии развития педагогического мастерства, форма, методы, образовательная система, важные задачи, определение мотиваций.*

Annotation: the development of pedagogical abilities and pedagogical skills of students of higher education institutions in the field of preschool education in an integrative direction, positive reaction to them based on advanced teaching methods and a modern approach, teachers in interactive educational processes is recognized as a clear example of effectiveness built on mutual cooperation.

Key words: *spiritual, potential, high pedagogical skills, qualification improvement, criteria for developing pedagogical skills, form, methods, educational system, important tasks, determination of motivations.*

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya samaradorligini rivojlangan xorijiy davlatlar qatorida zamon talablari darajasida muntazam oshirib borish, ma'naviyatli, salohiyatli, yuksak pedagogik qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash, ularning intelektual salohiyatini oshirish maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ayni vaqtda jahon oliy ta'lim tizimi va respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatini rivojlantirish mezonlari, shakl, metod vositalarini, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning mexanizmlarini takomillashtirish dolzarblik kasb etmoqda.

Ta'lim va tarbiyaning barcha bosqichlarini texnologik jihatdan modernizatsiyalashtirish, hozirgi zamonaviy sharoitdan kelib chiqib ta'lim tizimida muhim strategik yo'nalishlarda olib borilayotgan islohot talablari o'zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim vazifalar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Oliy ta'lim muassasasi maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarining pedagogik qobiliyatini yaxlit shaklda muayyan ta'lim tizimining talablari majmu sifatida rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligiga erishish maqsadida talabalarning uzluksiz ravishda o'z bilimlarini oshirib borishida sharoitlar yaratish, shuningdek, mazkur vazifalarni amalga oshirishda pedagog tomonidan rag'batlantiruvchi usullardan foydalanish zarurati maqsadga muvofiqdir.


Sh.Q.Mardonov , K.Zaripov , A.B.Borisova va boshqa tadqiqotchilarning fikricha, malaka oshirish jarayonini ijodiy yondashuv asosida tashkil etishda interfaol ta'lim va interfaol ta'lim metodlarining o'rni va roli beqiyosdir. Zeroki, ular mohiyatiga ko'ra tinglovchilarni faollikka undash, malaka oshirish jarayonida qizg'in baxs munozaralarni yuzaga keltirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim tizimining hozirgi rivojlanish bosqichida o'qituvchilardan doimiy ravishda o'zining ta'limiy va kasbiy ehtiyojlarini mustaqil malaka oshirish orqali to'ldirib borishlarini talab qiladi. Uzluksiz ta'lim an'anaviy ta'lim tizimi resurslaridan foydalangan holda to'liq amalga oshirilmaydi, balki, uzluksiz ta'lim va malaka oshirish faoliyatining ortib borayotgan ulushi talabalarning mustaqil bilim oshirish faoliyatini muhimligini belgilaydi.

Natijalar. Shuningdek, ta'lim jarayonida tinglovchilarni o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishlariga imkon yaratish, motivatsiyalarni aniqlash va oshirish, rag'batlantirish va qayta aloqani yuzaga keltirish tamoyillarini hisobga olgan holda yondashishi bu jarayonning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz natijalarga tayangan holda oliy

ta’lim muassasasi maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarning pedagogik qobiliyatlarini integrativ yo‘nalishda takomillashtirish ta’lim paradigmasining quyidagi tamoyillariga muvofiq amalga oshirish lozimligini ta’kidlab o‘tamiz(1 -rasm).



1-rasm. Oliy ta’lim muassasasi maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining pedagogik qobiliyatlarni integrativ yo‘nalishda takomillashtirish ta’lim paradigmasining tamoyillari.

Kompensatorlik tamoyili-pedagogning kompensatorlik kompitentligini kommunikativ kompitentlik bilan o‘zaro integratsiyalovchi muhim omil bo‘lib, pedagogning faol sifatlarini va mahoratlarini tiklash imkoniyatlarini belgilaydi. Ushbu tamoyilga ko‘ra o‘qituvchi o‘zining mustaqil o‘quv faoliyatini jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishi, talabalar bilan ishlashda yangi shakl va metodlarni qo‘llashi, o‘zining tajribasi va mahoratini, o‘z-o‘zini rivojlatirib borishi, mustaqil malaka oshirish dasturini refleksiya orqali mustaqil amalga oshirishi hamda bajarilishini ta’minlashi lozim.

Pedagogning ijodiy faolligi, o‘ziga xosligi va innovatsion g‘oyalarni yarata olishi tamoyili- pedagogning ta’lim berish faoliyatida o‘ziga xos yondashuvi bo‘lib, ta’limda innovatsion g‘oyalarni joriy etishda o‘zining shaxsiy va kasbiy tomonlarini rivojlantirish orqali ijodiy faolligini oshirish, pedagogik mahorati va tajribasini takomillashtirib borishi natijasida ijodiy faolligini yuzaga chiqarishini nazarda turadi.

O‘zaro munosabat va o‘zaro aloqalar o‘rtasidagi kasbiy o‘xshashliklarni tatbiq etish tamoyili- tajribali va muvaffaqiyatlarga erishgan o‘qituvchilarning (hamkasblarining) faoliyatini o‘rganish, kasbiy o‘xshashliklarni qo‘llashda novatorlik texnologiyalarini samarali joriy etishdan iborat.

Pedagogik mahoratning o‘sishiga yo‘naltirilgan faoliyat tamoyili- o‘qituvchining kasbiy fazilatlarini doimiy ravishda shakllantirish, professional-pedagogik faoliyatlarini amalga oshirish jarayonini ma’lum o‘ziga xos imkoniyatlari doirasida innovatsion sharoitlarni yaratish asnosida uning faoliyat mazmuni, shaxsiy maqsadlari, qiziqishlari, qobiliyatlariga mutanosib ravishda samarali natija ko‘rsata oladigan rivojlanish funksiyalarini belgilab beradi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish tamoyili-pedagogning o‘zini-o‘zi rivojlantirish uzluksizlik, maqsadga muvofiqlik, integrativlik, umumiy kasbiy madaniyat birligi, o‘zaro bog‘liqlik va davomiylik, ilg‘or xarakter, past darajadan yuqori darajaga doimiy o‘tish, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishi, faoliyati doirasida o‘zining ehtiyojlarini bor imkoniyatlarini safarbar qilishi bilan belgilanadi.

Ilmiy-pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish tamoyili esa ilmiy loyihalarda ishtirok etish, ixtiro (patent), innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish, ilmiy konferensiya va jurnallarda maqolalar chop etish, monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash, o‘quv adabiyotlarini nashrdan chiqarish kabi faoliyatlarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Muhokama. Oliy ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining pedagogik qobiliyatlarini ehtiyojlari asosida mustaqil bilimlarni o‘zlashtirishning turli shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda bevosita malaka oshirish ta’lim muassasalarida kasbiy mahorati va pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganini ta’kidlash joizdir.

Oliy ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil bilimlarni

o‘zlashtirish jarayonini tashkil etishda yuqori samarali zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar, ilg‘or xorijiy tajribani keng foydalanish, butun jahon internet axborot tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullaridan foydalangan holda ilg‘or pedagogik, innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni egallash, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyati natijadorligini hisobga olgan holda yondashish kerakligini belgilab beradi. E.F.Zeer ta’kidlaganidek, oliy ta’limda pedagogik qobiliyatlarni integratsiyalashda o‘z-o‘zini yo‘naltiruvchi va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari muhim o‘rin egallaydi va ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

-kognitivlikka yo‘naltirilgan texnologiyalar: ta’limning diologli metodlari, semenar-munozaralar, muammoli o‘qitish, kognitiv yo‘riqnomalar, vositali-mantiqiy treninglar, trening refleksiyalar va hokazolar.

-faoliyatga yo‘naltirilgan texnologiyalar: loyihalar metodlari, yo‘naltiruvchi matnlar, kontekstli ta’lim, tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar, majmuaviy didaktik topshiriqlar, texnologik xaritalar, texnologik jarayonlarni taqlidiy o‘yinlar orqali modellashtirish va hokazolar.

- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalar: interaktiv va taqlidiy o‘yinlar, rivojlantirish treninglar, rivojlantiruvchi psixodiagnostika va hokazolar.

Oliy ta’lim muassasalari maktabgacaha ta’lim yo‘nalishidagi talabalarning faoliyati samaradorligi tashkilotchilik, notiqlik, tizimli tahlil qilish hamda psixologik qobiliyatlarni taqozo qiladi, shuningdek pedagogik jarayon va ta’limning mantiqiy mohiyatini anglay olishi lozim. Zamonaviy pedagog o‘z sohasidagi yuqori malakali mutaxassis bo‘lishi bilan birga, boshqa sohalarda ham fundamental bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Oliy ta’lim muassasalari maktabagacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining pedagogik qobiliyatini integrativ yo‘nalishda takomillashtirish jarayonida ularning kasbiy sifatlar tizimida pedagogik ziyraklik, milliy tarbiyaning mohiyatini va mazmunini anglashi, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o‘z mutaxassisligining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilishi, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilishi, o‘zbek xalqining an’analari, qadriyatlari hamda urf-odatlarini anglashi, tarix, madaniyat, siyosat, ma’naviyat, adabiyot va san’at, dinshunoslik, axloqshunoslik, etnopedagogika shuningdek, etnopsixologik bilimlarni egallashlari muhim sanaladi.

Xulosa. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya samaradorligini rivojlangan xorijiy davlatlar qatorida zamon talablari darajasida muntazam oshirib borish, ma’naviyatli, salohiyatli, yuksak pedagogik qobiliyatlarga ega bo‘lgan pedagoglarni tayyorlash, ularning intelektual salohiyatini oshirish maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining pedagogik qobiliyatini rivojlantirishga uning pedagogik mahoratini oshirishga sabab bo‘ladigan asosiy omil sifatida qaraladi. Pedagogik mahorat esa jamiyatning madaniy-tarixiy taraqqiyotida pedagogik nazariya va amaliyot sintezini shuningdek, pedagogik faoliyatining sifat jihatdan muayyanligini jamlaydigan ijtimoiy pedagogik xodisa sanaladi. Shuningdek, har qanday qobiliyat kabi pedagogik qobiliyatni ham rivojlantirish borish taqozo etiladi. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish – mutaxassis sifatida faqat pedagog (o‘qituvchi)largagina xos bo‘lgan qobiliyatlarni yanada boyitish va takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mardonov Sh.Q. Pedagogik kadrlarni ta’limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari.// Ped.fan.dokt. diss…–Toshkent. 2006. 302-b.
2. Zaripov K. O‘qituvchilar malakasini oshirishda maktab raxbarining roli. –T.:O‘qituvchi,1993, 123 bet.
3. Borisova A.B.Pedagogicheskiy osobennosti soznaniya I vnedreniya sistemi aktivnix metodov obucheniye v institute povsheniya kvalifikatsii // Diss.qand.ped.nauk.–M.;1987.151s.
4. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782.
5. Хасанова Г. И. Педагогик қобилиятни интегратив ё'налишда такомиллаштириш адабиётлар таҳлили (Мактабгача таълим йўналиши). Касб-ҳунар таълими №4, 2022й, 103-106 бетлар.
6. Хасанова, Г. И. Ўқитувчиларнинг касбий- педагогик фаолиятини такомиллаштириш мазмуни. Международная конференция академических наук. Октябрь 2021,111-113 б.
7. Хасанова, Г. И. “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225 б

Malika ERGASHEVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali,
“Ijtimoiy fanlar va xorijiy tillar” kafedrasi mudiri
E-mail: dr.malikaprof@gmail.com



IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILAR UCHUN UYDAGI TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Annotatsiya: ushbu maqola imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun uyda ta’limni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shartlarni tahlil qiladi. Bunda individuallashtirilgan ta’lim rejalarini (ILP) ishlab chiqish, o‘quv rejasining moslashuvchan variantlarini taqdim etish va yordamchi texnologiyalardan foydalanish muhimligini ta’kidlaydi. Uyda ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ota-onalar, o‘qituvchilar va mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlikning roli haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *uyda ta’lim, imkoniyati cheklangan talabalar, individuallashtirilgan ta’lim rejalari (ILP), moslashuvchan o‘quv dasturi, inklyuziv ta’lim muhiti, hamkorlik, davomiy baholash, hissiy qo‘llab-quvvatlash.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются педагогические условия, необходимые для организации домашнего обучения учащихся с ограниченными возможностями здоровья. В нем подчеркивается важность разработки индивидуальных планов обучения (ILP), предоставления гибких вариантов учебных программ и использования ассистивных технологий. Подчеркивается роль сотрудничества родителей, педагогов и специалистов в успешной реализации домашнего образования.

Ключевые слова: *домашнее обучение, учащиеся с ограниченными возможностями, индивидуальные планы обучения (ИЛП), гибкая учебная программа, инклюзивная среда обучения, сотрудничество, непрерывная оценка, эмоциональная поддержка.*

Annotation: this article discusses the pedagogical conditions necessary for the organization of home education for students with disabilities. It highlights the importance of developing customized learning plans (ILPS), providing flexible curriculum options, and using assistive technologies. The role of cooperation between parents, teachers and specialists in the successful implementation of home education is emphasized.

Key words: *home schooling, students with disabilities, individual learning plans (ILPS), flexible curriculum, inclusive learning environment, collaboration, continuous assessment, emotional support.*

Kirish. Ta’lim shaxslarning rivojlanishi va jamiyatga integratsiyalashuvida, ayniqsa, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun muhim rol o‘ynaydi. Ushbu o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan sifatli ta’lim olishlarini ta’minlash butun dunyo ta’lim tizimlarining mas’uliyatidir. Turli xil ta’lim shakllari orasida uyda ta’lim an’anaviy maktablarga borishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar uchun muqobil variantni taklif etadi [2]. Uyda ta’limni samarali tashkil etish, o‘rganish va shaxsiy rivojlanishni osonlashtiradigan muayyan pedagogik shartlarni talab qiladi. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun uyda ta’limni tashkil etishda zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar o‘rganilib, inklyuziv, qo‘llab-quvvatlovchi va moslashuvchan muhit yaratishga e’tibor qaratiladi.

Asosiy qism. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun uyda ta’limni tashkil etish usullari: bunda o‘quvchilarning jismoniy, kognitiv, hissiy va akademik ehtiyojlarini har tomonlama baholashni o‘tkazish zarur hisoblanadi. Mutaxassislar (masalan, psixologlar, terapevtlar, o‘qituvchilar) tomonidan diagnostik testlar va baholashlar olib boriladi. Kundalik ishlar va o‘quv faoliyati davomida doimiy kuzatuvlar olib borilib, o‘quvchilarning xatti-harakati va qiyinchiliklari haqida ma’lumot to‘plash uchun ota-onalar va o‘qituvchilar o’rtasida hamkorlik yuritiladi [4].

Individuallashtirilgan ta'lim rejalarini (ILP) ishlab chiqish: Maqsadlar, o‘rganish uslublari, turar joy va zarur resurslarni belgilaydigan shaxsiylashtirilgan o‘quv rejasini ishlab chiqish. O‘qituvchilar, mutaxassislar, ota-onalar va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikda muhokamalar yuritish (agar iloji bo‘lsa). O‘quvchining kuchli tomonlari va yaxshilanishi kerak bo‘lgan sohalarga asoslangan maqsadni belgilash zarur hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun uyda ta’lim - bu o‘quvchi an’anaviy maktab sharoitida emas, balki uy sharoitida ta’lim oladigan ta’lim yondashuvini anglatadi. Ushbu turdagi ta’lim turli sabablarga ko’ra amalga oshirilishi mumkin, masalan, jismoniy yoki tibbiy cheklovlar, hissiy yoki psixologik sharoitlar yoki maxsus e’tibor talab qiladigan o‘rganishdagi nuqsonlar. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchining akademik, ijtimoiy va hissiy o‘sishini rag‘batlantiradigan ehtiyojlarini qondiradigan moslashtirilgan ta’lim jarayonini loyihalash juda muhimdir. Uyda ta’lim o‘quv muhiti o‘quvchilarning tibbiy ehtiyojlariga mos ravishda o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan yechim taklif qiladi, bu ularga an’anaviy maktab

sharoitida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan jismoniy to‘siqlarsiz o‘rganish imkonini beradi[3]. Bunday hollarda moslashuvchan o‘quv muhiti tibbiy sharoitlarni kuchaytirish xavfini minimallashtirish bilan birga ta’limning uzluksizligini saqlashga yordam beradi.

Anksiyete, ruhiy tushkunlik yoki travma kabi hissiy yoki psixologik holatlarga ega bo‘lgan ba’zi talabalar an’anaviy maktab sharoitida kurashishi mumkin. Katta maktabga borish, ko‘plab tengdoshlar bilan muloqot qilish yoki qat’iy jadvalga rioya qilish kabi bosimlar bo‘lishi mumkin. Uyda ta’lim xavfsiz va qulay muhitni ta’minlaydi, bu yerda o‘quvchilar an’anaviy maktabdan ko‘ra stressiz ta’lim olishlari mumkin. Kundalik ish tartibiga kiritilgan hissiy va psixologik yordam bilan o‘quvchilar o‘z sur’atlarida akademik rivojlanishlari mumkin.

Disleksiya, DEHB yoki autizm spektrining buzilishi (ASD) kabi o‘rganishda nuqsonlari bo‘lgan talabalar uchun an’anaviy maktab o‘quv rejasi va tuzilmasi samarali o‘rganishga yordam bermasligi mumkin[1]. Uyda ta’lim sharoitida o‘quv rejasini ularning o‘rganish uslubiga moslashtirilgan bo‘ladi, bu esa ko‘proq amaliy o‘rganish, moslashuvchan texnologiyalar va individual o‘qitish imkonini beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, muvaffaqiyatga erishishini ta’minlab, yagona o'quv dasturidagi cheklovlarni olib tashlashga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ko‘pincha nafaqat akademik yordamga, balki hissiy va ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlariga ham muhtojdirlar. Uyda ta’lim jarayonida o‘z-o‘zini hurmat qilish, hissiyotlarini tartibga solish va ijtimoiy o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarini shakllantiradigan faoliyatga e’tibor qaratgan holda virtual jamoalar, sinfdan tashqari guruhlar yoki tengdoshlarni o‘rganish tarmoqlari inklyuziya hissini uyg‘otadigan ijtimoiylashuv imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin. Nogironlik xususiyatiga qarab, uyda ta’lim turli terapevtik aralashuvlar bilan birlashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi [6]. Nutq terapiyasi, mehnat terapiyasi, fizioterapiya va xulq-atvor terapiyasi o‘quvchining ta’lim faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi o‘quvchining rivojlanish ehtiyojlarini har tomonlama qondirishini ta’minlaydi.

Uyda ta’limni tashkil etishning asosiy pedagogik shartlariga individuallashtirilgan ta’lim rejalari (ILPs) kiradi: birinchi va eng muhim pedagogik shart - bu har bir o‘quvchi uchun individuallashtirilgan ta’lim rejasini (INP) ishlab chiqishdir. ILP o‘quvchining kuchli, zaif tomonlarini o‘rganishni va aniq maqsadlarini belgilaydi. Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun ILP o‘zlarining noyob ta’lim talablariga javob beradigan turar joy, o‘zgartirishlar va resurslarni o‘z ichiga olishi kerak. O‘qituvchilar, mutaxassislar va ota-onalar ushbu rejalarni ishlab chiqishda hamkorlikda ishlaydi, bu esa o‘quvchining muvaffaqiyat tuyg‘usini saqlab qolgan holda akademik rivojlanishini ta’minlaydi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ko‘pincha o‘quv rejasi va o‘qitish usullariga moslashuvchan yondashuvni talab qiladi. Bunda ushbu moslashuvchanlik o‘quv dasturini o‘quvchining qobiliyatiga moslashtirishni va darslarning rivojlanishiga qarab tezlikni o‘z ichiga oladi.

Yordamchi texnologiyalar, masalan, ekranni o‘qish dasturlari, nutqdan matnga dasturiy ta’minot va moslashtirilgan klaviaturalar o‘quvchilarga o‘z darslarida yanada samaraliroq qatnashish imkonini beradi. Ushbu vositalar o‘quv materiallariga kirishni osonlashtiradi va talabalarga qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan tadbirlarda qatnashish imkonini beradi. Texnologiyadan foydalanish, shuningdek, tengdoshlar va o‘qituvchilar bilan virtual muloqot qilish imkoniyatlarini ochib beradi, hatto uy sharoitida ham sotsializatsiyani rag‘batlantiradi [7]. Uyda samarali ta’lim turli manfaatdor tomonlar, jumladan, ota-onalar, o‘qituvchilar va nutq terapevtlari, kasb-hunar terapevtlari va psixologlar kabi mutaxassislarning hamkorligiga tayanadi. Bu shaxslar o‘rtasidagi muntazam muloqot o‘quvchining ta’lim rejasining izchil amalga oshirilishini ta’minlaydi. Ota-onalar uyda ta’limni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi, o‘qituvchilar va mutaxassislar esa darslarni moslashtirish va kerak bo‘lgan bilimni taklif qilish uchun zarur bo'lgan tajribani taqdim etadilar.

*Imkoniyati cheklangan o’quvchilar uchun uyda ta’limni tashkil etishdagi muammolar:u*yda ta’lim ko‘p afzalliklarga ega bo‘lsa-da, e’tiborga olish kerak bo‘lgan muammolar ham mavjud. Bularga ixtisoslashtirilgan resurslardan foydalanishning cheklanganligi, potentsial ijtimoiy izolyatsiya va ota-onalar va o‘qituvchilar uchun doimiy kasbiy rivojlanish zarurati kiradi. Ushbu muammolarni hal qilish yaxshi tashkil etilgan qo‘llab-quvvatlash tizimini, jumladan, ixtisoslashtirilgan xizmatlardan foydalanishni va o‘quvchi ta’limi bilan shug‘ullanadigan barcha tomonlar uchun treningni talab qiladi [7].

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun uyda ta’limni tashkil etish har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlarini qondiradigan pedagogik shart-sharoitlarni diqqat bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi. Individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish, yordamchi texnologiyalardan foydalanish, hamkorlikni rivojlantirish va inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi muhitlarni yaratish orqali o‘qituvchilar va ota-onalar nogiron o‘quvchilarning akademik va shaxsiy rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Yakuniy maqsad - bu o‘quvchilarning o‘z salohiyatlarini to’liq ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan teng huquqli va vakolatli ta’lim olishlarini ta’minlash. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun uyda ta’lim - bu juda moslashtirilgan va moslashuvchan o‘quv muhiti. Ushbu yondashuv muayyan pedagogik sharoitlarni hisobga olishni, ta’lim tajribasi har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlashini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Bu shartlar shaxsiylashtirilgan o‘quv muhitini yaratishdan tortib, yordamchi texnologiyalardan foydalanish va ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb qilishgacha bo‘lgan bir qancha jihatlarni qamrab oladi.

Xulosa. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun uyda samarali ta’limni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan

muhim tarkibiy qismlarni chuqurroq o‘rganish: Uyda ta’limni tashkil etishning muhim qismi har bir o‘quvchi uchun ta’lim maqsadlari, o‘qitish usullari va qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini ko‘rsatadigan, moslashtirilgan va individuallashtirilgan o‘quv rejalarini (ILP) yaratishdir. ILP o‘quvchining kuchli, zaif tomonlari va qo‘shimcha e’tiborni talab qiladigan sohalarini hisobga olgan holda o‘ziga xos ehtiyojlarini aks ettiradi. Bu jarayon diagnostik testlar, doimiy kuzatuvlar va ota-onalar, terapevtlar va boshqa mutaxassislarning fikrlarini o‘z ichiga oladi. Taraqqiyotni ta’minlash va o‘quvchining o‘zgaruvchan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularni tuzatish uchun ILPlar muntazam ravishda ko‘rib chiqilishi kerak. O‘qitish usullarining moslashuvchanligi imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni uyda o‘qitishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ko‘pincha ta’limga turli yondashuvlarni talab qilganligi sababli, ularga beriladigan ta’lim qobiliyatiga mos keladigan tarzda o‘zgartirilishi kerak. Bu multisensorli yondashuvdan foydalanishni (masalan, eshitish, vizual va kinestetik o‘qitish usullarini birlashtirish), ko‘proq ko‘rgazmali vositalarni taklif qilishni yoki vazifalarni kichikroq bosqichlarga ajratishni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar murakkab darslarni kichikroq, boshqariladigan vazifalarga bo‘lish orqali birlashtirishi mumkin. Bu o‘quvchiga ma’lumotni o‘z tezligida qayta ishlashga va keyingi bosqichga o‘tishdan oldin har bir qadamni o‘zlashtirishda ishonchga ega bo‘lishlariga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aron L., Loprest P. (2012).Disability and the Education System. The Future of Children. 2012, 22(1). – P. 97–122.
2. Deshler D. D., Schumaker J. B.Teaching Adolescents with Disabilities: Accessing the General Education Curriculum: Corwin Press, 2006. – P. 236-269.
3. Friend M., Bursuck W. D.Including Students with Special Needs: A Practical Guide for Classroom Teachers, 2019. (8th ed.). Pearson.
4. Heward W. L.Exceptional Children: An Introduction to Special Education, 2012. 10th ed. Pearson.
5. Baltayeva, N. T. (2024). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS'ABILITY TO LEARN FROM SYNONYMS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(03), 37-42.
6. Kirk S. A., Gallagher J. J., Coleman M. R.Educating Exceptional Children, 2014. (14th ed.). Cengage Learning.
7. Minorova M. Uyda kasal bolani o‘qitishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tajribasi / Birinchi sentyabr. ¬1996, 4 iyun (60-son).

Saodat KASIMOVA,
Samarqand shahri Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali ingliz tili o‘qituvchisi

IQTISODIY UNIVERSITETLARDA INGLIZ TILIDA ISHBILARMONLIK MULOQOTI KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ROLLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: bugungi kunda iqtisodiyot va biznes yo‘nalishidagi universitetlarda talabalarning ingliz tilida ishbilarmonlik muloqotini rivojlantirish global iqtisodiy muhit talablari sabab muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada talabalarning professional muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda rolli o‘yinlardan foydalanishning foydali jihatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari talabalarning ishbilarmonlik etikasini o‘zlashtirishida, muloqot strategiyalarini rivojlantirishda va xalqaro biznes muhitida muvaffaqiyatli ishlashga tayyorlashda rolli o‘yinlarning yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Bu usul, shuningdek, talabalar o‘rtasida jamoaviy ish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi va ingliz tilidagi ishbilarmonlik suhbatlariga faol jalb qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, ishbilarmonlik muloqoti, rolli o‘yinlar, iqtisodiy universitet, kommunikatsiya ko‘nikmalari, biznes etikasi.*

Annotation: today, the development of business communication in English among students at universities specializing in economics and business is becoming increasingly important due to the requirements of the global economic environment. This article examines the useful aspects of using role-playing games in developing students' professional communication skills. The results of the study showed the high effectiveness of role-playing games in mastering business ethics, developing communication strategies, and preparing students for successful work in an international business environment. This method also strengthens teamwork skills among students and allows them to actively engage in business conversations in English.

Keywords: *English, business communication, role-playing games, economic university, communication skills, business ethics.*

Аннотация: сегодня развитие делового общения студентов на английском языке в экономических и бизнес-вузах становится актуальным в связи с требованиями глобальной экономической среды. В данной статье рассматривается польза использования ролевых игр в развитии навыков профессионального общения студентов. Результаты исследования показали высокую эффективность ролевых игр в освоении студентами деловой этики, развитии коммуникативных стратегий и подготовке к успешной работе в международной бизнес-среде. Этот метод также укрепляет у студентов навыки командной работы и позволяет им активно участвовать в деловых беседах на английском языке.

Ключевые слова: *английский язык, деловое общение, ролевые игры, экономический университет, коммуникативные навыки, деловая этика.*

Kirish. Hozirgi kunda globallashuv jarayoni jadal sur'atlarda davom etmoqda va turli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tobora kengaymoqda. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ahamiyati ortib, ko'plab kompaniyalar va tashkilotlar o'z faoliyatini boshqa davlatlarga kengaytirmoqda. Shu bilan birga, bozorlarning global tus olishi bilan muloqot qobiliyatiga, ayniqsa, ishbilarmonlik muloqotiga bo'lgan talab ham o'sib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy va biznes sohalarida faoliyat olib boruvchi shaxslar uchun ingliz tilida ishbilarmonlik muloqoti ko'nikmalariga ega bo'lish o'ta muhimdir. Ingliz tili bugungi kunda xalqaro biznes va diplomatiyaning asosiy tili sifatida qabul qilingan bo'lib, bu tilni mukammal egallash xalqaro aloqalarda muvaffaqiyat qozonishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, iqtisodiy yo'nalishdagi universitetlarda ta'lim olayotgan talabalar uchun ingliz tilida ishbilarmonlik muloqoti ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat dolzarb, balki kelajakda ularning professional faoliyatida muvaffaqiyat qozonishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir. Ushbu ko'nikmalar talabalarga xalqaro biznes muhitida samarali ishlash imkonini berib, ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Ammo ko'pgina universitetlarda o'qitilayotgan an'anaviy dars metodlari talabalar o'rtasida muloqot ko'nikmalarini yetarli darajada shakllantira olmaydi. Nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlanmasa, talaba o'z qobiliyatlarini real biznes sharoitida qo'llashda qiynalishi mumkin.

Ushbu muammoning yechimi sifatida ta'lim jarayonida rolli o'yinlar (role-playing) usulidan foydalanishning samaradorligi ko'rsatilmoqda. Rolli o'yinlar talabalarni dars jarayoniga faol jalb qilish orqali ularning muloqot ko'nikmalarini amalda sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Ushbu usulda talabalar turli biznes vaziyatlarini hamda, o'zini rahbar yoki mijoz sifatida sinab ko'radi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlanadi. Rolli o'yinlar orqali talabalarga muammoli vaziyatlarni hal qilish, samarali muzokaralar olib borish, kelishuvga erishish va turli madaniyat vakillari bilan muloqotda bo'lish kabi ko'nikmalar o'rgatiladi. Bunday mashg'ulotlar talabalar orasida faollikni oshiradi, ularning o'zaro hamkorlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, rolli o'yinlar yordamida talabalarga xalqaro ishbilarmonlik etikasi, madaniyatlararo muloqot va jamoaviy ish ko'nikmalari ham o'rgatiladi. Bularning barchasi talabalarning xalqaro biznes muhitida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi. Shu sababli, iqtisodiy universitetlarda ingliz tilida ishbilarmonlik muloqoti darslarida rolli o'yinlar kabi amaliy usullardan foydalanish zarurati oshmoqda.

Rolli o'yinlar yordamida talabalarning ishbilarmonlik kommunikatsiya ko'nikmalari, kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu usulning iqtisodiy universitetlarda qo'llanish imkoniyatlari, afzalliklari va samaradorligi chuqur tahlil qilinadi.

Rolli o'yinlarning nazariy asoslari

Rolli o'yinlar – bu o'quv jarayonida talabalarni turli rollarga joylashtirish orqali ularning o'zaro muloqot qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o'yin shaklidir. Ushbu uslub kognitiv va interfaol ta'lim nazariyalariga asoslanadi.

Konstruktivizm nazariyaga ko'ra, bilimlar o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda, tajriba va amaliy faoliyat orqali yaratiladi. Rolli o'yinlar talabalarga biznes muhitini "tajriba qilish" imkonini beradi.

O'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim jarayonining markazida talabalar bo'lishini ta'kidlaydi. Rolli o'yinlarda talabalar faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadilar.

Ushbu nazariy asoslar rolli o'yinlarning samaradorligini ilmiy jihatdan isbotlaydi va ularni pedagogik metod sifatida tan olishga imkon beradi.

Rolli o'yinlarning ishbilarmonlik muloqoti ko'nikmalariga ta'siri

Rolli o'yinlar yordamida talabalar ishbilarmonlik muhitiga mos keluvchi turli vaziyatlarda ishtirok etish imkoniga ega bo'ladilar. Bunday o'yinlar talabalarga real hayotda duch kelinadigan muammolarni hal qilish, muloqot texnikalarini mustahkamlash, stress ostida to'g'ri qaror qabul qilishni o'rgatadi. Masalan: 1. Mijozlar bilan uchrashuv – Talabalar mijozlar bilan uchrashuvlarni o'ynab, ularni tushunish va ular bilan samarali muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantiradilar. 2. Muzokaralar olib borish – Rolli o'yinlarda talabalarga muzokaralar olib borish vazifalari beriladi, bu esa ularga qiyin savollarga to'g'ri javob qaytarish, fikrlar almashish va kelishuvga erishish ko'nikmasini beradi.

Ishbilarmonlik etikasi va xalqaro biznes ko‘nikmalarini rivojlantirish

Rolli o‘yinlar orqali talabalarda turli madaniyatlar va ularning muloqotga ta’siri haqida tushunchalar shakllantiriladi. Bu, o‘z navbatida, xalqaro biznesda ishlashda muhim hisoblanadi. Ishbilarmonlik etikasini o‘rganish va uni amaliyotda qo‘llash qobiliyatlari rolli o‘yinlarda bajariladigan topshiriqlar orqali yanada chuqurlashadi. Masalan: 1. Madaniyatlararo muloqot – Talabalar xalqaro mijozlar yoki hamkasblar bilan madaniy farqlarni hisobga olgan holda qanday munosabat qilishni o‘rganadilar. 2. Etika va professionalizm – Rolli o‘yinlarda talabalar o‘zlarini professional ish muhiti qoidalari asosida tutishga o‘rganadilar.

Ingliz tilida ishbilarmonlik muloqoti ko‘nikmalarini rivojlantirishda rolli o‘yinlarning roli

Picture Description Students' descriptive and interpretive skills can be effectively developed by assigning them to describe pictures in groups. Students gain the ability to communicate details in a clear and relevant way by jointly examining visual aspects. They are encouraged to share ideas because the assignment is collaborative, which promotes collaboration and improves their capacity to arrange their thoughts before speaking. As they concentrate on recognizing and characterizing important elements of the image, this approach also helps them become more adept observers. Students get better at comfortably and fluidly expressing their interpretations over time.

table :

Story Completing completing incomplete stories is an engaging exercise that helps students develop their narrative abilities while igniting their imagination. When presented with an unfinished story, students are forced to use their imaginations and connections to create compelling, logical endings. By encouraging kids to try out different words and phrase patterns, this activity fosters linguistic flexibility. Additionally, as they articulate their thoughts coherently within time limits, kids develop fluency due to the spontaneity necessary. These kinds of exercises not only improve students' narrative skills but also their self-confidence in their ability to express themselves creatively.

Result: ***Time Allocation for Speaking Activities in the Classroom***

For the table, we could estimate the percentage of classroom time that might typically be dedicated to each type of speaking activity in a balanced curriculum. Here's a breakdown that could be reflected in the

N#	Name of the Practical Activities	Percentage
1	*Role Play*	20%
2	*Storytelling*	15%
3	*Picture Description*	10%
4	*Interviews*	25%
5	*Story Completion*	10%
6	*Other Activities (Discussions, Debates, etc.)*	20%

Conclusion: Teaching speaking skills in EFL contexts presents unique challenges, yet with thoughtful strategies and engaging activities, educators can help students overcome obstacles. Creating a welcoming classroom environment, personalizing topics and offering varied activities like role play, storytelling, and interviews are powerful tools for enhancing students' speaking abilities. By implementing these approaches, teachers can empower students to communicate confidently and effectively, laying a foundation for lifelong language skills.

Because they offer real-world practice and increase communication confidence, practical speaking exercises are crucial. They assist people in improving their pronunciation, fluency and overcoming their fear of speaking. Debates, role-playing and storytelling are examples of activities that improve vocabulary, listening comprehension and mental clarity. These techniques also promote creativity, critical thinking and teamwork—all of which are essential in social and professional contexts. They also provide enjoyment to studying, which lessens boredom and boosts motivation. Through the simulation of real-world scenarios, these exercises equip students to communicate successfully in a variety of settings, improving their flexibility and success in both personal and professional settings.

References:

1. Agung Ginanjar, (2013). Teacher's strategies in teaching speaking to students at secondary level, Journal of English and Education 2013, 1(2), 1-8.
2. Brown, H. D. (2001). Teaching by Principles: An Interactive approach to Language Pedagogy, 2nd ed.. New York: Longman.
3. Cahyono, B.Y., and Widiati, Utami. (2011). The Teaching of English as a Foreign Language in Indonesia. Malang: State University of Malang Press.
4. Cole, R. W. (2008). Educating Everybody's Children: Diverse Teaching Strategies for Diverse Students, Revised and Expanded 2nd ed.. Virginia: Association for Supervision and Curriculum Development (ASCD).
5. Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking, From Theory to Practice. Cambridge: Cambridge University Press.

Shoira SARIMSAKOVA,
PhD student of NUUz
Sarimsakova_s@nuu.uz

THE EXPLORATION OF UZBEK CULTURE BASED ON "CULTURAL ONION" MODEL

Annotation: understanding the complex structure of culture can be effectively achieved by employing the metaphor of the "cultural onion." Similar to how an onion has multiple layers that all contribute to its overall character, culture is made up of different, interconnected components that together define the identity of a society. The core is located in the middle and stands for the essential principles and ideals that direct social relationships and behavior. Layers reflecting external influences, norms, rituals and symbols surround this core, each contributing to the cultural narrative's richness and depth. This article particularly focuses on Uzbekistan, a country known for its intricate customs that have developed over many years.

Key words: *cultural onion, Geert Hofstede, layers of culture, visible elements, core values, cultural identity, shared value.*

Аннотатция: понимание сложной структуры культуры может быть эффективно достигнуто с помощью метафоры «культурной луковицы». Подобно тому, как лук имеет несколько слоев, каждый из которых вносит свой вклад в ее общий характер, культура состоит из различных, взаимосвязанных компонентов, которые вместе определяют идентичность общества. Ядро находится в середине и представляет собой основные принципы и идеалы, которые направляют социальные отношения и поведение. Слои, отражающие внешние влияния, нормы, ритуалы и символы, окружают это ядро, каждый из которых вносит свой вклад в богатство и глубину культурного повествования. В этой статье особое внимание уделяется Узбекистану, стране, известной своими сложными обычаями, которые развивались на протяжении многих лет.

Ключевые слова: *культурная луковица, Геерт Хофстеде, слои культуры, видимые элементы, основные ценности, культурная идентичность, общая ценность.*

Annotatsiya: madaniyatning murakkab tuzilishini tushunishga "madaniy xalqa" metaforasini qo'llash orqali samarali erishish mumkin. Madaniy xalqaning umumiy xarakteriga hissa qo'shadigan bir nechta qatlamlarga ega bo'lgani kabi, madaniyat ham jamiyatning o'ziga xosligini belgilaydigan turli xil, o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan iborat. Eng muhim nuqtasi o'rtada joylashgan bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va xatti-harakatlarni boshqaradigan muhim tamoyillar va ideallarni anglatadi. Tashqi ta'sirlarni, me'yorlarni, marosimlarni va ramzlarni aks ettiruvchi qatlamlar ushbu muhim qismga joylashgan xalqani o'rab oladi va ularning har biri o'ziga xos madaniyatning boyligi va chuqurligiga hissa qo'shadi. Ushbu maqolada, uzoq yillar davomida rivojlangan va o'zining murakkab urf-odatlari bilan mashhur bo'lgan O'zbekiston madaniyati madaniy xalqa asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *madaniy xalqa, Geert Hofstede, madaniyat qatlamlari, umumiy elementlar, asosiy qadriyatlar, madaniy o'ziga xoslik, umumiy qiymat.*

INTRODUCTION

Uzbekistan has always been a melting pot of many cultures, languages and religions due to its location at the intersection of the historic Silk Road. Uzbek identity is shaped by a distinctive fusion of elements from Persian, Arab, Turkish and Russian cultures, which is a result of the region's historical prominence as a major hub for trade and cultural interchange. As we examine the layers of the cultural onion, we will see how the fundamental values of Uzbekistan such as hospitality, family and adherence to tradition serve as the cornerstone of its national identity. We will also look at the outward customs such as traditional dress, food and creative expression that flow from these fundamental principles. We will also explore the customs and holidays that commemorate and uphold these cultural components, emphasizing their significance in day to day living. Furthermore, we will analyze how outside influences especially those related to globalization have impacted current Uzbek culture and how this country strikes a balance between modernity and its rich history. From this article, it is aimed to offer a thorough understanding of Uzbek culture by using the cultural onion framework to show how its historical heritage and modern dynamics combine to form a dynamic and resilient cultural identity.

MAIN BODY

Dutch sociologist Geert Hofstede created the metaphorical "cultural onion" framework to help explain the complexity of culture. This model suggests that culture is a multidimensional construct that can be broken down into many components rather than a single, monolithic entity by seeing its layered structure in an onion-like manner. The basic idea behind the cultural onion model is to show how culture is made up of multiple separate layers, each of which represents a different facet of cultural identity. In this article we have

analyzed a set of fundamental principles that govern interpersonal relationships and social conduct are at the center of Uzbek culture and the analysis shows "The Uzbek cultural onion" as following Family and Community:

In Uzbek society, family serves as a fundamental pillar, providing individuals with a profound sense of belonging and emotional support. The family unit is not just a domestic arrangement but a vital social structure that nurtures personal identity and community ties. It is common for extended families comprising grandparents, aunts, uncles and cousins to live together or in close proximity. This living arrangement fosters deep connections and emphasizes shared responsibility among family members. Decisions regarding finances, child-rearing and elder care are often made collectively, reinforcing the idea that each person's contribution is essential to the family's well-being. Family gatherings, often centered around significant life events such as weddings and religious celebrations, highlight the importance of these connections. Such occasions not only strengthen familial bonds but also reinforce social cohesion within the broader community, illustrating how interconnectedness is a hallmark of Uzbek life.

Hospitality is another cornerstone of Uzbek culture, reflecting the warmth and kindness that characterize interpersonal relationships. Uzbeks take immense pride in their ability to welcome guests, embodied in the proverb "A guest is a gift from God." This saying captures the cultural imperative to treat visitors with the utmost respect and generosity. When guests arrive, it is customary to prepare extensive meals that showcase the rich culinary traditions of Uzbekistan. Dishes such as plov, manti and various breads are often served, reflecting the country's agricultural heritage and culinary diversity. Friendly greetings and offers of refreshments are integral to the hospitality experience, creating an atmosphere of warmth and inclusion. This commitment to hospitality extends beyond mere obligation; it is a source of pride for Uzbeks, illustrating their belief in the importance of community and connection.

Respect for tradition is deeply ingrained in the Uzbek cultural identity. Uzbeks hold their cultural heritage including language, customs and historical narratives in the highest regard, recognizing it as a vital aspect of their identity. This reverence for the past manifests in various ways, from the preservation of traditional crafts, such as carpet weaving and pottery, to the celebration of age-old festivals like Navruz, which marks the Persian New Year. Moreover, language plays a crucial role in this respect for tradition, as it serves as a vessel for cultural expression and identity. The Uzbek language is not only a means of communication but also a repository of folklore, proverbs and historical accounts that connect individuals to their heritage. Oral storytelling, often shared during family gatherings, ensures that cultural narratives are passed down, keeping the collective memory alive.

Moving outward, the next layer encompasses symbols that represent Uzbek culture: National Dress

Traditional clothing in Uzbekistan, such as the "chapan" and "do'ppi," exemplifies the nation's cultural pride and deep-rooted ancestry. The chapan, a long, flowing coat often adorned with intricate patterns and vibrant colors, is traditionally worn during special occasions and family gatherings. This garment not only provides warmth but also serves as a symbol of status and identity, reflecting the wearer's connection to their heritage. The do'ppi, a traditional cap typically crafted from embroidered fabric, is worn by men and signifies cultural belonging. Its design varies across regions, showcasing local artistry and craftsmanship. Additionally, accessories such as the "belbog'," a decorative belt, enhance the overall attire and highlight the meticulous attention to detail in traditional Uzbek dress. The use of "atlas" and "adras," types of silk fabric known for their striking colours and patterns, further exemplifies the rich textile traditions of the country.

Cuisine. Uzbek cuisine is a rich tapestry that showcases the nation's agricultural heritage and diversity. Signature dishes like samsa, mant, and plov are not just meals; they are integral components of Uzbek cultural identity. Samsa, savory pastries typically filled with meat and spices, are often enjoyed as street food or during family gatherings, embodying the spirit of communal eating. The preparation of manti, steamed dumplings filled with minced meat and onions, is a time-honored practice often involving family members, highlighting the importance of togetherness in Uzbek culinary traditions. Plov, the quintessential Uzbek dish, is more than just rice pilaf; it is a symbol of hospitality and celebration. The method of cooking plov varies across regions, with each locality adding its unique twist, showcasing the diversity within Uzbek cuisine. This culinary richness reflects the country's agricultural bounty, as many ingredients are sourced locally, emphasizing sustainability and the importance of community in food production.

Art and Craftsmanship. The vibrant hues are found in Uzbek carpets, textiles and pottery are a testament to the exceptional craftsmanship and aesthetic sense of the Uzbek people. Traditional carpets, often handwoven with intricate designs, not only serve as functional items but also as pieces of art that tell stories of cultural significance and regional identity. Each carpet features unique motifs, symbolizing various aspects of Uzbek life, from nature to historical narratives.

The third layer consists of rituals and festivals that reinforce cultural identity:

Navruz, the Persian New Year, is celebrated on the vernal equinox and holds profound significance in Uzbek culture as a symbol of renewal and rebirth. This festival marks the arrival of spring, when days grow longer and nature awakens from winter's slumber. The celebration of Navruz is characterized by a variety of communal feasts, where families and friends gather to share traditional dishes that signify abundance and prosperity. Central to the festivities are dishes like sumalak, a sweet paste made from sprouted wheat, which symbolizes growth and fertility. Cultural performances also play a vital role in Navruz celebrations, featuring traditional music, dance and storytelling that bring communities together. The spirit of Navruz emphasizes the importance of family, community and the environment, encouraging people to reflect on their connections to nature and one another.

Uzbek weddings are grand, elaborate affairs steeped in tradition and cultural significance. These celebrations typically span multiple days, culminating in a series of events that bring together families and communities. The wedding process often begins with a "fotixa," a formal engagement ceremony, followed by various pre-wedding rituals that involve both families, highlighting the importance of familial bonds. The ceremonies are rich with symbolism, from the bride's attire to the decorations, reflecting the couple's cultural heritage and family values. Traditional dances, such as the "lazgi," are performed, engaging both the young and old in a celebration of unity and joy.

Religious observances play a significant role in the daily lives of Uzbeks, with Islamic practices such as Ramadan and Eid fostering a sense of faith and unity within the community. During Ramadan, Muslims fast from dawn until sunset, engaging in spiritual reflection and community bonding. This period is marked by increased acts of charity, prayer and family gatherings, emphasizing the importance of empathy and solidarity.

Eid al-Fitr, which marks the end of Ramadan, is a joyous occasion celebrated with communal prayers, festive meals and the giving of gifts. Families come together to share special dishes and it is customary to visit friends and neighbors, reinforcing social connections and community spirit. The emphasis on faith during this time brings people together, transcending individual differences and fostering a sense of belonging.

External Influences: The outer layer of Uzbek culture reflects the myriad external influences that have shaped its identity over time. The historical interactions facilitated by the Silk Road played a pivotal role in cultural exchange, introducing elements from various civilizations, including Persian, Arab, Russian, and Turkish cultures. This rich tapestry of influences is evident in the language, art and culinary practices of Uzbekistan, which showcase a blend of traditions that have evolved over centuries. As Uzbekistan continues to evolve in the global arena, the interplay between tradition and modernity will play a crucial role in shaping its cultural future. The resilience of Uzbek culture is evident in its ability to adapt and thrive, ensuring that its rich heritage remains a vital part of its national identity

CONCLUSION. By providing a thorough framework for dissecting the intricacies of Uzbek culture, the cultural onion model enables us to investigate the multiple facets that contribute to its uniqueness. The basic principles of family, community and hospitality values that form the foundation of social structure of Uzbekistan are at the center of this paradigm. These ideals are lived experiences that direct relationships and provide context for daily existence; they are not only theoretical ideas. Customary clothing, cuisine and creative expressions are material manifestations of Uzbek culture that capture narratives, histories and social bonds.

REFERENCES:

1. Hofstede's Cultural Onion | Notes on Intercultural Communication. https://laofutze.wordpress.com/2009/08/28/303/
2. U. Mansurov, A.Sh. To'xtabayev. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi. O'quv qo'llanma. O'zkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi:Toshkent,2021.
3. I. Jobborov. O'zbeklar:turmush tarzi va ma'daniyati. O'qituvchi nashriyoti: Toshkent,2003.
4. Sh.Sarimsakova. Madaniyat va muloqot. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2024.

Ra’no ALIMARDANOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



ONALARNING FARZANDLAR KELAJAGIGA TA’SIRINI XORIJ VA O‘ZBEK OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILGANLIGI

Annotatsiya: oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo‘lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro‘y bergan buyuk o‘zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o‘z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtayi nazaridan sog‘-omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Mazkur tadqiqotning maqsadi ham onalar va farzandlar orasida ta’sir darajasi va uning axborotlarini tahlil qilish. Ushbu tadqiqotda, ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va natijalarni hisoblash usullari ishlatiladi.

Kalit so‘zlar: *onalar, farzand, avlod, tarbiya, ijtimoiylashuv, ta’sir darajasi, tarbiya, tadqiqot.*

Аннотация: семья – древнейший из социальных институтов. Несмотря на многообразие и сложность исторических периодов, переживаемых человечеством, особенно в XIX и XX веках, это место, способное выдержать великие перемены и реформы, является здоровым по своему строю, устройству и выполнению своих обязательств. обществу - это сохранившаяся структура. Целью данного исследования является анализ уровня влияния между матерями и детьми и его информации. В данном исследовании используются методы сбора данных, анализа и расчета результатов.

Ключевые слова: *матери, ребенок, поколение, образование, социализация, уровень влияния, образование, исследование.*

Annotation: family is the oldest of social institutions. Despite the diversity and complexity of the historical periods experienced by mankind, especially in the 19th and 20th centuries, this place, which was able to withstand the great changes and reforms, is healthy in terms of its system, structure, and fulfillment of its obligations to society. ' is a surviving structure. The purpose of this study is to analyze the level of influence between mothers and children and its information. In this study, methods of data collection, analysis and calculation of results are used.

Key words: *mothers, child, generation, education, socialization, level of influence, education, research.*

Kirish. O‘zgarmaydigan haqiqatlardan biri – onalar farzandlarining turli jihatlaridan ta’sirlanishini boshqarishdagi muhim omil. Ularning o‘qitish, tarbiya va ta’limlarini ta’minlash, ko‘nikmalarni shakllantirish, jamiyatdagi munosabatlarini qurish va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishdagi roli katta. Bu tadqiqot onalar va farzandlar orasidagi ta’sir darajasini tahlil qilish va uning axborotlarini yig‘ish maqsadida amalga oshirilmoqda. Katta va kichik shaharlarda turli xil oilalardan farzandlar bilan amaliyotlar olib borildi. Bu tadqiqotning xulosasi farzandlarini tarbiyalash va rivojlantirishda onalarning roli va ta’sir darajasini aniq ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu tadqiqotning natijalari ota-onalar, maktab o‘qituvchilari, psixologlar, ta’lim muassasalarining rahbarlari va boshqalar uchun juda muhim bo‘ladi. Bu ma’lumotlar ularning o‘z farzandlarini tarbiyalash usullarini takomillashtirish, tarbiya muhitini salohiyatli va samarali qilishda yordam beradi. Shuningdek, bu tadqiqot o‘z vaqtida ota-onalar va farzandlar orasidagi aloqa va uning samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi.

Mamlakatimizda oila, oilaviy munosabat, yoshlar tarbiyasi masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Biroq yurtimizda yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda bu sohaga berilayotgan katta e’tiborga qaramay, o‘smir-yoshlar o‘rtasida giyohvandlik, jinoyatchilik, tartibbuzarlik kabi mentalitetimizga, etnik xususiyatlarimizga xos bo‘lmagan illatlarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda jahon miqyosida oilaviy munosabatlar, xususan, o‘smirlik yoshidagi o‘zaro munosabatlar, ota-ona va farzand o‘rtasidagi nizolar va ularning kelib chiqish sabablarini o‘rganish masalalari dolzarb muammolardan sanaladi. Chunki shaxsning shakllanishida oiladagi muhit, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy nizolar oqibatida ro‘y berayotgan holatlar, oilalarning barbod bo‘lishi, millatlar, davlatlarning o‘zaro kelishmovchiligi yoshlarning tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko‘pchiligi oila muammolarining qator qirralarini o‘z ilmiy izlanishlarida o‘rganganlar. Ushbu masala yuzasidan xorijlik ayrim psixologlar,

xususan, D.Mayers, V.Kvinn, F.Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Shuningdek, rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o‘rganilgan.

Olimlar tomonidan to‘plangan ilmiy dalil va xulosalarning barchasi mohiyatan o‘zbek muhitiga to‘g‘ri kelmasligi aniq. Negaki, bir millatning urf-odati, an’ana va milliy qadriyatlari boshqasinikiga mos kelmaydi. Muhimi, O‘zbekistonda oila va undagi o‘zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo‘lgan ma’lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham, mavjud muammoni hududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o‘rganish zarur. Ta’kidlash joizki, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshbandiy, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Boborahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, hamda hozirgi davr O‘zbekiston olimlari M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G‘.G‘oziyev, Sh.R.Baratov, M.Mamatov, B.M.Umarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin o‘rtasidagi nizoli munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada ta’sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Aynan ushbu muammoning yechimlarini topish biz tomondan ko‘tarilgan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Oila va undagi shaxslararo munosabatlar, uning shaxs shakllanishiga ta’sirini o‘z madaniy muhiti sharoitida xorijiy psixolog olimlardan R.Brazington, T.Dumitrashku, F.Galton, U.Toumen, R.Richordson, R.Zayons, G.Xomentauskas va boshqalar ushbu sohani tadqiq qilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan ushbu soha bo‘yicha V.V.Boyko, G.M.Breslav, A.G.Volkov, S.V.Kovalev, V.P.Levkovich, E.I.Pavlovich, V.L.Titarenko kabi bir qator olimlar oila muammolari, shaxs oilasidagi genetik va orttiriladigan xususiyatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar [4: 48-b]. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda oila muammolari, undagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari to‘g‘risida F.Akramova, D.Abdullayeva, V.Karimova, A.Kadirova, Z.Nishonova, G.Niyozmetova, M.Salayeva, N.Sog‘inov, R.Samarov, Z.Rasulova, M.Utepbergenov, G‘.Shoumarov va boshqa olimlarimizning olib borayotgan tadqiqotlarini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim [1: 5-b].

Asosiy qism. Ilmiy muammo shundaki, farzandlarni tarbiyalashda onalar ta’sir darajasi aniq emas. Aksariyat odamlar va jamiyat a’zolari onalarning farzandlari ustidagi ta’sirini o‘zlashtirishga, o‘qitishga va rivojlanishiga ta’sir qiladigan asosiy omil deb qabul qilishadi. Ammo bu ta’sirning darajasi, uning farzandning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi roli bilan bog‘liqli ekanligini aniqlash uchun aniq tahlil va tadqiqotlarga ehtiyoj bor. Bu muammo, farzandlar tarbiyasida ishtirok etayotgan ota-onalar, maktab o‘qituvchilari, psixologlar va boshqa kasblar uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki bu ta’sir darajasini tushunish, ularning ishlarini takomillashtirish va natijalarni yaxshilashga yordam beradi. Tadqiqot natijalari farzandlar tarbiyasi sohasidagi samaradorlikni oshirishga ham ko‘maklashadi.

Bu tadqiqotning asosiy maqsadi onalar va farzandlar orasidagi ta’sir darajasini aniq tahlil qilish va bu aloqa darajasi farzandning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi roli bilan qanday bog‘liq ekanligini aniqlash. Bu farzandlar tarbiyasida ishtirok etayotgan ota-onalar, maktab o‘qituvchilari, psixologlar va boshqa kasblarning ishini yaxshilashga va farzandlar tarbiyasi sohasidagi samaradorlikni oshirishga yordam berishi mumkin. Bunday tahlil va tadqiqotlar natijasida, ularning farzandlarini tarbiyalash usullarini takomillashtirish va tarbiya muhitini yanada samarali qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Tadqiqotning asosiy usullari quyidagi kabi edi: suhbatlar, havolalar, ma’lumotlar tahlili va ma’lumotlar yig‘ish. Bu usullar tahlil va natijalar olish uchun tanlandi. Havolalar, ota-onalar va farzandlar orasidagi aloqani tahlil qilish va uni baholash uchun juda muhim. Havolalar orqali ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifoda etishlarini, farzandlar esa ota-onalarining ta’sirini qanday qabul qilishlarini aytishlarini ta’minlab beradi. Suhbatlar esa tadqiqot olib borilayotgan muddat mobaynida ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarni kuzatish uchun muhimdir. Ular orqali ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar samarali ravishda o‘zgarishini kuzatish mumkin.

Ma’lumotlar yig‘ish usuli esa bu tadqiqotda ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarni tahlil qilish uchun juda muhimdir. Bu usul orqali tadqiqotchi ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarni, onalar va farzandlar orasidagi ta’sir darajasini hamda bu ta’sirning farzandlar rivojlanishiga qanday ta’sir qilganini aniq ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi [2: 24-b].

Psixoanalitik yondashuvning vakili E.Erikson hayot davomida shaxsning shakllanish jarayonini tahlil qilib, har bir shaxs uchun psixoseksual emas, balki psixosotsial ziddiyatlarni hal qilish zarur, degan xulosaga keldi.

Psixoanalitik pedagogikaning vakili K.Byutner oila va muassasa ta'limi o'rtasidagi munosabatlarni, xususan, videofilmlar, o'yin sanoati va o'yinchoqlarning tobora ortib borayotgan ta'sirini ko'rib chiqadi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta muammolar mavjud.

Birinchi muammo, ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlar darajasini aniq tahlil qilishda uchraydigan qiyinchiliklar. Suhbatlar va havolalar orqali ota-onalar va farzandlar orasidagi aloqani tahlil qilish va uni baholash imkoniyati paydo bo'ldi.

Ikkinchi muammo, yig'ilgan ma'lumotlar to'g'risida to'g'ri tahlilni amalga oshirish. Tahlillar farzandlar va ota-onalar orasidagi munosabatlarning o'zaro ta'sir darajalarini va bu ta'sirning farzandning shaxsiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini aniq ko'rdi.

Uchinchi muammo, ota-onalar va farzandlar orasidagi aloqalar uchun eng samarali tarbiyaviy usullarni tanlash. Bu muammoga yechim topish uchun tarbiyaviy usullarni tekshirish va ularning samaradorligini baholashda to'g'ri usulni qo'llash.

Tayyorlagan takliflar esa onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarni yaxshilash, tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, farzandlarning shaxsiy rivojlanishini hamda jamiyatdagi rolini oshirishga yo'naltirilgan. Bu esa tarbiya sohasida ishlovchi ota-onalar, o'qituvchilar va psixologlar uchun yangi yondashuvlar va yo'llar taklif qiladi. Bu tadqiqotning natijalari ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarning ahamiyatini anglatishda muhim hissa o'ynaydi.

Bu tadqiqotning ustunligi, munosabatlar, ta'sir darajasi va ularga qaratilgan tahlillar orqali ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarni to'liqroq tushunishga yordam beradi. Bu esa tarbiyaviy jarayonni yaxshilash, farzandlarning shaxsiy rivojlanishini oshirish va ularning jamiyatdagi rolini yaxshilashga yo'naltirgan. Biroq tadqiqotning bir kamchiligi, ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlar darajasini aniq tahlil qilishda uchraydigan qiyinchiliklardir. Bu munosabatlar o'zaro ta'sir darajasi aniq ko'rsatilmaganligi uchun, bu tadqiqotni yuqori darajada obyektiv deb baholash qiyin. Boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslaganda, bu tadqiqot ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlar uchun juda muhim bo'lgan bir nechta muhim jihatlar bo'yicha aniq va yorqin ma'lumotlar beradi. Bu ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlar, ta'sir darajasi, rivojlanish va ta'lim-tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini aniq ko'rsatadi [6: 166-b].

Umumiy natijada, bu tadqiqot ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlar, ularning ta'siri va bu munosabatlar shaxsiy rivojlanish va ta'lim-tarbiya jarayoniga qanday ta'sir etishini yorqin ko'rsatib beradi. Bu natijalar tarbiya jarayonini samarali bajarish uchun muhim yo'nalishlar beradi. Qolgan muammolarga yechim topish uchun esa qo'shimcha tadqiqotlar kerak bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilganda, tadqiqot natijalari ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarning farzandning shaxsiy rivojlanishini, o'qish samaradorligini va jamiyatdagi rolini ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida ko'rsatdi. Shuningdek, bu munosabatlar tarbiya jarayonida ota-onalar uchun muhim yo'nalishlar beradi. Tadqiqot jarayonida kelib chiqqan muammolar – munosabatlar darajasini aniq tahlil qilish, yig'ilgan ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va tarbiyaviy usullarni tanlash bo'yicha muammolar muvaffaqiyatli hal topdi. Tadqiqot natijalari tarbiya sohasida ishlovchi ota-onalar, o'qituvchilar va psixologlar uchun yangi yondashuvlar va yo'llar taklif qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ubaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. – T., 2022. 5-bet.
2. Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T., 2007. 24- bet.
3. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T., 2014. 185- bet.
4. Rasulova F.F. O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari: Avtoref. diss. ps. fan (PhD): 19.00.06 – T., 2018. 48- bet.
5. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T., 2005. 15 -bet.
6. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis. psixol. fan. nomzodi: 19.00.05. – T., 2004. 166- bet.

Dilfuza SHABBAZOVA,
TerDPI dotsenti, p.f.f.d (PhD)
dilruz-73@mail.ru

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI TARBIYASIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI O‘RGANISH

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashning mazmun va mohiyati, tashkil etish shakllari hamda mexanizmlari yoritib berilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash orqali jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, hayotda ko‘zlagan maqsadlariga yetishishlarida amalga oshirish vazifalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, ma’naviy tajriba, tarbiya mezonlari, tadbirlar, kasb-hunar, qadriyat.*

Аннотация: в статье раскрывающия содержание и сущность, формы и механизмы организаци воспитания учащихся начальных классов. Описаны задачи, реализация которых через воспитание учеников начальных классов способствует обретению ими своего места в обществе и достижению поставленных жизненных целей.

Ключевые слова: *образование, воспитание, духовный опыт, критерии воспитания, мероприятия, профессия и ремесло, ценность.*

Annotation: this article explores the content, essence, forms, and mechanisms of organizing educational upbringing for primary school students. It describes tasks which, when implemented through the upbringing of primary school students, contribute to their finding their place in society and achieving their life goals.

Keywords: *education, upbringing, spiritual experience, upbringing criteria, activities, profession and craft, value.*

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari shaxs kamoloti uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar uning o‘zligini anglab borishi va o‘z ustida mustaqil ishlagan tarzda xalq ravnaqi va Vatan taraqqiyoti yo‘lida fidokorona mehnat qilishi uchun iqtidori, aqli va shuurini safarbar etishga undaydi.

Mamlakatimizda barkamol avlod kamoloti g‘oyasini turmushga tatbiq etish uchun milliy ma’naviyat, milliy ta’lim va tarbiya muammolarini hal qilishga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya ongning mahsuli va ongning darajasi bo‘lish bilan birga ongning rivojini ham belgilaydigan omil hamdir.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchi va o‘qituvchi munosabatlaridagi noxushlik boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasiga muntazam yondashuvning yo‘qligi tarbiyaviy munosabatlarda o‘quvchilarning yosh va individual psixologik hamda jismoniy xususiyatlarini hisobga olmaslik, tarbiya usullarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi o‘quvchi xulqida salbiy illatlarning asta-sekin shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Garchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xarakter hali to‘liq tarkib topmagan bo‘lsa-da, unda kutilayotgan bo‘lajak xarakterning asoslari, deb atalishi mumkin bo‘lgan psixik sifatlar mavjuddir. Ana shu asoslardan barqaror fazilatlar asta-sekin hosil bo‘la boradi.

Bu davrda bola xarakterida shakllanayotgan salbiy xislatlardan o‘jarlik, injiqlik, qo‘pollik, yolg‘onchilik, manmanlik, xudbinlik va h.k. ta’lim faoliyatida yaqqol ko‘rinadi. Tarbiya jarayonining natijalari odatda, bir xil xarakterda bo‘lmaydi. Bu narsa o‘quvchilarning psixologik (individual-tipologik) fiziologik va jismoniy xususiyatlariga, ularning hayotiy va ma’naviy tajribasiga, shaxsiy pozitsiyasiga bog‘liq. Shu bilan birga tarbiya turlari – axloqiy, aqliy, jsmoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyalar o‘zining xususiy maqsadidan kelib chiqqan bir qator vazifalarni amalga oshiradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlardan tarbiya jarayonida foydalanishning mazmuni va o‘ziga xos usullari sharq mutafakkirlari Al-Farobiy, Abu-Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Nasriddin Tusiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqalarning ta’limiy-axloqiy asarlarida o‘z ifodasini topgan. Bu asarlar hozirgi davrda ham qadriyat sifatida, ham yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim tarbiyaviy dastur deyishimiz mumkin. Allomalarning mazkur ta’limiy-axloqiy asarlari qadriyat sifatida milliy tarbiyaning asosiy xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhimdir.

Bular – birinchidan, odob-axloq tarbiyasidir. Bu bolalarni go‘daklikdan boshlab to‘g‘ri tarbiyalashdan iboratdir. Ibn Sinoning “Tib qonunlari”ning I jildida “Farzand tarbiyasi” bo‘lishi bolalarni tarbiyalashning ana shu muhim davriga bag‘ishlanadi.

Milliy tarbiya an’analarida odob-axloqqa bunday katta e’tibor “Insonda axloqiy kamolot – hayot mazmuni va maqsadi, burch va mas’uliyat, baxt, diyonat, yaxshilik, yovuzlik, haq va nohaqlik to‘g‘risidagi tushunchalarning shakllanishiga asos

bo‘ladi. Insonning bilimi, kasbi, hunari, malakalari ham muayyan darajadagi axloq va odob asosida shakllanadi” .

Bu borada keksa avlodning boy tajribasi muhim rol o‘ynaydi. Chunki keksalarning vazminlik, o‘ylab, mulohaza yuritib ish ko‘rishi kabilar ma’naviy boylik sanaladi.

Ma’lumki, har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlardan tarkib topadi. Asrlar davomida xalqning ma’naviy ehtiyojlari asosida shakllangan qadriyatlarda olg‘a surilgan ilg‘or g‘oyalarni o‘z ongida shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan yoshlargina mustaqil respublikamiz taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladi. Bu esa o‘z navbatida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganishni talab etadi.

Mazkur vazifani amalga oshirishda ta’lim muassasalari mas’ul hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya oldiga qo‘yilgan muhim maqsad ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta’lim-tarbiya mazmunini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish va uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashni nazarda tutadi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu-istaklari, e’tiqodi, axloq qoidalarini o‘zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma’naviy boylik bo‘lib, tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tarixiy bosqichiga ega, hayot sinovidan o‘tgan, avloddan-avlodga o‘tib ijtimoiy taraqqiyotda xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir. Shuningdek, jamiyat rivojining negizi, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuqlarini ifodalovchi va saqlovchi qudratli omildir. Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish yosh avlod tarbiyasining omilidir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga muhim vazifalar qo‘yilgan: bolani sog‘lom, har tomonlama – aqliy, ma’naviy-madaniy yetukligini ta’minlash, uning milliy-madaniy va umumbashariy qadriyatlar asosida kamol topishi uchun zamin yaratishdir. Komil inson tushunchasini faqat intellektual madaniy-ma’naviy yetuk, baxtli inson deb, tushunilsa xato bo‘ladi. Haqiqiy barkamol inson hayotda o‘z o‘rnini topgan, tanlangan kasb-hunaridan baxtini, jamoa o‘rtasida obro‘ e’tiborini qozongan insonni mehnatsevar xalqimiz barkamol baxtli inson deb tan oladi.

Inson baxtli bo‘lishi uchun uning mehnat layoqatiga, to‘g‘ri tanlangan kasb-hunariga bo‘lgan yuksak munosabatlariga bog‘liqdir. Shunday ekan, bolani kasbga yo‘naltirishni kichik maktab yoshidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Qaysi ota-ona yoki murabbiy o‘z farzandini, shogirdini baxtli bo‘lishini istamaydi deysiz?

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, nutq o‘stirish va badiiy adabiyot, tasviriy faoliyatni tashkil etish mashg‘ulotlarida, sayr va ekskursiya, suhbatlar va qiziqarli uchrashuvlar, xullas kun davomida olib borish imkoniyatlari bisyor.

Boshlang‘ich ta’limning 1-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan “Kim bo‘lsam ekan?” qiziqarli didaktik o‘yin davomida doktor, uchuvchi, haydovchi, militsioner, kosmonavt, o‘qituvchi, artist, dehqon, tikuvchi kabi kasb-hunarlarga bo‘lgan qiziqishlari rivojlantiriladi. Ayniqsa, o‘zbek milliy hunarmandchilik bilan tanishtirish davomida bolalar nafaqat qadimiy kasb-hunarlar haqida ma’lumot olishlari, balki gilam to‘quvchi kasbi, etikdo‘z, kulol, chilangar, naqqosh, do‘ppido‘z kabi hunarlarga havas – qiziqish paydo bo‘la boshlaydi. O‘quvchilarni turli kasb-hunar mahsulot namunalari bilan tanishtirish davomida bu kasb egalarining mashaqqati, og‘ir mehnati tufayli yaratilganligi, har qanday buyum ko‘p mehnat evaziga yaratilishining uqtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mehnatsevar etib tarbiyalash, mehnatga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirishi ilk bor o‘z-o‘ziga xizmat qilishdan, guruhlarda navbatchilik qilish, gullarni parvarish qilish, hovlidagi maydonchaning tozaligini saqlash kabi topshiriqlardan boshlanadi. Ushbu topshiriqlarni bajarishida o‘quvchida topshiriqni bajarish ishtiyoqini, havasini uyg‘otish muhim. Bajarilgan topshiriq uchun, mashg‘ulotda chizgan rasm uchun o‘quvchi rag‘batlantirilsa, unda shu kabi ishlarni yanada yaxshiroq, puxtaroq bajarishga ishtiyoq paydo bo‘la boshlaydi, har qanday ishni tirishqoqlik bilan, bekamu-ko‘st bajarish ko‘nikmalari shakllanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil mehnat faoliyatiga amaliy va psixologik jihatdan puxta tayyorlash boshlang‘ich ta’lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu davrda ularda mehnatga yaxshi munosabatda bo‘lish asoslari tarkib topa boshlaydi, mehnatga havas uyg‘onib ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etish hissi tarbiyalanadi. Binobarin, uning eng yaxshi axloqiy sifatlari ilk bor ijtimoiy foydali mehnat jarayonida shakllanadi. Ongli ravishda bajarilgan muhit mehnat va shaxs kamolotiga hamisha ijobiy ta’sir etadi. Shu jarayonda shaxsning barcha sifatlari, psixik jarayonlari, xususiyatlari va fiziologik chiniqishi namoyon bo‘ladi.

Kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarni komil inson qilib o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda Vatanga, xalqqa muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik, milliy istiqlol soyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ishlarining asosini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" Qarori. www.lex.uz.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: «O‘qituvchi», 1967. 23-b.
3. Амонашвили, Ш.А. Размышления о гуманной педагогике [Текст] / Ш.А. Амонашвили. – М., 1996. - 494 с.
4. Баранов С. П. Методика обучения и воспитания младших школьников: учебник по педагогике для бакалавров / С. П. Баранов, Л. И. Бурова, А. Ж. Овчинникова. – Москва: Академия, 2015. - 375 с.
5. Бабамуратова, З., & Шаббазова, Д. Р. (2019). ВЗГЛЯДЫ ВЕЛИКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА О ВОСПИТАНИИ И СОВЕРШЕНСТВЕ ЧЕЛОВЕКА. Редакционная коллегия: Главный редактор (учредитель) ИП Всяких Максим Владимирович, кандидат экономических наук, 19.

Madina G‘OFUROVA
FDU 2-kurs magistranti
madinaG’ofurova9@gmail.com

ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA XARAKTER YARATISH MAHORATI

Annotatsiya: maqolada xarakter va uning badiiy asardagi o‘rni, ijodkorlarning xarakter yaratishdagi metodlari va uning ahamiyati. Yangi davr adabiyoti qahramonlarining xarakter va xususiyatlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *xarakter, yangi davr qahramoni, hayot haqiqati, asar g‘oyasi, individual xususiyat, muayyan sharoit,”Iztirob”, “Ayol”.*

Аннотация: в статье описываютсия персонаж и эго место в художественном произведении, способы создания персонажа и эго значение, черты характера героев современной литературы.

Ключевые слова: *характер, герой новой эпохи, правда жизни, идея произведения, индивидуальные особенности, конкретные обстоятельства, “Страдания”, “Женщина”*

Annotation: the article describes the character and its place in the work of art, the methods of creating a character and its importance, the character traits of the heroes of the modern literature.

Key words: *character, the hero of the new era, the truth of life, the idea of the work, individual characteristics, specific circumstances, “Suffering”, “Woman”*

Uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan badiiyat mezonlarida inson qismati zamon talato‘plari zamirida o‘z ifodasini topib kelmoqda va shu bois badiiy asarlarda davr va inson fojiasining badiiy talqini keng yoritib berilmoqda. Ma’lumki, zamonning yetakchi xususiyatlarini mujassamlashtirgan shaxs, o‘z navbatida, oila, jamiyat, muhit va tarixiy voqelik ta’sirida shakllanadi, harakat qiladi. Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar ekan, badiiy xarakterlarni yaratib, shu orqali mahoratini namoyon qiladi. Chunki ana shu hayot tasvirlari natijasida odamlarning yashash tarzi, xulqi, psixologiyasi, o‘y-mushohadalari, orzu-intilishlari ko‘rsatib beriladi.

Yozuvchi hayot haqiqatini, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad-muddaosi, badiiy niyati, asar g‘oyasini obrazlar orqali tasvirlar ekan, unda asosiy qahramon xarakterini poetik talqin qilishning turli vositalaridan foydalanadi. Negaki, yozuvchining xarakter yaratish san’ati, asosiy qahramon obrazining asar badiiy strukturasidagi o‘rni va asar poetikasi muammolarini yoritish sohaning izchil rivojini ta’minlaydigan asosiy omillardan biridir.

Xarakterlarning mohiyati faqat muayyan sharoitdagina ochiladi. Chinakam san’atkor o‘z qahramonini konkret vaziyatlarda rang-barang sinovlardan o’tkazadi: bu esa qahramonning ijtimoiy mohiyati va individual xususiyatlarini ochishga imkon beradi.[1.]

Xarakter — bu aniq iroda yo‘nalishiga ega bo‘lgan, o‘z xatti-harakatlari, intilishlari, o‘y-xayollari, dunyoqarashi, ma’naviyati, ma’rifati, fe’l-atvori bilan ajralib turadigan to‘laqonli shaxslar obrazidir.[2.]

Xarakter yaratish mahorati ijod jarayoni uchun muhim ahamiyat kasb etib, bu borada yosh va iste’dodli

adiba Zulfiya Qurolboy qizi ijodi ham o'ziga xosligi bilan e'tiborga loyiq. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarining aksariyatida ayollar obrazi gavdalanadi. Bu ijodkorning o'zi ham shu jins vakilasi bo'lganligidan ayollar ruhiyati, ichki dunyosi, o'y-xayollarini qalban tushuna olganligi va shu sababdan hech bir g'alizliklarsiz yorita olganligidan darak beradi.

Xususan, ijodkorning "Iztirob" hikoyasida yetti qizni dunyoga keltirgan, o'g'il farzand ko'rish orzusiga yeta olmagan, buning uchun o'z sog'lig'idan voz kechib, oxir-oqibatda nogironga aylangan, bu harakatlarning barchasini eri uchun amalga oshirib, oxirida mana shu eriga keraksiz bo'lib qolgan va xiyonatga uchragan ayol – Fazilatning qismati yoritiladi.

Fazilat ikkinchi qizini dunyoga keltirgandan so'ng kasallanib qoldi, ammo o'g'il ko'rish ilinjida belini mahkam bog'lab har ikki yilda tug'averdi. Eri Abdulmo'min ismi jismiga monand mo'min odam edi. [3.] U hech qachon Fazilatga o'g'il tug'maganini yuziga solmas edi, ammo er-u xotin o'rtasida urush chiqib qolsa ayb kimdan o'tmasin Fazilat kechirim so'rar edi. U o'zini aybdor sanar, bunday qismatni dushmaniga ham ravo ko'rmas edi. Bolalar uyidan farzand boqib olishsa baribir begona bo'ladi der, keyinroq kuyovlardan birini ichkuyov qilib olaman desa, tili qisilishini o'ylardi. Shunday kezlarda, Abdulmo'minga o'g'il tug'ib beradiganiga uylaning deb aytardi.

Bir kuni bo'lgan qo'ng'iroq uni battar qayg'uga solgan edi. Telefondagi ayol – Zulxumor Abdulmo'min bilan olti yildan beri sevishib yurganini, unga uylanishni va'da qilganini lekin buning uchun u rozi bo'lishi kerak ekanligini aytdi. O'zini aybdor deb bilgan Fazilat bu nikohga rozi bo'ldi, hatto " agar siz… o'sha ayolga uylansangiz… va u… va u… hech bo'lmasa ikkita o'g'il tug'ib berarmikin?"[4.] deb aytgan. Ammo uning ko'nglida boshqa istak: u erini sendan boshqa ayol kerak emas, deyishini, ana qizlarimizdan birini ichkuyov qilamiz yoki ular o'g'il farzand ko'rsa nevaralarimizdan birini boqib olamiz deyishini ich-ichdan istadi, lekin Abdulmo'minning "O'sha ayol ko'narmikin? Men esa roziman" degan gapi ayolni iztirobga soldi. Nihoyat to'y kuni ham yetib keldi, Fazilat hech kimga bildirmaslikka harakat qilsa-da, unsiz faryod chekardi. Ayolning butun vujudini alam, nafrat, rashk, iztirob egallab olgandi. Fazilat qalbida yonayotgan iztirob alangasi nafaqat tanasini balki butun vujudini kuydirayotgan edi.

Zulfiya Qurolboy qizining "Iztirob" hikoyasida o'g'il farzand ko'rish uchun har nega tayyor bo'lgan, bu yo'lda o'zidan, sog'lig'idan, va hatto qalb gavhari bo'lgan eng aziz insoni – eridan ham voz kechgan, ammo uni boshqaga berib, o'zi iztirob alangasida qovurilgan Fazilatning taqdiri yoritiladi.

Shu o'rinda, adabiyotshunos Umarali Normatovning Zulfiya Qurolboy qizi ijodiga yuksak baho berib "… Saida opadan keyin asarlarida nafis o'zbekona nafosat va ayni paytda mardona bir shijoat, adolat tuyg'usi ufurib turgan iste'dodli bir adiba…" deya bergan ta'rifi o'rinlidir. Ijodkorning asarlarida, o'zbek ayollari va ularning oila uchun ne chog'lik fidokorligi katta mahorat bilan yoritilgan.

Fikrimiz isboti sifatida, yozuvchining "Ayol" hikoyasini keltirishimiz mumkin. Hikoya qahramoni Nazokat o'zining fidokorligi, sabr-bardoshi, irodasi mehr-sadoqati, qat'iyati va mardonavorligi bilan e'tiborga loyiq. U sog'lig'i yomonlashib, ming dard cheksa-da, erining ko'nglini olishga, unga xunuk holatda ko'rinmaslikka harakat qiladi, hayot uchun kurashadi. Hikoyada umrining so'nggiga qadar hayotga muhabbatini yo'qotmagan, o'zini kuchli qilib ko'rsata olgan jonkuyar rafiqa obrazi gavdalanadi.

"–Mana ko'rasiz ikki-uch kun o'tsin, yana avvalgiday bo'lib ketaman. Shunday bo'lishini ko'nglim sezib turibdi, – shivirladi Nazokat. Shavkatning ko'ziga dunyo qorong'u bo'lib ketdi."[4.] Nazokat shum taqdiri bilan kurashishga qanchalik urinmasin, oxir oqibatda baribir yengiladi. Umrining so'nggi daqiqasigacha eriga vafodor va jonkuyar bo'lgan ayolning ruhiy holati hayotiy voqealar orqali yoritib berilgan.

Xarakter va sharoit, qahramon va davr, shaxs va jamiyat, inson va tarix– bularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini taqozo etadi, to'ldiradi va umumiy ma'noga ega hisoblanadi. Chunki har qanday xarakter ma'lum bir sharoitda yuzaga chiqadi, uning xarakter bo'lib shakllanishida mana shu sharoit katta ahamiyat kasb etadi. Qahramon va davr, shaxs va jamiyat kabi tushunchalar ham huddi shunday.

Adabiyot badiiy obrazlarning murakkab sistemasi orqali inson tuyg'ulari, ehtirosi, psixologiyasi va ongining jamiyat, davlat, tarix va tabiat bilan bog'liqlik darajasini ochib beradi.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalaridagi xarakterlar ham ma'lum sharoitda yetilib o'zligini namoyon qiladi. Xarakter insonning ko'proq tabiatdan olgan ruhiy va jismoniy xususiyatlari majmuasidir.[5.] Mana shu fikr isboti sifatida Zulfiya Qurolboy qizining "Yozsiz yil" hikoyasini keltirishimiz mumkin. Adibaning mazkur hikoyasida, inson sha'nini himoya qilish va ulug'lashdek mo'tabar, mavzu yanada teranroq va ko'lamdorroq yoritilganligi, muammolarning betakror yechimi topilganligi bilan e'tiborga loyiq. Hikoyaning bosh qahramoni farzandining baxt-u kamolidan, uning quvonch-u shodligidan tinch-totuvligidan boshqa narsani o'ylamaydigan xokisor mehribon ona – Buvgul xola. Uning o'g'li Sobir avtohalokat tufayli nogiron bo'lib qoladi. Bu mudhish falokatning azob, iztirobi o'g'ildan ham ko'ra onaning yurak bag'rini kemiradi. Hikoya davomida onaizor vujudini yondirgan otash, xasta o'g'il ko'ngli, oromi deb chekkan zahmatlari alangasi taftini o'quvchi har doim sezib, his qilib turadi. Taqdirning turfa o'yinlarini qarangki, Sobir shu ahvolda qishloqning go'zal qizi Marvaridga ko'ngil qo'yadi, o'z navbatida qiz ham Sobirning beg'ubor sof sevgisiga

munosib javob qaytaradi, ammo Sobirning akasi va Marvaridning otasi bu munosabatlarga qattiq qarshilik qiladi. Natijada johillar qo'li baland keladi. Bundan keying hijron ifodasi, kundan-kun tanani yemirib borayotgan xastalik azoblarini o'g'il va ona bab-baravar tortadi, ikki vujud bir jon-u bir tan bo'lib yonadi.

Badiiy adabiyotimizda Ona sha'ni kuylangan, uning farzandiga bo'lgan mehr-u muruvvati madh etilgan asarlar bisyor, shular qatorida Zulfiya Qurolboy qizining "Yozsiz yil" hikoyasi insonning eng nozik tuyg'ularini ham junbushga keltirganligi, kitobxonni ham o'z tuyg'ulariga sherik qilganligi bilan xarakterlidir.

Inson shaxsi muhit ta'siri ostida o'z xarakteri, imkoniyatlari doirasida o'zgaradi. Kuchli va sobit xarakterlar o'tkinchi muhit ta'siriga ha deganda tushavermaydilar. Muhitga qarshilik ko'rsatish tuyg'usi ularda kuchli rivojlangan bo'ladi. "Yozsiz yil" hikoyasidagi Buvgul xolani ham mana shunday sobit xarakterlardan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki asar yakunida katta o'g'il, hissiz nodon kimsalar xolani o'g'lidan ayirmoqchi bo'ladilar, buning uddasidan chiqolmagach xolani "iymonsiz' deb ataydilar. Shunda u "Mening iymonim – bolam!" deb hayqiradi. Nihoyat o'g'il jon taslim qilgandan so'ng onaizor osmonga tikilib: "Odamni ermak uchun yaratib, uni eplay olmay qolganingdan keyin o'limni o'ylab topdingmi?" deya savdoyilarcha shivirlaydi. Bunday isyonkorona shivirlash aslo taqdiri azalga nisbatan shakkoklik emas, balki ona qalbidagi farzandiga bo'lgan ilohiy mehrning so'nggi – yakuniy tasdig'i kabi yangraydi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayollar bosh qahramon sifatida tanlanadi va ular o'zining xarakter-xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda hikoyalarda qahramonlar hech qanday bo'rttirishlarsiz hayotiy shaklda ifoda etiladi va o'z navbatida bu hikoyalarning ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1,To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent:O'zbekiston, 2002 Б.72
2.Hotam Umurov Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.2004.
3.Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimgi qo'shiq. –Toshkent:"O'zbekiston". 2012.
4.Zulfiya Qurolboy qizi Ayol. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi,2005
5. Adabiyot nazariyasi 2jildlik 1-jild. –Toshkent:Fan nashriyoti. 1978. Б.153

Olim KODIROV,
Andijan State Institute of Foreign Languages.
olimjon.kodirov.1976@mail.com

REFLECTIVE TEACHING PERSPECTIVES OF EL TEACHING IN UZBEK SCHOOLS

Annotation: this article deals with the problem of popularizing reflective teaching methods among Uzbek El teachers. It brings light upon some important benefits of reflective teaching and how it can be implied to practice in the modern world when the demand in specialists speaking English in different spheres of life is getting bigger and bigger. The article also discusses the present situation in EL teaching in Uzbekistan.

Key words: *reflection, El teaching, learning outcomes, self-observation, Uzbek schools, potential improvement, traditional methods, CLT, professional development, student engagement, student needs, achievements, students' feedback, peer observation.*

Аннотация: в этой статье рассматривается проблема популяризации методов рефлексивного обучения среди узбекских преподавателей El. Она освещает некоторые важные преимущества рефлексивного обучения и то, как его можно применять на практике в современном мире, когда потребность в специалистах, говорящих на английском языке в разных сферах жизни, становится все больше и больше. В статье также обсуждается нынешняя ситуация в преподавании EL в Узбекистане.

Ключевые слова: *рефлексия, преподавание El, результаты обучения, самонаблюдение, узбекские школы, потенциальное улучшение, традиционные методы, CLT, профессиональное развитие, вовлеченность учащихся, потребности учащихся, достижения, обратная связь учащихся, наблюдение со стороны сверстников.*

Annotatsiya: ushbu maqolada "O'zbek El" o'qituvchilari orasida reflektiv o'qitish usullarini ommalashtirish muammosi ko'rib chiqiladi. Bu aks ettiruvchi ta'limning ba'zi muhim afzalliklari va hayotning turli sohalarida ingliz tilida so'zlashuvchi mutaxassislarga bo'lgan talab tobora ortib borayotgan zamonaviy dunyoda uni amaliyotda

qanday qo'llash mumkinligi haqida ma'lumot beradi. Maqolada, shuningdek, O'zbekistonda EL o'qitishning hozirgi holati muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *mulohaza, El o‘rgatish, o‘quv natijalari, o‘z-o‘zini kuzatish, o‘zbek maktablari, potentsial takomillashtirish, an’anaviy usullar, CLT, kasbiy rivojlanish, o‘quvchilarning faolligi, talaba ehtiyojlari, yutuqlari, o‘quvchilarning fikr-mulohazalari, tengdoshlarning kuzatishi.*

Introduction

Reflective teaching has emerged as a critical practice in enhancing the effectiveness of English Language (EL) teaching, particularly in non-native English-speaking countries like Uzbekistan. Reflective teaching involves a continuous cycle of self-observation, self-evaluation and improvement, aiming to foster better learning outcomes. This article explores the reflective teaching perspectives in the context of EL teaching in Uzbek schools, examining the current practices, challenges and potential improvements.

Main part

Reflective teaching is grounded in the idea that teachers who critically analyze their teaching methods and classroom interactions can identify areas for improvement and adapt their strategies to better meet the needs of their students. According to Schön (1983), reflective practitioners engage in a dialogue with their experiences, leading to a deeper understanding of their teaching practices. In the context of EL teaching, this is particularly important as it helps teachers address the diverse linguistic and cultural backgrounds of their students.

Enhanced Teacher Development: Reflective teaching encourages ongoing professional development. Teachers become more aware of their teaching styles and how these impact student learning (Farrell, 2013).

Improved Student Outcomes: By reflecting on their teaching, educators can identify effective strategies and discard less effective ones, leading to improved student engagement and achievement (Richards & Lockhart, 1994).

Adaptability: Reflective teachers are better equipped to adapt to changing educational environments and student needs, which is crucial in a dynamic field like EL teaching.

In Uzbek schools, traditional teaching methods have often dominated the classroom. These methods typically involve a teacher-centered approach, focusing on grammar and vocabulary through rote learning. However, there is a growing recognition of the need for more interactive and communicative approaches that promote student participation and practical language use (Ashurova & Galieva, 2020).

Reflective teaching has emerged as a critical practice in enhancing the effectiveness of English Language (EL) teaching, particularly in non-native English-speaking countries like Uzbekistan. Reflective teaching involves a continuous cycle of self-observation, self-evaluation and improvement, aiming to foster better learning outcomes. This article explores the reflective teaching perspectives in the context of EL teaching in Uzbek schools, examining the current practices, challenges and potential improvements. Reflective teaching is grounded in the idea that teachers who critically analyze their teaching methods and classroom interactions can identify areas for improvement and adapt their strategies to better meet the needs of their students. According to Schön (1983), reflective practitioners engage in a dialogue with their experiences, leading to a deeper understanding of their teaching practices. In the context of EL teaching, this is particularly important as it helps teachers address the diverse linguistic and cultural backgrounds of their students.

Benefits of Reflective Teaching

1. Enhanced Teacher Development: Reflective teaching encourages ongoing professional development. Teachers become more aware of their teaching styles and how these impact student learning (Farrell, 2013).

2. Improved Student Outcomes: By reflecting on their teaching, educators can identify effective strategies and discard less effective ones, leading to improved student engagement and achievement (Richards & Lockhart, 1994).

3. Adaptability: Reflective teachers are better equipped to adapt to changing educational environments and student needs, which is crucial in a dynamic field like EL teaching.

In Uzbek schools, traditional teaching methods have often dominated the classroom. These methods typically involve a teacher-centered approach, focusing on grammar and vocabulary through rote learning. However, there is a growing recognition of the need for more interactive and communicative approaches that promote student participation and practical language use (Ashurova & Galieva, 2020).

Reflective teaching is gradually being integrated into the professional development programs for EL teachers in Uzbekistan. Workshops and training sessions are being organized to encourage teachers to adopt reflective practices. These initiatives aim to equip teachers with the skills to critically assess their teaching methods and student interactions (Tursunova, 2019).

1. Journals and Diaries: Teachers are encouraged to maintain reflective journals or diaries where they document their daily teaching experiences,

challenges and successes.

2. Peer Observation: Observing peers and being observed by them provides valuable insights and feedback, fostering a culture of collaborative reflection (Gebhard, 2005).

3. Student Feedback: Collecting and analyzing student feedback helps teachers understand the impact of their teaching from the learners' perspective.

Despite the growing emphasis on reflective teaching, several challenges hinder its effective implementation in Uzbek schools.

Many teachers are accustomed to traditional teaching methods and may resist adopting reflective practices. This resistance often stems from a lack of understanding of the benefits of reflective teaching and the comfort associated with established routines (Farrell, 2018).

The availability of resources, such as access to professional development programs and reflective tools, is limited in some regions of Uzbekistan. This scarcity hampers the widespread adoption of reflective teaching practices (Ashurova & Galieva, 2020).

The focus on high-stakes testing and standardized assessments can discourage teachers from experimenting with new teaching methods and reflecting on their practices. The pressure to meet curriculum goals often takes precedence over reflective practices (Richards & Farrell, 2005). To overcome these challenges and promote reflective teaching in EL classrooms, several steps can be taken. Investing in comprehensive professional development programs that emphasize reflective teaching is crucial. These programs should provide teachers with practical tools and techniques to incorporate reflection into their daily routines (Tursunova, 2019).

Creating a supportive school environment that values and encourages reflective practices is essential. This can be achieved by fostering a culture of collaboration and continuous improvement among teachers and administrators. Leveraging technology can facilitate reflective teaching. Online platforms and digital tools can provide teachers with easy access to resources, peer networks and professional development opportunities (Gebhard, 2005). Educational policies should be reformed to prioritize reflective teaching and provide the necessary support and resources. This includes revising assessment frameworks to include reflective practices as a component of teacher evaluations (Richards & Farrell, 2005).

Reflective teaching is gradually being integrated into the professional development programs for EL teachers in Uzbekistan. Workshops and training sessions are being organized to encourage teachers to adopt reflective practices. These initiatives aim to equip teachers with the skills to critically assess their teaching methods and student interactions (Tursunova, 2019).

Journals and Diaries: Teachers are encouraged to maintain reflective journals or diaries where they document their daily teaching experiences, challenges and successes.

Peer Observation: Observing peers and being observed by them provides valuable insights and feedback, fostering a culture of collaborative reflection (Gebhard, 2005).

Student Feedback: Collecting and analyzing student feedback helps teachers understand the impact of their teaching from the learners' perspective.

Despite the growing emphasis on reflective teaching, several challenges hinder its effective implementation in Uzbek schools.

Many teachers are accustomed to traditional teaching methods and may resist adopting reflective practices. This resistance often stems from a lack of understanding of the benefits of reflective teaching and the comfort associated with established routines (Farrell, 2018).

The availability of resources, such as access to professional development programs and reflective tools, is limited in some regions of Uzbekistan. This scarcity hampers the widespread adoption of reflective teaching practices (Ashurova & Galieva, 2020).

The focus on high-stakes testing and standardized assessments can discourage teachers from experimenting with new teaching methods and reflecting on their practices. The pressure to meet curriculum goals often takes precedence over reflective practices (Richards & Farrell, 2005).

To overcome these challenges and promote reflective teaching in EL classrooms, several steps can be taken.

Investing in comprehensive professional development programs that emphasize reflective teaching is crucial. These programs should provide teachers with practical tools and techniques to incorporate reflection into their daily routines (Tursunova, 2019). Creating a supportive school environment that values and encourages reflective practices is essential. This can be achieved by fostering a culture of collaboration and continuous improvement among teachers and administrators.

Leveraging technology can facilitate reflective teaching. Online platforms and digital tools can provide teachers with easy access to resources, peer networks and professional development opportunities (Gebhard, 2005).

Summary.

Educational policies should be reformed to prioritize reflective teaching and provide the necessary support and resources. This includes revising assessment frameworks to include reflective practices as a

component of teacher evaluations (Richards & Farrell, 2005).

Reflective teaching is a powerful approach that can significantly enhance EL teaching in Uzbek schools. While there are challenges to its implementation, the benefits far outweigh the obstacles. By fostering a culture of reflection and providing the necessary support, Uzbekistan can ensure that its EL teachers are well-equipped to meet the diverse needs of their students and improve overall language proficiency.

References

1.Ashurova, D., & Galieva, M. (2020). Teaching English in Uzbekistan: Issues and Challenges. Journal of Language Teaching and Research, 11(2), 239-247.

2.Farrell, T. S. C. (2013). Reflective Practice in ESL Teacher Development Groups: From Practices to Principles. Palgrave Macmillan.

3.Farrell, T. S. C. (2018). Research on Reflective Practice in TESOL. Routledge.

4.Gebhard, J. G. (2005). Teaching English as a Foreign or Second Language: A Teacher Self-Development and Methodology Guide. University of Michigan Press.

5.Richards, J. C., & Farrell, T. S. C. (2005). Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. Cambridge University Press.

6.Richards, J. C., & Lockhart, C. (1994). Reflective Teaching in Second Language Classrooms. Cambridge University Press.

7.Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books. Tursunova, S. (2019).

Екатерина ЮГАЙ,
магистрант Университет Пучон в Ташкенте



ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: в данной статье освещается применение ИКТ в системе образования, в частности эффективные способы использования информационных технологий для развития творческого мышления у младших школьников.

Ключевые слова: *ИКТ, компьютерные технологии, начальная школа, младшие школьники, творческое мышление, инновационные методы.*

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim tizimida AKTning qo'llanilishi, xususan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *AKT, kompyuter texnologiyasi, boshlang'ich sinf, boshlang'ich sinf o'quvchilari, ijodiy fikrlash, innovatsion metodlar.*

Annotation: this article highlights the application of ICT in the educational system, in particular the effective methods of using information technology to develop creative thinking in primary school students.

Keywords: *ICT, computer technology, elementary school, elementary school students, creative thinking, innovative methods.*

Введение

Человек вносит изменения не только во внешнюю среду, но и в самого себя. Поэтому в настоящее время, когда стремительно развиваются наука и техника, обновляются общественные отношения, вопросы творческой деятельности, обучения молодежи творчеству, формирования творчески способных личностей приобретают особое значение. Уроки с использованием информационных технологий не только расширяют и закрепляют полученные знания, но и в значительной степени повышают творческий и интеллектуальный потенциал учащихся. Поскольку фантазия и желание проявить себя у школьника велики, стоит учить его как можно чаще излагать собственные мысли, в том числе и с помощью информационных технологий. Использование информационных технологий на уроках в начальной школе дает возможность проявить

себя любому из учащихся, при этом формы работы выбирает для себя сам ученик. Учащиеся имеют прочные, глубокие знания по предметам, у них сформированы стойкие познавательные интересы, развито умение самостоятельно применять полученные знания на практике[1].

Использование информационных технологий может преобразовать преподавание традиционных учебных предметов, рационализировав детский труд, оптимизировав процессы понимания и запоминания учебного материала, а главное, подняв на неизменно более высокий уровень интерес детей к учебе. Таким образом, применение ИКТ в образовательном процессе, позволяет решать одну из важных задач обучения – повышение уровня знаний.

Основная часть

В зависимости от степени обобщения действительности, характера средства решения проблемы, новизны ситуаций для человека, степени проявления личностью активности исследуются изолированно. Общение и взаимоотношения между людьми в общественной жизни, в процессе воспитания и на производстве также проявляются с помощью мышления. В коллективе возникают качества мышления, заключающиеся в критическом взгляде, самокритике, оценке, проверке, самоанализе, контроле, самоконтроле, групповом мышлении. Восприятие человека человеком также неразрывно связано с мышлением. Творческие работы, открытия, изобретения, предложения являются продуктом мышления.

Творческое мышление – один из интереснейших феноменов, выделяющих человека из мира животных. Уже в начале жизни у человека проявляется настоятельная потребность самовыражения через творчество, человек учится мыслить творчески, хотя способность к такому мышлению не является необходимой для выживания. Творческое осмысление является одним из способов активного познания мира, и именно оно делает возможным прогресс, как отдельного индивида, так и человечества в целом.

Многие исследователи выделили этапы творческой деятельности:

1 этап – сознательная работа: подготовка, предпосылка для интуитивного поиска новой идеи;

2 этап – бессознательная работа: созревание идеи;

3 этап – переход бессознательного в сознание: вдохновение, инсайт;

4 этап – сознательная работа: развитие идеи и ее оформление и проверка.

В настоящее время существует три основных подхода соотнесения творчества с интеллектом. Согласно первому мнению, как таковых творческих способностей нет, а интеллектуальная одаренность – необходимое, но недостаточное условие творческой активности личности.

Творческое мышление – это высший аспект мышления, потому что именно сила разума может привести нас к его изменению. Именно такое мышление постепенно развивало мир людей от варварства и невежества к комфорту и знаниям, которыми мы наслаждаемся сегодня. Творческое мышление способствует развитию навыков коммуникации и сотрудничества. Когда человек мыслит творчески, он открыт для идей и решений других людей, и готов работать в команде, взаимодействуя и обмениваясь предположениями. Значительную роль в когнитивном развитии играет творческое мышление. Оно включает не только художественную деятельность или культуру, но может проявляться и в остальных сферах жизни, от науки и бизнеса до проблем повседневной жизни.

Информационные технологии мотивируют подрастающее поколение к изучению нового материала, прежде всего за счет привычной для современных детей виртуальности[2]. Безусловно, погруженные в Интернет реальность школьники значительно отличаются от тех, для которых создавалась ранее и до сих пор существующая и ныне действующая система образования. Если рассматривать эти отличия, то в первую очередь заметно изменение социальной ситуации развития детей нынешнего века:

1. Резко возросла информированность детей, доступно много информации из Интернета;

2. Современный ребенок очень мало читает, практически не интересуясь классической и научно-популярной литературой;

3. У большинства из них наблюдается несформированность произвольности поведения, мотивационной сферы, разных типов мышления [3].

При разработке плана каждого урока учителю рекомендуется заранее предусмотреть применение электронных иллюстраций, тренировочных или контрольных заданий, я также учебного материала соответствующей тематики, включенных в предметные электронные системы обучения.

Выбор учащихся, выполняющих соответствующие дидактическим целям урока индивидуальные или групповые задания за компьютером, производится учителем после проведения предварительной психолого-педагогической диагностики с учетом особенностей восприятия информации, статуса ребенка в коллективе. Также учителям можно использовать результаты педагогического наблюдения. Самое важное, чтобы ученик, выполняющий индивидуальное задание на компьютере или работающий над учебной проблемой в группе, находился в комфортном состоянии и все усилия

направлял на решение поставленной задачи.

Так, например, ребенку с приоритетной визуальной системой восприятия иногда полезнее выполнять задания по русскому языку на компьютере в то время, когда учитель проводит распределительный диктант. Ученику, для которого аудиальная система восприятия является ведущей, можно предложить поработать за компьютером в наушниках, пока класс переписывает текст из учебника. Особенно важно это для детей с заниженной самооценкой. Обязательно развивая их возможности, учитель может создать с помощью современных технологий обучения ситуация успеха для таких школьников и тем самым повысить мотивацию учения.

Учитывая информацию о периоде продуктивной активности школьников, учитель может максимально эффективно использовать возможности каждого ребенка для обучения и вовремя переключить его на другой вид деятельности, используя компьютер в качестве мощного мотивационного средства.

При проведении динамичных учебных игр, эстафет целесообразно предлагать учащимся с заниженной скоростью мыслительных процессов выполнять аналогичное задание за компьютером. Работа в собственном скоростном режиме положительно сказывается на результате, что ведет к росту самооценки, повышает комфортность обучения таких детей.

Опираясь на знания о статусе ребенка в классе, можно оптимизировать работу за компьютером в группах, организованных по совокупности психолого-педагогических характеристик. Особый эффект дает такая форма работы при решении проблемных задач на уроках математики, заданий исследовательского характера на уроках природоведения.

Школьникам, выполняющим общие для всех задания быстро и качественно, можно предложить компьютерный тренажер повышенной сложности или задание пропедевтического характера, выполнение которого позволит им участвовать в объяснении нового материала своим одноклассникам. Особое значение имеет работа за компьютером для детей, часто пропускающих занятия по болезни. Помочь таким учащимся можно, привлекая их для знакомства с основными моментами изучаемого материала, кратко и структурировано изложенного в компьютерных обучающих программах, во время проведения устного счета, орфографической разминки, фронтального опроса или повторения изученного. Для этой категории учащихся, а также для отстающих учеников можно рекомендовать проведение компьютерного тестирования вместо традиционной контрольной работы по изученной теме. На уроках закрепления и обобщения полученных знаний можно использовать компьютер для организации промежуточного контроля, трудновыполнимого при традиционном преподавании в начальной школе.

Заключение

Достаточно широкое распространение мультимедиа проекторов позволяет значительно увеличить наглядность за счет использование учителем в ходе урока мультимедиа презентации. Однако для этого необходимо снабдить учителя заранее подготовленными поурочными комплектами наглядных материалов, методически связанными с вариантами тематического планирования [4].

Компьютер становится помощником учителя, помогает с экономить время на уроке, появляются новые методы и организационные формы обучения, которые повышают эффективность проведения урока. В начальной школе уроки невозможно представить без наглядных материалов. Особенно на уроках окружающего мира нужно много картинок, схем, иллюстраций. Конечно, все это вешать на доске и менять во время урока неудобно. Поэтому такие уроки желательно проводить с использованием презентаций. Проведение урока с использованием презентаций требует от учителя дополнительной подготовки, но все затраты окупаются результатами – эффективностью обучения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Farxodjonova N. F., Abdurahimov V. A. Modern technologies of students training in higher education //НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. – 2020. – С. 5–7.

2. Мельникова А.А. Язык и социально-культурная реальность / Социальная психология сегодня: наука и практика. СПб., Из-во: СПбГУП., 2011. С. 72–73

3. Фундаментальное ядро содержания общего образования. Рос. акад. наук, Рос. акад. образования; под ред. В.В. Козлова, А.М. Кондакова. М: Просвещение, 2011. – С.25.

4. Sadullaev F. B., Kudratova S. O. The benefits of extensive reading programme in language teaching //Мировая наука. – 2019. – №. 2(23). – С.48–50.

Nilufar TURG‘UNOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

TIL O‘QITISHDAGI AYRIM YONDASHUVLAR XUSUSIDA

Annotatsiya: maqolada ta’limda, xususan, til o‘qitishda qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlar haqida ma’lumot berilgan. Yondashuvlarning turlari, maqsadi, mazmuni, o‘ziga xos jihatlari va bir-biridan farqli xususiyatlari haqidagi qarashlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *til ta’limi, yondashuv, antroposentrik, bixevioristik, grammatik, integrativ, kommunikativ, kompetensiyaviy yondashuvlar.*

Аннотация: в статье представлена информация об основных подходах, используемых в образовании, в частности, в обучении языку. Описаны мнения о видах, целях, содержании, конкретных аспектах и различных особенностях подходов.

Ключевые слова: *языковое образование, подход, антропоцентрический, бихеовористический, грамматический, интегративный, коммуникативный, компетентностный подходы.*

Annotation: the article provides information about the main approaches used in education, in particular, in language teaching. Views about the types, purpose, content, specific aspects and different features of the approaches are described.

Key words: *language education, approach, anthropocentric, biseovoristic, grammatical, integrative, communicative, competence approaches.*

Pedagogikada yondashuv, metod, usul, texnologiya singari tushunchalar borki, ularning har biri o‘z mazmun-mohiyatiga ega.Yondashuv ta’lim jarayonini tashkillashtiruvchi, asosiy prinsiplarni belgilab beruvchi vosita hisoblanadi. Yondashuvlar ta’limni qanday qilib samarali tashkil etish, o‘quv materialini o‘quvchiga qanday usulda yetkazib berish, qay yo‘sinda natijaviylikni ta’minlash kabi savollarga javob izlaydi.

Milliy metodikamizda ona tilini o‘qitishga bo‘lgan yondashuvlar to‘liq va tizimli ravishda o‘rganilmagan. Shu o‘rinda yondashuv tushunchasiga berilgan ayrim izohlarni ko‘rib chiqish zarur. Yondashuv – o‘qitish strategiyasini belgilovchi metodikaning asosiy kategoriyasi bo‘lib, mazkur strategiyani amalga oshirish uchun o‘qitish usulini tanlash, o‘qitiladigan fanning mohiyatiga oid qarashlarni ifodalaydi. Muayyan bilim sohasidagi tadqiqotlar uchun eng umumiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi . Yondashuv o‘qitishning prinsipial yo‘nalishi deb ham talqin qilinadi . XIX asr oxiridan boshlab bir qator tilshunoslar va mutaxassislar (Genri Svit, Otto Jespersen, Garold Palmer) til o‘qitish sifatini yaxshilashga intilgan holda tilni qanday o‘rganish, til bilimlari xotirada qanday aks ettirilishi bo‘yicha izlanishlar olib bordilar. Amerikalik tilshunos Edvard Antoniy 1963-yilda yondashuv, metod va texnika tushunchalarini bir-biridan farqlab beradi. Uning fikricha, mazkur tushunchalar o‘qitishni tashkil etishning 3 ta darajasi bo‘lib, o‘zaro iyerarxik munosabatda bo‘ladi:

Yondashuv – til o‘rganish va o‘rgatish tabiati bilan bog‘liq bo‘lgan korrelyativ taxminlar yig‘indisi.

Metod – til materialini tartibli taqdim etishning umumiy rejasi bo‘lib, uning hech bir qismi qarama-qarshi bo‘lmaydi va barchasi tanlangan yondashuvga asoslanadi. Bitta yondashuv doirasida ko‘plab metodlar bo‘lishi mumkin. Yondashuv aksiomatik, metodlar esa protsessualdir (jarayonga bog‘liq).

Texnika – sinfda sodir bo‘ladigan amaliyot, maqsadga erishish uchun qo‘llaniladigan turli usullar. Texnikalar metodga mos va u bilan uyg‘un bo‘lishi kerak .

Yondashuv mohiyatan juda keng tushuncha bo‘lib, u ta’limning asosiy yo‘nalishi, maqsadini belgilab beradi, o‘qitish jarayonini butunlay qamrab oladi. Dastur, darsliklar ma’lum bir yondashuv asosida ishlab chiqiladi, o‘qitish jarayonidagi metod, texnologiyalar ham mavjud yondashuvning mazmuniga mos holda tanlanadi.

Quyida bir qator o‘zbek metodistlari tomonidan til ta’limida qo‘llaniladigan yondashuvlarga oid fikr va mulohazalarni ko‘rib chiqamiz.

Olima M.Sobirova “Ona tili ta’limiga antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari” mavzusidagi dissertatsiyasida ta’limda integrativ, aksiologik, kompetentli, animatsion, faoliyatga yo‘naltirilgan, sinergetik, germenevtik, psixoterapevtik, akmeologik yondashuvlar qo‘llanilishi haqida ma’lumot beradi va ularning qisqacha izohini keltirib o‘tadi .Qayd etib o‘tish lozimki, sanalganlar faqat til o‘qitishgagina tegishli emas, ta’limda qo‘llaniluvchi asosiy yondashuvlardir. Mazkur tadqiqot ishida ona tili ta’limida antroposentrik yondashuvning ilmiy-pedagogik mohiyati haqida ma’lumot berilib, unga ko‘ra bu yondashuv tilshunoslikda antroposentrizm g‘oyasi ta’sirida yuzaga kelgan.Antroposentrik yondashuv

o‘rganuvchi shaxsini markazga qo‘yish, til o‘qitishda uning qiziqishlari, ehtiyoji, qobiliyatlarini hisobga olish, o‘quvchilarda kreativlik, tanqidiy tafakkur kabi sifatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratadi.

D.Yo‘ldosheva “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kitobida ona tili ta’limida foydalaniladigan uch xil yondashuv (bixevioristik, integrativ hamda kompetensiyaviy yondashuv) haqida ma’lumot berib o‘tgan .

Bixevioristik yondashuv shaxsdagi ong, psixika, individual xususiyatlarni rad etgan holda asosiy e’tiborni xulq-atvorga qaratadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi passiv rolda bo‘lishini, unga faqat tayyor bilimlar berilishini hamda o‘quvchilarning iqtidori, o‘zlashtirishidan qat’i nazar bir xil o‘qitishni yoqlaydi. Ona tilini o‘qitishda uzoq vaqt davomida amalda bo‘lgan mazkur yondashuv o‘zini oqlay olmadi. Lekin bixevioristik yondashuvni to‘liq rad etib bo‘lmaydi. Xususan, boshlang‘ich ta’limda bixevioristik yondashuv asosida o‘qitish samaraliroq ekanligi nuqtayi nazaridan, asosan, mazkur yondashuvga tayaniladi.

Integrativ yondashuv turli fanlarga oid bilimlarni bir-biriga bog‘lagan holda birlashtirib o‘qitishni nazarda tutadi. Ya’ni, ona tili darsida o‘quvchi faqatgina grammatik tushunchalar bilan cheklanmasdan, turli fan va sohalarga doir ma’lumotlar bilan ham tanishtirilib borishi lozim. Integrativ yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchida hodisalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni anglash, voqelikni yaxlit idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Kompetensiya mavjud bilim, ko‘nikma, malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o‘quvchida tayanch va fanga oid bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishga urg‘u beradi. Kompetensiyaviy yondashuv hozirgi kunda ona tilini o‘qitishdagi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

X.Muhitdinova o‘zbek tilini o‘qitishda, asosan, quyidagi yondashuvlardan foydalanilayotganini aytib o‘tadi: lingvistik (an’anaviy tizimli), matn tahlili asosida o‘qitish, funksional-kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuv .Bu yondashuvlar o‘zbek tilini ona tili sifatida emas, ikkinchi til sifatida o‘qitish uchun tegishli ekanligini e’tiborga olish lozim.

“Til o‘qitishda yondashuv va metodlar” (Jack C. Richards, Theodore S. Rodgers) kitobida til ta’limida qo‘llanilgan va hozirda qo‘llanilayotgan bir qator yondashuv va metodlar, ularning mohiyati, bir-biridan farqli xususiyatlari, ilmiy-metodik asoslari, amaliyotdagi o‘rni haqida batafsil ma’lumot berilgan bo‘lib, til o‘qitishda, asosan, quyidagi yondashuvlarga murojaat qilinishi aytib o‘tilgan: mazmunga asoslangan ta’lim, leksik yondashuv, turfa zakovatlar, tabiiy yondashuv, vazifaga asoslangan yondashuv, yaxlit til yondashuvi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kommunikativ yondashuv va boshqalar. Mazkur yondashuvlarning har biri o‘z tamoyillariga ega bo‘lib, tilning tabiati, til o‘rganish nazariyalari asosida ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda til ta’limining asosiy maqsadi o‘rganuvchida muloqotga kirisha olish, tildagi qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq eta olish, og‘zaki va yozma nutq, tinglab va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini birdek shakllantirishdan iboratligi o‘qitishda kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanishni talab qilmoqda.

Kommunikativ yondashuv, asosan, quyidagi tamoyillarga tayanadi :

- o‘quvchilar tilni muloqot qilish uchun o‘rganadilar, til birliklaridan amaliyotda foydalanadilar;
- sinfdagi mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi autentik va mazmunli muloqot sanaladi;
- erkin va ravon muloqot qila olishga alohida e’tibor qaratiladi;
- muloqot jarayoni turli til ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi;
- o‘rganish ijodiy jarayon bo‘lib, turli tajriba va xatolarni o‘z ichiga oladi.

Respublikamizda ona tili ta’limi uzoq yillar mobaynida grammatik yondashuv asosida tashkil etildi. Asosiy e’tibor nazariy qoidalarni yodlatish, yozma nutqqa ko‘proq urg‘u berish, ona tili darslarida bir xil qolipdagi, matndan uzib olingan terma gaplardan iborat mashqlar bilan ishlashga qaratildi. Natijada, ona tilini o‘qitishga yangi yondashuvlar, texnologiyalar joriy etilmadi, ona tili darslari o‘quvchilar uchun doimo bir xil, faqat yozish va ko‘chirishdan iborat bo‘lgan darslarga aylanib qoldi. “…Uning (grammatik yondashuvning) asosiy kamchiligi amaliyotga yetarli darajada bog‘lanmaganligidir.Mazkur usulda mavzuni o‘qigan bola nazariy jihatdan shunday ekanligini biladi, ammo shu qoida qaysi vaziyatlarda qo‘llanishi haqida tasavvurga ega bo‘lmaydi. Kommunikativ yondashuvda esa tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi planga qo‘yiladi.Ma’lum vaziyatda qanday gapirish to‘g‘ri bo‘ladi, ya’ni qanday ifoda yordamida fikrni bexato yetkazish mumkin – shu masalani hal qilish orqali til qonuniyatlarini tushuntiradi” . Kommunikativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturi hamda yangilangan Ona tili darsliklarida o‘quv materialini spiralsimon usulda bayon qilishga, grammatik qoidalar va nazariy ma’lumotlarni ixchamlashtirgan holda amaliy ishlarga ko‘proq urg‘u qaratildi. Yangi avlod Ona tili darsliklariga avvalgi darsliklarda farqli ravishda yaxlit, tugal mazmunga ega bo‘lgan, turli uslubdagi matnlar qamrab olingan, turli ko‘rinishdagi, o‘quvchini fikrlashga, tanqidiy tahlil qilishga, kreativlikka undovchi mashq va topshiriqlar, xususan, loyihaga asoslangan topshiriqlar ham taqdim etilgan.

Shuni qayd etib o‘tishimiz lozimki, ta’limdagi yondashuvlarning hech birini to‘liq mukammal

yoki, aksincha, notog‘ri deb hisoblay olmaymiz. Yondashuvlar doimo bir-birini to‘ldirib boradi hamda ta’lim jarayonida ko‘pincha integratsiyalashgan holda yuzaga chiqadi.Har bir yondashuv til o‘qitish maqsadidan kelib chiqqan holda muayyan davr va bosqichda qo‘llanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yondashuvlar ta’lim strategiyasini belgilovchi asosiy tushunchalardan biri bo‘lib, to‘g‘ri tanlangan yondashuv o‘qitishning samarasini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Yondashuvlar mazmun, uslub, vositalar nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlansa-da, ularning barchasi maqsad jihatdan umumiylik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhitdinova X. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.312-b.

2. Yuldasheva D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2021.424-b.

3. Azimova I. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi (Til ta’limiga oid fanlar moduli). – T.: “Hilol-nashr”, 2020.96-b.

4. Jack C. Richards, Theodore S. Rodgers.Approaches and methods in language teaching. – 2nd ed Cambridge university press, 2001. – P. 270.

6. Sobirova M. Ona tili ta’limiga antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari: Ped. fanlari doktori (DSc) diss. – Namangan. 2023.

7. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.



Mohinur FARMONOVA,
BuxDU tayanch doktoranti
farmonovamohinur91@gmail.com

STRUKTURAL ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIIY MATN TADQIQ MANBASI SIFATIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada strukturalizmning badiiy matn tahlilidagi ahamiyati yoritilgan va bu soha tadqiqiga bag‘ishlangan jahon va o‘zbek adabiyotshunosligidagi ilmiy ishlarga e’tibor qaratilgan. Badiiy matnni badiiy asardan farqlovchi belgilar tavsiflangan hamda shu tavsif asosida badiiy matn strukturasining yaxlit bir tizim sifatida namoyon bo‘lishiga oid xulosalar berilgan. Maqolada “muallifning o‘limi” (“matnning muallifsizlashishi”), “matnning cheksizligi” tamoyillari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *strukturalizm, struktural tahlil, badiiy matn, muallifsizlashish, matn cheksizligi, intermatn, g‘ayrimatn.*

Аннотация: в данной статье подчеркивается значение структурализма при анализе художественных текстов и акцентируется внимание на научных работах в мировом и узбекском литературоведении, посвященных изучению данной области. Описываются признаки, отличающие художественный текст от художественного произведения, и на основе этого описания делаются выводы о проявлении структуры художественного текста как целостной системы. В статье раскрываются принципы «смерти автора» («деавторизации текста») и «бесконечности текста».

Ключевые слова: *структурализм, структурный анализ, художественный текст, деавторизация , бесконечность текста, интертекст, нетекст.*

Annotation: this article emphasizes the importance of structuralism in the analysis of literary texts and focuses on scientific works in world and Uzbek literary criticism devoted to the study of this area. The features that distinguish a literary text from a work of art are described, and on the basis of this description, conclusions are made about the manifestation of the structure of a literary text as an integral system. The article reveals the principles of the "death of the author" ("deauthorization of the text") and the "infinity of the text".

Key words: *structuralism, structural analysis, literary text, deauthorization, infinity of the text, intertext, non-text.*

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zining keng ko‘lamliligi bilan millat va yurtning yorqin kelajagini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ilg‘or islohotlarning asosiy qismi ilm-fanga qaratilgani tahsinga loyiq, negaki, ilmdagi har qanday yuksalish mamlakat kelajagiga daxldordir. Ilmga ochilgan istiqbolli keng yo‘l sabab, xususan, o‘zbek adabiyotshunosligi sohasiga ham jahon andozasidagi zamonaviy metod va uslublarning kirib kelishi ilmiy tafakkur taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, milliy adabiyotimizda ham turli yangicha ilmiy konsepsiyalarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida ham “struktura”, “struktural tahlil”, “badiiy matn” kabi badiiy asarni o‘zgacha tadqiq manbayi sifatida baholovchi tushunchalar ancha sezilarli miqdorda qo‘llanilmoqda. Ammo hali bu atamalarning barcha adabiyot ahli uchun tushunarli emasligi bu borada ko‘proq ilmiy izlanish va tadqiqotlarga muhtojligimizni bildiradi. Holbuki, strukturalizm jahon ilm-fani sahifalarida o‘tgan asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan edi, bugungi kunda esa rivojlangan mamlakatlar ilmiy tadqiqotlarda strukturalizmdan keyin, ayni uning ta’siri bilan yuzaga kelgan poststrukturalizm metodlaridan foydalanmoqda. Ayni shu sababning o‘zi ham struktural tadqiq masalalarini bor mohiyati bo‘yicha o‘rganish va amaliyotga tatbiq qilish zaruratini oshirib, adabiyotshunoslarga bir qator muhim vazifalar mas’uliyatini yuklaydi. Bu mas’uliyatni esa ilm-fan oldidagi burchimiz deb bilishimiz shart. Zero, zabardast adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov quyidagi mulohazalarda batamom haq edi: “Bugungi kunda adabiyotshunoslik va tanqidchilikda struktural analiz, matnni asos qilib olgan holda asarni analiz qilish, qiyosiy tahlil kabi shakllar va usullardan keng foydalanishga intilish bor. Biz bu borada xorijiy tajribalarga tayanmog‘imiz kerak” [6;231].

O‘zbek adabiyotshunosligida strukturalizm va struktural tadqiq borasidagi ilk ilmiy izlanishlar 2000-yillar boshlariga to‘g‘ri keladi. Xususan, adabiyotshunos olimlar A.Rasulov, Q.Yo‘ldoshev, S.Meliyev, M.Xolbekov, G‘.Murodovlarning bir qator maqola va risolalarida strukturalizmning mohiyati, tadqiq usullari samaradorligi borasida fikrlar bildirilgan [1,2,3,4,5]. Keyingi yillarda badiiy matnni struktural tahlil qilish borasidagi ishlarning ancha ko‘zga tashlanib qolganligi milliy adabiyotimizning zamonaviy yutug‘idir.

Xo‘sh, dunyo adabiyotshunosligini qisqa muddat ichida zabt qilgan strukturalizmning asosiy va voz kechilmas tamoyillari nima? Biz bu tamoyillarni yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqqan holda quyidagicha izohlash mumkin deb bildik:

1) borliqdagi barcha mavjudot ma’lum bir strukturaning o‘ziga xos yig‘indisidir; bu aksiomadan hech narsa soqit emas;

2) dunyodagi eng mukammal struktura inson ongi va tafakkuridir; til esa “tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuasi” (F.de Sossyur) sifatida strukturaning strukturasi o‘laroq maydonga keladi;

3) til va tafakkur dualizmi asosida yuzaga chiqqan badiiy matn bir butunlik, yaxlit tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi;

4) badiiy matn mavjud tabiiy til (asar tili: o‘zbek, turk, xitoy, rus, ingliz, fransuz kabi) ustiga qurilgan, yozuvchi tomonidan modellashtirilgan “ikkilamchi model til”ni ifodalaydi;

5) “muallifning o‘limi” konsepsiyasi, ya’ni matn muallifga bo‘ysunmaydi, muallif matnning egasi bo‘la olmaydi, matn bor go‘zalligi bilan faqat o‘quvchiga tegishlidir.

Strukturalizm yuqoridagi tamoyillar bilan bugungi kunda inson shaxsiyatini ildiz-ildizi bilan yoritib beradigan yo‘nalish sifatida alohida diqqatga molikdir. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor deyilganidek, bu metodning ayrim kamchiliklari ham mavjudki, ulardan ko‘z yumish imkonsiz. Birinchidan, strukturalistlar badiiy matnda muallifni tan olmaydilar, bu esa o‘z navbatida asarni yozuvchi shaxsiyati, psixologiyasi bilan bog‘lab tahlil qiluvchi psixoanaliz, fenomenologiya kabi metodlarning adabiyotshunoslik sahnasidan tushishiga sabab bo‘ladi. Ikkinchidan, struktural tadqiq mutlaqo sinxron yondashuvda amalga oshiriladi, shu sababli adabiyot tarixi, madaniy-tarixiy kolorit, asarning yaralish tarixi kabi muhim jihatlar tadqiq doirasidan chiqarib yuboriladi. Strukturalizmning “ota”si Rolan Bart o‘zining “Muallifning o‘limi”, “S/Z” va “Yozuvning nol darajasi” maqolalarida yuqorida keltirilgan kamchiliklarni yangi metodning o‘ziga xos yutuqlari sifatida talqin qildi [7]. Turli-tuman fikrlar, afzalliklar va kamchiliklarga qaramay strukturalizm keng maydon bo‘ylab jadal rivojlanishda davom etdi va bu tadrijiy rivojlanish tarafdorlar va tanqidchilarning munozara-yu muhokamalarida ba’zi xalqlar adabiyotshunosliklarida strukturalizm, ba’zilarida esa poststrukturalizm sifatida hamon davom etmoqda.

Struktural adabiyotshunoslikning tadqiq manbasi yaxlit tarkibning noyob namunasi bo‘lgan badiiy matndir. Savol tug‘iladi: badiiy matnning noyobligi nimada? Axir, deylik, o‘zbek adabiyotidagi barcha asarlar o‘zbek tilida yozilgan; barida ayni alifbo, leksika va ayni grammatika. Ha, matnning noyobligi ham ayni shunda – odatiy elementlardan tashkil topgan noodatiy strukturada. Yanayam boshqacharoq aytadigan bo‘lsak, badiiy matn an’anaviy materiallarning noan’anaviy, takrorlanmas modellashtirilgan namunasidir. Struktural tahlil tushunchasi bugungi kun adabiyotshunosi, kitobxoni, umuman olganda, badiiyat ixlosmandi uchun ikki hodisani bir-biridan

chuqur farqlashi lozimligini uqtiradi: badiiy asar va badiiy matn. Ayni shu tafovutdan struktural tadqiq boshlanadi, an'anaviy tahlil o'z o'rnini tadrijiy yangi tafakkur oqimiga bo'shatib beradi. Shu o'rinda biz badiiy asar va badiiy matnni quyidagi ketma-ketliklar asosida farqlab, izoh berishga harakat qilamiz:

1. Badiiy asar moddiy (materialistik) xarakterga ega: uni yozuv orqali ko'rish, audiofayl holatida tinglash, ushlash, sotib olish yoki kitob javoniga qo'yish mumkin. Badiiy matn esa moddiylikdan xoli bo'lgan mavhum (idealistik) hodisadir, u yozuvda emas, kitobxonning tafakkur olamida paydo bo'ladi va shu olamda yashaydi.

2. Badiiy asar o'z muallifiga ega bo'ladi. Muallifning "men"i tahlil jarayoniga kirib kelaveradi, asarning yutuq va kamchiliklari muallifga bog'liq holda baholanadi. Tahlil ham bevosita muallif shaxsiyati, biografiyasi va ijod kutubxonasiga bog'liq holda amalga oshiriladi. Badiiy matn esa muallifni tan olmaydi va unga bo'ysunmaydi. Matn muallif hukmi ostidan chiqib ketadi, muallif unga hukmronlik qilolmaydi. Muallifga faqat obraz sifatida qaraladi, tahlil jarayonida ham muallif obrazi tarzida yondashiladi. Bu o'rinda quyidagi iqtibosni keltirish g'oyat o'rinlidir: "Kapaktaki yazar adının ne önemi var?...Yazar kitapların geldiği görünmez nokta olmalı" [10;102]. (Muqovadagi muallif nomining nima ahamiyati bor?...Muallif kitoblarni dunyoga keltiruvchi ko'rinmas nuqta bo'lmog'i lozim – tarjima bizniki). Matnning muallifsizlashishi esa o'z navbatida uning cheksizligiga sabab bo'ladi.

3. Badiiy asar o'ziga xos janriy tuzilish, bo'linishga (band, misra, bayt, bob…) ega bo'ladi, uni ayni shular orqali alohida tahlilga tortsa bo'ladi. Badiiy matn esa yaxlit bir struktura – tizimdir. Undagi barcha bo'laklar shu strukturaning qismi – uzvi sanaladi va har bir uzv boshqa uzvlar bilan chambarchas bog'lanadi. Va ayni shu vobastalikda tahlilga tortiladi.

4. Badiiy asar muayyan chegaraga ega, aniq janriy o'lchamlarga bo'ysunadi (masalan, tuyuq – albatta, 4 misra bo'lishi shart yoki sonet 2 ta to'rtlik va 2 ta uch misralik bandlar bilan chegaralanadi; ular shaklan ayni shu hududdagina mavjud bo'ladi). Badiiy matn esa hech qanday chegarani tan olmaydi, u har qanday o'lcham va hududdan tashqarida. U cheksizlikka intiladi va har tomonlama – bo'yiga, eniga, yoniga, tepaga, pastga – sarhadsizdir: yoyilaveradi, o'saveradi, chuqurlashaveradi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, "matn cheksizligi" tushunchasi strukturalist Rolan Bart tomonidan ilmga tatbiq qilingan. Ammo barcha strukturalistlar bu borada yakdil deya olmaymiz. Masalan, Y.Lotman "Badiiy matn strukturasi" kitobida matnga xos bo'lgan ayrim xususiyatlar haqida yoza turib, "matnning cheklanganligi" xususidagi o'z qarashlarini ilgari suradi. Lotmanning ta'kidicha, har qanday matnda "muqaddima" va "xulosa" mavjud bo'ladi, bu esa matnning chegaralanganligini ko'rsatadi [9;14]. Lotman juda kuchli adabiyotshunos olim edi, ammo bu o'rinda badiiy asar xususiyatlari badiiy matn o'ziga xosligi bilan bir qadar chalkashtirilgan. Chunki muqaddima, xulosa, epilog, asosiy qism kabilar bu badiiy asarning kompozitsiyasini tashkil qiluvchi unsurlardir. Badiiy matn cheksizligi deyilganda esa matnning hajmi yoki unsurlari emas, balki tarkibida mavjud belgilarning chegarasiz harakati, belgi munosabatlarining son-sanoqsizligi tushunilishi kerak. Matn tarkibidagi belgilar faqat bitta matn doirasi bilan chegaralanmaydi, ular boshqa matn strukturalari tomon to'xtovsiz intiladi va ulardagi mos belgilar bilan o'zaro aloqaga kirishadi. Natijada matnlararo bog'liqlik paydo bo'ladi va u hech qanday chegarani tan olmaydi. Aslida, matn cheksizligi deyilganda, ayni shu jarayonlar nazarda tutiladi.

5. Badiiy asar turg'un xususiyatga ega, undagi har bir narsa o'z joyida qoladi va o'zgarmaydi. Matn esa to'xtovsiz, muttasil harakat qiluvchi cheksiz maydondir. Bu esa o'z navbatida yuqoridagi matn cheksizligi xususiyati bilan xarakterlanadi. Badiiy asarning turg'unlik xususiyati uning o'z hududi bilan cheklanishiga sabab bo'ladi. Badiiy matnning harakati esa faqatgina o'z maydoni doirasida yuzaga kelmaydi. Balki ayni bir matndagi belgilar boshqa matndagi belgilarning harakatga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada esa bunday matnlar o'zaro birlashib, intermatn – matnlararo doirani yuzaga keltiradi. Zotan strukturalistik qarashga ko'ra, adabiyot dunyosida sof, betakror badiiy matn yo'qdir, chunki qaysidir matnda qo'llanilgan so'z, jumla, metafora, qofiya, voqea, nom – xullas, har qanday unsur qachonlardir qayerdadir boshqa bir matnda qo'llanilgan. Va bu holat abadulabad shu tarzda davom etaveradi, alaloqibat adabiyot dunyosi turfa mato parchalaridan g'oyat go'zal va juda pishiq tarzda to'qilgan, eniga ham, bo'yiga ham cheksizlik sari intilgan o'lchovsiz gazlamaga – matnlarning metamaydoniga aylanadi.

6. Badiiy asarga bir qatlamlilik xos. Ya'ni an'anaviy tahlil jarayonida qanday hukm chiqarilgan bo'lsa, barcha davr o'quvchilari uchun ayni shu hukm yakuniy xulosa bo'lib qolaveradi. Badiiy matn esa ko'p qatlamlidir. Ya'ni matndagi belgilar harakat jarayonida yangidan yangi ma'nolarni yuzaga chiqaraveradi. Va bu ma'nolar matn doirasida shunchaki tinch yashamaydi: ular ziddiyatga kirishadi, kurashadi. Bu matnning asosiy xususiyatlaridan biridir. Strukturalizmning yetakchi namoyandasi Rolan Bart ayni shu hodisani chiroyli tasvirlaydi: "Badiiy matn bu bir xil ipdan emas, balki turli-tuman, rang-barang iplardan pishiq va puxta to'qilgan matodir" [7;245]. Badiiy matnni yakunlovchi xulosaga, yagona tahlilga bo'ysundirib bo'lmaydi. Badiiy matn har bir o'quvchi ongida yangidan kashf qilinadi va o'quvchidan o'quvchiga o'zgarib boraveradi.

7. Badiiy asarda fikr fikr holida qoladi. Badiiy matn uchun esa har qanday fikr belgidir, ya'ni badiiy matn boshdan oxir belgilardan iborat bo'ladi.

Tahlilning yanada qulayroq bo'lishi uchun uni jadval ko'rinishida va soddaroq uslubda taqdim qilamiz:

T/r	***Badiiy asar***	***Badiiy matn***
1.	Moddiy – materialistik xarakterda.	Mavhum – idealistik xarakterda.
2.	O‘z muallifiga ega.	Muallifga bo‘ysunmaydi.
3.	Janriy-shakliy o‘ziga xoslikka ega.	Yaxlit bir tizim – strukturadir.
4.	Muayyan chegaraga ega.	Cheksiz, chegarani tan olmaydi.
5.	Turg‘un, o‘zgarmas.	To‘xtovsiz harakatda.
6.	O‘z hududi bilan cheklanadi.	Boshqa matnlar bilan belgilar orqali birlasha oladi – intermatn.
7.	Bir qatlamli	Ko‘p qatlamli (rang-barang ipli mato).
8.	Fikr fikrdir.	Fikr belgidir.

Yuqoridagi farqlardan ko‘rinib turibdiki, har qanday badiiy matn bu oliy darajadagi badiiy asardir, ammo har qanday badiiy asar matn bo‘lolmaydi. Struktural tadqiq ayni shu farqlar asosida chinakam matnni tanlab oladi va uni fazoviy kenglik o‘lchamlarida tahlil qiladi. Milliy adabiyotimizga struktural tahlil nazari bilan yondashish bizga asl durdona badiiy boyliklarni saralash, millat tafakkurini shu kabi har tomonlama yetuk asarlar bilan boyitish, ularning zamon va makonga bo‘ysunmasdan abadiy yashay olish imkoniyatini beradi. Struktural analiz doirasida badiiy matn asarning ma’lum adabiy tur, adabiy janrga mansubligini ifodalovchi muayyan ta’rif va mavjud qoliplangan qoidalarga bo‘ysunmaydi, u an’anaviy yondashuvni sindirib tashlaydi. Badiiy matn obraz, janr yoki qandaydir adabiy muammo bo‘yicha tahlil qilinmaydi. Bu matnning hal qiluvchi xususiyati hisoblanadi. Ayni shu sabab ham mukammal matn barcha zamonlar kitobxonlari tomonidan o‘ziga xos tarzda, har safar yangicha qarash va talqinlar bilan qabul qilinaveradi. Badiiy matn hech qanday qoliplarni tan olmagani sababli makon va zamon uzra cheksizlikda yashayveradi.

Albatta, har qanday badiiy asarni matn sifatida tahlilga tortib bo‘lmaydi, negaki har qanday badiiy asar ham matn talabiga javob berolmaydi. Badiiy asarni matn sifatida baholash yoki baholamaslik faqatgina tahlil jarayonida his etiladi. Matn talablariga javob berolmaydigan asar strukturalizmda g‘ayrimatn (matnga tegishli emas, matndan o‘zga) deb ataladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asarlarni ayni shu ikki hodisa: badiiy matn va g‘ayrimatn tamoyillari yuzasidan tahlil qilish struktural metodning dolzarb vazifasidir.

Har bir badiiy matn o‘ziga xos chizgilari, takrorlanmas qonuniyatlari vositasida o‘quvchi shaxsiyatini o‘ziga singdirib, u bilan bir butunlikda qayta namoyon bo‘la olishga qodir kichik olamdir. Inson tafakkuri borliqda yashirin ilohiy kuchning mukammal mahsuli ekanligi rad etilmas haqiqatdir, shu sababli bu mukammallik ifodasi o‘laroq yuzaga kelgan badiiy matn tizimli strukturaning benuqson ko‘rinishi sifatida tadqiq qilinishi g‘oyat o‘rinli. Negaki tizimli aynilik hosilasi ham muayyan tartibga bo‘ysunadi. Badiiy matn – bu murakkab qurilgan ma’no. Strukturaning murakkabligi ma’no murakkabligiga to‘g‘ri proporsionaldir, ya’ni ma’no qanchalar murakkab bo‘lsa, matn strukturasi ham shunchalar murakkab holda shakllanadi. Fikrlarning murakkab oqimi murakkab strukturaga intiladi. 1000 sahifalik badiiy matnni g‘oya va mazmunini saqlagan holda 500 sahifaga kamaytirishimiz mumkindir, lekin ayni shu 1000 sahifani but qilgan strukturani qo‘ldan boy beramiz. Qo‘limizda esa 500 sahifalik oddiy nutq namunasi qoladi, xolos. U holda matndagi murakkablik, ya’ni matn strukturasi oddiy nutqdan qanday farq qiladi? Bu o‘rinda oddiy nutqda struktura yo’q deyishdan mutlaqo yiroqmiz, balki badiiy matnda struktura oddiy nutqqa qaraganda shu qadar murakkab va ayni damda barkamol bo‘ladiki, u o‘z ichiga ham shaklni, ham g‘oyani singdiradi, deya ta’kidlamoqchimiz. Badiiy matnni to‘qilgan matoga o‘xshatgan Rolan Bart fikrini haqli deb bilgan holda uning bu o‘xshatmasiga yanayam yaqqolroq ifoda qo‘shmoqchimiz: agar badiiy matn puxta va go‘zal to‘qilgan mato bo‘lsa, uning asos uzvini tashkil qilgan iplar shaklning, iplarning rangi esa g‘oyaning istiorasidir. Matoning rang va ip birikuvidan iborat to‘qilish usuli esa matn strukturasiga qiyos bo‘la oladi. Fikrimizga kichik bir xulosa yasaydigan bo‘lsak, uni quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiqdir:

RANG + IP + TO‘QILISH USULI = MATO

G‘OYA + SHAKL + STRUKTURA = BADIIY MATN

Matoning yaratilishida to‘qilish usuli muhim rol o‘ynaydi, ya’ni matoning qalin yoki yupqaligi, chidamliligi ko‘p jihatdan to‘qilish usuliga bog‘liqdir. Xuddi shu kabi badiiy matnning jozibasi, o‘quvchanligi, o‘ziga xosligi aynan strukturaning qanday tashkil qilinganligiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Agarda matn ichidagi biron bir uzvga o‘zgartirish kiritilsa, matndan olib tashlansa yoki yangidan kiritilsa, bu butun boshli matnda aks-sado beradi. Strukturada yuz bergan har qanday o‘zgarish, u xoh katta bo‘lsin, xoh kichik bo‘lsin, badiiy matnning har bir qatlamida namoyon bo‘ladi. Badiiy matn strukturasi sarlavhadan boshlab so‘nggi nuqtaga qadar matnning har bir satridan ham parallel, ham vertikal shaklda o‘tib borib, bir butun tizimga aylanadi. Shu sababdan ham struktural tahlil jarayonida matn tarkibidagi har qanday mayda detal ham alohida e’tiborga olinadi.

Demak, struktural tahlil ilmiy tafakkurning tadrijiy pog‘onasi sifatida adabiyotshunoslikda badiiy asardan badiiy matn sari qadam tashlash uchun asosiy omildir. Adabiyotimizda yaratilgan va yaratilayotgan badiiy asar namunalarini struktur metod orqali tahlil qilish, badiiy matn va matn strukturasi talabiga mos yoki mos emasligini aniqlash ularning jahon adabiyoti va adabiyotshunosligi doirasida munosib o‘rin egallashi uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Meliyev S. Strukturalizm va struktural tahlil haqida. // “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2008, 2-son.
2. Saidova R., Murodov G‘. Badiiy matnda belgi munosabatlari. – Toshkent: Navro‘z, 2019.64-b.
3. Rasulov A. Struktura va strukturalizm. – Manba: Rasulov A. Badiiylik – bezavol mezon. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh muharriyati, 2007.
4. Xolbekov M. Struktur adabiyotshunoslik. – Toshkent: Fan, 2014. 136-b.
5. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari (hammualliflikda). – UrDU, 2008.
6. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004.
7. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс, 1989. – 616 с.
8. Греймас А.Ж. Структурная семантика. – Москва: Академический проект, 2004. – 368 с.
9. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 371 с.
10. İtalo Calvino. Bir Kış Gecesi Eğer Bir Yolcu. Çev. Eren Yücesan Cendey. İstanbul, Yapı Kredi Yayınları, 2008. – 249 sayfa.

Nargizaxon MADAMINOVA,
MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHIDA INGLIZ TILINI VIRTUAL MUHITDA O‘RGANISH INNOVATSION METOD VA PLATFORMALAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta’limda ingliz tilini virtual muhitda o‘rganish imkoniyatlari va innovatsion usullari tahlil qilingan. Zamonaviy virtual platformalarning interaktivligi va bolalarning yoshiga mos interfeysi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi ko‘rsatilgan. Maqolada ABC Mouse, Lingokids va Duolingo kabi platformalarning o‘ziga xos jihatlari, afzalliklari ko‘rib chiqilgan. Virtual muhit bolalarning qiziqishini saqlab qolish, ularning individual ehtiyojlariga moslashish va mustaqil o‘quv jarayonini rag‘batlantirish uchun yangicha imkoniyatlarni taqdim etishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, ingliz tili, virtual muhit, interaktiv o‘qitish, geymifikatsiya, ABC Mouse, Lingokids, Duolingo, ta’lim platformalari, innovatsion usullar.*

Annotation: this article examines the possibilities and innovative methods of learning English in a virtual environment within preschool education. The interactivity and age-appropriate interfaces of modern virtual platforms are highlighted as key factors in enhancing the effectiveness of the educational process. The distinctive features and advantages of platforms such as ABC Mouse, Lingokids, and Duolingo are reviewed. The virtual environment is emphasized as offering new opportunities to maintain children’s interest, adapt to their individual needs, and encourage independent learning.

Keywords: *preschool education, English language, virtual environment, interactive learning, gamification, ABC*

Mouse, Lingokids, Duolingo, educational platforms, innovative methods.

Аннотация: в данной статье рассматриваются возможности и инновационные методы изучения английского языка в виртуальной среде в рамках дошкольного образования. Интерактивность и соответствующие возрасту интерфейсы современных виртуальных платформ выделены как ключевые факторы повышения эффективности образовательного процесса. Рассмотрены отличительные особенности и преимущества таких платформ, как ABC Mouse, Lingokids и Duolingo. Подчеркивается, что виртуальная среда предлагает новые возможности для поддержания интереса детей, адаптации к их индивидуальным потребностям и поощрения самостоятельного обучения.

Ключевые слова: *дошкольное образование, английский язык, виртуальная среда, интерактивное обучение, геймификация, ABC Mouse, Lingokids, Duolingo, образовательные платформы, инновационные методы.*

Maktabgacha ta’lim bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi davr hisoblanadi. Ayniqsa, bu yoshda til o‘rganish qobiliyati bolalarning zehnining aniq va yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Tillarni, jumladan ingliz tilini erta yoshda o‘rganish bolalarning kelgusi ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyati uchun asosiy omil hisoblanadi. Ingliz tili, xalqaro miqyosdagi ilmiy, iqtisodiy va madaniy aloqa tili bo‘lib, erta yoshdan uni o‘rganish bolalarning xalqaro maydonda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bolalar uchun qiziqarli va o‘yin shaklida tashkil qilingan virtual muhitda o‘qitish, an’anaviy metodlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo‘lishi mumkin. Ushbu maqola maktabgacha ta’limda ingliz tilini virtual muhitda o‘rganish imkoniyatlari, innovatsion usullar va zamonaviy platformalarning tahliliga qaratilgan. Ta’lim jarayonini sifat jihatidan yaxshilash maqsadida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Virtual o‘qitish muhiti bu jarayonda katta rol o‘ynaydi. Virtual o‘qitish muhiti (angl. Virtual Learning Environment — VLE) — bu raqamli texnologiyalar orqali ta’limni tashkil qilish, boshqarish va kuzatish uchun maxsus yaratilgan platforma yoki tizim bo‘lib, u o‘quv jarayonini samarali va interaktiv shaklda amalga oshirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’limda ingliz tilini o‘rganish jarayonida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy manbalarda bu sohadagi turli metodik va amaliy yondashuvlar tahlil qilingan bo‘lib, ularning ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz: Sayfiyeva M. o‘zining “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rgatishda multimediya vositalarini ishlatishning samarali yo‘llari” nomli maqolasida maktabgacha ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rgatish jarayonida multimediya vositalaridan samarali foydalanish usullari tahlil qilib, ularning bolalar diqqatini jalb qilish va o‘quv jarayonini qiziqarli qilishdagi ahamiyatini ta’kidlagan. Ergasheva G.N. o‘zining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rgatishning metodik xususiyatlari” nomli maqolasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rgatishda foydalaniladigan metodik yondashuvlarni va ularning samaradorligini o‘rganib, bolalarga mos o‘quv materiallari va rangli vizualizatsiya vositalarining qo‘llanishi ta’lim jarayonining sifatini oshirishini ko‘rsatgan. Xaitova D.B. o‘zining “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rgatishda multimediya vositalarini ishlatishning samarali yo‘llari” (2021) nomli maqolasida maktabgacha ta’lim muassasalarida multimediya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar bergan. U o‘z tadqiqotida multimediya vositalari bolalarning til o‘rganish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan. Jabborova D., Ergasheva G., Ergasheva X. tomonidan tayyorlangan “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rgatish metodikasi” (2021) nomli kitobda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rgatishning metodik asoslari, interaktiv elementlarning qo‘llanilishi va bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta’siri tahlil qilingan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi va ularning diqqat jamlash qobiliyati kattalarnikidan ancha farq qiladi. Ushbu yoshda bolalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini saqlab qolish uchun interaktiv, jonli va o‘yinli usullardan foydalanish talab etiladi. Virtual muhitda bunday yondashuv bolalarning o‘rganish jarayoniga qiziqishini saqlash va ma’lumotni samarali o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar, asosan, vizual materiallar orqali bilimni o‘zlashtiradilar. Shu sababli virtual o‘qitish muhitida rangga boy va jonli interfeyslardan foydalanish bolalarning diqqatini jamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, rangli tasvirlar, qahramonlar, animatsiyalar va multimedia elementlari bolalarning vizual taassurotlarini kuchaytiradi. Bu jarayonda quyidagi elementlar foydali bo‘ladi:

-Animatsiyali qahramonlar: o**‘quv jarayonini bolalar uchun jonli va qiziqarli qiladi.**

-Jonli ranglar: bola diqqatini vizual ravishda tortadi.

-Interaktiv obyektlar: bolalarni tanlash va harakat qilish kabi faoliyatlarga jalb qiladi.

Harakatli vizual elementlar orqali o‘qitish bolalarning diqqatini uzoqroq muddat saqlab qolishga yordam beradi. Masalan, alfavitni o‘rganish jarayonida har bir harfga alohida harakatli tasvir biriktirish mumkin. Bu

bolalarning eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

-*Videodarslar*: tinglash va ko‘rish ko‘nikmalarini birlashtiradi.

-*Multfilmlar*: yangi so‘zlarni o‘rganish uchun bolalar sevgan qahramonlar ishtirokidagi qisqa syujetlar.

Geymifikatsiya bolalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o‘yinli elementlar ta’lim mazmuniga joriy etiladi. Masalan, bolalar topshiriqlarni bajarganda mukofotga ega bo‘ladilar yoki rag‘batlantiruvchi belgilar oladilar. Geymifikatsiyaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

-*Topshiriq va mukofotlar*: Bolalarni motivatsiyalaydi va mashg‘ulotlarni yakunlashga rag‘bat beradi.

-*Raqobat elementlari*: o**‘z o‘rganishini baholash va uni yaxshilashga yordam beradi.**

-*Qo‘shimcha o‘yinlar*: o**‘rganish jarayonini yangilash va qiziqarli qilish imkoniyati.**

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda audio materiallarga katta ehtiyoj sezadilar. Virtual muhitda ovozli darslar, tinglash mashg‘ulotlari va qo‘shiqlardan foydalanish bolalarning talaffuz va nutqni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Virtual muhitdagi mashg‘ulotlar bolalarning kundalik hayotiga moslashtirilgan bo‘lishi muhimdir. Masalan, bolalar multfilmlar, qo‘shiqlar yoki kundagi oddiy voqealar orqali so‘z boyligini oshirishi mumkin. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida **virtual platformani tanlash** bolalarning yoshi, bilim darajasi va kognitiv rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonda platformaning interaktivlik darajasi, ta’lim mazmunining mosligi, bolalarning mustaqil o‘quv jarayonini rag‘batlantirishi va foydalanish uchun qulaylik kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadval maktabgacha yoshdagi bolalar uchun virtual platformani tanlash mezonlarini va ularning tavsiflarini ko‘rsatadi:

Mezonlar	Tavsif	Misollar
1. Yoshga moslashuvchanlik	Platforma bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak. U o‘yinli faoliyatlar, rangga boy vizual kontent va qisqa mashg‘ulotlarni taklif etadi.	ABC Mouse va Lingokids platformalari rangli interfeys va harakatli kontent bilan ta’minlaydi.
2. Bilim darajasiga moslik	Platforma bolalarning mavjud bilim darajasini hisobga oladi va mashg‘ulotlarni asta-sekinlik bilan murakkablashtiradi.	Duolingo sodda darslardan boshlab, bilim darajasini bosqichma-bosqich oshiradi.
3. Interaktivlik	Bolalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini saqlash uchun interaktiv elementlar va o‘yinlar bilan boyitilgan bo‘lishi kerak.	Lingokids platforma interaktiv o‘yinlar, audio va vizual elementlar bilan ta’minlaydi.
4. Mustaqil o‘quv jarayonini rag‘batlantirish	Platforma bolalarning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan sodda interfeysga ega bo‘lishi kerak.	Lingokids bolalarning mustaqil o‘quv jarayonini amalga oshirishga moslashgan.
5. Foydalanish qulayligi	Bolalar va ota-onalar uchun interfeys intuitiv va foydalanish uchun sodda bo‘lishi kerak.	ABC Mouse platformasi qadamma-qadam boshqarish imkonini beradi va oson tushuntiriladi.

Ushbu mezonlar bolalarning yoshi, bilim darajasi va ehtiyojlariga mos ravishda platforma tanlashda yo‘riqnoma sifatida foydalanilishi mumkin.

Yoshga moslashuvchanlik. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv jarayonini qiziqarli qilish uchun platforma rangli interfeys va o‘yinli faoliyatlar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. *ABC Mouse* platformasi bolalarga rangli va jonli vizual materiallar bilan mashg‘ulotlarni taqdim etadi. Masalan, bolalar alfavitni o‘rganganda har bir harfga mos ravishda qahramonlar yoki hayvonlar tasvirlarini ko‘rishadi. Bu jarayonda bolalar harflarning talaffuzini eshitib, keyin tasvirlar orqali ularni bog‘laydilar. *Lingokids* platformasi interaktiv o‘yinlar orqali bolalarga ta’lim beradi. Masalan, ranglarni o‘rganish uchun bolalarga “tegishli rangli obyektni tanla” mashqlari berilsa, bola rangni tanlab uning nomi va talaffuzini tinglaydi.

Bilim darajasiga moslik. Bolalarning bilim darajasiga mos mashg‘ulotlar taqdim etilishi, ularning darajadan darajaga o‘tish jarayonida bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishini ta’minlaydi. *Duolingo* platformasida bilim darajalari

aniq bo‘lib, har bir bola sodda mashg‘ulotlardan boshlab, bosqichma-bosqich qiyinlashib boradigan darslarni o‘tadi. Masalan, birinchi bosqichda bolalar oddiy so‘zlar (“cat”, “dog”) bilan tanishsa, keyingi bosqichda ulardan iboralar yaratish talab qilinadi. Har bir mashg‘ulot muvaffaqiyatli tugallanganda, bolalar “mukofotlar” oladi, bu ularni yanada ko‘proq o‘quv jarayoniga jalb qiladi. *Lingokids* platformasi bolalarning bilimini baholash uchun interaktiv testlar va mashg‘ulotlarni taklif qiladi. Masalan, bolalarga jismlarni nomlari bilan bog‘lash vazifasi beriladi. To‘g‘ri bajarilgan har bir topshiriqda bola yangi darajaga o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Interaktivlik. Bolalar o‘quv jarayonida interaktiv elementlar bilan ta’minlangan bo‘lsa, ular bilimlarni osonroq o‘zlashtiradilar. Interaktiv platformalar vizual, audio va o‘yin elementlarini o‘zida mujassam etadi. *Lingokids* bolalarga turli interaktiv mashg‘ulotlarni taklif qiladi. Masalan, “Animals” mavzusida bolalar hayvonlarning suratlarini ko‘rib, ularning ovozlarini tinglaydilar va nomlarini to‘g‘ri talaffuz qilishga harakat qiladilar. Bu jarayonda bolalar o‘z bilimlarini ko‘rish va eshitish orqali mustahkamlaydilar. *ABC Mouse* platformasida bolalar interaktiv kitob o‘qishlari, tasvirlarni bo‘yashlari va o‘yinlar orqali ma’lumotlarni o‘zlashtirishlari mumkin. Masalan, bolalar “alfavit qidiruv o‘yini” orqali harflarni topib, ularni nomlari bilan bog‘laydilar.

Mustaqil o‘quv jarayonini rag‘batlantirish. Bolalar o‘quv jarayonida mustaqil harakat qilish imkoniga ega bo‘lsalar, ular o‘z bilimlarini yanada yaxshi o‘zlashtiradilar. *Lingokids* platformasida bolalar interaktiv menyu orqali o‘zlariga mos mashg‘ulotlarni mustaqil tanlashlari mumkin. Masalan, bola kundalik ravishda “so‘z o‘yini” yoki “tinglash mashqlari” bilan shug‘ullanib, o‘zining o‘quv jarayonini boshqarishi mumkin. *ABC Mouse* platformasi bolalarga har bir mashg‘ulotni qadamma-qadam boshqarish imkonini beradi. Masalan, bola “hafta kunlari” mavzusida mashq qilish uchun vizual va audio kontentlarni mustaqil tanlaydi. Bunda ota-ona aralashuvisiz mashg‘ulotlarni bajarish osonlashtirilgan.

Foydalanish qulayligi .Platformaning interfeysi bolalar va ularning ota-onalari uchun tushunarli va sodda bo‘lishi lozim. Navigatsiya oson bo‘lib, bolalar o‘zlari ham foydalanishi mumkin bo‘lgan darajada bo‘lishi zarur. *ABC Mouse* platformasi bolalar va ota-onalar uchun qulay interfeysga ega. Masalan, bolalar yangi mavzularga osonlik bilan kirishishlari uchun platformaning tuzilishi “menyu-yangi darslar-mukofotlar” shaklida yo‘naltirilgan. Ota-onalar uchun esa bolalarning rivojlanishini kuzatish imkoniyati beriladi. *Duolingo* interfeysi bolalar uchun minimal elementlar bilan tuzilgan bo‘lib, ular darslarni boshlash, muvaffaqiyat darajasini ko‘rish va yangi mashg‘ulotlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, bola yangi bosqichga o‘tganda avtomatik ravishda kelgusi mashg‘ulotga yo‘naltiriladi.

Bolalarning til ko‘nikmalari rivojlanishi virtual muhitning yana bir muhim afzalligidir. Interaktiv mashg‘ulotlar, audio va video materiallar bolalarga yangi so‘zlarni tinglab, talaffuz qilish va qo‘llashni o‘rganish imkoniyatini beradi. Masalan, Lingokids platformasida bolalar yangi so‘zlarni eshitib, ularni qayta-qayta takrorlash orqali nutq malakasini shakllantiradilar. Bu jarayonda bolalarning nutqi va so‘z boyligi yanada boyiydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar virtual muhit bolalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilishini ta’kidlaydilar. Ularga ko‘ra, platforma bolalarning diqqatini saqlab turish va ularning rivojlanish natijalarini monitoring qilish uchun qulay vosita hisoblanadi. Masalan, Lingokids platformasida bolalarning topshiriqlarni bajarishdagi muvaffaqiyatlari kuzatilib, ularga moslashtirilgan materiallar taklif qilinadi. Bunday yondashuv o‘quv jarayonini individuallashtirishga va bolalarni qo‘shimcha rag‘batlantirishga yordam beradi. Ota-onalar esa virtual platformalar bolalarning mustaqil ta’lim olishiga yordam berishini aytib o‘tganlar. Masalan, ABC Mouse bolalarga mustaqil ravishda mashg‘ulotlarni bajarish imkonini berib, ota-onalarning kundalik vazifalarini yengillashtiradi. Bolalarning mustaqilligi rivojlanishi bilan birga, ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishi ham oshadi. Virtual platformalar bolalar uchun yoshga mos interfeyslar, interaktiv va shaxsiylashtirilgan mashg‘ulotlar orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu platformalar bolalarning til, ijodiy va kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta’lim jarayonini zamonaviy va qiziqarli qilish imkonini taqdim etadi. Biroq, chuqur bilimlar va jismoniy muloqotning yetishmasligi kabi cheklovlarni hisobga olish kerak. Bunda har bir bola ehtiyojlariga muvofiq platformalardan foydalanish bolalarning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘ladi.

Maktabgacha ta’limda ingliz tilini virtual muhitda o‘rganish, bolalarning erta yoshdagi kognitiv, til va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Virtual platformalar interaktiv elementlar, vizual va audio materiallar orqali bolalarni o‘quv jarayoniga jalb qilish, ularning bilimlarini samarali o‘zlashtirish va rag‘batlantirish uchun innovatsion yechimlarni taqdim etadi. Ushbu platformalarning individuallashtirilgan va geymifikatsiya elementlariga boy bo‘lishi bolalarning rag‘batini saqlab qolish, ularning mustaqil o‘qish qobiliyatini rivojlantirish va ta’lim jarayonini qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning jismoniy muloqot va chuqur bilimlar bilan bog‘liq cheklovlari mavjud, bu esa ulardan an’anaviy ta’lim shakllari bilan integratsiya qilingan holda foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni beramiz:

Virtual platformalarni an’anaviy ta’lim bilan integratsiya qilish: Virtual muhit va an’anaviy

ta’lim shakllarini birlashtirish orqali bolalarning ta’lim jarayonini yanada samarali va ijtimoiy qilib tashkil etish mumkin. Bu jonli muloqot va jamoaviy faoliyatlar orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Yoshga moslashgan va interaktiv platformalarni kengroq tatbiq qilish: Yosh bolalar uchun rangli interfeyslar, interaktiv o‘yinlar va geymifikatsiya elementlari bilan boyitilgan platformalarni rivojlantirish va joriy etishni rag‘batlantirish lozim. Bu bolalarning diqqatini uzoqroq saqlab qolishga va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ota-onalar uchun yo‘riqnomalar va qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish: Virtual platformalardan samarali foydalanish uchun ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash, ularga bolalarning o‘quv jarayonini boshqarish bo‘yicha yo‘riqnomalar va maslahatlar taqdim qilish zarur. Bu bolalarning ta’lim samaradorligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Til o‘rganishni chuqurlashtirish uchun innovatsion kontent yaratish: Virtual platformalarning nutq, grammatika va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun chuqurlashtirilgan va integrativ kontentlarini yaratishga e’tibor qaratish lozim. Bu, ayniqsa, tilni chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirilgan bolalar uchun foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfiyeva M. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rgatishda multimediya vositalarini ishlatishning samarali yo‘llari // Yevraziyskiy nauchnыy jurnal, 2021. 45–48-betlar.
2. Ergasheva G.N. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rgatishning metodik xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021. 27–32-betlar.
3. Xaitova D.B. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rgatishda multimediya vositalarini ishlatishning samarali yo‘llari // Jurnal pedagogiki i psixologi, 2021. 55–60-betlar.
4. Jabborova D., Ergasheva G., Ergasheva X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rgatish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. 123-bet.



Mahliyo SATTOROVA,
Qarshi davlat universiteti
tayanch doktoranti

FARHOD VA SHIRIN XALQ DOSTONINING JANRIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada “Farhod va Shirin” xalq dostonining janriy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada dostonning qahramonlik, lirik va dramatik elementlari, shakl va tuzilishi, tematik xususiyatlari, til va uslubi batafsil o'rganiladi. “Farhod va Shirin” dostonining sevgi, sadoqat, qahramonlik va fidoyilik kabi asosiy g‘oyalari uning janriy tarkibini tashkil etadi. Dostonning ritmik tuzilmasi, allegorik ramzlari va personajlar orqali ifodalangan tematik qatlamlari o‘zbek xalq adabiyotidagi o‘ziga xos o'rnini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: *Farhod va Shirin, xalq dostonlari, janriy xususiyatlar, sevgi, qahramonlik, liirik elementlar, dramatizm, til uslubi, sadoqat, allegoriya.*

Annotation: this article analyzes the genre features of the folk epic “Farhod and Shirin”. Heroic, lyrical and dramatic elements, form and structure, thematic features, language and style of the epic are studied in detail in the article. The main ideas of the “Farhod and Shirin” epic, such as love, loyalty, heroism and self-sacrifice, make up its genre structure. The epic's rhythmic structure, allegorical symbols and thematic layers expressed through characters determine its unique place in Uzbek folk literature.

Key words: *Farhad and Shirin, folk epics, genre features, love, heroism, lyrical elements, drama, language style, loyalty, allegory.*

Аннотация: в данной статье анализируются жанровые особенности народного эпоса «Фарход и Ширин». В статье подробно изучаются героические, лирико-драматические элементы, форма и структура, тематические особенности, язык и стиль эпоса. Основные идеи эпоса «Фарход и Ширин», такие как любовь, верность, героизм и самопожертвование, составляют его жанровую структуру. Ритмическая структура эпоса, аллегорическая символика и тематические пласты, выраженные через образы, определяют его уникальное место в узбекской народной литературе.

Ключевые слова: *Фархад и Ширин, народный эпос, жанровые особенности, любовь, героизм, лирические элементы, драматургия, языковой стиль, верность, аллегория.*

Kirish.O‘zbek adabiyotida qadimiy dostonlar alohida o'rin tutadi, chunki ular xalqning tarixiy tajribasi, dardlari, orzulari va tushunchalarini ifoda etgan. “Farhod va Shirin” dostoni aynan shunday xalq dostonlaridan biridir. Bu doston nafaqat uning janrini, balki xalqning fikr va qarashlarini ham aks ettiradi. “Farhod va Shirin” dostonining janriy xususiyatlari orqali uning o'ziga xos strukturasi, til uslubi, tematikasi va personajlari haqida to'liq tasavvur hosil qilish mumkin. Ushbu maqolada dostonning janriy xususiyatlari, uning tarkibi, shakl va mazmun jihatlari tahlil qilinadi. “Farhod va Shirin” dostonining janriy turlari uning xalq adabiyotidagi o‘rni va mazmuni nuqtayi nazaridan muhimdir. Doston janri o‘zining tarkibida bir nechta turli janrlarni birlashtiradi: qahramonlik, lirizm va dramatizm. Bu janrlarning har biri dostonning umumiy tuzilishini boyitib, uni ko‘plab adabiy an’analarga ega qilgan [1].

Qahramonlik janri: “Farhod va Shirin” dostonida qahramonlik elementlari aniq ko‘rinadi. Farhodning Shirin uchun amalga oshirgan jasoratli harakatlari, ularning sevgisi uchun kurashi dostonning markaziy g‘oyasini tashkil etadi. Farhod, o‘z sevganiga bo‘lgan sadoqati va unga xizmat qilish yo‘lida barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tadi. Dostonning bu qismlari uning qahramonlik janri sifatida shakllanishiga imkon beradi. Farhodning tog‘larni kesib, halokatli yerlardan o‘tib, qudratli sevgisi bilan barcha to‘siqlarni yengishi xalq orasida qahramonlikni ulug‘lashning ifodasidir [2].

Lirik janr: “Farhod va Shirin” dostonidagi ko‘plab sahnalarda romantik elementlar va his-tuyg‘ularning aks etishi lirik janrni yanada kuchaytiradi. Farhod va Shirin o‘rtasidagi sevgi tasvirlari dostonni qahramonlik va dramadan ajratib, uning lirik jihatini mustahkamlaydi. Ayniqsa, Farhodning Shirin uchun chekkan iztiroblarini, uning sevgisi uchun kechirgan mehnatlarini tasvirlovchi qator sahnalar bu dostonni lirik janr sifatida to‘liq tasvirlaydi. Dostonning asosiy voqealari orasida romantik munosabatlar, sevgi iztiroblari va u orqali insonning ruhiy o‘sishi kabi lirik elementlar muhim o‘rin tutadi.

Dramatik elementlar: “Farhod va Shirin” dostonida dramani shakllantiruvchi muhim elementlar mavjud. Dostonning markaziy konflikti – bu Farhod va Shirin o‘rtasidagi sevgining to‘siqlar va qarshiliklarga duch kelishi. Har bir qahramon o‘zining ichki iztiroblari va tashqi dunyo bilan kurashda yangi to‘siqlarga duch keladi. Farhodning o‘zi yaratgan to‘siqlar, ularning sevgisini himoya qilish uchun olib borilgan kurash, dostonning dramatik tuzilishini yaratadi. Farhodning hayoti va sevgi yo‘lida duch kelgan kurashlar dramatik elementlar sifatida o‘z ifodasini topadi. Farhodning Shirin uchun qilgan ishlarida hamma narsani kurashda yengishga urinish motivi mavjud. Doston, ayniqsa, O‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi an’analarga asoslanadi va xalqning orzu-umidlarini aks ettiradi. “Farhod va Shirin” dostonining shakl va tuzilishi xalq adabiyotining an’anaviy elementlari bilan uyg‘unlashgan. Doston o‘zining o‘ziga xos strukturasiga ega bo‘lib, uning ichki ritmik tuzilishi, ayrim epizodlar va qahramonlar o‘rtasidagi dialoglar orqali hikoya qilinadi [3].

Ritm va takrorlanish: Dostonning shakli ritmik va musiqiy jihatdan boyitilgan. Xalq dostonlarida ko‘pincha takrorlanadigan frazalar va uyushgan kuylashlar mavjud bo‘lib, bu dostonni tinglashni yoki o‘qishni osonlashtiradi. “Farhod va Shirin” dostonining she’riy va ritmik shakllari xalqning og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan uslublarni aks ettiradi. Dostonning ko‘p qismlari qahramonlar orasidagi dialoglar, ichki monologlar va sevgiga oid she’rlar orqali amalga oshirilgan.

Dialoglar va monologlar: Dostonning tuzilishini dialoglar va monologlar tashkil etadi. Farhodning ichki monologlari uning dardlarini, orzularini, kelajakka bo‘lgan umidlarini aks ettiradi. Shirin bilan bo‘lgan suhbatlar esa, bir tomondan, ularning sevgisini yanada kuchaytirsa, boshqa tomondan, dostonning dramatik tarangligini yaratadi. Dialoglar va monologlar orqali qahramonlarning ichki dunyosini, ularning ruhiy holatini tushunish mumkin.

Allegoriya va ramzlar: Dostonning shaklida allegorik tasvirlar va ramzlar ham mavjud. Farhodning o‘zi yaratgan to‘siqlar, masalan, tog‘larni kesib o‘tish yoki favqulodda ishlarni amalga oshirish orqali o‘zining kuchli ichki dunyosini ko‘rsatadi. Bu ramzlar insonning orzulari, orzu qilishdagi qiyinchiliklar va maqsadga erishishdagi ichki kurashni ifodalaydi.

“Farhod va Shirin” dostonidagi ritmik tuzilma ko‘pincha xalq qo‘shiqlaridagi musiqiy yondashuvlar bilan birga bo‘ladi. Bu dostonning o‘ziga xos afsonaviy shaklini yaratadi. Dialoglar va monologlar ko‘pincha o‘zbek xalq she’riyati an’analaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan.

Sevgi va uning kuchi: Dostonning asosiy g‘oyasi sevgi va uning kuchini ulug‘lashdir. Farhodning Shirin uchun qilgan jasoratli ishlarini ko‘rgan o‘quvchi, sevgi haqiqatan ham insonning barcha cheklovlaridan, hatto hayotdan yuqori turgan qudrat ekanligini tushunadi. Farhodning Shirin uchun harakatlarida bu sevgi, haqiqatan ham, qahramonlik va fidoyilikni taqozo etadi.

Sadoqat va fidoyilik: Farhod va Shirin o‘rtasidagi munosabatlarda sadoqat va fidoyilikning tasviri dostonning markaziy g‘oyasi bo‘lib qoladi. Farhod o‘zining sadoqatini, sevgi va mehrini amaliy harakatlar bilan isbotlaydi. Shirin esa, ularning

sevgisiga ishonib, har bir qadamni Farhodning sevgisi bilan bog‘laydi.

Manfaatlar va to‘siqlar: Dostonning asosiy konfliktlari – Farhod va Shirin o‘rtasidagi sevgining to‘siqlar va qarshiliklarga duch kelishi. Dostonning asosiy voqealari orasida bu to‘siqlardan o‘tish va sevgi yo‘lida kurashish asosiy mavzularni tashkil etadi. Bu to‘siqlar tashqi muhitdan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zaro ijtimoiy va siyosiy manfaatlarni ham aks ettiradi.

Farhodning Shirin uchun qilgan ishlaridagi to‘siqlar, janglar va yengilmas kurashlar – buning barchasi xalqning qahramonlik tasavvurlarini va sevgi haqidagi qadriyatlarini aks ettiradi. Dostonning mazmuni va mavzusi, ayniqsa, o‘zbek xalqining qadimiy tarixiy va madaniy qadriyatlarini ifodalaydi.

“Farhod va Shirin” dostonining tili o‘zbek xalqining boy og‘zaki adabiyotiga asoslangan. Dostonning til va uslubi an'anaviy xalq she'riyati elementlari bilan boyitilgan.

1. Poetik til: Dostonning tili yuqori poetik uslubda yozilgan. Farhodning o‘zi va Shirin o‘rtasidagi munosabatlar she’riy, tafakkurli va didaktik bir tarzda ifodalanadi. Dostonning she’r va rasmiy ma’lumotlari ko‘plab ramzlar va metaforalardan tashkil topgan. Poetik til va shakllar xalqning jismoniy va ruhiy tajribalarini aks ettiradi [5].

2. Uslubiy yondashuvlar: Dostonning uslubi xalq og‘zaki adabiyotida uchraydigan qayta-qayta takrorlangan, alohida uslubiy vositalar bilan boyitilgan. Dostonning shakli xalq she’riyati uslubida boyitilgan bo‘lib, bu xalq madaniyatiga chuqur ta'sir ko‘rsatadi.

Dostonning tili va uslubi o‘zbek xalqining boy og‘zaki adabiyotiga xos bo‘lgan umumiy uslublarni o‘z ichiga oladi. Uslubiy xususiyatlar dostonning musiqiy tuzilishini kuchaytiradi va ko‘proq ifoda qilish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa va munozara.“Farhod va Shirin” xalq dostonining janriy xususiyatlari, shakli, tematik yo'nalishlari va til uslubi uning adabiy ahamiyatini va xalq adabiyotidagi o'rnini belgilaydi. Ushbu doston o'zbek adabiyotining muhim san'at asari sifatida xalqning tarixiy, madaniy, ma'naviy qadriyatlarini o'zida aks ettirgan va bu qadriyatlarni o'zbek xalqining yangi avlodlariga yetkazish maqsadida yaratilgan. Dostonning mazmuni, strukturasining xususiyatlari va personajlari orqali xalq orasida keng tarqalgan orzu-umidlar, insoniy his-tuyg‘ular, sadoqat va fidoyilik kabi temalar ilmiy tahlilga muvofiq ravishda taqdim etiladi.

Qahramonlik janri — dostonning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u Farhodning Shirin uchun qilgan jasoratli harakatlarida namoyon bo'ladi. Dostonning bu jihati, o'zaro sevgi va sadoqat uchun kurashish, xalq adabiyotida qahramonlikni ulug'lashning yorqin namunasi sifatida qaraladi. Farhodning maqsadga erishish yo'lidagi fidoyiligi va uning sevganiga bo'lgan sadoqati uning haqiqiy qahramon sifatida qaralishiga imkon yaratadi. Uning to‘siqlarni yengib o‘tishi, unga qarshi turuvchi kuchlarga qarshi kurashi, xalqni hayratda qoldiradigan darajada kuchli va g'ayratli ekanini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “Farhod va Shirin” dostonining janriy xususiyatlari, shakli va mazmuni uni nafaqat o‘zbek adabiyotining eng mashhur asarlaridan biri, balki umuman jahon adabiyotining qimmatli o‘rni sifatida ajratib turadi. Ushbu doston xalqning romantik, qahramonlik, sevgi va sadoqat haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi, xalq adabiyotining bir qismiga aylangan va ularni o‘zgacha ravishda tushunishga imkon beradi. Dostonning janr, til, uslub va tematik jihatlari esa uni zamonaviy o‘quvchilar uchun ham qiziqarli va ahamiyatli qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A’zamov, N. (1980). O‘zbek adabiyoti tarixi. —Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.
2. Xolmuhamedov, T. (1999). Xalq dostonlari va ularning janr turlari. —Toshkent: Fan.
3. Mirzoyev, T. (2007). O'zbek xalq adabiyoti: Doston va eposlar. —Toshkent: O'zbekiston.

Shaxnoza TO‘RAYEVA,
ToshDO‘TAU
tayanch doktoranti
shaxnozat11@gmail.com



IMLO SAVODXONLIGI XUSUSIDA TAJRIBAVIY TADQIQ

Annotatsiya: maqolada 5-sinf o‘quvchilarning imloviy savodxonligi tajriba-sinov orqali o‘rganilganligi, undoshlar va undoshlar imlosi bo‘yicha olingan sinov natijalarida o‘quvchilarning qanday holatlarda xatoliklarga yo‘l qo‘ygani va tahlili haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *imlo, savodxonlik, unli, undosh, to‘g‘ri yozish, talaffuz, yozuv*

Аннотация: в статье изучена орфографическая грамотность учащихся 5 класса посредством экспериментального теста, результатов проверки правописания согласных и согласных, в каких случаях учащиеся допустили ошибки и анализа.

Ключевые слова: *правописание, грамотность, гласные, согласные, правописание, произношение, письмо.*

Annotation: in the article, the spelling literacy of the 5th grade students was studied through an experimental test, the test results on the spelling of consonants and consonants, in which cases the students made mistakes and analysis.

Key words: *spelling, literacy, vowel, consonant, correct spelling, pronunciation, writing*

Inson o‘z g‘oyalarini, orzularini, his-tuyg‘ularini yozma ifoda vositalari orqali namoyon qiladi. Fikrini yozma shaklda ifodalovchi shaxs, eng avvalo, ushbu ifoda vositalarining xususiyatlarini bilishi kerak. Bunda, albatta, savodli yozishni e’tibordan chetda qoldirmaslik maqsadga muvofiqdir. “Til jamiyatni shakllantiruvchi kelishuv tizimi ekan, undan ongli ravishda, qonun-qoidalarga muvofiq foydalanish har kimning burchidir”[1:143]. Imlo savodxonligi umumiy til madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri. Barkamol yozma nutqni shakllantirish esa ona tilini o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

O‘quvchilarning imlo savodxonligi boshlang‘ich sinfdan shakllanib boradi. Ularga imlo qoidalari bosqichma-bosqich o‘rgatiladi. Shunday bo‘lsa-da, aksariyat holatlarda qoidalarga asoslanmagan holda yozishadi. O‘quvchilarning qaysi o‘rinlarda xatolikka yo‘l qo‘ygani va bo‘shliqlarini aniqlash bizning vazifamizdir. Shu maqsadda 5-sinf o‘quvchilarining savodxonlik darajasini tekshirish uchun tajriba o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlarida 70 nafar o‘quvchi qamrab olindi. Topshiriqlar imlo qoidalaridagi quyidagi bo‘limlar asosida tuzildi:

1. Unlilar imlosi
2. Undoshlar imlosi
3. Asos va qo‘shimchalar imlosi
4. Qo‘shib, ajratib, chiziqcha bilan yozish imlosi
5. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari.

1-bosqich tajriba-sinov jarayonlari uchun tayyorlangan topshiriqlardan namunalar keltirib o‘tamiz.

1-topshiriq. *Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarga “T”, noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarga “X” qo‘ying.*

T/r	So‘zlar	Javob	T/r	So‘zlar	Javob
1	Sayid		21	fikir	
2	tabiyat		22	shoyir	
3	sovin		23	sodat	
4	sovob		24	tiyatr	
5	doim		25	romol	
6	shalg‘om		26	okiyan	
7	badiy		27	oyid	
8	zomon		28	milliard	
9	shomol		29	zayif	
10	drektr		30	joyiz	
11	to‘nna		31	mallim	

12	uyqi		32	momala	
13	kulgi		33	talofat	
14	tomosha		34	tuyg‘	
15	fikir		35	qoyida	
16	ilim		36	traktir	
17	tilivizor		37	yuldiz	
18	mukofat		38	no‘l	
19	umur		39	manitor	
20	varoq		40	hasharot	

Tajriba uchun tuzilgan nazorat savollariga talaffuz va yozuvda farqlanadigan so‘zlar tanlandi hamda 80% so‘zlarning talaffuzdagi holati berildi. Chunki o‘zbek tilidagi aksariyat so‘zlarning yozilishi va imlosida tafovut mavjud. Bu holat kichik yoshdagi bolalarning imloviy savodxonligini oshirishda xalaqit beradi. Aksariyat hollarda bola so‘zlarni talaffuz qilganidek yozadi. Biz tajriba orqali o‘quvchilarning talaffuz va imloni qay darajada farqlashi va yondashuvlarini o‘rganishni maqsad qildik. O‘quvchilarning unli harflarning imlosi bilan bog‘liq qanday holatlarda ko‘proq xatolikka yo‘l qo‘yganligini aniqladik. Quyidagi jadvalda noto‘g‘ri javobni belgilagan o‘quvchilar miqdorini keltirib chiqardik.

T/r	So‘zlar	Noto‘g‘ri javob	T/r	So‘zlar	Noto‘g‘ri javob
1	Said	4	21	fikr	40
2	tabiat	22	22	shoir	33
3	sovun	22	23	saodat	25
4	savob	19	24	teatr	29
5	doim	17	25	ro‘mol	29
6	sholg‘om	15	26	okean	21
7	badiiy	29	27	oid	33
8	zamon	13	28	milliard	21
9	shamol	13	29	zaif	41
10	direktor	17	30	joiz	30
11	tonna	32	31	muallim	11
12	uyqu	22	32	muomala	19
13	kulgu	24	33	talofat	27
14	tomosha	14	34	tuyg‘u	21
15	bilim	21	35	qoida	19
16	ilm	36	36	traktor	31
17	televizor	21	37	yulduz	13
18	mukofot	29	38	nol	37
19	umr	25	39	monitor	45
20	varaq	37	40	hasharot	23

Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar unlilar imlosiga oid bo‘lgan topshiriqda quyidagi holatlarda xatolikka yo‘l qo‘yishgan:

1. Ikki unli tovush birga kelganda y tovushining ortish holatlarida (tabiat-tabiyat, oid-oyid, shoir-shoyir, teatr-tiyatr, joiz-joyiz, zaif-zayif, okean-okiyan). Ushbu holatda 43% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.

1. Ikki undosh qator kelganda i tovushi ortish holatlarida (ilm-ilim, fikr-fikir, umr-umur). Ushbu holatda 45% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.

2. i tovushining u tarzda yoki aksincha talaffuz qilish holatlarida (sovun-sovin, uyqu-uyqi, kulgi-kulgu). Ushbu holatda 43% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.

3. a tovushining o tarzida aytilishi yoki o tovushining a tarzida talaffuz qilish holatlarida (savob-sovob, mukofat-mukofot, varoq-varaq, hasharot-hashorat, talafot-talofat, monitor-manitor). Ushbu holatda 32% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.

2-topshiriq undoshlar imlosi asosida berildi. Topshiriqlarda 5-sinf “Ona tili” darsligidagi matnlarda uchraydigan so‘zlar qamrab olindi.

2-topshiriq. *Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarga “T”, noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarga “X” qo‘ying.*

T/r	So‘zlar	Noto‘g‘ri javob	T/r	So‘zlar	Noto‘g‘ri javob
1	chaqalog‘		21	rahmat	
2	kitop		22	savot	
3	avg‘on		23	axborot	
4	mamba		24	Shoyista	
5	qulog‘		25	e’tibor	
6	mexnat		26	harp	
7	velosipet		27	maxtov	
8	beshig		28	balig‘	
9	xabar		29	darax	
10	istirob		30	xizmat	
11	Abdurayim		31	xursan	
12	fudbol		32	mexr	
13	maktap		33	shamba	
14	xarakat		34	shavqat	
15	tazim		35	obot	
16	avtobus		36	ixcham	
17	balant		37	janat	
18	sakiz		38	bahor	
19	aftomobil		39	naxt	
20	farzant		40	maxsat	

Aksariyat o‘quvchilar kundalik hayotida ko‘p qo‘llaniladigan, assimilyatsiya, dissimilayatsiya va metateza hodisalariga uchrab noto‘g‘ri talaffuzi o‘zlashib ketgan so‘zlarning imlosida xatoga yo‘l qo‘ygani aniqlandi. Quyidagi jadvalda o‘quvchilarning undosh tovushlar bilan bog‘liq qaysi so‘zlarda xatolikka yo‘l qo‘yganligi miqdori ko‘rsatilgan.

T/r	So‘zlar	Javob	T/r	So‘zlar	Javob
1	chaqaloq	22	21	rahmat	15
2	kitob	13	22	savod	21
3	afg‘on	36	24	axborot	14
4	manba	35	24	Shohista	25
5	quloq	23	25	e’tibor	13
6	mehnat	33	26	harf	11
7	velosiped	31	27	maqtov	32
8	beshik	35	28	baliq	9
9	xabar	13	29	daraxt	12
10	iztirob	36	30	xizmat	10
11	Abdurahim	27	31	xursand	19
12	futbol	33	32	mehr	39
13	maktab	13	33	shanba	28
14	harakat	38	34	shafqat	41
15	ta’zim	36	35	obod	35
16	avtobus	15	36	ixcham	17
17	baland	23	37	jannat	22
18	sakkiz	18	38	bahor	12
19	avtomobil	37	39	naqd	35
20	farzand	25	40	maqsad	29

Yuqoridagi statistik ma’lumotlardan o‘quvchilarning undoshlar imlosi bo‘yicha ko‘p yo‘l qo‘yadigan xatolari foiz hisobida ochib berildi:

1. X va h undoshli so‘zlarda (mehr-mexr, harakat-xarakat, Shohista-Shoyista, mehnat-mexnat). Ushbu holatda 48% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.
2. So‘z o‘rtasida kelgan q undoshining x undoshiga monand talaffuz qilinishi (maqsad-maxsad, naqd-naxt, maqtov-maxtov). Ushbu holatda 45% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.
3. So‘z o‘rtasi yoki oxirida d undoshining t undoshiga monand talaffuz qilinishi yoki aksincha holatlarda (obod-obot, savod-savot, farzand-farzant, velosiped-velosipet, baland-balan, futbol-futbol). Ushbu holatda 41% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.
4. Tutuq belgisi qo‘yilishi holati (ta’zim-tazim). Ushbu holatda 41% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.
5. So‘z o‘rtasida kelgan n undoshining m undoshiga monand talaffuz qilinishi (manba-mamba). Ushbu holatda 51% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.
6. So‘z oxirida k undoshining g undoshiga monand talaffuz qilinishi (beshik-beshig). Ushbu holatda 50% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.
7. So‘z o‘rtasida kelgan f undoshining v undoshiga monand yoki aksincha talaffuz qilinishi (shafqat-shavqat, avtomobil-aftomobil, afg‘on-avg‘on). Ushbu holatda 54% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.
8. So‘z o‘rtasida kelgan z undoshining s undoshiga monand talaffuz qilinishi (iztirob-istirob). Ushbu holatda 51% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.
9. So‘z oxirida q undoshining g‘ undoshidek talaffuz qilinish holati (chaqaloq-chaqalog‘, baliq-balig‘). Ushbu holatda 32% o‘quvchi xatolikka yo‘l qo‘ygan.

Tajribadan olingan natijalar yuqori, o‘rta, quyi darajalarga ajratildi va foiz ko‘rsatkichlari aniqlandi.

O‘quvchilar soni	Unlilar imlosi				Undoshlar imlosi			
	Yuqori	O‘rta	Quyi	Foiz hisobida %	Yuqori	O‘rta	Quyi	Foiz hisobida %
70	2	3	65	65%	3	9	58	60%

Tajribalardan shuni xulosa qilish mumkinki, aksariyat o‘quvchilar so‘zlarni imlo qoidalari asosida emas, balki talaffuz qilgani va eshitgani kabi yozishadi. Bu xato va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun har bir dars davomida imlo savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriqlar bilan ishlashimiz zarur. Ona tili ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchi shaxsining nutqiy ko‘nikmalari va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat ekanligi barchaga ma’lum. Bizningcha, har doim imlo savodxonligini lingvistik kompetensiyaning markazida tutishimiz lozim. Chunki imlo savodxonligi nafaqat shaxsning til qonun-qoidalarini mukammal bilishi, balki milliy madaniyatining ko‘rinishidan ham darakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ekiyor C. ÖSS Sorularında İmla Sorunu, Turk Dili Dil ve Edebiyat Dergisi, Subat, C:LXXXIX, 2005. – 638
2. Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati. – Toshkent: Kafolat print kompany, 2023. 440-bet.
3. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. To‘ldirilgan 4-nashri. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. 224 –bet.
4. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. To‘la yangilangan 5-nashri. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. 192-bet.
5. https://lex.uz/docs/-1625271

Dilnoza SA’DULLAYEVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti



INGEBORG BALDAUF IZLANISHLARIDA FITRAT - MILLAT QAHRAMONI

Annotatsiya: ushbu maqolada Olmon olimasi I. Baldaufning XX asr o‘zbek jadid adabiyoti haqidagi izlanishlari tahlilga tortildi. Xususan, jadid adabiyoti ustida olib borgan izlanishlari haqida so‘z yuritildi. Fitrat asarlari tahlili olima nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi. Baldaufning o‘zbek yozuvchilari va kitobxonlari bilan o‘rnatgan aloqasi hamda asarlarni o‘zbek tilida bemalol o‘qib tahlil qila olganiga e’tibor qaratildi. Ingeborg Baldaufning Fitrat asarlarini olmon tiliga tarjima qilib ularni sharhlar bilan nashr etganligi haqida ma’lumotlar berildi. Fitrat yaratgan “Shaytonning tangriga isyoni” dramasiga olima nigohi bilan qaraldi. “Munozara” ustida ham ayrim mulohazalari keltirildi. Olimaning o‘ziga xos uslubi borasidagi ma’lumotlar ham ba’zi o‘rinlarda yoritildi.

Kalit so‘zlar: *rivoyat, ma’rifat, maqola, tarix, ma’naviy meros, an’ana, drama, pyesa, teatr.*

Аннотация: в этой статье немецкий ученый И. К анализу были привлечены исследования Балдауфа об узбекской джадидской литературе XX века. В частности, были упомянуты его исследования джадидской литературы. Анализ работ Фитрата рассматривался с точки зрения ученого. Были отмечены связи Балдауфа с узбекскими писателями и читателями, а также его способность свободно читать и анализировать произведения на узбекском языке. Сообщалось, что Ингеборг Бальдауф перевела труды Фитрата на немецкий язык и опубликовала их с комментариями. Взгляд ученого был обращен на драму “восстание сатаны против Бога”, созданную фитратом. Также были высказаны некоторые соображения по поводу” дебатов". Информация об уникальном стиле ученого также была освещена в некоторых местах.

Ключевые слова: *повествование, просвещение, статья, история, духовное наследие, традиция, драма, пьеса, театр.*

Annotation: in this article, the German scientist I. Baldauf's research on 20th-century Uzbek jadid literature has been subjected to analysis. In particular, his research on jadid literature was mentioned. The analysis of the works of Fitrat was considered from the point of view of the scientist. It was noted that Baldauf was able to analyze the works by reading them fluently in the Uzbek language, as well as the connection he had established

with Uzbek writers and readers. It was reported that Ingeborg Baldauf translated Fitrat's works into German and published them with commentaries. Fitrat looked at the drama he created, “Satan's rebellion against tangry”, with Baldauf's gaze. Some comments were also made on the "debate". Information about Baldauf's unique style was also covered in some places.

Key words: *narrative, enlightenment, article, History, spiritual heritage, tradition, drama, play, Theater.*

Kirish. O‘tmishni o‘rganish, tarixga hurmat tuyg‘usi xalqning o‘zligini anglashidagi juda muhim omillardan hisoblanadi. Xalqning madaniy qadriyatlari va ma’naviy merosi asrlar mobaynida sharq xalqlari uchun kuchli manaviyat manbai sifatida xizmat qilgan. Ko‘p vaqtlar davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, xalqimiz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga erisha oldi.

Asosiy qism. Keksa tarix o‘tmish yukini yelkasida opichlab avlodlarga yetkazar ekan bu uzun yo‘lda ko‘plab voqealar, insonlar shunchaki unutilib yo‘qlikka yuz tutadi. Davonlar osha bizga bo‘y ko‘rsatuvchi o‘tmish esa buyuk ishlarni, buyuk insonlarni hech qachon bag‘ridan uzmaydi. Aytish mumkinki, o‘lkamiz buyuklarni kam ko‘rmagan. Dunyoga Buxoriy, Beruniy, Bobur kabi daholari bilan tanilgan. Bu ro‘yxatni o‘nlab, yuzlab insonlar nomi bilan davom ettirishimiz mumkin. Ularning qilgan ishlarini o‘rganish va avloddan avlodga yetkazish esa savobli burchdir. XX asr o‘zbek jadid adabiyotini o‘rganish ham shunday muhim vazifalarimizdan biridir.

Jadid adabiyoti turmushni real va hayotiy ko‘rsatishi, takrorlanmas mavzularni, zarur milliy muommolarni ko‘tarib chiqishi bilan millatimiz so‘z san’ati rivojida katta o‘rin egallaydi. Bu davrning o‘ziga xos jihatlari haqida adabiyotshunosligimizda ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbekistonda O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Qosimov, H.Boltaboyev, B Do‘stqorayev, N.Vlademerovna, I.G‘aniyev, U.Jo‘raqulov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

XX asr o‘zbek jadid adabiyoti nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham izchil o‘rganilgan va tadqiq etilgan. Xorijda Edward Allworth, Elen de Enkaus, Ingeborg Baldauf, Hisao Komatsu, Temur Xo‘ja o‘g‘li, Yusuf Avji kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Bu olimlarning izlanishlari haqida so‘z yuritganda Olmon taniqli olimasi I.Baldaufga alohida to‘xtalmay ilojimiz yo‘q. Olimaning “XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar” nomli to‘plami Turkiston jadidchilik tarixi va uning mashhur namoyondalari ijodiga bag‘ishlangan. Bu to‘plamga Ingeborg Baldaufning Fitrat, Behbudiy, Qodiriy, Cho‘lpon haqidagi qarashlari saralab olingan. Xorijlik mutaxassisning fikr va mulohazalari nafaqat adabiyotshunoslik fanimiz, balki o‘quvchilar uchun ham qiziqarlidir.

I.Baldauf o‘zbek tilida ravon so‘zlay olgan. Yozuvchilarimiz asarlarini o‘zbek tilida asl nusxalardan o‘qib fikr yuritgan. Behbudiydan bahs yuritadimi, Avloniyni tilga oladimi, Munavvarqori haqida gapiradimi barchasining shaxsiyati va ijodiga yuksak hurmat bilan qaraydi. O‘zbek tilidagi asarlarni o‘qish uchun eski arab yozuvini o‘rganadi. Yana bir e’tiborli jihati shundaki, u o‘z izlanishlarida qanday fakt tilga olsa, qandaydir voqeani tavsif qilsa bu ma’lumot qayerda berilganligi, qaysi matnga asoslanganligini aniq ko‘rsatib o‘tadi. Asarlarida sanalar, asarlar nomlari, joy nomlari, odamlar nihoyatda e’tibor bilan o‘rganilgan, qayta-qayta tekshiruvdan o‘tgan. Olimada chinakam ilmiylikning talablari mujassamlashgan.

Olmon olimasining O‘zbekistonga mehri shunchalikki, yil ora yurtimizga tashrif buyuradi, simpozium, konferensiyalarni sabab qilib o‘zbek kitobxonlari, tadqiqotchilari bilan suhbatlarda bo‘ladi, o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashadi. Samarqand va Buxoro kabi qadimiy maskanlarni ziyorat qiladi. O‘zbek kitobxonlarining fikri bilan qiziqish, shu bilan birga, o‘z rejalari bilan o‘rtoqlashish olimaning o‘ziga xos xislati desak adashmagan bo‘lamiz. Uning o‘zbek ziyolilari bilan o‘rnatgan do‘stligi-ku alohida tahsinga loyiq. O‘zbek jadid adabiyoti namoyondalari ustida izlanishlari hozirgi o‘quvchilar uchun ham ajoyib manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Olmoniyalik olima Ingeborg Baldauf ko‘pgina tadqiqotlarida XX asr boshlaridagi Turkiston va Buxoro hayotini qalamga olganligi haqida Professor Hamidulla Boltaboyev o‘zining “Fitrat va jadidchilik” nomli kitobida aytib o‘tgan.

Baldauf “Rus va sovet xalqlariga doir yozishmalar” majmuasida nashr etilgan “O‘zbek millatining shakllanishiga doir ayrim mulohazalar” maqolasida 20-yillarda Markaziy Osiyoda o‘tkazilgan milliy davlat chegaralinishi va uning oqibatlariga e’tiborni qaratadi. O‘zbek millatiga nisbatan qo‘llanilgan “sart”, “muslim”, “chig‘atoy”, “turk”, islohotlarining genezislari va ilmiy muomalada qo‘llanilish tarixiga doir mulohazalarini bayon etadi .

Baldauf O‘rta Osiyo jadidlari orasida eng ko‘zga ko‘ringani Fitratdir degan edi. Fitratning “Munozara”sida u ”haqiqat natijasi tasodumi afkor ast”, ya’ni “fikrlar xilma-xilligi haqiqatni anglashga eltadi”, degan iqtibos keltirgani va Fitrat butun umri davomida haqiqat axtargani, bu jarayonda fikrlar xilma-xilligi, qarama-qarshiligi bo‘lishi mumkinligi xususida faqat shiorlar aytish bilangina cheklanib qolmagani, balki haqiqat axtara turib shunday bir darajaga erishganligini, O‘rta Osiyolik bironta mutafakkir bu darajaga erishmaganini ta’kidlaydi.

Fitrat o‘zining ilk asarlaridan biri 1911-yili Istanbulda chop etilgan “Hindistonda bir faranggi ila Buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘on munozarasi”da “haqiqat ixtiyorida bo‘lmoq lozim”, degan jadidcha talabga to‘liq qo‘shiladi va o‘zining jadid mutafakkir kasbdoshlari yoqlagan haqiqatni yoqlab chiqadi. “Munozara”dagi ovrupolik Fitratning o‘zidir. Olima Baldauf Fitratning “Me’roj”, “Zahroning imoni”, “Zayd va Zaynab” asarlari markazida “haqiqat”ning o‘zi emas, balki kishilarning haqiqatga nisbatan subyektiv munosabati turadi deydi.

Olima Fitratga O‘rta Osiyodagi inqilob yillarida faoliyat olib borgan, siyosat bilan madaniyat-ma’rifat orasida arosatda qolgan ziyoli shaxslar guruhining yorqin siymosi Fitrat dongdor ma’rifatparvarlarga qaraganda mufassalroq va chuqurroq sharqona ta’lim ko‘rgan, Islom va O‘rta osiyoning turmush tarzi, ma’naviyati bilan hisoblashgan, jadidchilikda misli ko‘rilmagan chuqur va keng fikrlarni aytganini e’tirof etadi. Din va imonga aloqador asarlari ayricha ahamiyatga ega. Ular mutaffakkir bosib o‘tgan yo‘lni ko‘rsatadi. Fitrat o‘zining pillapoyasidan o‘tayotgan jadidchilikni himoya qilib: mutaassib ruhoniylar va diniy mansabdorlarga qarshi “Munozara”ni yozgan deya qaraydi.

Ingeborg Baldauf Fitratning “Shaytonning tangriga isyoni” she’riy dramasini olmon tiliga tarjima qilib, sharhlar bilan birga nashr etgan. Fitratning 1924-yilda nashr etilgan “Shaytonning tangriga isyoni” nomli dramasi haqida gapirar ekan, dramaga adabiyotshunoslar ham, dinshunoslar ham yetarli e’tibor bermaganini aytadi. Bunga sabab qilib esa pyesaning kam nusxada chiqarilganligi va kutubxonalardan topish mushkulligini ko‘rsatadi. Asarning adabiyot mezonida falsafiy darajasi qanchalik ulug‘ bo‘lsa badiiy tafakkur jarayoniga ta’siri shunchalik kam bo‘lganini, asar sahnaga qo‘yilmaganining sababi esa, avvalo, asarning mazmun mohiyati bilan bog‘liqligini, ijtimoiy-siyosiy hodisalar ham sabab bo‘lganligini ko‘rsatadi. Sahnalariga zamonaviylik shiddat bilan kirib kelgan teatrga “Shaytonning tangriga isyoni” butunlay yod edi. Fitrat hech qachon dramaturglikka, asari zamonaviylikka da’vo qilmagan. Asarning nashr etilganiga qaramasdan, o‘zbek adabiy muhitiga ma’qul bo‘lmagani, o‘zbek teatri taraqqiyotiga hissa qo‘sha olmay sahnadan tushib ketganini ham shunga bog‘laydi .

Baldauf bu asar haqida: ““Shaytonning tangriga isyoni” keng ommaga mo‘ljallangan sahna asaridan ko‘ra tor bir ziyolilar davrasining o‘qib zavq olishi uchun yaratilgan”, - deydi. Zamonaviy Sharq adabiyotida Fitrat yaratgan “Shaytoning tangriga isyoni” dramasiga o‘xshash asar yo‘qdek ko‘rinadi. O‘rta Osiyodagi falsafa va adabiyot islom dunyosidan tobora ajralib borganligi uchun unda “Shaytonning tangriga isyoni”ning izidan boruvchilar ham bo‘lmaganini aytadi. Asar Fitrat ijodida, ehtimol, umuman o‘zbek adabiyotida yagona cho‘qqi sifatida hozirgacha tanho yashab kelayapti deydi.

Olimaning o‘zbek millatining shakllanishiga doir mulohazalari nihoyatda diqqatga sazovorki, o‘zbek xalqining keyingi sakson yillik o‘zgarishlariga sabab bo‘lgan voqealar ildizlarini olima chuqur tekshiradi. O‘z davridayoq bu “o‘zgarish”larni ko‘rib ulgurgan Behbudiy, Fitrat kabi olim va adiblarning ijodini islohotchi nuqtayi nazaridan emas, xalq va millatning kelajagini ko‘ra olgan hamda millatning bunday ayanchli oqibatlariga kelmasligi uchun kurashgan millat qahramonlari nazaridan kelib chiqib o‘rganadi.

Olimaning o‘z ishini sevishi va o‘zbek jadid adabiyotiga bo‘lgan muhabbati ilmiy izlanishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Har bir asar va ijodkorga hurmat bilan qaraganligi esa tahsinga loyiq.

Fitratning esa ikkinchi umriga kichkina bir muqaddima sifatida bosilajak kitoblari, ijodiy-ma’naviy olami,shijoat va zakovat bilan kechgan umri haqidagi ishlar hali oldinda .

Xulosa. Jadid adabiyoti xususan Fitratning adabiy va siyosiy faoliyati xorij olimlari tomonidan keng ko‘lamda va chuqur tadqiq etilayotgan ekan, biz, me’rosxo‘rlar olimning ilmiy-adabiy faoliyatini chuqur o‘rganishga kirishishimiz lozim. O‘rganish barobarida xalqqa targ‘ib etishimiz kerak deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begali Qosimov. Maslakdoshlar.¬-T.:Sharq,1994.
2. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish. – T.:Ma’naviyat, 1999.
3. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – T.:A.Navoiy nomidagi O‘ zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Boltaboyev H. XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi.f.f.d.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoreferati. – T: 1996.
5. Ingeborg Baldauf. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. – T.:Ma’naviyat, 2001.
6. Zulxumor Mirzayeva. XX asr o‘zbek adabiyotining Amerikada o‘rganilishi. –T.: Fan, 2011.

Boxodir ILXAMOV,
Toshkent davlat O‘zbek Tili va Adabiyoti universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti
E-pochta manzili: bilhomov@inbox.ru

REKLAMALARDA FOYDALANILADIGAN SHIORLARNING KELIB CHIQISHI VA ULARNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: globallashuv bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga ta’sir etmay qolmayapti. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalariga yangidan yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Buni o‘rganish tarjimashunoslar va tilshunoslarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *reklamalarda slogan,shiorlarning ishlatilishi, shiorlarning tarixiy asoslari, reklamalarning dastlabki turlari, mamlakatlardagi reklama va shiorlar turlari,reklama jamiyat uchun fikr quroli sifatida, tarjimadagi asosiy xatolar, shiorlar tarjimalaridan namunalar*

Annotation:globalization affects all spheres of society today. The development of modern technologies puts new tasks in the fields of linguistics and translation studies. Studying this is the main task of translators and linguists.

Keywords: *Slogans, use of slogans in advertising, historical foundations of slogans, early types of advertising, types of advertising and slogans in countries, advertising as a tool of thought for society, basic errors in translation, examples of slogan translations*

Аннотация: глобализация сегодня затрагивает все сферы жизни общества. Развитие современных технологий ставит новые задачи в области лингвистики и переводоведения. Изучение этого – основная задача переводчиков и лингвистов.

Ключевые слова: *лозунги в рекламе, использование лозунгов, исторические основы лозунгов, ранние виды рекламы, виды рекламы и лозунги в странах, реклама как инструмент мысли общества, основные ошибки перевода, примеры переводов лозунгов*

Bugungi globallashuv sharoitida xalqlar,millatlar va elatlar o’zaro bir-biriga ta’sir qilib kelmoqda. Zamonaviy inson hayoti bevosita va bilvosita reklamalar va e’lonlar bilan bog’liqdir.Albatta bozor iqtisodiyoti va ommaviy axborot vositalari rivojlangan bir paytda reklamalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xorijiy kompaniya va firmalar o‘z mahsulotlarini dunyo bo‘ylab sotish va marketing yo‘nalishida smaradorlikni oshirish uchun reklamalarni o‘sha xalq tilida yetkazishga harakat qiladi. Albatta ushbu jarayonda tarjima va lug’at bilan bog’liq masalalar yuzaga kelishi mumkin. Tilshunoslikda esa bu sohadagi yechimlarni o‘rganishi va yechimlar berishi asosiy maqsadga aylanadi.

Webster lug’atining 1913-yildagi nashrida “slogan” gel tilidagi “sluagh-ghairm” so’zidan olingan bo’lib” “jangda suron solish” degan ma’noni anglatadi. Uning zamonaviy ma’nosi reklama orqali g’oya yoki maqsadlarni insonlarga yetkazishdir. Shuningdek shior so’zining amerikancha “catchphrase”, “taglines” kabi nomlar bilan mahsulot yoki xizmat tanilishi uchun foydalaniladigan nomlar ham keng tarqalgan.Buyuk Britaniyada esa reklama shiorlari “line” yoki “lines nomlari bilan mashhur.

O‘zbekistonda qadim zamonlardan beri og‘zaki reklama turli shakllarda mavjud bo‘lib, xalqning boy madaniy merosi va an’analariga chuqur ildiz otgan. Og‘zaki reklama, ya’ni mahsulot yoki xizmatlar haqida og‘zaki axborot tarqatish, savdo-sotiq va hunarmandchilik faoliyatining ajralmas qismi bo‘lgan. Og‘zaki reklamalar, avvaliga, mahsulot nomi bilan aytilgan bo‘lsa, keyinchalik mahsulot sifati bilan aytilgan. O‘rta asrlarga kelib esa, qofiyalangan tarzda aytila boshlagan.Misol: Kep qoling,op qoling, birinchi zotiga bir uloq aytdim! Halollab olasan! Ushbu chaqiriqlar hozirgi kunda ham xalq orasida foydalanib kelinadi. Reklama matnidagi asosiy prinsp qisqartirilish bo‘lganligi uchun ajdodlarimiz ham ana shunday prinspga amal qilganligiga yaqqol misol bo‘la oladi. Aslida, morfologik tamoyil asosida yozilsa, “Kelib qoling, Olib qoling!” tarzida aytilishi kerak. Ammo, imkon qadar qisqalik bilan fonemalardan voz kechilib, shu tarzda aytilgan. Bugungi kun bozorlarida yoki ko‘cha savdosida shu chaqiriqlar mahsulot turiga qarab qo‘shimcha birikmalar bilan aytiladi. Misol: 1. Kep qoling, op qoling! Tarvuzlardan yep qoling. 2. Kep qoling, op qoling! Arzon telefon op qoling! 3. Kep qoling, op qoling! Yemaganlar armonda, yeganlar darmonda! kabi ko‘plab versiyalariga guvoh bo‘lamiz.

Og‘zaki reklamalar tarixi ushbu mavzuga doir barcha ilmiy tadqiqotlarning debochasi hisoblanadi. Avvalo, bu turdagi reklamalarning o‘rganilishini rus tilshunosi filologiya fanlari nomzodi Nasonova Yekaterina Anololevna 2003 yili “УстнаярекламавроссииXVIII -XX веков” (XVIII –XX asrlarda

Rossiyada og‘zaki reklamalar) nomli nomzodlik dissertatsiyada “Og‘zaki reklamaning kelib chiqishi asrlarga borib taqaladi. Bu bosqichda mavjud bo‘lgan konsepsiyaga ko‘ra uning paydo bo‘lishi shahar madaniyatining paydo bo‘lgan davriga to‘g‘ri keladi. Og‘zaki ma’lumotlar birinchi shaharlar paydo bo‘la boshlaganda paydo bo‘ldi va savdo-sotiq odamlar hayotiga muqarrar ravishda kirib keldi. Avvaliga tovarlar bir-biriga almashtirildi, keyin pul keldi va u bilan “ishlab chiqaruvchi -savdogar –xaridor” savdo tuzilmalari paydo bo‘la boshladi va bu bosqichlarning har birida mahsulot haqida xabar berish kerak edi deb ta’kidlagan.

O’zbekiston hududida zamonaviy reklama va shiorlarning paydo bo’lishi XX asrning boshlariga borib taqaladi. I. I. Geyer qalamiga mansub, 1908-yilda S. R. Knopka tomonidan Toshkent shahrida chop etilgan “Ves Russkiy Turkestan” kitobidan o‘rin olgan reklama sahifalari keltiriladi. Jumladan, yuqoridagi sahifada bosh ofisi Qo‘qonda bo‘lgan paxtachilik korxonasi haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, Xo‘jand, Samarqand, Yangi Marg‘ilon (Farg‘ona), Asaka, Andijon, Namangan va Shahrixonda ofislari bo‘lgani, 15 ta paxta tozalash zavodi va boshqa ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo‘lgani, 1907-yilda 2 million paxta xomashyosi tozalanganini bilib olish mumkin. Yana bir reklamada esa Moskvadagi savdo uyining Samarqand bo‘limi Turkistonning barcha shaharlarida sifatli choylarni sotishi ma’lum qilingan bo‘lsa, boshqasida Angliya savdo uyining O‘rta Osiyo va Erondagi yagona vakili Toshkent, Qo‘qon, Tehron va Rashddagi omborlaridan o‘z mahsulotlarini sotishi yozilgan.

Bugungi kunda har bir inson iste’molchi hisoblanadi va xarid qilish jarayonida bizga bilvosita va bevosita reklama orqali ko’rsatilgan ta’sir orqali mahsulotlarni tanlaymiz,foydalanamiz. Albatta, ushbu jarayonda xaridorlarga ta’sir qilishning eng samarali usuli bu so‘z orqali reklamada odamlarning miya osti ongiga shiorlarni singdirishdir. So‘zlarning to’g’ri tanlanganligi va uni reklama vositasida insonlarga samarali yetkazilishi muvaffaqiyat kalitidir. Birgina misol qilib, 2022-yil may oyida Amerika Qo‘shma Shtatlarida sayohatchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda respondentlarning 69 foizi, umuman olganda, ta’tilga yoki hech bo‘lmaganda bir kechada tunashga buyurtma berishga reklama ularni undaganliklarini bildirishgan. Bundan tashqari sayohatchilarning 53 foizi o‘z safarlarini bron qilishiga raqamli reklamalar ta’sir ko‘rsatganligini va 24 foizi esa kuponlar yoki maxsus takliflar bilan raqamli reklamalar yordamida o‘z safarlarini tashkil etganliklarini ma’lum qilishgan.

Iqtisodiy jarayonlarda sloganlardan foydalanish fanda yangilik hisoblanmaydi, negaki reklama faoliyati tarixiy davrlar orqali shakllangan hamda taraqqiy etganligi bois sloganlardan mahsulotlarni iste’molchi tomon yo‘naltirishda foydalanib kelinmoqda. Shunday ekan, ushbu yo‘nalish bo‘yicha olimlar o‘z ilmiy izlanishlarini amalga oshirganlar va bu jarayon hozirgacha davom etmoqda. Mazkur sohada ilmiy faoliyat olib borgan olimlar sloganlarning mohiyatini ochishda turlicha yondashishgan. Reklama sohasi bo’yicha marketolog V.Kevorovning ta’kidlashicha reklama mijozni harakatga keltiruvchi kuchdir.

Yana bir rus olimi A.Pankruxin slogan (shior) ni eslab qolish oson bo‘lgan ikki yoki to‘rtta so‘zdan iborat ibora deb ta’kidlaydi. Bu buklet, referat yoki katalogga qaraganda kompaniya yoki mahsulot haqida ko‘proq ma’lumot beradigan vositadir. Shiorning ta’sirchanligi uning axborot mazmuniga ham bog‘liqligi sababli u doimo mahsulot haqida axborot berib turishi kerak. Shuning uchun u shiorni yaratishda asosiy vazifa iste’molchiga ta’sir qiladigan maksimal ma’lumotni taqdim etish kerakligini asoslab beradi. Ayrim tadqiqotchilar brendni slogan bilan birlashtirish muhim ekanligini ta’kidlashadi. Negaki bunday yondashuv sloganni yodga olishni hamda brend haqidagi tasavvurni eslashga ijobiy xizmat qiladi deb hisoblashadi.D.Richardson va D.Koen AQSh shtatlari va shaharlarining imijini o‘rganar ekan, shiorni shakllantirish uchun asosiy talablar iyerarxiyasini ishlab chiqdilar. Ularga ko‘ra, hududning shiori uchun: shiorda jumla bo‘lishi kerak; taklif bitta yoki bir nechta mahsulot bilan cheklanishi kerak; taklif bozorni (turistlarni) qiziqtiradigan imtiyozlarni ifodalashi kerak; imtiyozlar noyob bo‘lishi va maqsadni raqobatchilardan farqlash imkonini berishi kerak, deb hisoblaydi.Boshqa bir guruh olimlar esa slogan hududning mavjudligi va uning asosiy faoliyatining ma’nosini o‘z ichiga oladi va hududning brendini yaratish uchun strategik vosita ekanligini izohlashgan. N.Gali va J.Donairening tadqiqotlarida brend uchta elementdan iboratligini, ya’ni ular brend nomi, logotip va shior ekanligini ta’kidlashadi. Ularning fikriga ko‘ra, bu elementlarning barchasi muhim ahamiyatga ega va brend imijini shakllantirishda turli vazifalarni bajaradi. Ularning fikricha, brend nomi va logotiplar axborotni yetkazish imkoniyati cheklanganligi, ammo shior bu bo‘shliqni qisman to‘ldirishi mumkinligini izohlashadi. Mahalliy olimlarimiz Sh.Dj.Ergashxodjayeva, A.N.Samadov, N.E.Alimxodjayeva, I.B.Sharipovning fikriga ko‘ra, reklama matni, qoidaga ko‘ra, sarlavha, izoh va xulosadan iborat bo‘ladi. Sarlavha (slogan) matnga e’tiborni jalb qiladi, xaridorni qiziqtirib qo‘yadi. Izohdan maqsad – reklama qilinayotgan obyektni uning foydaliligi isbotlarini keltirgan holda ko‘rsatishni hamda xulosadan esa xaridorlarni taklif etilayotgan tovarni xarid qilishga ishonch bilan ko‘ndira olishi kerak bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki har qanday zamon va makonda reklamalarga bo’lgan ehtiyoj mavjud va ularni iste’molchilarga to‘g’ri yetkazib berish jamiyatning turli xil soha vakillari,jumladan tilshunos-

tarjimonlarning vazifasidir. to‘g’ri tarjima qilingan matnlar va tanlangan so’zlar tarjima sifatini yanada oshiradi va bu o‘z navbatida jamiyat savodxonligiga ta’sir o‘tkazadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Насонова Екатерина Анатольевна.Устная рекламавРоссии XVIII-XX веков: Дис. ... канд. филол. наук: 10.01.10 :Москва,2003191 cD.
2. Karnedi. – URL: http://www.ijser.org/paper/The-Translation-of Neologisms- Challenges-for-the-Creation-of-New-Terms.html
3. Нелюбин Л.Л. Введение в технику перевода (когнитивный теоретико- прагматический аспект). М.: Изд-во Флинта: Наука, 2009.
4. O‘zbekiston Madaniyati Tarixi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi,. –T., 2007
5. Mukhtarov R., O‘rta asr O‘zbekiston shaharlari tarixi, –Toshkent, 1976.
6. O‘zbekiston xalq maqollari to‘plami. – T.: “Hilol”, 1960.



Munisa ABDUAZIZOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
munisa.abduazizova@bk.ru

KONSEPT NAZARIYASI VA UNING TARKIBIY TUZILISHI TAHLILI

Annotatsiya: hozirgi vaqtda «konsept» tushunchasi tilning semantik imkoniyatlarini tavsiflashda keng qo‘llaniladi. Zamonaviy tilshunoslikda konsetsiya nazariyasini yaratishga doir urinishlar olib borilmoqda, ammo ushbu masalaga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarga qaramay, «konsept» tushunchasi borasida aniq bir ilmiy nazariya yo‘q va bu atamaning mazmuni sezilarli darajada farq qiladigan turli xil tushunchalar mavjud. Maqolada konsept nazariyasiga oid ilmiy ishlar tahlili va nazariy talqinlar keltirilib, antroposentrik paradigma doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda konseptual yondashuvning ahamiyati borasida fikr yuritilgan. Jahon tilshunosligida konsept nazariyasining evolyutsiyasi va uning tarkibiy tuzilishi xususidagi qarashlar ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *tushuncha, kognitiv lingvistika, struktura, tushuncha yadrosi, metafora, epitet, o‘xshatish, personifikatsiya.*

Аннотация: в настоящее время понятие «концепт» широко используется для описания семантических возможностей языка. В современной лингвистике предпринимаются попытки создать теорию концепта, но, несмотря на множество исследований, посвященных этому вопросу, не существует четкой научной теории о понятии «концепт» и существуют различные понятия, существенно различающиеся по смыслу этого термина. В статье представлены анализ и теоретические интерпретации научных работ, связанных с теорией концептов, а также обсуждается значение концептуального подхода в научных исследованиях, проводимых в рамках антропоцентрической парадигмы. В мировой лингвистике на научной основе анализируются взгляды на эволюцию теории концептов и ее структурную структуру.

Ключевые слова: *концепт, когнитивная лингвистика, структура, ядро концепта, метафора, эпитет, сравнение, персонификация.*

Annotation: currently, the concept of «concept» is widely used to describe the semantic possibilities of the language. Attempts are being made to create a concept theory in modern linguistics, but despite many studies devoted to this issue, there is no clear scientific theory about the concept of «concept» and there are various concepts that differ significantly in the meaning of this term. The article presents the analysis and theoretical interpretations of the scientific works related to the concept theory, and the importance of the conceptual approach in the scientific research carried out within the framework of the anthropocentric paradigm is discussed. In world linguistics, the views on the evolution of concept theory and its structural structure are analyzed on a scientific basis.

Key words: *concept, cognitive linguistics, structure, core of concept, metaphor, epithet, simile, personification.*

Kirish. Gumanitar fanlarning rivojlanishi an'anaviy ma'no va ma'noning funksional cheklovlarini olib tashlaydigan, mantiqiy-psixologik va lingvistik kategoriyalarni birlashtiradigan, lingvistik belgining mazmunini yetarli darajada aks ettiradigan yangi atamani ishlab chiqish uchun imkoniyat yaratdi. Har qanday fan, xususan, tilshunoslik ham aniq va umume'tirof etilgan ta'rifga ega bo'lmagan tushunchalarga ega. Har bir tadqiqotchi nazariya ishlab chiqishda yakuniy xulosa sifatida o'z tushunchasini taqdim etadi va mutaxassislar tomonidan kiritilgan bir qator atamalar vaqt sinovidan o'tib, foydalanish chastotasiga tayangan holda fanda ommalashadi yoki aksincha nazariya o'laroq ilmiy tahlillarda saqlanib qoladi. Ilmiy tahlillarning ko'payishi bir qator raqobatdosh nominativ birliklarning paydo bo'lishiga olib keldi. Masalan, 1990-yillarda rus lingvistikasida «konsept» atamasi «konsepsiya» (Lixachev, Stepanov, Lyapin, Neroznak va boshqalar) «lingvokultura» (Vorobyev), «mifologema» (Bazylev), «logoepisteme» (Vereshchagin, Kostomarov, Burvikova) kabi terminlar bilan raqobatda bo'lgan. Biroq, so'nggi yillarda «konsept» atamasi qo'llanish chastotasiga ko'ra boshqa barcha terminlardan ancha oldinda ekanligi ma'lum bo'ldi.

Asosiy qism. «Konsept» atamasi tilshunoslar tomonidan matematik mantiq fanidan olingan. «Konsept» kognitiv fan, metafizika va falsafada o'rganiladi. Ushbu atama Aristotelning «Klassik tushunchalar nazariyasi» ta'rifidan kelib chiqqan [1]. Keyinchalik Gottlob Frege tomonidan konsept mazmuni qisman ochib berilgan. Olim 1892-yilda til falsafasida tushuncha va obyekt o'rtasidagi farqni aniqladi. Fregening fikriga ko'ra, fikrni ifodalovchi har qanday jumla obyektni bildiruvchi ifoda va predikatdan iborat [8: 42-55]. Ushbu atama kognitiv tilshunoslikda faol qo'llaniladi. Shunday qilib, tilshunoslikda «konsept» ham eski, ham yangi atamadir. «Conceptus» so'zi loincha «concipere concapere» fe'lidan olingan bo'lib, «homilador bo'lish» degan ma'noni anglatadi. Klassik lotin tilidan esa «conceptus» so'zi «hovuz» deb tarjima qilinadi. Ma'lumki, klassik lotin tili deganda roman va german tillari tushuniladi va ushbu termin turli tillarda farqli talaffuz shakllarida uchraydi: fransuzcha «koncevoir», italyancha «concetto concepire», ispancha «consepto concebir», portugalcha «conceito conceber», inglizcha «concept». Ko'pgina yangi ilmiy tushunchalar singari, «konsept» ham ma'lum darajada «pafos» bilan fanga kirib keldi va olimlar una metaforik izohlar bilan yondashdilar: «ko'p o'lchovli tuyg'ular klasteri», «hayotning semantik qismi» [2: 10-63], «madaniyat geni» [10: 104-118], «ma'noning kuchi» [15: 32], «xotira birligi», «bilim kvanti», «tumanli tushuncha» [11: 267]. Hozirgi kunda «konsept» atamasi tilshunoslikning turli sohalarida keng qo'llaniladi. U kognitiv, semantik va madaniy tilshunoslikning shartli tizimiga kirdi [4]. Zamonaviy tilshunoslikda konsept nazariyasini o'rganish juda muhim ahamiyatga ega. Biroq, konseptning mohiyatiga doir xilma-xil nuqtai nazarlar bo'lsa-da, mukammal izoh hanuz mavjud emas. Kognitiv tilshunoslik sohasida olib borilgan jadal izlanishlar «konsept» atamasini tushunishda katta nomutanosiblikni ko'rsatdi. Bu holat noaniqlik va terminologik chalkashliklarni keltirib chiqaradi [12: 696]. Shunday qilib, «konsept» atamasi bir nechta ilmiy yo'nalishlar uchun umumiy atamadir. Birinchi navbatda fikrlash va bilish, ma'lumotlarni saqlash va o'zgartirish bilan shug'ullanadigan kognitiv psixologiya va kognitiv lingvistikaa, shuningdek, lingvomadaniyatshunoslik sohalaria xos termin sanaladi. Rus olimi J.Stepanovning fikricha, «tushunchalar shunchaki suhbat parchalari, lekin ular ongimizni bizga anchadan beri tanish bo'lgandek mazmun yaratishga majbur qiladiki» . Kontsept kollektiv ongning diskret birligidir, ya'ni ona tilida so'zlashuvchilarning milliy xotirasida aniq shaklda saqlanadi. Ushbu terminni qisqacha tushuncha vazifasini bajaradigan boshqa birliklardan tuzilgan «bilim birligi» sifatida ta'riflasa ham bo'ladi [5: 51]. Tilshunoslikda konsept tushunchadan farqli ravishda ancha murakkab tuzilishga ega. Konseptning mazmuni lingvistik ma'no va madaniy ma'noga bo'linadi. Shuning uchun ham u ko'pinca bilim birligi, mavhum g'oya yoki aqliy belgi deb ataladi. V.Evansning fikriga ko'ra, tushunchalar so'zlar va ekstralingvistik haqiqat o'rtasidagi vositachilardir [7]. Faqat voqelik hodisalari ma'lum bir madaniyatga tegishli, muayyan millat vakillari uchun qadrli bo'lsagina konseptga yalanishi mumkin. Tilshunoslikning hozirgi taraqqiyot bosqichida konseptni tushunishga doir bir nechta yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Turli millat tadqiqotchilari konseptni lingvistik-kognitiv, psixolingvistik, lingvomadaniy hodisa sifatida ko'rib chiqadilar. Har bir yondashuv, ma'lum xususiyatlar asosida kontseptsiyaning o'ziga xos chegarasini ta'kidlaydi.

Konseptning til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadigan roliga asoslangan ikkita yondashuv mavjud:

✓ Birinchi yondashuvga ko'ra konsepsiya madaniyatni akslantiruvchi va madaniyatdan ta'sirlanuvchi hodisa sifatida talqin qilinadi. «Konseptlar - bu o'z-o'zini tashkil etuvchi, integratsiyalashgan, funktsional tizimli, ko'p o'lchovli, ideallashtirilgan shakllardir. Konsept madaniyatning tipik holatlarini tavsiflaydi va madaniyatshunoslik fanining predmeti hisoblanadi" [15: 45]. J.Stepanovning fikricha, «konseptsiya» insonning ruhiy dunyosidagi asosiy «madaniy hujayradir» [17: 248]. Bu qarashga ko'ra, konsept shaxsning dunyoning ma'lum bir segmenti haqidagi bilimini ifodalovchi aqliy tuzilmadir. Dunyo umumiy manzarasining bir qismi bo'lgan konseptsiya individual shaxs va butun til hamjamiyatining qadriyatlari tizimini aks ettiradi. Bu shuni anglatadiki, konsept ona tilida so'zlashuvchilarning individual xususiyatlari bilan bir qatorda umumiy xususiyatlarini ham o'z ichiga olishi mumkin. Konseptni madaniy nuqtayi nazardan tahlil qilar ekanmiz, konsepsiya mazmuni muayyan

madaniyat va davr doirasida qolib ketishini yodda tutish kerak.

✓ Ikkinchi yondashuv vakillari kontsepni lingvistik-kognitiv hodisa sifatida tahlilga tortishni taklif qiladilar. Ularning fikricha, konsept – bu jamiyat a'zolariga tanish va ular biladigan borliq hosilalari haqida batafsil ma'lumot. V.Neroznak ta'kidlaganidek, konsept mavhumlangan va dunyoning milliy manzarasining bir parchasini aks ettiruvchi ajoyib obrazdir [16: 80-85]. Lingvistik-kognitiv yondashuvga ko'ra, konseptning reallashuvi og'zaki ifoda vositalari bilan bog'liq. Til konseptologik tizimni shakllantirmaydi, balki ularni almashish va muloqot jarayonida muhokama qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tilda konsepsiyani alohida so'zlar va bir ifoda orqali ham, uzun jumlalar va matnlar orqali ham og'zaki ifodalash mumkin. Og'zaki reallashuv shaklini tanlash so'zlovchining shaxsiy fikrlashi, aqliy salohiyati va ichki leksikoniga ham bog'liq. Konseptni fikrning struktual birligi sifatida tushunish bilimlarni turkumlashtirishga imkon beradi. Chunki kontseptsiyaning obyekti intellekt bo'lib, uning shakllanishi abstraktsiya shakli bilan belgilanadi va uning modeli tushuncha bilan belgilanadi, u nafaqat obyektni tavsiflaydi. balki uni yaratadi. Shu boisdan ko'rinib turibdiki, tushunchalarni har tomonlama o'rganish so'nggi yillarda tilshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Konseptsiyaning tuzilishini tahlil qilish alohida qiziqish uyg'otadi.

Stepanovning fikriga ko'ra, konsepsiya «qatlamli» tuzilishga ega, uning qatlamlari turli davrlarning madaniy evolyutsiyasi natijasidir. Konseptning universal struktual tuzilishi quyidagicha:

✓ Asosiy (sinxron) ma'no qatlami;
✓ Qo'shimcha (passiv, tarixiy) qatlam;
✓ Ichki (etimlogik) qatlam.

Ichki (etimlogik) qatlam boshqa barcha ma'no qatlamlari qurilgan poydevor sifatida qaraladi [17]. Konseptning tuzilishi xususida boshqa nuqtayi nazarlar ham mavjud. G.Slyishkin va V.Karasik madaniy konseptni ko'p o'lchovli mazmunli konstruktsiya sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladilar. Konsept «kuchli» nuqta atrofida hosil bo'ladi, undan assotsiativ vektorlar ajralib chiqadi. Til birliklari yordamida konsept ongda namoyon bo'ladi. Bitta kontseptsiyaga murojaat qilish uchun leksemalar, idiomalar, birikmalar va gaplar va matnlardan foydalanish mumkin. Olimlar kontseptsiya tarkibida to'rtta zonani ajratib ko'rsatadilar:: asosiy (intrazona, ekstrazona) va qo'shimcha (kvaziintrazona va kvaziekstrazona) zona. Intrazona kontseptsiyaning o'z denotatumini aks ettiruvchi, assotsiativ ravishda yoda tushadigan ma'nolarini qamrab olgan qatlam. Qo'shimcha zonaga bevosita va bilvosita hayotda keladigan xususiyatlar kiradi. Kvaziintrazona va kvaziekstrazona tushuncha nomining boshqa so'zlar bilan uyg'unligi, evfemizmlar va boshqalar yordamida hosil bo'lgan rasmiy assotsiatsiyalar bilan bog'lanadi (Karasik, Slyshkin, 2001). V.Evansning fikricha, tushunchalar ichki jihatdan maydon xususiyati bilan tartibga solinadi va hissiy tasvir, axborot mazmuni va izohli maydonni o'z ichiga oladi. Tushuncha tarkibidagi hissiy obraz perseptiv kognitiv xususiyatlar orqali shakllanadi. Bu xususiyatlar ona tilida so'zlashuvchilarning ongida paydo bo'lib, a'zolari orqali atrof-muhitni aks ettiradi. Tasviriy xususiyatlar narsa va hodisalarning metaforik talqinini tashkil qiladi [7]. Umuman olganda, konseptning tuzilishini doira shaklida ifodalanish mumkin. Asosiy tushuncha, ya'ni kontseptsiya yadrosi - tuzilmaning markazida bo'lib, uning chetida madaniyat, an'analar va odamlarning shaxsiy tajribasi hosilalari o'rin oladi. Lingvomadaniy kontseptsiya boshqa psixik birliklardan qadriyat komponentining mavjudligi bilan farqlanadi. Qadriyat har doim konseptning markazida. Lingvo-konseptsiya farqlovchi baholovchi, obrazli va kontseptual komponentlardan iborat. Kontseptsiyaning shartli komponenti og'zaki shaklda saqlanadi. Majoziy komponent og'zaki bo'lmagan va ko'pi bilan tavsiflanishi yoki talqin qilinishi mumkin. Konsept o'ziga xos giperonimik (umumiy atama) sifatida tasvir, tushuncha va qisqargan shakldagi ma'no kabi semiotika kategoriyalarini o'z ichiga oladi va geterogen sifatida tavsiflanadi. Konsepsiya diskursiv ma'no ifodasini tushunchadan, so'zlardan olgan, tasvirni metafora va emotivlikni o'zlashtirdi va ma'nodan ism (tushuncha) tarkibini oldi.

Xulosa. Ma'no talqin qiluvchi tushunchalar doimo takomillashtiriladi va o'zgartiriladi. Tizimning bir qismi sifatida ular boshqa tushunchalar ta'sirida bo'ladi va o'zgartiriladi. Talqin qilish imkoniyatining o'zi shuni ko'rsatadiki, ko'plab konseptlar o'zgarishi mumkin, chunki atrofimizdagi dunyo doimo o'zgarib turadi, bizga yangi narsalarni o'rganish imkoniyatini beradi. Konsept nazariyasi, fikrlash va tushunish jarayonlarini o'rganadigan kognitiv psixologiyada muhim o'rin tutadi. U odamlarning dunyo haqidagi bilimlarini qanday tashkil qilishlarini, ma'lumotlarni qanday tushunishini va kategoriyalarni qanday hosil qilishini tushunishga qaratilgan. Konseptlar, oddiy qilib aytganda, bizning fikrlashimiz uchun «qurilish bloklari»dir. Ular obyektlar, hodisalar yoki g'oyalar guruhlarining umumiy xususiyatlarini aks ettiruvchi mental modellardan iborat. Konsept qat'iy bo'lmagan ma'lum bir tuzilishga ega; kontseptsiyaning mavjudligi va uning kontseptual sohaga kirishi uchun zaruriy shartdir. Kontseptsiya hodisaning barcha psixik xususiyatlarini o'z ichiga oladi va voqelikni tushunishni ta'minlaydi. Shaxs ongida tartibli tushunchalar to'plami uning konseptual sohasini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotle1998. Nicomachean Ethics. USA: Oxford University Press.
2. Bloom, Howard, The Global Brain: The Evolution of Mass Mind from the Big Bang to the 21st Century. (2000)

John Wiley & Sons, New York.
3. Clark H., Marshall C., 1981. Definite Reference and Mutual Knowledge. Elements of Discourse Understanding. Cambridge University Press.
4. Croft W., Alan D., 2004. Cognitive Linguistics. The UK CUP.
5. Dillon J. 2000. The Question of Being in: Jacques Brunschwig, Geoffrey E. R. Lloyd (eds.), Harvard University Press.
6. Encyclopaedia Britannica 2008, Concepts in Linguistics, CD.
7. Evans V. 2009. How Words Mean. New York. OUP.
8. Frege, G. On Concept and Object», originally published as Über Begriff und Gegenstand in Vierteljahresschrift für wissenschaftliche Philosophie 16, 1892.
9. Simpson P. 2004. Stylistics. Routledge.
10. Talmy L. 2000. Toward a Cognitive Semantics, Volume 1Concept Structuring Systems. The MIT Pressp. .
11. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста. М.: Academia, 1997..
12. Грузберг Л.А. Концепт // Стилистический энциклопедический словарь русского языка. М.: Флинта: Наука, 2006. .
13. Карасик В. И., Слышкин Г. Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики: Сб. науч. тр. / Под ред. И. А. Стернина. - Воронеж: ВГУ, 2001.
14. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. М.: Academia, 1997.
15. Ляпин С.Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты. Вып 1. - Архангельск, 1997.
16. Нерознак В.П. От концепта к слову: к проблеме филологического концептуализма // Вопросы филологии и методики преподавания иностранных языков. Омск, 1998.
17. Степанов Ю.С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. М.: Языки славянских культур, 2007.

Gulnoza DJURAKULOVA,
O‘z.FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
tayanch doktoranti

O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDA “OT EGARLASH” EPIK FORMULASI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek xalq dostonlarida ot egarlash tasviri bilan bog‘liq epik formulalar va ularning badiiyati haqida so‘z boradi. Epik formulalarning xalq baxshilari repertuaridagi o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi.
Kalit so‘zlar: *xalq dostonlari, xalq baxshilari, badihago‘ylik, epik klishe, epik formula, ot egarlash tasviri.*
Аннотация: в статье анализиются эпические формулы и искуство изображение седловка лошадей, используемые в народных эпосах. Изучено роль эпических формул в эпосе.
Ключевые слова: *народные эпосы, импровизация, эпические клише, эпические формула, изображение седловка лошадей.*
Annotation: the article describes the epic formulas and description of horse saddling used in Uzbek folk epos. The role of epic formulas in the repertoire of folk whistles has been studied.
Key words: *folk epic, improvisation, epic cliché, epic formulas, description of horse saddling.*

Xalq dostonlarining mazmunini chuqur, to‘g‘ri anglashda va badiiyatini tadqiq etishda barqaror epik formulalar, ularning mohiyatini, an’anaviylik darajasini, har bir formulaning doston matnida ado etgan vazifalarini aniqlab olish katta ahamiyatga ega. Zero, “epik formula bu eposning yadrosidir. Biz epik formulaning nima ekanligini tushunmay, biror bir doston mohiyatini anglab yetolmaymiz” [12.139].

Xalq eposida an’anaviy ot obrazi muhim komponentni tashkil etadi. Botirning g‘aroyib hodisalarga boy sarguzashtlarida ot unga sodiq do‘st sifatida xizmat qiladi. Dostonda ot obrazining yanada mukammal tasvir topishida u bilan bog‘liq epik formulalar salmog‘i yanada aniq ko‘rinadi. Barcha an’anaviy dostonlarda qahramonning safar oldidan o‘zining sodiq yo‘ldoshi otni yo‘lga tayyorlash jarayoni deyarli bir xil ko‘rinishda kuylanadi. Bu o‘rinda qahramon, uning tulpori va otni egarlab beruvchi shaxsgina o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Aksariyat dostonlarda tulporni bahodirning o‘zi egarlamaydi. Masalan: “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Umir baxshi Safarov, Avliyoqul Mardonaqul o‘g‘li, Po‘lkan shoir va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li hamda Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlarida Boychibarni Qaldirg‘och oyim safarga tayyorlasa, Berdiyor Pirimqul o‘g‘li variantida otni Alpomishning

o‘zi egarlaydi. Ayrim dostonlarda bu vazifani soqi yoki sinchilar bajaradi. Xususan “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dostonlarda bu mas’uliyatli ish Soqibulbul zimmasiga yuklanadi [6], “Shirin bilan Shakar” dostonida ayni yumushni qahramonning yori Gulgun maromiga yetkazib uddalaydi.[8]

Ma’lumki, jangovar otni egarlash o‘ziga xos udum va tartib-qoidalarga ega. Avvalo, tanlangan ot (tanlash jarayoni alohida an’analarga ega) olib kelinib, yakka mixga boylanadi. Ayni shu qismdan epik formulalar qo‘llanila boshlaydi.

O‘zbek xalq romanik dostonlari tadqiqotchisi S.Mirzayeva ot egarlash jarayoni Xudoga murojaat qilish, undan madad tilash bilan boshlanishi haqida yozgan. [11.202] Aslida ot egarlash jarayoni sakral mazmunga ega muqaddas marosim shaklini olgan, chunki alpning oti va uni tarbiyalovchi sayis ilohiy maqomda anglangan. Shu sababli ham dostonlardagi ot egarlashning quyidagi ko‘rinishda boshlanishi asl mohiyatga yaqin turadi:

O‘tar dunyo, qiyomatni o‘yladi,
Davlati bor odam cho‘qday jaynadi,
Yetaklashib kelib, jonvor Chiborni,
Olib kelib gul tablaga boyladi. [1.32]

“Alpomish” dostonidan keltirilgan ushbu epik formulada ifodalanayotgan dunyoning o‘tkinchiligi, qiyomatning mavjudligi haqidagi diniy-falsafiy qarash fikrimizni tasdiqlaydi. “Ravshan” dostonining Ergash Jumanbulbul variantidagi otning yakka mixga boylanish tasvirida ham yuqoridagi epik formula qo‘llangan va dostonlarning ayni tasvirida mazmunan yaqinlikni vujudga kelgan.

O‘tar dunyo o‘tarini o‘yladi,
Yosh bachchade, turli-turli so‘yladi.
Olib chiqib Jiyronqushni dalaga,
Olib kelib, yakka mixga boyladi. [7]

Doston ijrosi jarayonida epik formula misralari bilan asosiy epik bayon yagona qofiya hamda vazn vositasida uyg‘unlashadi. Keyingi misralarda keltirilgan epik formulaning birinchi misrasi otning pirlar nazari tushgan asl tulpor sifatida tanlangan ekanligini bog‘bon o‘z bog‘ida ochilgan gulning eng sarasini olishiga qiyoslanadi.

Bog‘bon terar bog‘ning toza gulini,
Mardlar ochar og‘ir kunda yo‘lini.
Ayil-pushtanini chechib bedovning,
Shipirib ustidan oldi zulini. [7.15]

Epik formulaning ikkinchi misrasi bedov mingan qahramon Xudo yo‘lini ochsa, o‘z istagan maqsadiga yetadi, degan mazmunni yetkazishga xizmat qiladi. Ot egarlash jarayonida dastlab otning ustidagi jabduqlar olinadi. Dastlabki anjomlar solinishidan avval otni mukammal ko‘zdan kechirish va tetiklantirib olish maqsadida tanasi qashlab chiqiladi. “Ravshan” dostonining Ergash Jumanbulbul variantida bu harakatni jo‘rob va qashov orqali bajarilishi kuylanar ekan: “Ishonim yo‘q mo‘minlarning joniga, Shahid o‘lgan bo‘yaladi qoniga” [7.] shaklidagi epik formula keltirilsa, Po‘lkan Shoir ijrosida formulaning “Kuygan odam shart uradi soniga, Shahid o‘lgan bo‘yaladi qoniga” tarzidagi varianti kelishini kuzatamiz. [1.]

Ot egarlash jarayoni tulpor uchun mo‘ljallangan maxsus egar-abzallarning botartib qo‘yilishi va o‘ziga xos an’anaviy xatti-harakatlardan tashkil topadi. Ot ustiga qo‘yiladigan anjomlarning dastlabkisi terlik hisoblanadi. Shu sababli mayin kimxob terlik bismillo deb otning ustiga qo‘yilishi aytiladi. Terlik bilan bog‘liq tasvir o‘rganilsa to‘rtlikda terlik so‘ziga ohangdosh bo‘lib kelayotgan so‘zlar muhim o‘rin tutayotganligini ko‘ramiz. Zero, taniqli rus olimi Ye.D.Polivanov ta’kidlaganidek, ohangdoshlik turkiy tillarda poetik texnikaning asosiy uslublaridan hisoblanadi. Turli baxshilar kuylagan ushbu tasvir variantlarini qiyoslab o‘rganganimizda ushbu holat namayon bo‘ladi:

Bulung‘ur dostonchilik maktabi	Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi		
Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li	Ergash Jumanbulbul o‘g‘li	Po‘lkan baxshi	Rahmatulla Yusuf o‘g‘li
Osha elga oshgan totar *xo‘rlikni,* Bek Alpomish qilar bugun *erlikni*, Bismillo, deb soldi otning ustiga,	Olis yurtdan oshgan tortar *xo‘rlikni*, Bedov mingan yigit qilar *erlikni*, Ot beliga qo‘ya	Osha yurtga oshgan ko‘rar *xo‘rlikni*, Bedov mingan yigit qilar *zo‘rlikni*,	Osha elga borgan tortar *xo‘rlikni*, Avaz o‘g‘lon bugun qilar *erlikni*, Bismillo deb soldi otning beliga,

Kimxobi mayindan bo‘lgan *terlikni*.	berdi bek Ravshan, Toza ipak, mayin, qalin *terlikni*..	Bismillo, deb olib qo‘ydi beliga, Ichi mayin, tashi baxmal *terlikni*.	Kimxobi mayindan bo‘lgan *terlikni*.

Misralarda xo‘rlik, erlik, terlik so‘zlari o‘zaro qofiyalanib kelayotgan bo‘lsa, faqat Po‘lkan shoir variantida erlik so‘zi zo‘rlik shakliga o‘zgargan. Mazmunan olib qaralsa dastlabki ikki misraning keyingi harakatga u qadar aloqasi yo‘qdek ko‘rinadi. Chindan ham osha yurtga borib, xo‘rlik tortib zo‘rlik ko‘rsatishning terlikning qo‘yilishiga bevosita bog‘langan joyi yo‘qdek tuyuladi, ammo bu otning egarlanib jo‘nashi mantig‘ida bilvosita harakat va tasvirning bog‘liqligi kelib chiqadi. Bu xildagi uzviy bog‘liklik ot egarlash jarayonidagi barcha jihozlar qo‘yilishi tasviridagi epik formulalarga ham tegishlidir.

Ketma-ketlik an’anasiga ko‘ra terlikdan keyingi ot ustiga qo‘yiladigan anjom bu chirgidir. Chirgidan so‘ng bellik, undan keyin esa jahaldirik keladi. Chirgi – otning ustiga yopiladigan maxsus yopinchiq, bellik – otning beliga egar botib, yag‘ir bo‘lib qolmasligi uchun qo‘yiladigan anjom, Jahaldirik – egarning ikki yonboshi ostiga qo‘shiladigan bir juft ot abzali. Dostonlarda ham ot egarlash an’anasi hayotdagi tartibga mos holda tasvirlanadi. Bu anjomlar joylanish ketma- ketligi tasvirda quyidagi ko‘rinishda ifodalangan:

Bulung‘ur dostonchilik maktabi	Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi		
Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li	Ergash Jumanbulbul o‘g‘li	Po‘lkan baxshi	Rahmatulla Yusuf o‘g‘li
Mard bo‘lganlar qaraydakan durbini, Ustalar ishlatar po‘lat qirg‘ini, Shul zamonda soldi otning ustiga Zarliyu zarbobdan bo‘lgan *chirgi*ni. Chirgining ustidan qo‘ydi *bellik*ni, Boz ustidan soldi *jahaldirik*ni.	Mard bo‘lganlar qo‘lga olar durbinni, Ustalar ishlatar keskir qirg‘ini, *Terlik*ning ustiga soldi *chirgi*ni, Chirgining ustidan qo‘ydi *bellik*ni, Bellikning ustidan *jahaldirik*ni.	Olis borgan olib kelar belgini, Ustalar qo‘liga olar qirg‘ini, *Terlik*ning ustiga soldi *chirgi*ni, Chirgining ustidan qo‘ydi *bellik*ni, Bellikning ustidan *jahaldirik*ni.	Mard bo‘lganlar ko‘rar ekan durbini, Ustalar ishlatar po‘lat qirg‘ini, Bismillo deb soldi otning beliga, Zarligu zarbobdan bo‘lgan *chirgi*ni Chirgining ustida qo‘ydi *bellik*ni Boz ustidan tashlab *jahaldirik*ni.

Baxshi doston kuylar ekan, voqelik bayoninini an'anaviy epik formulalarga tayanib kuylaydi. Baxshi shoirning mahorati bu formulalardan qanday foydalana bilishi va ularni muayyan epos voqeligiga mos ravishda yangicha talqin etishida ko'rinadi. Barqaror epik formulalar an'anaviy epik axborot-epik xotirani o'zlarida jamlab olganliklari sababli har doim ayni bir epik sharoit tasvirida qo'llanilib, qahramonlar nutqini, o'y-kechinmalarini, maqsadini, xatti-harakatlarini ifodalash uchun imkoniyat yaratadi. Ot egarlash jarayonidagi eng muhim harakat -egarning ot beliga o'rnatilishi hisoblanadi. Ushbu jarayonda ham baxshi-shoirning badiiy mahorati uning so'z sezimi an'anaviy epik formulalardan unumli va o'rinli foydalanishida ko'rinadi. Masalan:

Bulung'ur dostonchilik maktabi	Qo'rg'on dostonchilik maktabi		
Fozil Yo'ldosh o'g'li	Ergash Jumanbulbul o'g'li	Po'lkan baxshi	Rahmatulla Yusuf o'g'li
Mullalar o'qiydi zeru *zabarni,* Ustalar chopadi tesha-*tabarni* Bismillo, deb soldi otning ustiga, Tilla korson, qoshi oltin *egarni*.	Mullalar o'qiydi zeru *zabarni*, Ustalar ishlatar tesha, *tabarni,* Boz ustidan qo'ya berdi bek Ravshan, Tilla qoshli, karsani kumush *egarni*.	Nahalgar ishlatar po'lat *tabarni,* Mullalar o'qiydi zeru *zabarni,* Astagina olib bosdi beliga, Tilladan choptirgan sirpoy *egarni*.	Mullalar o'qiydi zeru *zabarni,* Ustalar chopadi tesha-*tabarni,* Bismillo deb bosdi otning ustiga Tillakorson, olqor mugiz *egarni*.

Ko'rib turganimizdek, egarni otning ustiga qo'yish tasvirida baxshi-shoirlar mazmunan bir xil, faqat shaklan qisman farqlanuvchi barqaror epik formulalardan foydalanganlar. Bu holat improvizatsiya jarayoniga bog'liq hodisa sanaladi. Akademik T.Mirzayev haqli ta'kidlaganidek: "Ustoz shogirdning improvizatsiya qobiliyatini, ya'ni yodlab olingan an'anaviy misralar, epik klishelar asosida yangilarini to'qiy olish qudratini, ularni tasvir vaziyatiga qarab turli xil stilistik o'zgarishlar bilan qo'llay bilish san'atini o'stirishga alohida e'tibor beradi" [9.172]. Shu o'rinda "Mullalar o'qiydi zeru zabarni, Ustalar ishlatar tesha, tabarni" epik formulasi Berdiyor Pirimqul o'g'li kuylagan "Alpomish" dostonida ot egarlash epik klishesida emas, kuzatuv, oq yo'l tilash o'rnida mohirona qo'llanganini aytib o'tish lozim.

Mullalar o'qiydi zer bilan zabar,
Ustaning qo'lida teshaman tabar,
Oy borib, omonda kelgin, farzandim,
Xudoga topshirdim, Ollohu akbar.

Bu barqaror epik formulalarning alohida bir syujetga bog'liq emasligi, lekin xalq baxshilarining epik bilimi va epik xotirasi asosida yotuvchi, badiha qilishga imkon tug'diruvchi poetik qolip ekanligini tasdiqlaydi.

Ot egarlash jarayoni abzallarni ma'lum ketma-ketlikda ot ustiga qo'yilishidan iborat ekanligini aytib o'tgan edik. Diqqatimizni tortgan jihat shundaki, Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan "Shirin bilan Shakar" dostonlarida egardan so'ng ikki uzangi va undan keyin ipak ayil va zarrin dovur, Ergash Jumanbul o'g'lining "Ravshan"dostoni hamda "Avazxon" dostoning Rahmatulla Yusuf o'g'li variantida egardan so'ng ikki uzangi va zarrin dovur undan keyin

ipak ayil qo‘yilsa, Po‘lkan shoir repertuaridagi dostonlarda bu tartib egardan so‘ng, ipak ayil, keyingina uzangilar va dovur tushiriladi. Lekin anjomlarga mos ravishda mazmunan bir-biriga yaqin epik formulalar qo‘llaniladi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Rahmatulla Yusuf o‘g‘li aynan bir xil “El ko‘chirib Olatog‘dan oshirdi, Sirin aytmay dushmanlardan yashirdi” misralaridan foydalangan. Bu ikki baxshi turli dostonchilik maktablari vakillari bo‘lishlariga qaramay, aytish tartibi va qo‘llanilgan epik formulalarning bir xilligini Rahmatulla Yusuf o‘g‘lining savodliligi va Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li repertuaridagi dostonlarning nashrlari bilan tanishish imkoniyati bo‘lganligi bilan izohlash mumkin. Po‘lkan baxshida esa badihago‘ylik natijasida yuqoridagi epik formulaning ikkinchi misrasigina “Aytmay sirni g‘animlardan yashirdi, Boychiborning tuyog‘iga tosh urdi” tarzida qo‘llaniladi. Doston kuylovchilar zarli davurni otning ustiga tashlash qismida ikki mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lmagan epik formulalarni ko‘ramiz.

Bulung‘ur dostonchilik maktabi	Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi		
Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li	Ergash Jumanbulbul o‘g‘li	Po‘lkan baxshi	Rahmatulla Yusuf o‘g‘li
Qishman yoz o‘rtasi hishshay savrdi(r), Yomon odam mudom qilar g‘ovurdi, Lof aytganga botmondan ham ovirdi(r) Bismillo, deb soldi otning ustiga Chochog‘i zumratdan zarli *davir*di.	Bir necha sanamning tishlari durdi, Izlab borar bo‘ldi Zulxumor hurdi, Ot beliga yozib, kerib tashladi, Qimmatbaho zar chochoqli *davir*di..	Bir necha suluvning tishlari durdi, Iymonli qul quchadikan suluvdi, Sildiratib otga yelpib tashladi, Qimmatbaho zar sachoqli *davir*di.	Qishman yoz o‘rtasi hishshay savrdi(r), Lof aytganga botmondan ham ovurdi(r), Bismillo deb soldi otning beliga, Chochog‘i zumratdan zarli *davur*di.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan ot egarlash epik klishesida she’riy parchalar uchlik, to‘rtlik, beshlik shaklida beriladi. Yuqoridagi beshlik a-a-a-b-a tarzida qofiyalanib keladi. Avvalgi uch misra epik klishe bo‘lsa, keyingi ikki misra epik bayondir. Qishman yoz o‘rtasi hishshay savrdi(r), Yomon odam mudom qilar g‘ovurdi, Lof aytganga botmondan ham ovirdi(r) barqaror epik fomulasi uzoq ajdodlarimizning tabiat hodisalari, yil fasllari, taqvim oylari, olam va kishilar faoliyati va ruhiy holatlari yuzasidan olib borgan kuzatishlari haqidagi xulosa va hukmlari sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, uning birinchi misrasi ya’ni “Qishman yoz o‘rtasi hishshay savrdi” epik formulasidagi “hishshay” so‘zi Hodi Zarifning “Murodxon” va “Rustamxon” dostonlariga tuzgan qisqacha lug‘atida “yomg‘irli, rutubatli, nam” tarzida izohlangan”[10.182]. Qadimgi taqvim bo‘yicha, aprel oyining oxiri va may oyining boshlari savr oyi hisoblanadi. Bu oy sovuq kunlarning tugashi va issiq kunlarning boshlanishiga to‘g‘ri keladi. Bu oyda havoning isib ketishi yoki birdan sovuq bo‘lib qolishini kuzatish mumkin. Shu holatni insonlarning fe’l-atvoridagi o‘zgarishlarga qiyoslash mumkin. Epik formuladagi ilk ikki misra ayni shu holatlarning muqoyasa qilinishi natijasida yaratilgan. Uchinchi misrada esa lof, ya’ni yolg‘onning yomon, yuki og‘irligi keltirilib, avvalgi misralar bilan ham shaklan, ham mazmunan uyg‘unlik hosil qilgan. Improvizatsiya natijasida bu epik formula dostonlarning ayrim o‘rinlarda ikkinchi misra tushirilib, “Qishman yoz o‘rtasi hishshay savrdi(r), Lof aytganga botmondan ham ovurdi(r)” shaklida ham foydalaniladi. Asar mazmuni bilan u yoki bu darajada bog‘langan, ayrim hollarda aforizmlik xususiyatiga ega bo‘lgan bunday misralar bandning boshida, ba’zan o‘rtasida kelib, quyilib kelayotgan fikr oqimini mohirlik bilan tezroq bayon qilishda yengillik tug‘diradi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Po‘lkan baxshi davirni sozlash o‘rnini kuylaganlarida “Bir necha suluvning tishlari durdi(r)” misrali barqaror she’riy formula orqali maromida egarlangan tulporni dur tishli sanamga qiyoslab ifodalaydilar.

Ayil anjomini qo‘yilish tasvirida ayil so‘ziga ohangdosh qoyil so‘zi bilan bog‘liq epik formulalar qo‘llaniladi. Bular “Katta-katta bandalarning joyildi , Xudo qilgan ishga banda qoyildi”va “Mard qilgan ishiga eli qoyildi, Eson odam ko‘radi ekan sayildi”. Bu epik formulalarda ham misralar shaklan va mazmunan biri ikkinchisini to‘ldiradi. Ya’ni johil insonlar ko‘p va bu johilliklarning javobini Alloh beradi, bandasi bunga qoyil qoladi mazmunini beradi.

Epik formulalar turg‘un birikmalar sifatida e’tirof etiladi. Ammo ularda barqarorlik doimo saqlanmaydi. Chunki “Xalq kuychisi kollektiv tomonidan yaratilgan asarlarni mexanik tarzda boshidan oxirigacha so‘zma-so‘z aytmaydi, balki ularga ijodiy munosabatda bo‘lib, o‘zidan nimadir qo‘shadi, boyitib boradi” [12.12]

Bulung‘ur dostonchilik maktabi	Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi		
Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li	Rahmatulla Yusuf o‘g‘li	Ergash Jumanbulbul o‘g‘li	Po‘lkan baxshi
Chuv, desang, o‘zadi osmonda qushdan, Hech kamlik bo‘lmasa yo‘rg‘a yurishdan, Bismillo, deb tortdi otning belidan, O‘n sakkiz qubbali chag‘atoy pushtan.	Chuv, desam o‘tadi osmonda qushdan, Hech kamligi yo‘qdi yo‘rg‘a yurishdan, Bismillo, deb tortdi otning belidan, O‘n sakkiz qubbali Chag‘atoy pushtan.	Jonivor kami yo‘q yo‘rg‘a yurishdan, Chu desa, qutular qanotli qushdan, Ot beliga torta berdi bek Ravshan, Pay to‘shab tashlagan chig‘atoy pushtan.	Beklarning abzali ola qayishdan, Yaxshi odam chiqadi ekan bardoshdan. Jangg‘illatib tortdi otning beliga, Poy to‘shab tashlagan chig‘atoy pushtan.

Egarning ot qornidan o‘tkazib bog‘lab qo‘yiladigan tasmasi pushtandir. Pushtan asosiy egar anjomlaridan biri bo‘lib, uning tortib qo‘yilish tasvirida xalq baxshilari, asosan, otning ta’rifi keltirilgan epik formuladan foydalanadilar. Ot abzallashning yakunida otga qirq qubbali yugan, o‘muldiriq, egar oldinga siljimasligi uchun otning dumi tagidan aylantirib egarga bog‘lanadigan bezakli qayish –quyushqon qo‘yildi.

Demak, barqaror epik formula ijodkorni ham, tinglovchini ham epik vaziyat ichiga olib kirish barobarida baxshini jonli ijro jarayonida badeha qilishi uchun metrik va ritmik jihatdan qolip bilan ta’minlaydi. Shu sababli epik formulalardan keyingi misralar ana shu qolip asosida epik axborotni tinglovchiga yetkazadi.

Ot egarlash bilan bog‘liq epik formulalar tarkibida keluvchi an’anaviy sheriy misralarda ot anjomining nomi va unga qofiyadosh bo‘lib keluvchi so‘zga asosan urg‘u berilganligi kuzatiladi va epik formula ifodalovchi mazmun asosiy mazmun bilan bilvosita bog‘liqlik kasb etadi.

An’anaviy epik formulalar epik ijodning tayanch omillaridan biri hisoblanadi. Ular improvizatsiya jarayonida yordamchi vosita vazifasini o‘taydi, quyilib kelayotgan fikr oqimini boshqarishga ko‘maklashadi. Baxshilar epik formulalardan foydalanayotganda yangi ma’lumot, voqeani bayon etishga bir lahza bo‘lsa-da ruhiy tayyorgarlik ko‘radi. Ular epik formulalarning butun bir to‘plamini yodida saqlaydilar va ularni o‘rni bilan mohirona qo‘llaydilar. Buning natijasida epik asar matni har bir aytuvchi tilida yangidan tug‘iladi.

Ma’lum bo‘ladiki, barqaror epik formulalar doston voqealariga, epik bayonga jonlilik beradi, kuchli emotsional ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Ayni paytda epik formulalar qahramonlarning nozik ruhiy kechinmalarini tinglovchilarga yuqtirishda o‘ziga xos kalitlik vazifasini ham ado etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpomish. Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li varianti. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari, yuz jildlik, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
2. Alpomish. Berdiyor Pirimqul o‘g‘li varianti. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari, yuz jildlik, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. Alpomish. Saidmurod Panoh o‘g‘li varianti. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari, yuz jildlik, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Alpomish. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
5. Avazxon. Rahmatulla Yusuf o‘g‘li varianti. Go‘ro‘g‘li – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
6. Malika ayyor. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti. Go‘ro‘g‘li –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
7. Ravshan. Bulbul taronalari. 2-tom. O‘zbekiston “Fan” nashriyoti. 1972-y.
8. Shirin bilan Shakar. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari, yuz jildlik, 5-jild. – Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
9. Mirzaev T. “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968.172-bet.
10. Mirzaev T. Hodi Zarif bilan suhbatlar. Toshkent. Fan, 2011. 182-bet.
11. Mirzayeva S. O‘zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. –Toshkent: O‘z.RFA “Fan” nashriyoti, 2004.
12. Eshonqulov J. Epos va uni tadqiq etish masalalari. O‘zbek folklorshunosligi masalalari, VII kitob. – Toshkent: O‘z.RFA “Fan” nashriyoti, 2018.
13. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq poetik ijodi, – Tosh.: O‘qituvchi, 1990.

Nigora NURMUXAMADOVA,
Farg'ona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti magistri
Dilnora IBROGIMOVA,
Farg'ona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti magistri

AHOLI ORASIDA GELMINTOZLARNI TARQALISHINI OLDINI OLISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya :mazkur maqolada aholida gelmintozlarning tarqalishini oldini olishda axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Axborot texnologiyalari orqali aholini sog'lom turmush tarzi haqida xabardor qilish, kasalliklarning monitoringini olib borish, masofaviy maslahat xizmatlari ko'rsatish va epidemiyalarni oldindan prognozlash mumkinligi ta'kidlanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish va gelmintozlarning profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish mumkin.

Kalit so'zlar: *gelmintoz, axborot texnologiyalari, profilaktika, sog'liqni saqlash tizimi*

Annotation: this article highlights the role and importance of information technologies in preventing the spread of helminthiasis among the population. It emphasizes that information technologies can be used to raise public awareness about a healthy lifestyle, monitor diseases, provide remote consultation services, and predict epidemics in advance. These technologies help improve the efficiency of the healthcare system and strengthen measures aimed at the prevention of helminthiasis.

Key words: *helminthiasis, information technologies, prevention, healthcare system*

Аннотация : в данной статье освещается роль и значение информационных технологий в предотвращении распространения гельминтозов среди населения. Отмечается, что с помощью информационных технологий можно повышать осведомлённость населения о здоровом образе жизни, проводить мониторинг заболеваний, предоставлять дистанционные консультационные услуги и прогнозировать эпидемии заранее. Эти технологии помогают повысить эффективность системы здравоохранения и усилить меры, направленные на профилактику гельминтозов.

Ключевые слова: *гельминтоз, информационные технологии, профилактика, система здравоохранения*

Gelmintozlar – parazitar kasallik bo'lib, ular insonning sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va aholining umumiy turmush darajasini pasaytiradi. Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali ushbu kasalliklarning oldini olish va tarqalishini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining gelmintozlar bilan kurashda tutgan o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Hozirgi kunda axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali kasallikni erta aniqlash va bartaraf qilish yanada osonlashdi.

Axborot texnologiyalaridan to'g'ri va oqilona foydalanishning quyidagi ahamiyati mavjud:

1. Aholini xabardor qilish va profilaktika choralari haqida ma'lumot tarqatish

mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy vebsaytlar orqali aholiga gelmintozlarning oldini olish bo'yicha zarur ma'lumotlarni tarqatish mumkin. SMS va push-xabarnomalar yordamida xavf guruhidagi aholini ogohlantirish katta samara beradi.

2. Monitoring va epidemiologik kuzatuv tizimlari

Elektron sog'liqni saqlash tizimlari orqali shifokorlar bemorlar haqidagi ma'lumotlarni kiritib boradilar, bu esa kasalliklarning tarqalishini real vaqtda kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. GIS texnologiyalari yordamida epidemiologik xavf hududlari aniqlanadi.

3. Masofaviy tibbiy xizmatlar va telemeditsina

Telemeditsina aholiga masofadan tibbiy yordam olish imkoniyatini yaratadi. Chekka hududlarda yashovchi aholi shifokor bilan onlayn maslahat orqali zarur ko'rsatmalarni qabul qilishi mumkin.

4. Kasalliklarni prognozlash va tahlil qilish

Big data va sun'iy intellekt yordamida aholi orasida gelmintozlarning tarqalish tendensiyalari tahlil qilinadi va xavf zonalari oldindan prognoz qilinadi. Bunday prognozlash sog'liqni saqlash tizimining samarali rejalashtirilishini ta'minlaydi.

5. O'quv va profilaktik dasturlarni takomillashtirish

Interaktiv o'quv platformalar va vebinarlar orqali aholiga va tibbiyot xodimlariga kasalliklar profilaktikasi haqida bilim beriladi. Elektron treninglar esa malakani oshirish jarayonini soddalashtiradi.

Aholi orasida gelmintozlarning tarqalishini kamaytirishda axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Bu texnologiyalar nafaqat kasallikning monitoringi va tashxis qo'yishda, balki profilaktika choralari haqida xabardor qilishda ham samaradorlikni oshiradi. Axborot texnologiyalari yordamida sog'liqni

saqlash tizimining sifati va aholining turmush darajasi yaxshilanadi.

Axborot texnologiyalari yordamida sog‘liqni saqlash tizimi kasalliklarning kelgusi holatlarini prognoz qilishi va oldini olish choralarini rejalashtirishi mumkin. Hozirgi rivojlangan davrda biz quyidagi vositalarni ishlatish orqali ushbu kasalikni bartarf qilishimiz mumkin.

Sun’iy intellekt: katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, gelmintozlarning qaysi hududlarda ko‘proq uchrashi haqida oldindan bashorat beradi.

Avtomatlashtirilgan ogohlantirish tizimlari: epidemiologik xavf yuqori bo‘lgan joylarda sog‘liqni saqlash muassasalariga ogohlantirish yuboriladi.

Big Data texnologiyalari: eholi salomatligi bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘plash va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari orqali o‘qituvchilar va tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish uchun interaktiv platformalar va elektron darsliklar taqdim etiladi.

Interaktiv platformalar: talabalar va o‘quvchilar uchun kasalliklarning oldini olish bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

Onlayn vebinarlar: ommaviy axborot vositalari orqali uyushgan holda profilaktika dasturlarini keng targ‘ib qilish.

Elektron treninglar: sog‘liqni saqlash xodimlari uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslarini o‘tkazish.

Gelmintozlarning tarqalishini kamaytirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati katta. Bu texnologiyalar orqali kasalliklarning monitoringi, tashxis qo‘yish, profilaktika choralari to‘g‘risida aholiga tezkor ma’lumot yetkazish va masofaviy tibbiy xizmatlar ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi. Kelajakda sog‘liqni saqlash tizimini yanada raqamlashtirish orqali gelmintozlarga qarshi kurashni samaraliroq tashkil qilish va aholi turmush darajasini yaxshilash mumkin bo‘ladi.

Gelminotozlarning oldini olishda axborot texnologiyalarining roli juda katta va dolzarbdir. Axborot texnologiyalari orqali aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi va shaxsiy gigiyena qoidalari targ‘ib qilinadi, bu esa kasallikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va boshqa raqamli platformalar orqali aholiga gelminotozlar haqida ma’lumot yetkazish samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida gelminotozlarning tarqalishini monitoring qilish va tahlil etish osonlashadi. Hududiy epidemiologik ma’lumotlarni yig‘ish, xavf darajasi yuqori bo‘lgan hududlarni aniqlash va nazorat choralari ko‘rish imkoniyati yaratiladi. Masofaviy tibbiy xizmatlar, ya’ni telemeditsina, qishloq joylarda yashovchi aholi uchun o‘z vaqtida tashxis qo‘yish va davolanish imkonini beradi.Bundan tashqari, axborot texnologiyalari oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, bolalar va katta yoshdagi aholi o‘rtasida gigiyenik odatlarni shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Mobil ilovalar orqali avtomatik eslatmalar, maxsus dasturlar orqali gigiyenik qoidalarni kuzatish va sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash ishlarini olib borish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar sohasida AT vositalari gelmintlarning hayotiy siklini o‘rganish va samarali dorilar yaratishda katta ahamiyatga ega. Natijada, zamonaviy texnologiyalar gelminotozlarning tarqalishini kamaytirish, aholi salomatligini yaxshilash va sog‘lom jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, gelminotozlarga qarshi kurashda axborot texnologiyalarining joriy etilishini kengaytirish zarur bo‘lib, bu sohadagi ishlarni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Gelminotozlarning oldini olish masalasida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kasalliklarning tarqalishini kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalarni qo‘llashning birinchi afzalligi – aholiga tezkor va keng qamrovli ma’lumot yetkazishdir. Mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali gigiyena qoidalari, antiparazitar choralar va profilaktika bo‘yicha materiallarni tarqatish aholining xabardorlik darajasini oshiradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida monitoring va nazorat jarayonlari samaradorligi ortadi. Epidemiologik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, xavf darajasi yuqori bo‘lgan hududlarni aniqlash, aholi orasida qayta kasallanish ehtimolini kamaytirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur. Ushbu jarayon kasallikning tarqalishini oldini olish va nazorat qilishda katta yordam beradi.

Telemeditsina xizmati ham axborot texnologiyalarining muhim sohasi bo‘lib, ayniqsa, uzoq hududlarda yashovchi aholiga maslahat berish, tashxis qo‘yish va davolashga ko‘maklashadi. Bu usul davolash jarayonining o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, axborot texnologiyalari orqali oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish, maktab va bog‘chalarda gigiyena qoidalariga rioya etilishini kuzatish imkoniyatlari kengayadi. Maxsus dasturlar va avtomatik tizimlar yordamida bolalar o‘rtasida gigiyenik tarbiyaga e’tibor qaratish va parazitar kasalliklarning oldini olish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar uchun ham axborot texnologiyalari katta ahamiyatga ega. Genomik tadqiqotlar, yangi antiparazitar dorilarni sinash va samaradorligini baholashda zamonaviy texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Bularning barchasi gelminotozlarni davolash va oldini olish jarayonini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, targ‘ibot kampaniyalarini avtomatlashtirish va aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish axborot texnologiyalarining yana bir afzalligi hisoblanadi. Bu texnologiyalar nafaqat tibbiy ko‘mak,

balki ta’lim va profilaktika choralarini samarali olib borish imkoniyatini ham beradi. Gelminotozlarning oldini olishda axborot texnologiyalarini qo‘llash zamonaviy yondashuv bo‘lib, bu kasalliklarga qarshi kurashishning yangi imkoniyatlarini ochadi. Shu bois, axborot texnologiyalarini keng joriy etish va takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pahlavon Q. TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //GERMANY SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 24-28.
2. Qurbonov P., Ataxonov S., Sharofiddinov S. MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С.43-47.
3. Qurbonov , P., Minavarjonov, S., & Raxmonaliyeva, F. (2023). TIBBIYOT XODIMLARINI MASOFADAN O’QITISHDA AVTOMATLASHGAN DIDAKTIK TA’MINOTNING UMUMIY TUZILISHI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(3), 52–55. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/11562

Internet sites

1. https://clinics.uz
2.https://uz.m.wikipedia.org
3.https://m.facebook.com
4.https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK567796/
5.https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC1123029/



Ziroatxon UBAYDULLAYEVA,
O‘ZMU Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

TA’LIM SOHASIGA DOIR BIRLIKLARNING GIPONIM VA GIPERONIMIK MUNOSABATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada giponim va giperonim tushunchalari hamda ularning tilshunoslikda va ta’lim sohasidagi amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Giperonimlarning kengroq va umumiy tushunchalarini, giponimlarning esa torroq va aniqroq tushunchalarini ifodalash ko‘rsatib berilgan. Giponim va giperonimlarning o‘zaro iyerarxik munosabatlari orqali ta’lim jarayonidagi tushunchalarni tizimlashtirish va darslarni samarali rejalashtirish yo‘llari ochib berilgan. Mazkur yondashuv tilning semantik tizimini, so‘zlarning ma’no tuzilishini va ularning o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *giponim, giperonim, semantika, tilshunoslik, ta’lim jarayoni, tushunchalar iyerarxiyasi, so‘zlarning ma’no tizimi, pedagogika.*

Аннотация: в данной статье анализируются понятия гипонима и гиперонима и их практическое значение в языкознании и образовании. Показано, что гиперонимы обозначают более широкие и общие понятия, а гипонимы — более узкие и конкретные понятия. Через взаимные иерархические отношения гипонимов и гиперонимов выявляются способы систематизации понятий в учебном процессе и эффективного планирования уроков. Такой подход служит более глубокому пониманию семантической системы языка, смысловой структуры слов и их взаимосвязи.

Ключевые слова: *гипоним, гипероним, семантика, языкознание, учебный процесс, иерархия понятий, система значений слов, педагогика.*

Annotation: this article analyzes the concepts of hyponym and hyperonym and their practical significance in linguistics and education. It is shown that hyperonyms represent broader and general concepts, and hyponyms represent narrower and more specific concepts. Through the mutual hierarchical relations of hyponyms and hyperonyms, ways to systematize concepts in the educational process and effectively plan lessons are revealed. This approach serves a deeper understanding of the semantic system of the language, the meaning structure of words and their interrelationship.

Key words: *Hyponym, hyperonym, semantics, linguistics, educational process, hierarchy of concepts, meaning system of words, pedagogy.*

Kirish.

Biror mavzuga doir leksik birliklarni o‘rganishda tilshunoslikdagi maydon nazariyasiga murojaat qilish yaxshi samara beradi. Maydon nazariyasiga ko‘ra, til birliklari o‘rtasida paradigmatik, sintagmatik, iyerarxik munosabatlar mavjud bo‘lib, bir paradigmaga mansub birliklar o‘rtasida ham butun-qism, tur-jins, o‘xshashlik, zidlik munosabatlari mavjud bo‘ladi. Biz mazkur maqolada “ta’lim” semantik maydoniga tegishli leksik birliklarni tahlilga tortdik. Tahlil natijalari sistem-struktur tilshunoslik tamoyillari asosida ideografik lug‘at tuzish, so‘zlarni semantik tasniflashda ham amaliy jihatdan asqotishi mumkin.

Struktur tilshunoslikda leksik-mazmuniy guruhlar markazidagi lug‘aviy birliklarning o‘zaro munosabatini aniqlash masalasi muhim o‘rinlardan birini egallaydi. Mazmuniy aloqa turlariga sinonimiya, antonimiya, giponimiya, partonimiya, graduonimiya, funksionimiya, iyerarxonimiya kabilar kiritiladi. O‘zbek tilshunosligida til birliklarining sistemaviy tabiati H.Ne’matov, A.Nurmonov, Sh. Iskandarova, A.Sobirov, X.Xayrullayev va boshqalar tomonidan monografik tadqiq etilgan.

Asosiy qism.

Giponim va giperonim tushunchalari tilshunoslikda, xususan, semantika (so‘zlar ma'nosi) va leksikologiya (so‘zlar tizimi) sohalarida muhim ahamiyatga ega. Bu tushunchalar so‘zlar o‘rtasidagi ma'no bog‘liqligini, ularning iyerarxik munosabatlarini tushunishga yordam beradi. Giponim va giperonimlar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish, nafaqat tilni, balki uning qanday ishlashini va so‘zlarning semantik tizimlarini o‘rganishda ham muhimdir. Ushbu maqolada giponim va giperonim tushunchalarining mohiyati, ularning farqlari va amaliy ahamiyati batafsil yoritiladi.

Giperonim (yunoncha hyper — "yuqori", onoma — "ism") kengroq, umumiy tushunchani bildiradi. Bu so‘z yoki atama bir nechta boshqa so‘zlar yoki tushunchalar uchun umumiy ma'noni ifodalaydi. Giperonim, o‘z navbatida, boshqa, torroq yoki konkret tushunchalarni qamrab oladi. Giperonimning ma'nosi kengroq bo‘lib, uni giponimlar orqali aniqroq va torroq tushunchalar shaklida ifodalash mumkin. [1]

Ta'lim (giperonim)

- Maktab (giponim)
- Universitet (giponim)
- Kollej (giponim)
- Dars(giponim)

Buyerda "ta'lim" so‘zi umumiy tushuncha bo‘lib, "maktab", "universitet", "kolledj", va "dars" kabi konkret tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

. Ta'lim jarayoni (giperonim)

- O'qituvchining faoliyati (giponim)
- O'quvchilarni baholash (giponim)
- Ta'lim metodlari (giponim)

Bu yerda "ta'lim jarayoni" so‘zi umumiy atama bo‘lib, o‘qituvchi faoliyati, baholash tizimi va metodik yondashuvlar kabi konkret faoliyat va tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Giponim (yunoncha hypo — "past", onoma — "ism") — bu giperonimning torroq yoki maxsus shakli. Giponim o‘z ma'nosiga ko‘ra, giperonimga nisbatan aniqroq, cheklangan va konkret tushunchani bildiradi. Giponimlar kengroq tushunchaning ma'lum bir holatini yoki turini ifodalaydi. [2]

Pedagogika (giperonim)

- Ta'lim metodlari (giponim): Ta'lim metodlari — o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini amalga oshirishda qo‘llaniladigan usullar va yondashuvlar.
- Ta'lim psixologiyasi (giponim): Ta'lim psixologiyasi — o‘quvchilarning psixologik rivojlanishini o‘rganadigan fan.
- Darsliklar (giponim): Darsliklar — o‘quvchilarga o‘qitilayotgan mavzu bo‘yicha bilim berish uchun mo‘ljallangan kitoblar.

Pedagogika umumiy tushuncha sifatida ta'lim jarayonlarini ilmiy jihatdan o‘rganish bilan bog‘liq barcha sohalarni qamrab oladi. Uning tarkibida ta'lim metodlari, ta'lim psixologiyasi va darsliklar kabi giponimlar mavjud.

O‘qitish jarayoni (giperonim)

- Dars (giponim): Dars — o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni o‘rgatish uchun o‘tkaziladigan maxsus mashg‘ulot.
- Baholash (giponim): Baholash — o‘quvchilarning bilimini aniqlash va qiymatlash uchun o‘tkaziladigan jarayon.
- O‘qituvchi faoliyati (giponim): O‘qituvchi faoliyati — o‘qituvchi tomonidan ta'limni tashkil etish va o‘quvchilarni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan harakatlar.

O‘qitish jarayoni giperonimi ta'limning o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi, masalan, dars o‘tish, baholash va o‘qituvchi faoliyatini. Dars, baholash, va o‘qituvchi faoliyati bu jarayonlarning konkret qismlarini tashkil etadi.

Giperonimlarning giponimlari o‘rtasidagi munosabatlar so‘zlarning ma'no tizimida tabiiy iyerarxiyani yaratadi. Ushbu munosabatlar tilshunoslarga so‘zlarning o‘zaro aloqalarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Giperonim va giponimlar o‘rtasidagi farqlarni yaxshiroq tushunish uchun ularning iyerarxik munosabatlarini ko‘rib chiqish muhimdir.

Giperonimning umumiylik xususiyati: Giperonimlar kengroq va umumiy tushunchalar bo‘lib, ular ma'lum bir kategoriyani, guruhni yoki sinfni bildiradi. Masalan, "o‘qitish jarayoni" so‘zi ta’limning o‘qituvchi va o‘quvchi ortasidagi barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi,masalan, dars o‘tish, baholash va o‘qituvchi faoliyati. Dars, baholash, va o‘qituvchi faoliyati bu jarayonlarning konkret qismlarini tashkil etadi.

Giponimning xususiylik jihati: Giponimlar aniqroq, cheklangan tushunchalarni bildiradi. Ular ,aslida, giperonimlarning o‘ziga xos va maxsus shakllaridir. Boshqacha aytganda, giponimlar giperonimning turli nomlanishlarini yoki turli qismlarini aks ettiradi. Masalan, "O‘quvchilarning rivojlanishi" (giperonim) turli rivojlanishlarni o‘z ichiga oladi, masalan, "Intellektual rivojlanish", "Ijtimoiy rivojlanish", “Emotsional rivojlanish " kabi giponimlar.

Iyerarxik munosabatlar: Giponim va giperonimlar o‘rtasidagi munosabatlar iyerarxik bo‘lib, ular bir-birining to‘ldiruvchi qismlari sifatida mavjud bo‘ladi. Giperonimlar kengroq va umumiy tushunchalarni ifodalasa, giponimlar ularning maxsus, torroq shakllarini bildiradi. Bu tizim so‘zlarning ma'nosini tartibga solishga, tilni va uning foydalanish jarayonlari nio‘rganishgayordamberadi. [3]

Giponim va giperonim munosabatlarini o‘rganish nafaqat tilshunoslikda, balki ta'lim sohasida ham muhim rol o‘ynaydi. Ta'lim jarayonida giponimlar va giperonimlar orqali o‘quvchilarga tushunchalarni aniq va tizimli tarzda taqdim etish mumkin.

1. Tushunchalarni tizimlashtirish: Ta'limda giponim va giperonimlar yordamida o‘quv materiallarini tizimlashtirish mumkin. Masalan, biologiya darslarida "hayvon" (giperonim) so‘zi orqali turli xil hayvonlar (it, mushuk, quyon) haqida ma'lumot berish mumkin. Shu bilan birga, "meva" (giperonim) tushunchasi orqali "olma", "gilos", "nok" kabi konkret mevalarni o‘rgatish mumkin.

2. Darslarni rejalashtirish: O‘qituvchi darsni o‘tkazishda giponim va giperonimlardan foydalanib, ta'lim jarayonini yanada aniqroq tashkil etishi mumkin. Masalan, "ta'lim" (giperonim) haqida gapirganda, o‘qituvchi maktab, universitet, kollej kabi giponimlarni alohida o‘rganish orqali ta'limning turli shakllarini o‘quvchilarga tushuntiradi.

3. leksik xususiyatlarni o‘rganish: Giponimlar va giperonimlar yordamida o‘quvchilarga so‘z boyligini kengaytirish, so‘zlarning semantik muammolarini o‘rganish, va ularning o‘zaro aloqalarini ko‘rsatish mumkin.

Giperonim va giponim munosabatlari tilshunoslikda so‘zlar ma'nosini tahlil qilish va tizimlashtirishda juda muhimdir. Bu munosabatlar so‘zlarning semantik tuzilishini tushunishda yordam beradi. Shuningdek, giponim va giperonimlar leksikologiyada so‘zlar o‘rtasidagi iyerarxik bog‘liqlikni va o‘zaro o‘xshashliklarni ko‘rsatadi. [4]

Semantik tahlil: giponim va giperonimlar yordamida so‘zlarning ma'no doiralarini aniqlash mumkin. So‘zlarning semantik tizimi va ularning o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish, tilning ishlashini o‘rganish uchun muhimdir.

Leksik struktura: giponim va giperonimlar o‘rtasidagi munosabatlar, tilning leksik strukturasini tashkil qiladi. Bu munosabatlar tilni tizimli tarzda o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Giponim va giperonimlar tilshunoslik va semantika sohasidagi asosiy tushunchalardan bo‘lib, so‘zlar o‘rtasidagi ma'no bog‘liqligini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Giperonimlar kengroq tushunchalarni, giponimlar esa bu tushunchalarning aniqroq shakllarini ifodalaydi. Ta'lim va ilm-fan sohalarida ushbu munosabatlarni tahlil qilish, so‘zlarning ma'no tizimini va ularning o‘zaro aloqalarini tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyeva, F. (2023). Ta'lim metodikasida giponim va giperonimlardan foydalanish. O‘zbekiston ta'limi jurnali, 15(1), 12-19.

2. Cruse, D. A. (2000). Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. Oxford University Press.

3. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув.– Тошкент: Фан, 2007. Б.32; Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент. 1999.

4. Larson, M. L. (1984). Meaning and Syntax: A Study in the Semantic Domain. MIT Press.

5. Lyons, J. (1977). Semantics. Cambridge University Press.

